

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

**M.H. RUSTAMBOYEV, U.A. TUXTASHEVA**

---

---

# **SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR**

---

---

## **Darslik**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan 5240100-yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha  
bakalavriat talabalari uchun darslik sifatida  
tavsiya etilgan*

УДК 342.56 (575.1)

ББК 67.71 (50)1


R92

*Yuridik muhoza*

Darslik «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani bo'yicha o'quv dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va zamonaviy adabiyot tahlili asosida tayyorlangan. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining predmeti, asosiy tushunchalar va tizimi; O'zbekiston Respublikasida Adliya vazirligi, sudlarning faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash; prokuror nazorati va dastlabki tergov organlari; huquqiy yordamni ta'minlash organlari, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining tashkil etilishi kabi masalalar ochib berilgan.

Darslik yuridik oliy o'quv yurtlari va fakultetlari talabalari, aspirantlar, ilmiy xodimlar va o'qituvchilar, shuningdek, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun mo'ljallangan.

*Taqrizchilar:* **B.H. PO'LATOV** — yuridik fanlar doktori, professor; **Z.F. INOG'OMJONOVA** — yuridik fanlar doktori, professor.



*10-39602  
381*

ISBN 978-9943-16-054-5

© M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva.  
© Toshkent Davlat yuridik instituti, 2012-y.  
© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2012-y.



## KIRISH

Yuridik oliy o'quv yurtida o'qitiladigan «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani sudlarda, ichki ishlar va prokuratura organlarida, advokaturada va boshqalarda ishlash uchun yuqori malakali mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik poydevorini barpo etuvchi maxsus fanlardan hisoblanadi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqidagi bilimlarga ega bo'lish huquqiy fanlarni anglagan holda va chuqur o'zlashtirish maqsadida talaba uchun ham, keyinchalik kasbiy faoliyatda foydalanish maqsadida bo'lajak yurist uchun ham zarurdir.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» o'quv fanining maqsadi talabalarda sud hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqida aniq tasavvur shakllantirishdan iborat. Asosiy e'tibor sudlarga qaratiladi, chunki mazkur organlarga ularni hokimiyatning mustaqil tarmog'i sifatida nomlanishga imkon beradigan vakolatlar majmuyi taqdim etilgan. Sud hokimiyati va huquqni muhofaza qilish faoliyati, uning asosiy yo'nalishlari, konstitutsiyaviy nazorat, odil sudlov va uni amalga oshiruvchi organlar, sudlarning ichki tashkil etilishi va vakolatlari, prokuror nazorati va prokuratura, jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish, advokatura va yuridik yordam ko'rsatishning boshqa shakllari haqida eng asosiy bilimlar o'quv fanining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mantiqiy fikrlash malakalarini shakllantirish, o'quv kursining asosiy nazariy qoidalarini mustahkamlash, talabalarda qonunchilikni qo'llash bo'yicha amaliy malakalarni shakllantirish mazkur fanning vazifalari hisoblanadi. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining o'rganish predmeti turli muammolarni, jumladan, sud hokimiyatining tashkil etilishi, xususan, umumiy yurisdiksiya sudlarining, ya'ni fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, harbiy sudlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining, O'zbekiston Respublikasining xo'jalik sudlarining, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining ishini tashkil etish va ushbu sudlarning vakolatlari, prokuratura organlarining,

surishtiruv va dastlabki tergov organlarining faoliyati, shuningdek, yuridik yordam ko'rsatishni tashkil etish muammolarini o'rganishdir.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanini o'zlashtirish quyidagilarga yo'naltirilgan:

- sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkil etilishiga oid asosiy tushunchalar; sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolatlarining o'ziga xos xususiyatlari; odil sudlov va uning demokratik asoslari; Adliya vazirligi va uning tarkibiy tuzilmalari; prokuror nazoratining tushunchasi va mazmuni; surishtiruv va dastlabki tergov organlari faoliyatining tashkil etilishi; advokatlik faoliyatining tushunchasi va belgilari; xorijiy mamlakatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida bilimlarni shakllantirish;

- sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining huquqiy asoslarini, ularning asosiy yo'nalishlarini va faoliyat prinsiplarini o'zlashtirish.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanini o'rganish borasida umumiy ta'lim («Davlat va huquq nazariyasi», «O'zbekiston davlat va huquq tarixi», «O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi», «Fuqarolik huquqi», «Ma'muriy huquq», «Jinoyat protsessual huquqi» va boshq.) va maxsus («Jinoyat-ijroiya huquqi», «Inson huquqlari», «Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi» va boshq.) fanlari bo'yicha bilimlarga ega bo'lish shart.

O'zining mazmuni bo'yicha «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» o'quv kursi boshqa o'quv fanlar o'rtasida axborot jihatidan eng mazmundor va to'liqdir. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimining murakkab tuzilishi va turli xil vazifalarining huquqiy jihatlarini o'zlashtirish kursning asosiy tushunchalarini, huquqni muhofaza qilishda ishtirok etadigan davlat va nodavlat tuzilmalarning maqomini to'liq aniqlashtirishni, bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni bilishni taqozo qiladi, shunday qilib, talabalar ko'p hujjatlarni, turli o'quv adabiyotlarni o'rganishlari shart. Shuning uchun o'qituvchilar va o'quv adabiyotining mualliflari oldida materialni maksimal oqilona va talabalar o'zlashtirishi uchun uslubiy jihatdan soddalashtirilgan holda yetkazish vazifasi turibdi.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti doirasida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining tashkil etilishi, huquqiy asoslarini takomillashtirishga yo'naltirilgan asoslariga

qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar uzluksiz qabul qilinayotganligi hamda yangilanayotganligi o'quv kursini o'rganishda muayyan qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Darslik mualliflari qayd etilgan holatlarni inobatga olib, talabalar tomonidan to'liq o'zlashtirish vazifasiga javob beradigan va qonunchilikda oxirgi o'zgartirishlarning tahliliga asoslangan o'quv materialini tayyorlashga harakat qilishdi. Materialning tushuni-lishini osonlashtirish maqsadida, kursning turli masalalarini muhokama qilishda ilmiy muzokaralar maqsadga muvofiq bo'lgan minimumgacha qisqartirilgan. O'quv materialning talabalar tomonidan yaxshiroq o'zlashtirilishi uchun darslikning har bir bobida asosiy o'quv maqsadlari, mavzu bo'yicha xulosalar aks ettirilgan. Mustaqil ish uchun keltirilgan nazorat savollari va topshiriqlar talabalarda tanqidiy fikrlashni hamda normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunini tahlil qilish malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, darslikda o'quv materialini o'zlashtirishga va mustahkamlashga yordam berishga yo'naltirilgan o'z-o'zini nazorat qilish uchun test topshiriqlari berilgan.

Mualliflar foydalangan normativ-huquqiy materiallar 2011-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kiritilgan oxirgi o'zgartirishlarni hisobga oladi.



# I bo'lim

## UMUMIY QOIDALAR

### 1-bob. «SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR» FANINING PREDMETI, ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TIZIMI

#### O'quv maqsadlari

*Materialning o'zlashtirilishi jarayonida talabalar «sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati», «huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kabi tushunchalarning mazmuni nimadan iboratligini, mazkur tushunchalarning o'zaro aloqasi va farqlarini aniq anglab yetishlari shart. Buning uchun ko'rib chiqilayotgan tushunchalarning har birini qaysi muhim belgilar ta'riflayotganligini bilish lozim. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy vazifalarini yuzaga keltiruvchi huquqni muhofaza qilish faoliyatining maqsadlariga e'tibor qaratish kerak.*

#### 1.1. Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi quyidagi asosiy qoidalarni mustahkamlaydi:

- O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi;

- davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

• O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi.

Umuman olganda, ta’kidlab o‘tish kerakki, davlatning tinch, ijodkor hayotni ta’minlashga yo‘naltirilgan Konstitutsiyaning ushbu va boshqa qoidalari davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning asosiy vazifalaridan biridir. Albatta, faoliyat turiga qarab, davlat organlari boshqa vazifalarni ham bajaradi. Davlat organlari iqtisodiyotning ishlab turishini ta’minlash, tashqi siyosatni amalga oshirish, fan, ta’lim, madaniyatning rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish, mudofaa salohiyatini saqlash va h.k.lar bilan bog‘liq turli muammolarni hal qiladi. Barcha davlat organlari, o‘zining asosiy vazifalarini amalga oshirish borasida, bundan tashqari, huquq-tartibotni va qonuniylikni ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat-nodavlat tashkilotlarining, mehnat jamoalarining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, jinoyatlar va boshqa qonunbuzarliklar bilan kurash bo‘yicha huquqni muhofaza qilish vazifalar hamda vakolatlarining katta hajmini bajarishadi.

Biroq, yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarning amalga oshirilishi demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning garovi bo‘lganligini inobatga olgan holda ularning hal qilinishi sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirish orqali ham ta’minlanadi. Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ham e’tiborni qaratadi, uning so‘zlariga ko‘ra, fuqarolarning qonuniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish **sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining** faoliyatida asosiy mazmunga aylanmog‘i kerak<sup>1</sup>.

Biroq, «sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati» tushunchasi nimani bildiradi?

Ushbu tushuncha bilan jismoniy, yuridik shaxslarning va umuman davlatning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan davlat faoliyatini, shuningdek, maxsus vakolatli organlar tomonidan qonunga muvofiq va unda belgilangan tartibga so‘zsiy rioya qilgan holda yuridik ta’sir choralarini ko‘rish orqali qonuniylikni va huquq-tartibotni ta’minlashni atashadi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. (Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida so‘zlangan nutq, 1996-yil 29-avgust.) Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. T., «O‘zbekiston», 1998, 127-bet.

**Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati** — maxsus vakolatli organlarning jismoniy, yuridik shaxslar va umuman davlatning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek, qonunga muvofiq va unda belgilangan tartibga soʻzsiz rioya qilgan holda yuridik taʼsir choralari koʻrish orqali qonuniylikni va huquq-tartibotni taʼminlashga yoʻnaltirilgan faoliyati.

Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati tushunchasining tahlili mazkur faoliyatni taʼriflaydigan quyidagi asosiy belgilarni ajratishga imkon beradi:

1. *Ushbu faoliyat maxsus vakolatlarga ega boʻlgan organlar — sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.* Mazkur organlar doirasida **sud** alohida oʻringa ega. Qayd etilgan holat sud oʻz tabiati boʻyicha davlat hokimiyatining mustaqil tarmogʻi boʻlganligi bilan bogʻliq, mazkur qoida esa konstitutsiyaviy darajada oʻz aksini topgan (Konstitutsiyaning 11-moddasiga qarang).

Bundan tashqari, sudning huquqni muhofaza qiluvchi organlar doirasidan ajratilishining yana bitta sababi sudning faoliyati mazmunidir. «Sudlar toʻgʻrisida»gi Qonunga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasida sud Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro hujjatlarda eʼlon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini sud yoʻli bilan himoya qilishga daʼvat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini taʼminlashga qaratilgan.

Sud organlarining tizimini quyidagilar tashkil etadilar: Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari boʻyicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari boʻyicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari boʻyicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari boʻyicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi xoʻjalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xoʻjalik sudlari<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Sud organlarining tashkil etilishi va faoliyatiga oid masalalar keyingi mavzularda bevosita ochib berilgan.

**Huquqni muhofaza qiluvchi organlar** — qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilish, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashdan iborat bo'lgan asosiy vazifasini bajaradigan maxsus vakolatli organlar.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'zining aniq vazifalariga ega bo'lgan va kasbiy faoliyat belgisi bo'yicha muayyan tarzda ajratilgan davlat organlarining mustaqil guruhini tashkil etishi haqida fikr mavjud<sup>1</sup>.

*Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlar* qatoriga quyidagilar kiritiladi: prokuratura, ichki ishlar organlari, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, adliya organlari<sup>2</sup>. Mazkur organlarni qonuniylikni mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurash kabi vazifa birlashtiradi.

Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kadrlar tarkibi tegishli ravishda tayyorlangan xizmatchilar bilan to'ldiriladi. Ushbu shaxslar, qoida tariqasida, yuridik ma'lumotga ega bo'lishi shart. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkil etilishi va faoliyati qonun hujjatlari bilan, shu jumladan, eng mas'ul masalalarni hal qilish uchun alohida tartib-taomil (protsessual) qoidalarini o'rnatish orqali batafsil va har tomonlama tartibga solinadi. Qayd etilganlar majmuasi ko'rsatib o'tilgan organlar tomonidan huquqlarni sodir etilgan yoki mo'ljallanayotgan buzilishlardan himoya qilishga yo'naltirilgan yuridik ta'sir choralarini qo'llash to'g'risida qabul qilinadigan qarorlarning tezkorligi, asosliligi, qonuniyligi va adolatliligini ta'minlashga qaratilgan.

2. *Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining maqsadi.* Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati huquq, shaxs, jamiyat va davlatni jinoiy va boshqa tajovuzlardan himoya qilishga yo'naltirilgan.

3. *Faoliyatning qonunga qat'iy muvofiqligi.* Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati qonunda belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Huquqni muhofaza qilish muayyan choralarni qo'llash yoki qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilishda vakolatli organ (mansabdor shaxs) tegishli holat uchun qonunda nazarda tutilgan ayrim qoidalarga, jinoyat yoki fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalariga, surishtiruv va dastlabki tergovni yuritish qoidalariga va h.k.larga rioya etishi shart. Davlat organlari va mansabdor

---

<sup>1</sup> Правоохранительные органы Российской Федерации. Под редакцией В.П. Божьева. М., «Спарк», 2001, стр. 17.

<sup>2</sup> Sanab o'tilgan organlarning har biri alohida mavzularda ko'rib chiqilgan.

shaxslar tomonidan o'zboshimchalik bilan tegishli xatti-harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda qonun talablarini buzish intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lishi mumkin. Protsessual shakli deganda, protsessual qonun tomonidan o'rnatilgan, umuman, ishni yuritish tartibi, shuningdek, ayrim harakatlarning amalga oshirish shartlari, ularning oldin-keyinligi, tartibi tushuniladi.

4. *Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida davlat majburlov choralari yoki yuridik ta'sir choralari qo'llash.* Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati davlat majburlov choralari yoxud jazo hamda boshqa yuridik ta'sir choralari qo'llash orqali amalga oshiriladi. Masalan, agarda jinoyat sodir etilsa, jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jazo yoki qonunda belgilangan boshqa ta'sir chorasi tayinlanishi mumkin; agarda jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmaydigan mulkiy ziyon yetkazilsa, mazkur ziyonni undirish majburiyati yuklatilishi mumkin; agarda tuzilgan shartnoma bo'yicha ayrim buyumni tayyorlash yoki ayrim xizmatlarni ko'rsatish to'g'risida majburiyat bajarilmagan bo'lsa, mulkiy sanksiya qo'llanilishi mumkin; agarda shaxs avtomashinani mast holda boshqargan bo'lsa, uni haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilish mumkin va h.k. Yuridik ta'sir choralari orasida g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish choralariga, belgilangan doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ushbu xatti-harakatlarning profilaktikasiga muhim o'rin ajratiladi.

5. *Yuridik ta'sir choralari qonunga qat'iy rioya qilgan holda qo'llaniladi,* qonun ushbu choralar qo'llanilishining asoslarini ham, muayyan holatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aniq choralarni ham belgilaydi. Ushbu ta'sir choralari qo'llayotgan organ yoki mansabdor shaxs tegishli ko'rsatmalarni aniq bajarishi shart. Masalan, agar qonun bo'yicha birinchi marta sodir etilgan bezorilik uchun eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq belgilangan bo'lsa, mazkur jazo faqat ushbu doirada qo'llanilishi mumkin.

6. *Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar qarorlarining majburiyligi.* Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qonuniy va asoslangan qarorlar fuqarolar, jamoat birlashmalari, tashkilotlar, muassasalar va boshqalar tomonidan ijro etilishi shart. Ushbu qarorlarni ijro etmaslik qo'shimcha javobgarlikka tortishga sabab bo'lgan mustaqil huquqbuzarlikni tashkil etadi.



*Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining belgilari*

1) ushbu faoliyat maxsus vakolatlarga ega bo'lgan sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi;

2) sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati huquq, shaxs, jamiyat va davlatni jinoiy va boshqa tajovuzlardan himoya qilishga yo'naltirilgan;

3) faoliyatning qonunga qat'iy muvofiqligi;

4) sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida davlat majburlov choralarini yoki yuridik ta'sir choralarini qo'llash;

5) yuridik ta'sir choralarini qonunga qat'iy rioya qilgan holda qo'llaniladi, qonun ushbu choralar qo'llanilishining asoslarini ham, muayyan holatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aniq choralarini ham belgilaydi;

6) sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar qarorlarining majburiyligi.

Ta'kidlash lozimki, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning doirasi yoki tizimi yuzasidan yuridik adabiyotda fikrlarning birligi mavjud emas. Agar sud, prokuratura, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, adliya organlarining ko'rsatilgan organlar qatoriga kirishiga shubhalar yo'q bo'lsa, advokatura, notariat, hakamlik sudi kabi organlarning sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar toifasiga kiritilishi munozaralidir.

*Birinchi*dan, umumiy qoida bo'yicha sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatoriga faqat davlat organlari kiradi. Ma'lumki, advokatura va hakamlik sudi davlat organi emas.

*Ikkinchi*dan, sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining vazifalari advokatura va hakamlik sudining bevosita vazifalari hisoblanmaydi.

*Uchinchi*dan, advokatura va hakamlik sudining faoliyati davlat majburlov yoki yuridik ta'sir choralarining qo'llanilishi bilan bog'liq emas.

Biroq, qayd etilgan organlarning vazifalari va faoliyatini o'rganish natijalari ularning faoliyati sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan vazifalarga nisbatan yordamchi faoliyat ekanligi haqida xulosa qilishga imkon beradi.

Xususan, «Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga ko'ra, advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq-erkinliklarini himoya qilish maqsadida har bir shaxs tomonidan malakali yuridik yordam olish vazifasining advokatura tomonidan bajarilishi shu darajada muhimki, advokatning yo'qligi sud, tergov organi, prokurorning faoliyatini qiyinlashtirib qo'yishi mumkin. Buning ustiga, advokatning yo'qligi ayrim hollarda qonun buzilishi sifatida baholanishi va sud qarorining bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin (JPKning 487-moddasi). Shu munosabat bilan, advokaturaning tashkil etilishi va faoliyati masalalari ham mazkur fan doirasida o'rganilmoqda.

«Notariat to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida notariatning vazifasi jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini notariuslar tomonidan qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan himoya qilishni ta'minlashdan iboratdir. Shaxslar huquq va majburiyatlarining o'zgarganida, mavjud bo'lgan huquqlarni tiklash va tasdiqlash zarurati vujudga kelganda, yo'qolgan yoki o'lgan shaxslar xohish-irodasining amalga oshirilishida notariatning huquqni muhofaza qilish faoliyati boshlanadi. Ya'ni mazkur faoliyat fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini tasdiqlash yoki tiklash uchun notarial idoralarga murojaat qilishga majbur bo'lganlarida boshlanadi. Ushbu hollarda notariatning ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish faoliyati huquqni muhofaza qiluvchi tusga ega bo'lib qoladi, shuningdek, ushbu faoliyat umumdavlat ahamiyatga ega. Shu sababli, notariat ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga kiritilgan va mazkur fan doirasida o'rganilmoqda.

«Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasiga asosan, hakamlik sudlari fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi xo'jalik nizolarini hal etadi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 10-moddasi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 16-oktabrdagi «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2006-yil 17-oktabr; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 42, 416-modda.

1-qismiga binoan, hakamlik sudi xo'jalik sudi bilan bir qatorda, buzilgan yoki nizolashilgan fuqarolik huquqlarini himoya qiladigan organ sifatida belgilangan. «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunning 50-moddasiga muvofiq, hakamlik sudining ixtiyoriy ijro etilmagan hal qiluv qarori vakolatli sud (xo'jalik sudi yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sud) bergan ijro varaqasi asosida majburiy ijro etilishi kerak. Nihoyat, ko'rsatilgan Qonun 32-moddasining qoidalari bo'yicha hakamlik sudi nizo predmetiga nisbatan ta'minlovchi choralarni ko'rishga haqli, vakolatli sud esa hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlashning majburiy choralarni ko'rishi mumkin.

Bu shuni anglatadiki, hakamlik sudi Qonun hamda o'zлари uchun davlat odil sudlovidan voz kechishni va hakamlik bitimida mulkiy nizoni hal qilish uchun tegishli hakamlik sudiga murojaat qilishni ixtiyoriy ravishda nazarda tutgan taraflarning xohish-irodasi tomonidan belgilanadigan doirada odil sudlovni amalga oshiradi. Hakamlik bitimining taraflari uchun hakamlik muhokamasining majburiyligi ushbu shaxslar tomonidan odil sudlovga murojaat qilishni rad qilish yoki ularning o'z mulkiy manfaatlarini sud orqali himoya qilish konstitutsiyaviy huquqidan voz kechishi emas.

Shu bilan birga, hakamlik muhokamasi shakldagi sud himoyasi o'ziga xos muhim xususiyatlariga ega bo'lishi shubhasiz. Hakamlik sudlari, nafaqat, davlat organlari va davlat odil sudlov tizimiga kirmaydi, balki, umuman tom ma'nodagi tashkilotlar sifatida e'tirof etilmaydi va muayyan, ayniqsa, iyerarxiya tizimini tashkil etmaydi. Shuning uchun hakamlik sudlari davlat ro'yxatidan va umuman, bevosita davlat nazoratidan o'tkazilmaydi, ularning qarorlari yuzasidan nizolashish hollari bundan mustasno (adabiyotda ko'rsatib o'tilganidek, shu sababli, qonun chiqaruvchi mazkur jarayonni belgilash uchun kassatsiya yoki apellatsiya instansiyalarida ishni qayta ko'rishni nazarda tutgan «shikoyat qilish» tushunchasidan emas, balki aynan «nizolashish» tushunchasidan foydalanadi).

Shunday qilib, hakamlik sudlari (doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari ham, muvaqqat hakamlik sudlari ham) yuridik va jismoniy shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi hamda vakolatlari ularni tashkil etgan taraflarning xohish-irodasiga asoslangan maxsus yurisdikcion organlaridir. Shu bilan birga, mazkur vakolatlar qonun bilan cheklangan: «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasiga binoan, hakamlik sudlari ma'muriy, oila va mehnat huquqiy

munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa nizolarni hal etmaydi.

Hakamlik sudlarining qarorlari faqat tegishli nizoning taraflari uchun majburiydir va faqat ularning o'zaro huquq-majburiyatlariga taalluqlidir (chunki hakamlik sudining vakolatlari aslida ularning xohish-irodasiga asoslangan), biroq, ular uchinchi shaxslar, ayniqsa, davlat organlari uchun ayrim majburiy yuridik oqibatlarini vujudga keltirishi mumkin emas.

Xulosada ta'kidlash joizki, sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni ular har bittasining faoliyati fuqarolar, yuridik shaxslar va umuman, davlatning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilganligi birlashtiradi. Aniq vazifalar va uslublar bilan esa ular bir-biridan farq qiladi.

## **1.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlari (funktsiyalari) va uni amalga oshiruvchi organlarning umumiy ta'rifi**

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkil etilishini, tuzilishini va vakolatlarini, birinchi navbatda, ularga yuklatilgan funktsiyalar belgilaydi. Umumiy ko'rinishda funktsiyalar — bu ayrim bir organ yoki tashkilot faoliyatining asosiy, bosh yo'nalishlari.

Funktsiyalar davlat organi faoliyatining eng muhim xususiyatlarini belgilaydi va uning asosiy maqsadlarini amalga oshirishga ko'maklashadi. Ta'kidlash lozimki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning funktsiyalariga oid masalalar munozarali tusga egadir (olimlar tomonidan huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning turli doiralari va tegishincha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning turli funktsiyalari ajratiladi)<sup>1</sup>.

**Konstitutsiyaviy nazorat** — bu davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy ko'rsatmalarga zid bo'lgan huquqiy hujjatlarini va xatti-harakatlarini aniqlash, shuningdek, aniqlangan chetga chiqishlarni bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rish orqali Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlashga qaratilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining funktsiyasi. Konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish funktsiyasi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi ho-

---

<sup>1</sup> *А.П. Рыжаков.* Правоохранительные органы. М., «Контракт», 2001, стр. 1—2; *Б.Н. Габричадзе, Б.П. Елисеев, А.Г. Чернявский и др.* Правоохранительные органы Российской Федерации. Учебно-справочное пособие. М., «Дело и Сервис», 2002, стр. 19—21.

## • Yodda saqlang! •

### *Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy funksiyalari*

- konstitutsiyaviy nazorat;
- odil sudlov;
- sud qarorlarini ijro etish;
- sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash;
- prokuror nazorati;
- jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish;
- jinoyat ishlari bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish va himoya qilish.

kimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radigan sud hokimiyati organi hisoblanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi zimmasiga yuklatilgan.

**Odil sudlov** deganda, qonunga va u bilan belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda jinoyat, ma'muriy, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish orqali turli nizolarni hal qilish tushuniladi. Odil sudlov jamiyat subyektlari munosabatlarining huquqiy me'yorlarga mosligini ta'minlab, mazkur munosabatlarni tartibga solib turuvchi ijtimoiy kuch sifatida ham baholanadi. Odil sudlov sudning mutlaq vakolatida bo'lishi qonunda nazarda tutilgan. Sud organlarining tizimi Konstitutsiya va «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlangan. Odil sudlovni amalga oshirish funksiyasi zimmasiga yuklatilgan sudlar quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

**Sud qarorlarini ijro etish** odil sudlovning amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan funksiyadir. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 5-moddasiga ko'ra, sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Aks holda sud hujjatlarini bajarmaslik,

nafaqat, sud hokimiyati obro'sining tushishiga, balki inson va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish institutining «yo'qqa» chiqishiga olib kelishi mumkin. Qonuniy va asoslantirilgan sud qarorlarini e'lon qilish yetarli emas. Fuqaro va yuridik shaxs uchun ularning buzilgan huquqlarini tiklagan sud qarorining faktik ijro etilishi eng muhim masaladir. Mazkur funksiyani amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti zimmasiga yuklatilgan. Mazkur organ faoliyatining huquqiy asosini «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti to'g'risida»gi Nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadilar.

**Sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash** — bu sudlov faoliyati, uning kadr, tashkiliy va resurs ta'minoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarini yaratish bo'yicha tegishli choralarni ko'rishga yo'naltirilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining funksiyasidir. Ushbu funksiyani amalga oshirish bir qator organlar zimmasiga yuklatilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti, Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi), ularning birgalikdagi harakati natijasida mazkur funksiyaning amalga oshirilishi ta'minlanadi. Ko'rsatilgan funksiya amalga oshirilishining va uni amalga oshiruvchi organlar faoliyatining huquqiy asosi sifatida «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 147-sonli qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar xizmat qiladilar.

**Prokuror nazorati** deganda, huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan (funksiyalaridan) biri, ya'ni qonun buzilish holatlarini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish, aybdor shaxslarni qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortish orqali

qonunlarni aniq ijro etish va bir xilda qo'llash ustidan nazorat olib borish bo'yicha davlat nomidan maxsus vakolatli mansabdor shaxslar — prokurorlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tushuniladi. Prokuror nazoratining vazifalari prokuror faoliyatining umumiy vazifalariga bog'liq. Xususan, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat. Prokuratura organlarining tizimi konstitutsiyaviy darajada ham, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda ham mustahkamlangan. Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi; viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari; tumanlar va shaharlar prokuraturalari; viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi; tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okrugar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

**Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish** — bu maxsus vakolatli mansabdor shaxslar (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror) tomonidan protsessual qonuniga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladigan hamda jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va fosh etishga, shuningdek, jinoyatning kelib chiqish sabablarini, sodir qilinishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlashga yo'naltirilgan faoliyatdir. Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish ikki shaklda amalga oshiriladi: surishtiruv va dastlabki tergov. Tergov qilish shakliga qarab, mazkur faoliyatni amalga oshiruvchi organlar doirasi ham farqlanadi. Surishtiruv organlarining doirasi dastlabki tergov organlar doirasidan ancha kengroq. Quyidagilar surishtiruv organlari hisoblanadi: 1) militsiya (ichki ishlar organlari); 2) harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari — ularga bo'yusunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek, o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda

166  
A 3296  
O'zbekiston MK 17

harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yo o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha; 3) Milliy xavfsizlik xizmati organlari — qonunga ko'ra, ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha; 4) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolatorlari hamda turmalarning boshliqlari — shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek, mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; 5) davlat yong'indan nazorat qilish organlari — yong'inlarga doir va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo'yicha; 6) chegarani qo'riqlash organlari — davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo'yicha; 7) olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari; 8) davlat bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari — tegishincha bojxona, soliq va valuta to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo'yicha; 9) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti hamda uning hududiy boshqarmalari — voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashga, sud qarorini bajarmaslikka, shuningdek, band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo'yicha; 10) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari — bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha (JPKning 38-moddasi).

Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish funksiyasi surishtiruv organlarining barchasi uchun ham asosiy funktsiya emasligi mazkur organlarning o'ziga xos xususiyatidir. Ularning ko'pi uchun (ma-



salan, olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari; harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari va h.k.lar uchun) ko'rib chiqilayotgan funktsiya ular asosiy faoliyatlarining uncha muhim bo'lmagan qismini tashkil etadi. Shuning uchun tom ma'noda ushbu organlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar safiga kiritish mumkin emas. Mazkur darslikda bu organlar faqat ular tomonidan amalga oshirilayotgan huquqni muhofaza qilish faoliyati (aniqroq aytganda, jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish funksiyasi) nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Surishtiruv organlar orasida haqiqiy huquqni muhofaza qiluvchi organlar sifatida militsiyani (ichki ishlar organlari), O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalarini ko'rsatish lozim, ular uchun jinoyatlarga qarshi kurash, ularni aniqlash, surishtiruv o'tkazish va tergov qilish asosiy vazifadir.

Quyidagilar dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlarning doirasiga kiradi: *ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati va prokuratura tergovchilari, shuningdek, prokurorlar.*

Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish funksiyasi amalga oshirilishining huquqiy asoslari turli qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan: Jinoyat protsessual kodeksi, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun, Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi nizom va h.k.

**Jinoyat ishlari bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish va himoya qilish** advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladigan advokatura institutining asosiy vazifasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, advokatura O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. Advokaturaning faoliyati «Advokatura to'g'risida»gi, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari, mazkur funktsiyani amalga oshiruvchi organlar qatoriga vazifalari oldingi paragrafda aytib o'tilgan notariatni ham kiritish mumkin.

Ta'kidlash joizki, barcha ko'rsatib o'tilgan funktsiyalar o'zaro bog'liq bo'lganliklari va bir-birini to'ldirayotganliklari sud va

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning funksiyalarini ta'riflaydi. Bu, *birinchidan*, ko'rsatilgan funksiyalarning bajarilishi sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning umumiy vazifasini bajarishga yo'naltirilganligida; *ikkinchidan*, ayrim organlar bir vaqtda ikki va bundan ortiq funksiyalarni bajarishlarida o'z aksini topadi (masalan, Sud departamenti sud qarorlarini ijro etish; sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash funksiyalarini; 2009-yil 15-yanvardan boshlab esa ayrim toifali ishlar bo'yicha surishtiruvni amalga oshirish funksiyasini bajaradi). Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning funksiyalari ketma-ket hamda bir vaqtning o'zida ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, funksiyalarning ketma-ketligi tergov qilish va odil sudlov uchun, bir vaqtda amalga oshirilishi esa ayblash, himoya qilish va odil sudlov uchun xos bo'ladi. Bundan tashqari, funksiyalar asosiy va yordamchi turlariga bo'linadi. Masalan, odil sudlov funksiyasi eng asosiy bo'lib, markaziy o'rinni egallaydi, sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash funksiyasi esa odil sudlov funksiyasiga nisbatan yordamchi tusga ega bo'ladi.

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar mohiyati, funksiyalarining huquqiy asoslari, shuningdek, tegishli funksiyalarni bevosita amalga oshiruvchi organlarning huquqiy maqomi darslikning keyingi boblarida batafsil ko'rib chiqiladi.

### **1.3. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining tushunchasi va mazmuni**

Fan yoki o'quv kursining predmetini aniqlash deganda, o'rganilishi lozim bo'lgan, o'quv jarayonining doirasini belgilaydigan, ilmiy bilimning mazkur sohasi mazmunini tashkil etadigan fakt va voqealarning tor doirasini belgilash tushuniladi.

Mazkur o'quv fani kompleks va aralash tusga ega. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining mazmuni, birinchi navbatda, huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi sud va boshqa davlat organlari, shuningdek, ushbu faoliyatning amalga oshirilishiga yordam beradigan ayrim nodavlat tuzilmalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar orasida, nafaqat, umuman, sud hokimiyati va huquqni muhofaza qilish faoliyatining tashkil etilishi haqida, balki uning muayyan yo'nalishlari (vazifalari), shuningdek, tegishli organlar yoki tashkilotlarning tashkil etilishi, ularning tuzilishi, o'zaro aloqasi va bir-

biriga bo'ysunishi, asosiy vakolatlari va vazifalari, bir-biri hamda butun davlat mexanizmi bilan harakat qilishlari haqida ma'lumotlar markaziy o'rin egallaydi.

Shunday qilib, «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» — bu sud hokimiyati va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining tizimini (shuningdek, ayrim nodavlat tuzilmalarni), ularning tashkil etilishini, faoliyatlarining asosiy yo'nalishlarini va o'zaro hamkorligini o'rganadigan yuridik fandır.

Ushbu tizimga faoliyat maqsadining yagonaligi bilan birlashgan davlat muassasalari va jamoat birlashmalari kiradi. Mazkur maqsad quyidagilardan iborat: odil sudlovni amalga oshirish, qonunning ustunligi va huquq-tartibotni, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash, huquqbuzarliklarga, jumladan, jinoyatlarga qarshi kurash, ularning oldini olish, fuqarolarda huquqiy madaniyatni va huquqiy ongini tarbiyalash.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini tashkil etadigan muassasalar va tashkilotlar davlatning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, shu bilan birga, vujudga kelish, rivojlanish va takomillashtirishning ichki qonunlariga bo'ysunadilar, maqsadning yagonaligiga qaramasdan, o'ziga xos, aniq vazifalarni bajaradilar, o'z prinsiplariga, tizimlariga, tuzilmalariga, vakolatlariga ega bo'lishadi, o'zaro har xil munosabatda bo'lishadi va, shunday qilib, davlat va jamiyatning huquqni muhofaza qilish va huquqni qo'llash faoliyatida o'z o'rinlarini egallaydi.

Mazkur fanning maqsadi — huquqiy ko'rsatmalarning amalga oshirilishini ta'minlovchi muassasalar hamda umuman, huquqni qo'llash mexanizmi haqida boshlang'ich bilimlarni yosh talabalar yuristlarga taqdim etishdir. Ushbu faoliyat bilan bog'liq tashkiliy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kursida o'rganiladi.

Xorijiy mamlakatlarda sud va prokuraturaning vazifalari, prinsiplari va tuzilishini belgilaydigan huquqiy me'yorlarni o'rganish, ularga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni, shuningdek, ko'rsatilgan organlarning har bir alohida mamlakatning tarixiy shart-sharoitlar va boshqa sabablarga ko'ra, vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining predmetiga kiradi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining mazmuni quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

*I bo'lim.* Umumiy qoidalar («Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining mohiyati, asosiy tushunchalari va predmeti; sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi qonunchilik; sud hokimiyatining tashkil etilishi; odil sudlov prinsiplari).

*II bo'lim.* O'zbekiston Respublikasining sud tizimi (umumiy yurisdiksiya sudlari; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi; xo'jalik sudlari; sudyalarning huquqiy maqomi).

*III bo'lim.* Adliya vazirligi va sudlar faoliyatini tashkiliy hamda moddiy-texnik jihatdan ta'minlash.

*IV bo'lim.* Prokuror nazorati va dastlabki tergov organlari.

*V bo'lim.* Huquqiy yordamni ta'minlash organlari.

*VI bo'lim.* Xorijiy mamlakatlarda sud va huquqni himoya qilish faoliyatining tashkil etilishi.

#### **1.4. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining yuridik fanlar tizimidagi o'rni**

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» o'quv kursi mohiyatiga ko'ra hamda boshqa yuridik fanlarni o'rganish uchun kirish va ular haqida umumiy tasavvur hosil qiluvchi fan hisoblanadi. Unda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati va ularning vakolatlari to'g'risida eng umumiy tushunchalar beriladi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkil etilishi va faoliyati to'g'risida normativ-huquqiy ma'lumot ushbu fanni yuridik oliy o'quv yurtida umummajburiy tusdagi fanga aylantiradi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kursini o'rganish mazkur kursni huquqning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro aloqada o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Mazkur fan konstitutsiyaviy nazorat, odil sudlov, prokuror nazorati uchun asosiy rahbar qoidalarni belgilaydigan «*Konstitutsiyaviy huquq*» bilan chambarchas bog'liq. «*Konstitutsiyaviy huquq*» normalarga asoslangan holda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat va jamoat institutlari tizimidagi o'rni va roli haqidagi materialning tizimli bayon qilinishi amalga oshiriladi, tahlil qilinayotgan organlar tashkiliy tuzilishi va faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan vazifalari va prinsiplari detallashtiriladi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kursining uslubiy asosi sifatida «*Davlat va huquq nazariyasi*» xizmat qiladi.

Ushbu fan davlat va huquq vazifalarini anglashga asosiy uslubiy yondashuvlarni o'rnatib, huquq, qonuniylik, huquqiy ong, yuridik javobgarlik kabi ko'plab asosiy tushunchalarni belgilaydi.

«*Ma'muriy huquq*» o'quv kursi ham mazkur fan bilan bog'liq. Ma'muriy huquq ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini o'rganadi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aksariyati esa ijro etuvchi hokimiyat organlarning qatoriga kiradi (masalan, o'zining huquqni muhofaza qilish vazifalarini boshqaruv (ijro etuvchi) vazifalar bilan bir vaqtning o'zida amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va ularga bo'ysunadigan muassasalar). O'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'z faoliyatlarida, masalan, tartibni, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda va h.k. ma'muriy huquq me'yorlarini keng qo'llaydilar.

«*Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar*» o'quv kursi huquqning protsessual tarmoqlari — *fuqarolik-protsessual, jinoyat protsessual, xo'jalik protsessual huquqi* bilan bog'liq. Ular fuqarolik, jinoyat, xo'jalik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish tartibini belgilaydilar. «Jinoyat protsessi» fani doirasida jinoyatlarni ochishning, jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etishning hamda mazkur shaxslarga nisbatan qo'llanayotgan huquqiy ta'sir choralarini aniqlashning protsessual tartibi o'rganiladi.

Sud, prokuratura, dastlabki tergov organlari o'z faoliyatlarida *jinoyat va fuqarolik huquq* normalarini keng qo'llayotganliklari tufayli kurs qayd etilgan huquq tarmoqlari bilan bog'liqdir.

«*Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar*» fani «*Davlat va huquq tarixi*» kabi yuridik fan bilan ham bog'liq. Sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar organlari hamda advokatura tashkil etilishi va faoliyatiga oid masalalarni o'rganish tarixiy yondashuvni, muayyan huquqiy aspektlarning boshqalardan ajralgan holda va statik holda emas, balki rivojlanish va tarixiy voqealar bilan bog'langan holda mamlakatimiz va chet ellarda zamondoshlarimiz hamda o'tmishdoshlarimiz tomonidan orttirilgan yuridik tajriba bilan solishtirilgan holda tahlil qilinishini talab qiladi. Ushbu yondashuvlar uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar aynan vatanimiz va xorij tarixini o'rganish jarayonida olinadi.

«*Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar*» fani doirasida prokuror nazoratining asoslari, O'zbekiston Respublikasi prokuratura faoliyatining tashkil etilishiga oid masalalar o'rganiladi. Ko'rsatilgan masalalarning batafsilroq o'rganilishi yuqori kurslarda o'tiladigan «*Prokuror nazorati*» fani doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu ma'lumotlar prokuratura tashkil etilishining asoslari haqidagi, prokuror nazorati va prokuratura faoliyati boshqa yo'nalishlarining mazmuni, ularni amalga oshirishning shakllari va usullari haqidagi bilimlarni ancha kengaytiradi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, sud va huquqni muhofaza qilish faoliyatining yuridik asoslari davlat faoliyatining mazkur sohasini tartibga soluvchi turli huquq tarmoqlarining o'zaro keng aloqasi natijasi sifatida yuzaga keladi. Mazkur aloqalar turli va har taraflama bo'ladi, biroq, aytish lozimki, «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kursining yuqorida qayd etilgan fanlarning aksariyatidan asosiy farqini quyidagi holat tashkil etadi: mazkur fanning o'rganish jarayonida talabalar sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan faqatgina tanishadilar, qayd etilgan fanlar esa ushbu faoliyatni batafsil o'rganishadi. Kelgusida talabalar amaliy faoliyat tartibini, uning mazmunini, mansabdor shaxslar tomonidan qonun qoidalariga muvofiq, protsessual harakatlarini bajarishning ketma-ketligini batafsilroq o'rganishlari lozim bo'ladi.

### **1.5. Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi qonunchilik**

Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi qonunchilik «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kursi manbalari bazasini tashkil etadi va ko'pgina normativ hujjatlardan iborat. Ushbu normativ hujjatlar ularning predmeti (mazmuni), shakli (manbalar turlari) va ularning yuridik ahamiyati bo'yicha tasniflanishi mumkin.

**Huquqiy tartibga solishning predmeti bo'yicha** quyidagi normativ hujjatlar ajratiladi:

1) universal normativ hujjatlar (umumiy tUSDagi) — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro hujjatlar: 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (qo'shilish sanasi: 30.09.1991-y.); 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (qo'shilish sanasi: 31.08.1995-y.); 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir fakultativ bayonnoma (qo'shilish sanasi: 31.08.1995-y., kuchga kirgan sanasi: 28.12.1995-y.); 1958-yil 10-iyunda imzolangan Chet el mamlakatlari hakamlig qarorlarini e'tirof etish va ijro etish to'g'risidagi Nyu-York konvensiyasi (O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrda 184-I sonli Qarori bilan ratifikatsiya qilingan); Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 1995-yil 26-mayda qabul qilingan «Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida»gi konvensiyasi; 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan «Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida»gi konvensiya (1997-yil 28-martdagi o'zgartirishlar bilan); Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 30-avgustdagi 536-II sonli Qarori bilan ratifikatsiya qilingan); Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya va Yakunlovchi Bayonnoma (qo'shilish sanasi: 12.12.2003-y.; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 576-II sonli Qarori); Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) (O'zbekiston Respublikasi mazkur hujjatga 2008-yil 7-iyuldagi O'RBQ-158-sonli Qonun bilan qo'shilgan) va boshqalar;

2) maxsus qonun hujjatlari, ular quyidagilarga bo'linadi:

- a) sud hokimiyati, odil sudlov va sudlar to'g'risidagi hujjatlar;
- b) sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash va ushbu ta'minotni amalga oshiruvchi organlar to'g'risidagi hujjatlar;
- d) prokuror nazorati va prokuratura organlari to'g'risidagi hujjatlar;
- e) jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish ishlarini tashkil etish hamda ushbu ishlarni amalga oshiruvchi organlar to'g'risidagi hujjatlar;
- d) yuridik yordamni tashkil etish to'g'risidagi hujjatlar.

Maxsus qonun hujjatlarining keltirilgan tasniflanishi aslida huquqni muhofaza qilish faoliyatining yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda amalga oshirilgan. Xususan, *sud hokimiyati, odil sudlov va sudlar to'g'risidagi hujjatlar* konstitutsiyaviy nazorat va odil sudlov kabi sud faoliyatining yo'nalishini batafsil o'rganishga imkon beradi. Mazkur hujjatlar sud hokimiyatining tashkil etilishi; sud tizimi; sudlar vakolatlari; odil sudlovning asosiy prinsiplari; sudyalarning huquqiy maqomi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadilar. Bu guruhda «Sudlar to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunlar asosiy o'rinni egallaydi.

*Sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash va ushbu ta'minotni amalga oshiruvchi organlar to'g'risidagi hujjatlar* sudlar faoliyatini tashkiliy, moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'min-

lashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar haqidagi hamda Sud departamenti, Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi kabi organlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan guruhning hujjatlari qatoriga O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi 258-II sonli Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizom va boshqalar kiradi.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonun hamda prokuratura organlarining tashkil etilishi, faoliyati va tizimi, prokuror faoliyatining prinsiplari va yo'nalishlari, prokuror nazoratining sohalariga oid masalalarni tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari *prokuror nazorati va prokuratura organlari to'g'risidagi hujjatlar* orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Hujjatlarning mazkur guruhini o'rganishda prokuratura faoliyatini tashkil etishda muvofiqlashtiruvchi rolga ega bo'lgan Bosh prokurorning buyruqlariga tegishli e'tibor qaratish lozim.

*Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishning tashkil etilishi hamda mazkur ishlarni amalga oshiruvchi organlar to'g'risidagi hujjatlar* tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organ oldida turgan maqsad va vazifalarni, uning tuzilishi va vakolatlarini belgilaydigan manbalarning katta guruhidir. Ushbu hujjatlar qatoriga jinoyatlarni tergov qilish vazifasini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organlarni, ularning vazifalari va vakolat doirasini belgilaydigan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi, shuningdek, «Ichki ishlar vazirligi to'g'risida»gi Nizom, «Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi Nizom va h.k. kiradi.

*Yuridik yordamning tashkil etilishi to'g'risidagi hujjatlar* huquqni muhofaza qilish faoliyatining mazkur vazifasini amalga oshiruvchi organlar haqidagi tegishli ko'rsatmalarni aks ettiradilar, ularning tashkil etilishi va faoliyati tartibini, advokatning huquqiy maqomini, uning vakolatlarini o'rnatadi. Mazkur hujjatlar sifatida «Advokatura to'g'risida»gi va «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonunlarni ko'rsatish lozim.

Ta'kidlash joizki, maxsus qonun hujjatlari tarkibiga qonunlar ham, boshqa hujjatlar ham kirishi mumkin: kodekslar; nizomlar; yo'riqnomalar; farmonlar; buyruqlar, qarorlar hamda sud va



huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, shuningdek, huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa organlarga taalluqli bo'lgan boshqa hujjatlar<sup>1</sup>.

Ma'lumot tariqasida aytib o'tamiz, «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kursi manbalarining normativ bazasini tasniflashda «NORMA» axborot-huquqiy tizimida ishlab chiqilgan quyidagi klassifikator qo'llanilishi mumkin:

- sudlar to'g'risidagi hujjatlar;
- prokuratura to'g'risidagi hujjatlar;
- milliy xavfsizlik xizmati to'g'risidagi hujjatlar;
- ichki ishlar organlari to'g'risidagi hujjatlar;
- adliya organlari to'g'risidagi hujjatlar;
- advokatura to'g'risidagi hujjatlar;
- notariat to'g'risidagi hujjatlar va boshqalar.

**Shakli (manbalarning turi)** bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi turlarga bo'linadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasining Qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va normativ-huquqiy mazmunga ega bo'lgan Farmoyishlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari ularning yuridik kuchi bo'yicha tasniflanishiga asos sifatida xizmat qiladilar.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarning **yuridik kuchi bo'yicha** tasniflanishi amaldagi qonun ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Barcha boshqa masalalar bo'yicha hujjatlar kabi huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi huquqiy hujjatlar aniq iyerarxiya tuzilishni tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari-ning turlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham belgilanadi.

Ko'rinib turibdiki, mazkur tuzilishda muayyan hujjatning o'rni ushbu hujjat qaysi organ tomonidan hamda qaysi tartibda qabul qilinganligi bilan belgilanadi.

---

<sup>1</sup> Namunaviy ro'yxat bobning oxirida (axborot-uslubiy ta'minot blokida) aks ettirilgan. Biroq, mazkur ro'yxat tugal emas.

• Yodda saqlang! •

*Normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha quyidagi iyerarxiyasi o'rnatilgan*

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining Qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Qarorlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan Farmoyishlari;
- 7) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 8) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari;
- 7) mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy qarorlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi, unda davlat va jamiyat hayotining eng prinsipial masalalari hal qilingan: davlat va jamiyat qurilishi hamda siyosatning asoslari, davlat va shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning boshlang'ich qoidalari, shaxsning asosiy huquq, erkinlik va majburiyatlari, milliy-davlat tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tuzilishi va tashkil etilishi tartibi, ularning asosiy vazifalari, shuningdek, bir qator boshqa masalalar mustahkamlangan. Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari», XXII bobi «O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati» va XXIV bobi «Prokuratura» — «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani uchun eng ahamiyatlidir.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limida fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga, turar joy daxlsizlik huquqiga, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirining saqlanishi huquqiga ega bo'lishi haqida, aybsizlik prezumpsiyasi haqida va boshqa muhim qoidalar aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida (ikkinchi bo'lim) e'lon qilingan: «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas». Mazkur bo'limning o'zida quyidagi qoida ham

mustahkamlangan: «Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi» (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasi).

Mazkur konstitutsiyaviy ko'rsatmalar huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati tashkil etilishining asoslarini va ularning mazmunini belgilaydi.

Xalqaro huquq umume'tirof etilgan prinsip va normalarining hamda O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining ushbu iyerarxiyada o'rni ham alohida e'tiborga ega. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari quyidagi asoslarga muvofiq eng yuqori darajali o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni faqat milliy qonun hujjatlari o'rtasidagi nisbatini tartibga soladi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham mazkur sohada muayyan qoidalarni o'rnatmaydi, «O'zbekiston xalqi ... xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda ... » kabi qoidani belgilaydigan Konstitutsiyaning muqaddimasi bundan mustasno. Bundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarning ustunligi so'zsis tan olinishi, shuningdek, ushbu shartnomalar bilan milliy qonun hujjatlari (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi) o'rtasida tafovut bo'lgan hollarda O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari qo'llanilishining lozimligi to'g'risida xulosa qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining tahlili mazkur xulosaning asosligini isbotlaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 22-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq normalariga muvofiq qat'iy va majburiy ravishda rioya etmogi lozim.

Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining, shu jumladan, sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkil etilishi va faoliyatiga oid masalalarga bag'ishlangan shartnomalarning soni ko'payayotganligi tufayli yanada

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1995, № 12, 262-modda.

ko'proq ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Mazkur hujjatlar orasida, birinchi navbatda, quyidagi shartnomalarni ajratish lozim: 1966-yil 16-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt<sup>1</sup>, 1966-yil 16-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir fakultativ bayonnoma<sup>2</sup>. O'zbekiston Respublikasining mazkur xalqaro hujjatlarga qo'shilishi xalqaro organlar yurisdiksiyasining o'rnatilgan qoidalarga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan qo'llanilishini nazarda tutadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga ko'rsatilgan huquqlarning buzilishi haqida, huquqiy himoyaning barcha mavjud bo'lgan ichki vositalar tamom bo'lgan holda BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga yozma ma'lumot yuborishi mumkin. MDH doirasida ham tegishli kelishuv mavjud: fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 6-maydagi Qarori bilan ratifikatsiya qilingan).

Huquqiy hujjatlarning iyerarxiya tuzilishida keyingi o'rinni qonunlar egallaydi. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan yoki referendum o'tkazish orqali qabul qilinadi. Qoida tariqasida, qonunlarda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkil etilishi va faoliyatiga oid masalalar tartibga solinadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning keyingi iyerarxiya guruhini tashkil etadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlarini ta'riflashda ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinishini inobatga olish lozim. Masalan, Oliy Majlisining qarorlari bilan sud va prokuraturaning tashkil etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi nizomlar tasdiqlangan: Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi «1966-yil 16-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilish haqida»gi Qarori.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi «1966-yil 16-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir fakultativ bayonnoma qo'shilish haqida»gi Qarori.

risida; Sudyalarning malaka darajalari to'g'risida; Sud xodimlarining mansab darajalari to'g'risida; Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida va boshq.

Huquqiy hujjatlarning iyerarxiyasida keyingi o'rinni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari egallaydi. Ushbu hujjatlarning mazmuni umumiy tarzda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlarida belgilangan. Farmon bilan muayyan organ yoki uning tuzilishi to'g'risidagi nizom tasdiqlanishi mumkin, mazkur organga qo'shimcha vakolatlar yuklatilishi yoki ularning ayrimlari bekor qilinishi mumkin. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi Farmonlarini ko'rsatish lozim: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 23-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil qilish to'g'risida»gi PF-2421-sonli Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-2682-sonli Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 8-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil qilish to'g'risida»gi PF-1815-sonli Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3023-sonli Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3725-sonli Farmoni va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarning iyerarxiya «piramidasida» pastroq o'rinni egallaydi. Ushbu hujjatlar Konstitutsiya, Qonunlar, Prezident Farmonlariga zid bo'lmasligi shart. Vazirlar Mahkamasi faqatgina uning vakolatlar doirasiga yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatlar bilan kiritilgan masalalarni tartibga solishga haqli. Ular, odatda, Qonun va Prezident Farmonlari bilan tartibga solingan masalalarni aniqlashtiradi va to'ldiradilar. Vazirlar Mahkamasi a'zolari bo'lgan vazirlar tomonidan rahbarlik qilinadigan huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Mazkur hujjatlar orasida quyidagilarni ajratish mumkin: O'zbekiston Res-

publikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 4-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasining bojxona organlarida xizmatni o‘tash haqidagi Vaqtinchalik nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 146-sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 30-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi 374-sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi 14-sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 383-sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 2-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to‘g‘risida»gi 278-sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida»gi 270-sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va boshqalar.

**Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari.** Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar va qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo‘riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar buyruq hamda qarorlar bilan tasdiqlanadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari bir necha vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari bilan birgalikda yoki ularning bittasi tomonidan boshqalari bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining tarmoq bo‘linmalari va hududiy organlari normativ-huquqiy tusdagi hujjatlar qabul qilishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari.** Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek, yuqori turuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida va ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha o'zaro nisbati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organning vakolatiga va maqomiga, shuningdek, hujjatlarning turlariga muvofiq belgilanadi. Normativ-huquqiy hujjat o'ziga qaraganda, yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shart. Normativ-huquqiy hujjatlar bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi. Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idorasining ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idorasining normativ-huquqiy hujjatiga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tomonidan beriladigan tushuntirishlar ham katta rol o'ynaydi. Ushbu tushuntirishlar tegishli organlarning plenum qarorlari shaklida rasmiylashtiriladi va odatda, qonunchilikni, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkil etilishini va faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tegishli tarzda qo'llash masalalari bo'yicha ko'rsatmalarni aks ettiradi. Qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirishlar berilgan qonun hujjatlarini qo'llayotgan boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

Tashkiliy masalalarni hal qilish uchun prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining qarorlari qatoriga 1996-yil 20-dekabrda «Sud hokimiyati to'g'risida»gi 1-60-qarorni va boshqalarni kiritish mumkin.

Yuqorida qayd etilganlar «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» o'quv kursi sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi qonunchilikni o'rganish natijalariga asoslangan keng nazariy va normativ bazasiga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarni turkumlashda talabalar ushbu organlar tasnifining asosi sifatida, birinchi navbatda, ular tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar, ularning maqomini aniqlashda esa amalga oshiriladigan vakolatlar kompleksi xizmat qilishini inobatga olishlari lozim. Talabalar «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani boshqa yuridik fanlarni o'rganish uchun eng asosiy kurs bo'lishini, shuningdek, mazkur fan o'rganilayotgan har bir mavzu materiallari bilan jiddiy, mulohaza bilan mustaqil ishlashni nazarda tutishni bilishlari kerak.*



### NAZORAT SAVOLLARI

---

1. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining predmeti va tizimini aniqlang.
2. Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy belgilarini aytib o'ting va ularga qisqacha ta'rif bering.
3. Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlari (vazifalari)ni aytib o'ting va ularga qisqacha ta'rif bering.
4. Huquqni muhofaza qilish vazifalarini amalga oshiruvchi sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarni sanab o'ting.
5. Huquqni muhofaza qilish faoliyatida odil sudlov va konstitutsiyaviy nazorat alohida o'rinni egallashiga nima sabab bo'ladi?
6. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tartibga soluvchi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qanday tasniflash mumkin?
7. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha iyerarxiyasi qanday?
8. Sud va prokuratura to'g'risidagi qonunchilikni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qanday ahamiyatga ega?
9. Xalqaro pakt, shartnoma va kelishuvlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun ahamiyati nimadan iborat?



## Axborot uslubiy ta'minot

1. *I.A. Karimov.* Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. (Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida so'zlangan nutq, 1996-yil 29-avgust.) Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. T. 5. T., «O'zbekiston», 1998.

2. *I.A. Karimov.* Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. T., «O'zbekiston», 2002.

3. *I.A. Karimov.* Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2005-yil 28-yanvar.) O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. T., «O'zbekiston», 2005.

4. *I.A. Karimov.* O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

5. *I.A. Karimov.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

## Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2 -sentabrdagi 924-XII sonli «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

3. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi 103-I sonli «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 20-iyuldagi O'RQ-103-sonli «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomga, «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 29—30, 296-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi 746-XII sonli «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 168-modda; 2003, № 5, 67-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axbo-

rotnomasi. 2007, № 6, 249-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2004, № 51, 514-modda; 2008, № 39, 390-modda; 2008, № 52, 509-modda.

6. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 257-II sonli «Prokuratura to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 168-modda; 2003, № 5, 67-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2007, № 6, 249-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2004, № 51, 514-modda; 2008, № 39, 390-modda; 2008, № 52, 509-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 349-I sonli «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

8. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda 721-I sonli «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

9. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda O'RQ-198-sonli «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 52, 514-modda.

10. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 16-oktabrda O'RQ-64-sonli «Hakamlilik sudlari to'g'risida»gi Qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2006-yil 17-oktabr; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 42, 416-modda.

### Maxsus adabiyotlar

1. J.H. Abdurahmonxo'jayev. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.

2. J.H. Abdurahmonxo'jayev. Inson huquqlarini himoya qilishda — xalqaro va milliy qonunchilik normalarining amal qilishi. Risola. T., TDYI, 2008.

3. M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.

4. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., TDYI, 2008.

5. Б.А. Саидов, Д. Мирзоев. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебное пособие. Т., Академия МВД, 2004.

## 2-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

### **O'quv maqsadlari**

*Mazkur mavzuning o'rganilishi talabalarda «sud hokimiyati» tushunchasi, uning belgilari va sud hokimiyatining hokimiyatlar bo'linishi tizimida o'rni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tashkil etilishining huquqiy asoslari haqida aniq bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Sud hokimiyatining tushunchasi va mazmunini tushunib yetishga ushbu mavzu doirasida ko'rib chiqilayotgan O'zbekistonda sud hokimiyati tarixiy shakllanishining tahlili ko'maklashadi.*

*Mazkur mavzu doirasida «sud tizimi», «sud bo'g'ini» va «sudlov instansiyasi» kabi tushunchalar ham ko'rib chiqiladi. Ko'rsatilgan tushunchalarning o'rganilishi sudlar vakolatlarini, sud tizimining tashkiliy xususiyatlarini, shuningdek, sud tizimi doirasida muayyan ishning o'tash bosqichlarini o'rganishga yordam beradi.*

### **2.1. Sud hokimiyati hokimiyatlar bo'linishi tizimida. Sud hokimiyati: tushunchasi va asosiy belgilari**

Davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng O'zbekiston «insonparvar demokratik huquqiy davlat»<sup>1</sup> barpo etish va ijtimoiy makon sifatida tushuniladigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lini tanladi. Yuqorida ko'rsatilgan ijtimoiy makonda «qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi»<sup>2</sup>. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadi, nafaqat, mustaqil va ancha yosh O'zbekistonga xos.

<sup>1</sup> *Qarang:* 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasi.

<sup>2</sup> *I.A. Karimov.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1998, 173-bet.

Fuqarolik jamiyati — yer yuzidagi har bir inson, har bir davlat, uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishidan qat'i nazar, erishishga intiladigan maqsaddir, «fuqarolik jamiyati — adolatning mohiyati, insoniyat ijtimoiy rivojlanishining falsafasidir».

Fuqarolik jamiyati qaror topishining asosiy, birinchi darajali shartlaridan biri — inson huquqlarini jamiyat va davlatda oliy ne'mat sifatida e'tirof qilish, ular hamma uchun majburiy bo'lishini ta'minlashdir. Shubhasiz, bu holat huquqiy davlatning eng asosiy belgisi bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlagan holdagina mavjud bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, inson huquqlari hamma uchun majburiy bo'lishini ta'minlashda hokimiyatlar bo'linishi muhim ahamiyatga ega, chunki huquqiy davlatchilikning asosi inson huquqlarining institutsional kafolatlarini yaratadigan hokimiyatlar bo'linishidir.

Konstitutsiyaga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasi milliy davlat qurilmasida hokimiyat uchga ajratiladi — qonunchilik, ijrochilik va sud hokimiyatiga»<sup>1</sup>.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida o'z aksini topgan, ushbu moddaga binoan, «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi». Hokimiyatlar bo'linishi prinsipining mavjud bo'lishi tufayli davlat hokimiyatining tizimida davlat hokimiyatining organlari bir-birini tiyib turishga va nazorat qilishga yo'l ochib beradigan va bir shaxs yoki organning qo'lida hokimiyatning to'planishiga imkon bermaydigan davlat hokimiyatining organlari o'rtasida o'zaro munosabatlar tartibi o'rnatiladi. Hokimiyatning har bir tarmog'i (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) mustaqil va o'z vakolatlarini amalga oshirishda erkin hisoblanadi, hokimiyatning hech qaysi tarmog'i hokimiyatning boshqa tarmog'i vazifalarini o'z zimmasiga yuklatishga haqli emas. Barcha davlat organlari o'z vakolat doirasida faoliyatini amalga oshiradi. Shu bilan birga, hokimiyatning barcha tarmoqlari bir-biriga bog'liqdir, ular birgalikda harakat qilib, yaxlit davlat mexanizmini vujudga keltiradi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar. (XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2- va 3-iyulda so'zlangan nutq.) O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. T., «O'zbekiston», 1996, 15-bet.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirishda davlat hokimiyatining organlari bir-birini tiyib turishi va muvozanatni saqlash mexanizmining o'rnatilishini nazarda tutadi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining mustaqil harakat qilishini va mustahkam aloqada ishlashini ta'minlaydi. Shu sababli, davlatda avtoritar va totalitar intilishlarning rivojlanishiga qarshilik qiladigan, jamiyatda erkinlikni, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan qo'shimcha huquqiy kafolatlar yuzaga keladi.

«Sud hokimiyati» tushunchasining shakllanishi masalasi alohida diqqat-e'tiborni o'ziga qaratadi. Sud hokimiyatini nazariy jihatdan o'rganish, jumladan, uning mavjud bo'lishi yoki yo'qligi masalasini aniqlash, ushbu hokimiyat tarmog'ini sud tizimi bilan tenglashtirishga yo'l qo'ymaslik zarurati tufayli qiyinlashadi. Darhaqiqat, «sud hokimiyati» tushunchasi ko'pincha sud tizimi bilan tenglashtiriladi. Holbuki, sud tizimining mavjud bo'lishi sud hokimiyatining alohida hokimiyat tarmog'i sifatida mavjudligini ko'rsatmaydi. Chunki sud hokimiyatiga ta'rif berishning zaruriy qismlar sifatida qonun tomonidan taqdim etilgan vakolatlarni amalga oshirishda mustaqillik va erkinlik kabi tushunchalar xizmat qiladi.

Ko'rsatib o'tish lozim, hokimiyatlar bo'linishi prinsipining mustahkamlanishi hokimiyatning har bir tarmog'ining mustaqil faoliyat sohasi haqida gap yuritishga imkon beradi. Ayrim tadqiqotchilar sud hokimiyatini muayyan vazifani amalga oshiradigan va mustaqil faoliyat sohasiga ega bo'lgan hokimiyatning mustaqil tarmog'i sifatida ta'riflaydigan quyidagi **belgilarni** ajratishadi:

1) sud hokimiyati to'g'risida gap yuritish insonning «erkinlik hududini» qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar aralashishdan haqiqiy himoya qilishga imkoniyat beradigan vakolatlar sudga taqdim etilgan holdagina mumkin;

2) sud tizimida yangi sifat paydo bo'lishi, ya'ni uning sud hokimiyatiga aylanishi, ushbu tizimning mustaqil ishlab turish shartlarining mavjud bo'lishini talab qiladi;

3) sud hokimiyatining «avtonomligi» faqat nisbiy bo'lishi mumkin, chunki mazkur hokimiyat boshqa hokimiyatlar bilan o'zaro bog'lanmasdan o'z faoliyatini samarali amalga oshira olmaydi: sud tomonidan hal etiladigan nizolar doirasi qonun (ya'ni qonun chiqaruvchi hokimiyatning qarorlari) bilan aniqlanadi, sud qarorlarining hamma uchun majburiy kuchini amalga oshirish aksariyat hollarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining ayrim harakatlarini talab qiladi.

Ushbu barcha belgilar sud hokimiyatining mazmun-mohiyati va sud tizimining oddiy ishlab turishi o'rtasida farq borligi haqida gap yuritishga imkon beradi. Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili O'zbekistonda mustaqillik yillarida shakllantirilgan sud hokimiyatining yuqorida ko'rsatilgan barcha belgilari to'g'risida fikrlashga yo'l ochib beradi.

*Birinchi belgi.* Konstitutsiyaning 106-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligining barcha jihatlar alohida paragrafda yoritiladi.

Sud hokimiyatining *ikkinchi belgisi* — ushbu hokimiyat mustaqil ishlab turish shartlarining mavjud bo'lishi. Mazkur belgi maxsus vakolatli mustaqil organ hisoblanadigan va sudlar faoliyatini moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash vazifasini bajaradigan Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti tashkil etilishi orqali amaliyotga tatbiq etildi. Shu bilan birga, Departament sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi prinsipiga qat'iy rioya qilgan holda o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Ta'kidlash joizki, sud hokimiyatining vazifalarini amalga oshirishning nisbiy avtonomligi to'g'risida gap yuritish lozimligi sud hokimiyatini moliyalashtirish miqdori qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan tasdiqlanadigan budjetda belgilanishidan ham ko'rinib turibdi. Yuqorida qayd etilganlar sud hokimiyati uchinchi belgisining mavjud bo'lishiga dalolat beradi: sud hokimiyatining «avtonomligi» nisbiy tusga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda mustaqil va erkin sud hokimiyatining mavjud bo'lishi to'g'risida gapirishga barcha huquqiy shart-sharoitlar yaratilgan. Sud hokimiyatini hozirgi kunda quyidagi holat ham ta'riflaydi. Sud hokimiyatiga taqdim etilgan qonun chiqaruvchining o'zboshimchaligini cheklab qo'yish imkoniyati institutsional-yuridik asosga ega, mazkur asos quyidagi ikki qismdan iborat:

1) inson huquq va erkinliklarining minimumini mustahkamlaydigan xalqaro hujjatlarni davlat tomonidan ratifikatsiya qilish va shu orqali ushbu hujjatlarni huquqiy manbalar iyerarxiyasining eng yuqori darajasiga qo'yish;

2) sudlarda konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasi paydo bo'lishi va mazkur vazifaga asosan, sud hokimiyati qonunlar va boshqa

normativ-huquqiy hujjatlarni ular konstitutsiyaga zid bo'lganligi sababli bekor qilish huquqiga ega bo'lishi.

Ta'kidlash joizki, «istiqlol yillarida mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 60 ta asosiy hujjatga qo'shildi, BMT tomonidan bu sohada qabul qilingan oltita asosiy xalqaro shartnoma qatnashchisiga aylandi»<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda huquq va sud hokimiyatining birligini ko'zda tutadi. Huquq va sud hokimiyatining o'zaro aloqasi mustaqil sudyalarning faqat qonunga bo'ysunishini sud hokimiyati mustaqilligining asosiy sharti sifatida nazarda tutgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106 va 112-moddalarida o'z aksini topgan. Bu holat, o'z navbatida, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha odil sudlovning xolisligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sud hokimiyati institutsional-yuridik asosining ikkinchi qismi — sudlarda konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasi paydo bo'lishi — alohida e'tiborga ega. Ta'kidlash joizki, sudning huquqni qo'llaydigan subyekt sifatida asosiy vazifasi (va sud hokimiyati mavjudligi belgisi) odil sudlovni amalga oshirish orqali Konstitutsiya va qonunning ustunligini ta'minlashdir. Jamiyat ham, davlat ham mustaqil va xolis sud yo'qligida huquqiy bo'la olmaydi. Konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasining amalga oshirilishi natijasida davlat sud hokimiyatining boshqa tarmoqlariga ta'sir etish, ular tomonidan qabul qilingan qarorlarni bekor qilish imkoniga ega bo'ladi.

Konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasini Konstitutsiyaviy sud amalga oshiradi. Ushbu sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rganida va xulosalar berganida faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining me'yorlariga rioya qilganligi uchun umumiy va xo'jalik yurisdiksiya sudlaridan farq qiladi.

Konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasining belgilanishi avvalda faqat sud tizimi shaklida mavjud bo'lgan, lekin hozirgi kunda to'laqonli tusga ega bo'lgan sud hokimiyatining shakllanishi haqida gap yuritishga imkon beradi, chunki mazkur vazifa sud hokimiyatiga hokimiyatning

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PF-3994-sonli Farmoni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2008-yil 2-may.

boshqa tarmoqlariga ta'sir etish bo'yicha ayrim imkoniyatlarni taqdim etadi, davlat hokimiyatining tarmoqlaridan birortasining qo'lida hokimiyatning to'liq to'planishiga imkon bermaydigan hokimiyatlar bir-birini tiyib turish va muvozanatni saqlash mexanizmini amalga oshirishda sud hokimiyatining ishtirokiga yo'l ochadi<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan sud hokimiyatining umumiy ta'rifi mazkur tushunchaning ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kungacha sud hokimiyatining tushunchasi va mohiyati, sud hokimiyatining hokimiyat tarmoqlarining bo'linishi tizimida, xususan, hokimiyatlar bir-birini tiyib turish va muvozanatni saqlash mexanizmida o'rni, sud hokimiyatini amalga oshirishning shakllari, inson huquqlarini himoya qilishda sud hokimiyatining roli kabi masalalar ko'plab tadqiqotlarning mazmuni sifatida xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Sud hokimiyati tushunchasining ayrim ta'riflarini keltiramiz. Masalan, Y.A. Dmitriyev va G.G. Cheremnix sud hokimiyatining tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishadi: haqiqatni aniqlashga, adolatni tiklashga va aybdorlarni jazolashga yo'naltirilgan va qonunda nazarda tutilgan vakolatlariga ega bo'lgan davlat va mahalliy organlar tizimi<sup>3</sup>. Boshqa olimlar sud hokimiyatini huquqni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan va sudlarning vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish bo'yicha davlatning maxsus organlari bo'lgan sudlarga taqdim etilgan vakolatlar sifatida hamda konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat, ma'muriy, arbitraj sud ishlarini, protsessual normalariga rioya qilgan holda yuritish orqali ko'rsatilgan vakolatlarini amalga oshiruvchi sifatida ta'riflashadi<sup>4</sup>. Nazarimizda, sud hokimiyatiga aniq ta'rif berishga boshqa olimlarga qaraganda V.A. Lazareva yaqinlashdi. Uning fikriga binoan, sud hokimiyati alohida protsessual shaklida odil sudlovni amalga oshirish va ijro uchun majburiy bo'lgan qarorlarni qabul qilish orqali jamiyatda

---

<sup>1</sup> Судебная власть. Под ред. И.Л.Петрухина. М., ООО «ТК Велби», 2003, стр. 20.

<sup>2</sup> Қаранг: В.А. Лазарева. Судебная власть и ее реализация в уголовном процессе. Самара, 1999; В.А. Ржевский, Н.М. Чепурнова. Судебная власть в Российской Федерации: конституционные основы организации и деятельности. М., 1998; А.Д. Бойков. Третья власть России. М., 1997; Е.Б. Абросимова. Судебная власть в Российской Федерации: системы и принципы. М., 2002.

<sup>3</sup> Ю.А. Дмитриев, Г.Г. Черемных. Судебная власть в механизме разделения властей и защите прав и свобод человека. Журнал «Государство и право», 1997, № 8, стр. 48.

<sup>4</sup> Правоохранительные органы Российской Федерации. Под ред. В.П. Божьева. М., 1996, стр. 33.



vujudga kelgan huquqiy tUSDagi nizolarni hal qilish bo'yicha sudlarga taqdim etilgan maxsus vakolat sifatida ta'riflanishi mumkin<sup>1</sup>.

Shunday qilib, **sud hokimiyatining tushunchasi** quyidagi ikki qismdan iboratligi haqida xulosa qilish mumkin:

- *birinchidan*, ushbu hokimiyat maxsus ta'sis qilingan organlar — sudlar tomonidan amalga oshiriladi;

- *ikkinchidan*, mazkur organlar faqat ularga xos bo'lgan vakolatlar va ta'sir choralari qo'llash imkoniyatlariga ega (belgilangan protsessual shakllarga qat'iy rioya qilgan holda hamda protsessual va moddiy qonun me'yorlarining talablariga muvofiq, ular vakolatiga kiritilgan ishlarni hal qilish bo'yicha tegishli vakolatlar).

Ushbu belgilar o'zaro aloqali va o'zaro bog'liq bo'lib, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas.

Fikrimizga ko'ra, O'zbekiston qonunchiligida **sud hokimiyati amalga oshirilishining quyidagi shakllari** mustahkamlangan:

1. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rish.

2. Sudga qadar ish yuritish ustidan nazorat qilish (ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish; amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rish va boshq.).

3. Sud hujjatlari (hal qiluv qarori, hukm, ajrim, qarorlar)ning ijro etilishini ta'minlashga, shuningdek, hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari bo'yicha ijro varaqalari berishga doir ishlarni ko'rish.

4. Qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berish.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish.

6. Sudlar faoliyatini tashkiliy jihatidan ta'minlashda, sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etishda ishtirok etish.

7. Odil sudlovni amalga oshirish. Odil sudlov fuqarolik, xo'jalik, jinoyat ishlarni hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish va hal qilish orqali amalga oshiriladi. Sud hokimiyatini amalga oshirishning asosiy shakli sud ishlarini yuritishdir, ya'ni taraflarning teng huquqliligi va ish yuritishning tortishuv prinsiplariga asoslangan odil sudlovdir. Darhaqiqat, odil sudlov

---

<sup>1</sup> В.А. Лазарева. Судебная защита в уголовном процессе РФ: проблемы теории и практики. Дис. на соискание докт. юрид. наук. М., 1999, стр. 27.

faqat shu vaqtda odil sudlov bo'ladi, qachonki, u adolat talablariga javob bersa va huquqlarning tiklanishini ta'minlay olsa.

Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar (hal qiluv qarori, hukm, ajrim, qaror) barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi shart (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasi).

Sud tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, nafaqat, davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun, balki sudning o'zi uchun ham majburiydir, sud qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish faqat apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida tegishli sud instansiyalari tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

## **2.2. Mustaqil O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi**

O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin: 1) Rossiyaga qo'shib olinishidan oldin O'zbekiston (Turkiston)da sud hokimiyati; 2) chor Rossiyasi davrida O'zbekistonda sud hokimiyati; 3) Oktabr revolutsiyasidan so'ng, ammo O'zbekiston SSR tashkil etilishidan oldin O'zbekiston (Turkiston)ning sud hokimiyati; 4) O'zbekiston Respublikasi sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davridagi sud hokimiyati; 5) O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sud hokimiyati.

Sud hokimiyatining O'zbekiston hududida rivojlanishi va shakllanishining ko'rsatilgan har bir bosqichini qisqacha ko'rib chiqamiz.

*Birinchi bosqich — Rossiyaga qo'shib olinishidan oldin O'zbekiston (Turkiston)da sud hokimiyati.* Rossiyaga qo'shib olinishidan oldin O'rta Osiyo uch feodal davlat o'rtasida bo'lingan edi: Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligi. Xon va amir ularning hokimiyatlariga xavf tug'diradigan xatti-harakatlar bo'yicha jinoyat ishlarini ko'rib, sud hokimiyatini amalga oshirishgan. Tabiiyki, shu holatda har qanday shaklda shikoyat qilish haqida so'z yuritishga imkon bo'lmagan.

**Qozikalon** (qozi-kuzzot), ya'ni oliy sudya «odil sudlovni» amalga oshirishda xon va amirning o'ng qo'li bo'lgan. U bir vaqtning o'zida ham diniy, ham sud hokimiyatini amalga oshirgan.

Rasmiy hujjatlarda u «odil sudlov tayanchi (ustuni)» deb nomlangan. Shariat qonunlariga rioya etgan qozi sudlari hamda xalq urf-odat normalari bo'yicha o'z qarorlarini qabul qiladigan biy sudlari O'zbekiston hududida deyarli 13 asr davomida o'z faoliyatini amalga oshirgan.

Qozikalon xonlik, amirlikning barcha qozilariga rahbarlik qilgan. U yangi tayinlanayotgan qozilarning nomzodlarini xon, amirga tasdiqlash uchun taqdim etish, shuningdek, ularni sinovdan o'tkazish huquqiga ham ega bo'lgan.

Qozikalon murakkab jinoyat va fuqarolik ishlarini, shuningdek, xonlik, amirlikning poytaxti doirasida vujudga kelgan barcha ishlarni ko'rgan. Joylarda sud hokimiyatini qozilar amalga oshirgan. Qozilar tomonidan ishlar og'zaki va oshkora ko'rilib, shariat yozma normalariga asosan hal qilinardi, qonuniy apellatsiya yoki kassatsiya instansiyalari yo'q bo'lganligi tufayli qozilar qabul qiladigan qarorlar taraflar tomonidan uzil-kesil e'tirof etilardi.

Shu bilan birga, shariat bo'yicha qozining qarori ustidan bek, xon yoki amirga shikoyat qilish mumkin edi, ular esa shikoyatni oqibatsiz qoldirar yoxud shikoyatni hal qilish uchun qozikalonga berardi yoki ishni qayta ko'rib chiqish uchun tegishli hududda o'z faoliyatini amalga oshirgan barcha qozilarni chaqirardi (qozilar qurultoyi). Bu holat o'sha paytda ham shikoyatni kollegial tartibda ko'rib chiqish tushunchasi mavjudligidan dalolat beradi.

Hech qanaqa tergov va prokuratura organlari yo'q bo'lganligi sababli, qozi jinoyat ishlarini o'zi hech qanday dastlabki tergovsiz ko'rib chiqardi.

Ta'kidlab o'tish lozim, qozi sudlaridan tashqari, sud vazifalarini **qoziaskar** (harbiy sudya) ham bajargan. Shunday qilib, sudlarning ixtisoslashuvi o'z ifodasini topgan. Qoziaskar harbiy xizmatchilar va bek huzuridagi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rgan. Mansabdor shaxslar — davlat xizmatchilarining xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlar qoziaskar tomonidan ko'rib chiqilishida biz apellatsiya elementlarini ko'rishimiz mumkin.

*Ikkinchi bosqich — chor Rossiyasi davridagi O'zbekistonda sud hokimiyati.* 1865-yil 6-avgustdagi Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi vaqtincha nizom mahalliy sudning tuzilishiga daxldor bo'lgan chor hukumatining birinchi hujjatidir. Mazkur nizomga muvofiq, qozi sudlari harbiy hokimiyatga, ya'ni sudlar hukmlarini tasdiqlashni boshlagan harbiy gubernatorlarga bo'ysundirilgan.

Tez orada qozikalon, qoziaskar mansablari yo'q qilingan. Ularning o'rniga aholi tomonidan uch yilga saylanadigan yagona qozilar sudi joriy etilib, har bir qozi uchastkasining chegaralari belgilangan.

Da'voning bahosi 100 rublgacha bo'lgan fuqarolik ishlari **uchastka qozi sudiga** tegishli bo'lgan, qolgan jinoyat va fuqarolik ishlari esa vaqt-vaqti bilan yig'iladigan qozilar qurultoyida ko'rilgan. Qozilar qurultoyining hukmlari kollegial tartibda chiqarilganligi tufayli uzil-kesil bo'lib, ularning ustidan shikoyat qilish mumkin bo'lmagan.

Shu bilan birga, fuqarolik ishlari bo'yicha har ikki taraf qarordan norozi bo'lgan holda chor sudiga murojaat qilish imkoniyati mavjud bo'lgan. Oila-nikoh ishlari bo'yicha qozi sudining qarorlari ustidan shikoyatlar uyezd boshlig'iga berilardi, u esa ishni o'zi hal qilardi yoki uni harbiy gubernator ixtiyoriga taqdim etardi.

**1886-yildagi** Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom bilan «qozi sudlari» «xalq sudlari» degan nomga o'zgartirilgan. Biroq, ushbu sudlar avvalgiday biy sudlari va qozi sudlariga bo'linardi. So'ng ikki sud instansiyalari o'rnatilgan: «xalq» sudyasi va uyezd boshlig'i tomonidan chaqiriladigan «xalq» sudyalari qurultoyi. Bundan tashqari, uyezd boshlig'i hukm yoki qaror ijrosini to'xtatishga va viloyat sudiga shikoyat qilish uchun ishni prokurorga yuborishga haqli bo'lgan. Ya'ni ish yuqori turuvchi instansiya sudi tomonidan ko'rib chiqilishi uchun apellatsiya shikoyatining mavjudligi talab etilmagan. Uyezd boshlig'ining qarori ishni yuborish uchun faktik asos bo'lgan.

Bundan tashqari, «xalq» sudlarining hukmlari va qarorlari ustidan uyezd boshlig'iga shikoyat qilish mumkin edi, u esa hukm yoki qaror ijrosini to'xtatishga haqli bo'lib, shikoyatni, o'z navbatida, «xalq» sudyalari qurultoyiga ko'rib chiqish uchun taqdim etardi. Qurultoy muayyan tumandagi sudyalarning uchdan ikki qismidan iborat bo'lgan. Shunday qilib, «xalq» sudyalari qurultoyi faktik apellatsiya instansiyasi bo'lgan. Qurultoy huquqlari doirasidan chiqmagan holda qabul qilingan qurultoy qarorlari uzil-kesil bo'lgan. (Ta'kidlab o'tish lozim, shikoyat qilish huquqi kamdan kam hollarda amalga oshirilardi, chunki aholi mazkur imkoniyat mavjudligi haqida aniq tasavvurga ega emas edi.)

Buxoro amirligida shikoyat qilish tizimi haqida so'z borsa, ta'kidlab o'tish joizki, amirlikda sud qarorlari uzil-kesil bo'lgan, ular ustidan shikoyat qilishga imkon bo'lmagan, chunki hech kim mahalliy hokimiyat ruxsatisiz amir va qushbegi mahkamasiga kirib kelishga haqli emas edi.

**1867-yilda** hozirgi O'zbekiston hududida birinchi chor sudlari tashkil etilgan. Uyezd sudlari birinchi instansiya sudlari bo'lgan va kelishtiruvchi sudyalarining huquqlaridan foydalangan. Hukmlar uzil-kesil va uzil-kesil bo'lmagan toifalarga bo'linardi. Uyezd sudyalarining uzil-kesil bo'lmagan hukm va qarorlar ustidan viloyat boshqarmalariga shikoyat qilinardi.

**Viloyat boshqarmalari** viloyat sudlarining tashkil etilishiga qadar sud vazifalarini bajarardi. Ular sud sifatida uyezd sudyalarining ishlarini apellatsiya tartibida ko'rardi.

1867-yildagi nizom loyihasi bo'yicha viloyat mahkamalarining qaror va hukmlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlari senat tomonidan ko'rilardi. Biroq, Turkiston general-gubernatori 1878-yilda hakamlik qurultoyi huquqlari asosida qabul qilingan viloyat mahkamalarining qarorlarini kassatsiya tartibida ko'rish huquqini noqonuniy ravishda egalladi. General-gubernator devonxonasining xizmatchilari ishlarning kassatsiya tartibida ko'rilishining mazmunini o'zlashtirmagan bo'lib, butunlay to'g'ri bo'lgan qarorlarni bekor qilish to'g'risidagi bildirgilarni tayyorlardi, noto'g'ri qarorlar ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini esa oqibatsiz qoldirardi.

General-gubernator viloyat mahkamaning qarorlarini bekor qilganida ishni takroriy ko'rish uchun sud tarkibini o'zi tayinlardi.

Ta'sis etilgan **vaqtinchalik harbiy-sud komissiyalari** harbiy va umumiy jinoyat ishlari bo'yicha qaror qabul qilardi. Ularning hukmlari ustidan shikoyat qilish mumkin emas edi.

**Kelishtiruvchi sudlari** har bir uyezd va Toshkent shahrida ta'sis etilardi. Asosan, ular diniy, siyosiy, mansab jinoyatlar, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, odam o'ldirish, bosqinchilik va h.k. jinoyatlar bo'yicha rus va mahalliy aholining vakillarini ayblash yuzasidan ishlarni ko'rardi. Kelishtiruvchi sudlarining hukm va qarorlari ustidan apellatsiya shikoyatlari va prokuror protesti, shuningdek, xususiy shikoyatlar viloyat sudiga berilardi.

**Viloyat sudlari** sud palatasi va kelishtiruvchi sudlar qurultoyining huquq va majburiyatlarini o'zida birlashtirardi. Viloyat sudlari oldin viloyat mahkamalari va kelishtiruvchi sudlar qurultoylari sudloviga tegishli bo'lgan barcha ishlarni ko'rardi. Bundan tashqari, ularga mahalliy aholining qozi va biy sudlari hukm hamda qarorlarini bekor qilish huquqi taqdim etilgan.

**1898-yilda** Turkistonda 1864-yildagi Sud nizomlari joriy etilgan. Sud nizomlarini qo'llash to'g'risidagi vaqtinchalik qoidalariga muvofiq, *uchastka va qo'shimcha kelishtiruvchi sudlari; okrug sudlari; sud palatasi* ta'sis etilgan.

Uchastka va qo‘shimcha kelishtiruvchi sudlari sudlovga tegishliligi jinoyat va fuqarolik sudi ish yurituvining nizomlari bilan belgilanadigan jinoyat va fuqarolik ishlarini ko‘rardi. Ahvol huquqidan mahrum etishga yoki uni cheklashga olib kelmaydigan jinoyat va nojo‘ya harakatlar to‘g‘risidagi ishlar kelishtiruvchi sudya tomonidan ko‘rilardi. Ularning qarorlari ustidan protest va shikoyatlar okrug sudiga berilardi.

**Okrug sudlari** ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida ko‘rardi. Ishlar maslahatchilar ishtirokida ko‘rilardi, maslahatchilar sifatida esa faxriy uchastka va qo‘shimcha kelishtiruvchi sudyalarda taklif etilishi mumkin edi. Okrug sudi tomonidan birinchi instansiya sifatida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha apellatsiya instansiyasi sud palatasi bo‘lgan.

**Sud palatasi 1899-yil** 14-mayda Toshkentda tashkil etilgan. U birinchi instansiya sudi sifatida qonunga muvofiq, uning sudloviga tegishli bo‘lgan jinoyat va fuqarolik ishlarining eng muhim toifalarini ko‘rgan. Uchastka sudlari tomonidan ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud palatasi kassatsiya instansiyasi vazifalarini bajarardi. Kelishtiruvchi sudyalarning qurultoyi sifatida chiqarilgan okrug sudlarining uzil-kesil qaror va hukmlari ustidan berilgan protest va shikoyatlar yuzasidan ishlarni ko‘rish bo‘yicha senatning vazifalari ham sud palatasiga yuklatilgan edi. Sud palatasi katta rais, uch nafar podsholik sudyalari va uch nafar mahalliy faxriy kelishtiruvchi sudyalardan iborat bo‘lgan.

*Uchinchi bosqich — Oktabr revolyutsiyasidan so‘ng, O‘zbekiston SSR tashkil etilishidan oldin O‘zbekiston (Turkiston)ning sud hokimiyati.* 1921-yildan boshlab, RKP(b) MK ko‘rsatmalariga asosan, Turkistonda qozi sudlari institutining qisman tiklanishi boshlandi.

*1921-yil 6-oktabrdagi Qozi sudi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq,* Farg‘ona viloyatida yagona xalq sudi bilan birga qozi sudlari ham legallashtirilgan. Mazkur sudlarning birinchi instansiyasi ishlarni yakka tartibda ko‘rgan qozi bo‘lgan. Ikkinchi — apellatsiya instansiyasi 2—5 kishidan iborat bo‘lgan qozilar qurultoyi, kassatsiya instansiyasi esa (qozi qurultoyi qarorlari ustidan kassatsiya tartibda shikoyat qilish uchun) viloyat yoki uyezd adliya bo‘limining taqdimnomasi bo‘yicha yoki xulosasi bilan ishlarni ko‘rgan ijroqo‘m rayosati bo‘lgan. Nizomga binoan, qozi taraflarning vujudga kelgan nizoni shariat bo‘yicha hal qilinishiga rozi bo‘lganligi haqidagi yozma arizasi bo‘yicha ishlarni ko‘rishga haqli edi. Taraflarning biri nizo ushbu tartibda ko‘rib chiqilishiga rozi bo‘lmagan holda sudlovga tegishlilik haqidagi masala qarori uzil-kesil hisoblangan alohida komissiyaga hal qilish uchun taqdim etilishi

mumkin edi. Keyinchalik xalq qozilari va xalq biylarining qaror hamda hukmlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'radigan apellatsiya instansiyasi xalq qozilari va xalq biylarining qurultoyi, kassatsiya instansiyasi esa xalq sudlari kengashining musulmon bo'limi (mahkamayi shariya) bo'lgan. Shikoyat qilish uchun belgilangan muddat qaror yoki hukm chiqarilgan kundan boshlab, 15 kunlik muddatni tashkil etardi. Biroq, ushbu tizim uzoq amal qilmagan edi. 1924-yilda apellatsiya to'liq bekor qilingan edi, 1928-yilda esa qozi sudlari ham bekor qilingan edi<sup>1</sup>.

*Turkiston ASSRning 1923-yildagi Sud tuzilishi to'g'risidagi nizamiga* asosan, Turkiston hududida quyidagi sud tizimi amal qilgan edi: 1) ishlarni yakka tartibda yoki ikki xalq maslahatchisi ishtirokida ko'rgan xalq sudi; 2) viloyat sudi;

3) RSFSR Oliy sudining bo'linmasi.

Xalq sudi sud tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, jinoyat va fuqarolik ishlarining asosiy qismini ko'rardi<sup>2</sup>.

Viloyat sudi xalq sudlarining ishlari bo'yicha kassatsiya instansiyasi vazifalarini bajarardi hamda viloyatdagi barcha sud-tergov muassasalariga rahbarlik qilardi. U birinchi instansiya sudi sifatida oldin xalq sudlari tomonidan olti xalq maslahatchisi ishtirokida ko'rilgan eng muhim jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rardi.

RSFSR Oliy sudining Turkiston bo'linmasi quyidagi tarkibda faoliyat yuritgan edi: bo'linma rayosati; jinoyat ishlari bo'yicha kassatsiya kollegiyasi va jinoyat ishlari bo'yicha sud kollegiyasi. Uning vazifalariga quyidagilar kirardi: Oliy sud bo'linmasining a'zolari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash; sud kollegiyasida ko'rilayotgan ayrim ishlar bo'yicha maxsus sud tarkiblarini tayinlash; kollegiyalarning hisobotlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, Oliy sud bo'linmasi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash; respublika prokurori takliflari bo'yicha viloyat sudlarida maxsus taftish o'tkazilishini tayinlash va ushbu taftishlar natijalarini tinglash; Oliy sud bo'linmasining a'zolari, viloyat sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlariga nisbatan taftishlar natijalari yoki respublika prokurorining alohida xabarlari bo'yicha intizomiy ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish.

---

<sup>1</sup> Qozi sudlari O'zSSR MIQ va XNKning 1928-yil 18-fevraldagi Qarori bilan to'liq bekor qilingan.

<sup>2</sup> Ta'kidlab o'tish lozim, xalq sudyasi mansablariga nomzod bo'lgan shaxslarga nisbatan quyidagi talablar qo'yilgan edi: sud bo'yicha qoralanmagan, adliya organlarida jamoat yoki amaliy ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan fuqaro.

Kassatsiya kollegiyasi ikkinchi instansiya sudi sifatida faqatgina viloyat sudlari tomonidan ko'rilgan jinoyat ishlarini ko'rardi. Jinoyat ishlari bo'yicha sud kollegiyasi birinchi instansiya sudi sifatida alohida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishlarni ko'rardi. Fuqarolik ishlari viloyat sudlari tomonidan ko'rilardi. Ularning qarorlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bevosita RSFSR Oliy sudiga yuborilardi. Ta'kidlab o'tamiz, RSFSR Oliy sudining Turkiston bo'linmasi tuzilmasida plenum yo'q edi, uning vazifasi RSFSR Oliy sudi vakolatiga kiritilgan edi.

Muayyan ish toifalarini ko'rib chiqish uchun maxsus sudlar, ya'ni harbiy tribunallar; xalq sudlarining alohida mehnat sessiyalari, yer komissiyalari va arbitraj komissiyasi tashkil etilishi ham nizomda nazarda tutilgan edi.

*To'rtinchi bosqich — O'zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kirgan davridagi sud hokimiyati.* O'zSSR tashkil etilishidan (1924-y.) so'ng barcha davlat hokimiyati organlari va qonunlarni unifikatsiya qilish, sobiq TASSR, BSSR va XSSR hududida amal qilgan turli qonun hujjatlari o'rniga yagona respublika qonunchiligini ishlab chiqish zarurati vujudga kelgan. O'zSSR hukumati oldida respublika barcha hududlari uchun sud muassasalarining yagona tizimini o'rnatish vazifasi ham turgan. Yangi tashkil etilgan viloyatlarda (Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm), shuningdek, oldindan bo'lgan Samarqand va Farg'ona viloyatlarida viloyat sudlari ta'sis etilgan.

1922-yildagi *RSFSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizomga* muvofiq, yangi tashkil etilgan O'zSSR Oliy sudi va viloyat sudlari o'z faoliyatini boshlagan edi.

O'zSSR Oliy sudi quyidagi tarkibda o'z faoliyatini yuritgan edi: yalpi majlisning rayosati, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha kassatsiya kollegiyasi, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud kollegiyasi va intizomiy kollegiya.

Xalq sudlari ham mavjud bo'lgan, ular milliy-davlat chegaralash jarayonining boshida bir-biridan keskin farqlanadigan ikki guruhga bo'lingan edi:

1) oldin Turkiston Respublikasiga kirgan viloyatlar (Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlari)ning xalq sudlari;

2) O'zbekistonga yangi qo'shilgan viloyatlarning xalq sudlari.

Birinchi guruhdagi sudlar yaxshiroq sud apparati bilan farq qiladigan bo'lsa, ikkinchi guruhdagi sudlarning faoliyati mazkur viloyatlarda aholiga muhim ta'sir o'tkazadigan qozi sudlari soni ko'pligi tufayli boshida qiyinchiliklarga duch keldi.



1926-yildagi O'zSSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizom. O'zSSRda viloyatlar o'rniga okruglar tashkil etilishi munosabati bilan viloyat sudlari tugatilgan va ular o'rniga okrug sudlari tashkil etilgan.

SSSR va ittifoqdosh respublikalarda sud tuzilishi asoslarining ko'rsatmalaridan kelib chiqib, nizom O'zSSR hududida quyidagi yagona sud tizimini o'rnatgan edi:

- 1) xalq sudi;
- 2) okrug sudi;
- 3) Oliy sud.

Bundan tashqari, maxsus sud tarkibini va ko'rib chiqish maxsus tartibini talab qiladigan alohida toifali ishlarni ko'rib chiqish uchun maxsus sud-ma'muriy organlar, ya'ni xalq sudining mehnat sessiyalar, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar va sud-yer komissiyalar tashkil etilishi nizomda nazarda tutilgan edi. Harbiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar maxsus nizomga asosan, o'z faoliyatini yuritgan Harbiy tribunallar tomonidan ko'rib chiqilardi. Davlat muassasalari va korxonalari o'rtasidagi nizolar arbitraj komissiyalari tomonidan ko'rib chiqilardi.

Xalq sudi yagona sud tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan.

Okrug sudlari: a) okrugning sud markazi va u qaramog'idagi xalq sudlariga nisbatan sud boshqaruvi organi sifatida; b) xalq sudlari uchun kassatsiya va taftish instansiyasi sifatida; d) qonun bilan ularning vakolatiga kiritilgan ishlar bo'yicha birinchi instansiya sudi sifatida faoliyat yuritishgan.

Okrug sudlari rayosat va plenumga ega bo'lganliklari ularning o'ziga xos xususiyatidir.

1926-yildagi nizom tuman (uyezdlar)da oldin bo'lmagan *okrug sudining vakillari* institutini nazarda tutgan edi. Ushbu institut tashkil etilishining maqsadi okrug sudi va unga bo'ysunuvchi mahalliy organlar o'rtasidagi aloqani ta'minlash va ma'muriy-moliya boshqaruvga oid zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'lgan. Vakillar tuman (uyezd) sudyalari orasidan okrug sudining plenumi tomonidan tayinlanardi va okrug sudi a'zolari huquqlariga ega bo'lardi.

O'zSSR Oliy sudi respublikaning oliy sud organi bo'lib, rayosat, plenum, sudlov va kassatsiya bo'linmalariga bo'linadigan jinoyat va fuqarolik bo'limlari hamda intizomiy kollegiyadan iborat bo'lgan.

Shunday qilib, respublika sud organlarining tashkil etilishi va tizimi SSSR va ittifoqdosh respublikalarning sud tuzilishi umumittifoq asoslari hamda O'zSSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solingan. Ta'kidlash lozimki, sud boshqaruviga rah-

barlik qilish bo'yicha barcha ishlar Adliya xalq komissariati tomonidan mazkur komissariatning sud yo'nalishi bo'yicha o'rinbosari bevosita rahbarligida amalga oshirilardi. Umumiy tUSDagi direktiv ko'rsatmalar Adliya xalq komissariati tomonidan Oliy sud orqali yoki Oliy sud tomonidan Adliya xalq komissariati sanksiyasi bilan berilardi. Sud faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish va yagona sud amaliyotini ta'minlash Oliy sud zimmasiga yuklatilgan edi, u esa mazkur vazifani ayrim sud hukm va qarorlarini qayta ko'rib chiqish hamda aniq ishlar bo'yicha tushuntirish berish orqali bajargan edi.

*1931-yildagi O'zSSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizom.* O'zSSR MIQning 1930-yil 17-avgustdagi qarori bilan respublikaning okruglarga bo'linishi tizimi bekor qilinib, boshqaruvning ikki bo'g'inli tizimi (tuman va markaz) o'rnatilgan edi. Shu munosabat bilan, okrug sudlari, okrug sudining tuman (uyeZd) vakillari tugatilgandi.

Barcha sud uchastkalari tuman markazida to'plangan bo'lib, sudyalarning biri esa boshqa xalq sudyalarining ishiga rahbarlik qilish uchun tayinlanardi.

Shunday qilib, O'zSSRda ikki bo'g'inli sud tizimi barpo etilgandi. Xalq sudlari uchun kassatsiya va nazorat instansiyalari vazifalarini O'zSSR Oliy sudi bajarardi. Ushbu o'zgartirishlar munosabati bilan 1931-yil 20-iyulda O'zSSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizom yangi tahrirda qabul qilinib, 1926-yildagi nizom chiqarilganidan so'ng qabul qilingan sud tuzilishi to'g'risidagi barcha qonunlarni birlashtirdi.

1934-yil 10-iyulda SSSR MIQ Qarori bilan revolyutsiyaga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi ayrim toifali ishlarni ko'rib chiqishga haqli bo'lgan OGPU bekor qilinib, O'zSSR Oliy sudi huzurida maxsus ishlar bo'yicha kollegiya tashkil etilgandi. Vatanga xoinlik qilish, josuslik, terror, qo'poruvchilik kabi eng og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishlar Harbiy Tribunallar tomonidan ko'rilardi.

O'zSSR MIQ va XNKning 1934-yil 10-noyabrdagi qaroriga muvofiq, O'zSSR huzurida suv transporti bo'yicha sud kollegiyasi, shuningdek, Termiz va Yangi Urganchda suv-transport sudlari tashkil etiladi.

*1938-yilda qabul qilingan «Sud tuzilishi to'g'risida»gi Qonun.* «SSSR, ittifoqdosh respublikalar va avtonom respublikalarning sud tuzilishi to'g'risida»gi SSSR Qonuni bo'yicha O'zbekistonda quyidagi sud tizimi amal qilishni boshlagan:

1. O'zSSR Oliy sudi.
2. Qoraqalpoq ASSR Oliy sudi.

3. Viloyat sudlari.

4. Xalq sudlari.

Oliy sud O'zSSR va Qoraqalpoq ASSR barcha sud organlarining sud faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi respublika oliy sud organi hisoblangan edi. U respublika Oliy Kengashi tomonidan besh yil muddatga saylanadigan rais, uning ikki o'rinbosari, sud a'zolari va xalq maslahatchilaridan iborat edi. Oliy sud quyidagi tarkibda o'z faoliyatini yuritgan edi: rayosat, jinoyat ishlari bo'yicha sud kollegiyasi, fuqarolik ishlari bo'yicha sud kollegiyasi, intizomiy ishlar bo'yicha sud kollegiyasi.

Keyingi bo'g'in — viloyat sudlari — rais, uning o'rinbosarlari, sud a'zolari, xalq maslahatchilari, rayosat va uch kollegiyadan (jinoyat, fuqarolik va intizomiy ishlar bo'yicha) iborat bo'lgan.

Xalq sudlari sud tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, har bir ma'muriy tumanda tashkil etilgan hamda jinoyat va fuqarolik ishlarining aksariyatini ko'rishgan.

Ko'rib chiqilayotgan bosqichning so'nggi davrida, ya'ni O'zbekiston bir necha o'n yillik davomida SSSR tarkibiga kirgan paytida davlatimiz hududida KPSS tazyiqi ustida bo'lgan huquqiy tizim amal qilgan. Tarix shuni ko'rsatmoqdaki, Oktabr to'ntarilishidan so'ng o'rnatilgan sho'ro sud tizimi jazolovchi tusga ega bo'lib, KPSS va ijro etuvchi hokimiyatning qo'llarida jinoyat repressiyalarini amalga oshirish vositasi bo'lgan, albatta, bu holat sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishda mustaqilligiga ham to'sqinlik qilgan. Tabiiyki, sudyalarning mustaqilligi va demokratik odil sudlovning yo'qligi o'sha paytda hukm surgan ommaviy qonun buzilishlariga olib keldi. Sudlar va ularning faoliyatiga partiya rahbarlik qilgan, u yopiq sud majlislarida aybdorlarni jazolab, «o'z adolatini» o'rnatgan. Ayniqsa, viloyat NKVD boshqarmasi, viloyat partiya qo'mitasi birinchi kotibi va viloyat prokuroridan iborat bo'lgan hamda sud va tergovsiz minglab odamlarni otib o'ldirishga hukm qilishi mumkin bo'lgan «uchlik» va «ikkilik»lar achinarli iz qoldirgan. Tarix sahifalari o'sha paytda hukm surgan qonun buzilishlari va huquq normalariga rioya qilmaslikning behisob misollarini oshkor qilmoqda.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi bo'lgan paytida sud mansablari nomenklatura tartibida egallanganligi, sudyalar esa partiya va sho'rolarning to'liq qaramligida bo'lganligi o'sha davrda haqiqiy sud hokimiyati yo'qligidan dalolat beradi. «Telefon huquqi» (telefon orqali hukm yoki qarorlar bo'yicha kelishish) us-

tunlik qilib, sud-huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimining tarkibiy qismi bo'lib, jinoyatchilikning holati uchun ular bilan mas'uliyatli bo'lgan va dastlabki tergovning sifatiga yuqori talblar qo'yilmas, ayblanuvchi va jabrlanuvchi manfaatlari, o'z navbatida, lozim darajada himoya qilinmagan. Tabiiyki, ushbu sharoitda qonuniylik, hukmlarning asosliliigi va adolatliligi, ayniqsa, inson huquq va qonuniy manfaatlari sud orqali himoya qilinishining samaradorligi to'g'risida gap yuritib bo'lmadi.

Natijada, oldingi SSSR totalitar tizimidan O'zbekistonga, nafaqat, bir tomonlama rivojlangan, nochor va zaif iqtisodiyot, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, qarorlarni qabul qilishda qaramlik, balki takomillashmagan sud-huquq tizimi ham meros bo'lib qoldi. Demokratiya va fuqarolik jamiyat asosining eng muhim qismlaridan biri bo'lgan soha darhol va tubli o'zgartirishlar va islohotlarni talab qilardi. Axir hammaga ma'lumki, «qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'y-sunish va hurmat ruhida tarbiyalash — bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning, nafaqat, maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi»<sup>1</sup>.

*Beshinchi bosqich — O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sud hokimiyati.* Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, davlat hokimiyati barcha tarmoqlarining tengligini qonuniy mustahkamlash mustaqil sud hokimiyati va sud tizimini shakllantirish yo'lida birinchi qadam bo'ldi. Prezident I.A. Karimov mazkur qoidaga e'tibor qaratib, ta'kidlab o'tgan: «qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati — davlatning uchta asosiy tayanchidir»<sup>2</sup>. Shu munosabat bilan, mamlakatda inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish vazifasini bajaradigan mustaqil sud tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bunda sud-huquq sohasini muvaffaqiyatli isloh qilishda mustaqil sud hokimiyati-

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. T., «O'zbekiston», 2002, 28-bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida 1992-yil 8 va 10-dekabrda so'zlangan nutq.) O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. T., «O'zbekiston», 1996, 127-bet.

ning tashkil topishi ustuvor vazifa bo'ldi. Buning huquqiy asosi sifatida sud hokimiyatining mustaqilligi, sudlar faoliyatining prinsiplari va sud tizimining tashkil etilishi kabi masalalarni tartibga solgan Asosiy Qonun xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohoti eng muhim holatlarining birinchi bosqichda amalga oshirilishini tahlil qiladigan bo'lsak ham, ta'kidlash joizki, ushbu davrda eng avval davlat hokimiyatining erkin, mustaqil va kuchli tarmog'i bo'lgan, inson va fuqaroning huquq-erkinliklarini, konstitutsiyaviy tuzumni, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'z vakolatlarini amalga oshiradigan sud hokimiyatini shakllantirish bo'yicha keskin va samarali choralar ko'rildi. Bunga sud hokimiyati mustaqilligi, erkinligi, samaradorligining tubdan yangi va asosiy kafolatlarini qonun darajasida ifoda etgan «Sudlar to'g'risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinishi orqali ham erishildi. Mazkur Qonunga muvofiq, sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlash (saylash)ning samarali va demokratik mexanizmi barpo etildi, umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi qonuniy mustahkamlandi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tashkil etildi.

Shubhasiz, ushbu qonun hujjatlarining qabul qilinishi tasodifiy emas. Ularning qabul qilinishi sud-huquq islohotini amalga oshirishga, umuman, jamiyatimizning modernizatsiya qilishga izchil, bosqichma-bosqich va puxta o'ylangan munosabatning natijasidir. Barchaga ma'lumki, huquqiy davlatda sud hokimiyati davlatchilikning haqiqiy asosi, ijtimoiy tinchlikni, huquq-tartibotni va jamiyat barqarorligini ta'minlaydigan institutdir. Har bir inson, yuridik shaxs o'z huquq va qonuniy manfaatlarini, birinchi navbatda, sudda himoya qilishi mumkin. Shunday qilib, sud hokimiyati, nafaqat, islohotlarning natijasi, balki mazkur hokimiyatning mustaqilligi va demokratiligi ta'minlangan bo'lsa, islohotlarning harakatlantiruvchi kuchga aylanadi<sup>1</sup>. Shu bois butun sud-huquq sohasining isloh qilinishi ayni bu yo'nalishda amalga oshirilmoqda.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Huquqni muhofaza qilish sohasida joriy qilinayotgan islohotlar ... ijtimoiy hayot va davlat qurilishining demokratik o'zgarishlar yo'lida bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minladi». *Qarang: I.A. Karimov. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. T., «O'zbekiston», 2002, 32-bet.*

Bularning barchasi sud hokimiyatining fuqarolik jamiyatida o'zni, maqsadi va vazifalari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon yaratadi. Ushbu munosabatlar ikki tomonlama bo'ladi, chunki fuqarolarning mustaqil va adolat sudiga ishonchlarigina buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sud hokimiyatiga murojaat qilishga majbur etadi. O'z navbatida, fuqarolik jamiyatining manfaatlari mustaqil, adolat va ochiq sudning ishlab turishiga poydevor yaratadi, shuningdek, sud hokimiyatining samarali amalga oshirilishiga yordam beradi.

Umuman olganda, sud hokimiyatining shakllanishi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning qaror va xatti-harakatlariga ularni tenglashtirish maqsadida faol ta'sir ko'rsatish bo'yicha yuridik imkoniyatini o'z ichiga olgan hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, jamiyatni yemiruvchi ijtimoiy to'qnashuvlardan himoya qilishga yo'naltirilgan tubdan yangi vazifalar sud zimmasiga yuklatilishini nazarda tutadi. Zero, sud-huquq islohoti aynan bu yo'nalishda amalga oshirilmogda. Yurtboshimiz I.A. Karimov aytganidek, «Mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini erkinlashtirish va demokratlashtirish borasida muhim qadamlar qo'yilganini e'tirof etmoq lozim. Buning natijasida mamlakatimizda zamonaviy demokratiya talablariga javob bera oladigan sud tizimi shakllanmogda. Sud bugungi kunda avvalgidek hukmron kommunistik tizimning qatag'on va jazolash apparati emas, balki u har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ishonchli tarzda qo'riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmogda. Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormogda...»<sup>1</sup>.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotining turli bosqichlarida bir qator qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari qabul qilinishi sud hokimiyatining shakllanilishiga yo'naltirilgan edi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonun (yangi tahrirda), Jinoyat protsessual, Fuqarolik protsessual, Xo'jalik protsessual, Jinoyat, Fuqarolik, Mehnat, Oila, Uy-joy kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlarining tar-

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust). Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. T., «O'zbekiston», 2002, 28—29-bet.

kibini takomillashtirish to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil qilish to'g'risida»gi Farmonlari. Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti jarayonida boshqa muhim normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi, «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasini tuzish to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizom va boshqalar. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga, sud va sud xodimlarining obro'sini oshirishga, shuningdek, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va sud organlarini kadrlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan.

Yuqorida keltirilgan tahlil sud-huquq islohoti jarayonida davlat hokimiyatining erkin, mustaqil va kuchli tarmoq sifatida tashkil topgan, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini, konstitutsiyaviy tuzumni, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlarini himoya qilish manfaatida o'z vakolatlarini amalga oshiradigan sud hokimiyati shakllanilishiga qaratilgan ta'sirli choralarda ko'rildi<sup>1</sup>.

### **2.3. O'zbekistonda sud-huquq islohoti**

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari, shu jumladan, sud-huquq sohasi ham isloh qilinishining oliy manbasi sifatida xizmat qiladi.

Oliy Kengashning 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasida Mustaqillik deklaratsiyasi e'lon qilindi va I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat bo'lgan va yangi Konstitutsiya loyihasi ustida ikki yarim yil davomida ishlagan Konstitutsiya komissiyasi tashkil etildi. Komissiya a'zolarining so'zlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiya loyihasi ustida ishlaganida inson huquqlari va sud hokimiyatini tashkil etish masalalariga

---

<sup>1</sup> O'zbekistonda sud hokimiyati mustaqillik davrida shakllanishi masalalari sud-huquq islohoti masalasi doirasida batafsilroq yoritib berilgan.

bag'ishlangan bo'limlarga alohida e'tiborini qaratdi. Xususan, aynan Prezidentning taklifi bo'yicha shaxs daxlsizligi, aybsizlik prezumpsiyasi, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xo'jalik sudlari haqidagi va boshqa muhim masalalarga oid normalar loyihaga kiritildi. Konstitutsiya loyihasining Oliy sud haqidagi me'yori ham bevosita Prezident tomonidan kuchaytirilgan va yaxshilangan.

«Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari sud orqali himoya qilinishi lozim» kabi normani mustahkamlashni nazarda tutgan Konstitutsiya dastlabki loyihasining 19-moddasiga ham jiddiy o'zgartirishlar kiritildi. Konstitutsiya komissiyasi Raisi quyidagi tahrirni taklif etdi: «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas».

Agarda birinchi variantda fuqarolar huquq va erkinliklarining sud orqali himoya qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi variant fuqarolar huquq va erkinliklarining daxlsizligini, shuningdek, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi haqidagi qoidani mustahkamlab, oldini oluvchi tusga ega bo'ldi. Fuqarolarning huquq va erkinliklaridan mahrum etish yoki ularni cheklab qo'yish bo'yicha har bir xatti-harakat uning xususiyatiga qarab, fuqarolik, ma'muriy yoki jinoy javobgarlikka olib keladi. Mazkur konstitutsiyaviy norma Fuqarolik, Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslarida va boshqa qonunlarda o'zining mantiqiy huquqiy rivojini topgan. Davlatimizning rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi ko'rsatilgan konstitutsiyaviy me'yor rivojining yorqin misolidir.

Boshqacha qilib aytganda, Konstitutsiya huquqiy tizimni tashkil etuvchi huquq barcha tarmoqlarini rivojlantirish uchun yuridik baza sifatida xizmat qiladi, bu esa turli huquq tarmoqlarining birligini va muvofiqligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotining boshlang'ich nuqtasi va asosiy huquqiy manbayidir.

Yuqoridagilarga asosan, ta'kidlashimiz lozimki, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, insonparvar de-



mokratik huquqiy davlatni barpo etish hamda ijtimoiy makon sifatida tushuniladigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lini tanlagan. Ko'rsatilgan ijtimoiy makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi, shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to'liq darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlat huquq va manfaatlarining muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish hamda hurmat ruhida tarbiyalash — bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan haqiqiy demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning, nafaqat, maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

Shubhasiz, mafkuraning qonunga nisbatan ustunligini e'lon qiluvchi totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan inson huquqlarining ustunligini ta'minlaydigan haqiqiy demokratik, huquqiy davlat va jamiyatga o'tish maqsadida bir qator qonun bloklarining qabul qilinishi talab qilindi. Shu munosabat bilan, qisqa muddatda sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi. Odil sudlovni amalga oshirish orqali jamiyatda totuvlikni, inson huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashga yo'naltirilgan mustaqil sud hokimiyatining shakllantirishiga imkon bergan mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi qayd etilgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida xizmat qildi.

**Sud-huquq islohotining maqsadlari va bosqichlari.** Davlat hokimiyatining tizimi, jamiyatning iqtisodiy asoslari va jamiyat munosabatlari barcha islohotlarning, shu jumladan, sud-huquq islohotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu bilan birga, jamiyat hayoti isloh qilinishining boshqa yo'nalishlari kabi sud-huquq islohoti ijtimoiy munosabatlarining yanada rivojlanishiga, demokratik o'zgartirishlarning chuqurlashtirilishiga, umuminsoniy ne'matlarni, birinchi navbatda, shaxs, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlarini muhofaza qilish kafolatlarining kuchaytirilishiga ta'sir qilib, ular uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining birinchi navbatdagi maqsadi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, jamiyatda totuvlik va barqarorlikni ta'minlashdir. Sud ti-

zimini takomillashtirish hamda inson huquqlari himoya qilinishini va davlatda ijtimoiy barqarorlik hamda qonuniylikni ta'minlash maqsadini ko'zda tutgan sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash; jinoyatga oid siyosatni liberallashtirish; ishlarni sudga ko'rilishining protsessual tartibini takomillashtirish; sud orqali himoyalashning kafolatlarini kuchaytirish va sudga murojaat qilish erkinligini ta'minlash; inson huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarining faoliyatini takomillashtirish; aholini huquqiy tarbiyalash sohasidagi faoliyatni yaxshilash, uning huquqiy madaniyatini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratish yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning har bir ma'ruzasida chuqur tahlil qilib boriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasida Prezident I.A. Karimov quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «Respublikamizning bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'li va oldimizda turgan vazifalarning ma'no-mohiyati va ahamiyati haqida so'z yuritganda, bu yo'lni alohida ikki davrga ajratish to'g'ri bo'ladi. Hech shubhasiz, bu davrlarning har biri mamlakatimiz tarixida o'ziga xos va o'ziga mos muhim o'rin egallaydi ...

... o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan **dastlabki bosqich — 1991—2000-yillar ...**

**2001-yildan 2007-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich — faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri»<sup>1</sup>.**

**Sud-huquq islohotining birinchi bosqichida (1991—2000-yillar)** sud-huquq tizimini tubdan isloh qilishning milliy strategiyasi belgilandi va uning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari yaratildi. Sudlarni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. 16. T., «O'zbekiston», 2008, 5-bet.

organdan qonun ustuvorligini va inson huquqlari himoyasini ta'minlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi qo'yildi va muvaffaqiyatli hal etildi. Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, umumiy yurisdiksiya sudlari, xo'jalik sudlari joriy etildi. Jinoyat, jinoyat protsessual, sud-huquq va boshqa yo'nalishlarning qonunchilik asosini tashkil etuvchi baza yaratildi.

Mazkur bosqichda, birinchi navbatda, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini, konstitutsiyaviy tuzumni, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'z vakolatlarini amalga oshiradigan sud hokimiyatining davlat hokimiyati erkin, mustaqil va kuchli tarmog'i sifatida tasdiqlanishi bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ta'kidlaganidek, «avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatida organ emas, balki inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi»<sup>1</sup>.

Ushbu maqsadda «Prokuratura to'g'risida»<sup>2</sup>gi (1992-y.) va «Sudlar to'g'risida»<sup>3</sup>gi Qonunlar, Xo'jalik protsessual kodeksi<sup>4</sup> (1993-y.), Jinoyat<sup>5</sup> va Jinoyat protsessual kodekslari<sup>6</sup>, Ma'muriy

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) «Xalq so'zi» gazetasi, 2010-yil 13-noyabr.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T., 1993, № 1, 29-modda.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T., 1993, № 10, 367-modda.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T., 1993, № 10, 371-modda.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T., 1995, № 1, 1-modda.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T., 1995, № 2, 4-modda.

javobgarlik to'g'risidagi kodeks<sup>1</sup> (1994-y.), «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»<sup>2</sup>gi, «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»<sup>3</sup>gi (1995-y.) Qonunlari, Fuqarolik kodeksi<sup>4</sup> (1995—1996-yillar), Fuqarolik protsessual<sup>5</sup> va Jinoyat-ijroiya kodekslari<sup>6</sup>, Xo'jalik protsessual kodeksi (yangi tahrir)<sup>7</sup>, «Advokatura to'g'risida»<sup>8</sup>gi (1997-y.) va «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»<sup>9</sup>gi Qonunlari (1998-y.), Prezidentning «O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlarining tarkibini takomillashtirish to'g'risida»gi, «Xo'jalik sudlarining qarorlari ijrosini ta'minlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari va boshqa bir qator qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Ushbu davr ichida O'zbekiston Advokatlar assotsiatsiyasi va Sudyalar assotsiatsiyasi tashkil qilindi.

2000-yil iyun oyida davlatimiz rahbari I.A. Karimov tomonidan «Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi islohotlar jarayonini erkinlashtirish va chuqurlashtirish» dasturi tasdiqlandi. Mazkur Dasturda boshqa chora-tadbirlar qatorida jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini liberallashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar nazarda tutilganligi inson huquq va manfaatlarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qabul qilingan yo'lning haqqoniy natijasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashti-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T., 1995, № 3, 6-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1995, № 9, 183-modda.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1995, № 9, 178-modda.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1996, № 2-ga ilova, № 11—12.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1997, № 9-ga ilova.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1997, № 6, 175-modda.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1997, № 9, 234-modda.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1997, № 2, 48-modda.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1999, № 1, 12-modda.

rish to'g'risida»gi Farmoni bilan sud tizimining demokratik asoslarini isloh qilish va yanada chuqurlashtirish, sud ishlarining adolatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish hamda umumiy yurisdiksiya sudlarning ixtisoslashuvini amalga oshirish maqsadida, 2001-yil 1-yanvardan boshlab, fuqarolik ishlari bo'yicha va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlar tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilinishi sud-huquq tizimi isloh qilinishi birinchi bosqichining barkamol nihoyasi bo'ldi. Mazkur qonun sud hokimiyati mustaqilligi va erkinligi, uning samaradorligi prinsipial boshqacha va fundamental kafolatlarini aks ettirdi. Ushbu qonunga muvofiq, sudya kadrlarini tanlash va tayinlashning samarali hamda demokratik huquqiy mexanizmi yaratildi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning ixtisoslashuvi qonuniy mustahkamlandi va amalga oshirildi.

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi mamlakatimizning sud tizimini isloh qilish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Qonun mustaqillik davrida sud-huquq sohasida yig'ilgan tajriba mahsuli bo'lib, sud faoliyatini yanada takomillashtirish va demokratlashtirish uchun sharoit yaratdi.

**Sud-huquq islohotining ikkinchi bosqichi 2001-yildan 2007-yilgacha** bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish ushbu bosqichning eng muhim dasturiy vazifasi bo'ldi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan quyidagilar ta'kidlab o'tildi: «Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichidagi bosh strategik vazifa — bu 2000-yil iyun oyida qabul qilingan, jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi islohotlar jarayonini erkinlashtirish va chuqurlashtirish Dasturini amalga oshirishdan iborat ...»

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 1—2, 10-modda; 2002, № 1, 20-modda; 2004, № 1—2, 18-modda.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. T., «O'zbekiston», 2008, 40—42-bet.

Mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini erkinlashtirish va demokratlashtirish borasida muhim qadamlar qo'yilganini e'tirof etmoq lozim. Buning natijasida mamlakatimizda zamonaviy demokratiya talablariga javob bera oladigan sud tizimi shakllanmoqda.

Sud bugungi kunda avvalgidek hukmron kommunistik tizimning qatag'on va jazolash apparati emas, balki u har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ishonchli tarzda qo'riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylan-yapti. Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormoqda.

Bugun bizning huquqiy doktrinamiz mutlaqo yangicha, demokratik tamoyillarga asoslangan. U, eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra, inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlaydi. Inson himoyaning bosh subyekti bo'lib, uning hayoti va sog'lig'iga suiqasd qilish og'ir jinoyat hisoblanadi. Lekin shuni afsuslanib tan olishimiz kerakki, hali-beri qonunchiligimizda ham, qonunni qo'llash faoliyatimizda ham o'tmish zamonning illatlaridan hamon qutula olmayapmiz.

Bugun jinoyat uchun jazo tayinlash borasida yuqorida keltirilgan yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqish vaqti yetdi<sup>1</sup>. Shu munosabat bilan, «mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq qilindi»<sup>2</sup>.

2001-yilda «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda nazarda tutilgan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlar o'z faoliyatini amalga oshirish boshlandi, jinoiy jazolarni liberallashtirish, odil sudlov samaradorligini oshirish, sudda ish ko'rilishining mud-datlarini qisqartirish ishlari, apellatsiya institutini joriy etish va jinoyat va fuqarolik ishlarini kassatsiya tartibida ko'rilishini o'zgar-tirish, sud qarorlarini ijro etishni takomillashtirish kabi vazifalar amalga oshirildi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. T., «O'zbekiston», 2002, 28—37-bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. 16. T., «O'zbekiston», 2008, 40-bet.

Sud-huquq islohotini chuqurlashtirishga, butun odil sudlov tizimini yanada demokratlashtirishga qaratilgan bir qator qonunlar O'zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan qabul qilindi. Mazkur bosqichda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi:

- sud hujjatlari, shuningdek, boshqa organlar (mansabdor shaxslar) hujjatlari majburiy ijro etilayotganda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonun (2001-y.). Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti organlarining sud ijrochilari zimmasiga yuklatiladi. Ijro ishi yuritish sud ishlarini yuritishning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil huquqiy instituti bo'lganligi sababli ko'rsatilgan Departament tashkil etildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlisga kiritilgan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»<sup>2</sup>gi Qonun (2001-y.). Mazkur qonunda sodir qilingan jinoyatlar, ayniqsa, iqtisodiy sohaga oid jinoyatlar uchun tayinlanadigan jazolarning liberallashtirilishi nazarda tutilgan. Ushbu Qonunning qabul qilinishi bilan sud amaliyotiga mutlaqo yangi taraflar yarashuvining huquqiy mexanizmi joriy etildi. Amaldagi qonunlarga kiritilgan o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi jinoyat, jinoyat protsessual va ma'muriy qonunchiligini yangi mazmun bilan boyitishdi;

- Oliy Majlisga davlatimiz rahbari tomonidan kiritilgan va, birinchi navbatda, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipini ta'minlashga yo'naltirilgan «Prokuratura to'g'risida»<sup>3</sup>gi Qonun (yangi tahrirda,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 169-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 165-modda.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 168-modda; 2003, № 5, 67-modda.

2001-y.). Mazkur hujjatda Qonun oldingi tahririning qabul qilinishi paytidan mamlakatimizda ro'y bergan o'zgarishlar aks ettirildi. Qonunning yangi tahririga prokuratura organlarining huquqiy maqomi, vazifalari, faoliyatining huquqiy asoslari, asosiy yo'nalishlari va prinsiplarini belgilaydigan normalar kiritildi. Prokuratura organlarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini tartibga soluvchi norma ham ilk bor kiritildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»<sup>1</sup>gi, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi to'g'risida»<sup>2</sup>gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi umumiy yurisdiksiya sudlarining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 29-avgustda bo'lib o'tgan VI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi yangi Qonuni qabul qilinishining yakunlari tahlil qilindi: amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sud-huquq sohasida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar ta'kidlab o'tildi; mustaqil va faqat qonun oldida javob beruvchi sud hokimiyatining shakllanishi; fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlar tashkil etilishi orqali sudlar ixtisoslashuvining amalga oshirilishi; sud kadrlarini tanlash va tayinlashning eng samarali va demokratik mexanizmini joriy etilishiga yo'l ochib bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining tashkil etilishi kabi masalalar, shuningdek, sudlarda ishlar ko'rib chiqilishi protsessual tartibini takomillashtirishga oid jinoyat protsessual va fuqarolik protsessual qonunchiligiga kiritilgan ayrim o'zgartirishlar muhokama qilindi.

Shu bilan birga, ushbu sessiyada sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan quyidagi vazifalar qo'yildi. Prezident I.A. Karimov aytib o'tganidek, «Eng av-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2000, № 7—8, 246-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 204-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 12—13, 89-modda.



valo, jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insoniylik kabi tamoyillarining kuchayishini va amalda qo'llanishini ta'minlashimiz zarur».

Ayrim jinoyatlarni uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar va og'ir jinoyatlar toifasidan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazish; jarima kabi iqtisodiy ta'sir choralarini jazo sifatida qo'llash bo'yicha imkoniyatlarni kengaytirish; Konstitutsiyada nazarda tutilgan erkinlik huquqini cheklash bilan bog'liq bo'lmagan garov, munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat kabi boshqa ehtiyot choralarini qo'llash; o'lim jazosining jinoiy jazo chorasi sifatida qo'llanilishi muammolari; mol-mulkni musodara qilish jazosini jinoiy jazo tizimidan chiqarib tashlash; voyaga yetmaganlar, ayollar va keksalarga nisbatan qo'llanadigan jazo tizimini qayta ko'rib chiqish lozimligi; jinoyat ishlarni tergov qilish va hibsdan saqlash muddatlarini qisqartirish kabi masalalar kun tartibiga qo'yildi. Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti doirasida barcha ko'rsatilgan masalalar lozim ravishda hal qilindi.

O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni o'lim jazosining jinoiy jazo chorasi sifatida aholi va sudyalik korpusi tomonidan qayta tushunib yetishini rasmiylashtirdi. Erishgan natijalardan tashqari, izchil amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti ushbu jazo chorasidan voz kechishga imkon berdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»<sup>1</sup>gi (01.08.2005-y.) hamda «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»<sup>2</sup>gi (08.08.2005-y.) Farmonlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi «O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»<sup>3</sup>gi va «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 30—31, 223-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 32—33, 242-modda.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2007, № 6, 248-modda.

munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida<sup>1</sup>gi Qonunlari ishlab chiqildi va parlament tomonidan qabul qilindi.

Sud-huquq islohotining ikkinchi bosqichida boshqa qonunlar ham qabul qilindi. Ushbu qonunlar bilan «Sudlar to'g'risida»gi va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunlarga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual, Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Xo'jalik protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlashga, inson va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga, sudlarda ishlar ko'rilishining protsessual tartibini takomillashtirishga qaratilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar<sup>2</sup> kiritildi.

**Uchinchi bosqich 2008-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davrni** o'z ichiga qamrab oladi. Mamlakat rahbariyati tomonidan sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va liberallashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar (sud obro'sini oshirish, sud qarorlari ijro etilishini va malakali yuridik yordam ko'rsatilishini ta'minlash) amalga oshirilishi mazkur bosqichning o'ziga xos xususiyatidir.

Xususan, sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitutsiyaviy normani amalga oshirish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta'minlash, uni yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirish, advokatlarning mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish, advokatlik kasbining obro'si va nufuzini oshirish maqsadida 2008-yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»<sup>3</sup>gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan qonunning konseptual qoidalarini belgiladi<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2007, № 6, 249-modda.

<sup>2</sup> *Qarang:* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2005, № 9, 314-modda, № 12, 417, 418-moddalar; 2006, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007, № 4, 166-modda, № 6, 248, 249-moddalar, № 9, 422-modda, № 12, 594, 595, 607-moddalar.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 18, 144-modda.

<sup>4</sup> Qonun qoidalari darslikning 15-bobida ochib berilgan.

Sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va liberallashtirish, sudning obro'sini oshirish, odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlash, sudlar faoliyatiga aralashishga hamda g'ayriqonuniy sud qarorlari chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 2008-yil 23-iyunda davlatimiz rahbari tomonidan «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida»gi Qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori sud-huquq islohotini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Qarorida qonuniy darajada ilk bor «sud qonunchiligi» tushunchasi ishlatilgan. Bu esa sud huquqi mustaqil huquq tarmog'i sifatida e'tirof etilishini bildiradi. Sud huquqi — bu sud hokimiyati to'g'risidagi qonunchilikdir. U fuqarolik, jinoyat, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, xo'jalik protsessual, ma'muriy va ma'muriy protsessual hamda odil sudlov qonunchilik bazasini ta'minlovchi boshqa huquq tarmoqlari bilan yaqin aloqada bo'ladi. Shubhasiz, sud huquqi mustaqil huquq tarmog'i sifatida e'tirof etilishining o'zi ushbu huquq tarmog'ining rivojlanishi uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi<sup>1</sup>.

2008-yil 23-dekabrda «Amnistiya aktini qo'llash tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun amnistiya aktini qo'llash bo'yicha sud tartibini belgilaydi, bu esa ishni sudga qadar yuritish ustidan sud nazorati sohasini kengaytirishga imkon beradi<sup>2</sup>.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur va keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi, yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga soluvchi mustahkam huquqiy baza yaratildi. Shu bilan birga, qonun va boshqa huquqiy hujjatlar soni ko'payishi bilan yangi qonunchilikni amalga oshirish muammosi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ldi. Ijro etish butun huquqiy tartibga

<sup>1</sup> Tadqiqot markazining huquqiy maqomi darslikning 7-bobida ko'rib chiqilgan.

<sup>2</sup> Mazkur masala «Jinoyat protsessual huquqi» fanining o'rganish predmeti hisoblanadi.

solish mexanizmining samaradorligini hamda inson xulq-atvor motivatsiyasiga ta'sir etish bo'yicha huquqning qobiliyatini aks ettiruvchi huquqiy amaliyotning eng muhim uchastkasi bo'lganligi jamiyat tomonidan tushunildi. Agarda huquqiy normalarning ko'rsatmalari fuqarolik muomalasi va ommaviy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xatti-harakatlarida amalga oshirilmayotgan bo'lsa, bunday huquq aslida amaldagi bo'lmaydi. Huquqiy normalar, shu jumladan, sud hokimiyati organlari va boshqa yurisdikcion organlar hujjatlarida o'z tasdig'ini topgan normalar majburiy ijro etilishi tartibining takomillashmaganligi jamiyat uchun juda qimmatga tushadi va mamlakatdagi iqtisodiy holatga ta'sir etadi. Majburiy ijro etish imkoniyatlarining yo'qligi fuqarolik muomalasi munosabatlarida kreditorga qaraganda qarzdor bo'lish foydaliroq bo'lib qolishiga, raqobat darajasi va iqtisodiy muomala-sida sheriklarni tanlash imkoniyati pasayishiga olib keladi, ko'plab hollarda shaxslarni undiruvning va majburiyatlarni ijro etishga majburlashning g'ayriqonuniy usullaridan foydalanishga undaydi, fuqarolik muomalasi munosabatlari kriminallashtirilishining sababi bo'ladi. Bundan tashqari, majburiy ijro etishning yomon tizimi sud hokimiyati organlari samaradorligi va obro'sining pasayib ketishiga to'g'ridan to'g'ri olib keladi, chunki amalga oshirilmasdan qolib ketayotgan sud qarori haqiqiy yuridik ahamiyatga ega emas.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov sud qarorlarini ijro etish tizimini takomillashtirish zarurati bilan bog'liq masalalarni bir necha marta qo'ygan va tegishli vazifalarni belgilagan<sup>1</sup>. Ijro ishi yuritishni yanada takomillashtirish maqsadida 2009-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi «Ijro ishi yuritish takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-458-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 36, 360-modda; 2007, № 45, 451-modda; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 1-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud departamentining sud qarorlarini ijro etish, moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-722-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 45, 541-modda; 2010, № 14—15, 102-modda.

Mazkur Qonun qabul qilinishi majburiy ijro etish mexanizmi takomillashtirilishi bilan bog'liq bir qator dolzarb masalalarni hal qilishga imkon beradi; ushbu Qonunda sud ijrochilarining davlat organlari, kredit tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan ijro hujjatlarini ijro etish jarayonida hamkorligi mexanizmlari mustahkamlangan; ijro hujjatlarining ijrosini ta'minlashda sud ijrochilariga ko'maklashish bo'yicha ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, banklar va boshqa kredit tashkilotlari, davlat soliq xizmati organlari, g'aznachilik organlari va Davlat chegarasini qo'riqlash organlarining majburiyatlari belgilangan; Sud departament faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga, sud ijrochilarining maqomini oshirishga qaratilgan normalar nazarda tutilgan.

Umuman olganda, mazkur qonun qabul qilinishi mamlakatda qonun ustuvorligini hamda ijro hujjatlarining so'zsiz ijro etilishini ta'minlashga, fuqarolar va yuridik shaxslar huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishining kafolatlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan sud-huquq islohotining manfaatlariga xizmat qiladi.

*O'zbekiston Respublikasining sud tizimini shakllantirish va sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash.* O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati inson va fuqaroning huquq-erkinliklarini himoya qilish davlat vazifasini bajaradi. Insonning huquq va erkinliklari, nafaqat, qonunlarning ma'nosi, mazmuni va qo'llanilishini, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarining faoliyatini, balki sud hokimiyati o'zining ma'nosi va mazmunini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining sud tizimi oldida juda muhim vazifa qo'yilgan — davlat organlarini va har bir shaxsni inson huquqlarini hurmat qilishga majbur qilish, mavhum huquqiy normalarni haqiqiy huquq va majburiyatlarga aylantirish, davlat tomonidan uning inson oldidagi majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohoti bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilgan. Sud-huquq tizimini muvaffaqiyatli va samarali isloh qilish uchun *O'zbekiston Respublikasining sud tizimini tashkil etish va takomillashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash* bo'yicha birinchi navbatdagi vazifa qo'yildi.

Inson huquqlarini himoya qilish, davlatda ijtimoiy barqarorlik va qonuniylikni ta'minlash maqsadlarini ko'zda tutuvchi sud ho-

kimiyatini shakllantirish O'zbekiston Respublikasidagi sud islohoti birinchi bosqichining asosiy mazmunidir.

Birinchi bosqich doirasida, birinchi navbatda, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini, konstitutsiyaviy tuzumni, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'z vakolatlarini amalga oshiradigan sud hokimiyatini davlat hokimiyatining faqat qonunga bo'ysunuvchi, mustaqil va kuchli tarmog'i sifatida tasdiqlanishi bo'yicha samarali choralar ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlaridan iborat va hozirgi kunda o'z faoliyatini samarali amalga oshiruvchi yaxlit sud tizimi tashkil etildi. Sudlarning davlat hokimiyati boshqa tarmoqlari bilan o'zaro munosabatlarini hamda sudlar zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish tartibini belgilaydigan, shuningdek, sud hokimiyati va sudlarning mustaqilligini kafolatlaydigan tegishli qonunlar qabul qilinishi orqali sudlarning odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyati qonuniy ta'minlangan.

2000-yil 14-dekabrda «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi sud hokimiyati mustaqilligi, erkinligi va samaradorligining prinsipial boshqacha va fundamental kafo-latlarini qonuniy mustahkamladi. Mazkur Qonunga muvofiq, sudya kadrlarini tanlash va tayinlash samarali hamda demokratik huquqiy mexanizmi yaratildi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning ixtisoslashuvi qonuniy mustahkamlandi, sudyalarning ixtisoslashuvi amalga oshirildi. Hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirish uchun sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash masalalari, xususan, sudya kadrlari masalasi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tashkil qilingan maxsus organ — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi shug'ullanmoqda.

Sudlar mustaqilligini mustahkamlash, sudlar faoliyatini tashkiliy, moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-sentabrdagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli organ tashkil etildi — Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti va uning joylardagi bo'limlari.

## 2.4. O'zbekiston Respublikasi sud tizimining umumiy ta'rifi

Yuqorida aytib o'tilganidek, sud hokimiyatini amalga oshirish vazifasi tashkil etilgan maxsus organlarning, ya'ni sudlarning zimmasiga yuklatilgan. O'z navbatida, sudlar yagona tizimni tashkil qiladilar. O'zbekiston Respublikasida sud tizimini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni belgilaydi. O'zbekistonda sud hokimiyati faqat sudlarga, ya'ni ularning vakillari bo'lgan sudyalarga va odil sudlovni amalga oshirish jarayoniga qonunda belgilangan tartibda jalb qilinadigan xalq vakillariga, ya'ni xalq maslahatchilariga taqdim etiladi. Sud hokimiyat vakolatlari boshqa organlar yoki shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi qonun tomonidan man etiladi. Mukammal sud tizimi, nafaqat, ayrim sudlar vakolatlarining belgilanishiga imkon beradi, balki sud orqali himoyalanih erkinligi prinsipining amalga oshirilishini va odil sudlov samaradorligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi sud tizimini takomillashtirish va sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi paytidan boshlangan sud-huquq islohotining birinchi navbatdagi vazifasi sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sud tizimining huquqiy asosini belgilaydi. Konstitutsiyaning 107-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, shuningdek, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat. Shunday qilib, O'zbekistonda tashkil etilgan va o'z faoliyatini amalga oshiradigan sud tizimi quyidagi uch kichik tizimni o'z ichiga qamrab oladi:

1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman,

shahar sudlari, shuningdek, harbiy sudlardan iborat umumiy yurisdiksiya sudlari. Harbiy sudlar tizimi, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan iborat.

3) Xo'jalik sudlari. Mazkur sudlar O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlaridan iborat.

Konstitutsiyaviy sud tashkil etilishi va faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunida belgilangan. Umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlari tashkil etilishi va faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida favqulodda sudlar tuzish Konstitutsiya va «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni bilan taqiqlanadi. Qonunga asosan, odil sudlovning samaradorligini va tezkorligini, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab, sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi sud tizimini takomillashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash maqsadida umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni qoidalari 2000-yil 14-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan hamda fuqarolik ishlari va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlarning tashkil etilishini nazarda tutgan O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi orqali amalga oshirildi.

Umuman olganda, yangi tahrirda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonun bilan sud tizimi tubdan isloh qilindi.

Xususan:

- sud tizimi takomillashtirildi, sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirildi: ishlar malakali ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tashkil etildi;

- hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirish uchun sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash masalalari, xususan, sudya kadrlari masalasi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tashkil qilingan maxsus organ —



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasi shug‘ullanadi;

- sudyalik lavozimlariga nomzodlarni taqdim etish, sudya vakolatlarini to‘xtatish va muddatidan ilgari tugatish, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha ish yuritishni qo‘zg‘atish, sudlar faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni vaqt-vaqti bilan tinglash bo‘yicha vakolatlar ijro etuvchi organi bo‘lgan Adliya vazirligining vakolati doirasidan chiqarildi. Bu esa sudlar Adliya vazirligining ta‘siridan to‘liq ozod etilishini ko‘rsatadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli organ — Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta‘minlash Departamenti tashkil etildi;

- sudyalar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha sudyalar malaka hay‘atlarining vakolatlari kengaytirildi, mazkur hay‘atlarning zimmasiga sudya kadrlari birlamchi zaxirasini shakllantirish majburiyati yuklatildi;

- sudya kadrlarini tanlash va tayinlashning huquqiy mexanizmi yaratildi, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash bo‘yicha ko‘p bosqichli tizim joriy etildi.

## 2.5. Sud tizimi bo‘g‘ini va sud instansiyasi tushunchasi

Fuqarolik, jinoyat va ma‘muriy sud ishlari umumiy yurisdiksiya sudlarida ko‘rib chiqiladi. Umumiy yurisdiksiya sudlari tizimining tashkiliy asoslari O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunida mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi uning milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishiga mos bo‘lib, tarkibiy jihatdan tuman, viloyat va respublika bo‘g‘inlaridan iborat.

*Sud tizimi bo‘g‘ini*, bu — O‘zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq tashkil etilgan hamda bir xil vakolatlarga ega bo‘lgan bir turdagi sudlar majmuyidir.

«Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq, umumiy yurisdiksiya sudlari tizimi uch bo‘g‘indan iborat:

1) *asosiy bo‘g‘in* — fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari;

2) *o'rtta bo'g'in* — Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;

3) *oliy bo'g'in* — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.

Aynan shu tarzda umumiy yurisdiksiya sudlari tizimiga kiruvchi harbiy sudlar ham bo'linadi:

1) *asosiy bo'g'in* — okrug va hududiy harbiy sudlari;

2) *o'rtta bo'g'in* — O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi;

3) *oliy bo'g'in* — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati.

Umumiy yurisdiksiya sudlaridan farqli ravishda xo'jalik sudlari uch bo'g'in o'rniga ikki bo'g'indan iborat tuzilmaga ega:

1) *asosiy bo'g'in* — Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari;

2) *oliy bo'g'in* — O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi.

Agarda «bo'g'in» tushunchasi umumiy yurisdiksiya sudlari tizimini tashkiliy tuzilishi nuqtayi nazaridan ta'riflagan bo'lsa, «instansiya» tushunchasi mazkur tizimni u tomonidan bajarilayotgan vazifalar nuqtayi nazaridan ta'riflaydi.

Sud ishlarini hal qilish bilan bog'liq bo'lgan ayrim sudlov vazifasini (ishning mazmuni bo'yicha qaror qabul qilish, qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish) bajaruvchi sud (yoki uning tarkibiy bo'linmasi) **sud instansiyasi** hisoblanadi.

Sud instansiyalari quyidagi turlarga bo'linadi: birinchi, apel-latsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari.

O'zbekiston Respublikasi umumiy yurisdiksiya sudlarining har biri ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida ko'rish mumkin. Vakolati qonunda belgilangan birinchi instansiya sudi sifatida muayyan ishni ko'rish jarayonida sudlar mazkur ishning mazmuni bo'yicha qaror qabul qilishga haqli. Agarda jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instansiya sudi sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybli yoki aybsizligi, shuningdek, jazo qo'llash zarurligi va jazoning turi hamda me'yorini belgilash haqidagi masalalarni hal qilishi lozim bo'lsa, fuqarolik ishlarida mazmun bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar doirasiga taqdim etilgan da'vo-ning isbotlanganligi yoki isbotlanmaganligi hamda ro'y beradigan yuridik oqibatlar haqidagi masalalar kiradi.

O'rta va oliy zvenoga kiruvchi sudlar, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari; O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hay'atlari apellatsiya va kassatsiya instansiya sudining vakolatlariga ega. Apellatsiya va kassatsiya instansiya sudlari sifatida qayd etilgan sudlar birinchi instansiya sudi tomonidan chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatliligi yuzasidan berilgan shikoyatlarni va bildirilgan protestlarni ko'rib chiqishadi. Apellatsiya instansiyasi sudida qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlarining qonuniyligi va asosiligi tekshiriladi, qonuniy kuchga kirgan va apellatsiya tartibida ko'rilma- gan sudning qarorlari (hukmlari) ustidan esa kassatsiya instansiya sudiga shikoyat qilish mumkin.

Hukmlar va boshqa sud qarorlari apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilganidan so'ng protest berish huquqiga ega bo'lgan sud raisi, prokuror yoki ularning o'rinbosarlari tomonidan bildirilgan protestlarga asosan, mazkur qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatliligi nazorat instansiya sudi tomonidan tekshiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi rayosati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi hay'atlari va rayosati ishlarni nazorat tartibida ko'rish vakolatiga ega.

Nazorat tartibida ish yuritish uchun apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan va qonuniy kuchga kirgan hukm, ajrim (qaror)ning mavjud bo'lishidan tashqari, tegishli mansabdor shaxslar alohida qarorga kelishlari shart bo'lganligi sababli, mazkur tartibda ish yuritish apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ish yuritishdan farq qiladi. Ya'ni maxsus vakolatli mansabdor shaxs (yuqori turuvchi sudining raisi yoki prokuror) nazorat tartibida ishni ko'rib chiqish zarurligi haqidagi alohida qarorga kelgan taq- dirdagina, ishning nazorat tartibida (shuningdek, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan) ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

Xo'jalik sudlarida asosiy bo'g'inga kiruvchi barcha sudlar va Oliy xo'jalik sud ishni birinchi instansiya sudi sifatida ko'rishi mumkin. Asosiy bo'g'inga kiruvchi sudlar apellatsiya instansiya sudi bo'lishlari mumkin; Oliy xo'jalik sudi esa ishlarni kassatsiya va nazorat instansiya sudi sifatida ko'rishga haqli.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

«Sud hokimiyati» tushunchasi talabalar tomonidan davlat-hokimiyat faoliyatining mustaqil sohasi sifatida hamda hokimiyatlar bo'linishi nuqtayi nazaridan ko'rilishi zarur. Bunda asosiy e'tiborni «odil sudlov» deb nomlanadigan yurisdiksiya sohasini o'rganishga qaratish lozim. Aynan shu soha konstitutsiyaviy tartibga solishning eng asosiy obyeksi sifatida ajratiladi va odil sudlov amalga oshirilishining konstitutsiyaviy prinsiplari orqali ta'minlanadi.

Talabalar O'zbekiston Respublikasi hozirgi sud tizimini o'rganganida uning tuzilmasini, u tomonidan hal qilinadigan vazifalarni, huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunib olishlari kerak. Sud tizimi har bir alohida blokining, ya'ni Konstitutsiyaviy sud, umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlarining vakolatlari masalasini tushunib olish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, talabalar sud tizimi tashkil etilishining elementi sifatida «sud bo'g'ini» va sud tizimi doirasida muayyan ish yuritishning bosqichlarini ta'riflaydigan «sud instansiyasi» kabi tushunchalarni aniqlab olishlari kerak.

O'zbekistonda sud-huquq islohotining bosqichlari talabalar tomonidan o'rganilishi erishilgan natijalarni tushunish imkonini beradi.



### NAZORAT SAVOLLARI

1. Hokimiyatlar bo'linishi konsepsiyasining mazmunini qisqacha bayon eting va uning asosiy ahamiyatini belgilang.
2. Sud hokimiyati deganda nima tushuniladi?
3. «Sud hokimiyati» tushunchasi mazmunini ochib bering.
4. Sud hokimiyatining belgilarini bilasizmi?
5. Sud hokimiyatining vakolatlari nimalardan iborat?
6. O'zbekistonda sud hokimiyati shakllanilishi jarayonini ochib bering.
7. Mustaqil O'zbekistonda sud-huquq islohotining bosqichlarini ochib bering.
8. Sud tizimi deganda nima tushuniladi?
9. Umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlarining bo'g'inlarini bayon eting.
10. Qanaqa sud instansiyalari sizga ma'lum?

### MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Hokimiyatlar bo'linishi tizimida sud hokimiyati o'rmini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
2. «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning yangi va eski tahririni tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
3. Xorijiy davlatlar sud tizimlarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
4. O'zbekiston hududida sud hokimiyati shakllanilishi jarayoni haqida tahliliy ma'ruza tayyorlang. Ish shakli — *referat*.

## Axborot uslubiy ta'minot

1. *I.A. Karimov*. Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar. (XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2- va 3-iyulda so'zlangan nutq.) O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. T., «O'zbekiston», 1996.

2. *I.A. Karimov*. O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida 1992-yil 8- va 10-dekabrda so'zlangan nutq.) O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. T., «O'zbekiston», 1996.

3. *I.A. Karimov*. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1996.

4. *I.A. Karimov*. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. T., «O'zbekiston», 2002.

5. *I.A. Karimov*. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo, hamkorlik yo'li. T.11. T., «O'zbekiston», 2003.

6. *I.A. Karimov*. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2005-yil 28-yanvar.) O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. T., «O'zbekiston», 2005.

7. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

8. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

## Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. Сб. межд. документов. Сост. Ю.С. Пулатов. Т., «SHARQ», 1995.

3. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabdagi 162-II sonli Qonuni bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasi 1995-yil 30-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi 103-I sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 23-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil qilish to'g'risida»gi PF-2421-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-2682-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3023-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2002, № 3—4, 26-modda.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi PF-3644-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 32—33, 242-modda.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PF-3994-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2008, № 5, 253-modda.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 4-maydagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasini tuzish to'g'risida»gi PF-2599-sonli Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-896-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

12. «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi PQ-896-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma plenumining 1996-yil 20-dekabdagi «Sud hokimiyati to'g'risida»gi 1-qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

14. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining 2006-yil 22-dekabdagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining «Sud hokimiyati to'g'risida»gi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 14/151-qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi axborotnomasi. T., 2007, № 2.

## Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan oʻquv-uslubiy qoʻllanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.

2. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev*. Inson huquqlarini himoya qilishda — xalqaro va milliy qonunchilik normalarining amal qilishi. Risola. T., TDYI, 2008.

3. *Ф.Ф. Мухитдинова*. Демократизм и социальная справедливость при подборе судебных кадров. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. Т., 2002, № 3—4.

4. *Б. Мустафаев*. Укрепление независимости судов — веление времени. Газета «Народное слово», 24 февраля 2007 года.

5. Организация деятельности судов. Учебник. Под общ. ред. В.М. Лебедева. М., «Норма», 2007.

6. Правоохранительные органы. Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. М., «Норма», 2007.

7. *В.А. Ржевский, Н.М. Чепурнова*. Судебная власть в Российской Федерации: конституционные основы организации и деятельности. М., 1998.

8. Правоохранительные органы России. Учебник. Под редакцией В.П. Божьева. 2-изд., перераб. и доп. М., «Высшее образование», 2009.

9. *М.Н. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva*. Sud hokimiyati va Oʻzbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.

10. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., TDYI, 2008.

11. Sud-huquq tizimini isloh qilish (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» maʼruzasi asosida). Oʻquv-uslubiy majmua. T., TDYI, 2011.

### 3-bob. ODIL SUDLOV TUSHUNCHASI VA PRINSIPLARI

#### **O'quv maqsadlari**

*Talabalar uchun mazkur mavzu o'rganilishi odil sudlov va uning demokratik prinsiplari kabi tushunchalarni aniqlab olishga; odil sudlovning asosiy belgilarini va odil sudlov prinsiplari tizimini ko'rib chiqishga; odil sudlov prinsiplarini tasniflashga; odil sudlov prinsiplari rivojlanishini tushunib olishga; odil sudlovni amalga oshirishda prinsiplar o'rni va rolini aniqlab olishga imkon beradi.*

#### **3.1. Odil sudlov va uning demokratik prinsiplari**

**Odil sudlov tushunchasi.** Sud hokimiyatining eng asosiy vazifasi — odil sudlovni amalga oshirishdir. «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Bu odil sudlov sud hokimiyatining mutlaq vakolati ekanligini anglatadi.

#### **• Yodda saqlang! •**

*Odil sudlov — bu sud va faqat sudning faoliyati.*

Odil sudlov o'z shakli va mazmuni bo'yicha o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradigan bir necha ma'noda ko'rilishi mumkin:

- 1) davlat faoliyatining turi sifatida;
- 2) sud hokimiyatining vakolati sifatida;
- 3) huquqni muhofaza qilish faoliyatining yo'nalishlari (funktsiyalari)dan biri sifatida.

Odil sudlovning yanada maxsus tushunchalari ham mavjud: ishni mazmunan hal qilish; ish bo'yicha ish yuritish jarayoni (sud ishlarini yuritish).

*Odil sudlov davlat faoliyatining turi sifatida.* Mazkur ma'noda odil sudlov oldingi mavzu doirasida hokimiyatlar bo'linishi tizimida sud hokimiyatining o'rni masalasi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi.



*Odil sudlov sud hokimiyatining vakolati sifatida.* O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi qo‘shma plenumining «Sud hokimiyati to‘g‘risida»gi qarorida sud hokimiyatining quyidagi ta‘rifi berilgan: «Sud hokimiyati — bu sudlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so‘zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik ishlarini va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha vakolatidir»<sup>1</sup>.

Mazkur ta‘rifda odil sudlov, *birinchidan*, sud hokimiyatining vakolati sifatida; *ikkinchidan*, ishni mazmunan hal qilish (nizo va kelishmovchiliklarni hal qilish) sifatida; *uchinchidan*, sud ishlarini yuritish (jinoiyat, fuqarolik, xo‘jalik va ma‘muriy sud ishlarini yuritish) sifatida belgilanmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, ko‘p hollarda sud hokimiyati va odil sudlov tushunchasi bir-biriga tenglashtiriladi. Bu sud organlari paydo bo‘lishi va sud hokimiyatining shakllanishi davridan buyon mavjud bo‘lgan sud hokimiyatining tor tushunilishi. Hozirgi kunda sud hokimiyatiga nisbatan ilmiy yondashuv odil sudlovni mazkur hokimiyatning vazifalaridan biri sifatida belgilaydi, bu esa odil sudlovning nizo va kelishmovchiliklarni hal qilish vositasi sifatida o‘rganilishiga sabab bo‘lmoqda.

**Odil sudlov** turli nizolarni hal qilish vositasi va jamiyat subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy kuch bo‘lib, ushbu munosabatlarning huquqiy normalarga muvofiqligini ta‘minlaydi.

Nizo va kelishmovchiliklarni hal qilishda sud mustaqil, xolis va adolatli hakam bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikr ancha oldin jamiyatda qaror topgan. Odil sudlov orqali qonunda to‘g‘ridan to‘g‘ri belgilab qo‘yilgan, yuridik tusga ega bo‘lgan ijtimoiy kelishmovchiliklar hal qilinadi (sudlovga tegishlilik institutlari).

Kelishmovchilik turiga qarab, sud ishlarini yuritishning jinoiyat, fuqarolik, ma‘muriy va xo‘jalik turlari ajratiladi<sup>2</sup>. Eng umumiy tarzda sud ishlarini yuritishning quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin:

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to‘plami. 1-jild. T., «O‘qituvchi», 2007, 61-bet.

<sup>2</sup> Buzilishi huquqiy kelishmovchilikning vujudga kelishiga olib kelgan normalar moddiy huquq predmeti bo‘lsa (Jinoiyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi), kelishmovchilik hal qilinishi tartibini belgilovchi normalar protsessual huquqning predmeti hisoblanadi.

• *Jinoyatga oid sud ishlarini yuritish.* Jinoyat huquqi amal qilishi sohasida kelishmovchilik jinoyatchi va jamiyat manfaatlariga qarshi xulq-atvorning eng xavfli turlarini taqiqlovchi qonun o'rtasida vujudga keladi. Bu to'qnashuv jinoyat sud ishlarini yuritish tartibida hal qilinadi.

• *Ma'muriy huquqbuzarliklarga oid sud ishlarini yuritish.* Ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etadigan shaxslar va qonun o'rtasidagi kelishmovchiliklar, mazkur huquqbuzarliklar haqidagi ishlar sudlar vakolatiga kirgan hollarda, ma'muriy sud ishlarini yuritish tartibida hal qilinadi.

• *Fuqarolik sud ishlarini yuritish.* Fuqarolik, oila, mehnat va boshqa munosabatlardan vujudga keladigan nizolar fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida hal qilinadi.

• *Xo'jalik sud ishlarini yuritish.* Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan nizolar xo'jalik sud ishlarini yuritish tartibida hal qilinadi.

Shunday qilib, odil sudlov — bu jinoyat, ma'muriy, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishdir.

Ishlar ko'rib chiqilishi jarayonida va uning natijalariga ko'ra, sud qarorlar chiqaradi, ko'p hollarda ular sud hujjatlari deb nomlanadi. Sud hujjatlari o'z maqsadlariga ko'ra va sud ishlarini yuritishning turlariga qarab, turli shakllarda qabul qilinishi mumkin: *ajrim, hukm, hal qiluv qaror, qaror* va h.k.

Sud hujjatlarining o'ziga xos xususiyati — ularning hamma uchun majburiy bo'lishidir. Mazkur qoida Konstitutsiyaning 114-moddasida mustahkamlab qo'yilgan: «Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir». Bu moddaning ma'nosidan shu kelib chiqadiki, jinoyat, fuqarolik yoki xo'jalik ishini ko'rib chiqishda sud tomonidan chiqarilgan hukm, ajrim yoki qaror barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

*Odil sudlov huquqni muhofaza qilish faoliyatining yo'nalishi sifatida.* Odil sudlov huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida quyidagi belgilar bilan ta'riflanadi:

1) odil sudlov faqat maxsus vakolatli davlat organlari bo'lgan sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Hech qanday boshqa organ yoki boshqa mansabdor shaxs mazkur faoliyatni amalga oshirishga haqli emas. Ko'rsatib o'tilganidek, sud hokimiyati vakolatlarining o'ziga xos xususiyatlari mazkur hokimiyatni amalga oshiruvchi organ qonuniylik va adolatlilik manfaatlarini taqozo etadigan tartibda tashkil etilishini va faoliyat yuritishini talab qiladi. Sudlar tashkil etilishi tartibining, shuningdek, sudlar va hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlarini amalga oshiruvchi davlat muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari bundan kelib chiqadi. Sud faoliyatining alohida tartibini belgilashga va sudlar obro'sini barcha choralar orqali oshirishga intilish, shuningdek, sudlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar piramidasi cho'qqisida o'z o'rnini mustahkam egallashi to'g'risida g'amxo'rlik ham bundan kelib chiqadi;

2) odil sudlov, shaxs, jamiyat, davlat huquqlarini jinoiy va boshqa tajovuzlardan himoya qilish maqsadini ko'zda tutadi. «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasi sud vazifalarini quyidagicha belgilaydi: «O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir»;

3) huquqni muhofaza qilish faoliyati qonunda belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Ishni ko'rib chiqish hamda ish bo'yicha qaror qabul qilish yoki hukm chiqarish protsessual qonunchilikga qat'iy rioya qilgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Mazkur ko'rsatmalar sud majlisiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha eng muhim masalalarni (sud qonuniy tarkibini shakllantirish tartibi, majlisda ishtirok etishi mumkin va zarur bo'lgan shaxslar doirasi, ularning huquq va majburiyatlari, muayyan harakatlarni bajarish ketma-ketligi, dalillarni to'plash, qayd etish va tekshirish qoidalari va h.k.) tartibga soladi. Barcha protsessual ko'rsatmalar, oqibat natijada, haqiqatni aniqlashga va ish mazmuni bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishga yo'naltirilgan;

4) odil sudlov davlat majburlov choralari, jazo choralari hamda yuridik ta'sir choralari qo'llash orqali amalga oshiriladi. Sud ishlarini yuritish vazifalarini bajarish maqsadida sud o'z faoliyatida protsessual majburlov choralari va ehtiyot choralari bilan bir qatorda, jazo tayinlash (jinoyatga oid sud ishlarini yuritish), majburiyatlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar (fuqarolik, xo'jalik sud ishlarini yuritish) va h.k. kabi yuridik ta'sir choralari qo'llaydi;

5) yuridik ta'sir choralari mazkur choralar qo'llanilishining asoslarini hamda konkret holda qo'llanilishi mumkin bo'lgan choralarni belgilovchi qonunga qat'iy rioya qilgan holda qo'llanilishi zarur. Ushbu choralar sud tomonidan qo'llanilishining asoslari, shartlari va tartibi protsessual qonun hujjatlarida belgilangan.

**Odil sudlov** — bu qonun va u bilan belgilangan tartib-tamoyilga qat'iy rioya qilgan holda sudlar tomonidan jinoyat, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish hamda hal qilish bo'yicha huquqni muhofaza qilish faoliyatining turi.

Odil sudlov turli ma'nolarda ko'rib chiqilishi uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi haqidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

1) odil sudlov faqat sud (sudya) tomonidan amalga oshiriladi;

2) odil sudlov quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan nizolar bo'yicha fuqarolik va xo'jalik ishlarini sud majlislarida ko'rib chiqish va hal qilish;

- shaxs aybini aniqlash maqsadida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va natijasiga ko'ra, ma'muriy jazo qo'llash yoki ish yuritishni tugatish;

- sud majlislarida jinoyat ishlarini ko'rib chiqish hamda jinoyat sodir etishda aybdor shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan jazo choralari qo'llash yoxud aybsiz shaxslarni oqlash;

3) odil sudlov jinoyat, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishning qonunda belgilangan tartib-tamoyiliga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Qonun odil sudlov amalga oshirilishining barcha eng muhim masalalarini belgilaydi: sudning qonuniy tarkibi; sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslar doirasi, ularning huquq va majburiyatlari va h.k. Ta'kidlash lozimki, odil sudlov

amalg oshirilishi bir qator umume'tirof etilgan demokratik prinsiplarga asoslanadi;

4) inson huquq va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga daxldor bo'lgan eng muhim masalalar (aybli yoki aybsiz deb topish, da'vo talablarini qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish) bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilish;

5) sud qarorlarining hamma uchun majburiy bo'lishi. Sud qarorini ijro etmaslik muayyan davlat majburlov choralari qo'llanilishiga olib keladi: sud qarorlarining majburiy ijro etilishi, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish.

**Odil sudlov prinsiplari tushunchasi.** Sud hokimiyati o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida va tarmoq qonunchiligida aks ettirilgan bir qator demokratik prinsiplarga asoslanadi.

Ma'no jihatidan prinsiplar — bu rahbariy g'oyalar va tegishli faoliyatning asosiy qoidalaridir. «Prinsip» so'zi lotincha *«principium»* so'zidan kelib chiqib, uning ma'nosi «asos», «asosiy omil» kabi tushunchalarni anglatadi. Huquq aslida hamma uchun majburiy bo'lgan adolat talablarini belgilashi sababli, huquqiy prinsiplar huquqda adolatning o'lchovi sifatida xizmat qiladi. Qonun huquq prinsiplariga javob bergan holdagina qonuniy, ya'ni huquqiy mazmunga ega bo'lgan deb e'tirof etiladi. O'z navbatida, prinsiplar oddiy yuridik g'oyalar bo'lmaganligi hamda adolat va lozimlikning hamma uchun majburiy va obyektiv jihatdan zarur bo'lgan mezonlarini huquqda belgilashi ularning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Huquq va huquqiy ong rivojlangan sari huquqiy materiyadan muayyan yuridik g'oyalar sifatida prinsiplar ajratiladi, yuridik texnikasi rivojlanishi bilan esa ular qonunda ayrim qonuniy ko'rsatmalar sifatida mustahkamlanishi mumkin. Qonunda o'z ifodasini topib, prinsiplar muayyan mustaqillikka erishadi va amaldagi qonunchilikning o'zgarishi jarayonida barometr sifatida, huquqning keyingi shakllanishida esa kompas sifatida xizmat qiladi.

**Odil sudlov prinsiplari** — bu sud ishlarini yuritishning eng muhim xususiyatlarini, xarakterini, mazmun-mohiyatini, tashkil etilishi tartibini belgilovchi huquqiy qoidalar.

Barcha prinsiplar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular odil sudlov maqsadlariga erishish uchun eng muhim bo'lgan huquqiy asosning yaxlit majmuyini yaratadi. Ularning har biri sud

ishlarini yuritishning muayyan tomonini belgilaydi, ushbu tomon yo'qligida sud ishlarini yuritishning vazifalarini to'g'ri amalga oshirishga imkon bo'lmaydi.

Prinsiplar yaxlit tizim doirasida amal qilib, bu tizimda har bir prinsipning mohiyati, nafaqat, uning mazmuniga bog'liq, balki butun tizimning ishlab turishi bilan aloqador bo'lib turadi. Tizimda ayrim prinsip buzilishi, qoida tariqasida, boshqa prinsiplar va, shu bilan birga, ish bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylik buzilishiga olib keladi.

Prinsiplar umumiy tusdagi normalar bo'lib, amaliy faoliyat jarayonida vujudga keladigan barcha masalalar hal qilinishini ta'minlaydi. Protsessual huquqning ayrim normalari o'rtasida muammolar yoki qarama-qarshiliklar vujudga kelsa, bu qiyinchiliklarni hal qilish vositasi sifatida prinsiplar xizmat qiladi.

O'z mazmuniga ko'ra, prinsiplar imperativ, hokimiyat-buyruq tusga ega bo'lib, bajarilishi davlat tomonidan ta'minlanadigan umumiy majburiy ko'rsatmalarini o'z ichiga qamrab oladilar.

Mafkuraviy kategoriya sifatida prinsiplar ijtimoiy-siyosiy g'oyalar ta'siri ostida shakllanadi, biroq protsessual faoliyatini va uning sohasida vujudga kelayotgan huquqiy munosabatlarni tartibga solish vazifasini g'oyalar emas, balki ularga asoslangan norma-prinsiplar bajaradi. G'oya huquq normalarida mustahkamlab qo'yilmaguncha, odil sudlov prinsipi bo'la olmaydi, u huquqiy ong mahsuli va ilmiy xulosa bo'lib qolaveradi.

Prinsiplarning normativligi davlat faoliyatining alohida turi bo'lgan odil sudlov tabiatidan ajratib bo'lmaydigan ularning asosiy xususiyatidir. Ular inson va fuqaro hamda tegishli davlat organlariga qaratilgan bo'ladi. Protsessni olib borayotgan davlat organlari belgilangan prinsiplarga rioya qilgan holda faoliyatini amalga oshirib, ularni buzish uchun javobgar bo'ladi.

Odil sudlov prinsiplari tizimini quyidagi prinsiplar tashkil etadi: qonuniylik; odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi; sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi; odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish; barcha sudlarda ishlarning oshkora ko'rilishi; sud ishlari yuritiladigan til; sud himoyasida bo'lish huquqini ta'minlash; aybsizlik prezumpsiyasi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash; taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi; odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning ishtiroki.

Qayd etilgan prinsiplar ular mustahkamlab qo'yilgan manbaga qarab (konstitutsiyaviy va tarmoq); ular tartibga soladigan sud ishlarini yuritishning turiga qarab (bir necha tarmoqlarda va faqatgina bitta tarmoqda amal qilgan); ular ko'zda tutadigan maqsadlarga qarab (sud tuzilishiga va sud ishlarini yuritishga oid) tasniflanishi mumkin. Ayrim prinsiplar bir vaqtning o'zida bir necha asoslarga ko'ra, tasniflanishi mumkin.

Ta'kidlab o'tamiz, qonuniylik; sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi; odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish; barcha sudlarda ishlarining oshkora ko'rilishi; sud ishlari yuritiladigan til; sud himoyasida bo'lish huquqini ta'minlash; aybsizlik prezumpsiyasi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash kabi prinsiplar konstitutsiyaviy prinsiplar qatoriga kiradi. Tarmoq qonunchiligida (jinoyat, fuqarolik, xo'jalik) o'z ifodasini topgan prinsiplar tarmoq prinsiplar deb hisoblanadi.

Prinsiplar tartibga soladigan sud ishlarini yuritishning turlari bo'yicha amalga oshiriladigan prinsiplar tasnifi quyidagilarni anglatadi: universal tusdagi prinsiplar (masalan, qonuniylik, odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi va h.k.) sud ishlarini yuritishning barcha turlariga xos bo'lib, bir necha tarmoqlarda amal qilgan prinsiplar qatoriga kiradi. Shu bilan birga, sud ishlarini yuritishning faqat muayyan turiga xos bo'lgan prinsiplar ham mavjud (masalan, aybsizlik prezumpsiyasi faqat jinoyatga oid sud ishlarini yuritish doirasida amalga oshiriladi).

Prinsiplarning keyingi guruhi haqida gapiradigan bo'lsak, ta'kidlab o'tamiz, sud faoliyati tashkil etilishiga qaratilgan va sud majlisi o'tkazilishi jarayonida bevosita amalga oshiriladigan prinsiplar (masalan, barcha sudlarda ishlarining oshkora ko'rilishi) sud tuzilishiga oid prinsiplar qatoriga kiradi; sud ishlarini yuritishning turli bosqichlarida amalga oshiriladigan prinsiplar esa (masalan, aybsizlik prezumpsiyasi) sud ishlarini yuritishga oid prinsiplar deb hisoblanadi. Prinsiplarning har birini ko'rib chiqamiz.

### **3.2. Qonuniylik prinsipi**

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat shakllanishi sharoitida qonuniylik va inson huquqlariga qat'iy rioya etish vazifasi alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek,

«O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar». Sud davlat organi bo‘lib, uning faoliyatiga ham qonuniylikka rioya etish to‘g‘risidagi Konstitutsiya ko‘rsatmalari tatbiq etiladi.

Bu qoidaga, ayniqsa, sud hokimiyatining odil sudlov bo‘yicha vakolatini amalga oshirishda qat‘iy rioya etish lozim. Masalan, jinoyatni ochish, aybdorni fosh etish, unga adolatli jazo tayinlash va aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligini va hukm qilinmasligini ta‘minlash orqali jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda inson huquq-erkinliklarini himoya qilish vazifalari qonunga qat‘iy rioya qilingan holdagina bajarilishi mumkin.

Odil sudlov sud ishlarini yuritish doirasida amalga oshiriladi. Odil sudlov maqsadlariga erishish uchun ijtimoiy munosabatlar protsessual qonunlar bilan aniq tartibga solinishi lozim, shu tufayli fuqarolik, ma‘muriy, jinoyat va xo‘jalik sud ishlarini yuritish ushbu protsessual qonunlariga asoslanadi. Qonuniylik to‘g‘risidagi normalar JPKning 11-moddasida; FPKning 4- va 7-moddalarida; XPKning 4-, 5- va 12-moddalarida; Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 2- va 3-moddalarida o‘z ifodasini topgan.

Mazkur prinsip ishdagi barcha holatlar to‘liq, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqilishini, har bir ish qonunga asosan, ko‘rib chiqilishi va hal qilinishini, sud ishlarini yuritish barcha ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini, fuqarolar qonunlarga rioya qilish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalanishini ta‘minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi o‘zining 1997-yil 22-avgustdagi «Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini birinchi bosqich sudida muhokama etish jarayonida protsessual qonunchilikka rioya qilinishi to‘g‘risida»gi 12-qarorida: «Sudlarning e‘tibori jinoyat ishlarini sud muhokamasi jarayonida protsessual qonunchilikka qat‘iy amal qilishning zarurligiga qaratilsin, faqat unga aniq va og‘ishmay amal qilish ishning holatini har tomonlama to‘liq va xolisona tekshirishni, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sharoit va sabablarni aniqlashni va sud jarayonining tarbiyaviy ta‘sirini ta‘minlashini e‘tiborga olinsin» deb qayd etilgan. Sudlar faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etishga apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari e‘tiborini qaratib, plenum o‘z qarorida «ishlarni apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rayotganda birinchi



bosqich sudlari tomonidan jinoyat protsessual qonunchiligiga rioya qilinishiga alohida e'tibor qaratish, jinoyat ishlarining sud muhokamasida jinoyat protsessual qonunchiligini qo'llashda yo'l qo'yilgan xatolarni, birorta qonun buzilish holatini e'tibordan chetda qoldirmasdan, muntazam tahlil qilib borish»ni tavsiya etgan.

Moddiy va protsessual qonunlarning barcha talablariga, shu jumladan, protsessual faoliyatining prinsiplarini belgilovchi normalarga rioya etish bo'yicha protsessual faoliyatining har bir ishtirokchisi zimmasiga yuklatilgan majburiyat qonuniylik prinsipi mazmunini tashkil qiladi.

Qonunda yo'l qo'yiladigan barcha protsessual harakatlar o'tkazilishi va protsessual qarorlar qabul qilinishi protsessual kodeklari bilan aniq tartibga solingan. Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida qonuniylik protsessual qonunchilikda belgilangan kafolatlar tizimi orqali ta'minlanadi.

Qonuniylik protsessual huquqning barcha prinsip va normalarida o'z ifodasini topgan hamda sud ishlarini yuritishning barcha tomonlarini ta'riflaydigan universal, hamma sohani qamrab oladigan universal prinsip hisoblanadi.

### **3.3. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi**

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, **O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi** (3-modda).

*Odil sudlov* — sud hokimiyatini amalga oshirishning yetakchi shakli. Shuning uchun odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipining e'lon qilinishi fuqarolik protsessual, xo'jalik protsessual va jinoyat protsessual qonunchiligida ham o'z aksini topgan.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi FPKning 6-moddasi odil sudlov hamda qonun va sud oldida tenglik kabi ikkita prinsipni o'z ichiga qamrab oladi<sup>1</sup>. Mazkur moddaga muvofiq fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlov faqat sud tomonidan hamda barcha fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, shuningdek, boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

<sup>1</sup> Ikkinchi prinsip — qonun va sud oldida tenglik — 3.5-paragrafda ko'rib chiqiladi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi XPKning 2-moddasiga binoan, xo‘jalik sudi iqtisodiyot sohasida vujudga keladigan, ushbu kodeks va boshqa qonunlar bilan o‘zining vakolatiga kiritilgan nizolar hamda boshqa ishlarni hal qilish yo‘li bilan odil sudlovni amalga oshiradi.

Jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda odil sudlov — bu jinoyat-protsessual qonunida belgilangan va sud qarorlarining qonuniyligini, asosligini va adolatliligini ta‘minlaydigan tartibga qat‘iy rioya qilgan holda sud tomonidan, uning vakolati doirasida, jinoyat ishlarini ko‘rish va hal etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan faoliyatdir.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 12-moddasida aks ettirilgan ushbu prinsip odil sudlovning tub mazmunini ochib beradi: shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topishga hamda ushbu shaxsga jazo tayinlashga faqat sud o‘z hukmi bilan vakolatli. Shaxsga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishga ham faqat sud haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 28-moddasida ko‘rsatilganidek, «O‘zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradi».

Sud majlisida jinoyat ishini ko‘rish va natijalariga ko‘ra, jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan jazoni tayinlash yoki ushbu shaxsni oqlash yoxud jinoiy javobgarlikdan, yoki jazodan ozod qilish jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish usuli sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari odil sudlovni amalga oshiradilar.

Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Umumiy yurisdiksiya sudlari va xo‘jalik sudlari tizimida odil sudlovni birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudlari amalga oshiradi. Odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar tarkibi turli bo‘lishi mumkin.

**Fuqarolik ishlarini** ko'rishda qonunda quyidagi sud tarkibi nazarda tutilgan (FPKning 13-moddasi):

*Birinchi instansiya* bo'yicha barcha sudlarda fuqarolik ishlari sudyaning yakka o'zi tomonidan ko'riladi. Ishni sudyaning yakka o'zi ko'rganida, u sud nomidan ish yuritadi.

*Apellatsiya va kassatsiya tartibida* fuqarolik ishlarini ko'rish:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida — uch nafar sudyadan iborat tarkibda;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida — uch nafar sudyadan iborat tarkibda amalga oshiriladi.

*Nazorat tartibida* fuqarolik ishlari:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida — rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida — uch nafar sudyadan iborat tarkibda;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rayosatida — rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenumida — plenum tarkibining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda ko'riladi.

**Jinoyat ishlarini** ko'rishda qonunda quyidagi sud tarkibi nazarda tutilgan (JPKning 13-moddasi):

*Birinchi instansiya* bo'yicha — hay'atda va yakka tartibda:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan tashqari, barcha sudlarda Jinoyat kodeksining 15-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan<sup>1</sup> va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar<sup>2</sup>) to'g'risidagi ishlar sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi; qolgan ishlar hay'atda (sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi) ko'riladi;

---

<sup>1</sup> Ularga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

<sup>2</sup> Ularga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida ishlar uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko‘riladi.

*Apellatsiya va kassatsiya tartibida:*

- tegishli sud hay‘atlarida jinoyat ishlari uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko‘riladi;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining hukmlariga apellatsiya va kassatsiya shikoyatlari (protestlari) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tegishli sudlov hay‘atlarida besh nafar sudyadan iborat tarkibda ko‘rib chiqiladi.

*Nazorat tartibida jinoyat ishlari:*

- tegishli sud hay‘atlarida — uch nafar sudyadan iborat tarkibda;
- sud rayosatida — rayosat a‘zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumida — tarkibidagilardan kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lgan taqdirda ko‘riladi.

**Xo‘jalik ishlari.** XPKning 15-moddasiga ko‘ra, xo‘jalik sudlarida birinchi instansiya bo‘yicha ishlar sudyaning yakka o‘zi tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudida esa uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko‘riladi.

Sud raisining qarori bilan har qanday ish hay‘atda ko‘rilishi mumkin.

Apellatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyalarida barcha ishlar xo‘jalik sudi tomonidan hay‘atda ko‘riladi. Ish hay‘atda ko‘rilyotganda sudning tarkibi uch yoki undan ortiq toq nafar sudyadan iborat bo‘lishi kerak.

### **3.4. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi**

«Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi».

**Konstitutsiyaning 112-moddasi.**

«Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo‘yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to‘liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqiga ega».

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasi.**

Sudyalarning mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsip bo'lib, demokratik huquqiy davlat barpo etilishini ta'minlash uchun zarur shart sifatida xizmat qiluvchi sudyalarning erkinligi va mustaqilligining kafolatlarini mustahkamlab qo'ygan O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida, FPKda (7-modda), JPKda (14-modda) va XPKda (5-modda) o'z rivojini topgan.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasida to'laqonli sud hokimiyati o'z faoliyatini amalga oshirishining asosiy shartlaridan va kafolatlaridan biri bo'lib, ko'rib chiqilayotgan prinsipning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Shubhasiz, sudning *erkinligi* va *mustaqilligi* uning huquqiy maqomi uchun eng katta ahamiyatga ega. Sudlar erkin bo'lib, o'z faoliyatini faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysungan holda mustaqil ravishda amalga oshiradi. Erkinlik va mustaqillik — bu subyekt erkinligining ayrim darajasini ifodalovchi yaqin tushunchalardir. Biroq, ular o'rtasida ayrim farqlar ham mavjud. *Sudlarining erkinligi* davlat hokimiyati boshqa (qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi) tarmoqlaridan sud hokimiyati ajratilganligining tashqi ifodasidir, bu esa mazkur tarmoqlarning bir-birini tiyib turish va nazorat qilish umumiy davlat-demokratik tizim doirasida o'zaro harakat qilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, sud hokimiyati erkinligi hokimiyatlar bo'linishi umumiy huquqiy prinsipidan kelib chiqadi.

Alohida harakat qila olmaydigan davlat hokimiyati uch tarmoqning *o'zaro hamkorligi* uchun qulay sharoitlarni ta'minlash hokimiyatlar bo'linishi prinsipining mazmunini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, sud hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyatiga bog'langan, chunki sud hokimiyati undan qonunlarni oladi va ularni ijro etib, mazkur hokimiyatga bo'ysunadi. Sud hokimiyati muayyan darajada ijro etuvchi hokimiyatiga ham bog'langan, chunki sud qarorlarining haqiqiy ijrosi ijro etuvchi organlari xatti-harakatlari orqali amalga oshiriladi. Erkinlik faqatgina vazifalar bo'linishini va subyektning joriy faoliyatiga aralashmaslikni nazarda tutadi. Aynan shu sababli, hokimiyatlarning bir-biridan mustaqilligi to'g'risida emas, balki ularning bo'linishi, erkinligi to'g'risida gap yuritish lozim.

*Mustaqillik* tushunchasi alohida sudyalar va sud tarkiblariga taalluqli bo'lib, davlat hokimiyatining butun sud tarmog'iga nis-

batan qo'llanilmaydi, chunki ma'no jihatidan mustaqillik tushunchasi subyekt *avtonom tarzda* o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkinligini ko'zda tutadi. Bu esa yuridik ishni ko'rib chiqayotgan sud uchun tabiiydir, lekin hokimiyatlar bo'linishi prinsipining mazmuniga va umuman, sud hokimiyatining holatiga zid bo'ladi. Har bir adolatli tortishuv xolis hakamga muhtoj bo'lganligi sababli, sudyalarning mustaqilligining bevosita manbasi sifatida hokimiyatlar bo'linishi emas, balki sud jarayonida taraflarning tortishuvi xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 67-moddasiga muvofiq, sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish;
- ularning daxlsizligi;
- odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy taomil;
- qaror chiqarish chog'ida sudyalarning maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi;
- sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashganlik, sudyalarning daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik;
- sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish.

Bundan tashqari, sudyalarning mustaqilligining kafolatlari har bir tarmoq qonunchiligida nazarda tutilgan. Masalan, jinoyat ishlarini yuritishda sudning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:

1. *Uning faoliyatida sudlov bilan boshqa birorta protsessual vazifalar aralashtirilishning taqiqlanishi.* Sudya ko'rayotgan jinoyat ishi bo'yicha tergovchi, surishtiruvchi, prokuror bo'lishi mumkin emas, bu ish bo'yicha sudya, odil sudlovni amalga oshirish vazifasidan tashqari, boshqa birorta protsessual vazifalarni amalga oshirishga haqli emas, aks holda, u rad qilinadi.

2. *Sudyalarni rad qilish va sudyalarning o'zini o'zi rad etish huquqi.* Ushbu institut orqali xolisligiga shubha bo'lgan sudyalarning protsessdan chetlatiladi.

3. *Sudga birorta begona shaxslar fikrlarini zo'rlab o'tkazilishining taqiqlanishi.* Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishda hech kimga hisobdor emas. Sudya ko'rilgan yoki ish yuritishidagi

ishlar mazmuni bo'yicha biron-bir tushuntirishlar berishga, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, biron bir shaxslarga tanishib chiqish uchun ishlarni taqdim etishga majbur emas. Mazkur taqiq ham ayblov, ham himoya taraflariga, ham protsess ishtirokchilariga, ham protsessda ishtirok etmagan shaxslarga tatbiq etiladi.

4. *Jinoyat protsessida dalillarga baho berish jarayonida formal mezonlardan foydalanishning taqiqlanishi.* Sudya uchun hech qanday dalil oldindan belgilab qo'yilgan kuchga ega emas va har bir dalilga sudya faqat ichki ishonchi bilan baho beradi. Shunday qilib, sudyaning mustaqilligini ta'minlash uchun sudyaning qonunga bo'ysunishi ham o'z chegaralariga ega, ya'ni qonun jinoyat protsessida dalillarning formal tizimini o'rnatmasligi kerak.

5. *Sudda ish ko'rilishining oshkoraligi.* Oshkoralik o'zidan o'zi sudni mustaqil qilmaydi, lekin sudyalar g'arazligi va bexolisligi holatlariga jamoatchilik e'tiborini qaratib, ularni cheklaydi.

6. *Sudyalarning xizmat daxlsizligi.* Sudyaning shaxsi daxlsiz. Sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transporti va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga tatbiq etiladi.

Sudya nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Sudya tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining roziligisiz jinoyat javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas.

Sudya sudyalarning tegishli malaka hay'ati roziligisiz ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, ularda tintuv o'tkazish yoki ulardan ashyoni olish, telefondagi so'zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko'zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek, uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish yoki olishga faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, viloyat, Toshkent shahar prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining ruxsati yoki sudning qarori bilan yo'l qo'yiladi.

Tumanlararo, tuman (shahar) sudi, okrug va hududiy harbiy sud sudyasiga nisbatan jinoyat ishi yuqori turuvchi sud sudloviga, boshqa sudlar sudyalariga nisbatan esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishlidir.

Mustaqillik prinsipi sudda o'z vazifalarini bajarayotgan davrda xalq maslahatchilariga ham tatbiq etiladi. Xalq maslahatchilarining mustaqilligi odil sudlovni amalga oshirishning qonunda nazarda tutilgan taomili, odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga biron-bir tarzda aralashish uchun aybdor shaxs qonunga muvofiq, javobgarlikka tortilishi, shuningdek, xalq maslahatchisining daxlsizligi orqali ta'minlanadi. Sudda o'z vazifalarini bajarayotgan davrda xalq maslahatchilariga sudyalar daxlsizligining barcha kafolatlari tatbiq etiladi.

O'z faoliyatida sud dastlabki tergov organlari va yuqori turuvchi sud instansiyalari xulosalari bilan, ular sud ichki ishonchiga tajovuz qilgan holda bog'lanmagan. Sud tizimining turli bo'g'in sudlari o'zaro munosabatlari sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi prinsipiga qat'iy rioya qilgan holda shakllanadi.

Sud odil sudlovning ifodasi, uning beg'araz va xolis xizmatchisidir. Sudning faoliyati mustaqillik, faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va unga asosan, qabul qilingan qonunlarga bo'ysunish, oshkoralik va taraflarning tortishuvi, aybsizlik prezumpsiyasi va sud ishlarini yuritishning boshqa demokratik prinsiplariga asoslanadi. Faqat bu shartlarga rioya qilgan holda sud hokimiyati o'zini adolatli, insonparvar, haqiqatan mustaqil, qonun ustuvorligini hamda huquq va manfaatlarni ta'minlaydigan hokimiyat sifatida namoyon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi sud tizimining zamonaviy tuzilmasi bevosita sud tizimining doirasida sudyalarning mustaqilligini ta'minlashga imkon yaratadi. Yuqori turuvchi sudlar quyi sudlarning faoliyatini boshqarishga, ular tomonidan sud ishlarini ko'rish jarayoniga aralashishga haqli emas, sud ishini ko'rish paytida har bir sudya to'liq darajada erkin va mustaqil bo'ladi. Yuqori turuvchi sud instansiyalari, apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ishlarni ko'rib chiqib, quyi sudlarining faoliyati ustidan nazoratni faqat protsessual jihatdan amalga oshiradi.

Sudyalarning mustaqilligi, nafaqat, ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, ularning daxlsizligi, qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi (O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 67-moddasi, JPKning 456-moddasi) va boshqa protsessual kafolatlar orqali, balki umuman, jamiyatimizning ijtimoiy va davlat tuzilishi orqali ta'minlanadi.



### 3.5. Odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish

«O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdir».

#### **Konstitutsiyaning 18-moddasi 1-qismi.**

«Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar».

#### **Konstitutsiyaning 46-moddasi.**

«Barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir».

#### **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14-moddasi.**

Konstitutsiyaning 18, 46-moddalari, «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasi, FPKning 6-moddasi, XPKning 7-moddasi, JPKning 16-moddasi odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish prinsipining huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi. Mazkur prinsip Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasiga ham asoslanadi. Xalqaro huquqning ushbu normasiga binoan, barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun va sud oldida teng bo‘lganligi ko‘rib chiqilayotgan prinsipning mazmunini tashkil etadi. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdirlar.

Qonun va sud oldidagi tenglik prinsipi sud ishlarini yuritishning barcha turlarida hamda ijtimoiy va davlat hayotining barcha sohalarida kuchga ega. Mazkur prinsipning mazmunini quyidagicha belgilash mumkin: sudga murojaat qilgan va protsessda ishtirok etayotgan shaxsga ayrim imtiyozlar taqdim etish yoki uni kamsitish uchun uning mulkiy va mansab mavqeyi, jinsi, irqi va millati, ta‘limi, tili, dinga nisbatan munosabati, turar joyi, e‘tiqodi, jamoat birlashmalarda a‘zo bo‘lishi yoki biron boshqa holatlar asos bo‘lmaydi va protsessning yuritilishiga hamda yakuniga hech qanday ta‘sir etmaydi. Ushbu talablar odil sudlovni amalga oshirishning barcha shakllariga tatbiq etiladi, chunki sud ishlarini

yuritishning biron sohasida qonun qoidalari fuqaroning huquqiy maqomini yuqorida ko'rsatilgan belgilar bilan bog'lamaydi.

Fuqarolarning qonun va sud oldidagi tengligi — bir-biri bilan aloqador bo'lgan tushunchalar, biroq, ularning har biri alohida mazmunga ega.

*Fuqarolarning qonun oldidagi tengligi* fuqaroning irqi va millati, ijtimoiy, mulkiy va mansab mavqeyi yoxud uning dini asosida ayrim imtiyozlarni yoki cheklovlarni o'rnatmaydigan yagona moddi va protsessual qonunlar mavjudligini anglatadi.

Fuqarolarning sud oldidagi tengligi sud ishlarining, sudlanuvchi va jabrlanuvchi, da'vogar va javobgar, protsessning boshqa ishtirokchilari irqi, millati va dini, ijtimoiy, mansab va mulkiy mavqeyidan qat'i nazar, barcha fuqarolarga nisbatan va barcha sudlar tomonidan bir xil protsessual tartibda ko'rib chiqilishini anglatadi. Shuningdek, mazkur qoida yuqorida ko'rsatilgan belgilarga qarab, o'z faoliyatini amalga oshiradigan tabaqa, irqiy yoki boshqa maxsus sudlar davlatda tashkil etilishini taqiqlaydi.

Amaldagi qonunlarga rioya qilish hamma uchun majburiy bo'lishi, shuningdek, qonunlarni buzish uchun barcha shaxslar uchun teng jaborgarlik belgilanishi fuqarolar qonun va sud oldidagi tengligining ifodasidir. Masalan, jinoyat sodir etgan shaxslar, egallab turgan lavozimi, shug'ullanayotgan faoliyati va boshqa holatlardan qat'i nazar, jinoiy javobgarlikka tortiladi va ularga nisbatan bir xil jinoyat qonuni amal qiladi.

Sudyalarni jinoiy javobgarlikka tortishning va tintuv o'tkazishning (O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 70-moddasi), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputatlarini ushlab turish va qamoqqa olishning (Konstitutsiyaning 88-moddasi) alohida tartibi mavjudligi, albatta, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi prinsipi umumiy qoidalari doirasidan mazkur shaxslarni chiqaradi, chunki ushbu daxlsizlik kafolatlari yo'qligida deputatlar va sudyalalar o'z vazifalarini tegishli ravishda bajara olmas edilar.

JPKning 1-moddasi 2-qismiga muvofiq, jinoyat ishlarini yuritishning qonunda belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari uchun yagona hamda majburiydir. Shu bilan birga, JPK ayblanuvchining jismoniy va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, sud ishlarini yuritishning differensiyalangan tartibini belgilaydi va bunga qarab, protsessual kafolatlari-ning har xil hajmini nazarda tutadi (JPKning 60, 61-boblari).

Sud ishlarini yuritishning mazkur differensiyalanishi fuqarolarning qonun oldidagi tengligi prinsipidan ijobiy istisno hisoblanadi, chunki ushbu differensiyalash xolis sabablarga asosan, yuzaga kelgan va to'liq asoslantirilgan. Xatti-harakatlari sud ishlarini yuritishning mazmunini tashkil etadigan shaxs o'z manfaatlarini himoya qilish uchun yetarli bo'lgan protsessual huquq va kafolatlar bilan ta'minlanishi lozim. Aks holda fuqarolarning qonun va sud oldidagi tenglik prinsipidan istisno emas, balki ushbu prinsipning buzilishi vujudga keladi. Mazkur prinsipni izchil amalga oshirishda sud qarorlarining qonuniyligi va asosliliigi muhim ahamiyatga ega. Bu talablarga javob bermaydigan sud qarorlari ularning adolatlilikiga hamda fuqarolarning qonun va sud oldida haqiqiy tengligiga ayrim shubhalar uyg'onishiga olib keladi.

### 3.6. Barcha sudlarda ishlarning oshkora ko'rilishi

«Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi».

**Konstitutsiyaning  
113-moddasi 1-qismi.**

«Har bir kishi unga qo'yilayotgan har qanday jinoiy ayblov ko'rib chiqilayotganda yoki biron-bir fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida qonunga muvofiq tuzilgan nufuzli, mustaqil va xolis sud tomonidan mazkur ish adolatli hamda ochiq holda ko'rib chiqilish huquqiga ega».

**Fuqarolik va siyosiy huquqlar  
to'g'risidagi xalqaro paktning  
14-moddasi.**

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasi sud ishlarini yuritishning oshkoraligi prinsipini nazarda tutadi. Mazkur modda mazmunidan ko'rinib turibdiki, «oshkoralik» atamasi «sudda ishlarining ochiq ko'rilishi» atamasining sinonimi sifatida qo'llaniladi.

Sudda ishning oshkora ko'rilishiga bo'lgan huquq har bir insonning huquqidir. Bu huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasida hamda O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro huquqning boshqa hujjatlarida mustahkamlangan. O'z navbatida, mazkur prinsip FPKning 10-moddasida ham o'z ifodasini topgan, mazkur moddaga muvofiq, barcha sudlarda ishlar oshkora ko'riladi, davlat yoki tijorat sirlarini saqlash manfaatlariga zid bo'lgan hollar bundan mustasno.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hayotiga taalluqli ma'lumotlar oshkor bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, farzandlikka olish siri va yozishmalar siri saqlanishini ta'minlash maqsadida sudning asoslantirilgan ajrimiga binoan, ish sudning yopiq majlisida ko'rilishiga yo'l qo'yiladi.

Ish sudning yopiq majlisida ko'rilganida ishda ishtirok etayotgan shaxslar, zarur hollarda esa, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ham qatnashadi. Ish sudning yopiq majlisida sud ishlarini yuritishning barcha qoidalariga rioya qilingan holda ko'riladi. Sudning qarori barcha hollarda oshkora e'lon qilinadi.

O'xshash holda ushbu prinsip Xo'jalik protsessual kodeksida ham mustahkamlangan. XPKning 8-moddasiga asosan, xo'jalik sudlarida ishlar oshkora ko'riladi. Davlat sirini yoki tijorat sirini saqlash zarur bo'lgan taqdirda ishni yopiq majlisda ko'rishga yo'l qo'yiladi. Ishni yopiq majlisda ko'rish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Jinoyatga oid sud ishlarini yuritishning o'ziga xosligini inobatga olgan holda Jinoyat-protsessual kodeksida oshkoralik prinsipiga batafsilroq tavsif berilgan. JPKda mazkur prinsip «Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi» deb nomlangan.

Sudda ishlarining oshkora ko'rilishi quyidagilarni nazarda tutadi: sud protsessida ish qonunda belgilangan yoshga to'lgan va sud majlisiga kelishni istagan fuqarolar ishtirokida ko'riladi, protsessning yuritilishi va natijalari esa matbuotda nashr etilishi, radioda e'lon qilinishi yoki aholining keng qatlamlariga boshqa usullar orqali yetkazilishi mumkin.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi jinoyat protsessining JPKning 19-moddasida mustahkamlangan prinsipidir. Jinoyat protsessining mazkur prinsipi qonun tomonidan quyidagi tarzda tartibga solinadi: «Barcha sudlarda, davlat sirlarini qo'riqlash manfaatlariga zid keladigan, shuningdek, jinsiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar ko'riladigan hollarni istisno qilganda, jinoyat ishlari oshkora ko'riladi» (JPKning 19-moddasi 1-qismi).

JPKning 19-moddasi 2-qismiga muvofiq, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, xuddi shuningdek, ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etgan hollarda boshqa ishlarni ham sud tomonidan ajrim chiqarib,

yopiq sud majlisida ko‘rishga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ishlar bo‘yicha ishning to‘liq yoki qisman yopiq sud majlisida ko‘rilishi zaruriyatiga sabab bo‘ladigan aniq holatlar mavjudligini sud har bir vaziyatda alohida aniqlaydi. Mazkur holatlar mavjudligida sud butun protsessni yoki uning alohida bir qismini «yopiq eshiklarda» o‘tkazishga, nafaqat, haqli, balki majbur ham. Sudning ushbu masala bo‘yicha ajrimi sud majlisida yig‘ilganlarga taalluqli bo‘lib, protsess ishtirokchilariga ham tatbiq etiladi.

Shaxsiy yozishma va shaxsiy telegraf xabarnomalari ochiq sud majlisida faqat bu xat va xabarlarini jo‘natgan hamda olgan shaxslarning roziligi bilan oshkor qilinishi mumkin. Aks holda ular yopiq sud majlisida o‘qib eshittiriladi va tekshiriladi.

Sud zalida tartibni saqlab turish uchun zarur bo‘lgan hollarda sud ayrim shaxslarning sudning ochiq majlislarida qatnashishlarini taqiqlab qo‘yishga haqlidir. Sud zalida ovozlarni yozib olish, fotosuratga, videoyozuvga, kinoga olishga faqat sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi.

Sud hukmi barcha hollarda oshkora e‘lon qilinadi. Shu bilan birga, oshkor qilinmasligi uchun yopiq sud majlisi o‘tkazilgan ma‘lumotlar sud hukmida oshkora qilinmaydi. Sudlov faoliyatida oshkoralikni kengaytirish uchun ommaviy axborot vositalari xodimlari, jamoat birlashmalari va jamoalar bo‘ladigan protsesslar to‘g‘risida xabardor qilinishi mumkin. Bundan tashqari, sud protsesslari bevosita korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o‘tkazilishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, qonun tomonidan talab qilinadigan yoki yo‘l qo‘yiladigan oshkoralik prinsipidan istisno holatlari doirasi ancha keng. Inson, jamiyat, davlat manfaatlariga zarar yetkazish maqsadida oshkoralikdan foydalanish mumkin emas. Mazkur cheklovlarining asosiy vazifasi shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini saqlashdir.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi prinsipining siyosiy va amaliy ahamiyati juda katta. Sudlarda ishlarning oshkora ko‘rilishi fuqarolarni qonunlarni hurmat qilish va qonunbuzarliklarga toqat qilmaslik ruhida tarbiyalash vazifasini ta‘sirchan va kengroq bajarishga hamda sud organlarining faoliyati ustidan xalqning doimiy nazoratini o‘rnatishga imkon yaratadi.

Oshkoralik prinsipidan istisno qilinadigan holatlar ro‘yxati qonunda aniq ko‘rsatilganligi oshkoralikning kafolati sifatida xizmat qiladi. Tegishli qonuniy asoslar yo‘qligida ishning yopiq sud majlisida ko‘rilishi qonunning qo‘pol buzilishi hisoblanadi.

### 3.7. Sud ishlari yuritiladigan til

«O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi».

**Konstitutsiyaning 115-moddasi.**

«Har bir kishi unga qo‘yilgan har qanday jinoiy ayblov sudda ko‘rib chiqilishida ish yuritilayotgan tilni tushunmaydigan yoki bu tilda gapira olmaydigan bo‘lsa, tarjimon yordamidan bepul foydalanishga haqlidir».

**Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14-moddasi 3-qismi «f» bandi.**

**Sud ishlari yuritiladigan til** prinsipi odil sudlovning eng asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni 8-moddasida ham mustahkamlangan. Unga asosan, O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi.

Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan prinsip hayotning barcha sohalarida ta‘minlanadigan fuqarolar millatidan qat’i nazar, teng huquqliligi va milliy tillardan foydalanishning davlat kafolatlaridan biridir. Uning asosiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida aks ettirilgan. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Mazkur prinsip JPKning 20-moddasida, FPKning 9-moddasida va XPKning 10-moddasida o‘z rivojini topgan. Xususan, XPKning 10-moddasida belgilab qo‘yilganidek, turli davlatlarning korxonasi, muassasa va tashkilotlari o‘rtasidagi xo‘jalik nizolari sudning ajrimiga binoan, taraflar uchun maqbul tilda olib boriladi.

FPKning 9-moddasiga binoan, esa sud hujjatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning ona tillariga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi. Ushbu prinsipga asosan, jinoyat ishlarini yuritish ham o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi (Konstitutsiyaning 115-moddasi, JPKning 20-moddasi).

Taraflar sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmasligi ularning protsessda ishtirok etishiga to'sqinlik qilmaydi: protsessda o'z faoliyatini amalga oshirishda taraflarning har biri tarjimon xizmatidan foydalanishi mumkin. Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlanadi (JPKning 20-moddasi).

Ko'rib chiqilayotgan prinsipning amalga oshirilishi ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan protsessda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning huquqlarini va milliy manfaatlarini kafolatlaydi. Ushbu huquqlar mazmuni tushuntirib berilishi va ularni amalga oshirish imkoniyati ta'minlanishi lozim. Xususan, JPKning 20-moddasiga muvofiq, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo'lgan tergov va sud hujjatlari ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi lozim. Ushbu prinsip talablariga binoan, muayyan hudud doirasida dastlabki tergov va sudda ishni yuritish bitta tilda o'tkazilishi lozim.

Agar shaxs sud ishlari yuritiladigan tilni bilmagan bo'lsa, ushbu shaxs ishtirokida o'tkaziladigan barcha protsessual harakatlarga majburiy tartibda tarjimon jalb qilinadi. Tarjimonning protsessda ishtirok etishi, nafaqat, sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlaydi, balki dalillarning qayd etilishiga ko'maklashadi hamda so'roq qilinuvchi taqdim etadigan yoki yozma hujjatlarda saqlanadigan ma'lumotlar tergovchi va sud tomonidan to'liq hajmda olinishiga yordam beradi. Ish yuritayotgan shaxs qisqa muddat ichida ham tarjimon vazifalarini bajarishga haqli emas.

Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga tarjimon yordamida ham o'zining himoya huquqini amalga oshirish qiyin bo'lganligini inobatga olib, dastlabki tergovda va ishni sudda ko'rishda himoyachi ishtirok etishining zarurati qonunda belgilab qo'yilgan (JPKning 51-moddasi 3-bandi).

Sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaganligi sababli, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki himoyachi huquqlarining har qanday cheklanishi, shuningdek, mazkur shaxslarga protsessning har bir bosqichida ona tilidan foydalanish imkoniyati ta'minlanmaganligi jinoyat-protsessual qonunining jiddiy buzilishi deb e'tirof etiladi va hukm bekor qilinishiga asos bo'ladi (JPKning 487-moddasi). Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi jinoyatga oid sud ishlarini yuritish tartibini fuqarolar uchun ochiq va tushunarli qiladi, protsessda ishtirok etuvchi shaxslarning, ularning millatidan qat'i nazar, qonun va sud oldidagi tengligini kafolatlaydi, ish holatlarini har tomonlama, to'liq va xolis o'rganish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, oshkoralik va protsessning boshqa prinsiplari amalga oshirilishini ta'minlaydi, manfaatdor shaxslarga o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun qonun bilan taqdim etilgan vositalardan foydalanishda yordam beradi. Shuning uchun sud ishlari yuritiladigan til to'g'risidagi qoidalar buzilishi hukm va ish bo'yicha qabul qilinadigan boshqa protsessual qarorlar bekor qilinishiga asos bo'ladi.

### 3.8. Sud himoyasida bo'lish huquqini ta'minlash

«Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi».

**Konstitutsiyaning 44-moddasi.**

«Har bir inson unga konstitutsiya va qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega».

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'z nutqlarida bir necha marta ta'kidlab o'tganidek: «Fuqaro, agar uning qonuniy manfaatlari va haq-huquqlari poymol etilgan taqdirda, har qanday masala bo'yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmog'i darkor»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995-yil 23-fevral). Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. T., «O'zbekiston», 1996, 18-bet.



Fuqarolarning buzilgan huquqlarni himoya qilish uchun sudga murojaat etish huquqi fuqarolarga, nafaqat, Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunida, balki boshqa qonun hujjatlarida ham nazarda tutilgan.

Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 9-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga asosan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat organlari va boshqa organlarning, mansabdor shaxslarning har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan (qarorlaridan), shuningdek, hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham sud himoyasida bo'lish huquqiga egadir.

Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida sud muhokamasining barcha bosqichlarida va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi masalalar sudlar tomonidan ko'rilayotganda prokuror ishtirok etadi.

Ko'rib chiqilayotgan prinsip tarmoq qonun hujjatlarida ham o'z rivojini topgan. Xususan, FPKning 1-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli. Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

O'z navbatida, XPKning 1-moddasida ko'rsatilganidek, har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni so'rab xo'jalik sudiga Xo'jalik protsessual kodeksida belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli. Xo'jalik sudiga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Sudga bevosita murojaat etish imkoniyati fuqaro tomonidan o'z huquqlarini himoya qilish samaradorligini ancha oshiradi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, fuqaro o'z huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan shikoyat bilan bevosita sudga yoki tobelik tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga murojaat qilish huquqiga ega.

Prezident I.A. Karimov 1995-yil 23-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida ta'kidlab o'tgani-dek, «fuqarolarning manfaatlari va huquqlarini sud orqali himoya qilish sohasini mumkin qadar kengaytirish darkor. Vaholanki, ayrim tarmoq qonunlarida huquqlari poymol etilgan fuqarolarning shikoyatlarini sudlov yo'li bilan emas, ma'muriy yo'l bilan ko'rib chiqish tartibi ham uchraydi.

Albatta, bu hol — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga va bizning Konstitutsiyamiz talablariga zid. Fuqaro, agar uning qonuniy manfaatlari va haq-huquqlari poymol etilgan taqdirda, har qanday masala bo'yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmog'i darkor»<sup>1</sup>.

Bu so'zlar inson huquq va manfaatlarini sud tartibida himoya qilish institutining yanada rivojlanishi uchun turtki sifatida xizmat qildi. Agar davlatda sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylansagina, ushbu davlatda sud tartibida himoyalanih huquqi haqiqatda amalga oshadi. Shubhasiz, sud turli nizolarni hal qilish uchun eng beg'araz va xolis organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni (30.08.1995-y.), Mehnat kodeksi (21.12.1995-y.), Fuqarolik protsessual kodeksi (30.08.1997-y.), Xo'jalik protsessual kodeksi (30.08.1997-y.), O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni (14.12.2000-y.), 2002-yil 13-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahrirda) qabul qilinishi sud himoyasi sohasining ancha kengaytirilishiga ko'maklashdi. Mazkur qonunlar va ularning

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995-yil 23-fevral.) Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. T., «O'zbekiston», 1996, 17—18-bet.

ijrosi yuzasidan qabul qilingan ko'plab boshqa normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish sohasini ancha kengaytirgan.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi sud orqali himoyalanihga bo'lgan fuqarolar konstitutsiyaviy huquqining amalga oshirilishini ta'minlash yo'lida muhim bosqich bo'lib, davlat organlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berish bo'yicha fuqarolarning imkoniyatlarini ancha kengaytirdi. Qonun fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan shikoyat berishning ikki turini belgilaydi: sud tartibi va ma'muriy tartib. Qonunga binonan, fuqaro o'z huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar ustidan shikoyat bilan bevosita sudga yoki tobelik tartibida yuqori turuvchi tashkilotga murojaat qilish huquqiga ega. Har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega. Sudga shikoyat qilish uchun asos bo'ladigan kollegial yoki yakka tartibdagi xatti-harakatlar (qarorlar) jumlasiga qonun tomonidan:

- *birinchidan*, fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzgan;
- *ikkinchidan*, fuqaroning o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishiga monelik tug'dirgan;
- *uchinchidan*, fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlar (qarorlar) kiritilgan.

Fuqaroning davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslar xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyati sud tomonidan fuqarolik sudlov ishlarini yuritish qoidalari asosida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni qoidalari 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan Fuqarolik protsessual kodeksida o'z rivojini topgan. Xususan, Fuqarolik protsessual kodeksining 3-kichik bo'limi davlat

organlari va boshqa organlarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish tartibini belgilaydi, bu esa insonning sud orqali himoyalaniş huquqi amalga oshirilishining muhim omili bo'ldi.

Odil sudlovga erkin murojaat etish imkoniyati qonunda nazarda tutilgan sudga murojaat etish huquqini anglatadi. Bu esa qonunlar, qonunosti hujjatlar, sud qarorlari, mansabdor shaxslarning hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilish imkoniyatini nazarda tutadi.

Sudlar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy himoyadan erkin foydalanish qoidasi demokratiya asoslaridan biri deb e'tirof etiladi. Mazkur himoya davlat hokimiyati tarmoqlari bo'linishi prinsipining, ushbu tarmoqlar vazifalari aniq ajratilganligining hamda davlat hokimiyati organlari bir-birini tiyib turish va nazorat qilish tizimi o'rnatilganligining ifodasidir. Hozirgi kunda huquq va erkinliklar sud orqali himoya qilinishining samaradorligi va muhimligi hamma joyda e'tirof etildi, umuman, sud orqali himoyalanişning ahamiyati ancha o'sdi.

Sud orqali himoyalaniş fuqarolar huquqining e'tirof etilishi va uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunda va boshqa qonun va qonunosti hujjatlarda mustahkamlanishi quyidagi xulosalar qilishga imkon beradi:

- *birinchidan*, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish imkoniyati kafolatlanadi. Ya'ni sud orqali himoyalaniş huquqi, nafaqat, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, balki ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham taqdim etiladi. Har bir jismoniy shaxs o'z manfaatlarini shaxsan yoki advokat yoxud qonuniy vakil orqali himoya qilish huquqiga ega;

- *ikkinchidan*, sud orqali himoyalaniş huquqi yuridik yordamidan foydalanish huquqi bilan yaqin aloqada bo'ladi. Chunki sud orqali himoyalaniş huquqi faqatgina qonunchilik va uni qo'llash amaliyoti bo'yicha tegishli bilimlar hamda sudda ishlarini olib borish tajribasi bo'lgan taqdirda samarali amalga oshirilishi mumkin;

- *uchinchidan*, qonun buzilishiga, vakolat doirasidan chetga chiqishga yoki ayrim bir shaxsning huquqlari cheklanishiga olib kelgan barcha harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. Ta'kidlab o'tamiz, insonning barcha konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari sudning himoyasida bo'ladi. Nafaqat,

Konstitutsiya tomonidan kafolatlangan, balki qonun yoki shartnomada belgilangan huquqni tiklash maqsadida ham sudga murojaat etish mumkin.

Buzilgan huquqning xususiyatiga qarab, u konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoyat va xo'jalik sud ishlarini yuritish tartibida himoya qilinadi.

Buzilgan huquq va erkinliklari himoya qilinishini so'rab sudga murojaat etish vositasi sifatida shikoyat xizmat qiladi. Shikoyat — bu mansabdor shaxslar va xizmatchilarining xatti-harakatlari yoki qarorlari bilan buzilgan huquq va qonuniy manfaatlari yuzasidan fuqaroning murojaati. Shikoyat fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasidir. Shikoyat bilan murojaat qilgan fuqaro yoki boshqa shaxslarning subyektiv huquqlari buzilishi haqidagi ma'lumotlar shikoyatda aks ettiriladi.

Shikoyat yoki prokurorning protesti qanoatlantirilgan taqdirda shikoyat qilingan (protest bildirilgan) boshqaruv organing hujjati o'z yuridik kuchini yo'qotadi. Yuqori turuvchi organlarga shikoyat qilish tartibi ishni malakali va qisqa muddatlarda ko'rib chiqish hamda fuqarolarning o'z huquqlarini himoya qilish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirish maqsadini ko'zlaydi.

O'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga bo'lgan fuqaroning konstitutsiyaviy huquqi davlat boshqaruv organlari faoliyati sohasida fuqarolar huquqlarining kafolatlari mustahkamlanishining eng muhim omili hisoblanadi. O'z navbatida, boshqaruv organlari tomonidan chiqarilgan hujjatlarga oid nizolarni ko'rib chiqishda sud hokimiyatining ahamiyati faqat oshadi, chunki nizolar sud orqali hal qilinishi ushbu nizolar ma'muriy tartib orqali hal qilinishiga nisbatan bir qator ustunliklarga ega:

1) sud — davlat boshqaruv organlari tomonidan chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi va asosligi ustidan nazorat qiluvchi maxsus davlat organidir;

2) sud hokimiyatning barcha tarmoqlaridan mustaqil bo'lib, bu mustaqillikning konstitutsiyaviy kafolatlariga ega;

3) nizo hal qilinishining aniq protsessual shakli;

4) nizo hal qilinishining demokratik prinsiplari;

5) teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan fuqaro va boshqaruv organining teng maqomi.

Shunday qilib, Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish prinsipining mustahkamlanishi bilan cheklanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Asosiy Qonuni mazkur prinsip hamda sud mustaqilligi prinsipi o'rtasida yaqin aloqani o'rnatadi.

Inson huquqlari sud orqali himoyalaniishi prinsipi Konstitutsiyada mustahkamlanishi insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish vazifasini amalga oshirishning muhim garovi sifatida xizmat qiladi.

Sud orqali himoyalaniish doirasi kengaytirilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo'yilgan keyingi ustuvor vazifani belgiladi. Mazkur vazifa, shubhasiz, tarixiy ahamiyatga ega. Yurtboshimizning quyidagi so'zlari nazarda tutiladi: «Sud — odil sudlovning oliy nuqtasi va uning rolini oshirish huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi qonuniy jarayon. Shu munosabat bilan prokuratura vakolatlarining bir qismini sudlarga o'tkazish hozirgi zamonning mantiqiy talabidir. Va bu, eng avvalo, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, daxlsizligini cheklash bilan aloqador masalalarga tegishlidir»<sup>1</sup>. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 44-moddasining cheklangan sharhlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Jinoyatga oid sud ishlarini yuritish jarayoniga jalb qilingan shaxslar Konstitutsiya amal qilishi doirasidan chiqarib tashlanilishi mumkin emas.

Jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan «...shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarini qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish»<sup>2</sup> taklif etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»<sup>3</sup>gi Farmoni insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta'qib va xususiy hayotga aralashish-

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2005-yil 28-yanvar.) O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. T., «O'zbekiston», 2005, 187-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 32—33, 242-modda.

dan himoyalani sh, shaxsiy daxlsizlik huquqlarini ta'minlash O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimi islohotining eng muhim vazifasi bo'lganligini ta'kidlab o'tib, qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokuraturadan sudlarga o'tkazishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalarni belgilab qo'yan.

Alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash sud tartibining ustunligi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash haqidagi qaror tergov va prokuror nazoratidan mustaqil bo'lgan organ tomonidan qabul qilinishida o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonuni qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sud tomonidan qo'llash protsessual tartibini, qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish tartibini belgilaydi va jinoyat protsessida shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari himoya qilinishining protsessual kafolatlarini kuchaytiradi.

Sud orqali himoyalani sh kafolatlarini kuchaytirish va mazkur himoyadan foydalanish erkinligini ta'minlash sudlov amaliyotida konstitutsiyaviy normalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, himoya ostidagi shaxslarning huquq va erkinlarini, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish vazifalarini bajarayotgan advokatura institutining roli va ahamiyati mustahkamlanishiga ham bog'liq.

Advokatura fuqarolar va ularning birlashmalariga qonun tomonidan berilgan asosiy huquqlarni himoya qilib, fuqarolik jamiyatining muhim instituti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasiga binoan, «fuqarolarga, korxon, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi». Prezident I.A. Karimov tomonidan quyidagilar alohida ta'kidlab o'tildi: «...advokatlar tizimining mavqeyi va ahamiyatini keskin ko'tarish lozim. Ular, birinchi navbatda, sudlov amaliyotida konstitutsiyaviy va huquqiy me'yorlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashlari, o'z himoyalaridagi fuqarolarning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishlari kerak»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2007, № 6, 249-modda.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. T. 5. T., «O'zbekiston», 1996, 128-bet.

Advokatura institutining mustahkamlanishi va uning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, o'z navbatida, qonun ustunligini o'rnatishga, fuqarolar, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning huquq, erkinlik va manfaatlarini samarali himoya qilishga yo'naltirilgan<sup>1</sup>. Aynan shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-mayda «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda ta'kidlab o'tilganidek, advokatura institutini isloh qilish vazifasi sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitutsiyaviy normani amalga oshirish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta'minlash kabi maqsadlarni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda advokaturaning obro'-e'tibori va ahamiyatini oshirish, aholining yuridik yordamga bo'lgan talabini qondirish vazifalari ham advokatura institutini yanada isloh qilishning asosiy vazifalari sifatida belgilangan bo'lib, odil sudlovga erkin murojaat etish prinsipi amal qilishi doirasi kengaytirilishiga yo'l ochib beradilar va mazkur prinsip amalga oshirilishining kafolati sifatida xizmat qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida bayon etilgan prinsipial qoidalar O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunida o'z aksini topdi.

### 3.9. Aybsizlik prezumpsiyasi

«Jinoyat sodir etilganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi».

**Konstitutsiyaning 29-moddasi  
1-qismi.**

«Jinoyat sodir etilganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda ochiq sud majlisi yo'li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir».

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasi  
1-qismi.**

<sup>1</sup> O'zbekistonning advokatura instituti alohida bobda batafsil yoritib beriladi.



Aybsizlik prezumpsiyasi (lotin tilidagi «*presumption*» — «taxmin» soʻzidan kelib chiqqan) shaxs huquqlari himoyasini taʼminlab beruvchi, asossiz ayblash va jazolashning oldini oluvchi jinoyat protsessining muhim demokratik prinsiplaridan biri hisoblanadi. Ushbu prinsip faqat jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda amal qiladi hamda JPKning 23-moddasi 1-qismida va «Sudlar toʻgʻrisida»gi Qonunning 10-moddasi 2-qismida batafsil belgilab berilgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi inson huquqlari sohasida asosiy xalqaro hujjatlarning qoidalariga asoslanadi: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (11-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt (14-modda), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish toʻgʻrisidagi Yevropa konvensiyasi (6-moddaning 2-qismi). Aybsizlik prezumpsiyasining asosida umumiy, keng eʼtirof etilgan axloq normasi yotadi, unga muvofiq, har bir inson aybdorligi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi lozim.

JPKning 23-moddasiga binoan, «Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi oʻzining aybsizligini isbotlab berishi shart emas.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti, ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan boʻlsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qoʻllanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak».

Barcha fuqarolar qonunga itoatkor boʻlishlari taxmin qilinishi va davlat tomonidan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilishlari faqat qonunda nazarda tutilgan shartlar mavjudligida va qatʼiy taomil qoʻllanilishi natijasida mumkinligi mazkur prinsipning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilish shaxsning asossiz hukm qilinishiga yoʻl qoʻymaydigan kafolat sifatida xizmat qiladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi sudya, tergovchi yoki prokurorning shaxsiy fikrini bildirmaydi, aksincha, xolis huquqiy holatni anglatadi. Tergov organlari shaxsga ayb qoʻyib, uni jinoyat sodir

etishda aybli deb hisoblaydilar, lekin hali uning aybdorligini isbotlash lozim. Qonun shaxsni aybli deb topish imkoniyatini ayblanuvchi huquq va qonuniy manfaatlarining maksimal kafo-latlarini mujassamlashtiruvchi bosqichning, ya'ni sud mu-hokamasining majburiy o'tkazilishi bilan bog'laydi. Aynan shu sababli shaxsni jinoyat sodir etishda aybli deb topish va O'zbekis-ton Respublikasining JPKda belgilangan tartibda chiqarilgan hukm bilan jinoiy jazoga tortish vakolati davlat tomonidan sud hokimiyatining mustaqil organi bo'lgan sudga va faqat sudga isho-nib topshirilgan. Shaxsni jinoyat sodir etishda aybli deb topishga odil sudlovni oshkora, og'zaki va tortishuv sharoitlarida amalga oshirish natijasidagina yo'l qo'yiladi. Sud hukmi qonuniy kuchga kirguncha shaxsning aybi haqidagi mulohazalar uzil-kesil yuridik ahamiyatga ega emas.

Aybsizlik prezumpsiyasi rad qilinishi mumkin: aybsizlik ha-qidagi taxmin shaxsning jinoyat sodir etishda aybi yetarli, ishonchli va xolis dalillar asosida qonunda belgilangan tartibda aniqlanma-gunga qadar amal qiladi. Aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chi-qadigan, ushbu institutning huquqiy maqomini shakllantiradigan hamda surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlarining huquqni qo'llash bo'yicha faoliyatida hisobga olinishi va rioya qilinishi lo-zim bo'lgan bir qator qoidalar amaldagi jinoyat-protsessual qo-nunida mustahkamlangan:

1. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi) o'z aybsiz-ligini isbotlashga majbur emas; ayblovni isbotlash hamda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyasiga keltirilgan dalillarni rad etish vazifasi ayblovchining zimmasiga yuklatiladi; jinoiy ta'qibni amalga oshirishda prokuror, tergovchi, surishtiruv organi va su-rishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'l-gan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart.

2. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni barta-raf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, ayblanuvchi va sudla-nuvchining foydasiga hal qilinishi lozim (JPKning 23-moddasi 3-qismi); mazkur qoida jinoyat ishi bo'yicha olib boriladigan dastlabki tergovga ham tatbiq etilgan bo'lib, jinoyat ishini tuga-tish, sodir etilgan jinoyat tavsif qilinishining o'zgarishi tufayli ayblov hajmi yoki uning xususiyati o'zgarishi kabi protsessual

oqibatlariga olib keladi. JPKda nazarda tutilgan dalillarni to'plashning barcha vosita va usullari tugagan bo'lsa hamda ish bo'yicha to'plangan dalillar orqali hal etilishi mumkin bo'lmagan shubhalar mavjud bo'lsa, ushbu shubhalar bartaraf etib bo'lmaydigan shubhalar deb e'tirof etilishi lozim.

3. Jinoyat ishini yuritishni amalga oshiruvchi davlat organlari va sud majlisida sud organlari ish holatlarini har tomonlama, to'liq va xolis o'rganishlari shart; sud isbotlash majburiyatini sudlanuvchi zimmasiga yuklatishga haqli emas; sud tomonidan dalillarni bevosita tekshirish sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlar, ekspertning ko'rsatmalarini eshitish, bayonnoma va boshqa hujjatlarni o'qib eshitish, dalillarni o'rganish bo'yicha boshqa sudtergov harakatlarini amalga oshirish bo'yicha sudning majburiyatini ko'zda tutadi (JPKning 26-moddasi).

4. Ayblanuvchining o'z aybiga iqror bo'lishi, ishda mavjud bo'lgan dalillar majmuyi bilan tasdiqlangan taqdirdagina, ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin.

5. Ayblov hukmining taxminlarga asosan chiqarilishi qonun bilan taqiqlanadi; sudlanuvchi aybli ekanligi sud muhokamasi davomida o'rganilgan ishonchli dalillarning yetarli majmuyi bilan isbot qilingan taqdirdagina ayblov hukmi chiqariladi.

Ko'rsatilgan qoidalar bir vaqtning o'zida aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi amal qilishini ta'minlashda tegishli kafolatlar sifatida xizmat qiladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hukmi yuqorida ko'rsatilgan qoidalarga rioya qilgan taqdirdagina haqiqatni, shu jumladan, isbotlashning asosiy masalasi, ya'ni ayblanuvchining aybi bo'yicha xulosani aks ettiruvchi hujjat deb e'tirof etiladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi, nafaqat, asossiz ayblov va hukm qilishga yo'l qo'ymaydigan kafolatdir. Ayblovning shubhasiz isbotlanishi shartligi hamda bartaraf etish bo'lmaydigan shubhalarini ayblanuvchi foydasiga hal qilinishi zarurligi to'g'risidagi mazkur prezumpsiyaning talablari davlat organlarini ish holatlarini xolis, beg'araz va adolatli tarzda aniqlashga yo'naltiradi hamda shu orqali sud tomonidan ishning adolatli hal qilinishini ta'minlaydi. Aybsizlik prezumpsiyasidan salgina chetga chiqish ham odil sudlovda qonuniylikning buzilishiga va fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini cheklanishiga olib keladi.

### 3.10. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalaniş huquqi bilan ta'minlash

«Ayblanuvchi himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxonaga, muassasaga va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi».

**Konstitutsiyaning 116-moddasi.**

«Har bir kishining unga qo'yilgan har qanday jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda shaxs huquqlarining kafolatlari tizimida markaziy o'rin egallaydi. Ushbu huquq, nafaqat, shaxs huquq va qonuniy manfaatlarining kafolatlarini, balki odil sudlov manfaatlarini amalga oshirishning yuridik sharti sifatida xizmat qiladi. Himoyalaniş huquqi mustaqil ijtimoiy-huquqiy ne'matdir.

**Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasi 3-qismi «d» bandi.**

Himoyalaniş huquqi jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda shaxs huquqlarining kafolatlari tizimida markaziy o'rin egallaydi. Ushbu huquq, nafaqat, shaxs huquq va qonuniy manfaatlarining kafolatlarini, balki odil sudlov manfaatlarini amalga oshirishning yuridik sharti sifatida xizmat qiladi. Himoyalaniş huquqi mustaqil ijtimoiy-huquqiy ne'matdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda himoyalaniş instituti gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga taqdim etiladigan va ularga ishda taraf sifatida ishtirok etishga, jinoyat sodir etish yuzasidan ularga qo'yilgan ayblov yoki gumonni rad qilishga, jinoyat sodir etishga aloqador emasligini isbotlashga, javobgarlikni yengillashtirish uchun harakat qilishga imkon beruvchi huquqlar kompleksi sifatida xizmat qiladi.

JPKning 24-moddasiga muvofiq, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyalaniş huquqi quyidagi qoidalardan iborat: gumon qilinuvchi va ayblanuvchi o'z huquqlarini shaxsan hamda o'z vakolatlaridan to'liq foydalanadigan himoyachi yordamida

amalga oshirishlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarining mansabdor shaxslari har bir ayblanuvchi o'zining himoyalanihga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishi uchun tegishli sharoitlar yaratish bo'yicha majburiyatlarini bajarishlari.

Gumon qilinuvchiga (ayblanuvchiga) taqdim etiladigan hamda o'zining nimada ayblanayotganligini bilishga, o'z tushuntirishlarini berishga, unga qo'yilgan ayblovga nisbatan e'tiroz bildirishga, o'z qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish bo'yicha barcha huquqlardan foydalanishga imkon beruvchi protsessual vosita va huquqlar majmuyi jinoyat protsessida himoyalanih huquqi institutining asosini tashkil etadi.

Himoyalanih huquqi va uni amalga oshirishning kafolatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Qonun chiqaruvchi qo'yilgan ayblovdan qonunda nazarda tutilgan barcha usul va vositalar orqali himoyalanih imkoniyatini ayblanuvchiga ta'minlash bo'yicha majburiyatni jinoyat protsessini olib boruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning zimmasiga yuklatadi. Ushbu barcha harakatlarni amalga oshirish huquqi gumon qilinuvchi va ayblanuvchida mavjudligi to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarni ma'lum qilishga, yuqorida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish tartibini tushuntirishga va ushbu huquqlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatni ta'minlashga majburdirlar (JPKning 24-moddasi 2-qismi). Mazkur ta'minlash choralari davlat organlari tomonidan amalga oshirilmayotgan bo'lsa, himoyalanih huquqi bema'ni deklaratsiyaga aylanadi. Ushbu organlar ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek, uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlarni aniqlashga ham majburdirlar (JPKning 22-moddasi).

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi uning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguncha va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmasligini belgilaydigan aybsizlik prezumpsiyasi konstitutsiyaviy prinsipiga qat'iy rioya etilishi gumon qilinuvchi, ayblanuvchini himoyalanih huquqi bilan ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi zimmasiga ko'rsatma berish hamda o'z aybsizligini yoki ish bo'yicha biron-bir holatni isbotlash majburiyatini yuklatish taqiqlanadi. Qonunga asosan, bunday majburiyat jinoyat ishini yuritishga mas'ul davlat organlarining mansabdor shaxslari zimmasiga yuklatilgan.

Shunday qilib, ayblanuvchining protsessual huquqlari tizimi hamda sud, surishtiruv, tergov va prokuratura organlarining ushbu huquqlarni amalga oshirish bo'yicha haqiqiy imkoniyatlarni ta'minlash majburiyati birligida ayblanuvchini himoyalaniş huquqi bilan ta'minlash prinsipi o'zining eng chuqur va ta'sirli mazmunini topadi.

Biroq, ayblanuvchini himoyalaniş huquqi bilan ta'minlash prinsipining mazmun-mohiyati o'z hajmi bo'yicha muayyan bir protsessual huquqqa teng emas. Ayblanuvchining (gumon qilinuvchi va sudlanuvchining) himoyalaniş huquqi deganda, unga qo'yilgan ayblovdan shaxsan yoki himoyachining yordamida himoyalaniş imkoniyatini beruvchi protsessual huquqlarning butun majmuyi tushunilishi lozim.

Ayblanuvchi (gumon qilinuvchi, sudlanuvchi) o'z huquq va qonuniy manfaatlarini shaxsan samaradorli himoya qilishga imkon beruvchi huquqlar kompleksiga ega. Ushbu maqsadda jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslarga bir qator huquqlar taqdim etilgan: o'zining nimada ayblanayotganligini bilish, ko'rsatma va tushuntirish berish, dalillar bilan tanishib chiqish va boshqalar (JPKning 46-moddasi). Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud (sudya)ning protsessual harakati yoki qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat berish huquqining gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga qonun bilan taqdim etilishi mazkur shaxslarni himoyalaniş huquqi bilan ta'minlashning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoyachisi va qonuniy vakili tomonidan ham berilishi mumkin.

Himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlaydi.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining iltimosiga ko'ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining,

tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to'g'risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan, qaror yoxud ajrim O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e'tiboran to'rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo'yicha himoyachining ishtirokini ta'minlashi shart (JPKning 51-moddasi 3-qismi).

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi bo'yicha himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi (JPKning 49-moddasi 4-qismi). Ishda himoyachi sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda, himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo'yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan, yo'l qo'yilishi mumkin.

Qonun chiqaruvchi ayblanuvchiga ish yuritilayotgan davrda istalgan vaqtda himoyachidan voz kechish huquqini taqdim etadi. Lekin bunday voz kechishga faqat ayblanuvchining tashabbusi bilan yo'l qo'yiladi va u ishda boshqa taraflarning ishtirok etishiga to'sqinlik qilishi mumkin emas.

Ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtdan boshlab, advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga haqli emas (JPKning 53-moddasi 5-qismi).

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga, ularning iltimosidan qat'i nazar, hattoki ularning xohishiga qaramay, himoyachi tayinlanishi shart bo'lgan hollarning qonunda nazarda tutilganligi himoyalani huquqining qo'shimcha kafolati hisoblanadi. Ushbu hollar voyaga yetmaganlar, soqovlar, karlar, ko'rlar va jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o'zini o'zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarga, shuningdek, sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga oid. Bundan tashqari, jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishlari bo'yicha ham himoyachi ishtirok etishi shart (JPKning 51-moddasi). Himoyachining majburiy ishtirok etishi uning kelishuvi yoki surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan tayinlanishi orqali ta'minlanishi mumkin.

JPKning 487-moddasi mazmuniga asosan, himoyalani sh huquqining buzilishi sud ishni har tomonlama ko'rib chiqishiga xalal bergan hamda qonuniy, asosli va adolatli hukm chiqarishga ta'sir qilgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan taqdirda, jiddiy va sud hukmini bekor qilinishiga olib keladigan buzilish sifatida e'tirof etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2003-yil 19-dekabrda «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 17-qarorida mustahkamlab qo'yilganidek: qiynoqqa solish, zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, aldash hamda insonga nisbatan boshqacha shafqatsiz yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo'lish, shuningdek, qonunga xilof boshqa choralar qo'llash, shu jumladan, **gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqini buzish** natijasida olingan dalillar ayblov asosiga qo'yilishi mumkin emas.

Qonunga muvofiq (JPKning 20, 51, 487-moddalari) quyidagi hollar gumon qilinuvchini, ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishi deb baholanadi. Agar:

- uning o'z ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi buzilgan bo'lsa;

- qonunga ko'ra, himoyachining ishtiroki shart bo'lgan ish himoyachining ishtirokisiz tergov qilingan yoki sudda ko'rilgan bo'lsa;

- manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lgan bir necha shaxsning huquqlari bitta himoyachi tomonidan himoya qilingan bo'lsa;

- dastlabki tergov tamomlangandan so'ng ayblanuvchi ishdagi barcha materiallar bilan tanishtirilmagan bo'lsa va bu qoidabuzarlik sud tomonidan bartaraf etilmagan bo'lsa;

- ayblanuvchiga ayblov xulosasi topshirilmagan bo'lsa;

- himoyachisi bo'lmagan sudlanuvchiga himoya nutqi so'zlash uchun imkoniyat, shuningdek, oxirgi so'z berilmagan bo'lsa;

- ish sudlanuvchining ishtirokisiz ko'rilgan bo'lsa, JPKning 410-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- ishni yuritishni istisno etadigan holatlar mavjud bo'la turib, dastlabki tergov va sud muhokamasi o'tkazilgan bo'lsa.

Ish bo'yicha ko'rsatib o'tilgan holatlarning aniqlanishi sud qarorining bekor qilinishiga asos bo'ladi.



### 3.11. Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipi

Tortishuv prinsipi protsessual prinsipi bo'lib, tarmoq qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Xususan, Xo'jalik protsessual kodeksining «Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi» deb nomlanadigan 9-moddasida tortishuv g'oyasi quyidagicha ifodalangan: «Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi». FPKning «Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi» deb nomlanadigan 8-moddasida mazkur prinsipning quyidagi ta'rifi berilgan: «Fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi». Ushbu normalar mazmunidan ko'rinib turibdiki, taraflar dalillar taqdim etish va ularni tekshirishda ishtirok etish bo'yicha teng huquqlarga ega.

Jinoyat protsessual qonunchiligida tortishuv prinsipi alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Jinoyat protsessual qonunchiligi taraflarning sud oldidagi protsessual tengligi hamda jinoyat sud ishlarini yuritishni izchil demokratlashtirish g'oyasini asosiylardan biri deb e'tirof etib, taraflarning o'zaro tortishuvini jinoyatga oid sud ishlarini yuritishning asosiy prinsiplar tizimiga kiritadi. Ta'kidlash joizki, 1959-yildagi JPKda mazkur prinsip nazarda tutilmagan. Amaldagi qonunchilikda esa ushbu prinsip JPKning 25-moddasida o'z aksini topgan: «Birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek, ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshiriladi».

Tortishuv prinsipining amalga oshirilishi ayblash va himoya qilish vazifalari bir-biridan va sud faoliyatidan ajratilganligini hamda o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida teng protsessual huquqlaridan foydalanayotgan taraflar tomonidan bajarilishini nazarda tutadi. Ayblash, himoya qilish va ishni hal qilish protsessual vazifalarini bitta organ yoki bitta mansabdor shaxs zimmasiga yuklatish mantiq va psixologiya qonunlariga zid bo'ladi. Ushbu buzilishning taqiqlanishi, birinchi navbatda, sudga taalluqli, chunki tortishuv prinsipining ko'rsatilgan asosiy qoidasini buzish odil sudlov amalga oshirilishi butun tizimiga tahdid soladi.

Taraflarning o'zaro tortishuvi asosida sud ishlarini yuritish har bir demokratik jamiyatining milliy huquqiy tizimi uchun muhim yutuqdir. Yurtboshimiz I.A. Karimov fikriga ko'ra, sud protsessida ayblash va himoya qilish taraflarning haqiqiy tengligiga erishish sud tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri.

Tortishuv prinsipining amalga oshirilishi ish to'liq, xolis va beg'araz ko'rib chiqilishining kafolati hisoblanadi, bu, o'z navbatida, haqiqatni aniqlashga va ish bo'yicha adolatli qaror qabul qilishga imkon beradi.

Jinoyat protsessida taraflar deganda, protsessual manfaatlari qarama-qarshi bo'lgan va bu manfaatlarni himoya qilish uchun qonun bilan taqdim etilgan huquqlarga ega bo'lgan jinoyatga oid sud ishlarini yuritishning ishtirokchilari tushuniladi. Asosiy protsessual vazifalarni bajaruvchi shaxslar qonunda belgilangan. Ayblash vazifasi bitta taraf tomonidan (prokuror, jabrlanuvchi, xususiy ayblovchi, fuqaroviy da'vogar ushbu taraf doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradi), himoya qilish vazifasi esa ayblanuvchi, sudlanuvchi, uning himoyachisi, vakili, fuqaroviy javobgar kabi protsess ishtirokchilari vakillari bo'lgan boshqa taraf tomonidan bajarilishida protsessual vazifalarning ajratilganligi o'z ifodasini topadi.

Ishni hal qilish vazifasi faqat sud tomonidan bajariladi. Bu vazifa ayblash va himoya qilish vazifalaridan ajratilgan (JPKning 25-moddasi 5- va 6-qismlari).

O'z navbatida, sud oldida ayblov va himoya taraflarining tengligi jinoyat ishlarini ko'rish jarayonida taraflarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlovchi jinoyat sud ishlarini yuritishning tartibini anglatadi. Taraflarning protsessual teng huquqliligi, nafaqat, ishning faktik holatlarini tahlil qilishga, balki ishni sudda ko'rish jarayonida vujudga keladigan barcha yuridik masalalarni muhokama qilishga ham tatbiq etiladi.

Tortishuv prinsipini izchil amalga oshirish maqsadida sudlanuvchini fosh etish jarayonida sudning ishtirok etishi taqiqlanadi, chunki sud jinoiy ta'qib organlar qatoriga kirmaydi va ayblov yoki himoya tarafida turishga haqli emas. Sud taraflar protsessual majburiyatlarini bajarishlari va o'z huquqlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berishga majbur. Sud protsessda rahbariy o'rin egallab, xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda sud majlisi ustidan rahbarlik qiladi, o'rganilayotgan ish holatlariga bevosita aloqador bo'lmagan barcha ma'lumotlarni bartaraf etadi, sud majlisida tartibni buzish bo'yicha urinishlarga yo'l qo'ymaydi.

Zamonaviy protsessualistlar tortishuv prinsipining quyidagi uch elementini ajratishadi: 1) ayblash (va fuqaroviy da'voni quvvatlash), himoya qilish (va fuqaroviy da'voga javob berish) hamda odil sudlov vazifalari bir-biridan alohida bajarilishi; 2) taraflar

o'z vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng protsessual huquqlar taqdim etilishi; 3) sudning protsessda rahbariy roli va ish bo'yicha qaror qabul qilish huquqining faqat sudga taqdim etilishi<sup>1</sup>.

Ayblash va himoya qilish mustaqil vazifalar sifatida belgilanishi, ular bir-biridan va sud faoliyatidan ajratilishi tortishuv prinsipi amal qilishining asosini tashkil etadi. Ayblash, himoya qilish va odil sudlovni amalga oshirish vazifalari bir-biridan qanday tarzda ajratilganligi bo'yicha sud protsessining turlarini tasniflash mumkin. Qonun ayblash, himoya qilish va odil sudlovni amalga oshirish vazifalarini (JPKning 408, 409, 412, 53, 12-moddalarini) qat'iy ajratgan, ularning qo'shilishini hukmning, albatta, bekor qilinishi uchun asos sifatida belgilagan va shu orqali bunday qo'shilishni istisno qilgan (JPKning 76, 79, 80-moddalarini).

Inobatga olish lozimki, odil sudlovni amalga oshirishda taraflarning teng huquqliligi to'g'risidagi qoida faqat protsessual jihatdan ko'rilishi lozim. Taraflar umuman teng huquqli emas, ular o'z pozitsiyalarini sud oldida himoya qilishda teng protsessual huquqlarga ega. Taraflar ayblash va himoya qilish, fuqaroviy da'voni quvvatlash va da'voga qarshi e'tiroz bildirish bo'yicha o'z pozitsiyalarini himoya qilishlari uchun yo'l qo'yiladigan protsessual vositalaridan foydalanish bo'yicha teng imkoniyatlarga ega. Sud muhokamasida tortishuvni ta'minlash uchun sud taraflar o'z protsessual huquqlarini amalga oshirishlari uchun sharoit yaratadi va taraflar xatti-harakatlarining qonuniyligi ustidan nazorat qiladi hamda shu orqali ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga ko'maklashadi.

### **3.12. Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning ishtiroki**

Fuqarolar vakillari bo'lgan jamoatchilik odil sudlovni amalga oshirishda turli shakllarda ishtirok etadi. Biroq odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning ishtiroki haqida, odatda, faqat jinoyatga oid sud ishlarini yuritish nuqtayi nazaridan gap yuritiladi. Jamoatchilik aslida na fuqarolik, na xo'jalik sud ishlarini yuritishda ishtirok etmaydi.

Jinoyat ishi bo'yicha tergov olib borish va ishni sudda ko'rish chog'ida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat sodir

---

<sup>1</sup> С.Д. Шестакова. Состязательность уголовного процесса. СПб., «Юридический центр Пресс», 2001, стр. 43.

etilgan holatlarni aniqlab olish, aybdorlarni qidirish va fosh etish, adolatli hukm chiqarish, shuningdek, jinoyatning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlash uchun o'z vakolatlari doirasida jamoatchilik yordamidan foydalanishga haqlidir.

Xususan, jinoyat ishi shaxs arizasi bo'yicha qo'zg'atilishi mumkin (bu shaxs jabrlanuvchi, guvoh va h.k. bo'lishi mumkin).

Tergov olib borish va ishni sudda ko'rish chog'ida jamoatchilik xolislari, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi, kafillar, xalq maslahatchilari sifatida ishtirok etishi mumkin.

**Jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi.** JPKning 40-moddasiga muvofiq, jamoat birlashmalari va jamoalar, ularning rahbar organlari hamda vakillari sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat to'g'risidagi xabar bilan surishtiruv organiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga murojaat etishlari mumkin. Ular: ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida jamoat birlashmasi yoki jamoa kafilligiga berishni tanlash haqida; mahkumni muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish yoki jazoni yengilrogi bilan almashtirish haqida; ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlarning jazoni o'tash sharoitlarini o'zgartirish haqida; sudlanganlikni olib tashlash haqida va boshqa masalalar bo'yicha ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda hamda tartibda iltimos qilishga haqlidirlar.

O'z navbatida, surishtiruvchi va tergovchi fuqaroning og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani haqida uning ish, o'qish yoki yashash joyidagi jamoaga xabar beradi, sud esa ularga shu ish bo'yicha sud muhokamasi qachon va qayerda o'tkazilishi haqida xabar beradi.

Jinoyat protsessida jamoatchilikning ishtiroki jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi institutida o'z ifodasini yanada aniqroq topadi. JPKning 42-moddasiga ko'ra, jamoat birlashmalari va jamoalar sud muhokamasida jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi tariqasida ishtirok etish uchun o'z vakillarini yuborishlari mumkin.

Jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilarini jamoat birlashmasining yoki korxonasi, muassasa, tashkilot, shu jumladan, tijorat tuzilmasi jamoasining yig'ilishi ko'rsatadi. Yig'ilish qarori sudga taqdim etilishi lozim. Biroq, jamoat birlashmasi, jamoa o'zi yo'llagan jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisini xohlagan vaqtda chaqirib olishga yoki uni boshqa vakil bilan almashtirishga haqlidir.

Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi — davlat va jamoat ayblovchilari tutadigan pozitsiyadan mustaqil ravishda o'z vazifalarini bajaradigan sud muhokamasining mustaqil va teng huquqli ishtirokchilaridir.

**Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining qonuniy vakillari.** Jinoyat protsessi doirasida vakillik instituti surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasida ishtirok etayotgan ko'rsatilgan shaxslarning o'z huquq, majburiyat va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini to'liqroq amalga oshirishiga ko'maklashadi. Ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar (muomalaga layoqatsizlik, kasallik, uzoq muddatli xizmat safari va h.k.), shuningdek, o'z manfaatlarini himoya qilishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan (muomala layoqati cheklanganligi) yoki huquqiy bilimsizligi tufayli malakali yuridik yordamdan foydalanmoqchi bo'lgan shaxslar (katta yoshdagi muomalaga layoqatli jabrlanuvchilar, fuqaroviy javobgarlar). Ish bo'yicha fuqaroviy da'vogarlar yoki javobgarlar deb e'tirof etilgan yuridik shaxslar ishda faqat o'z vakillari orqali ishtirok etadilar.

Shunday qilib, jinoyat protsessida vakillikning ikki turi mavjud: shartnoma bo'yicha vakillik hamda qonuniy vakillik. Birinchisi yuridik maslahatxona (byuro, firma) bilan tuzilgan shartnomaga (kelishuvga), ikkinchisi esa qarindoshlik munosabatlariga asoslanadi.

Qonuniy vakil ishda ishtirok etishga voyaga yetmagan yoxud belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun jalb qilinadi (JPKning 60-moddasi). Ishda qonuniy vakil sifatida otanonalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmagan yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan ishtirokchiga homiylik qiluvchi muassasalar va tashkilotlarning vakillari qatnashishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining va sudlanuvchining qonuniy vakili ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan birga, jabrlanuvchining qonuniy vakili esa jabrlanuvchi bilan birga, shuningdek, uning o'rnida ham ishtirok etadi.

**Xolislar.** Xolislar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan tergov yoki boshqa harakatlar o'tkazilganini, uni o'tkazish jarayonini va natijalarini tasdiqlash uchun JPKning bir qator moddalarida nazarda tutilgan hollarda chaqiriladi.

Xolislarning ishtirokida yuritilgan tergov harakatlari o'tkazilganini, ularni o'tkazish jarayonini va natijalarini tasdiqlashi shart. Ular tergov harakati bo'yicha bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan arz va mulohazalar berish huquqiga egadir. Xolis sifatida taklif etilgan shaxs ishda ishtirok etishi munosabati bilan qilgan sarf-xarajatlarini undirish huquqiga ega.

Tergov harakatlarini yuritishda ishtirok etish uchun ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmagan, kamida ikki nafar voyaga yetgan fuqaro chaqirilishi lozim. Ichki ishlar organi, milliy xavfsizlik xizmati, prokuratura, adliya yoki sud xodimlari xolislarning sifatida taklif etilishi mumkin emas (JPKning 78-moddasi).

Tergov harakatini boshlashdan oldin surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror xolislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

**Kafillar.** Shaxsiy kafillik va jamoat birlashmasining kafilligi ajratiladi. Shaxsiy kafillik ishonchga sazovor bo'lgan shaxslarning ayblanuvchi, sudlanuvchi munosib xulq-atvorda bo'lishiga kafil ekanliklari haqida yozma majburiyat olishidan iboratdir.

Jamoat birlashmasi yoki jamoa ishda ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan shaxsni kafillikka olish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir. Jamoat birlashmasi yoki jamoa o'z qarorini ayblanuvchining, sudlanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishiga kafil ekanligi to'g'risidagi yozma majburiyat tarzida bayon qiladi. Bu majburiyat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga taqdim qilinadi, ular jamoat birlashmasi yoki jamoaning qaroriga rozi bo'lsalar, shunday ehtiyot chorasini tanlab, bu haqda qaror yoki ajrim chiqaradilar. Ayni vaqtda jamoat birlashmasi yoki jamoa vakiliga ushbu ehtiyot chorasini qo'llanilishiga sabab bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga esa, basharti, xulq-atvori nomunosib bo'lsa, ehtiyot chorasini jiddiyrog'i bilan almashtirilishi mumkinligi tushuntirilgani to'g'risida bayonnoma tuziladi.

**Xalq maslahatchilari.** Qonunchilikda jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish jarayoniga xalq vakillarini jalb qilish shakllaridan biri sifatida xalq maslahatchilari instituti nazarda tutilgan. O'zbekistonda sud ishlarini yuritishda xalq maslahatchilari instituti oldindan ma'lum (1917-yildan keyin). Hozirgi kunda xalq maslahatchilari jinoyat ishlarini ko'rish jarayonida faqat qonunda belgilangan hollarda ishtirok etadilar. Fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilishda xalq maslahatchilarining ishtiroki nazarda tutilmagan (FPKning 13-moddasi).

Sud majlisida ishni ko‘rish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda xalq maslahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanadilar.

Xalq maslahatchilari yigirma besh yoshga to‘lgan va qonunchilikda belgilangan boshqa talablarga javob beradigan fuqarolar sonidan tanlanadi. Fuqarolarga xalq maslahatchilarining vakolatlarini berish tartibi «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning (yangi tahriri) 62-moddasida belgilangan. Xalq maslahatchilari ishtirokida sud ishlarining katta qismi ko‘riladi.

Ko‘rinib turibdiki, jinoyat ishlarini tergov qilishda va ko‘rishda jamoatchilik ishtirokining shakllari turli bo‘ladi, biroq, umuman olganda, ularning faoliyati quyidagi umumiy maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi: jamoat nazoratini o‘rnatish; aholiga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlash. Mazkur maqsadlarga erishish fuqarolik jamiyatini barpo etishning zaruriy sharti hisoblanadi.

## MAVZU BO‘YICHA XULOSALAR

*Mazkur mavzuni o‘rganishda talabalar odil sudlov prinsiplarining xalqaro hujjatlarda va tarmoq qonun hujjatlarida mustahkamlanishiga oid masalalarni ko‘rib chiqishlari; qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkazib, odil sudlovni amalga oshirishda ularning rolini aniqlashlari lozim.*



### NAZORAT SAVOLLARI

---

1. Odil sudlov tushunchasiga ta‘rif bering va unga xos bo‘lgan belgilarni aytib bering.
2. Odil sudlov va sud hokimiyatining o‘zaro nisbati qanday, ular o‘rtasidagi farq nimadan iborat?
3. Odil sudlov demokratik asoslari (prinsiplari)ning yuridik mazmunini ta‘riflab bering.
4. Odil sudlov sohasida qonuniylik prinsipi amalga oshirilishi nimalarni anglatadi?
5. Birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiya sudlarida sud ishlarini hay‘atda ko‘rish qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Aybsizlik prezumpsiyasi tushunchasini va uning asosiy qoidalarini bayon eting.
7. Odil sudlovni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan organlarni sanab bering.
8. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipi nima sababli e‘lon qilingan?

9. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalaniş huquqi bilan ta'minlash asosanadigan boshlang'ich qoidalarni belgilab bering.
10. Fuqarolik va jinoyat ishlari yopiq sud majlisida ko'rilishi mumkin bo'lgan hollarni sanab bering.
11. Sud zalida ovozlarni yozib olishga yoki videoyozuvga olishga yo'l qo'yiladimi? Fotosuratga olishga kimning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi?
12. Jurnalist va muxbirlar sud majlisi zalida ishtirok etish huquqiga egami?
13. Sud himoyasida bo'lish huquqi amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqiy hujjatlarni aytib bering.
14. Odil sudlovni amalga oshirishda tortishuv prinsipi nimalarni anglatadi?

### *MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR*

1. Sud hokimiyati va odil sudlovning o'zaro nisbatini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
2. MDH davlatlarida va boshqa xorijiy davlatlarda odil sudlov asosiy prinsiplarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
3. Xorijiy davlatlarda odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokining shakllarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
4. Turli davlatlarda sudyalar mustaqilligining kafolatlarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.

### **Axborot uslubiy ta'minot**

1. *I.A. Karimov*. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. T., «O'zbekiston», 2002.

2. *I.A. Karimov*. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, 2005-yil 28-yanvar.) O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. T., «O'zbekiston», 2005.

3. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

### **Huquqiy manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi 924-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). (O'zbekiston Respublikasi 2000-yil 14-dekabdagi 162-II sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.



3. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi 103-I sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda «Prokuratura to'g'risida»gi 746-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 168-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda «Advokatura to'g'risida»gi 349-I sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

6. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi 721-I sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

8. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

10. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 1—2, 11-modda.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-2682-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3023-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2002, № 3—4, 26-modda.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi PF-3644-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 32—33, 242-modda.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3725-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 12—13, 101-modda.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-896-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

16. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 7-dekabrda­gi «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqi­da»gi 323-II sonli Qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 147-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qo­nun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

18. «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi PQ-896-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qo­nun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

19. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tan­lash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'­risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi PF-3725-sonli Farmoniga 3-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 12—13, 101-modda.

20. «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 7-dekabrda­gi 323-II sonli qarori bilan tasdiqlangan). NORMA axborot-huquqiy tizimi.

21. «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'­risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi 147-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respub­likasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

22. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining 1996-yil 20-dekabrda­gi «Sud hokimiyati to'g'risida»gi 1-qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1-jild. T., «O'qituvchi», 2007.

23. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 28-dekabrda­gi «Fuqarolarning sud ishlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqish amaliyoti haqida»gi 31-qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1-jild. T., «O'qituvchi», 2007.

24. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1997-yil 2-may­dagi «Sud hukmi to'g'risida»gi 2-qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1-jild. T., «O'qituvchi», 2007.

25. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 17-aprelda­gi «Sudning hal qiluv qarori haqida»gi 13-qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1-jild. T., «O'qituvchi», 2007.

26. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2003-yil 19-de­kabrda­gi «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risi­da»gi 17-qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 2-jild. T., «O'qituvchi», 2007.

## Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.
2. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. Inson huquqlarini himoya qilishda — xalqaro va milliy qonunchilik normalarining amal qilishi. Risola. T., TDYI, 2008.
3. *A.A. Muhammadiyev*. Konstitutsiya va sud hokimiyati tamoyillari. TDYI axborotnomasi. T., 2010, № 6.
4. *M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva*. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.
5. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., TDYI, 2008.



## II bo'lim

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMI

### 4-bob. FUQAROLIK ISHLARI BO'YICHA TUMANLARARO, TUMAN (SHAHAR) SUDI. JINOYAT ISHLARI BO'YICHA TUMAN (SHAHAR) SUDI

**O'quv  
maqsadlari**

*Mazkur mavzuni o'rganish O'zbekiston Respublikasi umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'in sudlarida ishning tashkil etilishiga oid masalalari talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga, ko'rsatilgan sudlar tarkibini, vakolatlarini ko'rib chiqishga, shuningdek, sudyalar va xalq maslahatchilarining huquq va majburiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan.*

#### **4.1. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi — umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'ini, ularning vakolatlari**

Odil sudlovni amalga oshirish sifatini yuksaltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni bilan mavjud umumiy yurisdiksiya sudlari negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tashkil qilindi. Ushbu Farmon sud ishlarining adolatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida sudlarning ixtisoslashuvini amalga oshirish uchun qabul qilingan. 2001-yil 1-yanvardan boshlab, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlari faoliyat yuritishni boshladi.

Hozirgi kunda fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'inini tashkil qiladilar. Bu, birinchi navbatda, mazkur sudlar nihoyatda ko'p bo'lganligi, shuningdek, ushbu sudlarning sudloviga sudlarga taalluqli bo'lgan fuqarolik va jinoyat ishlarining asosiy qismi to'g'ri kelganligi bilan bog'liq. FPK va JPK fuqarolik va jinoyat ishlarining turdosh (predmetli) sudlovga taalluqliligini belgilab, mazkur barcha ishlar tuman sudining sudloviga taalluqli bo'lganligini qayd etadi, qonunda bunday ishlarni ko'rish boshqa sudlar vakolatiga berilgan hollar bundan mustasno. Odatda, aholi o'z muammolari bilan aynan shu sudlarga murojaat qiladi va aksariyat hollarda shu yerda o'z savollariga kerakli javoblarni oladi.

Mazkur sudlar tashkil qilinishi prinsiplari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Sudlar to'g'risida»gi Qonun va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlari tashkil qilingan. Zarur hollarda fuqarolik ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari ham tashkil qilinishi mumkin. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlarining tashkil qilinishi ko'rib chiqiladigan ishlar hajmi va boshqa omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar har bir tumanda va tumanlarga bo'linmagan shaharda faoliyat yuritadi. Tumanda (shaharda) bitta sud tashkil qilinadi, biroq, butun tuman va shahar uchun yoki tuman va shu tumanda joylashgan shaharlar uchun bitta sudni tashkil qilish ham mumkin.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining sud faoliyati ustidan nazorat Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi tomonidan amalga oshiriladi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sud faoliyati ustidan nazorat Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi maxsus vakolatli organ tomonidan sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi prinsipiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

*Umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'ini tarkibi.* «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 36-moddasiga muvofiq:

- fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi rais va sudyalardan iborat bo'ladi;

- jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi rais, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tarkibida ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar bo'ladi.

Tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning *xalq maslahatchilariga* nisbatan quyidagi talablar qo'yilgan: yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan, fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig'ilishlarida ochiq ovoz berish yo'li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi xalq maslahatchisi bo'lishi mumkin.

Har bir sud uchun xalq maslahatchilari soni sudyalarning tegishli malaka hay'atlari tomonidan belgilanadi. Xalq maslahatchilari sudlardagi vazifalarini bajarish uchun yiliga ko'pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladi, ularning ishtirokida boshlangan sud ishini ko'rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno. Shu davrda ularning ish joyidagi o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

*Umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'ini vakolatlari.* Tumanlararo, tuman sudining asosiy vakolati fuqarolik, jinoyat va boshqa ba'zi bir ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqishdan, ya'ni konkret ishlar bo'yicha qo'yiladigan asosiy masalalar (jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning aybdorligi yoki aybsizligi, qonunda nazarda tutilgan jazoni qo'llash yoki qo'llamaslik, muayyan mulkiy da'volarning isbotlanganligi yoki isbotlanmaganligi va h.k.) mazmuni bo'yicha qarorlar qabul qilishdan iborat.

*Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudi* tomonidan ko'riladigan barcha ishlarni ba'zi bir umumiy xususiyatlarga ko'ra, guruhlarga ajratish mumkin. Shartli ravishda shunday uch guruh tuzish mumkin:

- fuqarolik, oila, mehnat va yer huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha ishlar;

- alohida tartibda ko'riladigan ishlar;

- qonun bilan ularning vakolatiga berilgan boshqa ishlar.

FPKning 31-moddasida fuqarolik ishlarining sudlarga taalluqliligi quyidagicha belgilab qo'yilgan:

1) taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lgan nizolarga doir ishlar, qonunda bunday nizolarni hal qilish xo'jalik sudi yoki boshqa organlarga topshirilgan hollar bundan mustasno;

2) FPKning 279-moddasida sanab o'tilgan alohida tartibda ko'riladigan ishlar;

3) qonun bilan sudlarning vakolatiga berilgan boshqa ishlar.

Eng keng tarqalgan fuqarolik ishlari birinchi guruhga tegishli bo'lgan ishlar hisoblanadi. Vujudga kelgan nizoning taraflaridan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lgan taqdirda, ko'rsatilgan ishlar, odatda, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudiga ko'rib chiqish uchun kelib tushadi, agarda ushbu ishlar qonunda ko'rsatilgan belgilarga, asosan, boshqa biron-bir sudga, xususan, xo'jalik sudiga yoki ma'muriy organlarga ko'rib chiqish uchun yuborilishi shart bo'lmasa. Mazkur ishlar doirasiga fuqaro yoki tashkilotga kimningdir g'ayriqonuniy (ba'zi holatlarda qonuniy) xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash to'g'risidagi, yetkazilgan ma'naviy zarar uchun pulli kompensatsiya to'lash to'g'risidagi, ishga tiklash to'g'risidagi, mehnatga to'lanadigan haqni undirish to'g'risidagi, kimningdir obro'siga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha, uy-joydan foydalanish yoki unga bo'lgan mulk huquqi bo'yicha, merosning olinishi bo'yicha, bola, ota-ona, er-xotin va boshqalar ta'minoti uchun aliment undirish bo'yicha, biron-bir badiiy yoki boshqa asarga bo'lgan mualliflik huquqi va h.k.lar bo'yicha nizolar to'g'risidagi ishlar kiradi.

Fuqarolar va tashkilotlar o'z huquqlarini amalga oshirish jarayonida tuzadigan fuqarolik-huquqiy bitimlar bilan bog'liq nizolar bo'yicha ishlar keng tarqalgan. Ushbu bitimlar jumlasiga oldi-sotdi, uy-joy ijarasi, nashr etish va boshqa shartnomalar kiradi. Shu bilan birga, bitta shaxsning xohishi bo'yicha tuziladigan bir taraflama tUSDagi ayrim shartnomalar ham (hadya, vasiyatnoma, merosni qabul qilib olish va undan voz kechish) bitimlar deb e'tirof etiladi. Bitimlarning har bir turi ularni tuzish shartlari, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan tegishli huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Qonun bitim taraflarining huquqlari sud himoyasida bo'lishini kafolatlaydi.

Ko'pincha, tahlil qilinayotgan sudlarda alohida tartibda ko'riladigan ishlar ham ko'rib chiqiladi. Bularga yuridik ahamiyatga

ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi, jumladan, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi, fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi, mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi, taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar kiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan ishlarning boshqa fuqarolik ishlaridan keskin farq qiluvchi xususiyati shundan iboratki, mazkur ishlar doirasida sud tegishli huquq to'g'risidagi nizoni hamda bir tarafning ikkinchi tarafga bo'lgan da'volarini ko'rib chiqmasdan, faqat ma'lum huquqiy oqibatlarni qonunga asosan, keltirib chiqaradigan biron-bir faktlarni (holatlarni) belgilash masalasini hal qiladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudi O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuniga asosan, kelib chiqadigan ishlarni ko'rib chiqishga haqli. Har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega. Shikoyat bevosita shikoyat qiluvchi shaxsning o'zi yashab turgan joydagi sudga yoki davlat organi va boshqa organ, yoxud mansabdor shaxsning ish joyi joylashgan hududdagi sudga beriladi va sud tomonidan fuqaroviy sudlov ishlarini yuritish qoidalari asosida ko'rib chiqiladi.

*Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining* sudloviga jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarning aybini og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsning nomusiga tegish, genotsid, terrorizm, jazo chorasi sifatida uzoq muddatli yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadigan jinoyatlar to'g'risidagi hamda qonunga muvofiq yuqori turuvchi yoki harbiy sudlarning sudloviga tegishli bo'lgan ishlardan tashqari, hamma jinoyat ishlari tegishlidir (JPKning 389-moddasi).

Bundan tashqari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining vakolatiga 2008-yil 1-yanvardan boshlab, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida hamda qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnomalarni,



2008-yil 23-dekabrda boshlab, ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo'llash to'g'risida iltimosnomalarni ko'rib chiqish kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudining raisi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi o'rta bo'g'in sudlarining sudloviga tegishli bo'lgan jinoyat to'g'risidagi ishni, agar u mazmunan murakkab bo'lmasa, jinoyat ishlari bo'yicha tegishli tuman (shahar) sudiga, shuningdek, okrug yoki hududiy harbiy sudga ko'rish uchun topshirishga haqli.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishdan tashqari ma'muriy huquqbuzarliklarga doir materiallarni ko'rib chiqadi. Sudyalar bunday materiallarni yakka tartibda ko'radilar.

Tuman sudlari tomonidan o'z hukmlari hamda fuqarolik ishlari va ma'muriy huquqbuzarliklarga doir materiallar bo'yicha chiqarilgan qarorlari ijrosini lozim darajada ta'minlash uchun bajariladigan ishlar mazkur sudlar faoliyatining sezilarli qismini tashkil etadi. Masalan, sudlar jinoyat ishlari bo'yicha hukmni ijro ettirish va ijro etish jarayonida vujudga keladigan masalalarni ko'rib chiqadilar (jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish, jazoni ijro etishning bir tartibli koloniyasini boshqa tartibli koloniyasiga almashtirish, kasallik yoki nogironlik tufayli jazoni o'tashdan ozod qilish, sudlanganlikni olib tashlash, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish va h.k.).

*Ishni ko'rib chiqishda sudning tarkibi.* Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudida fuqarolik ishlari birinchi instansiya bo'yicha sudyaning yakka o'zi tomonidan ko'riladi (FPKning 13-moddasi). Ishni sudyaning yakka o'zi ko'rganida va hal qilganida, u sud nomidan ish yuritadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi raisining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislarining qarorlariga muvofiq, har qanday ish birinchi instansiya bo'yicha hay'atda ko'rib chiqilishi mumkin.

Jinoyat ishlari hay'atda ko'riladi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ya'ni qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan

mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi, shuningdek, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar, ya'ni qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi (JPKning 13-moddasi).

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida, qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risida, shuningdek, amnistiya aktini qo'llash to'g'risida iltimosnomalar sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi.

Ish jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan birinchi instansiya bo'yicha hay'atda ko'rilganda sud tarkibiga ikki nafar xalq maslahatchisi ham kiradi.

Odil sudlovni amalga oshirishda xalq maslahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanadilar. Ular sud majlisida ishni ko'rish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda raislik qiluvchi bilan teng huquqqa egadirlar.

Fuqarolik protsessual va jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlarida va jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudlarida ishlarni yakka tartibda ko'rib chiqish tartibi sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi tomonidan ishlarni ko'rib chiqish tartibidan farq qilmaydi.

Amaldagi qonunchilik tuman sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan barcha ishlarni ko'rish va hal qilish tartibi va qoidalarini batafsil belgilab beradi. Bular to'g'risida batafsil ma'lumotlar yuridik oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalariga kiritiladigan fuqarolik protsessi, jinoyat protsessi va ma'muriy huquq kabi boshqa fanlar o'rganilganida taqdim etiladi. Umumiy ravishda, bu yerda ishlar va materiallar qonuniy, asosli va adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlab beradigan protsessual qonunchilikning ba'zi qoidalarinigina ta'kidlab o'tish yetarlidir.

Ushbu qoidalar orasida misol tariqasida sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan barcha ishlarda hamma masalalar, qoida tariqasida, sudlanuvchilar, da'vogarlar va javobgarlar ishtirokida va ularning faol qatnashuvida hamda ularga zarur bo'lgan huquqlarni bergan holda hal qilinishini keltirish mumkin. Ular ishga doir barcha materiallarni o'rganishda ishtirok etadilar, tushuntirishlar beradilar, dalillar taqdim etadilar, iltimosnomalar bilan murojaat qiladilar.

Jinoyat ishi bo'yicha hukm ham, fuqarolik ishi bo'yicha hal qiluv qarori ham faqat sud muhokamasining predmeti bo'lgan va sud majlisida muqarrar aniqlangan fakt va holatlar asosida chiqarilishi mumkin.

Sudyalarni tashqi ta'sirlardan himoya qilish maqsadida sudyalar maslahatlashuvining hamda ish bo'yicha hukm yoki qaror chiqarishning alohida tartibi qonunda nazarda tutilgan. Shuning uchun sudyalar alohida xonaga (maslahatxonaga) kiradilar, mazkur xonada ushbu ish bo'yicha sud tarkibiga kirgan sudyalardan tashqari boshqa shaxslarning hozir bo'lishlariga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur qoida (sudyalarning maslahatlashuvining sir saqlanishi) buzilgan bo'lsa, hukm yoki qaror, albatta, bekor qilinadi.

#### **4.2. Tumanlararo, tuman (shahar) sudida ishni tashkil etish**

Sudda ishni to'g'ri tashkil etish va sud xodimlari o'rtasida majburiyatlarni to'g'ri taqsimlash muvaffaqiyatli sud faoliyatining va samarali odil sudlovning zaruriy sharti hisoblanadi. Mazkur jarayonda asosiy rol sud raisi zimmasiga yuklatiladi. Bu ishda sud raisidan tashqari barcha sudyalar va sudning boshqa xodimlari ishtirok etadi. Sud ishi lozim darajada tashkil etilmagan bo'lsa, sud ishlarini tez, to'liq va to'g'ri ko'rib chiqishga, sud o'z profilaktika faoliyatini amalga oshirishiga va uning oldida turgan boshqa vazifalarni bajarishiga imkon bo'lmaydi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tuzilmasiga rais, sudyalar (xalq maslahatchilari) hamda devonxona mudiri, arxiv mudiri, sud kotibi va boshqa xizmat qiluvchi xodimlar kiradilar.

O'quv adabiyotlarda muayyan xodimlarning vazifalarini sudlar faoliyatining asosiy yo'nalishlariga qarab, ikki guruhga tasniflash taklif etiladi: *mansab vazifalari* va *protsessual vazifalar*.

*Protsessual vazifalar* protsessual qonunlar (JPK, FPK, XPK va boshq.) bilan tartibga solinadigan ishlar va harakatlar bajarilishi bilan bog'liqdir. Xususan, sudyalar, sud majlisi kotiblari jinoyat, fuqarolik ishlari hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud protsesslarida, shuningdek, sud qarorlarini ijro etishga doir protsessual masalalarni hal qilishda ishtirok etish orqali o'z protsessual vazifalarini bajaradilar.

Qoida tariqasida, idoraviy normativ hujjatlar bilan tartibga solinadigan ko'plab tashkiliy majburiyatlarni bajarish *mansab vazifalariga* kiradi. Ayrim hollarda muayyan protsessual vazifalar biron-bir xodim egallab turgan lavozimga muvofiq bo'lib, bir vaqtning o'zida mazkur xodimning mansab vazifalari deb hisoblanadi. Xususan, sudya lavozimi sud ishlarini ko'rib chiqish jarayonida sudyaning protsessual vazifalarini belgilaydi. Sud majlisining kotibi sud majlisining bayonnomasini yuritib, bir vaqtda o'z mansab va protsessual majburiyatlarini bajaradi.

Mansab vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishini quyidagi jihatlar belgilaydi. Barcha xodimlar quyidagilarni bilishlari shart:

1) har bir konkret holatda nima qilish kerak, degan savolga aynan qaysi normativ hujjatda javob topish mumkin;

2) o'z mehnatini va o'ziga bo'ysunuvchi xodimlar mehnatini qanday tashkil etish kerak;

3) yurist faoliyati uchun qonun, mansab yo'riqnomasi, ushbu mehnat faoliyati qanday tarzda amalga oshirilishi kerakligini belgilaydigan ko'rsatmalarni aks ettiruvchi boshqa normativ hujjat qanday amaliy ahamiyatga ega.

Sudning har bir xodimi o'z funksional majburiyatlari doirasini aniq bilishi va bajarishi sud raisi tomonidan ta'minlanishi lozim.

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunda fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi raisining vakolatlarigina belgilab qo'yilgan. Qonun-ning 38-moddasiga ko'ra, uning vakolatlari doirasi quyidagilardan iborat:

- sud majlislarida raislik qiladi, sudyalar o'rtasida ishlarni taqsimlaydi;

- sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishlariga rahbarlik qiladi, qonun buzilishi, huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga taqdimnomalar kiritadi;

- sud xodimlari va xalq maslahatchilari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;

- fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil etadi;

- sud idorasi ishiga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi-ning, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining raisi yo'q- ligida uning vakolatlari sudyalarning tegishli malaka hay'atining qarori bilan sudyalardan biri zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi raisining vakolatlari tahlili asosiy bo'g'in sudlari faoliyatining quyidagi yo'nalishlari (yoki ularning faoliyatini tashkil etuvchi elementlar) mavjudligi to'g'risida xulosalar chiqarishga imkon beradi.

*Ishlarni ko'rib chiqish va sudyalar o'rtasida ishlarni taqsimlash.* Sudyalar o'rtasida ishlarni taqsimlash sud raisi tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli, sudga kelib tushadigan barcha ishlar devonxonada ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin sud raisiga axborot beriladi va rais taqsimlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Ushbu qaror ustxat (rezolutsiya) shaklida rasmiylashtiriladi.

Ishlarni taqsimlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi zarur:

- ish xarakteri, uning hajmi va murakkabligi;
- sudyaning malakasi, tajribasi va bandligi.

*Sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish, qonun buzilishi, huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga taqdimnomalar kiritish.* Sud amaliyotini umumlashtirish va sud ishlari statistik hisobotini yuritish sudlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sud amaliyotini umumlashtirish sudyalarni va sudlar apparatining xodimlarini sud amaliyoti haqidagi ishonchli ma'lumotlar bilan tez va to'liq ta'minlash maqsadini ko'zda tutadi. Sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish har bir sudda uning faoliyatini takomillashtirish, sud faoliyati davomida yo'l qo'yiladigan xatolarni aniqlash va bartaraf etish, ijobiy tajribani aniqlash va tarqatish, xatolarning oldini olishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

Umumlashtirish bo'yicha ishlar quyidagi bosqichlardan iborat: umumlashtirish mavzusini tanlash; umumlashtirish dasturini tuzish; sud ishlarini o'rganish; xulosalar chiqarish va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Umumlashtirish dasturi amaliyotni o'rganish va umumlashtirish jarayonida javob berilishi lozim bo'lgan savollardan iborat: sud ishlarining ma'lum bir toifasi bo'yicha sud tomonidan yo'l

qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar, xatolar va qoidabuzilishlar; dastlabki tergov va surishtiruvning sifati; jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlar va h.k.

Sud raisi umumlashtirish maqsadi va dasturiga muvofiq, ma'lum bir toifadagi ishlar o'rganib chiqilishi uchun zarur bo'lgan muddatni belgilaydi, masalan, chorak, yarim yillik, yil va h.k. Sudyalar umumlashtirish dasturi va davrini belgilab olib, tanlab olingan toifadagi har bir ishni o'rganib chiqadilar va materiallarni tahlil qilganlaridan so'ng qo'yilgan savollarga tegishli javoblarni beradilar. Sud ishlari o'rganib chiqilganidan va belgilangan dastur bajarilganidan so'ng, umumlashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda xulosalar chiqariladi va takliflar kiritiladi.

Sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar soni, mahkumlar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, sudlar ishi haqidagi boshqa zarur ma'lumotlar statistik hisobotini belgilangan shakl bo'yicha olib borish statistika yuritilishining maqsadi hisoblanadi. Statistika hisobotlarining to'liqligi, ishonchligi, o'z vaqtida taqdim etilishi ushbu hisobotlarni taqdim etishda asosiy talablar sifatida e'tirof etiladi.

Har bir sudda statistik hisobot yuritiladi. Mazkur hisobotga tegishlicha fuqarolik ishlarini hal qilish bo'yicha hamda jinoyat ishlarini ko'rib chiqish bo'yicha sud tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlar kiritiladi. Sud faoliyatining mazkur uchastkasi uchun mas'uliyat sud raisi zimmasiga yuklatiladi. Har bir jinoyat va fuqarolik ishi uchun hisobot-statistik kartochkani hamda sudlanuvchi uchun statistik kartochkani yuritishdan iborat bo'lgan dastlabki hisobga olish hisobotning asosini tashkil etadi.

Sud qarorlarini hisobga olish bo'yicha faoliyat va sud statistikasi o'zaro bog'langan bo'ladi, chunki ularning ikkisidan ham sud amaliyotining keyingi o'rganilishida va umumlashtirilishida foydalaniladi. Sud amaliyotining sharhlari barcha sudyalar ishtirok etadigan majlislarda muhokama qilinib, bu majlislar doirasida ishlarni ko'rib chiqish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar o'rganiladi.

Sud qarorlarining, shuningdek, qonun buzilishini, huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga kiritilgan taqdimnomalarning va sud statistikasining tahlili hamda keyinchalik sud amaliyotining umumlashtirilishi biron-bir tumanda sodir etiladigan jinoyatlar an'alarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha tegishli chora-tadbirlar muhokama qilinadi va amalga oshiriladi.

*Fuqarolarni qabul qilish hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil etish.* Har bir sudda tashrif buyuruvchilarni qabul qilish sud raisi, barcha sudyalari tomonidan qat'iy belgilangan va aholi uchun qulay bo'lgan vaqtda amalga oshiriladi. Sudyalari va sud raisi fuqarolarni shaxsan qabul qilishi fuqarolar va tashkilotlari tomonidan o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish huquqi amalga oshirishining shakllaridan biri hisoblanadi.

Tashrif buyuruvchilarni qabul qilishni tashkil etish masalasini hal qilish to'liq sud raisining vakolatiga kiradi. Rais tomonidan tasdiqlanadigan ichki tartib-qoidalarini tashrif buyuruvchilarni turli masalalar bo'yicha qabul qilish vaqtini, shuningdek, qabulni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarni belgilaydi.

Protsess ishtirokchilari bo'lgan fuqarolar, shuningdek, turli tashkilotlarning vakillari har xil masalalar bilan murojaat etishlari mumkin: sudning yurituvida bo'lgan ishlarga doir masalalar bo'yicha; ular bo'yicha ish yuritish tugagan ishlar bilan bog'liq ma'lumotnomalar, sud qarorlari va boshqa hujjatlar nusxalarini berish to'g'risidagi murojaatlar bilan; protsessual tusga ega bo'lmagan murojaatlar bilan.

Mazkur yo'nalishda sudning faoliyatini oqilona tashkil etish maqsadida sudning qabulxonasida turli sud hujjatlarining namunalari bilan stendlar o'rnatiladi. Tegishli sud yurisdiksiyasida bo'lgan hududda joylashgan advokatlik tuzilmalarining manzillari to'g'risida ma'lumotlarni ham joylashtirish lozim.

*Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish* sud faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolarning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha sudlarning faoliyati ushbu ariza va shikoyatlar protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda yoki protsessual tartibidan tashqari ko'rib chiqilishi lozimga qarab tashkil etiladi.

Sudga kelib tushadigan barcha shikoyatlar kirim hujjatlarini hisobga olish jurnalida ular kelib tushgan sanani qayd etgan holda ro'yxatdan o'tkazilib, sud raisiga beriladi, u esa ularni o'zi ko'rib chiqishi yoki sudyalari o'rtasida taqsimlashi mumkin. Shikoyatlarni hal qilish uchun belgilangan umumiy muddat bir oyni tashkil etadi.

Pochta aloqasi vositasida kelib tushgan yoki o'zga idora va mansabdor shaxslar tomonidan yuborilgan murojaatlar, agarda ularni hal etish masalasi sudlarga taalluqli bo'lmagan holatlarda, besh kun muddatdan kechiktirmay tegishli idora yoki mansabdor shaxslarga jo'natilishi va bu haqda fuqaroga ma'lum qilinishi kerak.

*Sud xodimlari va xalq maslahatchilari malakasini oshirish ishini tashkil etish.* Sud xodimlarining malakasini oshirish shakllari turlicha bo'ladi. Xalq maslahatchilari bilan ishlash ko'pincha ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi: ularni yuridik tayyorlash maqsadida o'qitish va sudning tarbiyaviy-profilaktika faoliyatiga jalb qilish. Sudning ishi ustidan jamiyat nazoratining samarali vositalaridan biri sudyalarning aholi bilan muloqoti hisoblanadi. Shu bilan birga, bu odil sudlov g'oyalarini va sud ishi to'g'risida ma'lumotlarni targ'ib qilish konkret vositasi sanaladi.

*Sud apparati ishini tashkil etish.* Sud organi faoliyatining eng muhim shartlaridan biri ish yuritilishining to'g'ri tashkil etilishi hisoblanadi.

Sud apparati odil sudlovni amalga oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish, qonunchilikni turkumlashtirish va targ'ib qilish hamda boshqa ishlarni amalga oshirishda sud faoliyatini ta'minlaydi.

Sudda ish yuritish bo'yicha ishlar sudga ko'rib chiqiladigan ishlar va boshqa hujjatlarning yurishini ro'yxatga oladigan belgilangan shakldagi jurnallar, kitoblar, kartochkalar va naryadlarni yuritishdan iboratdir.

Ish yuritish bo'yicha umumiy rahbarlik sud raisi tomonidan amalga oshiriladi. Ish yuritish bo'yicha bevosita mas'uliyat **devon-xona mudiri** zimmasiga yuklatilgan. U sud xodimlari o'rtasida ishlarni taqsimlaydi, ularning ijro etilishini nazorat qiladi; sudga kelib tushadigan hujjatlarni taqsimlaydi; statistik hisobotlar uchun ma'lumotlarni tayyorlaydi; sud bo'yicha buyruq va farmoyishlar kitoblarini saqlaydi; sudga kelib tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni ro'yxatga oladi va ularning o'z muddatida ijro etilishini nazorat qiladi; jinoyat ishlari bo'yicha ashyoviy dalillar saqlanishini ta'minlaydi; sudning yuqori turuvchi sud organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tashkilotlari, korxonalariga yozgan xizmat xatlarini rasmiylashtiradi.

Arxiv mudiri zimmasiga quyidagi majburiyatlar bajarilishi yuklatilgan: arxiv ishini tashkil etish; arxivga topshiriladigan ish va hujjatlar lozim darajada rasmiylashtirilishi ustidan nazorat qilish; arxivda hujjatlarni saqlash, ularni belgilangan muddatlar va tartibda yo'q qilish yoki Davlat arxiviga topshirish.

Muayyan aniq bir sudya tomonidan ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan sud ishlari bo'yicha ish yuritishni **sudning kotiblari** olib boradilar. Ular ishlarni saqlaydilar, kerakli jurnal va kartochkalarni yuritadilar, tugallangan ishlarni rasmiylashtiradilar va arxivga topshiradilar.



Sud majlisining kotibi sud majlisining bayonnomasini yuritadi, sudda majburiyatlarini bajarish uchun navbatdagi xalq maslahatchilarini taklif qiladi, sud majlisining ishtirokchilari va guvohlarini chaqiradi, eshitalishi mo'ljallangan ishlar bo'yicha zarur ma'lumotlarni tayyorlaydi.

Sudlarda **kuryerlar** ham o'z faoliyatini amalga oshirishlari mumkin, ularning zimmasiga mansab yo'riqnomasining umumiy qoidalariga rioya etish; yuqori turuvchi sudlar, prokuratura organlari, jazoni ijro etish muassasalariga xat-xabarlarini yetkazish; devonxona ishiga yordam ko'rsatish kabi vazifalar kiradi.

Sudlarda qonunchilik va sud amaliyoti bo'yicha ma'lumot ishlari olib boriladi. Ma'lumot ishlari kodekslar, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tushuntirishlari, Adliya vazirligining buyruq va yo'riqnomalari rasmiy nashrlarining nazorat nusxalarini saqlashdan iborat.

Ma'lumot ishlarining holatiga mas'ul bo'lgan sudya amaldagi qonunlarga kiritilgan rasmiy o'zgartirishlarni kuzatib boradi, nazorat nusxalariga tegishli o'zgartirishlarni kiritadi va ular bilan qolgan sudyalarni va boshqalarni tanishtiradi.

### **4.3. Sudyalar va xalq maslahatchilarining asosiy huquq-majburiyatlari**

Sudyalar qonunga muvofiq, odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega. Sudlarning raislari, rais o'rinbosarlari ayni vaqtda sudyalardir. Odil sudlovni amalga oshirish va boshqa vazifalarni bajarish uchun sudyalar va xalq maslahatchilari qonun bilan belgilanadigan hokimiyat vakolatlariga ega bo'lishadi.

Asosiy bo'g'in sudlarining sudyalari: mansabdor shaxslar va fuqarolardan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish; mansabdor va boshqa shaxslardan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot olish; uyushmalarga birlashish huquqiga ega. Sudyalar qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. O'z navbatida, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan talab va farmoyishlarini so'zsiz bajarishlari shart.

Sudya tomonidan beriladigan farmoyishlar majburiy tusga ega bo'ladi. Biroq, ta'kidlab o'tish lozimki, faqat qonun va sudya vakolatlari doirasida berilgan talablar va farmoyishlarga majburiy tusga ega. Sudyalarning talablari va farmoyishlari protsessual shaklda ifodalanishi lozim. Odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari sudyalarning talabiga muvofiq bepul beriladi. Sudyalarning talablari va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning majburiyatlari «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 66-moddasida belgilangan. Unga muvofiq, sudyalar fuqarolik, xo'jalik va jinoyat ishlarini, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish chog'ida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga so'zsiz rioya qilishlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini va mol-mulki, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashlari, beg'araz va adolatli bo'lishlari shart.

Sudyalar sudyalik sha'nini qat'iy saqlashlari, odil sudlovning obro'sini, sudyalik qadr-qimmatini tushirishi yoki sudyaning xolisligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishlari shart. Qonunning mazkur normasi sudyani o'z faoliyatida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga rioya qilishidan tashqari, umume'tirof etilgan axloq normalari va xatti-harakat qoidalariga rioya qilishiga, sudning adolatliliigi, beg'arazligi va mustaqilligiga jamiyatning ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishiga majburlaydi.

Odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha majburiyat sudya uchun uning boshqa mashg'ulotlari qatorida katta ahamiyat kasb etadi. Sudya sud hokimiyatining obro'sini tushirishi mumkin bo'lgan holatlarga yo'l qo'ymagan va ulardan chetda qolgan holda o'zini tiyishi kerak. U o'z shaxsiy manfaatlari va boshqa shaxslarning manfaatlaridan voz kechib, sudyalik kasbining nufuziga ziyon yetkazilishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Sudya har doim uning obro'siga ziyon yetkazishi, odil sudlovni amalga oshirishida uning xolisligi va mustaqilligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan barcha holatlardan o'zini chetga olishi shart. Sudyalar sudyalarning maslahat sirini hamda yopiq sud majlislari o'tkazish chog'ida olingan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Davlat hokimiyati turli tarmoqlarining, ya'ni sud va vakillik tarmoqlarining vakolatlari bir shaxs timsolida amalga oshirilishi hokimiyat tarmoqlari bo'linishi prinsipiga muvofiq qonun bilan taqiqlanadi. Shuning uchun sudyalarning senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Sudyalarning siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Har qanday siyosiy faoliyat, ya'ni sudyaning biron bir siyosiy partiya a'zoligi, siyosiy manfaatlarni himoya qilishi, shubhasiz, odil sudlovni amalga oshirishda sudyaning beg'arazligi va xolisligiga salbiy ta'sir o'tkazadi, chunki bu holda sudya, nafaqat, Konstitutsiya va qonunlarga, balki u a'zo bo'lgan partiya nizomiga ham rioya qiladi. Shu sababli ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir turdagi faoliyat bilan shug'ullanish ham qonun bilan taqiqlanadi, chunki bunda amalga oshirilayotgan hisob-kitoblar «yomon xizmat qilib», poraxo'rlik sifatida e'tirof etilishi va shu orqali sudyaning mustaqilligiga tajovuz qilishi mumkin, bu mustaqillik esa adolatli va samarali odil sudlovning muhim sharti hisoblanadi.

Sudyalarning ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan ishlar, amaldagi qonunchilik va uni qo'llash amaliyoti bilan xalq maslahatchilarini oldindan tanishtirib chiqishlari va ularga o'z vakolatlari amalga oshirishlarida kerak bo'ladigan boshqa yordam ko'rsatishlari zarur. Xalq maslahatchilari huquqiy bilimlarni olishlari, har bir ish suda ko'rib chiqilishiga tayyorlanishlari, huquqbuzarliklarining oldini olish bo'yicha ishlarda ishtirok etishlari shart.

Xalq maslahatchilari o'z vazifalarini bajarish uchun sudga o'z vaqtida kelishlari zarur. Xalq maslahatchisining sudga chaqirilishi u ishlayotgan yoki o'qiyotgan korxonada, muassasada, tashkilotning ma'muriyati uchun majburiy bo'ladi.

Agar xalq maslahatchilari vakolatlarining muddati ularning sud ishini ko'rib chiqishlari davomida tugaydigan bo'lsa, bu vakolatlar ushbu ishni ko'rib chiqish oxiriga yetgunicha saqlanib turadi.

Xalq maslahatchilari sudlardagi vazifalarini bajarish uchun yiliga ko'pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladi, ularning ishtirokida boshlangan sud ishini ko'rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno. Shu davrda ularning ish joyidagi o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Ko'rib chiqilayotgan mavzuning tahlili O'zbekiston Respublikasi sud tizimida umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'in sudlari o'rni va roli to'g'risida xulosalar chiqarishga, shuningdek, sud apparati va uning faoliyati tashkil etilishi masalalari bo'yicha tasavvurlarni shakllantirishga imkon beradi.*



### NAZORAT SAVOLLARI

1. Umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi qachon amalga oshirilgan?
2. Tumanlararo, tuman sudining sud tizimida tutgan o'rni qanday?
3. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudining vakolatlarini sanab o'ting.
4. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi qanday vakolatlarga ega?
5. Tumanlararo, tuman (shahar) sudi raisining qanday huquq va majburiyatlari bor?
6. Tumanlararo, tuman (shahar) sudida ish qanday tashkil etiladi?
7. Sudyalar va xalq maslahatchilarining asosiy huquqlarini sanab o'ting.
8. Sudyalar va xalq maslahatchilari qanday majburiyatlarga ega?

### MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. MDH mamlakatlarida va xorijiy davlatlarda sudlar va sudyalar ixtisoslashuvining turlarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
2. Xorijiy mamlakatlarda sudyalar malakasini oshirish masalalarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
3. Turli davlatlarda sudyalarning huquq va majburiyatlarini qiyoslang. Ish shakli — *referat*.

### Axborot uslubiy ta'minot

1. *I.A. Karimov*. Istiqloq yo'li: muammolar va rejalar. (XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2- va 3-iyulda so'zlangan nutq.) O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. T., «O'zbekiston», 1996.

2. *I.A. Karimov*. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. T., «O'zbekiston», 2002.

3. *I.A. Karimov*. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo, hamkorlik yo'li. T. 11. T., «O'zbekiston», 2003.

4. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

5. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

### **Huquqiy manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi 924-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

3. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 20-iyuldagi «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomga, Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-103-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 29—30, 296-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-2682-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi PF-3644-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 32—33, 242-modda.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60-yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PF-3994-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2008, № 5, 253-modda.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 147-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

11. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi

to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi PF-3725-sonli Farmoniga 3-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 12—13, 101-modda.

12. «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 7-dekabrda 323-II sonli qarori bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

13. «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida»gi Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi 147-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

14. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining 1996-yil 20-dekabrda «Sud hokimiyati to'g'risida»gi 1-qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining 2006-yil 22-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining «Sud hokimiyati to'g'risida»gi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 14/151-qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi axborotnomasi. T., 2007, № 2.

### Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.

2. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. Inson huquqlarini himoya qilishda — xalqaro va milliy qonunchilik normalarining amal qilishi. Risola. T., TDYI, 2008.

3. *O.M. Madaliyev*. Sud statistikasi. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2006.

4. *Ф.Ф. Мухитдинова*. Демократизм и социальная справедливость при подборе судебной кадров. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. T., 2002, № 3—4.

5. *Б. Мустафаев*. Укрепление независимости судов — веление времени. Газета «Народное слово», 24 февраля 2007 года.

6. Организация деятельности судов. Учебник. Под общ. ред. В.М. Лебедева. М., «Норма», 2007.

7. Правоохранительные органы. Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. М., «Норма», 2007.

8. *М.Н. Rustamboyev, U.A. Tuxtashева*. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.

9. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., TDYI, 2008.

10. *Б.А. Саидов, Д. Миразов*. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебное пособие. T., Академия МВД, 2004, стр. 148.

---

## 5-bob. UMUMIY YURISDIKSIYA SUDLARINING O'RTA BO'G'INI

### O'quv maqsadlari

*Mazkur mavzu umumiy yurisdiksiya sudlarining o'rta bo'g'inini tashkil etuvchi sudlar bilan talabalarni tanishtirish, ko'rsatilgan sudlarning tarkibi, tuzilishi va ularning vakolatlarini ko'rib chiqish, shuningdek, qayd etilgan sudlarda ishni tashkil etish asoslarini o'rganish.*

### 5.1. O'rta bo'g'in sudlari va ularning vakolatlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik ishlari va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari umumiy yurisdiksiya sudlari tizimida o'rta bo'g'inini tashkil etadilar. O'rta bo'g'in sudlari sud tizimida bir xil vakolat va mavqega egalar. Ular fuqarolik ishlari va jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda keng huquqlarga egalar, xususan, mazkur sudlar ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi:

- o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi;
- tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining sud faoliyati ustidan nazorat olib boradi, sud amaliyotini umumlashtiradi;
- sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;
- sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi;
- qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 30-moddasi).

Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari *birinchi instansiya* sudi sifatida JPKning 389-moddasida nazarda tutilgan jinoyat ishlarini ko'radilar. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudining, jinoyat ishlari

bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudloviga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismi, 118-moddasining to'rtinchi qismi, 150, 153, 155, 157, 158-moddalari, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlari, 160, 161-moddalari, 210-moddasining uchinchi qismi, 230, 231, 242, 244-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga — javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, javobgarlikni o'ta og'irlashtiradigan holatlarda nomusga tegish, tinchlik va xavfsizlikka qarshi (urushni targ'ib qilish, genotsid, terrorizm, davlatga xoinlik qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish, josuslik, qo'poruvchilik), boshqaruv tartibiga qarshi, odil sudlovga qarshi ayrim jinoyatlar hamda boshqa og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga doir ishlar tegishlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari qonunda o'z vakolatlariga berilgan fuqarolik ishlarini, shuningdek, alohida holatlarni hisobga olib har qanday fuqarolik ishini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hududidagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudidan olib, birinchi instansiya sudi sifatida o'zining ish yuritishiga qabul qilib olishga yoki bir suddan boshqa tegishli sudga o'tkazishga haqli (FPKning 142-moddasi). Viloyat yoki unga tenglashtirilgan sud barcha protsessual qoidalarga rioya qilgan holda ishni mazmunan ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

*Ishni apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqish.* O'rta bo'g'in sudlari tumanlararo va tuman sudlariga nisbatan yuqori turuvchi sudlar hisoblanadilar va ushbu sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi va asoslilikini tekshirishda faol ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni jinoyat va fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayoniga qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlarini tekshirishning apellatsiya tartibini joriy etdi, shuningdek, sud ishlarini kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqishni muhim darajada isloh qildi.

Protsess ishtirokchilariga ular qonuniy kuchga kirgan sud qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, kassatsiya instansiyasi sudining



majlisida shaxsan va bevosita o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyati taqdim etilishi muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Bunda himoya va ayblov taraflari teng huquqli bo'ladi.

Ishlarni apellatsiya tartibida ko'rib chiqish yuqori turuvchi sud instansiyasi uchun dalillarni bevosita tekshirib chiqishga va tegishli qaror chiqarishga imkon beradi, bu esa fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasining kafolatlarini ancha kuchaytiradi, sud ishlarini yuritishning samaradorligi va tezkorligini ta'minlaydi, sezilarli darajada davlat mablag'larining tejalishiga olib keladi.

Shikoyat qilingan yoki protest bildirilgan birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligi masalasini hal qilish maqsadida apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan apellatsiya shikoyatlari va protestlari bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish orqali birinchi instansiya sudi faoliyati ustidan nazorat olib borish vazifasini amalga oshirish bo'yicha faoliyat apellatsiya tartibida ish yuritishning mazmunini tashkil etadi. Shunday qilib, apellatsiya instansiyasi sudi, birinchi navbatda, nazorat vakolatlarini amalga oshiradi, chunki ish apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan ko'rib chiqilishining muhim sharti apellatsiya shikoyati yoki apellatsiya protestining mavjudligi hisoblanadi. Aks holda apellatsiya instansiyasi sudi o'z tashabbusi bilan birinchi instansiya sudi tomonidan chiqarilgan sud qarorlarining qonuniyligi va asosililigini tekshirishga haqli emas. Apellatsiya tartibida ish yuritishni qo'zg'atish butunlay protsess ishtirokchilarining istagiga bog'liq. Ikkinchi instansiya sudi o'z tashabbusi bilan birinchi instansiya sudidan ishni talab qilib olishga va qabul qilingan qarorlarni apellatsiya tartibida tekshirishga haqli emas. Hukmlar va ajrimlar ustidan apellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish huquqiga ega bo'lgan protsess ishtirokchilarining tashabbusi apellatsiya tartibida ish yuritishning harakatlantiruvchi omili deb hisoblanadi.

O'rta bo'g'in sudi tuman sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari, qarorlari va ajrimlari ustidan kelib tushgan shikoyat va protestlarni ko'rib chiqayotgan paytida ishlarni hal qilishda sudyalarning mustaqilligi prinsipini buzmaganda holda muayyan ishlar bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berish orqali odil sudlov sifati va samaradorligini oshirishning muhim vositasini ishlatadi.

Muayyan jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yicha chiqarilgan apellatsiya ajrimi, nafaqat, ushbu ish uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur ajrim ushbu ishda yo'l qo'yilgan xatolarning boshqa

ishlarda takrorlanmasligiga yordam berib, tuman sudining butun keyingi amaliyotiga ta'sir qiladi. Bu, o'z navbatida, sud amaliyotining shakllanishiga xizmat qiladi, mazkur sud va boshqa quyi turuvchi sudlar ishini takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 497-moddasiga muvofiq, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga apellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 321-moddasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'radi.

O'rta bo'g'in sudlarida jinoyat va fuqarolik ishi apellatsiya tartibida ko'rilayotganda *sudning tarkibi* uch nafar professional sudyalardan iborat bo'ladi.

Apellatsiya shikoyatini (protestini) keltirish *muddatlari*: jinoyat sud ishlarini yuritishda — hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran, o'n sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi tomondan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran, shunday muddat ichida; fuqarolik sud ishlarini yuritishda — sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran, yigirma kun ichida.

Bundan tashqari, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash va qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha tuman (shahar) sudining ajrimlari, shuningdek, ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo'llash yoki qo'llashni rad etish to'g'risidagi sudning ajrimlari ustidan berilgan shikoyatlar (protestlar) ham apellatsiya tartibida ko'riladi. Protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqini to'liq amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qo'llashni rad etish, qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish yoki

uzaytirishni rad etish to'g'risidagi sudyaning ajrimlari ustidan shikoyat qilish yoki protest bildirishning apellatsiya tartibini belgilaydi (JPKning 241, 243, 247-moddalari). Yuqorida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha chiqarilgan sudyaning ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran, 72 soat ichida shikoyat qilinishi mumkinligi qonunda nazarda tutilgan.

Hozirgi vaqtda apellatsiya va kassatsiya tartibida ish yuritish jinoyat, fuqarolik protsesslarida chiqariladigan sud qarorlari ustidan shikoyat qilishning asosiy shakllari, yuqori turuvchi sudlar tomonidan quyi sudlar faoliyatida mavjud bo'lgan sud xatolarini tuza-tishning muhim vositasi hisoblanadi. Apellatsiya va kassatsiya tartibida ish yuritish mustaqil sud-nazorat bosqichlari bo'lib, sud xatolarini aniqlash va bartaraf etish, adolatni tiklash, shaxsning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish, davlatda qonuniylik va huquq-tartibotni o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kassatsiya tartibida ish yuritish bosqichida faqat apellatsiya tartibida ko'rilmagan va qonuniy kuchga kirgan hukmlar (hal qiluv qarorlari, qarorlar, ajrimlar) ko'riladi. Apellatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmaydi. Shu munosabat bilan, shikoyat (protest)ni qabul qilishda birinchi instansiya sudi kassatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxsning vakolatini hamda shikoyatda (protestda) manfaatlari daxl qilinadigan shaxsga nisbatan apellatsiya instansiyasi sudining qarori mavjud emasligini tekshirishi shart.

Ushbu instansiya adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim va qarorlar ijrosining oldini olish orqali jismoniy hamda yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini muhofaza qiladi. Aynan kassatsiya instansiyasi ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyati (protesti) bo'yicha sud xatolarini bartaraf etishga, quyi sudlarning ish sifatini oshirishga hamda sud amaliyotini qonun talablariga qat'iy rioya qilgan holda bir yo'nalishga qaratishga imkon beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan jihatlar (kassatsiya instansiyasi faoliyati va ushbu huquqiy institut o'zining mavjudligi) kassatsiya tartibida ish yuritish bosqichini odil sudlovni amalga oshirish, sud ishlarini yuritish vazifalarini bajarish, qonuniylikni ta'minlash va shaxs huquqlarini muhofaza qilishning muhim kafolati sifatida ko'rishga asos bo'ladi.

Jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sud-

lariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudining, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan esa shu sudlarning sudlov hay‘atlariga kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish mumkin.

FPKning 3482-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tegishli fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘radi.

O‘rta bo‘g‘in sudlarida jinoyat va fuqarolik ishi kassatsiya tartibida ko‘rilayotganda, *sudning tarkibi* uch nafar professional sudyalardan iborat bo‘ladi.

*Kassatsiya shikoyatini berish muddatlari:* jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda — shikoyat yoki protestda og‘irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo‘llash zarurligi, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini og‘irlashtiradigan boshqa o‘zgarishlar nazarda tutilgan bo‘lsa, sudning ayblov hukmini yoki ajrimini (qarorini), shuningdek, sudning oqlov hukmini yoxud ishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimini (qarorini) kassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqishga ular qonuniy kuchga kirganidan keyin bir yil mobaynidagina yo‘l qo‘yiladi (JPKning 500-moddasi); fuqarolik sud ishlarini yuritishda — qonuniy kuchga kirgan, apellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e‘tiboran, bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin (FPKning 3481-moddasi).

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi *nazorat instansiyasi* sifatida apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha chiqarilgan hukm va ajrimning (qarorning) qonuniyligi va asosliligini tekshirishga vakolatlidir. Mazkur vazifa ham, nafaqat, muayyan ishlar bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘irlashga, balki Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va h.k.lar hududi doirasida sud amaliyotini to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bunda ta‘kidlab o‘tish lozimki, nazorat tartibida shikoyat qilish shikoyat qilishning

istisno usuli hisoblanadi, chunki shikoyatning o'zi nazorat tartibida ish yuritishni qo'zg'atish uchun asos bo'lmaydi. Nazorat tartibida ish yuritish yuqori turuvchi sudning raisi va prokuror kabi mansabdor shaxslar shunday qarorga kelgan taqdirdagina qo'zg'atilishi mumkin.

*Jinoyat ishlarini protestlar bo'yicha nazorat tartibida ko'ruvchi sudlar.* Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari va fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudlarining, jinoyat ishlari va fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining rayosatları mazkur sudlarning tegishli jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari va fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari ko'rgan ishlar bo'yicha chiqarilgan tegishli apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan bildirilgan protestlar bo'yicha ishlarni ko'radilar.

Jinoyat sud ishlarini yuritishda *muddatlar*: protestda og'irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo'llash zarurligi, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini og'irlashtiradigan boshqa o'zgarishlar nazarda tutilgan bo'lsa, sudning ayblov hukmini yoki ajrimini (qarorini), shuningdek, sudning oqlov hukmini yoxud ishni tugatish to'g'risidagi ajrimini (qarorini) nazorat tartibida qayta ko'rib chiqishga ular qonuniy kuchga kirgandan keyin bir yil mobaynidagina yo'l qo'yiladi (JPKning 513-moddasi); fuqarolik sudi ishlarini yuritishda — sudning hal qiluv qapopi qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran uch yil o'tgandan keyin berilgan arizalar ko'rilmaydi (FPKning 350-moddasi).

## **5.2. O'rta bo'g'in sudlarining tarkibi va tuzilishi**

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 29-moddasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari rais, rais o'rinbosari, sudyalari, xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi va sud rayosati hamda sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari rais, rais o'rinbosari, sudyalardan iborat bo'ladi va sud rayosati hamda sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati shu sudning sudyalaridan iborat tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati majlislari har oyda kamida ikki marta o‘tkaziladi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati a‘zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Muayyan ishlar yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati qarorlari ovoz berishda qatnashgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va tegishli sud raisi tomonidan imzolanadi.

Endi umumiy yurisdiksiya sudlarining o‘rta bo‘g‘in sudlari rayosatlarining vakolatlariga to‘xtalamiz.

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati:*

- o‘z vakolatlari doirasida ishlarni nazorat tartibida ko‘radi;
- sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko‘rib chiqadi;
- hay‘atlar faoliyati to‘g‘risidagi ma‘ruzalarni, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari raislarining shu sudlar faoliyati to‘g‘risidagi va qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi ma‘ruzalarini tinglaydi;

- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Hukm va ajrim (qaror) bilan ishlarni nazorat tartibida ko‘rib chiqish bu ishlar apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilganidan so‘nggina va qonunga asosan, protest berish huquqiga ega bo‘lgan tegishli sud raisi, prokuror yoki ularning o‘rinbosarlarining protestlari asosidagina yo‘l qo‘yiladi. Protestda og‘irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo‘llash zarurligi haqida, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini og‘irlashtiradigan boshqa o‘zgarishlar haqida, sudning oqlov hukmini yoxud ishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimini (qarorini) qayta ko‘rib chiqish haqida masalalar qo‘yilishi mumkin. Mazkur protestni qayta ko‘rib chiqishga oqlov hukm yoxud ishni tugatish to‘g‘risidagi ajrim (qaror) qonuniy kuchga kirganidan keyin bir yil mobaynidagina yo‘l qo‘yiladi.

Nazorat instansiyasi sudi jinoyat ishini nazorat tartibida ko‘rib, apellatsiya yoki kassatsiya ajrimini bekor qiladi, shuningdek, agar keyin sud ajrimlari, qarorlari chiqarilgan bo‘lsa, ularni ham bekor qiladi va ishni yangitdan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqishga o‘tkazadi.

Rayosat tashkiliy tuzdagi masalalarni ham hal qiladi. U sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini, tuman sudlariga qonunchilikni to'g'ri qo'llashga yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlarni, jinoyatchilik va sudlanganlikning ahvolini, fuqarolarning shikoyat va arizalarini hal qilish bo'yicha ishlarning ahvolini, sud faoliyatining joriy va istiqbolli rejaları bo'yicha ma'lumotlarni tinglaydi va muhokama qiladi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudining sudlov hay'atlari:*

- o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiyada ko'radi;
- apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra, ishlarni apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'radi. Apellatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmagligi kerak;
- sud amaliyotini umumlashtiradi, qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Sudlov hay'atiga uning raisi rahbarlik qiladi, sudlov hay'atining raisi, qoida tariqasida, sud raisining o'rinbosari bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi raisining o'rinbosari sudlov hay'atlarining ishini tashkil etadi; sudlov hay'ati majlislarida raislik qilishi mumkin («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasi).

Ishni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqishda sudlov hay'ati, odatda, raislik qiluvchi va ikki nafar xalq maslahatchilaridan iborat tarkibda harakat qiladi. Tegishli sudlarning hay'atlarida ishlarni apellatsiya va kassatsiya tartibida ko'rib chiqish uch sudyadan iborat tarkibda amalga oshiriladi.

### **5.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi raisining vakolatlari va mazkur sudlarda ishni tashkil etish**

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarining ishini sud raisi va uning o'rinbosari sud apparati yordamida tashkil etadi.

*Sud raisi* ushbu sudning barcha ishlarini tashkil etishga mas'ul bo'ladi. U sud faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi:

- sud ishlari bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ustidan qonunda belgilangan doirada va tartibda protest kiritadi;

- sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;

- sud rayosatini chaqiradi va uning majlislarida raislik qiladi;

- sud rayosatining qarorlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ishini tashkil etadi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar sudlari sudyalarining intizomiy javobgarligi haqida ish qo‘zg‘atadi;

- sudyalarning sudning boshqa xodimlari hamda xalq maslahatchilari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;

- sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishini tashkil etadi;

- fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish ishini tashkil etadi;

- sudyalarning malaka hay‘ati qarorlari ustidan Umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalarining oliy malaka hay‘atiga taqdimnomalar kiritadi;

- sud idorasi ishlariga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Sud raisi bir vaqtning o‘zida tegishli sudyalarning malaka hay‘atining raisi bo‘ladi.

O‘rta bo‘g‘in sudi raisining o‘rinbosari bo‘ladi. Uning vakolatlari «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 35-moddasida belgilangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi raisining *o‘rinbosari*:

- sudlov hay‘atlarining ishini tashkil etadi;

- sudlov hay‘ati majlislarida raislik qilishi mumkin;

- sud rayosatiga sudlov hay‘atlarining faoliyati to‘g‘risida ma‘ruzalar taqdim etadi;

- fuqarolarni shaxsan qabul qiladi;

- sud raisi yo‘qligida uning vakolatlarini amalga oshiradi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar sudlari raisining o‘rinbosari yo‘qligida uning vakolatlari Umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalarining oliy malaka hay‘ati qarori bilan sudyalardan biri zimmasiga yuklatilishi mumkin.

O‘rta bo‘g‘in sudlarining apparati kotibiyat mudiri, sud majlisining kotiblari, arxiv mudiri, kuryer hamda haydovchi, farrosh kabi boshqa texnik xodimlardan iborat.



O'рта bo'g'in sudlarining apparatiga kiruvchi xodimlarning mansab vazifalari turli xil bo'lib, mazkur sudlar rayosatlar va raislari tomonidan tasdiqlanadigan mansab yo'riqnomalari bilan belgilanadi. Har bir konkret holatda tegishli o'рта bo'g'in sudi tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar miqdoridan kelib chiqib, har bir sudning apparatiga kiruvchi xodimlarning mansab majburiyatlari turli bo'lishi mumkin. Biroq, qoida tariqasida ular quyidagilardan iborat bo'ladi.

*Kotibiyat mudiri* sud kotibiyatining ishini tashkil etadi; kelib tushgan xat-xabarlarni, shu jumladan, sud ishlarini o'z vaqtida va to'g'ri ro'yxatga olishni ta'minlaydi; tashrif buyuruvchilarni qabul qilishni tashkil etadi; sudga kelib tushgan xat-xabarlar bo'yicha sud raisi yoki uning o'rinbosarlariga axborot beradi; xalq maslahatchilari sudga chaqirilishini tashkil qiladi; sud raisi yoki uning o'rinbosarlarining ro'xsatiga muvofiq, fuqarolarga turli sud hujjatlarining nusxalarini beradi va yuboradi; uning zimmasiga mansab yo'riqnomasi bilan yoki sud raisi tomonidan yuklatilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

*Sud majlisining kotiblari* birinchi instansiya bo'yicha, apellatsiya va kassatsiya instansiyalari doirasida sud majlisida ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha bayonnomalarni yuritadi, sud muhokamasining ishtirokchilariga chaqiruv qog'ozlarini yuboradi, sud muhokamasining vaqti to'g'risida prokuror va advokatlarga xabar beradi, qamoqda saqlanayotgan sudlanuvchi ma'lum bir kun va soatda sudga olib kelinishini tashkil qiladi va h.k.

*Rayosat kotibi* rayosatda ish yuritish ishlarini amalga oshiradi; majlis sanasi va unda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalarning xarakteri to'g'risida rayosat a'zolari va prokurorga xabar beradi; rayosat ishining natijalarini rasmiylashtiradi; rayosat qarorlarini ijro uchun yuboradi va h.k.

Sud oldida turgan vazifalar bajarilishini ta'minlash va xodimlar o'rtasida ish hajmini oqilona taqsimlash maqsadida sudlarda ish *rejalashtiriladi*. Ish rejasi asosiy tashkiliy hujjat hisoblanadi.

Qoida tariqasida, ish rejasi bir yilga tuziladi va unda tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish; sud amaliyotini umumlashtirish; sudyalarning malakasini oshirish va sudyalikka nomzodlar zaxirasida bo'lgan shaxslarni, shuningdek, xalq maslahatchilarini o'qitish va h.k.lar bilan bog'liq turli chora-tadbirlar nazarda tutilgan bo'ladi.

O'рта bo'g'in sudlarining ish rejaları O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ish rejaları bilan bog'langan bo'lishi zarur, chunki

Oliy sud plenumi majlisida ko'rib chiqiladigan masalalarning hisobga olinishi o'rta bo'g'in sudlari tomonidan sud amaliyotida qonunchilikni qo'llashga doir dolzarb masalalar bo'yicha tushuntirishlar berish masalasi yuzasidan asoslangan takliflar kiritish jarayoniga ko'maklashadi.

Ish rejalarining ijro etilishi ustidan nazoratni va uning tekshirilishini tashkil etish o'rta bo'g'in sudi raisining faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Nazorat ishning barcha uchastkalariga nisbatan tashkil etilishi va amalga oshirilishi kerak. Bu sud aniq ishlashining va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilishining majburiy sharti hisoblanadi.

Sud raisi fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil etadi. Shaxsiy qabul vaqtida ish yuritilishi tamomlangan ishlar bo'yicha turli ma'lumotnomalar va sud qarorlarining nusxalarini berish to'g'risidagi murojaatlar kelib tushgan bo'lsa, ushbu murojaatlar tashrif buyuruvchilar bilan ishlash majburiyati zimmasiga yuklatilgan sud apparatining xodimlari tomonidan butun ish kun mobaynida ko'rilishi shart. Mazkur murojaatlar, qoida tariqasida, o'sha kunning o'zida ko'rib chiqilishi kerak.

*Sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish* o'rta bo'g'in sudlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sud amaliyoti umumlashtirilishini rejalashtirishda sudning apellatsiya, kassatsiya va nazorat amaliyotining tahlili muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil ko'rib chiqilishida hamda qo'llanilishida eng ko'p xatoga yo'l qo'yiladigan ishlarning muayyan toifalarini hamda moddiy va protsessual qonunlar doirasini aniqlashga imkon beradi.

Sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish muayyan ishlarni o'rganish asosida amalga oshiriladi va sudlar faoliyatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni aniqlashga yordam beradi. Umumlashtirish natijalari qonunchilikning biron-bir normalarini qo'llash tartibi bo'yicha tushuntirishlar berish yoki qonunchilikni takomillashtirish to'g'risidagi takliflar kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga murojaat etish uchun asos sifatida xizmat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, sud amaliyotini umumlashtirish materiallari rayosatda muhokama qilinishi natijalari bo'yicha muayyan tashkilotlar faoliyatida qonuniylik buzilishlarini, turli huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon bergan sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi qaror qabul qilinishi mumkin.

*Qonunchilikni turkumlash* sud ishlarini amaldagi qonunchilikka asosan, bekor qilingan yoki o'zgartirilgan normalar qo'llani-

lishini istisno etgan holda to'g'ri hal etishda muhim rol o'ynaydi. Qonunchilikni turkumlash bo'yicha ishlar kodekslar va boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlari va shu kabi boshqa hujjatlar rasmiy nashrlarining nazorat nusxalarini olib borish, ularni hisobga olish va saqlashdan iborat. O'rta bo'g'in sudlarida qonunchilikni turkumlash O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining 2003-yil 28-avgustdagi 17-farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi umumiy yurisdiksiya sudlarida qonunchilikni va sud amaliyotini hisobga olish qoidalariga hamda O'zbekiston Respublikasida qonunchilik tarmoqlarining umum-huquqiy klassifikatoriga muvofiq amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

O'rta bo'g'in sudlari faoliyatining keyingi yo'nalishi — *statistik hisobotlarni tayyorlash*. Statistik hisobotlar ishonchliligi va o'z vaqtida taqdim etilishi uchun mas'uliyat statistik hisobotlarni imzolaydigan sud raislari zimmasiga yuklatiladi. Dastlabki statistik hisobot yuritilishini tashkil etish uchun sud apparatiga kiruvchi muayyan shaxslar mas'ul bo'ladi. To'liqlik, ishonchlilik va o'z vaqtida taqdim etish statistik hisobotlarni taqdim etishda asosiy talablar hisoblanadi.

*Ish yuritish* sudlarning ishini lozim darajada ta'minlashning; protsessual normalarga rioya etilishining; sud ishlarini o'z vaqtida ko'rib chiqishning; sud tomonidan chiqarilgan hukmlar, hal qiluv qarorlari, qarorlar, ajrimlar ijrosining; sud majlisi ishtirokchilarining protsessual huquqlarini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'rta bo'g'in sudlarida ish yuritish protsessual qonunchilik normalariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarida ish yuritish to'g'risidagi yo'riqnomaga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudida, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarida ish yuritish to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> *Qarang*: Jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish. T., «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi», 2003, 207—251-bet; Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ish yuritish. T., «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi», 2003, 161—205-bet.

<sup>2</sup> *Qarang*: Jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish. T., «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi», 2003, 95—153-bet; Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ish yuritish. T., «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi», 2003, 70—117-bet.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Mazkur mavzuni o'rganish talabalarda umumiy yurisdiksiya sudlarining o'rta bo'g'in sudlari o'rni va roli to'g'risida tasavvurlar shakllanishiga; ko'rsatilgan sudlarning tarkibi va tuzilishiga oid masalalarni, shuningdek, mazkur sudlarning vakolatlarini anglashga imkon beradi.*



### NAZORAT SAVOLLARI

1. O'rta bo'g'in sudlarining tarkibini aytib bering.
2. O'rta bo'g'in sudlari qanday vakolatlarga ega?
3. O'rta bo'g'in sudlarining tuzilishi qanday?
4. Sud tarkibiy bo'linmalarining tashkil etilishi tartibi va vakolatlarini bayon eting.
5. O'rta bo'g'in sudlarida ish qanday tashkil etilgan?
6. Sud apparatida qanday lavozimlar bor?
7. O'rta bo'g'in sudlari rayosatining vakolatlarini sanab o'ting.
8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi sudlov hay'atlarining vakolatlarini bilasizmi?
9. O'rta bo'g'in sudida sud raisining o'rinbosari qanday vakolatlarga ega?
10. Sudyalarning malakasini oshirish bo'yicha ishlar qanday tashkil etiladi?

### MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Umumiy yurisdiksiya sudlari asosiy bo'g'in va o'rta bo'g'in sudlarining tarkibi va tuzilishini qiyoslang. Ish shakli — *referat*.
2. Umumiy yurisdiksiya sudlari asosiy bo'g'in va o'rta bo'g'in sudlarining vakolatlarini qiyoslang. Ish shakli — *referat*.
3. O'rta bo'g'in sudi raisining huquqiy maqomini ochib bering. Ish shakli — *referat*.

### Axborot uslubiy ta'minot

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

2. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

## Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi 924-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). (O'zbekiston Respublikasi 2000-yil 14-dekabrdagi 162-II sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

3. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 20-iyuldagi «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomga, Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-103-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 29—30, 296-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. NORMA axborot-huquqiy tizimi.

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-2682-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 4-maydagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasini tuzish to'g'risida»gi PF-2599-sonli Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3725-sonli Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2001, № 18, 133-modda.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 147-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi PF-3725-sonli Farmoniga 3-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 12—13, 101-modda.

13. «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 7-dekabrda 323-II sonli qarori bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

14. «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martda 147-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining 1996-yil 20-dekabrda «Sud hokimiyati to'g'risida»gi 1-qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining 2006-yil 22-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining «Sud hokimiyati to'g'risida»gi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 14/151-qarori.

### Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.

2. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. Inson huquqlarini himoya qilishda — xalqaro va milliy qonunchilik normalarining amal qilishi. Risola. T., TDYI, 2008.

3. *O.M. Madaliyev*. Sud statistikasi. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2006.

4. *Ф.Ф. Мухитдинова*. Демократизм и социальная справедливость при подборе судебных кадров. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. T., 2002, № 3—4.

5. *Б. Мустафаев*. Укрепление независимости судов — веление времени. Газета «Народное слово», 24 февраля 2007 года.

6. Организация деятельности судов. Учебник. Под общ. ред. В.М. Лебедева. М., «Норма», 2007.

7. Правоохранительные органы. Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. М., «NORMA», 2007.

8. *М.Н. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva*. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.

9. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., TDYI, 2008.

10. *Б.А. Саидов, Д. Миразов*. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебное пособие. T., Академия МВД, 2004.

## 6-bob. HARBIY SUDLAR

### **O'quv maqsadlari**

*Ushbu mavzuning ko'rib chiqilishi O'zbekiston Respublikasi sud tizimida harbiy sudlar o'rnini o'rganishga qaratilgan; ushbu sudlar tomonidan hal qilinadigan masalalar; harbiy sudlarni tashkil etish asoslarini tahlil qilish va sudlovga taalluqlilikni aniqlash. Bundan tashqari, harbiy sudlarning rivojlanish bosqichlariga ham diqqat qaratiladi, bu esa ushbu sudlarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari haqida talabalarning fikrlarini shakllantirishga ko'maklashadi.*

### **6.1. Harbiy sudlarning vazifalari va O'zbekiston Respublikasi sud tizimida ularning o'рни**

Davlatning Qurolli Kuchlari, ularda qonunlarga asoslangan qat'iy harbiy tartib ta'minlanganda, harbiy xizmatchilarning shaxsi, huquqi va manfaatlari huquqiy normalar bilan himoyalangan taqdirdagina, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatadi va ular oldida turgan vazifalarni bajaradi. Harbiy sudlar faoliyati ushbu vazifalarni bajarishga qaratilgan. Harbiy sudlarning vazifalari muayyan darajada umumiy yurisdiksiya sudlari vazifalari bilan o'xshash. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuniga binoan, ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud tartibida himoya qilishga da'vat etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 23-sentabr-dagi «O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil etish to'g'risida»gi PF-2421-sonli Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining (shuningdek, boshqa harbiy sudlarning ham) asosiy vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi:

• davlat manfaatlari va Qurolli Kuchlar, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitasi<sup>1</sup>, Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari Bosh boshqarmalari, MXX, FVV, vazirlik va idoralarning harbiy qismlari harbiy xizmatchilarining qonuniy huquq va erkinliklarini himoya qilish;

• O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari asosida qo'shnlarda, qonuniylikni va huquqiy tartibotni ta'minlash maqsadida sudlovni amalga oshirish;

• harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasi borasida kompleks choralar o'tkazish.

Ushbu vazifalar harbiy sudlar vakolatini ham belgilaydi, ko'rib turganimizdek, ular sud hokimiyatining boshqa organlari vakolatlari bilan o'xshash.

Harbiy sudlarni umumiy yurisdiksiya sudlari bilan yaqinlashtiruvchi *umumiy xususiyatlari* quyidagilar:

• *odil sudlov prinsiplari*. Masalan, harbiy va boshqa sudlar o'z faoliyatida qonuniylik prinsipiga amal qilishlari kerak; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, boshqa qonun va qonunosti hujjatlari talablariga rioya etishlari lozim. Muayyan fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda ular hech qanday cheklanishlarsiz O'zbekiston Respublikasining FPK va JPK bilan belgilangan normalarga amal qilishlari lozim. Chunonchi, harbiy sudda sudlanuvchi unga e'lon qilingan ayblovdan himoyalanih imkoniyatini beradigan protsessual huquqlardan to'la hajmda foydalanadi. Harbiy sudlar o'z faoliyatida odil sudlovning boshqa prinsiplariga ham amal qilishadi.

• *tashkiliy tuzilishi*. Boshqa sudlar singari harbiy sudlar uch bo'g'inga bo'lingan: asosiy, o'rta va yuqori.

• *ishning instansiyalar bo'yicha o'tishi*. Harbiy sudlar tomonidan ishni ko'rib chiqish birinchi, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalarida amalga oshiriladi.

Lekin harbiy va boshqa sudlar vakolatlaridagi o'xshashliklar bilan bir qatorda, ular o'rtasida tafovutlar ham mavjud. Bu tafovutlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Harbiy sudlarning sudloviga taalluqlilikdagi cheklashlar. Umumiy qoida bo'yicha, ishni harbiy sudda ko'rib chiqish sharti

---

<sup>1</sup> Hozirgi paytda mazkur qo'mita bekor qilingan, uning vakolatlari MXXga berilgan.



sifatida maxsus subyektning — harbiy xizmatchining mavjudligi hisoblanadi, lekin istisnolar ham mavjud (sudlovga taalluqlilik masalalari alohida paragrafda kengroq ko‘rib chiqilgan).

2. Vakolatlarning o‘ziga xosligi. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni (buyruqni bajarmaslik, harbiy qism yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish, dezertirlik, jangovar navbatchilikni o‘tash qoidalarini buzish, harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish va boshq.) ko‘rib chiqish va hal etish faqat harbiy sudlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Harbiy sud sudyalari nomzodlariga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar. Umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalariga qo‘yiladigan umumiy talablarga mos kelish bilan bir qatorda, harbiy sud sudyasi haqiqiy harbiy xizmatda bo‘lishi va ofitserlik tarkibi harbiy unvoniga ega bo‘lishi lozim. Harbiy sudlar sudyalariga O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni, harbiy ustavlar, harbiy xizmatchilar uchun belgilangan, shuningdek, «Sudlar tug‘risida»gi Qonunda («Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 61-moddasi to‘rtinchi va beshinchi qismlari) nazarda tutilgan huquqiy va ijtimoiy himoyalash choralari tatbiq qilinadi.

Shu bilan birga, harbiy sudlar va umumiy yurisdiksiya sudlari oldida turgan vazifalarning umumiylikini e‘tiborga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (107-moddasi) va «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunga (1-moddasi) binoan, harbiy sudlar umumiy yurisdiksiya sudlariga tutashib ketadi. Ma’lumot uchun harbiy sudlar dunyoning ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarida (80 davlatga yaqin) faoliyat ko‘rsatadi, shu jumladan, Angliya, Fransiya, Shveysariya, Niderlandiya va boshqa. Odatda, harbiy sudlarning mavjudligi qo‘shinlarda odil sudlovni amalga oshirish qo‘shin hayoti va faoliyatini, harbiy qonunchilikni, harbiy ustavlarni yaxshi bilish bilan shartlangan.

Shu bilan birga, sudyalarga haqiqiy harbiy xizmatda bo‘lish va ofitserlik tarkibi harbiy unvoniga ega bo‘lish talabi favqulodda holatlarda, shu jumladan, jangovar holatda tegishli tarzda harakat qilishga tayyor bo‘lishga, buning uchun bilimga ega bo‘lishga va tegishli harbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishga imkon beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan va boshqa sabablar umumiy yurisdiksiya sudlari bilan bir qatorda, harbiy sohada sud hokimiyatini amalga oshirishga da’vat etilgan harbiy sudlar tizimining mavjud bo‘lishi zaruratini belgilab beradi.

## 6.2. Harbiy sudlarning rivojlanish bosqichlari

Respublikamizda harbiy sudlar O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatadi hamda respublika umumiy sud tizimini tarkibiy qismi hisoblanadi<sup>1</sup>.

Ilgari bo'lgan harbiy tribunallar O'zbekistonning umumiy sud tizimiga kiritilmagan edi. Sobiq Ittifoq rahbariyatining gegemonistik siyosati tufayli, sobiq Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari va ular bilan birga, harbiy tribunallar markazga — Moskvaga bo'y-sunar edi.

Umumfuqaroviy organlar armiyada ongli harbiy intizom uchun samarali kurash olib borolmas edi, chunki ular ishlarni tezkor hal etmasdilar. Sudyalar armiyadan uzilgan edi, harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlarini bilishmas edi. Armiya tuzilmalari bilan tashkiliy bog'langan sudlar kerak edi. Shu sababli qo'mondonlik va siyosiy organlar tashabbusi bilan revolutsion harbiy sudlar tashkil etila boshlandi.

1918-yil iyun oyida 1-armiya tarkibida birinchi armiya tribunali tashkil etildi, o'sha yilning oxirida esa bunday tribunallar barcha frontlarda va harakatdagi armiyalarda tashkil etilgan edi. Harbiy tribunallar faoliyatini boshqarish uchun 1918-yil 8-dekabrda ishlashni boshlagan Revvoyentribunal tashkil etildi.

1919-yilning boshida ishlab chiqilgan birinchi aktlarda Revvoyentribunal tomonidan ishlarni ko'rib chiqish tartibi belgilanmagan edi. Front va armiyalarning revvoyentribunallarining 1919-yil 8-yanvardagi yo'riqnomasida sudlov ishlarini yuritish «soddalashtirilgan tartibda va iloji boricha qisqa muddatda amalga oshirilishi, o'zining oldiga jazo vaqtini jinoyat sodir etish vaqtiga yaqinlashtirish vazifasini qo'yanligi» aytib o'tilgan, xolos. Shu orqali sudda ishlarni ko'rib chiqish ko'rinishida repressiya asoslari boshlab berilgan edi.

1919-yil 20-noyabrda tribunallar faoliyatini tartibga soladigan birinchi qonun hujjati bo'lgan revolutsion tribunallar haqidagi nizom tasdiqlangan edi.

Revvoyentribunallarining hukmlari ustidan shikoyat qilish nazarda tutilmagan edi va ular e'lon qilinishi bilan darhol qonuniy

---

<sup>1</sup> *Qarang:* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi «Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to'g'risida»gi Farmoni va 1993-yil 20-sentabrdagi «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom.

kuchga kirar edi. Oliy jazo chorasini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan hukmlarni ijro etishning maxsus tartibi o'rnatilgan edi. O'lim jazosini qo'llash to'g'risidagi har qanday hukmni chiqargan sud bu haqida Revvoyensovetga va respublika Revvoyentribunaliga xabar berar edi. Ushbu organlar hukm ijrosini to'xtatmagan hollardagina hukm ijro etilar edi. Agar hukm ijrosi Revvoyensovet tomonidan to'xtatilgan bo'lsa, ish yuqori Revvoyentribunal tomonidan ko'rib chiqilar edi, u hukmni bekor qilish va ishni qaytadan ko'rib chiqish yoki hukmni o'z kuchida qoldirish vakolatiga ega edi.

Respublika RVT rahbariy tushuntirishlarida qaror qabul qilishda sudyalor qo'mondonlik va Revvoyensovetning fikri bilan bog'liq emasligi, hamma narsani o'zining nufuzi kuchi bilan, u yoki bu jazo chorasini qo'llash zarurati haqidagi ichki ishonch bilan amalga oshirishlari lozimligi bir necha marotaba aytib o'tilgan. Shu munosabatda armiya sharoitlaridagi maxsus sudlar sifatidagi revvoyentribunallar faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari armiyani tashkil etish sharoitida protsessual huquqning ayrim normalarini alohida qo'llashda namoyon bo'ladi.

Fuqarolik urushining tugashi va armiya qisqarishi munosabati bilan harbiy-sud tizimi ham bir qator o'zgarishlarga duchor bo'ldi. Butunrossiya MIQning 1921-yil 23-iyundagi qarori bilan respublika Revvoyentribunali tugatildi<sup>1</sup>.

Harbiy xizmatchilar ishtirokidagi ko'pchilik ishlar yana huddiy sudlar tomonidan ko'rila boshlandi.

Sudlov ishlarini yuritish shaklining yaxlitiligi prinsipi barcha sudlar vakolatini belgilab bergan 1922-yil 31-oktabrdagi sudlov ishlarini yuritish haqidagi Nizom bilan mustahkamlangan edi.

1936-yilda Adliya xalq nozirligi (AXN) tashkil etilishi bilan uning zimmasiga barcha sudlar ustidan tashkiliy rahbarlikni amalga oshirish vazifasi yuklatildi.

1939-yil 15-iyunda XNK (xalq nozirlari kengashi) tomonidan qabul qilingan Adliya xalq nozirligi (AXN) haqidagi Nizomga asosan, Maxsus sudlar boshqarmasi tashkil etilgan edi, uning tarkibida harbiy tribunallar bo'limi ham mavjud edi. Biroq, 1940-yil 13-iyunda Maxsus sudlar boshqarmasi o'rniga Harbiy tribunallar boshqarmasi tashkil etilgan edi, 1942-yil may oyida u Harbiy tribunallar bosh boshqarmasi (GUVT) sifatida qayta tashkil etilgandi.

---

<sup>1</sup> Положение о Высшем судебном контроле Туркестанской Республики от 13.07.1921 г. ЦГА РУз, Фонд № 25, ОП № 2/51, Д. 413, л.д. 21.

Urush yillarida harbiy tribunallar faoliyatini boshqarishda asosiy rolni AXN va uning GUVT tutgan<sup>1</sup>. Urush tugagach, harbiy tribunallarni tashkiliy boshqarishni huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash choralari ko'rilgan edi. 1946-yil 27-iyulda vazirlar kengashi Harbiy tribunallarning bosh boshqarmasi (GUVT) to'g'risida Nizomni tasdiqlaydi. Nizom bosh boshqarmaning faoliyati yo'nalishlari ro'yxati va tuzilishi hamda harbiy tribunallarni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni belgilaydi.

Urush tugashi bilan urush vaqti sharoitlari bilan kiritilgan barcha protsessual cheklanishlar bartaraf etilgan. Harbiy-sud organlari faoliyatini tashkil etishdagi o'zgarishlar qonuniylikni mustahkamlash tadbirlari asosida amalga oshirilgan edi. Ayrim huquqbuzarliklar uchun suddan tashqari ko'rib chiqish tartibi va jinoiy javobgarlik bekor qilingan, bir qator amnistiya aktlari chiqarilgan.

1956-yil may oyida Ittifoq miqyosidagi Adliya vazirligi va uning tarkibidagi Harbiy tribunallar boshqarmalarining tugatilishi munosabati bilan harbiy tribunallar ustidan boshqaruv Oliy sudning Harbiy hay'atida mujassam etildi. Keyingi yillar yuqori sud instansiyalarida sud faoliyati ustidan nazorat va tashkiliy boshqaruv funksiyalarining birlashtirilishi sudlar tomonidan har birini yetarli darajada amalga oshirilishiga yo'l qo'ymasligini, sudyalarning mustaqilligini mustahkamlashga imkon bermasligini ko'rsatdi. Harbiy tribunallarga keladigan bo'lsak, aytilgan qayta tashkil etishning natijasi ko'p yillar davomida kadrlar tayyorlash, ularni komplektlashtirish va bir qator boshqa muammolar yechilmaganligidan bo'ldi.

Sobiq Ittifoqning Adliya vazirligi qayta tashkil etilishi bilan uning tarkibida Harbiy tribunallar boshqarmasi yana tashkil etilgan edi. Harbiy tribunallarning tashkiliy boshqaruvi Harbiy tribunallar to'g'risidagi Nizomning 25-moddasida belgilangan edi<sup>2</sup>.

Respublika mustaqillikka erishgach, mustaqil O'zbekistonning Qurolli Kuchlarida qonun ustuvorligini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi. Ular birinchi marta respublikamiz sudlarining umu-

---

<sup>1</sup> Деятельность органов военной юстиции в годы Великой Отечественной войны (Круглый стол журнала «Государство и право»). Журнал «Государство и право», 1995, № 8, стр. 85.

<sup>2</sup> Т.К. Мирзаев. Деятельность военных судов: проблемы и решения. Автореферат на соискание ученой степени канд. юр. наук. Т., 2001, стр. 11—16.

miy tizimiga kiritildi, bu tarixiy voqea harbiy organlar oldida odil sudlovni amalga oshirishdan tashqari yangi vazifalarni qo'ydi, ya'ni: mustaqillikni mustahkamlash, Vatan himoyasi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan 1991-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Bayonotida harbiy tribunallar so'zlari bo'lmasa-da, unda «Davlat suvereniteti, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini hamda O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini himoyalash maqsadida Mudofaa ishlari bo'yicha vazirlik va Milliy gvardiya tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasi doirasiga Sovet Ittifoqi IIV, Sovet Ittifoqi DXQ (KGB), shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlari olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Sovet Ittifoqi Mudofaa vazirligining respublika hududida joylashgan harbiy qismlari, qo'shilmalarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilishga bo'lgan huquqini e'lon qiladi» deb aytilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasida «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega» ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Nihoyat, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida»gi qarorida «Strategik kuchlar tarkibiga kiradigan va Qurolli Kuchlarning birlashgan qo'mondonligiga bo'ysunadigan harbiy qo'shilmalardan tashqari respublika hududida joylashgan sobiq Ittifoq Qurolli Kuchlarining qismlari, qo'shilmalari, harbiy o'quv muassasalari, tashkilot va muassasalari, boshqa harbiy tuzilmalari O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasi ostiga olinsin» deb aytilgan.

Ushbu uch muhim hujjatda Konstitutsiya qabul qilinishidan oldin harbiy adliya organlarining kelgusi rivojlanish taqdiri hal etilgan. Ushbu organlar davlatimiz yurisdiksiyasi ostiga o'tgani ravshan bo'ldi. Davlatimiz suvereniteti ularning yangi sharoitda shakllanishini belgilaydi.

Harbiy tribunallar armiyada qonuniylikni mustahkamlashda ijobiy rol tutgan bo'lishiga qaramasdan, ammo aholining ko'pchilik qismida ular harbiy dala sudlari va maxsus uchliklar, repressiyalar

sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun ularni nomini o'zgartirish lozim edi, lekin mexanik tarzda emas, amalda qayta tashkil etish kerak edi. Bunda ular O'zbekistonning yaxlit sud tizimiga quyilib ketishlari lozim edi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-apreldagi «O'zbekiston Respublkasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi bilan amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi «Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to'g'risida»gi Farmoniga asosan, respublika Qurolli Kuchlarida qonuniylikni va huquqiy tartibotni ta'minlash maqsadida davlatimiz hududida joylashgan harbiy tribunallar uning sud tizimiga kiradi va O'zbekiston Respublikasi nomidan respublika hududida joylashgan barcha harbiy qismlar, qo'shilmalar, strategik hamda umumiy qo'shin birlashmalari, harbiy o'quv muassasalari va boshqa harbiy qo'shilmalarida odil sudlovni amalga oshiradi. Bir vaqtning o'zida ushbu Farmon bilan sobiq Turkiston harbiy okrugining Harbiy tribunali negizida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy sudi tashkil etilgan.

Harbiy sudlarga yangi qonunchilik aktlari qabul qilinguniga qadar o'z faoliyatida davlatimiiz qonunchiligi va O'zbekiston qonunchiligiga zid kelmaydigan qismida sobiq Ittifoqning qonun hujjatlariga amal qilish talab etilar edi.

Oliy sudga respublika Oliy Kengashiga Oliy sudning Harbiy hay'atini tashkil etish taklifini kiritish, Mudofaa ishlari bo'yicha vazirlikka esa shaxsiy tarkib uchun harbiy xizmatchi huquqiy maqomini, barcha pul va boshqa ta'minot turlarini saqlagan holda harbiy sudlarni, shuningdek, harbiy prokuratura organlarini yetarli darajada moliyalashtirish, moddiy-texnik ta'minlash topshirilgan edi.

Oliy Kengashning 1992-yil 3-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibida Harbiy hay'atini tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga asosan, bunday hay'at zimmasiga o'ta muhim ishlar bo'yicha ishlarni birinchi instansiya sudida ko'rish, shuningdek, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish (hozirgi kunda apellatsiya tartibida ham) vakolatini yuklagan holda tashkil etilgan edi. Shu bilan bir vaqtning o'zida O'zbekiston hududida joylashgan ilgari belgilangan tartibda saylangan harbiy sudlar sudyalarining vakolatlari tasdiqlangan edi.

Konstitutsiya qabul qilinishi arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 1-dekabr-

dagi «O‘zbekiston Respublikasi Harbiy hay’ati va harbiy sudlari to‘g‘risida»gi qarori bilan Oliy sudga harbiy hay’atning shtatlar soni ajratilgan. Shuningdek, shtatlar Qurolli Kuchlarning Harbiy sudi va Toshkent, Samarqand, Termiz va Farg‘ona garnizonining harbiy sudlariga ajratilgan edi.

1993-yil 2-sentabr harbiy sudlar faoliyatini tashkil etishning muhim nuqtasi bo‘lib sanaladi. O‘sha kun O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilingan, unda mamlatimiz hududida faoliya ko‘rsatadigan sudlar qatorida harbiy sudlar ham aytib o‘tilgan. Tabiiyki, ushbu qonunda ko‘rsatilgan sudlarning barcha vazifalari va ularning ishini tashkil etish prinsiplari harbiy sudlarga ham taalluqlidir. Kechroq, sud-huquq islohoti o‘tkazilishi munosabati bilan ushbu Qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. Natijada, O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

Ushbu Qonunning 4-bobi («Harbiy sudlar») harbiy sudlar tizimini (39-modda), ularning sudloviga taalluqli ishlarni, shu jumladan, harbiy qismlar, qo‘shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruv organlarining qo‘mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da’volari bo‘yicha fuqarolik ishlarini, alohida holatlarga ko‘ra, umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko‘rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini, shuningdek, boshqa davlat sirlariga taalluqli ishlarni belgilab berdi.

Shuningdek, harbiy sudlar tarkibi va ularning vakolatlari ham belgilangan. Harbiy hay’at O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibiga kirishi sababli, Qurolli Kuchlar Harbiy sudining huquqiy maqomi viloyat sudi maqomi darajasida belgilangan, sudyalar bilan bir qatorda uning tarkibiga xalq maslahatchilari ham kiritilgan. Okrug va hududiy harbiy sudlar tuman sudlariga tenglashtirildi va ular ham xalq maslahatchilari bilan faoliyat ko‘rsatadi. «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Nizom 2000-yil 14-dekabrda tasdiqlangan edi, unda «harbiy sudlar O‘zbekiston Respublikasi sud tizimiga kiradi va odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga amal qiladi» deb aniq aytilgan. Nizomda barcha bosqichdagi harbiy sudlar sudloviga taalluqlilik masalasi batafsil tartibga solingan.

Harbiy sudlar ishini tashkil etishni tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi zimmasiga yuklatilgan. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi harbiy sudlar ishini tashkil etish masalalari bo‘yicha buyruq va farmoyishlar chiqaradi.

Harbiy sudlarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, moliyalashtirish, transport, aloqa vositalari bilan ta'minlash Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklatilgan va respublika budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Harbiy sudlarning xizmat binolarini qo'riqlash harbiy sudlar joylashgan joylardagi garnizonlar harbiy qismlari tomonidan amalga oshiriladi. Qamoqqa olinganlarni, gaupvtaxtada ushlab turilganlarni qo'riqlab borish va ularni sud majlisida qo'riqlab turish garnizonlarning harbiy qismlari va harbiy komendaturalari tomonidan, boshqa joylarda ushlab turilgan, jazoni ijro etish muassasalarida bo'lgan qamoqqa olinganlarni ishni ko'rish joyiga qo'riqlab borish va qo'riqlab turish esa IIV qismlari va organlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

«Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom ushbu sudlar ishining barcha jabhalarini o'z ichiga olgandek tuzuladi. Biroq, hayot ularning sudloviga taalluqliligini yana o'zgartirdi.

Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, IIV Ichki va qorovul qo'shinlarining bosh boshqarmalari hamda Mudofaa vazirligining harbiy okruglari tashkil etilishi munosabati bilan odil sudlovni amalga oshirish davomida harbiy sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, Qurolli Kuchlarda, davlatimiz qonunchiligi asosida tashkil etilgan harbiy idoralar va boshqa harbiy tuzilmalarda qonuniylikni va huquqiy tartibotni mustahkamlash maqsadida 1999-yil 23-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni bilan Qurolli Kuchlar Harbiy sudi O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi negizida tashkil etildi.

Ushbu sud organlarining bosh vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: davlat manfaatlari va Qurolli Kuchlar, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitasi, Ichki Ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari Bosh boshqarmalari, MXX, FVV, vazirlik va idoralarning harbiy qismlari harbiy xizmatchilarining qonuniy huquq va erkinliklarini himoya qilish; qo'shinlarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari asosida odil sudlovni amalga oshirish; harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasi borasida kompleks choralar amalga oshirish.

Hozirgi vaqtda Farmonga asosan, harbiy sudlar quyidagi tuzilishga ega: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, harbiy okrug va hududiy harbiy sudlar.



### 6.3. Harbiy sudlarni tashkil etish va sudlovga taalluqlilik asoslari

**Harbiy sudlar sudloviga taalluqlilik.** Harbiy sudlar ish yurituviga fuqarolik va jinoyat ishlarni ko'rish berilgan. Bunda ularning umumiy yurisdiksiya sudlari bilan o'xshashlik jihati namoyon bo'ladi. «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomga asosan, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:

a) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning, Milliy xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek, o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni;

b) harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruv organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarini va harbiy boshqaruv organlari hamda harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni;

d) alohida holatlarga ko'ra, umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini;

e) davlat sirlariga taalluqli ishlarni;

f) qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa ishlarni ko'radi.

Yuqorida bayon etilganlardan ishlarning harbiy sudlarga taalluqliligi aksariyat hollarda javobgarlikka tortilayotgan shaxsning harbiy xizmatchi sanaladigan fuqarolarga tegishli ekanligi bilan aniqlanadi. Shuning uchun, kim harbiy xizmatchi sifatida tan olinishi mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'lish juda muhim. Bu savolga javobni 2000-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunidan, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydagi «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunidan, shuningdek, 2000-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan tasdiqlangan «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomdan, 1995-yil 30-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Harbiy Doktrinasidan qidirish mumkin.

Ushbu qoidalarga ko'ra, harbiy xizmatchi deb davlat xizmatining maxsus turini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida (O'zbekiston Respublikasi Harbiy Doktrinasiga asosan, O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari Quruqlikdagi qo'shinlar, Harbiy-havo kuchlari, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, Maxsus va muhandislik-qurilish qo'shinlari hamda Milliy gvardiyadan iborat) o'taydigan shaxslar, shuningdek, «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomning «a» bandida ko'rsatilgan shaxslar topiladi. Ushbu shaxslar tomonidan chaqiruvdan oldin yoki harbiy yoxud unga tenglashtirilgan xizmatga kirishishidan oldin sodir etgan jinoyatlar umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko'riladi. Lekin jinoyat harbiy va unga tenglashtirilgan xizmatni o'tash davri mobaynida sodir etilgan hamda ular ish sudda ko'rilish paytiga kelib xizmatdan bo'shab ketgan bo'lishsa ham, ularning ishlari harbiy sud tomonidan ko'riladi.

● **Yodda saqlang!** ●

*Harbiy sudlar quyidagi tuzilishga ega:*

- asosiy bo'g'in — okrug va hududiy harbiy sudlar;
- o'rta bo'g'in — O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi;
- yuqori bo'g'in — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati.

Harbiy xizmatchi bo'lmaganlarning ishlari quyidagi hollarda harbiy sudda ko'riladi: harbiy yig'inlarni o'tash davri mobaynida jinoyat sodir etsa, umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda jinoyat sodir etsa, bir guruh shaxslarni ayblashga oid ish bo'yicha, garchi, ayblanuvchilardan loaqal biri xususidagi ish harbiy sud sudloviga taalluqli bo'lsa va uni qonunga ko'ra, alohida ish yuritishga ajratish mumkin bo'lmasa, yakka shaxs yoki bir guruh shaxslar bir necha jinoyatni sodir etishda ayblanib, garchi jinoyatlardan loaqal biri to'g'risidagi ish harbiy sud sudloviga taalluqli bo'lsa, hamma jinoyatlar to'g'risidagi va barcha shaxslarga oid ish harbiy sud tomonidan ko'riladi.

**Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish asoslari.** *Harbiy sudlar tizimi va tarkibi.* Oldingi paragrafda aytib o'tilganidek, qonunchilikda harbiy sudlarning uch bo'g'inli tashkiliy tuzilishi nazarda tutilgan. O'rta bo'g'in sudi funksiyasini bajaradigan faqat bitta sud — O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — ushbu sudlarning o'ziga xos xususiyatidir.

Okrug va hududiy harbiy sudlar tuman sudi huquqlari doirasida ish olib boradi hamda rais, sudyalari va xalq maslahatchilaridan, zarurat bo'lganda esa sud raisining o'rinbosaridan ham iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi viloyat sudi huquqlari doirasida ish olib boradi hamda rais, rais o'rinbosari, sudyalari va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati lavozim bo'yicha Harbiy hay'at raisi hisoblanadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosari, Harbiy hay'at raisining o'rinbosari va sudyalardan iborat bo'ladi.

*Harbiy sudlarning asosiy bo'g'iniga* — okrug va hududiy harbiy sudlar sudloviga — barcha darajadagi sudlarga taalluqli bo'lgan jinoyat ishlar majmuyidan podpolkovnik, 2-darajali kapitandan yuqori bo'lmagan unvondagi shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar tegishlidir (tinchlik vaqtida uzoq muddatli yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazo tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar haqidagi ishlardan tashqari). Harbiy sudlarda ko'rilishi mumkin bo'lgan barcha toifadagi fuqarolik ishlarini ushbu bo'g'in sudlari ko'radi.

*Harbiy sudlarning o'rta bo'g'ini* — O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — ishlarni birinchi, apellatsiya, kassatsiya instansiyalarida, shuningdek, nazorat tartibida va yangi ochilgan holatlar bo'yicha ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudining sudloviga:

- sodir etilganligi uchun uzoq muddatli yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar;

- polkovnik, 1-darajadagi kapitan unvoniga ega bo'lgan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar yoxud brigada komandiri lavozimidagi shaxslar hamda xizmat mavqeyi bo'yicha ularga teng shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar, shuningdek, ushbu shaxslarga taalluqli boshqa ishlar va shikoyatlar tegishlidir.

Umumiy yurisdiksiya sudlari tizimining o'rta bo'g'in sudlari sifatida ularga quyi sudning sudloviga taalluqli bo'lgan har qanday ishni birinchi instansiya sudi sifatida o'z ish yurituviga qabul qilish huquqi berilgan.

*Yuqori bo'g'in* — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati. Dastlab O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi vakolatlari haqida aytib o'tish lozim, u:

- harbiy sudlar ishining tashkil etilishini tekshirib turadi;
- harbiy sudlar sud amaliyotini, shuningdek, sud statistikasini yuritish ishi qanday tashkil etilganligini o'rganadi va umumlashtiradi;
- harbiy sudlar sudyalarning malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'radi;
- sudyalarning mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- harbiy sudlarni tashkil etish va ularni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati birinchi, ikkinchi va nazorat instansiyasi funksiyalarini bajarish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati sudloviga: oliy ofitserlar tarkibidagi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar, shuningdek, ushbu shaxslarga taalluqli boshqa ishlar va shikoyatlar tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati u tomonidan birinchi instansiyada qabul qilingan qarorlar ustidan qilingan shikoyatlar va bildirilgan protestlar bo'yicha apellatsiya va kassatsiya tartibida ishlarni ko'rib chiqadi. Nazorat tartibida Harbiy hay'at O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi rayosatining qarori ustidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi birinchi instansiyada ko'rib chiqqan ishlar bo'yicha chiqarilgan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan bildirilgan protestlar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqadi.

Harbiy sudyalarning maqomi «Sudlar to'g'risida»gi Qonun bilan belgilangan. Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega bo'lgan va umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalariga qo'yilgan talablarga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud sudyasi bo'lishi mumkin. Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida besh yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo'lib kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Harbiy sudlar sudyalariga O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni, harbiy ustavlarida nazarda tutilgan harbiy xizmatchilar uchun belgilangan huquqiy va ijtimoiy himoyalash choralari tatbiq qilinadi.

Okrug va hududiy harbiy sudlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Sudyalar 5 yillik muddatga tayinlanadi.

Harbiy sudlarning barcha bo'g'inarida odil sudlovni amalga oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish, shuningdek, sudning boshqa vazifalarini bajarishga doir ishlarini ta'minlaydigan devonlar tashkil etiladi.

Harbiy sudlar tarkibi, shtatlar soni, shtatdagi lavozimlar va shu lavozimlarga mos bo'lgan harbiy unvonlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri bilan kelishgan holda bergan taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Ko'rib chiqilgan mavzuning tahlili harbiy sudlarning burchlari va ular bajaradigan vazifalarni ko'rib chiqish imkonini beradi; shuningdek, boshqa umumiy yurisdiksiya sudlariga nisbatan harbiy sudlarni tashkil etish va ular faoliyatining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ajratib olish imkonini beradi.*



### NAZORAT SAVOLLARI

1. Harbiy sudlarning vazifalari nimalardan iborat?
2. Harbiy sudlar sudloviga qanday jinoyatlar taalluqliligini ayting.
3. Harbiy sudlarda ish qanday tashkil etiladi?
4. Harbiy sudlar sudyalariga qanday talablar qo'yiladi?
5. Harbiy sudlarning sud tizimini ochib bering.

### MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonda harbiy sudlar paydo bo'lishi va shakllanish jarayonini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
2. Chet davlatlarda harbiy sudlarni tashkil etish va ularning faoliyati masalalarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
3. Turli davlatlarda harbiy sudyalarga qo'yiladigan talablarni taqqoslang. Ish shakli — *referat*.

## Axborot uslubiy ta'minot

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

2. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

## Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi 924-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi 162-II sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 23-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil qilish to'g'risida»gi PF-2421-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 14-dekabrdagi 164-II sonli qarori bilan tasdiqlangan.)

## Maxsus adabiyotlar

1. *I.N. Глебов*. Военное право Содружества: состояние и перспективы международно-правового регулирования военно-политических отношений государств СНГ. Журнал «Государство и право», 1993, № 10.

2. *T.K. Мирзаев*. Деятельность военных судов: проблемы и решения. Автореферат на соискание ученой степени канд. юр. наук. Т., 2001.

---

## 7-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV SUDI

### **O'quv maqsadlari**

*Ushbu mavzu sud tizimining yuqori bo'g'ini sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining o'rni va rolini o'rganishga qaratilgan. Talabalar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tuzilishini, uning funksiyalari va vakolatlarini aniq anglab olishlari lozim.*

### **7.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sud tizimidagi o'rni. Oliy sud vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Oliy sud faqat umumiy yurisdiksiya sudlari tizimida oliy sud organi ekanligini nazarda tutish lozim. U tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

Oliy sudni tashkil etish va uning faoliyati O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi sifatidagi o'rni uning keng va turli xil vakolatlari bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, ushbu sud amalga oshirilishi uning O'zbekiston Respublikasi sud tizimi va boshqa davlat hokimiyati organlari tizimida rolini belgilaydigan quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishga da'vat etilgan:

1) umumiy yurisdiksiya sudlari sudloviga taalluqli bo'lgan fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi sifatida uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish;

3) sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish va ishlarni sudda ko'rib chiqish vaqtida qonun hujjatlarini qo'llash borasidagi masalalar bo'yicha sudlarga tushuntirishlar berish; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish.

*Aytib o'tilgan funksiyalarning birinchisi* umumiy yurisdiksiya sudlari ish yurituviga taalluqli bo'lgan o'ta murakkab bo'lgan fuqarolik va jinoyat ishlarini (birinchi instansiya bo'yicha) mazmunan ko'rib chiqish vakolatiga egaligida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 144-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunda o'z vakolatiga berilgan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqadi, shuningdek, alohida holatlarni hisobga olib, har qanday fuqarolik ishini O'zbekiston Respublikasining istalgan sudidan olib, birinchi instansiya sudi sifatida o'zining yuritishiga qabul qilib olishga yoki bir suddan boshqa tegishli sudga o'tkazishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudloviga o'ta murakkab va ahamiyatli ishlar tegishliligini belgilaydi. Bundan tashqari, ushbu sud quyi sud sudloviga tegishli har qanday jinoyat ishini birinchi instansiya sudi tariqasida o'zi ko'rish uchun olishga haqlidir. Shu bilan birga, Oliy sud o'zi tomonidan birinchi instansiyada qabul qilingan qarorlar bo'yicha apellatsiya, kassatsiya tartibida ikkinchi instansiya sudi sifatida ishlarni ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining *ikkinchi funksiyasi* birinchisi bilan chambarchas bog'liq. Sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish — bu, birinchi navbatda, ular tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishdir. Aytib o'tish lozimki, bu faqat protsessual shakllarda amalga oshirilishi kerak, ya'ni o'zboshimchalik bilan emas, balki qonun



bilan belgilangan sudlov ishlarini yuritish qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak. Ushbu talabning bajarilishi — umumiy yurisdiksiya sudlari mustaqilligini, ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi va asosliligini ta'minlashga da'vat etilgan muhim vosita hisoblanadi. Oliy sud apellatsiya va kassatsiya tartibida ko'rish predmeti bo'lgan har qanday umumiy yurisdiksiya sudlarining qarorlarini nazorat tartibida ko'rib chiqishni amalga oshiradi.

*Uchinchi funktsiya* ham boshqalaridan ajratilmagan. Uning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, nafaqat, sudlar tomonidan, balki boshqa davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar tomonidan muayyan qonunlarni qo'llash amaliyotiga tegishli yo'nalishda faol ta'sir etish imkoniyatini beradi. Plenum tomonidan beriladigan tushuntirishlar muayyan qonunlarni qo'llash bo'yicha sudlarning umumlashtirilgan amaliyotiga tayanadi, uning mohiyatini aks ettiradi va kelgusida ushbu qonunlarni to'g'ri qo'llash uchun mo'ljallar beradi.

Aytib o'tilgan funksiyalar bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 82-moddasida ko'rsatilgan qonunchilik tashabbusi huquqiga ham ega. Bu qonun chiqaruvchining u tomonidan chiqarilgan qonunlarni qo'llash amaliyoti bilan aloqasining muhim vositasidir. Aynan amaliyotda qonun va boshqa huquqiy hujjatlarning afzalliklari va kamchiliklari namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi — qonunlar qanday ishlayapti, ularni qo'llashda qanday qiyinchilik va kamchiliklar mavjudligi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lgan organlardan biri. Bu ma'lumotlarga tayanib, u amaldagi qonunchilikning muammo va boshqa kamchiliklariga e'tiborni qaratgan holda qonun ijodkorligiga faol ko'maklashish imkoniyatiga ega. Amaldagi qonunchilikning mazmuniga ta'sir etish imkoniyatini «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasida ko'rsatilgan Konstitutsiyaviy sudga masalalar kiritish huquqi ham beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Konstitutsiyaviy sud majlisida ishtirok eta oladi va ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha o'z fikrini bildirishga haqli.

Yuqorida sanab o'tilgan vakolatlar Oliy sud vakolatlari doirasini tugallamaydi. Oliy sud qonunda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarga ham ega.

## 7.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini tashkil etish, tarkibi va tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rais, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, sudlov hay‘atlari raislari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan iborat.

Ma‘lumot uchun, «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 63-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan 5 yil muddatga saylanadi. Oliy yuridik ma‘lumotga hamda yuridik ixtisos bo‘yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo‘lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan va malaka imtihonini topshirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi o‘z bo‘linmalarining muayyan tarkibiga ega, ya‘ni qonun bilan belgilangan tuzilishga ega. Oliy sud quyidagi tarkibda ish olib boradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati;
- Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati;
- Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati;
- Harbiy hay‘at.

**Oliy sud plenumi** eng yuqori sudlov instansiyasi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy xo‘jalik sudi raisi, Adliya vaziri, sudyalar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a‘zolari ishtirok etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi ishlarni nazorat tartibida ko‘radi, sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko‘rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlar beradi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining tarkibini, sudlov hay‘atlarining tarkibi va raislarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy

sudi plenumining kotibini tasdiqlaydi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining ishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek, sudlov hay'atlarining faoliyati haqidagi ma'lumotlarni tinglaydi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislarining qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlarini bajarish to'g'risidagi ma'lumotlarini tinglaydi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot organining tahrir hay'ati tarkibini tasdiqlaydi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va rayosati reglamentini tasdiqlaydi, qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi va qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining kotibi tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi ishni nazorat tartibida ko'rish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining ish holatlari va protest vajlari haqidagi ma'ruzasini tinglaydi. So'ngra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, shuningdek, basharti, taraflar ishtirok etayotgan bo'lsa, ularning fikrlari tinglanadi. Protestni muhokama qilish va ovoz berish chog'ida majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi a'zolaridan tashqari boshqa shaxslarning bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining a'zolari ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Raislik qiluvchi oxirgi bo'lib ovoz beradi.

Protest yuzasidan qaror, agar uni yoqlab O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi a'zolarining ko'pchiligi ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Ishni ko'rishda ilgari qatnashgan sudya

ovoz berishda ishtirok etishga haqli emas. Ko'pchilikning ovozini olmagan protest rad qilingan hisoblanadi. Shundan so'ng boshqa takliflar tushish navbatiga qarab ovozga qo'yiladi.

Qabul qilingan qaror bilan rozi bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi a'zosi o'z fikrini yozma ravishda bayon etishga haqli bo'lib, bu fikr O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi majlisining bayonnomasiga ilova qilinadi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining *kotibi* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi vazifasini bajarish bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining majlisini tayyorlashga, majlis bayonnomasini yuritishga doir ishlarni tashkiliy jihatdan ta'minlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qabul qilgan qarorlarning ijrosi uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasi).

Muayyan sud ishlarini hal etish bilan bog'liq bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi muhokamasiga kiritilgan masalalar uning ma'ruzalari yoki u vakolat bergan shaxslarning ma'ruzalari bo'yicha tinglanadi. Ushbu masalalarning muhokamasida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining majlisiga taklif qilingan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Plenumning asosiy funksiyalaridan biri — *sud amaliyoti masalalari bo'yicha tushuntirishlar berish* funksiyasi. Bunday tushuntirishlar qonunning bir xilda tushunishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular sud ishlarini ko'rib chiqishda vujudga keladigan masalalar bo'yicha o'ta muhim, prinsipial ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Tushuntirishlar sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish, sud statistikasi tahlili asosida beriladi va tushuntirishlar berilgan qonunni qo'llaydigan O'zbekistondagi barcha sudlar, boshqa organlar va mansabdor shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Oliy sud plenumining qarorlari, nafaqat, sudlar faoliyatida, balki, umuman, huquqni qo'llash faoliyatida qonunchilikni to'g'ri qo'llashni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumot uchun, oxirgi yillarda olimlar orasida Oliy sud plenumi qarorlarining huquqiy tabiati haqida, ya'ni ushbu hujjat huquq manbayi bo'la olishi haqida munozaralar yuritilgan. Agar Oliy sud plenumi qarori huquq manbayi bo'lsa, ushbu huquq manbayi qaysi dara-

jadagi manba sanalishi to'g'risida savoli tug'iladi. Ushbu masala bo'yicha bahsga kirishmagan holda plenum qarorlari sudyalar va boshqa huquqni qo'llovchilar uchun huquq normalarini qo'llashda muhim mo'ljal bo'lib xizmat qiladigan subsidiar sharh rolini bajaradi. Plenum qarorlari ularni tavsiflovchi quyidagi belgilarga ega:

a) qonun bilan belgilangan organ tomonidan qabul qilinadi;

b) tushuntirish berilgan qonunchilikni qo'llaydigan, nafaqat, sudlar uchun, balki boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir, ya'ni mavhum shaklda ifodalangan bo'lib, soni cheklanmagan shaxslarga mo'ljallangan;

d) bir marta qo'llanadigan hujjat hisoblanmay, ko'p marotaba qo'llash uchun mo'ljallangan;

e) qonunda aynan ko'rsatilmagan bo'lsa-da, amaliyotda ularni nashr qilish majburiyligi tartibi qabul qilingan.

**Oliy sud rayosati** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi tomonidan belgilanadigan miqdorda tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati tarkibiga lavozim bo'yicha kiradilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Majlisda rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda qarorlar qabul qiladi. Muayyan sud ishlari bo'yicha rayosat qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va darhol qonuniy kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati ishlarni nazorat tartibida ko'radi<sup>1</sup>, sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi, Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislarining shu sudlar faoliyati to'g'risidagi va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari va devonining ishini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi, qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasi).

---

<sup>1</sup> Rayosat tomonidan muayyan sud ishlari bo'yicha chiqarilgan qarorlar ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumiga protest bildirish mumkin.

**Sudlov hay'atlari.** Sud faoliyatining aksar qismi Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati va Harbiy hay'at (sudlov hay'atlari) zimmasiga tushadi. Ushbu bo'linmalarning tarkibi belgilangan tartibda Oliy sud raisining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari tarkibidan Oliy sud plenumi tomonidan tasdiqlanadi.

Sudlov hay'atlarining bevosita faoliyatiga ularning raislari rahbarlik qiladi. Sudlov hay'atlari raislari ular rahbarlik qiladigan hay'atlar sud majlislarida raislik qiladi, hay'at sud majlislarida sud tarkiblarini tashkil etadi, tegishli hay'at ishlariga rahbarlik qiladi, sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish uchun ishlarni talab qilib oladi, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Sudlov hay'atlari o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiyada, apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi; sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi; qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi; sud statistikasini tahlil qiladi; qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasi).

*Birinchi instansiyada* sudlov hay'atlari yuqorida aytib o'tilgan fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'radi. Birinchi instansiyada sudlov hay'atlari tomonidan chiqarilgan hukm va hal qiluv qarorlari ustidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilinishi va protest bildirilishi mumkin.

Birinchi instansiyada jinoyat ishlari uch nafar sudya tarkibida, fuqarolik ishlari esa — yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari tomonidan birinchi instansiyada chiqarilgan qonuniy kuchga kirmagan hukmlar va hal qiluv qarorlar ustidan Oliy sudning tegishli hay'atiga *apellatsiya tartibida* shikoyat qilish yoki protest bildirish mumkin. Fuqarolik ishlarini apellatsiya tartibida ko'rib chiqish uch nafar sudya tarkibida, jinoyat ishlarini esa besh nafar sudya tarkibida amalga oshiriladi. Apellatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasi). Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili qonuniy kuchga kirmagan sud hukmi ustidan apellatsiya tartibida shikoyat qilish, prokuror va uning o'rinbosari esa protest bildirish huquqiga ega.

*Kassatsiya tartibida* sudlov hay'atlari qonuniy kuchga kirgan hukm va hal qiluv qarorlari ustidan qilingan kassatsiya shikoyatlari va bildirilgan protestlari bo'yicha ishlarni ko'radi. Sudlov

hay'atlarida bunday ishlar quyidagi tarkibda ko'riladi: fuqarolik ishlari — uch nafar sudya tarkibida, jinoyat ishlari esa besh nafar sudya tarkibida.

Oliy sudning sudlov hay'atining apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sud rayosatiga protest bildirish mumkin.

*Nazorat tartibida* sudlov hay'atlari o'rta bo'g'in sudlarida nazorat tartibida ko'rish predmeti bo'lgan qonuniy kuchga kirgan hukm va hal qiluv qarorlari ustidan bildirilgan protestlar bo'yicha ishlarni ko'radi. Alohida hollarda, o'rta bo'g'in sudlarida apellatsiya yoki kassatsiya instansiyalarida ko'rish predmeti bo'lgan ishlar bo'yicha protestlar bevosita Oliy sud sudlov hay'atlariga kiritilishi mumkin. *Nazorat tartibida* ko'rish natijalari bo'yicha Oliy sud sudlov hay'atlarining chiqargan ajrimlari ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatiga protest bildirilishi mumkin.

### **7.3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining vakolatlari.** **O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosarlari** **va sudlov hay'ati raislari**

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning o'rinbosarlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'ati raislarining vakolatlarini belgilab qo'ygan.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi.** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishiga rahbarlik qilish, birinchi navbatda, ushbu sud raisi zimmasiga yuklatilgan. Uning ko'p sonli vakolatlari bir tomondan, sudga oid vakolatlarini, ikkinchi tomondan esa tashkiliy vakolatlarini o'z ichiga oladi.

*Sudga oid* vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga taalluqli bo'lgan har qanday ishning ko'rilishida va hal etilishida ishtirok etish, qonunda belgilangan tartib va doirada barcha umumiy yurisdiksiya sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukm va boshqa qarorlari ustidan protest bildirish, shuningdek, qonun talab qilgan hollarda ularning ijrosini to'xtatib turish vakolatlari kiradi.

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 26-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi quyidagi *tashkiliy* vakolatlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi;

- sudlarning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadi;

- sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;

- sudlar tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ijrosini qonunda nazarda tutilgan tartibda to'xtatib turadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va rayosatini chaqiradi hamda ularning majlislarida raislik qiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va rayosatining umumiy masalalar bo'yicha qabul qilgan qarorlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ishini tashkil etadi;

- ishni bir suddan boshqa sudga olib berish masalasini hal qiladi;

- plenum va rayosat muhokamasiga qonunga binoan, ularning vakolatiga taalluqli bo'lgan masalalarni kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tushuntirishlari qonun hujjatlariga muvofiq emasligi haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumiga taqdimnomalar kiritadi;

- qonunlarni sharhlab berishni talab etuvchi masalalar yuzasidan va normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emasligi haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga taqdimnomalar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati tarkibi, sudlov hay'atlarining hamda Umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalarining oliy malaka hay'ati tarkibi va raislari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumiga taqdimnomalar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi sudlari sudyalarining intizomiy javobgarligi haqida ish qo'zg'atadi;

- rais o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining shtat jadvalini tasdiqlaydi;

- buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;

- fuqarolarni shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishlarini tashkil etadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sud raisi o'rinbosarlari.** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi o'rinbosarlarga ega, ulardan biri birinchi o'rinbosar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yo'qligida uning vakolatlarini raisning birinchi o'rinbosari, birinchi o'rinbosar ham yo'qligida esa rais o'rinbosarlaridan biri amalga oshiradi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumidan tashqari barcha instansiya sudlarining hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tegishli sudlov hay'atlarining tashkiliy ishiga rahbarlik qiladi;

- sudlov hay'atlarining faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumiga ma'ruzalarni taqdim etadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining majlislarida raislik qilishi mumkin;

- sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;

- sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish bo'yicha ishni tashkil etadi;

- sudlar tomonidan chiqarilgan, o'zlari protest kiritishga haqli bo'lgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ijrosini to'xtatib turadi;

- sudyalari va sudning boshqa xodimlari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;

- vazifalar taqsimotiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibiy bo'linmalari ishiga rahbarlik qiladi;

- fuqarolarni shaxsan qabul qiladi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 27-moddasi).

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining raislari:**

- sudlov hay'atlari ishini tashkil etadi va ularning majlislarida raislik qiladi;

- sudlov hay'atlarining faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatiga ma'ruzalarni taqdim etadilar;

- sud amaliyotini umumlashtirish uchun sud ishlarini talab qilib oladi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 28-moddasi).

#### **7.4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati.**

##### **Ilmiy-maslahat kengashi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud ishini tashkil etishni bevosita sud raisi va uning o'rinbosarlari tomonidan bevosita hamda sud apparati yordamida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tuzilishi va shtat birligi soni Oliy sud raisi taqdimnomasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida tashkiliy ish ushbu sudning sud tizimida rahbarlik mavqeyini hisobga olgan holda boshqa sud organlarida amalga oshiriladigan masalalar bo'yicha olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida quyidagi masalalarni hal qilishga katta e'tibor qaratiladi: sud ishini rejalashtirish, keluvchilarni qabul qilish, shikoyat, ariza va talablarni ko'rib chiqish, sudlov hay'atlari, prezidium va plenumda xulosa va protestlarni tayyorlash, sud amaliyoti bo'yicha qisqacha ma'lumotlar va quyi sudlarga xatlar tayyorlash, sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish hamda sud statistikasini tashkil etish, me'yoriy materiallarni tizimlashtirish, plenum qarorlari loyihalarini tushuntirishlar bilan tayyorlash, ish yuritishni tashkil etish va boshqalar.

Sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish hamda sud statistikasini tahlil etish, qonunchilikni tizimlashtirish va targ'ib qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa funksiyalarni bajarish uchun apparat tarkibida bo'lim va boshqa tashkiliy bo'linmalar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bo'limlariga quyidagilar kiradi: maxsus bo'lim; buxgalteriya, shikoyatlar va fuqarolarni qabul qilish bo'limi; sud amaliyotini umumlashtirish bo'limi; plenum kotibiyati; sud amaliyoti va sud statistikasini tizimli tahlil qilish bo'limi; kotibiyat (kanselariya); kadrlar bo'limi; Harbiy hay'at kotibiyati; «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi axborotnomasi» nashriyoti; xo'jalik bo'limi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bo'limlarida bo'lim boshliqlari; katta maslahatchilar, maslahatchilar, kotiblar, shuningdek, boshqa xizmatchilar va kichik xizmat qiluvchi shaxsiy tarkib ishlaydi. Sudlarning shtatlar jadvali O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi zarur hollarda sudlarning shtatlar jadvaliga shtat birligi va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritadi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 78-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tuzilishida *maxsus bo'limlar* ham nazarda tutilgan. Maxsus bo'limlar bo'yicha bo'lim

rejimli maxfiy bo'linma bo'lib, maxfiy, maxsus sektorlar va arxivdan iborat. Bo'lim bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga bo'ysunadi va uning rahbarligi ostida faoliyat ko'rsatadi. Bo'lim qonun bilan ushbu bo'lim zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi *yordamchisi*. Yordamchi raisning tashkiliy-texnik faoliyatini ta'minlash borasidagi ishlarni amalga oshiradi. Raisning farmoyishlari, buyruqlari, topshiriqlari ijro etilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yordamchisi bevosita raisga bo'ysunadi va uning rahbarligi ostida ish yuritadi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi.** Sud amaliyotini va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tushuntirishlari loyihalarini o'rganish va umumlashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, sud organlari va ilmiy yuridik muassasalar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzurida maslahat organi bo'lgan va jamoatchilik asosida ishlaydigan ilmiy-maslahat kengashi tuziladi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 81-moddasi).

Kengash rais taqdimnomasiga asosan plenum tomonidan tasdiqlanadi. Uning tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi a'zolari va boshqa huquqni himoya qilish organlarining amaliyotchi xodimlari, ilmiy xodimlar kiradi.

Sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirishga asoslangan holda ilmiy-maslahat kengashi a'zolari sudlarda paydo bo'layotgan nizoli masalalarni hal etishga ko'maklashadi, plenum tushuntirishlari loyihalari va Oliy sudda ishlab chiqiladigan boshqa hujjatlar bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi, bu esa ularning aniqligi, ravshanligi, qonunga qat'iy rioya qilinishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha Oliy sud plenumining qarorlari, alohida ishlar bo'yicha plenum qarorlari, mamlakatdagi barcha sudlar axboroti uchun alohida ishlar bo'yicha hay'atlarning hal qiluv qarorlari, hukmlari va ajrimlarining qisqacha mazmuni, plenum majlislari va Oliy sudda bo'ladigan kengashlari haqida ma'lumotlar beriladigan, shuningdek, sud amaliyoti to'g'risida qisqacha ma'lumot va turli xil huquqiy masalalar bo'yicha maqolalar chop etiladigan «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi»ni nashr etadi.

## 7.5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi shakllanishining asosiy bosqichlari

1924-yilda sobiq Ittifoq Oliy sudi tashkil etilgan, natijada, 1924-yil 13-dekabrda O'zSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) qarori bilan sobiq RSFSR Oliy sudi Turkiston bo'linmasi o'rnida O'zSSR Oliy sudi tashkil etildi. Tashkiliy masalalar bilan Revkom shug'ullangan, uning o'zi tomonidan O'zSSR Oliy sudi tarkibi tasdiqlangan edi, ushbu tarkibda rais, uning o'zi birinchi instansiya sudlov hay'ati raisi hisoblangan, kassatsiya hay'ati raisi va hay'atning olti a'zosidan iborat edi.

O'zSSR Oliy sudi O'zSSR sud tuzilishi to'g'risidagi nizomi chiqqunga qadar 1922-yil 31-oktabrdagi to'qqizinchi chaqiriq Butunrossiya MIQ IV sessiyasida qabul qilingan RSFSR sud tuzilishi to'g'risidagi nizom bo'yicha ish yuritgan. O'zSSR Oliy sudi barcha sud organlarini yaxlit tizimga birlashtirib, o'sha vaqtda O'zSSR hududida faoliyat ko'rsatgan barcha quyi sudlar va harbiy tribunallar ustidan nazoratni amalga oshirgan.

O'zSSR Oliy sudi plenum, yalpi majlis, sud rayosati, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha kassatsiya hay'atlari, harbiy va intizomiy hay'atlarga (kerakli hollarda) ega bo'lgan. Uning funksiyalariga O'zSSR hududida joylashgan quyi sudlar va harbiy tribunallar tomonidan ko'rib chiqilgan ishlarni kassatsiya tartibida ko'rish kirar edi.

Keyinroq, 1926-yil 20-avgustda Sovet Ittifoqi MIQ va XKK (Xalq Komissarlari Kengashi) tomonidan tasdiqlangan «Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura to'g'risida»gi Nizomga asosan, harbiy sudlar sudloviga taalluqli bo'lgan ishlar bo'yicha kassatsiya funksiyalari Sovet Ittifoqi Oliy sudi harbiy hay'atida mujassam etilgan edi.

O'zSSR Oliy sudi boshqa sovet respublikalari oliy sudlari singari harbiy tribunal tomonidan ko'rilgan sud ishlarini kassatsiya tartibida ko'rib chiqishdan ozod etilgan edi.

O'zSSR Oliy sudi plenumining asosiy funksiyasi respublika sud organlari va Tojikiston ASSR Oliy sudining bo'linmalari faoliyati bilan paydo bo'ladigan sud amaliyoti masalalari bo'yicha qonunlarni sharhlash, shuningdek, ishlarni nazorat tartibida ko'rish bo'lgan. O'zSSR Oliy sudining yalpi majlisi quyi sudlar uchun u yoki bu respublika qonunlarini qo'llash haqida tushuntirishlar va sirkularlar ishlab chiqdi.

O'zSSR Oliy sudi rayosati: sud a'zolari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash, Oliy sud hisobotini tasdiqlash, viloyat sudlari va

Tojikiston ASSR Oliy sudining bo'linmalariga taftishlar tayinlash, O'zSSR Oliy sudi a'zolariga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish kabi tashkiliy masalalarni hal etardi.

Jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha kassatsiya hay'atlari O'zSSR Oliy sudining uch a'zosi tarkibida ishlarni kassatsiya tartibida ko'rib chiqardi.

1926-yil 20-avgustgacha mavjud bo'lgan O'zSSR Oliy sudi Harbiy hay'ati kassatsiya hay'ati raisi va to'rt nafar sud a'zosidan iborat tarkibda faoliyat ko'rsatgan.

Uch nafar sud a'zosidan iborat bo'lgan O'zSSR Oliy sudining intizomiy hay'ati viloyat sudlari a'zolari va Tojikiston ASSR Oliy sudining bo'linmalari a'zolariga nisbatan intizomiy ish yuritishni amalga oshirgan, Oliy sud a'zolariga nisbatan intizomiy ish yuritish O'zSSR Oliy sudi rayosati tomonidan amalga oshirilgan.

O'zSSR Oliy sudi raisi, uning o'rinbosarlari va boshqa a'zolari respublika Adliya xalq nozirligining taqdimnomasiga asosan, O'zSSR MIQ tomonidan tasdiqlangan, sudlov hay'atining raislari esa O'zSSR MIQ rayosati tomonidan tayinlangan.

Umumiy rahbarlik va sud nazorati funksiyalari bilan bir qatorda, O'zSSR Oliy sudi bevosita sud faoliyatini ham amalga oshirgan. Birinchi instansiyada u bitta Oliy sud a'zosi va ikki xalq maslahatchisi tarkibida o'ta muhim va murakkab ishlarni ko'rib chiqardi. Oliy sud hukmlari va hal qiluv qarorlari qat'iy va faqat respublika Oliy sudi plenumi tomonidan nazorat tartibida bekor qilinishi mumkin edi.

O'zSSR MIQ qarori bilan O'zSSR butun hududida (shu jumladan, Tojikiston ASSR) 1926-yil 1-iyuldan 1924-yil 31-oktabrda Sovet Ittifoqi MIQ qarori bilan qabul qilingan SSSR va sovet respublikalarining Jinoyat sudlov ishlarini yuritish Asoslariga moslashtirilgan birinchi O'zSSR JPK amalga kiritilgan edi. Shu kunning o'zidayoq O'zSSR Oliy sudini yuqori sud nazorat organi deb tan olgan O'zSSRda sud tuzilishi to'g'risidagi Nizom amalga kiritilgan edi.

1927-yilda okrug sudlari tugatilganligi sababli O'zbekistonda sud tizimi ikki bo'g'indan iborat edi: xalq sudlari va O'zSSR Oliy sudi, bu 1931-yilda qabul qilingan yangi O'zSSRda sud tuzilishi to'g'risidagi Nizomda aks ettirildi. Xorazmning markazdan uzoqligini hisobga olgan holda Xorazm okrugi tashkil etilib, Xorazm okrug sudi ta'sis etilgan edi. Keyin Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari tashkil etilib, ularda ham O'zSSR Oliy sudi rahbarlik qiladigan okrug sudlari ta'sis etildi.

Bunday tizim 1938-yil 15-avgustda «SSR ittifoqi, sovet respublikalari sudlari tuzilishi to'g'risida»gi Qonun qabul qilinguniga qadar amal qildi, u sud organlarini tashkil etishda bir qator tub o'zgartirishlar kiritdi, shu jumladan, sud boshqaruvi funksiyasini bo'linishi, nazorat instansiyalari sonining keskin kamayishi, sud nazorati tartibida protest bildirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasini aniqlab berdi, maxsus hay'at ta'sis etilishini nazarda tutgan va boshqalar.

1938-yildan boshlab, O'zSSR Oliy sudi respublikada qonuniy kuchga kirgan hukmlar, hal qiluv qarorlari va ajrimlarini qaytadan ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan yagona sud instansiyasi bo'ldi, O'zSSR Oliy sudida boshqa sovet respublikalari kabi rayosat va plenum tugatilgan edi. O'zSSR Oliy sudi sudlarga sud amaliyoti masalalari bo'yicha rahbariy tushuntirishlar va ko'rsatmalar berish huquqini yo'qotdi.

Qayd etish kerakki, O'zSSR Oliy sudi rayosati va plenumi faoliyati quyi sudlar xatolarini tuzatishda ham, rahbariy tushuntirishlar berishda ham juda katta ahamiyatga ega edi. Shuning uchun sovet respublikalarining Oliy sudlari rayosati va plenumlarining tugatilishi noto'g'ri edi.

Sud nazoratini amalga oshirishda respublika sud organlarini rolini kuchaytirish maqsadida 1954-yil 14-avgustda SSSR Oliy Kengashi rayosatining «Ittifoqdosh va avtonom respublikalar Oliy sudi, o'lka, viloyat sudlari va avtonom viloyat sudlar tarkibida rayosatlarni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni chiqarilgan, uning asosida O'zSSR Oliy sudida ishlarni sud tartibida ko'rib chiqish funksiyasi bilan rayosat tashkil etilgan edi.

1959-yil 23-martdagi O'zSSR Oliy Kengashining Farmoni bilan O'zSSR Adliya vazirligi tugatildi va uning sudlar ustidan nazorat qilish va sud organlarini boshqarish funksiyalari O'zSSR Oliy sudiga berilgan edi. O'sha yilning o'zida O'zSSR Oliy Kengashi tomonidan yangi O'zSSR Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslari (1960-yil 1-yanvardan kuchga kirgan), shuningdek, O'zSSR sud tuzilishi to'g'risidagi Qonun qabul qilingan va amalga kiritilgan.

O'zSSR sud tuzilishi to'g'risidagi Qonun, Fuqarolik va Fuqarolik protsessual kodekslar 1963-yilda qabul qilinib, 1964-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan.

1959-yildagi O'zSSR sud tuzilishi to'g'risidagi Qonunga ko'ra, plenum qayta tiklangan, u respublika sudlariga respublika qonunchiligini qo'llash to'g'risida rahbariy tushuntirishlar berish huquqiga va respublikaning barcha sudlarining qonuniy kuchga kir-

gan hal qiluv qarorlari, hukmlari va qarorlari ustidan bildirilgan protestlar bo'yicha ishlarni ko'rish huquqiga ega edi.

1965-yilda O'zSSR Oliy sudi apparati rahbariyat, plenum, rayosat, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atlari, sud amaliyoti va statistikasini umumlashtirish bo'limi, sud organlari bo'limi, qonunchilikni tizimlashtirish bo'limi, notariat bo'yicha bo'lim, shikoyatlar bo'limi, kadrlar bo'limi, moliyaviy-xo'jalik bo'limidan iborat bo'lgan. Bundan tashqari, zarur holda intizomiy hay'at ham tashkil etilgan.

O'zSSR Oliy Kengashi rayosatining 1970-yil 1-oktabrdagi Farmoni bilan O'zSSR ittifoq-respublika Adliya vazirligi tashkil etilgan, shu munosabat bilan respublika sudlariga tashkiliy rahbarlik qilish funksiyalari Oliy suddan O'zSSR Adliya vazirligiga berildi. O'shanda O'zSSR Oliy sudi apparatining quyidagi tuzilishi tasdiqlangan edi: rahbariyat, jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, qonunchilikni kodifikatsiyalashtirish va tizimlashtirish bo'limi, shikoyatlar bo'limi, maxfiy qism (bo'lim huquqlari doirasida), devonxona (bo'lim huquqlari doirasida), ma'muriy-xo'jalik bo'lim. 1973-yilda O'zSSR Oliy Kengashi rayosati qarori bilan O'zSSR Oliy sudi apparati tuzilishi sud amaliyoti va statistikasi bo'limi bilan to'ldirdi, shu munosabat bilan O'zSSR Oliy sudining yangi shtat jadvali tasdiqlangan edi.

1981-yilda O'zSSR Oliy Kengashi tomonidan O'zSSR sud tuzilishi to'g'risidagi Qonuni yangi tahrirda qabul qilingan edi. Ushbu Qonunning V bobi O'zSSR Oliy sudi deb nomlangan edi, 50—66-moddalari O'zSSR Oliy sudi faoliyatini tartibga solib, uning vakolatlarini belgilagan edi. Qonunda O'zSSR Oliy sudi O'zSSR sud tizimi ustidan nazoratni amalga oshirishi ko'rsatilgan edi. Oliy sud O'zSSR Oliy Kengashi tomonidan rais, uning o'rinbosarlari, O'zSSR Oliy sudi a'zolari, xalq maslahatchilari tarkibida besh yil muddatga saylanar edi. O'zSSR Oliy sudi o'z faoliyati haqida O'zSSR Oliy Kengashiga hisobot berar edi va muntazam u haqida O'zSSR Oliy Kengashi rayosatiga hisob berar edi. O'zSSR Oliy sudi plenum, rayosat, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tarkibida faoliyat ko'rsatar edi.

Ushbu qonunning 77-moddasida odil sudlovni amalga oshirish borsida sudlar ishlarini ta'minlash, sud amaliyoti va sudlardagi boshqa faoliyatlarni umumlashtirish maqsadida O'zSSR sud devonlari amal qilishi ko'rsatilgan.

Sud amaliyotini o'rganish, umumlashtirish va sud statistikasini tahlil etish, qonunchilikni tizimlashtirish va targ'ib etish, shuningdek, O'zSSR Oliy sudi faoliyati bilan bog'liq boshqa funksiyalarni bajarish maqsadida bo'lim va boshqa tarkibiy bo'linmalar tashkil etilar edi<sup>1</sup>.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

1992-yil 3-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibida Harbiy hay'at tashkil etildi. Uning zimmasiga o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni birinchi instansiya bo'yicha, shuningdek, kassatsiya va nazorat tartibida ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari yuklatildi. 1993-yil 2-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori bilan «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi.

O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida (1993-yil 2-sentabr) O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Qonunning ikkinchi bo'limi «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi» deb nomlangan; 12—26-moddalari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyatini umumlashtiradi va uning vakolatlarini belgilaydi. Ushbu Qonun bo'yicha Oliy sud ishlarni birinchi instansiyada, shuningdek, apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'radi.

Oliy sud sudlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tushuntirishlariga rioya qilishlari ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Bugungi kunda Oliy sud faoliyati «Sudlar tug'risida»gi Qonunning 2000-yil 14-dekabdagi yangi tahriri bilan tartibga solinadi.

## **7.6. Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning huzurida 2008-yil 23-iyunda Prezident qarori bilan tadqiqot markazi tashkil etilganligidir. Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi

---

<sup>1</sup> *Qarang: K.P. Иркаходжаев. Организация и деятельность Верховного суда УзССР. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Т., 1965, стр. 19; Верховный суд Республики Узбекистан. Т., «O'zbekiston», 1994, стр. 200.*



mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi (bundan buyon — Markaz) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi mustaqil axborot-tahlil va maslahat muassasasi hisoblanadi.

Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga hisobot beradi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari va boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va rayosati qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi buyruqlari, shuningdek, uning Nizomiga rioya qiladi<sup>1</sup>.

Markaz sud-huquq sohasida huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bo'linmalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi va Adliya vazirligi, davlat organlari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Markaz oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish lozim:

1) sud faoliyatini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining sud tizimi vazifalarini belgilab beruvchi qoidalari ro'yobga chiqarilishi samaradorligi masalalari bo'yicha professional asosda maxsus Markaz tomonidan qonunchilik bazasini tahlil qilish va umumlashtirish sud tizimi vazifalarini aniqlashtirishni, odil sudlovni amalga oshirishning qonunchilik bazasini takomillashtirishni, inson huquqlari va manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, odil sudlov samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

2) huquqni qo'llash va sud amaliyotini o'rganish hamda umumlashtirish huquqni qo'llash va sud amaliyotida yo'l qo'yiladigan xatolarning sabab va sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Eng muhimi, sud xatolarining sabablarini bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan choralar ishlab chiqishga ko'maklashadi. Shu orqali odil sudlovni ta'minlash va sudlov ishlarini yuritishda qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadlariga etishiladi;

---

<sup>1</sup> *Qarang:* «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi PQ-896-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

3) ma'lumki, sud-huquq islohoti natijasida jinoiy jazolar tizimida jiddiy liberallashtirish amalga oshirildi. Xususan, jazo tizimidan musodara va o'lim jazosi kabi jazo turlari olib tashlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan Markaz oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishi jinoiy jazo tizimining yanada liberallashtirilishini ta'minlaydi, shuningdek, jinoiy jazolar tizimida yanada insonparvar jazolarning kiritilishiga va Jinoyat kodeksining alohida normalarini ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazish yo'li bilan dekriminallashtirishga imkon berishi mumkin.

Jinoiy va ma'muriy jazolarning keyingi liberallashtirilishi odillik, insonparvarlik va inson qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Sud, jinoyat protsessual, fuqarolik protsessual, xo'jalik protsessual qonunchiligi va sudlov ishlarini yuritishni demokratizatsiyalashtirish sud orqali himoyaning yanada hammabopligini, sudlarda ishlarni ko'rib chiqishning protsessual tartibini takomillashtirishni, sudlov ishlarini yuritishning tezkorligini, sud qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligini ta'minlaydi;

4) odil sudlov tizimini yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining obro'sini oshirish va mustaqilligini mustahkamlash, sud faoliyatiga aralashish hollariga barham berish bo'yicha takliflar tayyorlash va ularni ro'yobga chiqarish nafaqat sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlaydi, ko'rsatilgan harakatlarning amalga oshirilishi odil sudlovni hammabopligini, sud faoliyatiga hech qanday aralashuvsiz ishlarni faqat qonun asosida hal qilishni ta'minlaydi;

5) g'ayriqonuniy sud qarorlari chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha takliflar tayyorlash va ularni tegishli tarzda ro'yobga chiqarish odil sudlovning eng muhim masalasini — ishlarni qonun va odillik asosida hal etishni — yechishga imkon beradi;

6) sud faoliyati sohasida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalarini chuqur o'rganish hamda milliy qonunchilikka tatbiq etish, odil sudlovni amalga oshirish sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish dasturlarini shakllantirish va ro'yobga chiqarish sudlov ishlarini yuritishga inson, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va manfaatlarini sud orqali himoya qilish borasidagi xalqaro standartlarni kiritishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, odil sudlov samaradorligini yangi bosqichga ko'taradi;

7) sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud mustaqilligini ta'minlash prinsiplariga bag'ishlangan

konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarni o'tkazish, nafaqat, mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan bo'ladi. Aytilgan tadbirlarni o'tkazilishi sudyalari, shuningdek, huquqni himoya qiluvchi organlar xodimlarining huquqiy madaniyati va kasbiy malakasini oshirishga ko'maklashadi. Shubhasiz, bu tadbirlar huquqiy ma'rifat, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish maqsadlarida aholining keng qatlamlarini o'ziga jalb qiladi.

Markazga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi tomonidan tasdiqlanadigan direktor amalga oshiradi. Markaz direktori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan tayinlanadigan va vazifasidan ozod etiladigan o'rinbosariga ega. Direktor o'rinbosari unga topshirilgan vazifalar uchun javobgar bo'ladi, direktor yo'qligida esa uning zimmasiga yuklangan vazifalarni bajaradi.

Markaz uning oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etilishini ta'minlaydigan bo'limlar, boshqa bo'linmalardan iborat. Markazning tugatilishi yoki qayta tashkil etilishi (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori asosida amalga oshiriladi. Markaz qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda ishdan bo'shatiluvchi xodimlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida ularning huquq va manfaatlariga rioya etilish kafolatlanadi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Ushbu mavzuni o'rganish talabalarida O'zbekiston Respublikasi sud tizimida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining o'rni va roli haqida tasavvur shakllanishiga yordam beradi; ushbu sudning tarkibi va tuzilishini anglash, shuningdek, uning vakolatlari masalalarini ko'rib chiqish imkonini beradi.*



### NAZORAT SAVOLLARI

---

1. Sud tizimida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining o'rni.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qanday vakolatlarga ega?
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibi va tuzilishini bayon eting.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi vakolatlarini sanab o'ting.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati qanday vakolatlarga ega?
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi vakolatlarini sanab o'ting.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida ish qanday tashkil etilgan?  
Sud apparati qanday rolga ega?

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi shakllanishining asosiy bosqichlarini ayting.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibiga kimlar kiradi?
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi qanday vazifalarga ega?
11. Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazining vazifa va funksiyalarini bayon eting.

### *MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR*

1. Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi faoliyatining tashkiliy asoslari masalalarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi vakolatlarini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari ahamiyatini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.

### **Axborot uslubiy ta'minot**

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

2. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

### **Huquqiy manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari. Inson huquqlarini himoya qilish va jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar. Xalqaro hujjatlar to'plami. Tuz. Y.S. Po'latov. T., «SHARQ», 1995.

3. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi 924-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi 162-II sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 20-iyuldagi «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Harbiy sudlar faoliyatini

tashkil etish to'g'risidagi nizomga, Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-103-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 29—30, 296-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3023-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2002, № 3—4.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-896-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2001, № 18.

8. «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi PQ-896-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

9. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi PF-3725-sonli Farmoniga 3-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 12—13, 101-modda.

10. «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 7-dekabrda 323-II sonli qarori bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

11. «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi 147-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining 1996-yil 20-dekabrda «Sud hokimiyati to'g'risida»gi 1-60-qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining 2006-yil 22-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining «Sud hokimiyati to'g'risida»gi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 14/151-qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi axborotnomasi. T., 2007, № 2.

14. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 2 jildda. T., «O'qituvchi», 2007.

## Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxo'jayev.* «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.
2. *J.H. Abdurahmonxo'jayev.* Inson huquqlarini himoya qilishda — xalqaro va milliy qonunchilik normalarining amal qilishi. Risola. T., TDYI, 2008.
3. *J.H. Abdurahmonxo'jayev.* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Risola. T., TDYI, 2010.
4. *К.П. Иркаходжаев.* Организация и деятельность Верховного суда УзССР. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юр. наук. Т., 1965.
5. *М.Н. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva.* Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.
6. 10. *Б.А. Саидов, Д. Миразов.* Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебное пособие. Т., Академия МВД, 2004.

## 8-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XO'JALIK SUDLARI

### O'quv maqsadlari

*Ushbu mavzuni o'rganish talabalarni xo'jalik sudlari tizimi faoliyatining institutsional-huquqiy asoslari bilan tanishtirish, shuningdek, xo'jalik sudlari vazifalari va vakolatlarini ko'rib chiqishga qaratilgan.*

### 8.1. Xo'jalik sudlari vazifalari va ularning O'zbekiston Respublikasi sud tizimidagi o'rni

**Xo'jalik sudlarining tashkil etilishi va ularning vazifalari.** O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi, turli xil mulk shakllarini rivojlanishi, umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari ustuvorligini tan olinishi iqtisodiy nizolarni hal etadigan mustaqil organ — *xo'jalik sudini* tashkil etish zaruratini vujudga keltirdi.

Ilgari O'zbekistonda iqtisodiy nizolar sud tomonidan emas, ijro etuvchi hokimiyatning maxsus organi — sobiq Ittifoq yagona Davlat arbitraj tizimiga kiruvchi Davlat arbitraj tomonidan ko'rib chiqilardi. Ko'p hollarda ishlarni hal etishda davlat arbitraj qonuniylik prinsipiga emas, maqsadga muvofiqlik, maqbullik prinsipiga amal qilardi, bu esa tabiiyki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va manfaatlarini ta'minlay olmasdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, turli xil mulk shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlarning, shuningdek, tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini amalda ta'minlash zarurati dastlab arbitraj sudlarini, keyin esa xo'jalik sudlarini tashkil etish zaruratini belgilab berdi. Xo'jalik sudlarining tashkil etilishi aslida sudlarning ixtisoslashuvida birinchi qadam bo'ldi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 111-moddasiga asosan, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish O'zbekis-

ton Respublikasi Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilingach, yangi mulk shakllarining rivojlanishi, umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari ustuvorligini tan olinishi iqtisodiy nizolarni hal etadigan organ faoliyatining shakl va uslublariga yangicha yondashuvni belgilab berdi.

1991-yil 20-noyabrda «Arbitraj sud va xo'jalik nizolarini hal etish tartibi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun O'zbekistonda sud islohotlarini boshlab berdi va unda arbitraj sudlarning vazifalari, maqomi, faoliyati bilan bog'liq masalalarni yoritish bilan bir qatorda, xo'jalik nizolarini hal etish tartibi ham aks ettirilgan. Qonunning 1-moddasi arbitraj sudini sud hokimiyati organi sifatida ta'riflagan. Keyin, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi sud tizimini belgilab bergan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ushbu tizimda xo'jalik sudlarini ham nazarda tutdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy arbitraj sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar arbitraj sudlari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar xo'jalik sudlariga o'zgartirildi.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan Xo'jalik protsessual kodeksi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish tartibini belgilaydigan birinchi mustaqil kodifikatsiyalangan qonun hujjati bo'ldi.

1997-yil 30-avgustda yangi O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi qabul qilindi. Yangi kodeksning qabul qilinishi olib borilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar, xususiyl mulk institutining, tadbirkorlikning shakllanishi, yangi iqtisodiy munosabatlarni paydo bo'lishi bilan belgilangan edi. 1993-yildagi XPK ishlarni sudda ko'rib chiqish, sud muhokamasi tartibi, prokuror ishtiroki va boshqa masalalarni yetarli darajada tartibga solmagan edi. Unda sud majlisida bayonnoma yuritilishi nazarda tutilmagan edi.

1997-yildagi XPK, nafaqat, ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etdi, balki xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal etishning protsessual tartib-tamoyillari takomillashtirildi va rivojlantirildi. Chunonchi, xo'jalik sudlov ishlarini yuritishda sud buyrug'i, ishlarni apellatsiya va kassatsiya ko'rib chiqish tartibi kabi pro-



gressiv institutlar paydo bo'ldi. Yangi XPK qabul qilinishi xo'jalik yurituvchi subyektlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning sud kafolatlarini oshirish imkoniyatini berdi.

Xo'jalik sudi odil sudlov organi bo'lib, iqtisodiyot sohasida vujudga keladigan va qonun bilan o'zining vakolatiga kiritilgan nizolar hamda boshqa ishlarni hal qilish yo'li bilan o'z vakolatlarini amalga oshiradi. *Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:*

- iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

- iqtisodiyot sohasida qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish.

Xo'jalik sudida ish yuritishning asosiy vazifalaridan biri tadbirkorlik yoki boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Tadbirkorlik yoki boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslarga, birinchi navbatda, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda tadbirkor maqomiga ega bo'lgan fuqarolar kiradi.

Xo'jalik sudlari qonun hujjatlari normalarini to'g'ri va bir xilda qo'llash orqali fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarini himoya qilib, iqtisodiy munosabatlarda qonunchilikni mustahkamlashga imkon beradi.

Xo'jalik sudlov ishlarini yuritish iqtisodiyot sohasida huquqbuzarliklarning oldini olishga da'vat etilgan. Ushbu vazifa qonun va sudga nisbatan izzat-hurmat munosabatlarini shakllantirish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Qonun va sudga nisbatan izzat-hurmat munosabatlarini shakllantirishning asosiy sharti belgilangan muddatlarda va protsessual va moddiy huquq normalariga qat'iy rioya qilgan holda ishlarni xolis ochiq ko'rilishidir.

Xo'jalik protsessual kodeksining 23-moddasiga binoan, xo'jalik sudiga quyidagi ishlar taalluqlidir:

- iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar, yuridik shaxs hisoblanmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tarzda olgan fuqarolar o'rtasidagi fuqaroviy, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga doir ishlar;

• iqtisodiyot sohasida tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar;

• tashkilotlar va fuqarolarning bankrotligi to'g'risidagi ishlar.

Qonun bilan xo'jalik sudiga taalluqli ishlar jumlasiga boshqa ishlar ham kiritilishi mumkin.

Xo'jalik sudlarining sobiq davlat arbitrajidan farqi shundaki, davlat arbitraji, birinchi navbatda, davlat manfaatlarini himoya qilgan. Davlat arbitraji faoliyati ishlab chiqarish vositalariga faqat ikki mulk shaklini, ya'ni davlat va kolxoz-kooperativ mulkni tan olgan oldingi iqtisodiyot xarakteridan kelib chiqardi. Turli mulk shakllarini konstitutsiyaviy tan olish va mulkdorlarning teng huquqlari sharoitida ular o'rtasidagi xo'jalik nizosi faqat iqtisod qaramog'ida bo'lgan mahalliy hokimiyatdan mustaqil sud hal etishi mumkin. Xo'jalik sudlari aynan shunday sudlar bo'ldi.

Xo'jalik nizolarini ko'rib chiqishdagi ishga yondashuv va mazmuni sifati ham o'zgardi, prinsipial yangilandi.

#### **O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari tizimi:**

- *asosiy bo'g'in* — Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari;
- *oliy bo'g'in* — O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi.

**Xo'jalik sudlari tizimi.** Xo'jalik sudlarining tuzilishi va faoliyatining asosiy prinsiplari ham O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida belgilangan.

Xo'jalik sudlarining tizimi va faoliyati tartibi umumiy yurisdiksiya sudlari tizimidan, ularning vakolatidan farq qiladi. Umumiy yurisdiksiya sudidan farqli ravishda xo'jalik sudlari tizimi ikki bo'g'indan iborat. Unda tuman bo'g'ini yo'q, asosiy bo'g'in vazifasini viloyat va ularga tenglashtirilgan xo'jalik sudlari bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib boruvchi xo'jalik sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Xo'jalik sudi o'ziga taalluqli ishlarni, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga

oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari va fuqarolari, shuningdek, chet el tashkilotlari, chet el investitsiyalari ishtirokidagi tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokida ko'radi.

O'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilar xo'jalik sudiga, boshqalari esa umumiy yurisdiksiya sudiga taalluqli bo'lgan bir necha talab birlashtirilgan taqdirda, hamma talablar umumiy yurisdiksiya sudida ko'rilishi kerakligini nazarda tutish lozim. Xo'jalik sudlari mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, jahon hamjamiyatiga integrallashuv va xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahsulot va xizmatlarning jahon bozoriga chiqishi sharoitida sud hokimiyatini amalga oshirib, iqtisodiy munosabatlarda qonunchilikni mustahkamlashga qaratilgan ahamiyatli ishni amalga oshiradi.

Chet el yuridik shaxslari ishtirokida ko'riladigan ishlar ham kam emas. Chet el tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi chet el fuqarolari o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni so'rab, xo'jalik sudlariga murojaat qilish huquqini keng qo'llaydi. Bunday holat demokratik, insonparvar xo'jalik qonunchiligi tufayli mumkin bo'ldi, unga ko'ra, chet el fuqarolari O'zbekiston tashkilotlari va fuqarolari bilan teng ravishda protsessual huquqlardan foydalanadi va protsessual majburiyatlarga egadir.

Respublika qonunchiligi nizolarni hal etish tartibida investitsion jarayon ishtirokchilari tanlash erkinligini cheklaydigan hech qanday shartlarni o'z ichiga olmagan, aksincha, chet ellik investorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bir qator kafolatlarni nazarda tutadi. Bu O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 5-maydagi «Xorijiy investitsiyalar va chet ellik investorlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan edi va O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonunida o'z rivojini topdi, ushbu qonunga ko'ra, chet ellik investorlarga O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlarida yoki chet el davlati arbitraj organlarida nizolarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi.

Xo'jalik sudlarining shakllanishi va rivojlanishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bosqichlari bilan bevosita bog'liq iqtisodiyotni liberallashtirishning hozirgi bosqichida xo'jalik sudlari nizolarni ko'rib chiqib, kichik va o'rta biznes

subyektlari, dehqon va fermer xo'jaliklari, xususiy tadbirkorlar huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatleri himoyasini amalga oshiradi.

Shartnoma intizomini mustahkamlashga qaratilgan olib borilgan chora-tadbirlar tufayli xalq xo'jaligining barcha sohalarida shartnoma majburiyatlari buzilishidan kelib chiqadigan nizolar umumiy sonining qisqarishi ko'zga tashlanmoqda. Tadbirkorlarning soliq munosabatlari, qimmatli qog'ozlar, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hujjatlarini haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq bo'lgan arizalar soni ko'paydi.

Respublika xo'jalik sudlarining alohida e'tibori tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvidan himoya qilishga qaratilgan.

Bayon etilganlardan mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'zining sud hokimiyati shakllanganligi haqida xulosa chiqarsa bo'ladi. Amaliyot ko'rsatganidek, ushbu tizim odil sudlovni amalga oshirish manfaatlariga to'la javob beradi, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatleri himoyasining ishonchli kafolati bo'la oladi.

Xususiy mulk va tadbirkorlikni himoya qilish — davr talabi. Bozor munosabatlari mustahkamlanish sharoitlarida davlat xususiy mulk va tadbirkorlikka nisbatan alohida e'tibor qaratishi lozim. Jamiyatda mulkka hurmat va unga daxlsizlik sharoiti yaratilishi kerak. Xususiy mulk huquqi mutlaq huquq hisoblanadi. Bu esa mulkdor o'z mulkining yagona sohibi ekanligini anglatadi. Va shu asnoda xususiy mulk sohasidagi har qanday asossiz tahdid axloqqa zid va jinoiy sanalishi, xuddi jamiyat birovning uyiga kirgan o'g'rining harakatlarini baholagani kabi tan olinishi kerak.

## **8.2. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi: shakllanish tartibi, tarkibi, tuzilishi va vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 43-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi.

Oliy xo'jalik sudi:

- respublika boshqaruv organlari, mahalliy vakillik organlari va ijroiya hokimiyati o'rtasidagi iqtisodiy bitimlardan kelib chiqadigan nizolar;

- hokimiyat oliy organlarining normativ xarakterga ega bo'lmagan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Oliy xo'jalik sudi alohida holatlarni e'tiborga olgan holda har qanday ishni istalgan xo'jalik sudidan olib qo'yish va uni birinchi instansiya bo'yicha o'zining ish yuritishiga qabul qilishga, ishni bir xo'jalik sudidan boshqasiga o'tkazishga haqli (XPKning 26-moddasi).

**Oliy xo'jalik sudi tarkibi.** O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tarkibiga rais, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, sudlov hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari kiradi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi; O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosati; Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati; ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati tarkibida ish olib boradi.

#### ● Yodda saqlang! ●

*O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi quyidagi tarkibda ish olib boradi:*

- plenum;
- rayosat;
- Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati;
- ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo'lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan besh yillik muddatga saylanadi.

**Oliy xo‘jalik sudi raisi vakolatlari.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi faoliyatiga rahbarlikni uning raisi amalga oshiradi, shuningdek, u quyidagi vakolatlarga ega:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi;
- xo‘jalik sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadi;
- sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;
- xo‘jalik sudlari tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar ijrosini qonunda nazarda tutilgan tartibda to‘xtatib turadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumining tushuntirishlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ishini tashkil etadi;
- ishni bir xo‘jalik sudidan boshqa xo‘jalik sudiga olib berish masalasini hal qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumi va rayosatini chaqiradi hamda ularning majlislarida raislik qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumi va rayosati muhokamasiga qonunga binoan, ularning vakolatiga taalluqli bo‘lgan masalalarni kiritadi;
- zarur hollarda bir hay‘at tarkibiga kiruvchi sudyalarni boshqa hay‘at tarkibida ish ko‘rishga jalb etadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumining tushuntirishlari qonun hujjatlariga muvofiq emasligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumiga taqdimnomalar kiritadi;
- qonunlarni sharhlab berishni talab etuvchi masalalar yuzasidan va normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emasligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga taqdimnomalar kiritadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi rayosati tarkibi, sudlov hay‘atlarining tarkibi va raislari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumiga taqdimnomalar kiritadi;
- xo‘jalik sudlari sudyalarining malaka hay‘ati tarkibi va raisi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudlari sudyalarining konferensiyasiga taqdimnomalar kiritadi;
- O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudlari sudyalarining intizomiy javobgarligi haqida ish qo‘zg‘atadi;
- rais o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

- buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;
- fuqarolarni, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil etadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi yo'qligida uning vakolatlarini raisning birinchi o'rinbosari, birinchi o'rinbosar ham yo'qligida esa, rais o'rinbosarlaridan biri amalga oshiradi.

**Oliy xo'jalik sudi raisi o'rinbosarlari.** Rais o'rinbosarlari vazifalar taqsimotiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining tarkibiy bo'linmalari ishiga rahbarlik qiladi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tegishli sudlov hay'atlarining tashkiliy ishiga rahbarlik qiladi, sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi, xo'jalik sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadi.

Shuningdek, rais o'rinbosarlari xo'jalik sudlari tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar ijrosini qonunda belgilangan tartibda to'xtatib turish, fuqarolarni hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qilish huquqiga ega.

Ular sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish hamda sudyalor va sudning boshqa xodimlari malakasini oshirish ishini tashkil etadi.

**Sudlov hay'atlari.** O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining asosiy protsessual vakolatini amalga oshirish — ishlarni mazmunan ko'rib chiqish — sudlov hay'atlarida bo'lib o'tadi. Ular:

- ishlarni birinchi instansiya va kassatsiya tartibida ko'radi;
- sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi;
- qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab

chiqadi;

- sud statistikasini tahlil qiladi;
- qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Sudlov hay'atlari O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalaridan tashkil topadi va ushbu sud raisi taqdimnomasiga asosan, plenum tomonidan tasdiqlanadi. Ularga O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining o'rinbosarlari bo'lmish sudlov hay'atining raislari rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi *sudlov hay'ati raislari*:

- sudlov hay'atlari ishini tashkil etadi va ularning majlislarida raislik qiladi;

- sudlov hay'atlarining faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatiga, shuningdek, plenumiga ma'ruzalar taqdim etadi;

- sud amaliyotini umumlashtirish uchun sud ishlarini talab qilib oladi;

- sudyalari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Zarur hollarda sud raisi bir sudlov hay'atining sudyalari boshqa sudlov hay'atidagi ishlarni ko'rishga jalb qilinishi mumkin.

**Oliy xo'jalik sudi rayosati.** O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining asosiy vakolati ishlarni nazorat tartibida ko'rib chiqish hisoblanadi. Bundan tashqari, rayosat:

- sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari raislarining qonun hujjatlarini qo'llash to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi;

- xo'jalik sudlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining sudlov hay'atlari va devoni ishini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosati O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi belgilaydigan miqdorda tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining tarkibiga lavozim bo'yicha kiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 50-moddasi). O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining majlisida bayonnoma yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining qarori va bayonnoma raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi.** Barcha xo'jalik sudlari faoliyatining o'ta muhim masalalari O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi tomonidan hal etiladi.

Qonun normalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi raisidan iborat tarkibda ish olib boradi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy sudi raisi, Adliya vaziri, sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda plenum vakolatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi:

- sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomalariga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining tarkibini, sudlov hay'atlarining tarkibini va raislarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining kotibini tasdiqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining ishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudlov hay'atlari faoliyati haqidagi ma'ruzalarni tinglaydi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari raislarining qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlarini bajarish to'g'risidagi ma'ruzalarni tinglaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi matbuot organi-ning tahrir hay'ati tarkibini tasdiqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi va rayosati reglamentini tasdiqlaydi;

- qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Uning vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi barcha xo'jalik

sudlari uchun, shuningdek, tushuntirish berilgan qonunchilikni qoʻllaydigan boshqa organlar, korxonalar, muassasa, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

Plenum uning majlislarida raislik qiluvchi sud raisi tomonidan chaqiriladi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi plenumi aʼzolarining koʻpchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi va qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi plenumi majlislarida bayonnoma yuritiladi, u Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi raisi va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi plenumining kotibi tomonidan imzolanaadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi *plenumining kotibi* Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi sudyasi vazifasini bajarish bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi plenumining majlisini tayyorlashga, majlis bayonnomasini yuritishga doir ishni tashkiliy jihatdan taʼminlaydi va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi plenumi qabul qilgan qarorlarning ijrosi uchun zarur boʻlgan harakatlarni amalga oshiradi.

Qonun hujjatlarini qoʻllash amaliyoti shakllanishi va uni takomillashtirish boʻyicha takliflarni ishlab chiqish bilan bogʻliq boʻlgan masalalar boʻyicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi huzurida *Ilmiy-maslahat kengashi* tashkil etiladi. Uning tarkibi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi raisi taqdimnomasiga asosan, ushbu sud plenumi tomonidan koʻrib chiqiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi devoni tuzilishining oʻziga xos xususiyati unda ushbu sudning muhim funksiyalaridan biri boʻlmish — xoʻjalik sudlari faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik taʼminlash funksiyasini amalga oshirishga daʼvat etilgan boʻlinmalar tashkil etilishidadir.

### **8.3. Qoraqalpogʻiston Respublikasi xoʻjalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xoʻjalik sudlari**

Oʻzbekiston Respublikasi xoʻjalik sudlari tizimi uning milliy davlat va maʼmuriy-hududiy tuzilishi bilan bogʻliq. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi xoʻjalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xoʻjalik sudlari.

«Sudlar to'g'risida»gi Qonun tuman darajasida xo'jalik sudlarining tashkil etilishini nazarda tutmaydi. Shuning uchun asosiy bo'g'in xo'jalik sudlari sifatida viloyatlar, Toshkent shahar xo'jalik sudlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi qaraladi. Bundan asosiy bo'g'indagi xo'jalik sudida ish yuritish markaziy o'rin egallashi kelib chiqadi, chunki ayni shu yerda birinchi navbatda xo'jalik sudlov ishlarini yuritish oldiga qonun bilan qo'yilgan vazifalar amalga oshiriladi.

Xo'jalik sudlarida birinchi instansiya bo'yicha ishlar sudyaning yakka o'zi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudida esa uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko'riladi. Sud raisining qarori bilan har qanday ish hay'atda ko'rilishi mumkin.

Apellatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyalarida barcha ishlar xo'jalik sudi tomonidan hay'atda ko'riladi. Ish hay'atda ko'rilayotganda sudning tarkibi uch yoki undan ortiq toq sonli sudyadan iborat bo'lishi kerak.

Xo'jalik sudida nizolarni hal qilish korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mulkchilik shaklidan, qayerda joylashganligi, kimga bo'ysunishidan va boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi. Xo'jalik sudlarida ishlar oshkora ko'riladi, davlat sirini yoki tijorat sirini saqlash zarur bo'lgan hollar bundan mustasno.

Xo'jalik sudida sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchilarining tarjimon yordamida ishga taalluqli materiallar bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish hamda o'z ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi korxonalar, muassasa va tashkilotlari hamda boshqa davlatlarning korxonalar, muassasa va tashkilotlari o'rtasidagi xo'jalik nizolari sudning ajrimiga binoan, taraflar uchun maqbul tilda olib boriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudi:

- ishlarni o'z vakolatlari doirasida birinchi instansiya sudi sifatida va apellatsiya tartibida ko'radi;
- sud amaliyotini umumlashtiradi;
- qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Sanab o'tilgan vakolatlar ichida ishlarni apellatsiya tartibida ko'rib chiqish alohida ahamiyatga sazovor, chunki bunday ko'rib

chiqish ushbu bosqichdagi xo'jalik sudlari qarorlarining qonuniyligi va asosligini ta'minlashning muhim vositasi bo'lib qolishi kerak. Uning mohiyati shundaki, ishda ishtirok etuvchi shaxslar apellatsiya shikoyatini berishlari mumkin hamda unda qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va ish materiallariga tayangan holda chiqarilgan hal qiluv qarorining noto'g'riligini asoslaydilar va ishni qaytadan ko'rib chiqishni talab qilishadi.

**Asosiy bo'g'in xo'jalik sudi raisi.** Asosiy bo'g'in xo'jalik sudi faoliyatini tashkil etish uning raisi zimmasiga yuklatiladi. Undan tashqari ishni tashkil etishda rais o'rinbosarlari ham ishtirok etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudi raisi:

- sud faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- sudlov hay'atlari majlislarida raislik qilishi mumkin;
- zarur hollarda bir hay'at tarkibiga kiruvchi sudyalarni boshqa hay'at tarkibida ish ko'rishga jalb etadi;
- rais o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- sudyalar o'rtasida ishlarni taqsimlaydi;
- sudyalar va sudning boshqa xodimlari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;
- sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishini tashkil etadi;
- fuqarolarni, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil etadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 58-moddasi).

Ushbu bo'g'in **xo'jalik sudi raisi o'rinbosarlari** sudyalar bo'ladi va barcha protsessual vakolatlarni, sud raisining yo'qligida esa uning vakolatlarini ham amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudi raisining o'rinbosari:

- vazifalar taqsimotiga muvofiq, sud ishiga rahbarlik qiladi;
- tegishli sudlov hay'atlari ishini tashkil etadi;
- fuqarolarni hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qiladi;
- sud raisi yo'qligida uning vakolatlarini amalga oshiradi;
- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat, Toshkent shahar xo'jalik sudi raisining o'rinbosari yo'qligida uning vako-

latlari xo'jalik sudlari sudyalarining malaka hay'ati qarori bilan sudyalardan biri zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Xo'jalik sudlar faoliyatini yaxshilash maqsadida ularda doimo sud amaliyotini umumlashtirish amalga oshiriladi. Bunday umumlashtirish natijalari bo'yicha qonunchilikni o'rganish, xodimlar malakasini oshirish, shuningdek, amaldagi qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi takliflar tayyorlash bo'yicha ish tashkil qilinadi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Xo'jalik sudlari faoliyatining institutsional-huquqiy asoslari haqidagi bilimlar va xo'jalik sudlari faoliyatini bevosita tartibga soladigan qoidalarga tayangan holda talabalar ularning O'zbekiston Respublikasi sud tizimidagi o'rni, xo'jalik sudlari tarkibi va ularning vakolatlari haqida yorqin tasavvur shakllantirishlari lozim. Talabalarning alohida e'tiborini xo'jalik sudlari sud tizimining xususiyatlari va turli xil instan-siyalarda ishlarni ko'rib chiqish tartibiga qaratish lozim.*



### NAZORAT SAVOLLARI

1. Xo'jalik sudlari sud va huquqni himoya qiluvchi organlar tizimida qanday rolga ega?
2. Xo'jalik sudlari qanday funksiyalarni bajaradi?
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi qanday vakolat-larga ega?
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi qanday vazifalarni bajaradi?
5. Oliy xo'jalik sudi tarkibi qanday shakllanadi?
6. Oliy xo'jalik sudi qanday tuzilishga ega?
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining vakolatlarini sanab o'ting.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosati qanday vako-latlarga ega?
9. Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari tuzilishi va vakolatlariga tavsif bering.

### MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Chet el davlatlari xo'jalik sudlarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
2. Xo'jalik sudlarining O'zbekiston Respublikasi sud tizimidagi roli va o'rni. Ish shakli — *referat*.
3. Xo'jalik sudlari faoliyatining moddiy-texnik va tashkiliy ta'minlash xususiyatlarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.

## Axborot uslubiy ta'minot

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

2. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

## Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi 924-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda 162-II sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 25-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari tarkibini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-1501-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlarini moddiy-texnik ta'minlashni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 298-sonli qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining 1996-yil 20-dekabrda «Sud hokimiyati to'g'risida»gi 1-60-qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining 2006-yil 22-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo'jalik sudi plenumining «Sud hokimiyati to'g'risida»gi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 14/151-qarori. «O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi axborotnomasi». T., 2007, № 2.

## Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.

2. *M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtashева*. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.

3. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., TDYI, 2008.

## 9-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDI

### O‘quv maqsadlari

*Ushbu mavzuni o‘zlashtirish talabalarga konstitutsiyaviy nazorat tushunchasini, uning paydo bo‘lish masalalarini o‘rganish, O‘zbekiston Respublikasi sud tizimida Konstitutsiyaviy sudning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish; Konstitutsiyaviy sud faoliyatining prinsiplari va uni tashkil etish asoslari, Konstitutsiyaviy sud vakolatlari va qarorlarini ko‘rib chiqish, shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning funksiyalari va tashkil etish tartibini tushunish imkoniyatini beradi.*

### 9.1. Konstitutsiyaviy nazorat, uning tushunchasi va asoslari

*Konstitutsiyaviy nazorat — bu davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy talablarga zid bo‘lgan huquqiy hujjatlari va harakatlarini aniqlash, shuningdek, aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish choralarini ko‘rish yo‘li bilan Konstitutsiya ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan sudlov va huquqni himoya qilish faoliyatining yo‘nalishidir (funktsiyasidir).*

**Tarixiy ekskurs. Konstitutsiyaviy nazoratning paydo bo‘lish manbalari.** Konstitutsiyaviy nazoratning paydo bo‘lish mezonlari sifatida konstitutsiya deb nomlanuvchi qonunlarning vujudga kelishi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy nazorat konstitutsiyalarda belgilangan normalarni ro‘yobga chiqarishning o‘ziga xos kafolati bo‘lishi lozim<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Konstitutsiyaviy nazorat paydo bo‘lishi asoslarining tarixiy tavsifi K.F. Guzenkodan olingan. *Qarang:* Правоохранительные органы. Учебник для юридических вузов и факультетов. 2-е изд, испр. и доп. М., «Зерцало», ТЕИС, 1996, стр. 167—168, shuningdek, Конституционное право зарубежных стран в вопросах и ответах. Учебно-методическое пособие. Под ред. А.В. Малько. М., «Юрист», 2003, стр. 46—50.

Konstitutsiyaviy huquq bo'yicha darsliklarda boshqa huquq manbalariga nisbatan konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi haqidagi qoida konstitutsiyaviy qonuniylik konsepsiyasi asosida turishi belgilangan. Unga ko'ra, har qanday qonun, shartnoma, sud yoki davlat boshqaruv organlari hujjatlari davlat konstitutsiyasiga mos bo'lishi kerak. Agar davlat organlari tomonidan chiqarilgan norma konstitutsiyaga zid bo'lsa, unda ushbu norma yuridik kuchga ega bo'lmaydi va qo'llanilmasligi lozim, chunki u haqiqiy emas deb topiladi<sup>1</sup>.

Konstitutsiyaviy nazoratni qaysi organ amalga oshirishi kerakligi masalasi hal etilganda e'tibor qonun chiqaruvchi hokimiyat organlariga qaratilgan edi, chunki ular konstitutsiyani qabul qiladi va qonun ijodkorligida ham muhim rol o'ynaydi. Biroq, ijro etuvchi organlarning bu sohadagi harakatlari samarali deb tan olinardi. Bu haqida ayrim davlatlarda ularning rahbarlariga, ularning fikricha, imzolashga taqdim etilgan qonun konstitutsiya talablariga javob bermasa, parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarni imzolashni rad etish huquqiga (ushbu huquq ko'p hollarda hozirgi vaqtda ham saqlanib qolgan) ega ekanligi fakti ham dalolat beradi.

*Konstitutsiyaviy «nazorat»* hujjatning konstitutsiyaga mosligini tekshirishdan iborat. Konstitutsiya qoidalarini buzuvchi qonun yoki boshqa normativ hujjat aniqlanganda konstitutsiyaviy nazorat organi uni bekor qilish huquqiga ega emas.

*Konstitutsiyaviy nazorat* — bu davlatdagi sud va huquqni himoya qilish faoliyatining maxsus turi bo'lib, qonun va boshqa normativ hujjatlarning ushbu davlat konstitutsiyasiga mos kelishini tekshirishdan iborat. Konstitutsiyaviy nazorat tegishli davlat organlari (mansabdor shaxslar) konstitutsiya qoidalarini buzuvchi hujjatni aniqlaganda, o'z hokimiyatlari orqali uni bekor qilish huquqiga ega ekanligini nazarda tutadi.

Qonun hujjatlarining konstitutsiya talablariga mosligini tekshirish bilan ko'pchilik chet el davlatlarida tashkil etilgan konstitutsiyaviy nazorat organlari, ya'ni maxsus davlat institutlari shug'ullanadi. Konstitutsiyaga zid bo'lgan qonun va boshqa hujjatlarining qabul qilinishi, chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, konstitutsiya

---

<sup>1</sup> *Qarang:* Конституционное право зарубежных стран в вопросах и ответах. Учебно-методическое пособие. Под ред. А.В.Малько. М., «Юрист», 2003, стр. 46.



normalarini buzadigan bunday qonun va boshqa hujjatlar qonuniy kuchga kirgan bo'lsa, ularning qo'llanishini oldini olish mazkur organlarning majburiyati sanaladi.

Konstitutsiyani huquqiy himoyalash chora-tadbirlarini turli xil organlar amalga oshirishi mumkin: davlat rahbari, parlament, prokuratura, lekin hozirda ko'pchilik davlatlarda asosiy funksiyasi konstitutsiyaviy qonuniylikni ushlab turish va ta'minlash bo'lgan sud yoki maxsus kvazisud (umumiy yurisdiksiya sudlar tizimiga kirmaydigan) organlari tashkil etilgan.

Aytish kerakki, hozirgi tushunchadagi konstitutsiyaviy nazorat nazariyasi birinchi marta AQSHda paydo bo'lgan. Chunonchi, 1803-yilda federal Oliy sud davlatda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadigan har qanday qonunlarni AQSH Konstitutsiyasiga zid deb e'lon qilish huquqiga ega ekanligini tan oldi. Bu esa Konstitutsiyaga zid bo'lgan qonunlar, birinchi navbatda, sudlar tomonidan qo'llanilmasligi kerakligini anglatadi. Shunday qilib, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish bilan davlat hokimiyatining uchinchi hokimiyati — o'zining organlari bo'lmish sudlar orqali sud hokimiyati shug'ullana boshladi. Sudlar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qilinadigan yoki qilinishi lozim bo'lganlarni to'ldirishni boshladi. Boshqa davlatlarda bunday nazoratga nisbatan munosabat dastlab juda vazmin edi. Bugungi kunda yozma konstitutsiyalar mavjud bo'lgan deyarli barcha davlatlarda bunday nazorat amal qiladi.

Hozirgi vaqtda konstitutsiyaviy nazorat quyidagi organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin:

a) *Umumiy yurisdiksiya sudlari*. AQSH, Argentina, Daniya, Meksika, Norvegiya, Yaponiyada sud ishi vujudga kelishi uchun asos bo'lgan u yoki bu qonunning konstitutsiyaga mosligi haqidagi masala har qanday instansiya sudi tomonidan qo'yilishi mumkin. Biroq, ushbu masala bo'yicha yakuniy qaror faqat eng yuqori sud instansiyasi tomonidan qabul qilinishi mumkin (masalan, AQSH Oliy sudi).

Bir qator davlatlarda konstitutsiyaviy nazorat faqat mazkur davlatning eng yuqori sud instansiyasi bo'lmish yuqori sud tomonidan amalga oshiriladi (masalan, Avstraliya, Boliviya, Hindiston, Irlandiya, Kanada, Filippin, Shveysariya, JAR);

b) Konstitutsiyaviy nazorat ularning asosiy yoki yagona funksiyasi bo'lgan *maxsus konstitutsiyaviy sudlar tomonidan*. Bunday max-

sus sud organlari umumiy yurisdiksiya sudlari tizimiga kirmaydi. Ular parlament ishtiroki bilan ham, uning ishtirokisiz ham tashkil etilishi mumkin (Avstriya, GFR, Italiya, Ispaniya, Turkiya, Kipr, Bolgariya). Bunday tizim birinchi marta 1920-yilda Avstriyada paydo bo'lgan;

d) *Sud bilan bog'liq bo'lmagan maxsus organ tomonidan* (masalan, Fransiyada tarkibi prezident va parlament tomonidan belgilanadigan Konstitutsiyaviy kengash). Xuddi shunday tizim ayrim Afrika davlatlari — sobiq fransuz mustamlakalarida vujudga kelgan.

Islom davlatlarida konstitutsiyaviy nazorat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, Pokistonda konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishga da'vat etilgan Oliy sud bilan bir qatorda yana ikki organ mavjud: islom kengashi (huquqiy aktlarning Qur'onga mosligini tekshiradi) va shariat sudi (fuqarolarning da'volarini, shu jumladan, fuqarolarga tegishli bo'lgan hujjatlarining shariatga zid kelishi haqidagi da'volarni ko'rib chiqadi). Bunday organlar Eron, Marokko, Malayziyada ham mavjud.

Konstitutsiyaviy nazorat *obyektlari* konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar, konstitutsiyaga tuzatishlar, xalqaro shartnomalar, parlament yoki uning palatalari reglamentlari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy nazorat *subyektlari* u yoki bu normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaga mosligini tekshirishni talab qilish huquqiga ega davlat organlari va mansabdor shaxslar bo'lishi mumkin.

Mazmuniga ko'ra, konstitutsiyaviy nazorat *formal* (qonun va boshqa aktlarni qabul qilish uchun belgilangan protsessual qoidalarga rioya etilganligi tekshiriladi) yoki *moddiy* (qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarining mazmuni konstitutsiyaga mosligi jihatidan tekshiriladi), shuningdek, *abstrakt* (muayyan sababsiz tegishli vakolatga ega subyekt tashabbusi bilan amalga oshiriladi) yoki *konkret* (muayyan bir sud ishi bo'yicha amalga oshiriladi) bo'lishi mumkin.

O'tkazish vaqti bo'yicha zamonaviy davlatlar amaliyotida keyingi va dastlabki konstitutsiyaviy nazorat ajratiladi.

Keyingi konstitutsiyaviy nazoratda qonuniy kuchga kirgan qonun va boshqa hujjatlar tekshiriladi (AQSH, Italiya, Germaniya). Konstitutsiyaga zid deb topilgan qonunlar yoki ularning alohida qismlari rasman yuridik kuchini yo'qotadi.

Dastlabki konstitutsiyaviy nazoratda parlament muhokamasida bo'lgan qonunlar tekshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, bunda qonunning Konstitutsiyaga mosligini u kuchga kirgunga qadar, uning promulgatsiyasiga qadar, ya'ni davlat rahbari tomonidan e'lon qilingunga qadar nazorat tushuniladi (Shvetsiya, Fransiya, Finlandiya).

Konstitutsiyaviy yurisdiksiya organi nizolashilayotgan hujjatni to'la yoki qisman konstitutsiyaga zid yoxud uni tegishli asosiy qonunga mos deb topishi mumkin.

**O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat.** O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud tashkil topish tarixi 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazorat to'g'risida»gi Qonun bilan bog'liq. Mazkur qonun davlat organlari va jamoat tashkilotlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini ta'minlash, shaxs va xalqlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, shuningdek, jamiyatning demokratik asoslarini himoya qilish maqsadlarida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazoratni O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi amalga oshirar edi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan rais, rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilini qo'shgan holda qo'mitaning 9 a'zosi tarkibida saylanar edi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi, rais o'rinbosari, qo'mita a'zolari O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan o'n yillik muddatga saylanar edi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi shaxsiy tarkibi bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi raisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga taqdim etilar edi. O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi faoliyatining izchilligini ta'minlash maqsadida uning tarkibi har besh yilda yarmiga yangilanar edi. Yangi saylangan qo'mita a'zolari ular saylangan kundan boshlab, o'z vazifasini bajarishga kirishar edi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga: O'zbekiston Respub-

likasi Oliy Kengashi muhokamasiga kiritilgan qonun va boshqa hujjatlar loyihalari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan qonun va boshqa hujjatlar; Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi mosligini tekshirish masalalarini ko'rib chiqar edi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi raisi qaror va farmoyishlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari;
- mahalliy xalq deputatlari kengashlarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror va farmoyishlari;
- ratifikatsiya yoki tasdiqlashga taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomaviy va boshqa majburiyatlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi rahbariy tushuntirishlari;
- normativ tusga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat arbitri hujjatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, asosan, ustidan prokuror nazorati amalga oshirilmagan boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlarining normativ-huquqiy hujjatlari mos kelishi ustidan nazoratni amalga oshirar edi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi nazorat funksiyalari hukmlar va boshqa sud qarorlari, tergov, prokuratura, fuqarolik, jinoyat, ma'muriy va arbitraj ishlar bo'yicha davlat arbitraji organlarining qarorlari uchun amal qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi topshirig'i asosida — O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi muhokamasiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa hujjatlar loyihalari bo'yicha;

2) O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari umumiy sonining beshdan bir qismidan kam bo'lmagan deputatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi takliflari asosida — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa hujjatlar bo'yicha;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi topshirig'i asosida — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari bo'yicha;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi Raisi takliflari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi topshirig'i asosida — Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari bo'yicha;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi topshirig'i, O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari umumiy sonining beshdan bir qismidan kam bo'lmagan deputatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi Raisi takliflari asosida — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomaviy va boshqa majburiyatlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi topshirig'i, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi-ning doimiy komissiyalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi xalq nazorati qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Prokurori, O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat arbitri, jamoat tashkilotlari va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi respublika darajasidagi organlari takliflari asosida — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, asosan, ustidan prokuror nazorati amalga oshirilmagan boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlarining normativ-huquqiy hujjatlari bo'yicha kiritilgan masalalarni ko'rib chiqar edi<sup>1</sup>.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Konstitutsiyaviy sudni ta'sis etish zaruratini nazarda tutgan edi. Davlatning Asosiy qonuni oliy qonunchilik darajasida Konstitutsiyaviy sudning tashkil etishini belgilab qo'ydi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T., 1990, № 16—18, 289-modda.

## 9.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, uning vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi — O'zbekiston tarixida birinchi sud tomonidan amalga oshiriladigan konstitutsiyaviy nazorat organidir. Aytib o'tilganidek, undan oldin 1990-yil 24-martda O'zbekiston Oliy Kengashining birinchi sessiyasida ta'sis etilgan Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi faoliyat ko'rsatgan. Konstitutsiyaviy sudning tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasida e'lon qilingan insonparvar huquqiy demokratik davlat barpo etish maqsadini ko'zlaydi.

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi — qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining konstitutsiyaga mosligi haqidagi ishlarni ko'rib chiquvchi sud hokimiyati organi hisoblanadi.*

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya ilk bor Konstitutsiyaviy sud vakolatlari, uni tashkil etish va faoliyat tartibini belgilab berdi. Chunonchi, mazkur masalalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107—109-moddalarida tartibga solingan. Konstitutsiyaning 107-moddasida sud tizimi tuzilishi Konstitutsiyaviy suddan boshlangan.

Konstitutsiyaning 108-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi va shu orqali Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asoslarini aniqlaydi. Konstitutsiyaning 109-moddasi Konstitutsiyaviy sud vakolatlari va uning faoliyati mazmuni haqida umumiy tasavvurni mustahkamlaydi.

Keyingi qonunchilik manbayi — 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyatini tartibga soluvchi birinchi maxsus qonun bo'ldi.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti davomida O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi yangi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radigan sud hokimiyati organi hisoblanishini belgilaydi.

O'sha yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini sayladi. Uning vakolati va kundalik faoliyati eng muhim konstitutsiyaviy prinsiplardan biri bo'lgan sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqilligini o'zida namoyon etadi. 1996-yil iyul oyida Reglament ko'rinishida Konstitutsiyaviy sudning protsessual kodeksi qabul qilindi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan, Oliy Majlisning Senati tomonidan 5 yillik muddatga saylanadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasi). Qonun sudyalikka nomzodlarga yuqori talablar qo'yishini qayd etib o'tish lozim. Konstitutsiyaning 108-moddasiga asosan Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan — Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari va sudyalardan, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilidan iborat tarkibda saylanadi. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasiga ko'ra, siyosat va huquq sohasi mutaxassislari bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilatli va zarur malakali O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkin.

*Konstitutsiyaviy sud tarkibida yetti nafar sudya mavjud: rais, uning o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasidan sudyani qo'shgan holda besh nafar sud a'zosi.*

Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi. Sudya Konstitutsiyaviy sud tarkibidan chiqib ketgan taqdirda, Oliy Majlisning Senati qonunda belgilangan tartibda boshqa shaxsni saylaydi. Konstitutsiyaviy sud tarkibidan kamida to'rt kishi saylangan taqdirda, sud o'z faoliyatini boshlashga haqlidir.

Chet el davlatlarida konstitutsiyaviy sudlarning (kengashlarning) tarkibiy soni, odatda, unchalik ko'p emas: Maltada — 3, Moldovada — 6, Fransiya, Ruminiya, Sloveniya, Makedoniya, Mo'g'ilistonda — 9, Slovakiya, Chexiyada — 10, Braziliya,

<sup>1</sup> Mazkur hujjat eskirgan. Amaldagi Reglament O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2004-yil 30-yanvardagi 1-qarori bilan tasdiqlangan.

Xorvatiya, Vengriyada — 11, Ispaniya, Bolgariya, Polsha, Belgiya, Eronda — 12, Portugaliya, Gretsiyada — 13, Avstriyada — 14, Italiyada — 15, Germaniyada — 16 nafar sud a'zosi mavjud. Ko'rib turganimizdek, tegishli davlat aholisi soni bilan hech qanday bog'lanishlar yo'q, xuddi shuningdek, sudyalarning, albatta, toq soniga erishish ham ko'zga tashlanmaydi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy malaka yoki Birinchi malaka darajalari beriladi. Birinchi bor Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylangan shaxs mazmuni qonun bilan belgilangan qasamyod qiladi («O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasi). Konstitutsiyaviy sudning sudyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qildiradi.

Sudyalikka nomzodlarga aytib o'tilgan talablardan tashqari, qonun Konstitutsiyaviy sud sudyaligi bilan bir vaqtda shug'ullanib bo'lmaydigan faoliyat va harakatlarni ham belgilab qo'ygan. Xususan, Konstitutsiyaviy sudning sudyasi vazifalarini bajargan vaqtda deputatlik mandatiga ega bo'lish, siyosiy partiyalarga va harakatlarga a'zolik, haq to'lanadigan boshqa lavozimni egallash mumkin emas. Shuningdek, sudya himoya yoki vakillikni (sudda, xo'jalik sudida va boshqa organlarda qonuniy vakillik hollari bundan mustasno) amalga oshirish, biron-bir shaxslarga huquqlarni qo'lga kiritish va majburiyatlardan ozod etish bilan bog'liq homiylik qilish huquqiga ega emas. Ko'rsatilgan cheklanishlar sudyalarning huquqiy pozitsiyalar «tozaligini» ta'minlashga qaratilgan. Bu aslida ishlarni hal etish va xulosalar berishda korporativ yoki shaxsiy manfaatlar ustunligidan yoki Oliy Majlis deputatlari, siyosiy rahbarlar va boshqalar (lekin sudyalar emas) amal qilishi mumkin bo'lgan amaliy maqsadga muvofiqlik mulohazalaridan kafolatlardir.

Konstitutsiyaviy sud sha'ni kodeksi barcha Konstitutsiyaviy sud sudyalari uchun majburiy bo'lgan axloqiy xarakterga ega qoidalarni o'rnatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga asosan, Konstitutsiyaviy sud 5 yillik muddatga saylanadi. Konstitutsiyaviy sud doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organ hisoblanadi. Uning vakolatlari qonun bilan belgilangan tartib va asoslarga ko'ra tugatilishi yoki to'xtatilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud faoliyati tartibi uning reglamenti bilan belgilanadi, unda sud majlislarida ishlarni ko'rib chiqish navbatini aniqlash tartibi; majlisdagi intizom va odobining ayrim qoidalari;



sudda ish yuritishning xususiyatlari; sud devoni xodimlariga qo'yiladigan talablar; Konstitutsiyaviy sud ichki faoliyatiga doir boshqa masalalar o'z aksini topgan.

### **Shunday qilib, Konstitutsiyaviy sud nima bilan shug'ullanadi?**

Umumiy va xo'jalik yurisdiksiya sudlaridan farqli ravishda Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaning 109-moddasi va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasi talablariga asosan o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiradi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi;

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan o'zining vakolatlari doirasiga kiritilgan boshqa ishlarni ko'rib chiqadi.

Masalalarni ko'rib chiqishda Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatlarning hamda O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarni Konstitutsiyaga mosligi prezumpsiyasidan kelib chiqadi.

Bunda «Konstitutsiyaga mosligi» tushunchasi tekshirilayotgan qonun matni bo'yicha yoki o'zining mazmuni bo'yicha Konstitutsiyada belgilangan qoidalarni takrorlashi kerakligini anglatmasligi nazarda tutilgan. Qonun doimo Konstitutsiyada nazarda tutilmagan yangiliklarni o'z ichiga oladi; u Konstitutsiya normalarini to'ldiradi va rivojlantiradi. Shuning uchun «Konstitutsiyaga mosligi» tushunchasi ostida qonunda Konstitutsiya qoidalariga zid keladigan normalar yo'qligini anglatadi. Aslini olganda gap qonunning Konstitutsiyaga mosligini aniqlash maqsadida tekshirish haqida borishi kerak.

Konstitutsiyaviy sud qonunni Konstitutsiya normalariga zid deb topishi mumkin. Bunday qonunni bekor qilish va o'zgartish, yangi huquqiy normalar yaratish qonun chiqaruvchi organ tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rib turganimizdek, Konstitutsiyaviy

sudning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rib chiqish faoliyati Konstitutsiya normalariga sharhlar berish bilan chambarchas bog'liq. Konstitutsiya normalariga sharhlar berish orqali konstitutsiyaviy normalarning ma'nosi va mazmunini tushinishda yaxlitlik va barqarorlikka erishiladi, chunki ular huquqiy davlatning asosini tashkil etadi va bevosita qo'llaniladi.

• **Yodda saqlang!** •

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi yurisdiksiyasi rasmiy qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga tegishlidir. Sud preventiv (dastlabki) nazoratni amalga oshirmaydi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 83-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy nazorat vakolatini amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini o'z tashabbusi bilan (Konstitutsiyaviy sudning uch nafardan kam bo'lmagan sudyasi tashabbusi bilan) tekshirishni qo'zg'atishi mumkin.

Ishlarni ko'rib chiqish uchun sabab Konstitutsiyaviy sudga talab, iltimosnoma yoki shikoyat shaklida murojaat qilinishi sanaladi. Ishni ko'rib chiqish uchun asos esa qonunning (Konstitutsiyaviy sud tomonidan Konstitutsiyaga mosligi tekshirib bo'ladigan boshqa hujjat) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligi haqidagi masalada paydo bo'lgan noma'lumlik yoki Konstitutsiya qoidalarini tushinishda paydo bo'lgan noma'lumlik va qonunda ko'rsatilgan boshqa asoslar bo'lishi mumkin.

O'tgan yillar mobaynida Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy mazmuni:

- qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarini, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini, vazirliklar, markaziy idoralar, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarini ularning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini tekshirish maqsadida doimiy o'rganish;

- xalqaro shartnomalar va kelishuvlarning ularni O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilish mumkinligini aniqlash maqsadida o'rganish;

## ● Yodda saqlang! ●

«O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonunning 19-moddasi Konstitutsiyaviy sudga masalalar kiritish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar doirasini belgilaydi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri;
- Oliy Majlis Senati Raisi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi;
- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to‘rttdan bir qismidan iborat deputatlar guruhi;
- Oliy Majlis Senati a‘zolari umumiy sonining kamida to‘rttdan bir qismidan iborat senatorlar guruhi;
- Oliy sud raisi;
- Oliy xo‘jalik sudi raisi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori;
- Konstitutsiyaviy sudning kamida uch nafar sudyasi.

• qonunchilikni takomillashtirish masalalari bo‘yicha Oliy Majlisga takliflar tayyorlash va kiritish;

• qonun loyihalarini o‘rganish va ular bo‘yicha mulohazalar berish;

• Konstitutsiya va qonun normalariga sharhlar berish, ularni noto‘g‘ri tushunish va qo‘llash holatlarini bartaraf etish;

• jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishda ishtirok etish;

• chet el konstitutsiyaviy sudlari va ularni o‘rnini bosuvchi davlat organlari faoliyati haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish va ijobiy qo‘llash bo‘ldi.

Oxirgi yillarda Konstitutsiyaviy sud tomonidan xususiy tadbirkorlar, bank omonatchilarining huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqilgan. Qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalangan holda Konstitutsiyaviy sud Oliy Majlisga ma’muriy, jinoyat, fuqarolik, mehnat, jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari bo‘yicha takliflar kiritgan.

Konstitutsiyaviy sudga kelib tushadigan ko‘p sonli davlat organlarining talab va arizalari, fuqaro va yuridik shaxslarning shikoyatlari bozor iqtisodiyoti, yagona iqtisodiy maydonni tashkil topish jarayonining qiyinchiliklari va qarama-qarshiliklari bilan bog‘liq.

Chunonchi, «Elxolding» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi Kuzatuvchi kengashi Konstitutsiyaviy sudga yo‘llagan murojaatida

soliq organlari tomonidan soliq qonun hujjatlari normalarining bir xilda talqin etilmayotganligi natijasida soliq solish masalalarida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 208-moddasi 35-bandiga sharh berishni so'ragan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 208-moddasi 35-bandining rus tilidagi matniga, asosan, qo'shilgan qiymat solig'idan «kitob mahsulotlari, maktab o'quv qurollari va ko'rgazmali qo'llanmalar, dori vositalari va tibbiyot buyumlarining ulgurji realizatsiya qilinishi» ozod etiladi.

Ushbu bandning o'zbek tilidagi matnida rus tilidagi «оптовая реализация» so'zlari «ulgurji savdo» (оптовая торговля) deb belgilangan. Shunday qilib, qo'shilgan qiymat solig'idan o'zbek tilidagi matnga, asosan, «ulgurji savdo» ozod etilsa, rus tilidagi matnga asosan esa «ulgurji realizatsiya qilish» ozod etilmoqda.

Konstitutsiyaviy sud Soliq kodeksi normalarini tahlil qilib, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 22-moddasida «realizatsiya qilish» va «savdo faoliyati» tushunchalariga ta'rif berilganligini aniqlagan. Unga muvofiq:

- realizatsiya qilish — sotish, ayirboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish;

- savdo faoliyati — qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat.

«Ulgurji realizatsiya qilish» tushunchasi «ulgurji savdo» tushunchasidan kengroq bo'lib, o'z ichiga ulgurji savdo, shuningdek, o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni yetkazib berish, ayirboshlash, beg'araz berish va boshqalarni qamrab oladi.

Mazkur ish bo'yicha qaror qabul qilishda Konstitutsiyaviy sud quyidagilarga asoslangan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga muvofiq, fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi lozim.

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 208-moddasi 35-bandining o'zbek va rus tillari matnlaridagi mavjud nomuvofiqlik uning amalda qo'llanilishida xatoliklarga olib kelayotganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining yuqorida ko'rsatilgan normalariga rioya etilishi lozimligi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 208-moddasi 35-bandining o'zbekcha matniga o'zgartirish kiritish zaruratini keltirib chiqaradi, deb hisoblaydi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 208-moddasi 35-bandining o'zbekcha matnidagi «savdosi» so'zi «realizatsiya qilinishi» so'zlari bilan almashtirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 2008-yil 1-yanvargacha amalda bo'lgan tahririda ham aynan shu holatni o'zida aks etgan 71-moddasi 32-bandining o'zbek tilidagi matnida «realizatsiya qilish» atamasi qo'llanilgan.

Bayon qilinganlarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni 10-, 25-, 26-, 27-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining «Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida»gi Qonuni 5-, 26-moddalariga amal qilgan holda Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 208-moddasi 35-bandining o'zbek va rus tillaridagi matnlarini o'zaro muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 208-moddasi 35-bandining o'zbek tilidagi matniga o'zgartirish kiritish to'g'risida»gi Qonuni loyihasi qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritishga qaror qildi<sup>1</sup>.

Boshqa holatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 192-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida»gi Qonuni loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish haqidagi ishni ochiq majlisda ko'rib chiqdi. Masala O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni 19-moddasiga muvofiq, «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi Bosh direktori V. Tyanning Konstitutsiyaviy sudga murojaati mu-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2009-yil 5-fevraldagi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2009, № 6, 54-modda.

nosabati bilan sudyalar U. Bozorov, G. Pirjanov va S. Hakimova-ning tashabbusi bilan kiritildi.

«O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasi Bosh direktori V. Tyan Konstitutsiyaviy sudga yo‘llagan murojaatida boquvchining vafot etganligi munosabati bilan zararni to‘lash tartibini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1009-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 192-moddasi normalari bir xilda emasligini ta’kidlab, ushbu normalarning qaysi biri amaliyotda qo‘llanilishi lozimligi yuzasidan tushuntirish berishni so‘ragan.

Ishni ko‘rib chiqish davomida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining boquvchi o‘limi munosabati bilan zararni to‘lash tartibini belgilovchi normalarida farq mavjudligini aniqladi va bu holat ushbu normalarning amaliyotda qo‘llanilishida jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi, degan xulosaga keldi.

Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining yuqorida ko‘rsatilgan normalariga rioya etilishi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 192-moddasining normalarini O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1009-moddasining normalariga muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqarishini o‘z qarorida ko‘rsatdi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 192-moddasiga o‘quvning kunduzgi shaklida ta’lim olayotgan shaxslarning ular yigirma uch yoshga yetgunga qadar boquvchining o‘limi munosabati bilan zararni to‘lash huquqini nazarda tutuvchi o‘zgartirish kiritish lozim.

Konstitutsiyaviy sud o‘z qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 192-moddasining beshinchi qismini O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1009-moddasining uchinchi qismiga muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 192-moddasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni loyihasi qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritishga qaror qildi<sup>1</sup>.

Fuqarolar murojaatlari borasidagi ish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2004-yil 30-yanvardagi 6-qarori

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2008-yil 15-oktabrdagi qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. T., 2008, № 44—45, 446-modda.

bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom asosida amalga oshirilishini aytib o‘tish lozim.

Nizom fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaatlarini (ariza, shikoyat va takliflar) ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi. Nizomda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi va «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonunlarga amal qilishi belgilangan.

Nizomda fuqarolarning Konstitutsiyaviy sudga murojaatlari bilan ishlash tartibini umumiy qoidalari nazarda tutilgan, ko‘rib chiqish Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga kiradigan fuqarolar murojaatlari bilan ishlash va Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga kirmaydigan fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tartiblari ajratilgan.

Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan murojaatlar Konstitutsiyaviy sudning maxsus kitob va kartochkalarida ro‘yxatga olinadi hamda ko‘rib chiqish va bajaruvchilarni aniqlash uchun Konstitutsiyaviy sud raisiga, uning yo‘qligida esa Konstitutsiyaviy sud raisi o‘rinbosariga taqdim etilishi umumiy qoidalarda belgilangan.

Fuqarolar murojaatlari Konstitutsiyaviy sud sudyalari, katta mutaxassislari va mutaxassislari tomonidan ko‘rib chiqiladi, murojaatlar bo‘yicha tayyorlangan javob xatlar matnlari ma‘qullanganidan keyin Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan, uning yo‘qligida esa Konstitutsiyaviy sud raisi o‘rinbosari tomonidan imzolanadi va tegishli manzilga yo‘llash uchun 1-toifali kotib-ish yurituvchiga beriladi. Murojaatlar bo‘yicha tayyorlangan javob xatning ikkinchi nusxasiga burchagida sanani ko‘rsatgan holda bajaruvchi imzo chekadi.

Konstitutsiyaviy sudda hal etilishi uning vakolatlariga kiradigan O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonuni 1-moddasida belgilangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning murojaatlari bevosita o‘rganiladi. Ular quyidagi mazmunga ega bo‘lishi lozim:

a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan qonunlar yoki Oliy Majlis palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari qabul qilinishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnoma va boshqa

majburiyatlarni olinishi natijasida o'rnatilgan o'z huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi haqida;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq emasligi haqida;

d) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharhlar berish haqida.

Fuqarolarning murojaatlari bilan bog'liq ishni tashkil etish Konstitutsiyaviy sud kotibiyati mudiri tomonidan amalga oshiriladi.

**Ko'rib chiqish — Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga kiradigan fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tartibi.** Agar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga yo'llangan fuqarolar murojaatlarida Nizomning I bo'limi 1.5-bandida ko'rsatilgan mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlar yoki talablar aks ettirilgan bo'lsa, ular Konstitutsiyaviy sud raisi yoki raisining o'rinbosari topshirig'iga muvofiq, masalani Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqishi uchun tayyorlash va kiritish maqsadida, Konstitutsiyaviy sudning sudyalari tomonidan o'rganib chiqilishi lozim.

Murojaatni Konstitutsiyaviy sudga ko'rib chiqish zarurati tan olinganda bu haqda 10 kunlik muddat ichida muallif xabardor qilinadi. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasiga binoan, Konstitutsiyaviy sudga tegishli material olingan paytdan boshlab, kechi bilan uch oy ichida ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud vakolatiga kiradigan masalalarni o'z ichiga olgan fuqarolar murojaatini o'rganib chiqayotgan Konstitutsiyaviy sud sudyasi quyidagilarga haqli:

- murojaat yo'llagan fuqaroni ko'rib chiqiladigan masalaga aniqlik kiritish va qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun chaqirish;

- Konstitutsiyaga qanchalik mosligi shubha ostiga olinayotgan qonun hujjatining ijro etilishi amaliyotini tahlil qilish;

- Konstitutsiyaga mosligi shubha ostiga olinayotgan qonun hujjati ijrosini ta'minlayotgan tegishli vakolatga ega tashkilot vakillarini taklif etish;

- tegishli organlar va mansabdor shaxslardan ko'rib chiqiladigan ish bo'yicha kerakli qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish.

O'rganib chiqilgan murojaat to'g'risida xulosa Konstitutsiyaviy sud sudyasi tomonidan Konstitutsiyaviy sud majlisiga kiritish



uchun tayyorlanadi va Konstitutsiyaviy sud raisiga yoki uning o'rinbosariga taqdim etiladi.

Ushbu ish bo'yicha sudyaning xulosasi Konstitutsiyaviy sud ikki yoki undan ortiq sudyasi tomonidan ma'qullanishi, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni 19-moddasiga binoan, Konstitutsiyaviy sud majlisiga ko'rish uchun kiritilishi mumkin.

**Ko'rib chiqish — Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga kirmaydigan fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tartibi.** Ko'rib chiqish Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga kirmaydigan fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tartibi O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni talablari asosida amalga oshiriladi.

Agar Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan fuqarolar murojaatlarida boshqa davlat organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari vakolati doirasiga kiruvchi masalalar qo'yilgan bo'lsa, murojaat Konstitutsiyaviy sud rahbariyati bilan kelishgan holda 5 kunlik muddat ichida uni ko'rib chiqish topshirilgan apparat xodimi yoki sudya tomonidan imzolanadi va tegishliligi bo'yicha yo'llanadi, bu haqda muallif xabardor qilinadi.

Nizomda murojaatlarni boshqa davlat organlarida ko'rib chiqish uchun yoki qarori yoki harakati ustidan shikoyat qilingan davlat organlari yoki mansabdor shaxslariga asossiz yo'llash man etilganligi belgilangan. Agar tegishli muassasa yoki organlarga murojaatni yo'llash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmasa, bunday murojaat 5 kunlik muddat ichida asoslangan tushuntirish xati bilan fuqaroga qaytariladi.

Aytish kerakki, Konstitutsiyaviy sud devonida fuqarolar murojaatlari hisobi yuritiladi. Murojaatlarni o'rganish natijalari bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning yillik va yarim yillik majlisiga yozma hisobot taqdim etiladi. Murojaatlar borasidagi ish to'g'risidagi hisobotda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

- fuqarolar o'z murojaatlarida qanday mazmundagi muam-molarga ko'proq e'tibor qaratishadi;
- ko'pchilik murojaat mualliflari aholining qaysi toifasiga kiradi;
- murojaatlarda qaysi organlar va mansabdor shaxslarning harakatlari ko'proq shikoyat qilinadi;
- murojaatlarda davlat organlari va mansabdor shaxslarning harakatlari Konstitutsiyaga zid ekanligini tasdiqlovchi dalillar mavjudligi.

Yuqorida bayon etilganlar bilan bir qatorda, yozma xulosada fuqarolarni Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga majbur etgan boshqa holatlar ham ko'rsatilishi mumkin. O'zbekiston Res-

publikasi Konstitutsiyaviy sudida fuqarolarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni 8-moddasi asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonning konstitutsiyaviy nazoratning Yevropa modelini qabul qilishi respublika Konstitutsiyaviy sudi xalqaro aloqalari yo'nalishini belgilaydi. Germaniya Federativ Respublikasining Federal konstitutsiyaviy sudi, Fransiyaning Konstitutsiyaviy kengashi, Polshaning Konstitutsiyaviy tribunali, Chexiya, Slovakiya, Rossiya, Ukraina, Armaniston, Gruzuya, Ozarbayjon va boshqa davlatlarning konstitutsiyaviy sudlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Yevropa Konstitutsiyaviy sudlar konferensiyasining doimiy kuzatuvchisi maqomini oldi. Ko'p chet el davlatlari Konstitutsiyaviy sudlari delegatsiyalari O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudiga tashrif buyurishadi.

Bularning hammasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiya va uning ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish organi sifatida o'z o'rnini topganidan dalolat beradi.

### **9.3. Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini tashkil etish va faoliyati prinsiplari boshqa sudlar faoliyatini tashkil etish asosiga qo'yilgan odil sudlovning demokratik prinsiplari bilan ko'p o'xshash jihatlarga ega. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud faoliyati (vazifalari) o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda bir qator xususiyatlar ham mavjud. Bu «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasi uchinchi qismiga binoan, Konstitutsiyaviy sud faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda ishlarni hal etishi va xulosalar berishi bilan shartlangan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi o'z vakolatlarini amalga oshirish davomida har qanday qonun talablari bilan emas, balki Konstitutsiya va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun talablariga amal qiladi.

Umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlari faoliyatini tashkil etishga xos boshqa prinsiplarning yo'qligi, Konstitutsiyaviy sud odil sudlovni emas, yuqorida aytib o'tilganidek, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishi bilan tushuniladi. Konstitutsiyaviy sud faoliyati prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

*Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari:*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik va sudyalarning huquqlarining tengligi.

(«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasi).

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik prinsipi.**

Sudya o'zining faoliyati va xulqi bilan mansabdor shaxslarda va fuqarolarda Konstitutsiyaga hurmat munosabatini shakllantirishga ko'maklashishi va qonunga itoatkorlik namunasi bo'lishi kerak. Sudya har doim va hamma joyda o'zini shunday tutishi kerakki, jamiyatda Konstitutsiyaviy sud xolisligi va mustaqilligiga ishonch tug'dirishi lozim.

**Mustaqillik prinsipi.** «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida Konstitutsiyaviy sud hamda uning sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqil va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunishi belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qaror qabul qilar ekanlar, amaliy maqsadga muvofiqlik mulohazalari, siyosiy moyilligidan va boshqa tashqi ta'sirlardan xoli bo'lgan o'z huquqiy nuqtayi nazarlarini ifodalaydilar. Konstitutsiyaviy sudning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga binoan, javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi Konstitutsiyaviy sud a'zolarini saylash va vazifasidan ozod etishning qonunda belgilangan tartibi, sudyalarning daxlsizligi, sud vakolatlariga kiradigan ish va masalalarni hal etishning yuridik proseduralari, qaror qabul qilishda sudyalarning maslahatlashuvi, Konstitutsiyaviy sudga hurmatsizlik yoki uning faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik, Konstitutsiyaviy sud faoliyatining zarur tashkiliy-texnik sharoitlarini yaratish, shuningdek, sudyalarning moddiy va ijtimoiy ta'minoti bilan ta'minlanadi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni bir-biriga bog'liq bo'lgan Konstitutsiyaviy sud va uning sudyalari mustaqilligi kafolatlarini nazarda tutadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari, xuddi sudning o'zi singari hech qanday davlat va jamoat organlari, siyosiy partiya va harakatlar, davlat, jamoat va boshqa korxonalar, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, davlat tuzilmalari, hududlari, ijtimoiy guruhlar vakillari bo'la olmaydi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari ularning xohish-istaklari erkinligiga tashqi ta'sirni istisno qiladigan sharoitlarda ishlarni hal etadi va xulosalar beradi. Ular u yoki bu davlat va jamoat organlari, mansabdor shaxslardan ko'rsatmalar so'ramasligi va olmasligi lozim. Sud qarorlariga keladigan bo'lsak, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi aniq mazmuniga muvofiq, amaliy maqsadga muvofqlik mulohazalari va siyosiy moyilligidan xoli bo'lgan sudyalarning huquqiy nuqtayi nazarlarini ifodalaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga ham hech qanday aralashishga yo'l qo'ymaslik lozim. Bunday aralashishga yo'l qo'yilgan hollar qonun bilan belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi o'z vakolatlari davrida almash-tirilmasligi ham ularning mustaqilligi kafolatidir. Sudyaning vakolatlari qonunda belgilangan tartib hamda asoslardan o'zga tarzda tugatilishi yoki to'xtatilishi mumkin emas (17-, 18-moddalar). «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun Konstitutsiyaviy sud sudyasi vakolatlarini to'xtatish va mud-datidan ilgari tugatish asoslarini batafsil tartibga soladi. Qonun-ning 16-moddasi Konstitutsiyaviy sud sudyasining jinoiy va ma'muriy yurisdiksiyadan daxlsizligini (immunitetini) belgilaydi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning roziligisiz jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilishi, shuningdek, hibsga olinishi mumkin emasligi qonunda alohida belgilangan. Konstitutsiyaviy sudning sudyasiga nisbatan jinoiy ish faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud sudyasini majburiy keltirish, ushlab turish, xuddi shuningdek, shaxsiy ashyolari, yuki, transporti, turar joyi yoki xizmat binosini ko'zdan kechirish mumkin emas.

**Kollegiallik prinsipi.** «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasida Konstitutsiyaviy suda ishlarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish kamida to'rt sudyadan iborat tarkibda kollegial amalga oshirilishi belgilangan. Qaror faqat sud majlisida ishni ko'rib chiqishda ishtirok etgan sudyalar tomonidan qabul qilinadi. Konstitutsiyaviy ishlar bo'yicha sudlov ishini yuritishning kollegialligi prinsipi ishlarni ko'rib chiqishda xalq vakillarini jalb qilishni nazarda tutmaydi, chunki Konstitutsiyaviy sud qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan masalalar uni ko'rib chiqishda ishtirok etishga ishonch bildirilganlardan huquq sohasida chuqur professional bilimlar talab etiladi.

**Oshkoralik prinsipi** Konstitutsiyaviy sudning majlislari qoida tarzida, ochiq o'tkazilishida ifodalanadi.

**Sudyalar huquqlari tengligi prinsipi** Konstitutsiyaviy sud tomonidan masalalarni ko'rib chiqish va ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha ovoz berishda rais, rais o'rinbosari va Konstitutsiyaviy sudning a'zolari sudyalar sifatida teng huquqlarga egaligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, Konstitutsiyaviy sudda masalalarni ko'rib chiqish taraflarning xizmatdagi mavqeyi, bo'ysunishi hamda turgan joyidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasi asosiy prinsiplar sifatida faqat yuqorida ko'rib chiqilgan prinsiplarni ko'rsatib o'tishiga qaramay, bizning fikrimizcha, bunday prinsiplar sifatida quyidagilarni ham aytib o'tish lozim deb hisoblaymiz: Konstitutsiyaviy sud reglamentida o'z aksini topgan *normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi prezumpsiyasi; konstitutsiyaviy sudlov tili.*

**Normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi prezumpsiyasi.** Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqishda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, davlat hokimiyati mahalliy organlari normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi prezumpsiyasiga asoslanishini anglatadi.

**Konstitutsiyaviy sudlov tili.** Konstitutsiyaviy sudda ishlarni yuritish O'zbekiston Respublikasi davlat tilida amalga oshiriladi. Davlat tilini bilmaydigan majlis ishtirokchilari o'z ona tilida so'zga chiqishlari va tushuntirishlar berishlari hamda tarjimon xizmatidan foydalanishlari mumkin. Sud majlisini tarjimon bilan ta'minlash vazifasi Konstitutsiyaviy sud devonining kotibiyati zimmasiga yuklanadi.

Konstitutsiyaviy sud qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, korxonalar, muassasa, tashkilotlar va jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy hujjatlar va ularning nusxalarini taqdim etish, ular tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha tushuntirish va maslahatlar berish haqidagi talablari yo'llangan barcha organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy.

#### 9.4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatining tashkil etilishi asoslari

*Umumiy qoidalar.* Konstitutsiyaviy sudda ish yuritishning asosiy qoidalari «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonunning 19—28-moddalari bilan tartibga solingan. Konstitutsiyaviy sud faoliyati tartibi uning reglamenti bilan belgilanadi<sup>1</sup>.

Qonun normalariga ko‘ra, agar olingan materiallar qo‘yilayotgan talablarga javob bersa, Konstitutsiyaviy sud ular olingan kundan e‘tiboran, yetti kunlik muddatdan kechiktirmay, masalani o‘rganib chiqishga kirishadi. Konstitutsiyaviy sudda tegishli material olingan paytdan boshlab, kechi bilan uch oy ichida ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tashkil etilishini tavsiflashda ushbu sud raisi egallaydigan mas‘uliyatli vazifani alohida aytib o‘tish lozim.

Konstitutsiyaviy sudning raisi:

- Konstitutsiyaviy sudning ishiga rahbarlik qiladi, sudyalari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- Konstitutsiyaviy sud majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;
- Konstitutsiyaviy sud devonining tarkibiy tuzilishini va shtat jadvalini tasdiqlaydi;
- Konstitutsiyaviy sudning devoni ishiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, devon xodimlarini ishga qabul qiladi va ishdan bo‘shatadi;
- devon xodimlarini rag‘batlantirish choralarini ko‘radi va jazolash choralarini qo‘llaydi;
- Konstitutsiyaviy sudning ichki mehnat tartibi qoidalarini tasdiqlaydi;
- Konstitutsiyaviy sudning ishini tashkil etish bilan bog‘liq boshqa vazifalarni bajaradi;
- Konstitutsiyaviy sudning faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan farmoyishlar chiqaradi;
- sud majlisiga tayyorgarlik ko‘rishga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Sud majlislarini tayyorlash bo‘yicha ishlarni Konstitutsiyaviy sud **kotibiyatining mudiri** amalga oshiradi, u:

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning 2004-yil 30-yanvardagi 1-qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi reglamenti. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi axborotnomasi. T., 2004, o‘ninch nashr.

- ishni ko‘rib chiqishga tayyorlash yuzasidan Konstitutsiyaviy sudning raisi tomonidan belgilangan muddatlarga rioya etilishi bo‘yicha Konstitutsiyaviy sud devoni faoliyati va tayyorgarlik jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko‘rib chiqilayotgan ish yuzasidan xulosalar berish to‘g‘risidagi takliflar rejasi loyihasini tuzadi, uni sud ko‘rib chiqishi uchun taqdim etadi;

- Konstitutsiyaviy sud tasdiqlagan rejani devon xodimlariga tarqatadi;

- Konstitutsiyaviy sud raisi masalani sudda ko‘rib chiqishga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilganidan keyin uch kundan oshmagan muddatda ishni va unga ilova qilingan materiallarning nusxalarini sudyalarga tarqatadi;

- Konstitutsiyaviy sudning navbatdagi majlisi kun tartibini sudyalarga va ishtirokchilarga tarqatadi;

- Konstitutsiyaviy sud majlisi o‘tkazilishini texnik va tashkiliy jihatdan ta‘minlaydi, shu jumladan, majlis ishtirokchilarini ro‘yxatdan o‘tkazadi, xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha choralarni ko‘radi;

- Konstitutsiyaviy sud majlislarida bayonnoma yuritishni tashkil etadi.

**Konstitutsiyaviy sudda ishlarni yuritish.** Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviyligi shubha tug‘dirgan ko‘rib chiqilayotgan muayyan masalalar yuzasidangina to‘xtamga keladi.

Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaviyligini tekshirib, bir vaqtning o‘zida tekshirilgan normativ-huquqiy hujjatga asoslangan yoxud uning qoidalarini takrorlaydigan normativ-huquqiy hujjatlar xususida ham, garchi Konstitutsiyaviy sud qarab chiqishi uchun kiritilgan masalada ular xususida so‘z yuritilmagan bo‘lsa-da, to‘xtamga kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonuni bilan nazarda tutilgan Konstitutsiyaviy sud vazifalarini ro‘yobga chiqarish, vakolatlarini amalga oshirishni ta‘minlash maqsadida sud intizomi va odobi qoidalari, ish yuritish xususiyatlari, xodimlarga qo‘yiladigan talablar va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tashkil etish tartibiga oid boshqa masalalar uning reglamenti<sup>1</sup> bilan belgilanadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2004-yil 30-yanvardagi 1-qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi reglamenti.

Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqishda O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, davlat hokimiyati mahalliy organlari normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi prezumpsiyasiga asoslanadi.

Masalalarni ko'rib chiqishda Konstitutsiyaviy sud taraflarning dalil-isbotlariga bog'langan emas. Konstitutsiyaviy sud taqdim etilgan materiallar, tushuntirishlar va ko'rsatuvlar bilan cheklanib qolmay, ish holatlari har tomonlama, to'liq va xolis tekshirilishi, taraflarning, boshqa ishtirokchilarning huquqlari ta'minlanishi, ular o'z zimmalariga yuklangan vazifalarni lozim darajada bajarishlari uchun barcha choralarni ko'rishi shart.

Konstitutsiyaviy sud xulosalar berish va boshqa masalalarni ko'rib chiqish taraflarning xizmatdagi mavqeyi, bo'ysunishi hamda turgan joyidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi. Avval aytilganidek, Konstitutsiyaviy sudda ishlarni yuritish O'zbekiston Respublikasi davlat tilida amalga oshiriladi.

**Konstitutsiyaviy sud majlisi ishtirokchilari.** Konstitutsiyaviy sud majlisida hozir bo'lgan shaxslar protsess ishtirokchilari deb nomlanadi.

Taraflar, taraflarning vakillari, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar — Konstitutsiyaviy sud majlisining **ishtirokchilari** hisoblanadilar.

Konstitutsiyaviy sud majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri, uning o'rinbosarlari, Oliy Majlis Senatining Raisi, uning o'rinbosarlari, Bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Adliya vaziri qatnashishlari mumkin. Ular ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga haqlidirlar.

Normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaviyligini tekshirish to'g'risida taklif bilan murojaat etgan tashabbuskorlar, shuningdek, konstitutsiyaviyligini tekshirish to'g'risida masala qo'yilayotgan normativ-huquqiy hujjatni chiqargan, xalqaro shartnomani tuzgan



organlar, mansabdor shaxslar konstitutsiyaviy sudlovda *ta raflar* hisoblanadi. Sud majlisi vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan taraflardan biri yoki uning vakili Konstitutsiyaviy sud majlisiga kelmasligining o'zi, masalaning ko'rib chiqilishiga va uning yuzasidan qaror qabul qilinishiga to'sqinlik qilmaydi.

Taraflardan biri yoki uning vakili sud majlisining vaqti va joyi haqida bildirish xatini olmaganligi yoki o'z vaqtida olmaganligi oqibatida Konstitutsiyaviy sudning majlisiga kelmagan taqdirida yoxud taraf bildirish xatini olganligi haqida ma'lumotlar bo'lmasa, agar taraf tegishli masalani ko'rib chiqishda o'zining ishtirok etish niyati borligini bildirgan bo'lsa, sud majlisi keyinga qoldirilishi lozim. Sudda masalani ko'rish, ikkala taraf kelmagan, ularning kelmaganliklari sababi sudga noma'lum bo'lgan hollarda ham keyinga qoldirilishi mumkin.

*Taraflarning vakillari* — bu Konstitutsiyaviy sudda taraflar tomonidan ularning manfaatlarini himoya qilish topshirilgan shaxslar. Sud majlisida taraflarning vakillari sifatida advokatlar, mutaxassislar va taraf (ta raflar) tomonidan ularning vakolatlari ko'rsatilgan holda berilgan ishonchnoma asosida boshqa shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

Konstitutsiyaviy sudda lavozimi bo'yicha quyidagilar taraflarning vakillari bo'lishlari mumkin: taklifni kiritgan organning rahbari, konstitutsiyaviylikini tekshirish to'g'risida masala qo'yilgan normativ-huquqiy hujjatni chiqargan, xalqaro shartnomani tuzgan organlarning rahbarlari, mansabdor shaxslari.

*Guvohlar, ekspertlar va mutaxassislar.* Konstitutsiyaviy sud majlisiga zarur ma'lumotlar yoki materiallarga ega bo'lgan shaxslar, ekspertlar va mutaxassislar chaqirilishi mumkin. Ularga o'z nuqtayi nazarini faol himoya qilish uchun zarur bo'lgan huquqlar beriladi.

Konstitutsiyaviy sudda ishlarni ko'rish munosabati bilan jalb etilgan ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga qonun hujjatlarga muvofiq xarajatlar va haq to'lanadi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud tomonidan chaqirilgan guvohlar, ekspertlar va mutaxassislarning ke-lishi shart.

Ular kelmagan hollarda Konstitutsiyaviy sud quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) guvohlar, ekspertlar yoki mutaxassislar yo'qligida ishni mohiyati bo'yicha ko'rib chiqish mumkinligi to'g'risida;

2) guvohlar, ekspertlar yoki mutaxassislar kelmaganligining oqibatlarini hal qilish masalasini ish materiallarini tekshirish tugallangunga qadar keyinga qoldirish va masalaning mohiyati bo'yicha ko'rib chiqish boshlanishi to'g'risida;

3) sud majlisida tanaffus e'lon qilish va guvohlar, ekspertlar yoki mutaxassislar kelishini ta'minlash choralarini ko'rish to'g'risida;

4) agar kelmagan guvohlar, ekspertlar yoki mutaxassislar yo'qligida ishni to'g'ri hal etishning imkoni bo'lmasa, ishni ko'rib chiqishni keyinga qoldirish to'g'risida.

Davlat tilini bilmaydigan majlis ishtirokchilari o'z ona tilida so'zga chiqishlari va tushuntirishlar berishlari hamda tarjimon xizmatidan foydalanishlari mumkin. Sud majlisini tarjimon bilan ta'minlash vazifasi Konstitutsiyaviy sud devonining tegishli bo'linmasi zimmasiga yuklanadi.

Sud majlisining barcha ishtirokchilari va majlis zalida hozir bo'lgan boshqa shaxslar Konstitutsiyaviy sudga hamda sud intizomi va odobining belgilangan qoidalariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari, raislik qiluvchining majlis tartibiga rioya etish haqidagi ko'rsatmalariga so'zsiz itoat etishlari shart.

Konstitutsiyaviy sud majlisining tartibini buzish, raislik qiluvchining majlis tartibiga rioya etish haqidagi ko'rsatmalariga bo'yunsunmaslik, Konstitutsiyaviy sudga qabul qilingan qoidalarni mensimaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Konstitutsiyaviy sudning majlisini keyinga qoldirish.** Konstitutsiyaviy sudning majlisi quyidagi hollarda keyinga qoldirilishi mumkin:

1) agar Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqilayotgan masalani yetarlicha tayyorlanmagan deb topsa;

2) taraflar yoki bir tarafning, guvoh yoki ekspertning kelmaganligi sababli, agar ularning yo'qligi ishning to'g'ri hal etilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa;

3) talab qilingan materiallar taqdim etilmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganligi sababli, agar ular ishni ko'rib chiqish va hal etish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lsa;

4) agar masalani ko'rib chiqishni keyinga qoldirishni sudyalardan birortasi, taraflar yoki taraf, ularning vakillari qat'iy talab qilsa, ular keltirgan vajlarni Konstitutsiyaviy sud asosli deb topsa;

5) sudyalardan birortasining yo'qligi, majlis vaqtida kasal bo'lib qolganligi tufayli, Konstitutsiyaviy sud majlisida kvorum buzilgan bo'lsa;

6) sud majlisi normal davom etishiga yoki masala har tomonlama va to'liq ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qiladigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, agar bu holatlar Konstitutsiyaviy sudning majlisini to'xtatib turish imkonini beradigan muddatlarda bartaraf qilinishi mumkin bo'lmasa.

Konstitutsiyaviy sudning majlisini keyinga qoldirish to'g'risidagi qaror majlisda qatnashayotgan sudyalarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Majlisni keyinga qoldirish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Konstitutsiyaviy sud tomonidan hozir bo'lgan ekspertlar, mutaxassislar va guvohlar eshitalishi mumkin.

Keyinga qoldirilgan ishni Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko'rib chiqish, uni keyinga qoldirishga asos bo'lgan holatlar yo'qotilganidan so'ng davom ettiriladi. Bunda Konstitutsiyaviy sudning majlisi, qoida tariqasida, to'xtatilgan joyidan boshlanadi. Eshitib bo'lingan ekspertlar, mutaxassislar va guvohlar faqat zarur hollarda qaytadan chaqiriladi.

**Ishni yuritishni to'xtatib turish.** Konstitutsiyaviy sud taraflardan birining iltimosiga binoan, boshqa taraf taqdim etgan materiallarni qo'shimcha o'rganish uchun, shuningdek, masalani ko'rishning normal borishiga to'sqinlik qiladigan holatlar paydo bo'lgan hollarda ishni yuritishni to'xtatib turishi mumkin.

To'xtatib turilgan ish yuritish uni to'xtatib turishga asos bo'lgan holatlar yo'qolganidan so'ng taraflarning iltimosiga yoki sudyalarning tashabbusiga binoan, Konstitutsiyaviy sud tomonidan qaytadan boshlanadi. Bir masalani ko'rishning to'xtatib turilishi Konstitutsiyaviy sud boshqa masalalarni ko'rishiga to'sqinlik qilmaydi.

**Ishni ko'rib chiqishni tugatish asoslari.** Konstitutsiyaviy sud majlisida ishni ko'rib chiqish quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

1) Konstitutsiyaviy sud majlisiga taklif kiritgan subyekt talablaridan voz kechib, o'z taklifini chaqirib olsa;

2) aynan muhokama qilinayotgan masala bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning qonuniy kuchga kirgan qarori mavjudligi aniqlansa;

3) konstitutsiyaviyligi Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat yoki muayyan norma sud ishni ko'rib chiqishni boshlagandan so'ng o'z kuchini yo'qotgan yoki bekor qilingan bo'lsa;

4) Konstitutsiyaviy sudning majlisi davomida masalani ko'rib chiqishga qabul qilishni rad etish uchun asoslar aniqlangan taqdirda;

5) Konstitutsiyaviy sudning majlisi davomida konstitutsiyaviylikni tekshirish taklif etilayotgan qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat bilan hal qilinadigan masala Konstitutsiyada o'z yechimini topmaganligi yoki o'zining mohiyati bo'yicha konstitutsiyaviy masalalar qatoriga kirmasligi aniqlansa.

Konstitutsiyaviy sudning majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nashri bo'ladi.

Qonunda Konstitutsiyaviy sud sudyalari sudlov ishini maxsus kiyimda olib borishi nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaviy sud faoliyati muayyan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Shartli ravishda bu jarayon quyidagi bosqichlarga bo'linishi mumkin.

**I. Konstitutsiyaviy sudga murojaat etish.** Konstitutsiyaviy sudlov mexanizmi ishlashi uchun tegishli sabab va asoslar mavjud bo'lishi kerak. Ishni ko'rib chiqish uchun sabab Konstitutsiyaviy sudga murojaat etish hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish ikki turga bo'linishi mumkin: 1) Konstitutsiyaviy sudga masalalar kiritish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning murojaatlari va 2) fuqarolar murojaatlari.

Qonunning 19-moddasida Konstitutsiyaviy sudga masalalar kiritish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati keltirilgan. Eslatib o'tamiz, ularga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri, Oliy Majlis Senatining Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to'rtidan bir qismidan iborat deputatlar guruhi, Oliy Majlis Senati a'zolari umumiy sonining kamida to'rtidan bir qismidan iborat senatorlar guruhi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Oliy xo'jalik sudining raisi va Bosh prokurori kiradi. Masala Konstitutsiyaviy sudning kamida uch sudyasi tashabbusi bilan ham kiritilishi mumkin.

Fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2004-yil 30-yanvardagi 6-qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida»gi Nizom bilan tartibga solingan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: 9.2-band.

Konstitutsiyaviy sudga 1-guruh murojaatlari rasmiy talab yoki iltimosnoma shaklida, 2-guruh murojaatlari esa faqat ariza, taklif yoki shikoyat shaklida taqdim etilishi mumkinligiga e'tiborni qaratish lozim.

**II. Sud majlisiga tayyorgarlik ko'rish.** Konstitutsiyaviy sudning raisi sud majlisiga tayyorgarlik ko'rishga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Konstitutsiyaviy sudning raisi tushgan masalalar yuzasidan quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

a) ishni sud ko'rib chiqishi uchun qabul qilib olish to'g'risida;  
b) ishni dastlabki o'rganish uchun ijro etish muddatini ko'rsatgan holda bir sudyaga yoxud Konstitutsiyaviy sud ekspertlariga topshirish to'g'risida;

d) masala chaqirib olingan taqdirda uni qaytarib yuborish to'g'risida.

Ishni ko'rib chiqishga qabul qilish to'g'risida qaror chiqarilganidan keyin Konstitutsiyaviy sudning raisi ishni sud majlisida ko'rishga tayyorlovchi ma'ruzachi sudyani tayinlaydi va ishni nihoyasiga yetkazish uchun, qoida tariqasida, materiallar Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan kundan boshlab, ikki oydan oshmagan muddatni belgilaydi. Konstitutsiyaviy sudning raisi ko'rib chiqilayotgan masalaning o'ta murakkabligi munosabati bilan belgilangan muddatni bir oydan ortiq bo'lmagan vaqtga uzaytirishi mumkin.

Ma'ruzachi sudya o'ziga bog'liq bo'lmagan sababga ko'ra (kasalligi, mehnat ta'tilida, xizmat safarida bo'lishi), sud majlisida o'ziga topshirilgan ish yuzasidan ma'lumot bera olmasa, bu haqda sababini aniq ko'rsatib, Konstitutsiyaviy sudning raisiga yozma ma'lumot beradi, shundan so'ng Konstitutsiyaviy sud raisi boshqa ma'ruzachi sudyani tayinlaydi. Ma'ruzachi sudya yakunlovchi qaror loyihasini tayyorlaydi.

Konstitutsiyaviy sudning raisi ish materiallarining Konstitutsiyaviy sudga ko'rib chiqish uchun tayyorligi to'g'risida ma'ruzachi sudyaning ma'lumotini eshitgach, sud majlisiga taklif etilishi lozim bo'lgan shaxslar doirasini belgilaydi, majlis joyi va vaqti to'g'risida, shuningdek, zarur materiallarni majlis ishtirokchilariga yuborish va sudyalarga topshirish to'g'risida farmoyishlar beradi.

Konstitutsiyaviy sudga masalalarni kiritish huquqiga ega bo'lgan subyektlar tomonidan kiritilgan, to'xtamga kelinishi lozim bo'lgan barcha masalalar Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan Reglamentning 11-moddasi 6-bandiga asosan sud majlisi muhokamasiga kiritiladi. Konstitutsiyaviy sudning majlisi reglamentda belgilangan qoidalar va tartiblarga rioya etilgan holda o'tkaziladi.

Konstitutsiyaviy sudning majlislari rais tomonidan, u yo'qligida — Konstitutsiyaviy sud raisining o'rinbosari tomonidan, Konstitutsiyaviy sudning raisi va uning o'rinbosari yo'qligida yoki ular o'z vazifalarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmaganlarida — Konstitutsiyaviy sudning eng katta yoshli sudyasi tomonidan chaqiriladi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyalari navbatdagi majlis vaqti va joyi haqida sud majlisi boshlanishidan kamida o'n kun oldin xabardor qilinadilar. Ayni vaqtda ularga majlisning kun tartibi va ishni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar topshiriladi.

### ● Yodda saqlang! ●

#### *Konstitutsiyaviy sudda ko'rish uchun kiritilayotgan masalaga qo'yilayotgan talablar*

Masala «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudga masalalar kiritish huquqiga ega bo'lgan subyektlar tomonidan kiritilgan bo'lishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligini tekshirish to'g'risidagi ish materiallari quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim:

1) tekshirilishi lozim bo'lgan xalqaro shartnoma yoki normativ-huquqiy hujjatning nomi, u e'lon qilingan manbalar to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) masalaning Konstitutsiyaviy sudda ko'rib chiqilishi uchun asoslar;

3) tarafning fikri, qonun hujjatlarining tegishli normalari ko'rsatilgan holdagi uning huquqiy asoslanishi;

4) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

**III. Ishni Konstitutsiyaviy sudda ko'rish.** Ish Konstitutsiyaviy sud tomonidan, qoida tariqasida, sudyalarning aynan bitta tarkibi tomonidan ko'rib chiqiladi. Konstitutsiyaviy sudning majlisida bitta yoki bir necha masala ko'rilishi mumkin. Har bir masala yuzasidan alohida qaror qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sudning majlisida Konstitutsiyaviy sudning raisi, u yo'qligida yoki uning topshirig'i bo'yicha — Konstitutsiyaviy sud raisining o'rinbosari, rais va uning o'rinbosari bo'lmagan taqdirda yoki ular o'z vazifalarini bajarishlariga imkoniyat bo'lmay qolganda — Konstitutsiyaviy sudning eng katta yoshli sudyasi raislik qiladi.

Raislik qiluvchi Konstitutsiyaviy sudning majlisiga boshchilik qiladi. Uning sud zalida tartibni saqlash to'g'risidagi ko'rsatmalari majlisning barcha ishtirokchilari va majlislar zalida hozir bo'lgan boshqa shaxslar uchun majburiydir.

Raislik qiluvchi:

- taraflarga va ularning vakillariga ishning barcha holatlari bo'yicha tushuntirishlar berish, o'z dalillarini asoslash va bir-birlariga o'zlarining nuqtayi nazarlarini aniqlash va ravshanlashtirish maqsadida savollar berish uchun teng imkoniyatlar yaratish;

- sud tomonidan ekspertlarning og'zaki va yozma xulosalarini tekshirish hamda baholash;

- mutaxassislarning fikrlarini, ish bo'yicha sudga chaqirilganlarning ko'rsatmalarini eshitish;

- taraflarga va sud majlisining boshqa ishtirokchilariga ko'rib chiqilayotgan ishning holatlari bo'yicha ekspertlarga, mutaxassislarga va guvohlarga savollar bilan murojaat etish imkoniyatini berish;

- taraflar va sud majlisining boshqa ishtirokchilari taqdim etgan, shuningdek, sud talab qilib olgan hujjatlarni Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko'rib chiqish;

- sud muhokamasining borishini va natijalarini qayd etish yo'li bilan ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha har tomonlama to'liq va xolis muhokamani ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarni ko'radi. Raislik qiluvchi ko'rib chiqilayotgan masalaga aloqasiz barcha narsalarni ish bo'yicha muhokama jarayonida bartaraf etadi.

Raislik qiluvchi Konstitutsiyaviy sud sudyalarning maslahatxonadagi maslahatlashuviga rahbarlik qiladi, bunda sudyalarga o'z fikrlarini erkin va moneliksiz bildirish imkoniyatini yaratadi.

**Tayyorlov qismi.** Sud majlisi uchun tayinlangan vaqtda Konstitutsiyaviy sud sudyalari majlis zaliga kiradi va o'z joylarini egallaydi. Sud majlisi kotibi sud majlisi ishtirokchilarini sudyalar majlis zaliga kirib kelayotganligi (undan chiqib ketayotganligi) haqida ogohlantiradi va ularni o'rnidan turishlarini so'raydi. Raislik qiluvchi sud majlisini ochadi, Konstitutsiyaviy sud tarkibini, qanday masala ko'rilayotganini e'lon qiladi, kim ishda ekspert, mutaxassis, tarjimon sifatida ishtirok etayotganini ma'lum qiladi.

Keyin kotib ishtirokchilarning kelgan-kelmaganligi haqida ma'lumot beradi, kelmagan shaxslarga bildirish xatlari o'z vaqtida topshirilganini yoki topshirilmaganini, kelmaganligining sabablarini ma'lum qiladi.

Sud majlisiga taraflar (taraf) yoki ularning vakillari kelmagan taqdirda, Konstitutsiyaviy sud ish bo'yicha muhokamani boshlash yoki uni keyinga qoldirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Tarafning vakilida lozim darajada rasmiylashtirilgan vakolatlar bo'lmagani holda protsessda taraf hisoblanuvchi mansabdor shaxsning o'zi sud majlisiga kelmagan taqdirda, raislik qiluvchi ishni taraf yo'qligida va uning vakilisiz ko'rib chiqish mumkinligi to'g'risidagi masalani sudyalari muhokamasiga qo'yadi.

Sud majlisiga guvohlar, ekspertlar yoki mutaxassislardan bi-rortasi kelmagan taqdirda, Konstitutsiyaviy sud ishni ular yo'qligida ko'rib chiqish mumkinligi to'g'risida taraflarning fikrini eshitadi. Shundan so'ng, sud ish bo'yicha muhokamani davom ettirish yoki sud majlisida tanaffus e'lon qilish, yoxud uni keyinga qoldirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Raislik qiluvchi sud majlisi ishtirokchilariga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Ekspertlar, mutaxassislar va guvohlarga, bundan tashqari, zimmalariga yuklangan majburiyatlarni nohalol bajarganlik yoki ularni bajarishdan bo'yin tovlaganlik uchun qonunda nazarda tutilgan javobgarlik tushuntiriladi. Tarjimonga sudyaning ma'ruzasini, ishda ishtirok etayotgan shaxslarning tushuntirishlari va nutqlarini, raislik qiluvchining farmoyishlarini, sud majlisida o'qib eshittiriladigan hujjatlarni, sudda beriladigan savollarni va ularga qaytarilgan javoblarni, shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning qarorlarini to'liq va aniq tarjima qilish majburiyati tushuntiriladi.

Raislik qiluvchi taraflar, ularning vakillari, sud majlisining boshqa ishtirokchilaridan ishni ko'rib chiqish boshlanguncha ularning qo'shimcha materiallar talab qilib olish, boshqa guvohlarni chaqirish va ishni ko'rib chiqishda yangi ekspertlar, mutaxassislar ishtirokiga ijozat berishi to'g'risida iltimoslari bor-yo'qligini so'rab chiqadi.

Bunday iltimosnomalar yozma ravishda tushgan taqdirda, ular sud majlisida o'qib eshittiriladi va ko'rib chiqilayotgan ish materiallariga qo'shib qo'yiladi. Og'zaki iltimoslar sud majlisi bayon-nomasiga yozib qo'yilishi lozim.

**Asosiy qism. Ishni mazmunan ko'rish.** Masalani ko'rib chiqish ma'ruzachi sudyaning so'zga chiqishidan boshlanadi, u ko'rib chiqilayotgan masalaning mohiyatini, uni ko'rib chiqish asoslarini, mavjud materiallarning qisqacha mazmunini bayon qilib beradi va masalani ko'rib chiqishga tayyorlash yuzasidan qilingan ishlar haqida axborot beradi. Ma'ruzachi sudya o'z so'zida taklifda



bayon qilingan dalil-isbotlarni tahlil etishga va ularga o'z bahosini berishga haqli emas.

*Taraflar va ular vakillarining tushuntirishlari.* Ma'ruzachi sudyaning nutqi tugaganidan so'ng raislik qiluvchi ko'rib chiqilayotgan masalaning mohiyati yuzasidan tushuntirishlar berishni taraflarga taklif etadi.

Birinchi bo'lib, masalani ko'rib chiqish to'g'risida taklif bilan murojaat etgan taraf yoki uning vakili so'zga chiqadi, so'ngra raislik qiluvchi boshqa taraf yoki uning vakili so'zga chiqishiga imkoniyat beradi.

Masalani ko'rib chiqish to'g'risida taklif bilan murojaat etgan taraf, shuningdek, uning vakili o'z so'zlarida Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqishi uchun kiritilgan masalaning mohiyatini, o'z fikrini asoslashga doir huquqiy dalillar va isbotlarni bayon qiladi. Boshqa taraf yoki uning vakili bildirilgan taklif bo'yicha o'z e'tirozlarini, bu e'tirozlarni asoslash uchun huquqiy dalillar va isbotlarni bayon qiladi.

Agar so'zga chiquvchi ko'rib chiqilayotgan masala mavzusidan chetga chiqsa yoki shaklan yoki mazmunan qo'pol fikrlar bildirsa, sud ish yuritishining belgilangan qoidalarini buzsa, raislik qiluvchi taraf yoki uning vakili, sud majlisi boshqa ishtirokchilarining so'zini to'xtatib qo'yishga haqli.

Taraflarning har biri, ularning vakillari so'zga chiqib bo'lganidan keyin raislik qiluvchi sudyalarga, tarafga, uning vakiliga savollar berish imkoniyatini beradi, so'ngra so'zga chiqqan tarafga savollar berish huquqi boshqa tarafga va uning vakiliga beriladi.

*Guvohlarni eshitish tartibi.* Guvohlarni navbatma-navbat eshitish tartibini Konstitutsiyaviy sud belgilaydi. Raislik qiluvchi guvohga ko'rib chiqilayotgan masala mohiyati yuzasidan o'zi bilgan hamma narsani ma'lum qilishni taklif etadi. Guvohga savollar berilishi mumkin. Guvoh kimning arizasiga binoan chaqirilgan bo'lsa, o'sha taraf yoki uning vakili guvohga birinchi bo'lib savollar beradi, so'ngra boshqa taraf yoki uning vakili, shuningdek, majlisning boshqa ishtirokchilari savollar beradilar. Sudning tashabbusi bilan chaqirilgan guvohga masalani ko'rib chiqish to'g'risida taklif bilan murojaat etgan taraf va uning vakili birinchi bo'lib savollar beradilar. Sudyalar guvohga istalgan paytda savollar berishga haqli.

Sud boshqa guvohlarni, agar ular guvohlik berishi mumkin bo'lgan holatlar yetarlicha to'liq aniqlandi deb topsa, eshitmasligi mumkin.

*Hujjatlarni tekshirish.* Hujjatlar sud majlisida o'qib eshittiriladi va zaruratga qarab taraflarga, ularning vakillariga, ayrim hollarda

esa ekspertlarga, mutaxassislarga, guvohlarga va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga taqdim etiladi. Shundan so'ng, taraflar yoki ularning vakillari o'qib eshittirilgan hujjat (hujjatlar) munosabati bilan tushuntirishlar berishlari mumkin. Konstitutsiyaviy sud majlisida tekshirilgan, belgilangan tartibda olingan va masalaning to'g'ri hal etilishi uchun ahamiyatli hujjatlar yuzasidan sud ularni ish materiallariga qo'shib qo'yish haqida qaror chiqaradi.

*Ekspertlarni, mutaxassislarni eshitish tartibi.* Konstitutsiyaviy sud zarurat bo'lganda ekspertlarni, mutaxassislarni eshitadi. Sud majlisida ekspertlarni, mutaxassislarni navbatma-navbat eshitish tartibini sud belgilaydi.

Raislik qiluvchi ekspertga, mutaxassisga ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan ularning o'z nomidan, ekspertlar guruhi yoki ilmiy muassasa nomidan taqdim etilayotgan ekspert xulosasi (mutaxassis fikri)ni o'qib eshittirishni taklif qiladi.

Ekspertga, mutaxassisga guvohlar uchun belgilangandagi kabi tartibda savollar berilishi mumkin.

*Sud majlisi ishtirokchilarining so'zga chiqishi.* Konstitutsiyaviy sudning majlislarida Konstitutsiyaviy sud raisining taklifiga binoan, Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmiy-maslahatlashuv kengashining a'zolari, olimlar, siyosat va jamoat arboblari, deputatlar, sudyalalar, xalqaro tashkilotlarning, davlat organlarining, jamoat birlashmalarining, ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlarining vakillari ishtirok etishlari mumkin. Taklif qilinganlar raislik qiluvchining ruxsati bilan ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan so'zga chiqishlari mumkin.

Taqdim etilgan materiallarni, ekspertlarning xulosalarini tekshirish, taraflarning, ularning vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatmalari, mutaxassislarning fikrlarini eshitish oxiriga yetkazilganidan keyin, agar so'zga chiqishni xohlasalar, sud O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri, uning o'rinbosarlari, Oliy Majlis Senatining Raisi, uning o'rinbosarlari, Bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining raisi, O'zbekiston Respublika Bosh prokurori, Adliya vaziri yoki ularning vakillari so'zlarini eshitishga o'tadi.

Taraflar va ularning vakillari yakunlovchi so'zlar bilan chiqishlari mumkin bo'lib, ular Konstitutsiyaviy sud majlisida tekshirilgan materiallar va dalillar tahlilini, ularning huquqiy baholanishini va ko'rib chiqilayotgan masalani hal etish uchun

ahamiyatini, shuningdek, taraflarning, ularning fikricha, qaror chiqarishda sud tomonidan hisobga olinishi lozim bo'lgan xulosalari va takliflarini o'z ichiga olishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud taraflarga ularning iltimosiga binoan, yakunlovchi nutqlarga tayyorgarlik ko'rish uchun sud majlisida tanaffus e'lon qilib, vaqt berishi mumkin.

*Ish materiallarini tekshirishni yangitdan boshlash.* Yakunlovchi nutqlar eshutilganidan keyin, agar Konstitutsiyaviy sud ishni to'g'ri hal etish uchun muhim ahamiyatga molik yangi holatlarni aniqlash yoki yangi dalillarni tekshirishni zarur deb topsa, ishni ko'rib chiqishni yangitdan boshlash haqida qaror chiqaradi. Bunda Konstitutsiyaviy sud o'z majlisida tanaffus e'lon qilishi va ishni ko'rib chiqishni keyinga qoldirishi mumkin.

Ish bo'yicha qo'shimcha muhokama tugaganidan keyin Reglamentning 49-moddasida ko'rsatib o'tilgan shaxslar yangitdan so'zga chiqish, taraflar esa faqat yangitdan boshlangan sud muhokamasining natijalari va ularning ishni hal etish uchun ahamiyati xususida yakunlovchi nutq so'zlash huquqiga egadirlar. Shundan so'ng, Konstitutsiyaviy sud qaror qabul qilish uchun maslahatlashuvga chiqib ketadi.

**Bayonnoma.** Konstitutsiyaviy sudning majlislarida bayonnomalari yuritiladi. Konstitutsiyaviy sud majlisi bayonnomalari sud majlisi kotibi (kotiblari) tomonidan tuziladi.

Bayonnomalari quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim:

- majlis vaqti va joyi haqidagi ma'lumot;
- hozir bo'lgan va hozir bo'lmagan sudyalarning ro'yxati;
- raislik qiluvchining familiyasi, ismi, otasining ismi va vazifasi;
- majlis kotibining familiyasi, ismi, otasining ismi;
- kun tartibi;
- taraflar va majlisning boshqa ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlar;

• Konstitutsiyaviy sudning harakatlari, ular qay tartibda amalga oshirilgan bo'lsa, shu tartibda ularning natijalari;

• taraflar va ular vakillarining tushuntirishlari;

• guvohlarning ko'rsatmalari, ekspertlarning xulosalari va mu-taxassislarining fikrlari, ularga berilgan savollar va olingan javoblar;

• ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning so'zga chiqishi;

• taraflar va majlisning boshqa ishtirokchilari bayonnomada guvohlantirib qo'yilishini so'ragan faktlar va holatlar haqidagi ma'lumotlar;

• ovoz berishga qo'yilgan masalalar va ovoz berish natijalari;

• Konstitutsiyaviy sud qabul qilgan bayon tarzidagi qarorlarning ta'rifi.

Agar Konstitutsiyaviy sud majlisi vaqtida uning qaroriga binoan, ovozli yozuv, videoyozuv, fotokino suratga olish qo'llanilgan bo'lsa, unda fonogramma, videotasma, fotokino tasma sud majlisining bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi, bu haqda bayonnomada tegishli belgi qo'yiladi.

Konstitutsiyaviy sud majlislarining bayonnomalari sud majlisining kotibi (kotiblari) tomonidan tuziladi. Taraflar va majlisning boshqa ishtirokchilari o'zlari ish uchun muhim deb hisoblagan faktlar va holatlar haqidagi ma'lumotlarni bayonnomaga kiritishni iltimos qilishga haqlidirlar.

Barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalarga bayonnomada izoh berilishi lozim. Bayonnomada majlis tugagan paytdan boshlab, besh sutka ichida rasmiylashtirilishi lozim. Sud majlisi bayonnomasi raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi (kotiblari) tomonidan imzolanadi va ishga qo'shib qo'yiladi.

Taraflar va ularning vakillari sud majlisining bayonnomasi bilan tanishishga va bayonnomada xususida mulohaza bildirishga haqlidirlar, bu mulohazalarni raislik qiluvchining shaxsan o'zi o'n kun ichida ko'rib chiqishi lozim. Sud majlisining bayonnomasiga bildirilgan mulohazalarni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan raislik qiluvchi ularni bayonnomaga qo'shib qo'yish yoki buni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

**IV. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorini qabul qilish.** To'xtamga kelish uchun sudyalarda maslahatlashuvi maslahatxonada o'tkaziladi. Sudyalarda maslahatlashuvi sir tutiladi.

Raislik qiluvchi ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishni xohlagan har bir sudyaga so'z beradi. Maslahatlashuv paytida sudyalarda bir-birlaridan ish bo'yicha o'z fikrlarini aniqlashtirishni so'rashlari mumkin. Maslahatlashuvni tamomlab, raislik qiluvchi qaror bo'yicha takliflarni ovozga qo'yadi. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi<sup>1</sup>. Ovozlar teng bo'linib qolgan hollarda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

**V. Konstitutsiyaviy sud qarorlarining ijro etilishi.** Konstitutsiyaviy sudning qarori taraflarga, shuningdek, O'zbekiston Respub-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori haqida 9.5-bandini ko'ring.

likasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri, Oliy Majlis Senatining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziriga yuboriladi. Konstitutsiyaviy sud raisi Konstitutsiyaviy sudning qarorini boshqa organlar va shaxslarga ham yuborish to'g'risida farmoyish berishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudning kotibiyati sud qarorlari bajarilishining borishi to'g'risidagi ishlarning ahvolini, ushbu qarorlarning qisman yoki to'liq bajarilmayotganligi sabablarini muntazam tahlil etib boradi. Konstitutsiyaviy sud kotibiyatining mudiri sud qarorlari bajarilishining borishi to'g'risida sudning raisiga yarim yillik va bir yillik tahliliy-axborot hisobotlarini taqdim etadi.

Konstitutsiyaviy sud qarorining bajarilmaganligi yoki faqat qisman bajarilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu qarorni tayyorlagan ma'ruzachi sudya uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar to'g'risidagi taklifni sud raisi e'tiboriga havola etadi.

### **9.5. Konstitutsiyaviy sud qarorlari, ularning turlari, mazmuni, yuridik ahamiyati va tuzilishi**

Davlatlararo shartnomaning va normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaviyligi yuzasidan ko'rib chiqilgan ishning mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning to'xtami *qaror*, deb ataladi. Qarorlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi. «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 26-moddasida nazarda tutilgan hollarda Konstitutsiyaviy sudning qarorlari alohida hujjat shaklida bayon qilinadigan xulosa tarzida qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilinayotgan to'xtamlarni ikki turga bo'lish mumkin: *yakuniy* va *boshqa* to'xtamlar. Muayyan ish ko'rib chiqilishi natijasi (yakunlari) bo'yicha sud o'z xulosalarini ifoda etadigan to'xtamlar yakuniy to'xtamlarga kiradi. Boshqa to'xtamlarda biron-bir holatlar qayd etiladi va ko'rib chiqilgan ishning mazmuniga emas, odatda, sud ishini tashkil etish yoki uning majlislarini o'tkazishga aloqador oqibatlar belgilanadi.

Yakuniy to'xtamlar qonunlar va boshqa normativ-huquqiy aktlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi, shuningdek, Konstitutsiya

qoidalariga sharhlar berish zarurati tufayli paydo bo'lgan ishlar bo'yicha qabul qilinadi. Ushbu masalalar bo'yicha yakuniy to'xtamlar *Konstitutsiyaviy sud qarorlari* deb nomlanuvchi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

**Konstitutsiyaviy sud qarorining tuzilishi.** Konstitutsiyaviy sudning qarori kirish, tavsif, asoslovchi va qaror qismlaridan iborat bo'ladi.

Qarorning *kirish qismida*:

- qarorning nomi, u qabul qilingan sana va joy;
- Konstitutsiyaviy sudning qarorni qabul qilgan tarkibi;
- taraflar va majlisning boshqa qatnashchilari;
- masalaning ta'rifi, uni ko'rib chiqish asoslari ko'rsatiladi.

Qarorning *tavsif qismi*:

• O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun va ushbu Reglamentning Konstitutsiyaviy sudning mazkur masalani ko'rib chiqish huquqi yoki majburiyatini belgilovchi normalarini;

• konstitutsiyaviyligi tekshirilayotgan hujjatning to'liq nomini, u e'lon qilingan (olingan) manba ko'rsatilgan holda o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Qarorning *asoslovchi qismida*:

- ishning Konstitutsiyaviy sud tomonidan aniqlangan va qarorga asos qilib olingan holatlari;
- Konstitutsiyaviy sud amal qilgan normativ-huquqiy hujjatlar ko'rsatilishi lozim.

Qarorning «qaror qismi» hujjatning konstitutsiyaviyligi (konstitutsiyaviy emasligi) to'g'risidagi xulosani, Konstitutsiyaviy sud qarorining qonuniy kuchga kirishi tartibi va ijro muddatini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Konstitutsiyaviy sudning qarori sudyalarning maslahatlashuvi tamom bo'lgani hamon raislik qiluvchi tomonidan o'qib eshittiriladi.

Qaror va xulosalar qabul qilish uchun qoidalar belgilangan. Bunday yakuniy qarorlar ishni ko'rib chiqqan sudyalarning ishtirokidagi yopiq maslahatlashuvida qabul qilinadi. Qabul qilinishi kerak bo'lgan qaror muhokamasida har bir sudyaga cheklanmagan tarzda so'zga chiqish va vaqti belgilanmagan chiqishlar qilish imkoniyati berilgan.

Ovoz berish sudyalardan nomma-nom so'rash orqali o'tkaziladi. Raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi. Konstitutsiyaviy sudning qarori qabul qilingan deb hisoblanishi uchun majlisda ishtirok etayotgan sudyalarning oddiy ko'pchiligi yoqlab ovoz bergan bo'lishi kerak. Sudya ovoz berishda betaraf qolish huquqiga ega emas. Qabul qilingan qarorga qo'shilmagan Konstitutsiyaviy

sud sudyasi alohida fikrini yozma tarzda bayon qilish huquqiga ega bo'lib, u Konstitutsiyaviy sud majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi. Ovozlar teng bo'linib qolgan taqdirda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. («O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasi). Qaror ovoz berishda ishtirok etgan barcha sudyalalar, shu jumladan, unga qo'shilmagan sudyalalar tomonidan imzolanadi.

Yakuniy to'xtam uni ijro etishda xatolarga olib kelishi mumkin bo'lgan, qo'llashda noaniqliklar paydo bo'lmasligi uchun batafsil asoslangan va ishonarli bo'lishi kerak. Konstitutsiyaviy sud to'xtami u e'lon qilingan paytidan kuchga kiradi, bevosita amal qiladi va boshqa organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlanishiga muhtoj emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining barcha to'xtamlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi va matbuotda e'lon qilingan paytidan kuchga kiradi. Konstitutsiyaviy sudning to'xtami qat'iy va uning ustidan shikoyatga o'rin bo'lmaydi.

Konstitutsiyaviy sudning to'xtamlari uning o'z tashabbusi bilan qaytadan ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Bunday qayta ko'rib chiqish asoslari Qonunning 28-moddasi bilan tartibga solingan, ya'ni to'xtam qabul qilingan paytda Konstitutsiyaviy sudga nomal'um bo'lgan yangi muhim holatlar ochilsa, to'xtam qabul qilinishiga asos bo'lgan konstitutsiyaviy norma o'zgargan bo'lsa, shuningdek, agar Konstitutsiyaviy sud to'xtam belgilangan ish yuritish tartibini buzgan holda qabul qilingan deb topsa.

Konstitutsiyaviy sudning qarori u qabul qilingan kundan boshlab, uch kunlik muddatdan kechiktirmagan holda taraflarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri, Oliy Majlis Senatining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziriga yuboriladi. Konstitutsiyaviy sud raisi Konstitutsiyaviy sudning qarorini boshqa organlar va shaxslarga ham yuborish to'g'risida farmoyish berishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari, xulosalari va boshqa to'xtamlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari Konstitutsiyaviy sud belgilagan tartib va muddatlarda ijro etiladi.

## 9.6. Konstitutsiyaviy sud devoni, uning vazifalari va tashkil etish tartibi

Konstitutsiyaviy sudning devoni Konstitutsiyaviy sudning ish-lashini axborotlar va ma'lumotlar bilan, tashkiliy-texnik va tahliliy jihatdan kundalik ta'minlab borish; u tomonidan qabul qilina-yotgan qarorlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish, davlat hoki-miyati organlari bilan zarur aloqalar o'rnatish va ularni bog'lab turish, xalqaro hamkorlik qilish, ish yuritishni olib borish, Konsti-tutsiyaviy sudning faoliyatini ta'minlash bo'yicha boshqa ishlarni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Devon ishi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun, Konstitutsiyaviy sud Reglamenti va Nizom<sup>1</sup> asosida tashkil etiladi. Konstitutsiyaviy sud devoni bo'lim, sektor va boshqa tashkiliy bo'linmalardan iborat. Devon tashkiliy bo'linmalari Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan tasdiqlanadi-gan ular to'g'risidagi Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Konstitutsiyaviy sud devoni zimmasiga quyidagi funksiyalar yuklatiladi:

- Konstitutsiyaviy sud faoliyati, shu jumladan, sud majlislari, xizmatga oid kengashlari va Konstitutsiyaviy sud tomonidan o't-kaziladigan boshqa tadbirlarning tashkiliy, axborot va moddiy-texnik jihatidan ta'minlash;

- Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan belgilangan takliflarni ko'rib chiqishga tayyorlash jarayoni va muddatlariga amal qilishga oid Konstitutsiyaviy sud devoni faoliyati ustidan nazorat;

- Konstitutsiyaviy sud tomonidan masalalarni ko'rib chiqish rejasi loyihasini tuzish, uni sud muhokamasiga taqdim etish; tas-diqlangan rejani devon tashkiliy bo'linmalariga tarqatish;

- takliflar va ularga ilova qilingan materiallar nusxalarini Konstitutsiyaviy sud raisining ularni ko'rishga dastlabki tayyor-garlikni boshlash haqidagi qarori qabul qilinganidan keyin bel-gilangan muddatlarda sudyalarga tarqatish;

- sud tomonidan tayinlangan xulosalar berish to'g'risidagi tak-liflar bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning navbatdagi majlisi haqidagi chaqiruv qog'ozlarini sudyalarga tarqatish;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 1996-yil 5-iyuldagi 3-qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi devoni to'g'risida»gi Nizom.



- Konstitutsiyaviy sud kengashlarida bayonnoma yuritish;
- Konstitutsiyaviy sud qarorlarining ijro etilishi holati to'g'risida sud rahbariyatiga axborot berish;
- sudyalarni mutaxassislar bilan ta'minlash;
- me'yoriy hujjatlar bo'yicha hisob yuritish va ularni tizimlashtirish, qonunchilikdagi o'zgarishlar to'g'risida sudyalarni o'z vaqtida xabardor qilish; amaldagi qonunchilik tahlili;
- fuqarolarni qabul qilishni tashkil etish, ularning arizalari, xatlari va murojaatlarini ko'rib chiqish, ularni umumlashtirish va tahlil etish;
- Konstitutsiyaviy sud qarorlarini e'lon qilish, shuningdek, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bilan bog'liq bo'lgan zarur materiallarni tayyorlash;
- boshqa davlatlar Konstitutsiyaviy sudlari faoliyati tajribasini o'rganish va umumlashtirish;
- «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun va Konstitutsiyaviy sud reglamentidan kelib chiqadigan Konstitutsiyaviy sud faoliyatini ta'minlashning boshqa funksiyalarini amalga oshirish.

Konstitutsiyaviy sud devoniga Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan tayinlanadigan Konstitutsiyaviy sud kotibiyat mudiri rahbarlik qiladi. Kotibiyat mudiri Konstitutsiyaviy sud raisiga bo'ysunadi.

Konstitutsiyaviy sud devoni xodimlari Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan ishga tayinlanadi. Ular mehnat qonunchiligiga muvofiq huquqlarga va majburiyatlarga ega. Devon xodimlarini ishdan bo'shatish va ularga intizomiy ta'zir choralarini qo'llash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sud kotibiyat mudiri:

- Konstitutsiyaviy sud devoniga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, uning ishini tashkil etish va tashkiliy bo'linmalarining tegishli faoliyat ko'rsatishi uchun javob beradi; uning qonunchilikka zid bo'lmagan ko'rsatmalari va farmoyishlari devon xodimlari uchun majburiydir;
- devon xodimlari tomonidan mehnat qonunchiligi va ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilishini ta'minlaydi;
- devon xodimlarini rag'batlantirish yoki ularga intizomiy ta'zir choralarini qo'llash haqidagi takliflarni kiritadi;
- devon xodimlarining mehnat qonunchiligiga binoan, funksional majburiyatlarini, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi;

• tashkiliy ishlarni ko‘rib chiqishda Konstitutsiyaviy sud kengashlarida ishtirok etadi.

Konstitutsiyaviy sud va uning devoni faoliyatini moliyalashtirish respublika budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy sud yillik chiqimlar smetasini tuzadi va u Konstitutsiyaviy sud tomonidan tasdiqlanadi. Smeta doirasida Konstitutsiyaviy sud faoliyatini ta‘minlash uchun mablag‘larni qayta taqsimlanishi Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Kotibiyat mudiri Konstitutsiyaviy sudga uning faoliyatini ta‘minlash uchun mablag‘larni sarflash to‘g‘risida yillik hisobot beradi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatini ta‘minlash bo‘yicha chiqimlar smetasini ijro etilishi haqidagi hisoboti Konstitutsiyaviy sud tomonidan tasdiqlanadi.

### **9.7. Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi**

Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi<sup>1</sup> o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida olib boradigan maslahat organi hisoblanadi. Ilmiy-maslahat kengashining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi hududida Konstitutsiya ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan.

Ilmiy-maslahat kengashi Konstitutsiyaviy sudga huquqiy fan va konstitutsiyaviy adliya amaliyoti, shuningdek, xorijiy qonunchilik yutuqlarini to‘la qo‘llashda yordam berishga da‘vat etilgan. Ilmiy-maslahat kengashi huquq va siyosat sohasida malakali mutaxassislardan tashkil topgan. Ilmiy-maslahat kengashi ishiga kengash a‘zosi bo‘lmagan boshqa fan va amaliyot sohalari mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

Ilmiy-maslahat kengashi rais, rais o‘rinbosari, ilmiy kotib va kengash a‘zolari tarkibida Konstitutsiyaviy sud tomonidan tashkil etiladi. Ilmiy-maslahat kengashi tarkibida alohida qonunchilik jabhalari, shuningdek, huquqni qo‘llash va huquqni himoya qilish faoliyati bo‘yicha seksiyalar tashkil etilishi mumkin.

Ilmiy-maslahat kengashi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud vakolatlari muddatiga saylanadi. Ilmiy-maslahat kengashi majlislariga ko‘rib chiqish uchun masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud raisi kiritadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 1996-yil 5-iyuldagi 4-qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi to‘g‘risida»gi Nizom.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga kiritiladigan masalalar bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi;

- qonunchilikni takomillashtirish to'g'risida qonun hujjatlari loyihalarini va takliflarni tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi majlislari zarurat bo'yicha o'tkaziladi. Kengash majlislari ijodiy muhokama fikrlarning erkin bayon etilishi sharoitida o'tkaziladi. Qabul qilingan qarorga qo'shilmagan Kengash a'zosi Konstitutsiyaviy sud rahbariyati ma'lumotiga yetkaziladigan o'zining alohida fikrini taqdim etish huquqiga ega.

Ilmiy-maslahat kengashi raisi kengash ishini tashkil etadi, majlislarni chaqiradi, kengash tavsiyalarini tayyorlash to'g'risida Kengash a'zolariga topshiriqlar beradi, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Ilmiy-maslahat kengashi ilmiy kotibi kengash ishini tashkiliy jihatdan ta'minlaydi, majlislarga materiallarni tayyorlaydi, bayonnomalar tuzadi, ish yuritishni amalga oshiradi.

Ilmiy-maslahat kengashi faoliyatini tashkiliy-texnik vositalar bilan ta'minlash Konstitutsiyaviy sud devoni zimmasiga yuklatiladi. Ilmiy-maslahat kengashi Konstitutsiyaviy sud rahbariyatiga o'z faoliyati to'g'risida yillik hisobot taqdim etadi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Ushbu mavzu o'rganilishining ahamiyatliligi — u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatining institutsional-huquqiy asoslarini o'rganishga bag'ishlanganligi bilan belgilanadi.*

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini o'rganishda talabalar uning funksional maqsadi va O'zbekiston Respublikasi sud tizimida egallaydigan o'rnini chuqur anglab yetishlari lozim, chunki inson va fuqaroning huquq-erkinliklarini davlat himoyasi konstitutsiyaviy mexanizmi maxsus organ — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tim-solida konstitutsiyaviy sudlov faoliyatidan boshlanadi.*



## NAZORAT SAVOLLARI

---

1. Konstitutsiyaviy nazorat nima?
2. Konstitutsiyaviy sud tarkibiga kim kirishi mumkin?
3. Konstitutsiyaviy sud qanday tashkil topadi?
4. Konstitutsiyaviy sud faoliyati prinsiplarini sanab o'ting.

5. Konstitutsiyaviy sud qanday vakolatlarga ega?
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida ish yuritishning asoslarini tavsiflang.
7. Konstitutsiyaviy sud majlisida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni sanab o'ting.
8. Konstitutsiyaviy sud majlisi o'tkazishning qanday qoidalari mavjud?
9. Qaysi hollarda Konstitutsiyaviy sud majlisi keyinga qoldirilishi mumkin?
10. Konstitutsiyaviy sud to'xtamlari turlarini sanab o'ting.
11. Konstitutsiyaviy sud devoni qanday funksiyalarni bajaradi?
12. Konstitutsiyaviy sud devonining tashkil topish tartibi.
13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi qanday funksiyalarga ega?
14. Konstitutsiyaviy sud sudyasi sha'ni kodeksi nima?
15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarori qanday tuzilishga ega?
16. Konstitutsiyaviy sud raisi vakolatlarini ayting.
17. Qaysi hollarda Konstitutsiyaviy sud qarorlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin?

### **MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR**

1. Chet el davlatlari huquqni qo'llash amaliyotida konstitutsiyaviy sudlovning asosiy modellarini o'rganib chiqing va qiyosiy-huquqiy tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
2. 1990-yil 20-iyundagi «O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazorat to'g'risida»gi Qonun (esk.) va amaldagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunni tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
3. Umumiy yurisdiksiya sudlari va Konstitutsiyaviy sud sudyalari huquqiy maqomini taqqoslang. Ish shakli — *referat*.
4. Umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyati prinsiplari va Konstitutsiyaviy sud faoliyatining prinsiplarini taqqoslang. Ish shakli — *referat*.
5. Konstitutsiyaviy sud qarorini o'rganib chiqing va quyidagi masala bo'yicha o'z tahlilingizni o'tkazing: fuqarolar o'z murojaatlarida ko'proq qaysi mazmundagi muammolarga e'tiborlarini qaratadi; ko'pchilik murojaatlar mualliflari aholining qaysi qatlamiga mansub; murojaatlarda qaysi organlar va mansabdor shaxslarning harakatlari ko'proq shikoyat qilinadi. Ish shakli — *referat*.

### **Axborot uslubiy ta'minot**

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

2. *I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.)* T., «O'zbekiston», 2010.

### Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 470-II sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 9–10, 67-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi 103-I sonli Qonuni (o'zg.: O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda 447-II sonli Qonuni VII bo'limiga, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi Qonuni XII bo'limiga asosan).

4. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi 924-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda 162-II sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi reglamenti (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2004-yil 30-yanvardagi 1-qarori bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi axborotnomasi. T., 2004, o'ninchi nashr.

6. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 1998-yil 3-iyuldagi 4-qarori bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi axborotnomasi. T., 1999, uchinchi nashr.

7. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 1996-yil 5-iyuldagi 4-qarori bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi materiallari to'plami. T., «SHARQ», 1996.

8. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi devoni to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 1996-yil 5-iyuldagi 5-qarori bilan tasdiqlangan).

9. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2004-yil 30-yanvardagi 6-qarori bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2009-yil 5-fevraldagi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2009, № 6, 54-modda.

11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2008-yil 15-oktabrdagi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 44—45, 446-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasi sha'ni kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 1996-yil 5-iyuldagi 2-qarori bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi (materiallar to'plami). T., «SHARQ», 1996.

### Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.

2. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. Inson huquqlarini himoya qilishda — xalqaro va milliy qonunchilik normalarining amal qilishi. Risola. T., TDYI, 2008.

3. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi. T., TDYI, 2009.

4. *Б. Исмаилов*. Основные модели конституционного правосудия в правоприменительной практике зарубежных государств. Вестник Конституционного суда Республики Узбекистан. Выпуск шестнадцатый. T., 2008.

5. *M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtashева*. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.

6. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., TDYI, 2008.

---

---

10-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
SUDYALAR MAQOMI

**O‘quv  
maqsadlari**

*Ushbu mavzuning o‘rganilishi sudyalarning huquqiy maqomi xususiyatlari va sud korpusini tashkil etish tartibini ko‘rib chiqish; sudyalar faoliyati kafolatlarini tahlil qilish; sudyalarning malaka attestatsiyasi va ularga malaka darajalari berish masalalarini ko‘rib chiqishga qaratilgan. Alohida e‘tibor sudyalarning intizomiy javobgarligi institutiga qaratiladi.*

**10.1. Sudyalar maqomi tushunchasi, uning umumiy tavsifi**

Hokimiyat vakolatlari berilgan va ularni amalga oshiruvchi shaxs *ommaviy subyektlar* deb nomlanadi. Masalan, bunday shaxslarga Prezident, Bosh vazir, sudya va boshqalar kiradi. Huquqiy maqom tushunchasini huquq va majburiyatlar majmuyigacha toraytirish noto‘g‘ri bo‘ladi. Ularning huquqiy maqomi xususiyatini e‘tiborga olgan holda ushbu tushuncha bir nechta unsurlar mavjudligini taqozo etadi:

1) tegishli huquqiy maqomning tayinlash yoki saylash orqali shakllanishi;

2) ommaviy subyekt vakolatlari doirasi, shuningdek, vakolatlarni amalga oshirishning tartibi va usullari;

3) ommaviy subyekt maqomiga ega bo‘lgan shaxs faoliyatini tugatish tartibi;

4) boshqa ommaviy subyektlar — davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi boshqa subyektlardan farqlash imkoniyatini beradigan tegishli ommaviy subyekt huquqiy holatining xususiyatlari.

Shubhasiz, sudyalar ular sud hokimiyati vakillari bo‘lgani hamda, nafaqat, huquq va qonuniy manfaatlar, qonuniylik va huquqiy tartibot kafili sifatida, balki muayyan sharoitlarda davlat hokimiyatning boshqa tarmoqlari — qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarni tiyib turuvchi va muvozanat saqlovchi omil

rolini o'ynashga da'vat etilganligi sababli ommaviy subyektlar hisoblanadi. Demak, sudyaning huquqiy maqomi ommaviy subyekt huquqiy maqomining yuqorida ko'rsatilgan elementlari tahlili orqali ochib berilishi mumkin. Mazkur tahlilni amalga oshirishga quyidagi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar imkon beradi: O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni, «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizom.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 60-moddasiga asosan, sudyalar qonunga muvofiq, odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. Shunday qilib, kasbiy ma'noda sudya sifatida konstitutsiyaviy tartibda odil sudlovni amalga oshirish vakolati berilgan, kasbiy asosda majburiyatlarni bajaradigan va konstitutsiyaviy, fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy va jinoiy sudlov ishlarini yuritish orqali faoliyat ko'rsatayotgan shaxs tushuniladi. Yuqorida berilgan ommaviy subyekt huquqiy maqomining elementlari ketma-ketligiga rioya qilgan holda sudyaning huquqiy maqomi tavsifini keltiramiz.

Boshqa ommaviy subyektlar huquqiy maqomi singari sudyalar huquqiy maqomi o'ziga xos ayrim xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlari odil sudlov prinsiplari yoritilganda ko'rsatilgan va ochib berilgan. Shu bilan birga, aytish kerakki, mazkur xususiyatlar yaxlit tizimni tashkil etadi va ularga quyidagi jihatlar kiradi:

- 1) sudyaning xizmat immuniteti;
- 2) intizomiy javobgarlik instituti;
- 3) sudyalar vakolatini to'xtatib turish instituti;
- 4) sudyalarning malaka attestatsiyalari va malaka darajalari instituti;
- 5) sudyalarning qonunda belgilangan tartibda saylanishi, tayinlanishi va vazifasidan ozod etilishi;
- 6) odil sudlovni amalga oshirishning qat'iy belgilangan tartib-tamoyili;
- 7) qarorlar qabul qilishda sudyalar maslahatlashuvi siri va uni oshkor qilishni talab etishning man etilganligi;
- 8) sudga hurmatsizlik va muayyan ishlarni hal etishga aralashish, sudyalar daxlsizligiga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik;
- 9) sudyaga uning yuksak maqomiga mos ravishda davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minot taqdim etilishi.



Sudyaning xizmat immuniteti, odil sudlovni amalga oshirishning qat'iy belgilangan tartib-tamoyili, qarorlar qabul qilishda sudyalar maslahatlashuvi siri va uni oshkor qilishni talab etishning man etilganligi, sudga hurmatsizlik va muayyan ishlarni hal etishga aralashish, sudyalar daxlsizligini tajovuz qilishganlik uchun javobgarlikka doir sudyalarning huquqiy maqomi masalalari avvalgi boblarda (sud hokimiyati; odil sudlov va uning prinsiplari) ko'rib chiqilgan edi.

Sudyalar vakolatini to'xtatib turish instituti; sudyalarning qonunda belgilangan tartibda saylanishi, tayinlanishi va vazifasidan ozod etilishi sud korpusi shakllanishi masalasining tarkibiy qismi bo'lganligi sababli ular ushbu bobning alohida paragraflarida ko'rib chiqiladi. Ushbu paragrafda biz 2-, 4- va 9-bandlarda nazarda tutilgan sudya huquqiy maqomi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

**Intizomiy javobgarlik instituti.** Intizomiy javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida aks ettirilgan. Unda sudyani intizomiy javobgarlikka tortish asoslari ko'rsatilgan. Qayd etish kerakki, sudyalarning intizomiy javobgarligi boshqa davlat xizmatchilari intizomiy javobgarligidan tubdan farq qiladi. Hech qanday mansabdor shaxs, shu jumladan, sud hokimiyati mansabdor shaxsi ham sudyaga nisbatan intizomiy ta'zir choralari qo'llash huquqiga ega emas. Sudyani intizomiy javobgarlikka tortish masalalari sudyalar hamjamiyati tomonidan hal etiladi. Qonun chiqaruvchi tomonidan sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortishning alohida tartibi belgilangan. Bu sudyalarning mustaqilligi va ularning yuqori maqomi bilan bog'liq.

Shunday qilib, sudya:

- odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi uchun;

- sud ishini tashkil etishda beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun, shuningdek, xizmat borasidagi yoki obro'siga putur yetkazadigan boshqa xatti-harakati uchun faqat sudyalar malaka hay'atining qaroriga asosan, intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Harbiy sudning sudyasi harbiy intizomni buzganligi uchun ham intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Sud qarorining bekor qilinishi yoki o'zgartirilishining o'zi, sud qarorini chiqarishda qatnashgan sudyaning, agar u ataylab qonun buzilishiga yoki jiddiy oqibatlarga olib kelgan vijdotsizlikka yo'l qo'ymagan bo'lsa, javobgar bo'lishiga sabab bo'lmaydi.

Sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan «Sudyalar-ning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom bilan belgilanadi. Mazkur Nizomda sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortishning quyi-dagi tartibi ko'rsatilgan. Chunonchi, sudyalar oliy malaka hay'ati:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarining;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o'rinbosarlarining;
- O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisi va rais o'rinbo-sarlarining intizomiy javobgarligi haqidagi ishlarni ko'radi.

O'z navbatida, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqal-pog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, shuningdek, harbiy sudlar sudyalarining malaka hay'atlari sudya-larning intizomiy javobgarligi haqidagi ishlarni o'z vakolatlari doirasida ko'radilar. Xo'jalik sudlari sudyalarining malaka hay'ati tegishli x'o'jalik sudlari sudyalarining intizomiy javobgarligi haqidagi ishlarni ko'radi.

Shuningdek, Nizomda intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'z-g'atish huquqiga ega subyektlar ko'rsatilgan. Nizomga ko'ra, intizo-miy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish huquqiga quyidagilar ega:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi — umumiy yuris-diksiya sudlari sudyalariga nisbatan;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari — shu sudlar sudyalari, fuqa-rolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari sudyalariga nisbatan;
- O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisi — shu sud sudya-lariga hamda okrug va hududiy harbiy sudlar sudyalariga nisbatan;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi — xo'jalik sudlari sudyalariga nisbatan.

Intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atishga asoslar mav-jud bo'lgan hollarda tegishli sudlarning rahbarlari bu haqida qa-ror chiqaradilar, unda intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'a-tishga sabab bo'lgan asoslar ko'rsatilishi shart. Bunda intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atgan shaxs, albatta, sudyani ja-vobgarlikka tortish asoslariga taalluqli ma'lumotlarni oldindan tek-shiradi. Bunda intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan shaxsdan yozma tushuntirish talab qilinadi.

Ustidan ish qo'zg'atilgan sudya intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ish materiallari bilan bu materiallarni sudyalarning malaka hay'atiga yuborishdan oldin tanishtirilishi shart. Bunda sudya qo'shimcha tushuntirishlar taqdim etishga yoki qo'shimcha tekshiruv o'tkazishni talab qilishga haqli.

Intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror zarur materiallar bilan birga sudyalarning tegishli malaka hay'atiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Aytish kerakki, intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror uni qo'zg'atgan shaxs tomonidan ishni sudyalarning malaka hay'atida ko'rib chiqish boshlangunga qadar, chaqirib olinishi mumkin. O'ziga nisbatan intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror chaqirib olinayotgan sudya ishni mazmunan ko'rib chiqishni sudyalarning malaka hay'atidan talab qilishga haqli.

Nizomda sudya, nojo'ya xatti-harakat qilganligi aniqlangan kundan boshlab, xizmat tekshiruvlariga ketgan vaqt, sudyaning uzrli sabablarga ko'ra, ishda bo'lmagan vaqti hamda sudyalarning malaka hay'atida intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishga ketgan vaqtni hisoblamaganda, kechi bilan bir oy ichida, ammo nojo'ya xatti-harakat sodir etilgan kundan e'tiboran esa kechi bilan olti oy ichida intizomiy jazoga tortilishi mumkinligi belgilangan.

Zarur hollarda, ishni ko'rib chiqish boshlangunga qadar, sudyani intizomiy javobgarlikka tortish asoslari qo'shimcha ravishda tekshiriladi, bunday tekshirishni o'tkazishni sudyalarning malaka hay'atining raisi sudyalarning malaka hay'ati a'zolaridan biriga topshiradi. Bunda qo'shimcha hujjat va materiallar, shuningdek, ko'rib chiqish chog'ida sudya qonun buzilishiga yo'l qo'ygan sud ishlari ham talab qilib olinishiga yo'l qo'yiladi.

Ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sudyalarning tegishli malaka hay'ati quyidagi qarorlardan birini chiqarishi mumkin:

1) intizomiy jazo chorasi qo'llash to'g'risida. Quyidagi intizomiy jazo choralari nazarda tutilgan: hayfsan; jarima. Jazo qo'llanayotganida qoidabuzarlikning xususiyati va uning oqibatlarini, nojo'ya xatti-harakatning og'ir-yengilligi, sudyaning shaxsi, uning aybdorlik darajasi hisobga olinadi;

2) intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni tugatish to'g'risida. Sudyalarning tegishli malaka hay'ati: a) sudya intizomiy javobgarlikka asossiz tortilgan bo'lsa; b) Nizomning 41-moddasida nazarda tutilgan intizomiy javobgarlikka tortish muddatlari o'tkazib yuborilgan bo'lsa; d) intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni

majlisda muhokama etish bilangina chegaralanib, intizomiy jazoni qo'llashni maqsadga muvofiq emas deb topsa, intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni tugatadi;

3) intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ish materiallarini sudyaning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalasini qo'zg'atish huquqiga ega bo'lgan organlarga yuborish haqida.

Agar sudyalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan sudyaning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalasi oldiga qo'yilgan organ yoki mansabdor shaxs bunga asos yo'q deb topsa, intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ish sudyalarning malaka hay'atiga qaytariladi va ish yuritish qaytadan boshlanadi. Dastlabki qaror chiqqan kundan ishni qaytargunga qadar, o'tgan vaqt intizomiy javobgarlikka tortish muddatlariga kirmaydi.

**Sudyalarni malaka attestatsiyasidan o'tkazish va ularga malaka darajalari berish instituti.** Sudyalarni malaka attestatsiyasidan o'tkazish va ularga malaka darajalari berish tartibi «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizomning 25—35-moddalarida belgilangan.

Sudyalarning malaka attestatsiyasi O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq hamda sudyalar sifat tarkibini yaxshilash, ularning kasb malakasi oshishiga baho berish va rag'batlantirish, odil sudlovni amalga oshirish borasidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida o'tkaziladi.

Malaka attestatsiyasi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlarining, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raislari va rais o'rinbosarlariga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan, sudyalar oliy malaka hay'ati tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlarining, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining sudyalariga nisbatan — Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislarining taqdimnomasiga binoan, sudyalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan;

- O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining, okrug va hududiy harbiy sudlarning sudyalariga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining taqdimnomasiga binoan, harbiy sudlar sudyalarining malaka hay'ati tomonidan;

- xo'jalik sudlari sudyalariga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan, xo'jalik sudlari sudyalarining malaka hay'ati tomonidan o'tkazilishi nazarda tutilgan.

Birinchi marta sudyalik lavozimiga saylangan (tayinlangan) shaxslarning malaka attestatsiyasi ular ish faoliyatining dastlabki uch oyi ichida o'tkazilishi kerakligini e'tiborga olish lozim. Sudyalarining navbatdagi malaka attestatsiyasi ularga berilgan malaka darajasida bo'lish muddati tamom bo'lgan kundan e'tiboran, bir oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Shuningdek, Nizomda sudyaga muddatidan oldin yuqoriroq malaka darajasi berish uchun unga avval berilgan malaka darajasida bo'lish muddatining yarmi o'tganidan keyingina navbatdagi malaka attestatsiyasi o'tkazilishi mumkinligi ham belgilangan.

Sudyalarining malaka attestatsiyasini tayyorlash va o'tkazish jarayoni quyidagilardan iborat:

a) *Sudyaning tavsifnomasini tayyorlash.* Malaka attestatsiyasidan o'tkazilishi lozim bo'lgan sudyaga attestatsiya o'tkazishdan kamida bir oy oldin uning kasb faoliyatiga, ishchanlik va axloqiy jihatlariga baho berilgan tavsifnoma hamda ishi haqidagi ma'lumotnoma tayyorlanadi.

b) *Sudyaning tavsifnoma bilan tanishtirilishi.* Tegishli sudning rahbari sudyani u haqda tayyorlangan tavsifnoma va ma'lumotnoma bilan malaka attestatsiyasi o'tkazish to'g'risidagi materiallarni sudyalarining tegishli malaka hay'atiga yuborishdan oldin tanishtirishi lozim.

d) *Malaka attestatsiyasi o'tkaziladigan vaqt haqida xabardor qilish.* Malaka attestatsiyasi o'tkaziladigan vaqt haqida sudyaga kamida ikki hafta oldin xabar qilinishi kerak. Malaka attestatsiyasi taqdimnoma tushgan kundan boshlab bir oy ichida, qoida tariqasida, attestatsiyadan o'tuvchi sudyaning ishtirokida o'tkaziladi.

e) *Malaka attestatsiyasining protsessual tartibi.* Sudyani malaka attestatsiyasidan o'tkazish raislik qiluvchining yoki sudyalar malaka hay'atining taqdim qilingan hujjat va materiallarni oldindan o'rganib chiqqan a'zolaridan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. Shundan so'ng attestatsiyadan o'tuvchining, zarur hollarda esa, sudyani attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida taqdimnoma yuborgan mansabdor shaxsning fikri eshitiladi.

f) *Malaka attestatsiyasi natijalari bo'yicha qaror qabul qilish.* Sudyalarning malaka hay'ati sudyaning kasbiy bilim darajasi, ishchanlik jihatlari, ish staji va tajribasi, egallab turgan lavozimiga qarab, quyidagi xulosalardan birini beradi:

- sudyaga taqdimnomada ko'rsatilgan malaka darajasi berish mumkinligi to'g'risida;

- sudyaga yuqoriroq malaka darajasi berish mumkinligi to'g'risida;

- sudyani ilgari berilgan malaka darajasida qoldirish to'g'risida.

Sudyalar malaka hay'atining sudyalarga malaka darajasi berish masalalariga doir xulosalari malaka attestatsiyasi materiallari bilan birgalikda sudyalar oliy malaka hay'atiga yuboriladi. Sudyalar oliy malaka hay'ati sudyaga malaka darajasi berish to'g'risidagi masalani sudyalarning malaka hay'ati chiqargan xulosa bilan bog'liq bo'lmagan holda hal etadi. Xo'jalik sudlari sudyalarning malaka hay'ati xo'jalik sudlarining sudyalariga malaka darajalarini umumiy yurisdiksiya sudlarining sudyalariga beriladigan tartibda beradi.

Sudyalarga malaka darajalari berish prinsiplari barcha turdagi sudlar uchun yagonadir. Sudyalar uchun quyidagi malaka darajalari joriy etilgan: oliy, birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi malaka darajasi. Malaka darajalari faxriy yoki maxsus unvon bo'lmay, ular sudyalarning kasbiy mohirlik darajasi haqida dalolat beradi, uning nufuzini oshiradi va sudyalarning moddiy ta'minotini oshirishga ta'sir etadi. Malaka darajasi berilishi yoki uni oshishi, u berilgan sudyalarning maqomini o'zgartirmaydi, chunki qonunda qaysi sudda ishlashi va qanday malaka darajasi sohibi ekanligidan qat'i nazar, sudyalarning yagona huquqiy maqomi belgilangan.

g) *Malaka darajasi berilganligi to'g'risida guvohnoma.* Sudya malaka attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda, unga malaka darajasi berilganligi to'g'risida guvohnoma beriladi. Sudyalar tegishli malaka hay'atining malaka darajasi berish to'g'risidagi qarori tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi matbuot organlarida e'lon qilinadi, shuningdek, sudyaning shaxsiy ishiga qo'shib qo'yiladi.

«Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizomda malaka attestatsiyalarini o'tkazish muddatlari ham belgilanadi. Sudyalarning faoliyatini baholash hamda odil sudlovni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini kuchaytirish maqsadida sudyalarning tegishli malaka hay'ati vaqt-vaqti bilan, uch yilda bir marta sudya-

larning malaka attestatsiyasini o'tkazib turadi. Sudyalarning davriy malaka attestatsiyasini o'tkazish to'g'risidagi qaror sudyalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan qabul qilinadi.

Agar sudyalarning davriy malaka attestatsiyasini o'tkazish chog'ida O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 72-moddasi birinchi qismining 1, 3 va 8-bandlarida (xususan, sudyaning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatishning quyidagi asoslari: sudyaning qasamyodini buzgan taqdirda; sudyalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan ogohlantirish qilinganidan yoki vakolatlari to'xtatilganidan keyin u sudya lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishni davom ettiravergan taqdirda; sog'lig'i holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra, uzoq vaqt mobaynida sudyalik vazifasini bajarishga qodir bo'lmay qolgan taqdirda) nazarda tutilgan holatlar aniqlangudek bo'lsa, sudyalarning malaka hay'ati barcha materiallarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuboradi.

**Sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga mos keladigan moddiy va ijtimoiy ta'minot taqdim etish.** Sudya huquqiy maqomi xususiyatini tashkil etuvchi mazkur muhim element O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 9-bobida tartibga solingan. Ushbu bob mazmuni quyidagi qismlardan tarkib topgan: 1) moddiy ta'minot choralari va 2) sudyalar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash choralari (75—76-moddalar).

Sudyalarning *moddiy ta'minoti* quyidagilarni nazarda tutadi:

a) sudyalarning ish haqi miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko'p yillik xizmati uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat;

b) sudyalarga har yili o'ttiz olti ish kunidan iborat haq to'lanadigan ta'til beriladi.

O'z navbatida, *sudyalarning va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish choralari* quyidagilarni anglatadi:

a) sudyalarning hayoti va sog'lig'i davlatning maxsus muhofazasida bo'ladi hamda respublika budjeti mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug'urta qilinadi;

b) quyidagi hollarda davlat sug'urta organlari sug'urta summalarini to'laydi:

- sudya ishlayotgan davrida yoki vakolat muddati tugaganidan keyin halok bo'lsa (vafot etsa), agar bu sudya o'z xizmat vazifalarini

bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi oqibatida ro'y bergan bo'lsa, uning merosxo'rlariga sudyaning ellik oylik ish haqi miqdorida;

- sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolsa yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida sudyaning yigirma besh oylik ish haqi miqdorida;

- sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etmaydigan va mehnat qobiliyatining doimiy yo'qolishiga olib kelmaydigan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida sudyaning besh oylik ish haqi miqdorida.

Sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolganida yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha olingan to'lovlarni hisobga olmagan holda unga ish haqi va tayin etilgan pensiya o'rtasidagi farq har oyda to'lab boriladi.

Sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilishi oqibatida halok bo'lsa (vafot etsa), uning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga sudya ish haqining ularning hissasiga to'g'ri keladigan qismi va boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan ularga tayinlangan pensiya o'rtasidagi farq har oyda, majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha olingan to'lovlarni hisobga olmagan holda to'lanadi.

Sudyaning o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan unga tegishli mol-mulkni yo'q qilish yoki shikastlash oqibatida yetkazilgan zarar sudyaga yoki uning oila a'zolariga to'laligicha qoplanadi. Zararni qoplash bo'yicha to'lovlar respublika budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilib, keyinchalik ular aybdor shaxslardan qonunda belgilangan tartibda undirib olinadi.

## **10.2. Sud korpusini (uning zaxirasini) tashkil etish tartibi**

Sudyalik lavozimini egallovchi davlat xizmatchilarining jami sud korpusi deb nomlanadi. Sud korpusiga O'zbekiston Respublikasi sud tizimida sudyalik lavozimini egallab turgan barcha shaxslar kiradi: Konstitutsiyaviy sudda, umumiy yurisdiksiya sudlarida, jumladan, harbiy sudlarda, shuningdek, xo'jalik sudlarida.



Odatda, sud korpusini shakllantirish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

1) sudyalik lavozimlariga tavsiya etish uchun nomzodlar zaxirasini shakllantirish va nomzodlarni tanlash;

2) tayinlash yoki saylash.

Shu bilan birga, sudyalik lavozimiga tanlash va tayinlash jarayoni sud darajasi va turi, shuningdek, bo'lajak sudya egallaydigan lavozimga qarab, o'z xususiyatlariga ega.

Sud korpusi shakllanishining birinchi bosqichini ko'rib chiqamiz — *sudyalik lavozimlariga tavsiya etish uchun nomzodlar zaxirasini shakllantirish va nomzodlarni tanlash*. Ushbu bosqich 2001-yil 7-dekabrda qabul qilingan «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom bilan tartibga solingan va bir nechta bosqichlardan tashkil topgan.

Sudyalik lavozimlariga tavsiya etish uchun nomzodlar zaxirasini shakllantirish va nomzodlarni tanlash eng yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, yuqori malakali yuristlar — sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, muassasalar va tashkilotlar xodimlari orasidan sudlarning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda amalga oshirishini belgilab o'tish lozim.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining va jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlarining, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar hamda Toshkent shahar sudlarining, harbiy sudlarning sudyaligiga nomzodlar zaxirasini shakllantirish sudyalarning tegishli malaka hay'atlari tomonidan amalga oshiriladi, rais va rais o'rinbosari lavozimlari bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyaligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlarining, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar hamda Toshkent shahar sudlarining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raislari va rais o'rinbosarlari lavozimlariga nomzodlar zaxirasini shakllantirish umumiy yurisdiksiya sudlarining sudyalar oliy malaka hay'ati tomonidan amalga oshiriladi.

Xo'jalik sudlari tuman bo'g'iniga ega emas va shuning uchun qonunchilikda xo'jalik sudlarining sudyaligiga nomzodlar zaxirasini shakllantirishning boshqacha tartibi nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining

sudyaligiga nomzodlar zaxirasini shakllantirish xo‘jalik sudlari sudyalarining malaka hay’ati tomonidan amalga oshiriladi.

a) *Nomzodning ariza berishi.* Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining va jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlarining, okrug va hududiy harbiy sudlarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudining, viloyatlar hamda Toshkent shahar xo‘jalik sudlarining sudyaligiga (xo‘jalik sudlari raislari va rais o‘rinbosarlari lavozimlariga nomzodi ko‘rsatilayotgan shaxslar bundan mustasno) nomzodlar zaxirasini shakllantirish uchun sudyalarning tegishli malaka hay’atlari o‘zini sudyalikka nomzodlar zaxirasiga kiritish yoki bo‘shab qolgan muayyan sudyalik lavozimiga qo‘yilish istagini bildirgan shaxslardan arizalar qabul qiladi. Bunda mazkur shaxslarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi;
- yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmashligi;
- mutaxassisligi bo‘yicha uch yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi. Sudyalikka nomzodlar zaxirasiga sudlangan shaxslar qabul qilinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudining sudyaligiga, xo‘jalik sudlarining raislari va rais o‘rinbosarlari lavozimlariga nomzodlar zaxirasini, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudlarining, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar hamda Toshkent shahar sudlarining, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyaligiga nomzodlar zaxirasini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni 61-moddasi talablariga rioya qilingan holda sudyalarning tegishli malaka hay’atlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu moddada yuqorida aytib o‘tilgan sudlar sudyaligiga nomzodlarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar belgilangan:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyaligiga nomzodlarga — *yuridik ixtisos bo‘yicha kamida besh yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo‘lib kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo‘lish;*

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi sudyaligiga nomzodlarga — *yuridik ixtisos bo‘yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo‘lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lish;*

• harbiy sud sudyaligiga nomzodlarga — *haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega bo'lish.*

Har bir sudyalikka nomzod uchun sudyalikka nomzodlar zaxirasiga kiritish to'g'risidagi arizaga *kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, tarjimai hol, oliy yuridik ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi, mehnat daftarchasidan ko'chirma, oxirgi ish joyidan tavsifnoma* ilova qilish zarurati majburiy shart hisoblanadi.

Sudyalikka nomzodlar zaxirasiga kiritish to'g'risidagi arizalarni qabul qilish va ro'yxatga olish bilan bir qatorda, sudyalar malaka hay'ati kotibi hujjatlarning to'liqligi va to'g'riligini tekshirishni amalga oshiradi.

*b) Qonunda belgilangan talablarga muvofiqlikni tekshirish.* Sudyalarning malaka hay'atlari nomzodlarning kasbiy, ma'naviy-axloqiy va shaxsiy fazilatlari o'rganilishini tashkil etadi. Mazkur tekshirishdan keyin materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran, ikki oydan kechiktirmay malaka imtihonlari o'tkazadi.

*d) Sudyalik lavozimiga ko'rsatilayotgan shaxslarni o'qitish.* Sudyalarning malaka hay'atlari sudyalikka nomzodlar zaxirasida turgan hamda fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining va jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining sudyalari, okrug va hududiy harbiy sudlarning sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining va viloyatlar hamda Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudyalari lavozimlariga nomzodi birinchi marta ko'rsatilayotgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida maxsus kurslarda o'qitishni tashkil etadi. Maxsus kurslarni tamomlaganlik to'g'risidagi sertifikat berilgan kundan e'tiboran, uch yil mobaynida amal qiladi.

Bunda sudyalik lavozimiga nomzodi birinchi marta ko'rsatilayotgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida maxsus kurslarni tamomlaganlik to'g'risidagi sertifikatga ega bo'lgan taqdirdagina sudyalik lavozimiga vakansiya ochilganligi to'g'risida xabardor qilinadilar.

*e) Malaka imtihonini topshirish tartibi.* Bo'shab qolgan sudyalik lavozimiga o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxslar malaka imtihoni topshiradilar, mazkur imtihon natijalariga ko'ra, sudyalarning tegishli malaka hay'atlari ularning sudyalik lavozimiga munosibliyi yoki munosib emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Malaka imtihonlarini topshirish natijalariga ko'ra, sudyalikka nomzodlar zaxirasiga kiritish yoki zaxiraga kiritishni rad etish to'g'risida qaror chiqariladi. Sudyalikka nomzodning malaka imtihoni u bilan suhbat o'tkazish, og'zaki savol-javoblar, ro'yxati sudyalarning tegishli malaka hay'ati majlisida tasdiqlanadigan amaliy masalalarni hal etishdan iborat bo'ladi.

Sudyalarning malaka hay'ati sudyalikka nomzodning malaka imtihonidan o'tgan yoki o'tmaganligi to'g'risida xulosa beradi. Nizomda malaka imtihonini topshira olmagan sudyalikka nomzod kamida bir yildan keyin qaytadan imtihonga qo'yilishi mumkinligi belgilangan.

Sudyalarning malaka hay'atlari majlislarida tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlarining, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar hamda Toshkent shahar sudlarining, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining, harbiy sudlarning, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudyalari ishtirok etishlari mumkin, ular sudyalik lavozimiga nomzodlarning har biri xususida o'z fikrini bildirishga, sudyalar malaka hay'atining qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda esa o'z fikrini yozma ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuborishga haqlidir.

Sudyalikka nomzodlar zaxirasiga kiritilgan shaxslarga taalluqli ma'lumotlar sudyalarning tegishli malaka hay'atlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuboriladi. Nizomda sudyalarning malaka hay'ati raisi nomzodning yoki sudyaning tayyorligi haqidagi masalaga oid xulosani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuborishi ko'rsatilgan.

Sudyalik lavozimida bo'lish muddati tugaydigan shaxslar ham xuddi shu tanlash bosqichlaridan o'tadi. Vakolat muddati tugayotgan sudyalarga nisbatan ularning nomzodini yangi muddatga ko'rsatish to'g'risidagi masala sudyalarning tegishli malaka hay'atlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Sudyalar malaka hay'atlarining mazkur shaxslarning sudyalik lavozimiga munosibliyi yoki munosib

emasligi xususidagi hamda ularni yangi muddatga tayinlash mumkinligi haqidagi qarori ularning vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuboriladi.

Bunda:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyaligiga nomzodlarning malaka imtihoni hamda ularning shu lavozimda ishlashga tayyorligini baholash — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi taqdim etgan materiallar asosida yoki vakolati muddati o'tayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining arizasiga binoan, Sudyalar oliy malaka hay'ati tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisligi va rais o'rinbosarligiga nomzodlarning malaka imtihoni hamda ularning shu lavozimda ishlashga tayyorligini baholash — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi taqdim etgan materiallar asosida sudyalar oliy malaka hay'ati tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyaligiga nomzodlarning malaka imtihoni hamda ularning shu lavozimda ishlashga tayyorligini baholash — mazkur sudlarning raislari taqdim etgan materiallar asosida yoki vakolati muddati tugayotgan sudyalarning arizalariga binoan, yoxud quyi sudlarning sudyalari arizalariga binoan, sudyalarning tegishli malaka hay'atlari tomonidan;

- fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari sudyaligiga nomzodlarning malaka imtihoni hamda ularning shu lavozimda ishlashga tayyorligini baholash — sudyalik lavozimiga nomzodlarning arizalariga binoan, yoki vakolati muddati tugayotgan sudyalarning arizalariga binoan, sudyalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan;

- okrug va hududiy harbiy sudlar sudyaligiga nomzodlarning malaka imtihoni va ularning shu lavozimda ishlashga tayyorligini baholash — sudyalik lavozimiga nomzodlarning arizalariga binoan, yoki vakolati muddati tugayotgan sudyalarning arizalariga binoan, harbiy sudlar sudyalarining malaka hay'ati tomonidan;

- xo'jalik sudlari sudyaligiga nomzodlarning malaka imtihoni va ularning shu lavozimda ishlashga tayyorligini baholash — O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasi asosida yoki sudyalik lavozimiga nomzodlarning arizalariga binoan, yoxud vakolati muddati tugayotgan xo'jalik sudlari sudyalarning arizalariga binoan, xo'jalik sudlari sudyalarning malaka hay'ati tomonidan o'tkaziladi.

Sudyalar malaka hay'atining nomzodini yuqori sudyalik lavozimiga tavsiya etish mumkinligi haqidagi xulosasi tegishli sud raisi taqdim etgan materiallar asosida yoxud sudyalarning arizalariga binoan beriladi.

f) *Nomzodlarni sudyalar malaka hay'ati tomonidan muayyan sudyalik lavozimiga tavsiya etish.* Sudyalarning tegishli malaka hay'ati sudyalikka nomzodlar zaxirasida turgan shaxslarning sudyalik lavozimiga layoqatliligi darajasini sudlarning ixtisoslashuvini inobatga olgan holda imtihon qabul qilish yo'li bilan baholaydi. Bunda ularning mehnat faoliyati, shaxsi va dunyoqarashi e'tiborga olinadi.

Sudyalarning malaka hay'ati bo'sh bo'lgan sudyalik lavozimiga tavsiya etilgan kamida ikki nafar nomzodga doir materiallarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuboradi.

Sudyalar malaka hay'atlarining mazkur shaxslarning sudyalik lavozimiga munosibliyi yoki munosib emasligi xususidagi hamda ularni yangi muddatga tayinlash mumkinligi haqidagi qarori ularning vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin komissiyaga yuborilishi kerakligini nazarda tutish lozim. Komissiya sudyalarning vakolat muddati tugashidan kamida bir oy oldin ularni yangi muddatga taqdim etish to'g'risidagi hujjatlar ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.

g) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi sudyasi lavozimiga nomzodlarni ko'rib chiqish (keyingi o'rinlarda — Komissiya.)* Sudya kadrlarni tanlash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tasdig'iga taqdim etishda qonuniylikni ta'minlash maqsadida:

- taqdim etilgan nomzodlarning O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sud-

lari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari sudyasi lavozimlariga munosibligini aniqlaydi hamda mazkur masala bo'yicha xulosalar beradi;

• fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari sudyalari lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi.

Bunda Komissiya nomzodlarni o'rganishning turli usullaridan foydalanadi (suhbatlashish, mustaqil ekspertlar tomonidan sinab ko'rish, topshirilgan muammo bo'yicha mavzuga oid referatlar tayyorlash, tezkor savol-javoblar o'tkazish va h.k.).

Aytilganidek, sudyalik lavozimlariga kadrlar bo'yicha takliflar Komissiya tomonidan ko'rib chiqish uchun bo'sh sudyalik lavozimiga kamida ikki nomzoddan iborat holda muqobillik asosida kiritiladi. Komissiya majlisida muhokama etilayotgan nomzodning shaxsiy va kasbiy sifatleri to'g'risida doimiy asosda faoliyat yurituvchi Komissiya a'zosining axboroti tinglanadi.

Komissiya sudya kadrlar bo'yicha taqdim etilgan materiallarni o'rganish va suhbatlashish yo'li bilan sudyalikka nomzodlarni tanlab oladi, ularning kasb mahorati darajasini, ma'naviy fazilatlarini (halolligi va vijdonini sotmasligini), qobiliyatini, shuningdek, huquq sohasidagi tegishli tayyorgarligi va malakasini aniqlaydi.

Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tavsiya etish masalalari Komissiya majlislarida ko'rib chiqilayotganda nomzodni taqdim etayotgan tegishli sudyalar malaka hay'atining raisi maslahat ovozi bilan qatnashishi majburiydir. Qaror majlisda ishtirok etayotgan Komissiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Nomzodga ovoz berish chog'ida Komissiya a'zolaridan boshqa shaxslarning hozir bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Komissiya majlisida quyidagi qarorlar qabul qilinishi mumkin:

• nomzodning taqdim etilgan sudyalik lavozimiga munosibligi to'g'risida;

• nomzodning taqdim etilgan sudyalik lavozimiga nomunosibligi to'g'risida;

• nomzodning keyinchalik bo'sh lavozimga taqdim etish huquqi bilan sudyalik lavozimi zaxirasida qoldirilishi to'g'risida;

• sudyalik lavozimiga taqdim etilgan nomzodning hujjatlarini professional, axloqiy va shaxsiy fazilatlarini qo‘shimcha o‘rganish uchun qaytarib yuborish to‘g‘risida.

Komissiyaning qarori xulosa tarzida rasmiylashtiriladi va majlisda qatnashgan Komissiya a‘zolari tomonidan imzolanadi. Ovoz berish vaqtida ozchilikni tashkil qilgan Komissiya a‘zolari xulosani imzolaydilar, ularning alohida fikri majlis bayonnomasiga kiritiladi.

Agar Komissiya nomzodni sudyalik lavozimiga nomunosib yoki uning hujjatlarini qo‘shimcha o‘rganish uchun qaytarib yuborish lozim degan xulosaga kelgan hollarda bir yil muddat o‘tgan-dan keyin ushbu masalaning takroran ko‘rib chiqilishiga yo‘l qo‘yiladi. Bu haqda xulosaga tegishli yozuv kiritiladi.

Komissiyaning xulosasida Komissiyaning nomi, tarkibi va majlisning vaqti, masalasi ko‘rib chiqilayotgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi hamda uni ta‘riflovchi boshqa ma‘lumotlar, taqdimnomani (materiallarni) kiritgan organning nomi, shuningdek, Komissiya tomonidan qabul qilingan qaror ko‘rsatiladi.

Materiallar to‘liq bo‘lmagan hollarda, masalani xolisona yechish maqsadida Komissiya uni ko‘rib chiqishni keyinga qoldirish huquqiga egaligi nazarda tutilgan.

*h) Sud darajasi va turiga, shuningdek, bo‘lajak sudya egallaydigan lavozimga qarab, nomzodlarni sudyalik lavozimiga ko‘rib chiqish yoki tayinlashga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga taqdim etish.*

Nomzodlarning O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlarining sudyalari lavozimlariga munosibliigi to‘g‘risida Komissiyaning xulosasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlari sudyalarini saylash yoki tayinlash uchun Komissiya xulosasiga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga taqdimnoma kiritadi.

Fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlarining sudyalari lavozimiga nomzodlar xususida Komissiya o‘z xulosasiga asoslanib, ularni tayinlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnoma kiritadi.

Sud korpusi shakllanishining keyingi ikkinchi bosqichi — **tayinlash** yoki **saylash** bosqichi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan saylanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining sudyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi yoki tayinlanadi. Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishish uchun kiritiladi.

Viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlarning, viloyatlar hamda Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Sudyalar besh yil muddatga saylanadi yoki tayinlanadi.

Ko'rib chiqiladigan bosqichning markaziy nuqtasi **qasamyod qabul qilinishi** hisoblanadi. Qasamyod sudyaning lavozimga kirishining muhim timsollaridan biri hisoblanadi. Qasamyod qabul qilish sudyaning maxsus maqomini, uning jamiyat oldidagi javobgarligini timsollaydi. Bundan tashqari, ommaviy tarzda qabul qilingan qasamyod yuridik hodisa hisoblanadi. Ushbu hodisaning yuridik ahamiyati sudyaning lavozimga kirishish, davlat nomidan odil sudlovni amalga oshirish huquqini qo'lga kiritish vaqtining qayd qilinishidan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 64-moddasiga asosan, ilk bor sudyalik lavozimiga saylangan yoki tayinlangan shaxs quyidagi mazmunda qasamyod qilganidan keyin o'z vazifasini bajarishga kirishadi:

**«Zimmamga yuklatilgan vazifalarni halol va vijdonan bajarishga, odil sudlovni faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshirishga, sudyalik burchim va vijdonim buyurganidek beg'araz, xolis va adolatli bo'lishga tantanali qasamyod qilaman».**

Qonunda qasamyod qabul qilish tartib-tamoyili ham nazarda tutilgan. Sudyalar O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat bayrog'i oldida ham tantanali vaziyatda qasamyod qiladilar.

Sudyalar quyidagi tartibda qasamyod qiladilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar sudyalari — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi majlisida;

- xo‘jalik sudlari sudyalari — O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumi majlisida;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari sudyalari — Qoraqalpog‘iston Respublikasining tegishli Oliy sudlari rayosati majlisida.

Shunday qilib, yuqorida umumiy yurisdiksiya sudlari va xo‘jalik sudlari sud korpusini shakllanish jarayoni keltirildi. Lekin bunda Konstitutsiyaviy sud sudyalari lavozimiga nomzodlarni tanlash tartibi ochib berilmagan, chunki bu jarayon bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

«Sud korpusi» tushunchasiga, odatda, faqat malakali sudyalar kirishini belgilab qo‘yish kerak. Lekin ko‘p hollarda muayyan ish bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishda sud tarkibida *xalq maslahatchilari* ham ishtirok etadi. Qonunda xalq maslahatchilariga nomzodlarga qo‘yiladigan talablarni ham batafsil belgilab qo‘ygan. Jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etuvchi xalq maslahatchilari ushbu funksiyani bajarish vaqtida sudyalar maqomiga tenglashtirilgan huquqiy maqomga ega bo‘ladi. Shuning uchun xalq maslahatchilarini saylash masalasiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni 62-moddasiga asosan, yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmagan, fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig‘ilishlarida ochiq ovoz berish yo‘li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi xalq maslahatchisi bo‘lishi mumkin.

Haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan, saylov kunida o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, harbiy qismlar harbiy xizmatchilarining yig‘ilishlarida ochiq ovoz berish yo‘li bilan bir yarim yil muddatga saylangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud xalq maslahatchisi bo‘lishi mumkin.

Har bir sud uchun xalq maslahatchilari soni sudyalarning tegishli malaka hay‘atlari tomonidan belgilanadi. Shu maqsadlarda xalq maslahatchilari saylovi sudyalarning tegishli malaka hay‘ati tomonidan tuman (shahar) hokimlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan, harbiy qismlarda esa harbiy qismlar qo‘mondonligi bilan birgalikda tashkil etiladi.

Bunda sudyalarning malaka hay'ati:

- xalq maslahatchilari saylovini o'tkazish jarayoni ustidan nazorat olib boradi;

- xalq maslahatchilari saylovini o'tkazish masalalari yuzasidan tushgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqadi;

- xalq maslahatchilari saylovi natijalarini yakunlaydi;

- saylangan xalq maslahatchilari ro'yxatini tuzadi va tasdiqlaydi;

- saylangan xalq maslahatchilariga tegishli guvohnoma beradi;

- xalq maslahatchilari o'qitilishini tashkil etadi;

- xalq maslahatchilarini tanlash va ularning saylovini o'tkazish bilan bog'liq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Xalq maslahatchilari saylovi fuqarolarning ish yoki yashash joyidagi yoxud harbiy qismlarning harbiy xizmat joyidagi yig'ilishlarda o'tkaziladi. Yig'ilishlar kamida yuz saylovchi bo'lgan mehnat jamoalarida, harbiy qismlarda va aholi punktlarida o'tkaziladi. Agar saylovchilar soni yuz kishidan kam bo'lsa, xalq maslahatchilari saylovi boshqa mehnat jamoalari, harbiy qismlar hamda boshqa aholi punktlarida yashovchi saylovchilar bilan birgalikda o'tkaziladi. Yig'ilishlar yirik muassasalar, tashkilotlar, korxonalar va harbiy qismlarda ularning saylovchilar soni kamida yuz kishini tashkil etuvchi tarkibiy bo'linmalarda o'tkazilishi mumkin.

Xalq maslahatchilari sayloviga bag'ishlangan yig'ilishlar bo'ladigan vaqt va joy haqida fuqarolar shunday yig'ilish o'tkazilishidan kamida uch kun avval xabardor etiladi. Xalq maslahatchiligiga nomzodlar mehnat jamoalari, fuqarolarning yashash joyidagi saylovchilar tomonidan, shuningdek, harbiy qismlardagi harbiy xizmatchilarning yig'ilishlari tomonidan ko'rsatiladi.

Xalq maslahatchilari saylovi har bir nomzod bo'yicha alohida-alohida, ochiq ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Muayyan mehnat jamoasi, harbiy qismning harbiy xizmatchilari yoki fuqarolarning yashash joyidagi saylovchilar yig'ilishlari qatnashchilarining yarmidan ko'p ovozini olgan shaxslar xalq maslahatchilari etib saylangan deb hisoblanadi. Yig'ilishda rais, kotib hamda besh-yetti nafar a'zodan iborat rayosat saylanadi.

Yig'ilishda bayonnoma yuritilib, unga ovoz berish natijalari kiritiladi. Bayonnoma rayosat tarkibiga kirganlarning hammasi tomonidan imzolanadi. Yig'ilish bayonnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- yig'ilish o'tkazilgan muassasa, tashkilot, korxonalar, harbiy qism yoki aholi punktining nomi;

- yig'ilish o'tkazilgan joy va vaqt;
- saylovchilar soni;
- xalq maslahatchiligiga ko'rsatilgan har bir nomzodning ismi, otasining ismi, familiyasi;
- xalq maslahatchiligiga ko'rsatilgan har bir nomzodni yoqlab yoki unga qarshi berilgan ovozlar soni;
- saylangan har bir xalq maslahatchisining ismi, otasining ismi, familiyasi, tug'ilgan yili, mashg'ulot turi, yashash manzili.

Yig'ilish bayonnomasi imzolanganidan keyin sudyalarning tegishli malaka hay'atiga beriladi.

Keyin sudyalarning malaka hay'ati yig'ilish bayonnomalariga asoslanib, saylov natijalarini aniqlaydi hamda har bir sud uchun alohida-alohida xalq maslahatchilari ro'yxatini tuzadi. Ushbu ro'yxatlar sudyalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan tasdiqlanganidan keyin tegishli sudga yuboriladi.

Sudyalarning malaka hay'atlari xalq maslahatchilari saylovi natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga taqdim etadi, shuningdek, xalq maslahatchilarini o'qitish ishlari qanday borayotganligi haqida vaqt-vaqti bilan mazkur Komissiyaga axborot berib turadi.

Xalq maslahatchilari sudlardagi vazifalarini bajarish uchun yiliga ko'pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladi, ularning ishtirokida boshlangan sud ishini ko'rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno. Shu davrda ularning ish joyidagi o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

### **10.3. Sudyaning vakolatlari, ularni amalga oshirish tartibi va usullari**

O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar yagona huquqiy maqomga ega va bir-biridan faqat vakolatlari bilan ajralib turadi. Sudya maqomining yaxlitligi barcha sudyalarning asosiy huquq, majburiyat va cheklanishlari doirasida namoyon bo'ladi. Sudya maqomining yaxlitligi sudyalar hamjamiyatida barcha sudyalarning tengligini anglatadi:

- ularning huquqlarini bir xilda himoya qilinishi;
- sudyalar zimmasiga sudyalik lavozimida bo'lish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar va cheklanishlar yuklatilishi;
- javobgarlikka tortish va vakolatlarni tugatishning teng sharoitlari.

Sudyalarning vakolatlari quyidagilarga qarab farqlanadi:

1) ularning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, umumiy yurisdiksiya sudlariga, shu jumladan, harbiy sudlarga yoki xo'jalik sudlarga tegishliligiga;

2) sudyaning quyi yoki yuqori turuvchi sudda ishlashiga, ishlarning sudlovga taalluqliligi qoidalariga;

3) sudyaning lavozimiga (sud raisi, uning o'rinbosari, sudlov hay'atining raisi, birinchi, ikkinchi nazorat instansiyasi sudyasi).

Sud tizimi ichidagi barcha boshqa tashkiliy masalalar, chunki muayyan toifadagi ishlarni ko'rib chiqishda ixtisoslashuv, o'rinbosarlar o'rtasida majburiyatlarining taqsimlanishi va h.k. Qonunning sudya maqomi to'g'risidagi normalarini ro'yobga chiqarish maqsadiga hech qanday ahamiyatga ega emas, chunki ular qonun bilan belgilangan sudya vakolatlarini o'zgartirmaydi.

Sudyaning vakolatlari uning huquqiy maqomi o'zagini tashkil etuvchi huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Sudya vakolatlari doirasini aniqlashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni ikki turga bo'lish mumkin:

- «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda ko'rsatilgan va ixtisoslashuvdan qat'i nazar, barcha sudyalarga taalluqli bo'lgan umumiy (universal) vakolatlar;

- bevosita tarmoq protsessual qonunchiligida belgilangan va amalga oshiriladigan sudlov ishlarini yuritishning turiga qarab, farq qiluvchi maxsus (tarmoq) vakolatlar.

Sudyaning vakolatlari uning huquq doirasini belgilaydi. Shunday qilib, sudya vakolatlari deganda, tegishincha konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, xo'jalik va jinoyat sudlov ishlarini yuritish orqali sud hokimiyatini amalga oshirish vakolatlari majmuasi tushuniladi.

Turli xil sudlov ishlarini yuritishda belgilangan sudya vakolatlarining butun doirasini ko'rib chiqishga da'vo qilmagan holda «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 65- va 66-moddalarida belgilangan huquq va majburiyatlarini tashkil etuvchi sudyaning umumiy vakolatlarini sanab o'tamiz, xolos.

Qonunning 65-moddasida **sudyalarning** quyidagi **huquqlari** ko'rsatilgan. Sudyalar:

- mansabdor shaxslar va fuqarolardan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish;

- mansabdor va boshqa shaxslardan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot olish;

- uyushmalarga birlashish huquqiga ega.

Sudyalar qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan talab va farmoyishlarini so'zsiz bajarishlari shart. Odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari sudyalarning talabiga muvofiq bepul beriladi. Sudyalarning talablari va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Avval aytilganidek, Qonunning 66-moddasi **sudyalarning majburiyatlarini** tartibga soladi. Sudyalar fuqarolik, xo'jalik va jinoyat ishlarini, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish chog'ida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga so'zsiz rioya qilishlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini va mol-mulki, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashlari, beg'araz va adolatli bo'lishlari shartligi nazarda tutilgan.

Sudyalar sudyalik sha'nini qat'iy saqlashlari, odil sudlovning obro'sini, sudyalik qadr-qimmatini tushirishi yoki sudyaning xolisligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishlari shart. Qonunning ushbu normasi sudyalarni o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga rioya qilish bilan bir qatorda, umume'tirof etilgan axloq normalari va yurish-turish qoidalariga rioya qilish, jamiyatda sudning adolatliligi, beg'arazligi va mustaqilligiga ishonch uyg'otishda ko'maklashishini belgilab qo'yadi.

Odil sudlovni amalga oshirish borasidagi vakolatlariga sudya boshqa mashg'ulotlariga qaraganda, ustuvor ahamiyat berishi kerak. Sudya sud hokimiyati obro'sini tushirishi mumkin bo'lgan holatlarga yo'l qo'ymasligi va ulardan o'zini saqlashi kerak. U o'zining shaxsiy manfaatlari va boshqa shaxslar manfaatlaridan voz kechishi, lekin sudyalik kasbi nufuziga zarar yetkazmasligi lozim. Sudya har doim uning obro'siga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, odil sudlovni amalga oshirish davomida uning xolisligi va mustaqilligini shubha ostiga qo'yishi mumkin bo'lgan har qanday holatlardan o'zini saqlashi kerak.

Sudyalar sudyalarning maslahat sirini hamda yopiq sud majlislari o'tkazish chog'ida olingan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga asosan, qonun bir shaxs qo'lida turli hokimiyatlar — sud va vakillik hokimiyati vakolatlarini mujassam etilishiga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun sudyalarning senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Sudyalarning siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Qonunning bunday nuqtayi nazarini har qanday siyosiy faollik, boshqa so'zlar bilan aytganda, sudyaning u yoki bu partiya mansubligi, siyosiy manfaatlar himoyasi, shubhasiz, odil sudlovni amalga oshirishda sudyaning beg'arazligi va xolisligiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi, chunki bu holda u, nafaqat, Konstitutsiya va qonunga, balki u mansub bo'lgan partiya nizomiga ham amal qiladi. Qonun ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir turdagi faoliyat bilan shug'ullanishga taqiq qo'yishi ham tasodif emas, chunki bunda amalga oshiriladigan pul hisob-kitoblari yomon mish-mishlarga sabab bo'lishi va poraxo'rlik sifatida baholanishi mumkin va shu orqali adolatli hamda samarali odil sudlov uchun muhim shart bo'lgan sudyaning mustaqilligiga tajovuz qilishi mumkin.

#### **10.4. Sudyaning vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish asoslari**

Ilgari aytib o'tganimizdek, sudya mustaqilligi kafolatlaridan biri sifatida sudyalarni egallab turgan lavozimdan ozod qilishning qonun bilan belgilangan tartibi hisoblanadi. Shubhasiz, sudyalarning va sud hokimiyatining xolisligi kafolati sifatida sudyalarning vakolatini to'xtatib turish va tugatishning shunday mexanizmini shakllantirish kerakki, u sudyalarning mustaqilligini ta'minlashi va ularni lavozimidan ozod etish tahdidini istisno etishi lozim, o'z majburiyatlarini bajara olmasligi va egallab turgan lavozimiga zid bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanganlik asoslari bundan mustasno. Aynan shu mazmundagi tavsiya Sud organlari mustaqilligi asosiy prinsiplarining 18-moddasida aks ettirilgan va bu milliy qonunchilikda ro'yobga chiqarilgan.

Shu bilan birga, sudya vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish tartibi sudya huquqiy maqomi tushunchasining muhim tarkibiy qismidir. Sudya vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish jarayoni

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunda, shuningdek, «Sudyalar malaka komissiyalari to'g'risida» Nizomda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizomda batafsil tartibga solingan.

**Sudya vakolatlarini to'xtatib turish.** «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 71-moddasi sudya jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda uning vakolatlari to'xtatilishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlari sudyalarning vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, sudyalarning tegishli malaka hay'ati qarori bilan quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin, agar:

- sudya o'z lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa;
- sudya tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan yoki sud qarori bilan uning muomala layoqati cheklangan bo'lsa;
- sudya sud qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa.

Aytish kerakki, malaka hay'ati qarori ushbu hay'at majlisida qabul qilinadi. Masalani ko'rib chiqish raislik qiluvchining yoki taqdim etilgan hujjatlar va materiallarni dastlabki tekshiruvini amalga oshirgan sudyalar malaka hay'ati a'zosining ma'ruzasi bilan boshlanadi. Majlisda taklif etilgan shaxslar eshutilishi mumkin, kerakli hujjatlar va ma'lumotlar o'rganiladi, shundan keyin sudya vakolatlarini to'xtatib turish masalasini ko'rishda sudyalar malaka hay'ati qaror qabul qiladi. Sudyalar malaka hay'ati majlisida raislik qiluvchi va sudyalar malaka hay'ati kotibi tomonidan imzolanadigan bayonoma yuritiladi.

Sudyalar malaka hay'ati qarorida quyidagilar ko'rsatiladi:

- sudyalar malaka hay'ati nomi, uning tarkibi, ishini ko'rib chiqish joyi va vaqti; ishi ko'rilayotgan sudyaning familiyasi, ismi, otasining ismi va mansabi;
- ish holatlari; sudyaning tushuntirishlari va uning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlar; qabul qilingan qaror yoki xulosaning daliliy asoslari; qaror (xulosa) ustidan shikoyat qilish tartibi va muddatlari.

Sudyalarning malaka hay'atlari qarorlari va xulosalari ustidan qaror yoki xulosa qaysi sudya xususida chiqarilgan bo'lsa, shu sudya Sudyalar oliy malaka hay'atiga shikoyat qilishi mumkin. Masalani qayta ko'rish to'g'risidagi shikoyat yoki taqdimnoma qaror qabul qilingan kundan boshlab, o'n kun ichida qaror chiqargan



sudyalar malaka hay'ati orqali beriladi. Shikoyat yoki taqdimnoma tushishi bilanoq material zudlik bilan Sudyalar oliy malaka hay'atiga yuborilishi lozim.

Sudyalar oliy malaka hay'ati shikoyat yoki taqdimnoma bilan kelgan materialni bir oy muddat ichida ko'rib chiqadi. Sudyalar oliy malaka hay'ati:

- qaror yoki xulosani o'zgarishsiz, shikoyat yoki taqdimnomani esa qanoatlantirishsiz qoldirishga;
- qaror yoki xulosani bekor qilish va materialni yangidan ko'rish uchun yuborishga;
- qaror yoki xulosani bekor qilish va materialni o'z ish yuriti-shiga olishga haqli.

Sudyalar oliy malaka hay'atining va xo'jalik sudlari sudyalari malaka hay'atining qarori tegishli ravishda O'zbekiston Respubli-kasi Oliy sudi raisiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisiga, umumiy yurisdiksiya quyi sudlarining sudyalariga taalluqli masalalar bo'yicha esa sudyalarning tegishli malaka hay'atlariga, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, harbiy sudlar sudyalari malaka hay'atlarining qarorlari yoki xulosalari qaror yoki xulosa qaysi sudya xususida chiqarilgan bo'lsa, shu sudyaga uch kunlik muddat ichida yuboriladi. Mazkur malaka hay'atla-rining qarorlari yoki xulosalari ular ustidan shikoyat berish uchun belgilangan muddat o'tganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuboriladi.

Sudyaning vakolatlari bu vakolatlarni to'xtatishga sabab bo'l-gan asoslar bekor bo'lgunga qadar to'xtatiladi. Yuqorida qayd etil-ganidek, qonunda sudya qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudyalar malaka hay'ati qarori ustidan shikoyat qilishga haqliligi nazarda tutiladi.

Sudyalik vakolatlarining to'xtatilishi unga ish haqi to'lanishi to'xtatilishiga yoki uning ish haqi miqdori kamaytirilishiga, sudya-ni ta'minoti darajasini pasaytirishga va sudyani «Sudlar to'g'-risida»gi Qonunda belgilangan daxlsizlik kafolatlaridan mahrum qilishga sabab bo'lmaydi, ehtiyot chorasi sifatida sudyaga nisbatan hibsga olish chorasi tanlangan hollar bundan mustasno.

**Sudya vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish.** «Sudlar to'g'-risida»gi Qonunning 72-moddasi sudya vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslari va tartibini belgilaydi.

Qonun bilan sudya vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish-ning quyidagi asoslari nazarda tutilgan:

- 1) sudya sudyalik qasamyodini buzgan taqdirda;
- 2) sudya yozma ariza bergan taqdirda;
- 3) sudyalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan ogohlantirish qilinganidan yoki vakolatlari to'xtatilganidan keyin u sudya lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishni davom ettiravergan taqdirda;
- 4) sudya sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan taqdirda;
- 5) sudya O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotgan taqdirda;
- 6) sudyaga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;
- 7) sudya sudning qarori bilan vafot etgan deb e'lon qilingan taqdirda;
- 8) sudya sog'lig'i holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra, uzoq vaqt mobaynida sudyalik vazifasini bajarishga qodir bo'lmay qolgan taqdirda.

Sudyalar vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish tartibi sud tizimining turli bo'g'inlari va darajalarida egallab turgan sudyalik lavozimiga bog'liq holda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlari sudyalarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to'g'risidagi taqdimnomani sudyalarning tegishli malaka hay'atiga kiritish huquqiga ega.

Sudyalarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish haqidagi taqdimnoma va materiallar:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislari va rais o'rinbosarlariga nisbatan — Sudyalar oliy malaka hay'atiga;
- boshqa sudlarning sudyalariga nisbatan — sudyalarning tegishli malaka hay'atlariga yuboriladi.

Sudyalarning malaka hay'ati sudyaning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish haqidagi masalani ko'rib chiqib, uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatishga rozilik berish yoki bermaslik to'g'risida xulosa chiqaradi. Sudyalar malaka hay'atining xulosasi kechi bilan besh kun ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 72-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyasining vakolatlari — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan;

- viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari sudyasining vakolatlari — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlari sudyalarining vakolatlari — Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining xulosasiga asosan kiritiladigan taqdimnomasiga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan mudatidan ilgari tugatiladi.

### **10.5. O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi va sudyalarning malaka hay'atlari**

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 65-moddasiga asosan, sudyalar uyushmalarga birlashish huquqiga ega. 1996-yil 29-avgustdagi birinchi chaqiriq Oliy Majlisining VI sessiyasidagi nutqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasini tashkil etish masalasini ko'tardi. Tegishli tayyorgarlik ishlari o'tkazilgach, 1997-yil 12-sentabrda birinchi marta ta'sis yig'ilishi chaqirildi va unda O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasini ta'sis etish haqida qaror qabul qilindi. Assotsiatsiya nizomi va O'zbekiston Respublikasi sudyalarining sud etikasi qoidalari tasdiqlandi.

O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi sudyalarning ixtiyoriy jamoat birlashmasi bo'lib, o'z faoliyatini ixtiyoriylik, o'zini o'zi boshqarish, demokratiya, qonuniylik, oshkoralik va o'z a'zolari oldida hisobot berish prinsiplariga asoslangan holda amalga oshiradi.

Sudyalar assotsiatsiyasining asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilar:

- a) sud-huquq islohotini amalga oshirishda faol ishtirok etish;

b) odil sudlovni amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta'minlashda sudyalarga ko'maklashish, ularni turli tahdidlardan himoya qilish;

d) sud mustaqilligini kuchaytirish va sud hokimiyatini boshqa hokimiyatlardan mustaqilligini ta'minlashda yordam berish;

e) sudyalarni tayinlash (saylash) va qayta tayinlash (qayta saylash) masalalari bo'yicha takliflar kiritish;

f) sudyalarning ijtimoiy himoyasi, ularning moddiy ta'minoti va rag'batlantirish masalalari bo'yicha vakolatli organlarga takliflar kiritish;

g) a'zolari nomidan davlat, jamoat va boshqa tashkilot va muassasalar ishida ishtirok etish;

h) odil sudlovning sifati va samaradorligini oshirish masalalarini ko'rib chiqishda ishtirok etish;

i) assotsiatsiya maqsadlariga xizmat qiladigan qonun va me'yoriy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va ularni O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlariga taqdim etish;

j) assotsiatsiya faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusiga ega bo'lgan va boshqa organlarga murojaat etish;

k) nodavlat xalqaro jamoat tashkilotlari a'zosi bo'lish va ular tarkibida faoliyat ko'rsatish;

l) ilm-texnika yutuqlari va ilg'or tajribani tatbiq qilishda sud faoliyatiga yordam berish;

m) sudyalar va sudyalikka nomzodlar uchun o'quv va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda yordam berish;

n) aholi orasida qonunlarni targ'ib qilish ishida ishtirok etish.

O'z faoliyatini amalga oshirish davomida O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi sud faoliyatiga aralashmaslik prinsipiga amal qilishi kerak. Assotsiatsiyaning oliy organi — syezd hisoblanadi. Syezdlar o'rtasida ijroiya organ vazifasini muqobillik asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 4 yillik muddatga yig'ilish tomonidan saylanadigan markaziy kengash bajaradi.

Sudyalar assotsiatsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarda va Toshkent shahrida o'z filiallariga ega. Filiallarining oliy organi yilida kamida bir marta chaqiriladigan konferensiya hisoblanadi.

2000-yildan boshlab, O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi axborotnoma, 2005-yildan esa «Huquqshunos» jurnalini nashr eta boshladi. Unda assotsiatsiya va uning a'zolari faoliyati, sud-huquq islohoti va amaldagi qonunchilikning o'zgartirish va qo'shimchalari to'g'risida axborotlar berib boriladi.

**Sudyalar malaka hay'atlari.** Sud kadrlari bilan ishlash, munosib nomzodlarni taqdim etish va sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini oshirishning demokratik asoslarini kuchaytirishda O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuniga asosan, alohida e'tibor sudyalar malaka hay'atlariga qaratilgan.

Umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalarining oliy malaka hay'ati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari orasidan besh yil muddatga saylanadi.

*Sudyalar oliy malaka hay'ati:*

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga taqdim etish uchun sudyalarni tanlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyaligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisligi va rais o'rinbosarligiga, xo'jalik sudi sudyaligiga nomzodlarning shu lavozimlarda ishlashga tayyorligini baholaydi;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislari va rais o'rinbosarlarining malaka attestatsiyasini o'tkazib turadi;

4) sudyalarga malaka darajalari beradi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislari va rais o'rinbosarlarini ma'muriy javobgarlikka tortishga rozilik berish masalasini ko'radi;

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislari va rais o'rinbosarlarining intizomiy javobgarligi to'g'risidagi ishlarni ko'radi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy

sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislari va rais o'rinbosarlarining vakolatlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi;

8) sudyaning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish haqida xulosa beradi;

9) yuqoridagi 2-bandida sanab o'tilgan lavozimlarga sudyalar zaxirasini shakllantiradi.

Sudyalar oliy malaka hay'ati fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar, shuningdek, harbiy sudlar sudyalarining malaka hay'atlari qarorlari ustidan berilgan taqdimnoma va shikoyatlarni ham ko'radi.

*Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, shuningdek, harbiy sudlar sudyalarining malaka hay'atlari:*

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga taqdim etish uchun sudyalarni tanlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, shuningdek, harbiy sudlar sudyaligiga nomzodlarning shu lavozimlarda ishlashga tayyorligini baholaydi;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, shuningdek, harbiy sudlar sudyalarining vaqtvaqti bilan malaka attestatsiyasini o'tkazib turadi;

4) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, shuningdek, harbiy sudlar sudyalarini ma'muriy javobgarlikka tortishga rozilik berish masalasini ko'radi;

5) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar

va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, shuningdek, harbiy sudlar sudyalarining intizomiy javobgarligi to'g'risidagi ishlarni ko'radi;

6) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, shuningdek, harbiy sudlar sudyalarining vakolatlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi;

7) sudyaning vakolatlarini muddatdan ilgari tugatish haqida xulosa beradi;

8) sudyalar zaxirasini shakllantiradi;

8') sudyalik lavozimlariga zaxirada turgan shaxslarni belgilangan tartibda o'qitishni tashkil etadi;

9) xalq maslahatchilarini tanlash va ularning saylovini o'tkazish hamda ularni o'qitish ishlarini tashkil qiladi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Sudyalarning huquqiy maqomini o'rganishda talabalar O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar huquq normalari bilan belgilangan yagona huquqiy maqomga ega bo'lib, shu vaqtning o'zida vakolatlari bilan ajralib turishiga e'tiborlarini qaratishlari lozim.*



### NAZORAT SAVOLLARI

1. Sudya maqomiga tushuncha bering.
2. Sudyalik lavozimiga nomzodlarga qanday talablar qo'yiladi?
3. Sudyalikka nomzodlarni tanlash qanday amalga oshiriladi?
4. Sudyalar mustaqilligining asosiy kafolatlarini ayting.
5. Sudyalar daxsizligining qanday kafolatlari mavjud?
6. Sudyalarning malaka attestatsiyasini o'tkazish vazifalari va tartibi.
7. Sudyalarning malaka darajalarini sanab o'ting.
8. Sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibini tavsiflab bering.
9. Sudyalar malaka hay'atlari nima?
10. Sudyalar vakolatini to'xtatib turish qanday tartibda amalga oshiriladi?
11. Qaysi hollarda sudya vakolatlarini muddatdan ilgari tugatishga yo'l qo'yiladi?

## MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Sud korpusi shakllanish jarayonini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
2. Sudyalar vakolatini to'xtatib turish asoslarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
3. Chet davlatlarida sudyalarning huquqiy maqomini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
4. Chet davlatlarida sudyalar mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlari. Ish shakli — *referat*.
5. Turli davlatlar sud hamjamiyatlarini o'rganib chiqing. Ish shakli — *referat*.

### Axborot uslubiy ta'minot

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

2. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

### Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi 924-XII sonli Qonuni (yangi tahriri). (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabdagi 162-II sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.) «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

3. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi 103-I sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 20-iyuldagi «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomga, «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-103-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 29—30, 296-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PF-3994-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2008, № 5, 253-modda.



6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 4-maydagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasini tuzish to'g'risida»gi PF-2599-sonli Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3725-sonli Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-896-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 30-iyuldagi «Sudyalarni tayinlash va bo'shatish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyani tuzish to'g'risida»gi F-1038-sonli Farmoyishi.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 147-qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

11. «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi PQ-896-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 248-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi PF-3725-sonli Farmoniga 3-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 12—13, 101-modda.

13. «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 7-dekabrda 323-II sonli qarori bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

14. «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi 147-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining 1996-yil 20-dekabrda «Sud hokimiyati to'g'risida»gi 1-qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 28-dekabrda «Fuqarolarning sud ishlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqish amaliyoti haqida»gi 31-qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

## Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan oʻquv-uslubiy qoʻllanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.
2. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev*. Sudyalar mustaqilligini taʼminlash huquqiy kafolatlari. Risola. T., TDYI, 2009.
3. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev*. Oʻzbekistonda sudyalar korpusini shakllantirishning tushunchasi va ahamiyati. «Oʻzbekiston qonunchiligi tahlili» jurnali. T., 2009, № 3—4.
4. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev*. Sudyalarni javobgarlikka tortish tartibi va huquqiy asoslarini takomillashtirishning ayrim masalalari. TDYI axborotnomasi. T., 2010, № 4.
5. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev*. Sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlashda sudyalar korpusini shakllantirishning roli, ahamiyati va mohiyati. TDYI axborotnomasi. T., 2010, № 6.
6. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev*. Sudyalikka nomzodlarga qoʻyiladigan talablarni takomillashtirishning ayrim tashkiliy-huquqiy masalalari. TDYI axborotnomasi. T., 2011, № 1.
7. *М.И. Клеандров*. Судебные системы государств — участников СНГ: законодательное обеспечение. М., «Юрист», 2002.
8. *А.А. Muhammadiyev*. Konstitutsiya va sud hokimiyati tamoyillari. TDYI axborotnomasi. T., 2010, № 6.
9. *Ф.Ф. Мухитдинова*. Демократизм и социальная справедливость при подборе судебных кадров. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. Т., 2002, № 3—4.
10. *Б. Мустафаев*. Укрепление независимости судов — веление времени. Газета «Народное слово», 24 февраля 2007 года.
11. *М.Н. Rustamboyev, U.A. Tuxtashева*. Sud hokimiyati va Oʻzbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.
12. *А.А. Ergashev*. Sud xolisligi inson huquqlari taʼminlanishining kafolati. Risola. T., TDYI, 2008.

### III bo‘lim

## ADLIYA VAZIRLIGI VA SUDLAR FAOLIYATINI TASHKILYIY HAMDA MODDIY-TEXNIK JIHATDAN TA'MINLASH



### 11-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

**O‘quv  
maqsadlari**

*Ushbu mavzuning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy maqomini, uning vazifalari va funksiyalarini o‘rganish, shuningdek, adliya organlari rivojlanishining asosiy bosqichlarini ko‘rib chiqishdir.*

#### 11.1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari

Adliya sohasida davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyatning markaziy organi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda uning maqomi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida»gi Nizom va boshqa huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda matnda vazirlik deb yuritiladi) davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri o‘z maqomiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Vazirlik tizimiga vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti, boshqa adliya organlari va muassasalari kiradi (keyingi o‘rinlarda matnda adliya organlari va muassasalari deb yuritiladi).

Adliya organlari va muassasalari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita vazirlikka bo‘ysunadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamentining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Nizom bilan tartibga solinadi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, o'z Nizomiga amal qiladi.

Adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik ta'minlash, shuningdek, adliya tizimining xodimlari mehnatiga haq to'lash vazirlikka ajratiladigan mablag' doirasida davlat budjeti hamda Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Vazirlik, uning organlari va muassasalari yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga egadir.

Quyidagilar **vazirlikning asosiy vazifalari** hisoblanadi:

- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonun ustuvorligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga yo'naltirilgan jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida, shuningdek, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarda, shu jumladan, prokuratura organlarida huquqni qo'llash faoliyatida qonun hujjatlari talablariga, qonuniylikka qat'iy rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda samarali nazoratni amalga oshirish; ular tomonidan suiiste'molliklarga, qonunbuzarliklarga, qonun hujjatlari talablarini ijro qilmaslik holatlariga, huquqiy normalarni o'zboshimchalik bilan, noto'g'ri talqin qilinishiga, subyektivlikka, qonunni qo'llashda tor idoraviy, tanlab olish kabi yondashishga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan huquqiy ta'sir choralari amalga oshirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalarining norma ijodkorligi faoliyatini tizimli tahlil qilishni tashkillashtirish, ular tomonidan kiritilgan

yoki qabul qilingan qonun hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonun hujjatlariga, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan har tomonlama ekspertizani amalga oshirish; amaldagi qonun hujjatlaridagi «oq dog'lar»ni, shuningdek, korrupsiyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratib berayotgan qoida va normalarni aniqlash;

- fuqarolik jamiyati institutlarining har tomonlama rivojlanishini, aholining turli qatlamlari huquq va manfaatlarini himoya qilishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda faol ishtirokini huquqiy ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining qonuniyligini, faoliyat ko'rsatishlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni, ularning aholi turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda ishtirokini ta'minlash; mamlakatda ro'yxatdan o'tgan xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o'tkazish;

- jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini oshirishga, qonuniylikni mustahkamlashga yo'naltirilgan huquqiy targ'ibot va ma'rifat sohasidagi davlat organlari, jamoat birlashmalarining faoliyatini samarali muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

- sudlarni har tomonlama moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta'minlash, sud hujjatlarining so'zsiz ijro etilishiga yo'naltirilgan davlat siyosatini, tashkilish-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash;

- notariat, advokatura, FHDY organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat tomonidan tartibga solish tizimini izchil takomillashtirib borish;

- bozor islohotlarini chuqurlashtirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlarini, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining

huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, bu sohada byurokratik to'siq va g'ovlarni yaratishga yo'l qo'ymaslik;

- shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni, eng avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasida shartnomalarni tuzish va bajarishda xo'jalik subyektlariga amaliy huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining samarali huquqiy himoya qilinishini ta'minlash;

- huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirishning zamonaviy talablari va jarayonlarini hisobga olgan holda ularning malakasini oshirish bo'yicha nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

*Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishi uchun:*

- norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;

- davlat organlarining huquqni qo'llash amaliyotida qonun hujjatlari talablariga, qonuniylikka rioya etilishi ustidan samarali monitoring va nazorat qilishni amalga oshirish;

- mahalliy, shuningdek, mamlakatimizda ro'yxatdan o'tkazilgan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash;

- davlat organlari, jamoat tashkilotlarining huquqiy targ'ibot bo'yicha ishlarini samarali muvofiqlashtirish;

- sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, shuningdek, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlash;

- huquqiy xizmat ko'rsatishda davlat boshqaruvini amalga oshirish;

- tadbirkorlikni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini rivojlantirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash;

- shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni mustahkamlash;

- yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ularni tashkil etishda qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlash;

- xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini samarali huquqiy himoya qilishni ta'minlash;

- zamonaviy talablarni va davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratlashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

- fuqarolar va tashkilotlarning murojaatlarini ko'rib chiqish;

- huquqiy statistika;

- adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalashtirish;

- sud-ekspert, ilmiy va ta'lim muassasalarini rivojlantirish sohalarida o'ziga yuklatilgan funksiyalarini amalga oshiradi.

*Norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish sohasida:*

a) qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertizadan o'tkazish sohasida:

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining norma ijodkorligi masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

- norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo'yicha va o'z tashabbusiga ko'ra, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda kiritadi;

- davlat boshqaruvi organlari tomonidan qonun loyihalarini tayyorlashning zarurligi masalalari bo'yicha oldindan kelishishni amalga oshiradi;

- qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonun hujjatlariga, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan tahlil qiladi va huquqiy ekspertizadan o'tkazadi;

- qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ularda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida korrup-

siyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbuzarliklarga sharoit yaratib beradigan qoida va normalarni aniqlash yuzasidan tahlil qiladi;

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalarining norma ijodkorligi faoliyatini monitoring va tahlil qiladi;

- qonun hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqlashtirish, huquqiy tartibga solishning tizimga solinishini va yaxlitligini ta'minlash, qonun hujjatlaridagi «oq dog'lar»ni bartaraf qilish to'g'risida takliflar ishlab chiqadi, qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflarni tahlil qiladi va umumlashtiradi hamda ularni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi hukumatiga taqdim qiladi, qonun hujjatlarini kodekslashtirish bo'yicha ishlarni olib boradi;

- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertizadan o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni tasdiqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, ularning kengashlari, qo'mitalari va komissiyalari bilan qonunchilik faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha doimiy amaliy aloqada bo'ladi;

b) idoraviy norma ijodkorligi sohasida:

- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning umumiy majburiy tushadigan normativ-huquqiy hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lmagan hujjatlar toifasiga kiritish haqida qarorlar qabul qiladi;

- idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestrini yuritadi;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, e'lon qilish va manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazishning belgilangan tartibini bajarilishi bo'yicha ishlarini nazorat qiladi;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning holati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilib turadi;

d) mahalliy davlat hokimiyati organlarining norma ijodkorligi sohasida:

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazadi;



- normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, e'lon qilish va manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazishda belgilangan tartibga rioya qilinishi bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining ishini nazorat qiladi;

e) qonunchilikni tizimlashtirish sohasida:

- O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini davlat hisobiga olish va qonun hujjatlarini turkumlash ishlarini olib boradi;

- O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlarining nazorat nusxalarini yuritadi;

- O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bankini (fondini) shakllantiradi;

- O'zbekiston Respublikasi tarmoq qonunchiligining umum-huquqiy klassifikatorini tasdiqlaydi, normativ-huquqiy hujjatlarga klassifikator asosida kodlar beradi;

- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarida qonun hujjatlarining turkumlashtirilgan hisobini yuritish qoidalarini belgilaydi va ularga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

f) adliya organlari va muassasalari faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini qo'llash bo'yicha xulosalar beradi.

*Davlat organlarining huquqni qo'llash amaliyotida qonun hujjatlari talablariga, qonuniylikka rioya etilishi ustidan samarali monitoring va nazorat qilishni amalga oshirish sohasida:*

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari, shu jumladan, huquqni qo'llash amaliyoti masalalari bo'yicha prokuratura organlarining faoliyatini tizimli monitoring qiladi;

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari, shu jumladan, prokuratura organlari tomonidan qonun hujjatlarining bir xilda qo'llanilishini ta'minlash, shuningdek, ularning faoliyatida qonunni qo'llashda uni inson, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazadigan holda o'zboshimchalik bilan, huquqiy normalarni noto'g'ri talqin qilishga, subyektivlikka, tor idoraviy, tanlab olish

kabi yondashishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan chora-tadbirlarni ko'radi;

- qonun hujjatlari talablarining bajarilishi monitoringini o'tkazadi va uning natijalari yuzasidan huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalarining huquqni qo'llash amaliyotini, ularning qarorlari, farmoyishlari, yo'riqnomalari, buyruqlari va boshqa hujjatlarini, shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari, jinoyat ishi va yakka tusdagi hujjatlarni istisno qilgan holda prokuror nazorati hujjatlarini o'rganadi, nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan qonun hujjatlari talablari buzilishlarini bartaraf etish, ularning faoliyatida qonuniylikni ta'minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

- qonun hujjatlari talablari buzilishi, vakolatlar doirasidan chetga chiqish, qonun hujjatlari talablarini noto'g'ri talqin qilish holatlarini tizimlashtirish uchun ma'lumotlarning yig'ma bazasini shakllantiradi;

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalarining huquqni qo'llash, norma ijodkorligi faoliyatida o'tkazilgan monitoring va tahlillar natijalariga ko'ra, qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ularning huquqni qo'llash faoliyatini huquqiy tartibga solish tizimida aniqlangan «oq dog'»lar o'rnini to'ldirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- o'rganish va nazorat qilish obyekti bo'lgan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi va boshqa tuzilmalarga aniqlangan qonun buzilishlarini, ularning sodir etilishiga olib kelayotgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha umumlashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini nazorat qilish materiallarini kechiktirib bo'lmaydigan choralar qabul qilish uchun yuboradi. Ayni bir vaqtning o'zida tekshiruvlar natijasida aniqlangan jiddiy qonun buzilishlari bo'yicha materiallar va umumlashtirishlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga yuboradi;

- yarim yil va yil yakunlari bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari tomonidan qonun hujjatlari talablarining bajarilishini nazorat qilish natijalari bo'yicha hisobot va umumlashtirishlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga taqdim etadi.

*Mahalliy, shuningdek, mamlakatimizda ro'yxatdan o'tkazilgan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish sohasida:*

- nodavlat notijorat tashkilotlarini, shu jumladan, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo'lmagan) notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallarini davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

- o'zi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat reyestrini yuritadi;

- nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlariga, ustav faoliyatiga, ta'sis hujjatlariga, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qiladi;

- nodavlat notijorat tashkilotlariga ajratilgan mablag'lar, grantlar, boshqa moliyaviy-moddiy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi;

- nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatishining tashkiliy-huquqiy asoslarini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda ularning faol qitnashishini, gumanitar muammolarni hal qilishni, mamlakat aholisining turli qatlamlari huquqlari, erkinliklari va manfaatlari himoyasini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

- qonun hujjatlarini buzayotgan va taqiqlangan faoliyat bilan shug'ullanayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarini aniqlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining chet el fuqarolari bo'lgan xodimlarini, shuningdek, ularning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolarini akkreditatsiyadan o'tkazadi;

- xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo'lmagan) notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar (konferensiyalar, seminarlar, treninglar, yig'ilishlar, aksiyalar va shu kabilar) hamda ular tomonidan tayyorlanadigan va tarqatiladigan bosma, audiovizual va boshqa materiallarni kelishadi;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati haqida, shu jumladan, ajratilgan mablag'lardan foydalanilishi haqidagi hisobotlarni qabul qiladi;

- nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlari buzilganda, ularning faoliyatini belgilangan tartibda olti oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yadi;

- qonun bilan taqiqlangan faoliyat bilan shug'ullanayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish bo'yicha choralarni ko'radi;

- siyosiy partiyalarning ustav faoliyatini moliyalashtirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratilgan davlat mablag'larini ular o'rtasida taqsimlaydi.

*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunlari va xalqaro shartnomalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash sohasida:*

- inson huquqlari sohasida qonun hujjatlarini doimiy ravishda tahlil qiladi va uni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunlari va xalqaro shartnomalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- xalqaro tajribani o'rganadi va xalqaro-huquqiy normalarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish bo'yicha takliflar kiritadi;

- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, aholida inson huquqlari va erkinliklariga hurmat ruhini, qonunga itoatkorlikni shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

- davlat organlarida inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi holatini o'rganadi va umumlashtiradi hamda ularni yaxshilash yuzasidan tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

- inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda advokaturaning rolini kuchaytirishga, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga hamda ularning huquqiy asoslari mustahkamlanishiga ko'maklashadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan o'zaro hamkorlik qiladi, shu jumladan, inson huquq va erkinliklariga rioya qilinishi monitoringi sohasida;

- fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishi to'g'risidagi murojaatlarini xolisona va har tomonlama ko'rib chiqilishini ta'minlaydi, ular bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq chora-tadbirlar ko'radi.

*Davlat organlari, jamoat tashkilotlarining huquqiy targ'ibot bo'yicha ishlarini samarali muvofiqlashtirish sohasida:*

- huquqiy targ'ibot va huquqiy ta'limning ahvolini tahlil qiladi, ularni yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

- jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga, qonuniylilikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy bilimlarning aholi o'rtasida targ'ib qilinishini tashkil etadi;

- huquq sohasida ta'lim ishlari uslubiy jihatdan ta'minlanishini tashkil etadi, huquqiy tarbiya va ta'limning zamonaviy shakllarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining talabalari va o'quvchilari uchun yuridik darsliklar, o'quv qo'llanmalari, normativ-huquqiy hujjatlar to'plamlari, shuningdek, boshqa yuridik adabiyotlar nashr etish rejalarini ishlab chiqadi va nashr etilishini tashkil etadi;

- jamiyatni huquqiy axborot bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha dasturlar va tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- adliya organlari va muassasalari uchun huquqiy axborotni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning dasturiy-texnik vositalari va texnologiyalari joriy etilishini tashkil qiladi;

- adliya organlari va muassasalarini zarur qonunchilik materiallari bilan ta'minlash choralari ko'radi;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasini yaratish va saqlashni tashkil qiladi, yuridik va jismoniy shaxslarning ulardan belgilangan tartibda foydalanishini ta'minlaydi;

- huquqiy axborotlar davlatlararo almashinishini amalga oshiradi;

- kodekslar va qonun hujjatlari to'plamlarini, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbasi hisoblangan «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda «O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalar to'plami»ni rasmiy nashr etilishini tashkil etadi;

- tegishli davlat boshqaruvi organlari bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish va tarqatish, qonun hujjatlari ma'lumotlarining elektron bazasini yaratish qoidalarini belgilaydi, ularning ijro etilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi.

*Sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, shuningdek, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlash sohasida:*

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlaydi;

- sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlashni amalga oshiradi va uning takomillashtirilishi bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

- sudlarning binolarini qurish va ta'mirlashga ajratilgan mablag'lar samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi va sudlarning faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi;

- sudlar va sud jarayonlarining xavfsizligini ta'minlash ishlarini tashkil etadi;

- sudyalari va sudlar apparati xodimlarining mehnat sharoitlari, moddiy va ijtimoiy ta'minlanishini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va tegishli organlarga kiritadi.

*Huquqiy xizmat ko'rsatishda davlat boshqaruvini amalga oshirish sohasida:*

a) notariat va fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olish faoliyatini tashkil etish bo'yicha:

- davlat notarial idoralarini tashkil etadi va tugatadi, notarius lavozimini ta'sis etadi va tugatadi;

- davlat notarial idoralari reyestrini yuritadi;

- notarius stajori faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

- chet elda foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlardagi notariuslar imzosining va ularning muhri ko'chirmasi haqiqiylikini tasdiqlaydi, notariat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa funksiyalarni bajaradi;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq, tegishli rasmiy hujjatlarda apostil qo'yadi;

- notarial ish yuritish qoidalarini, notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalarni, notarial harakatlar, tasdiqlovchi yozuvlar va guvohnomalarni ro'yxatga olish reyestrlari shaklini tasdiqlaydi, O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;

- notariuslar tomonidan kasb majburiyatlarining, shu jumladan, notarial ish yurituv qoidalarining bajarilishi yuzasidan belgilangan tartibda nazorat olib boradi, ularning ishini tahlil qiladi va umumlashtiradi;

- davlat notarial idoralarini qat'iy hisobdagi gerbli (maxsus) blanklar bilan ta'minlaydi;

- fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olishni tashkil qiladi, FHDY organlari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi va ularni nazorat qiladi;

- FHDY organlarini tashkil qiladi, qayta tashkil qiladi va tugatadi, ularning ishini tekshiradi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

- FHDY va notariat idoralari xodimlari tomonidan fuqarolarga huquqiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish chora-tadbirlarini ko'radi;

- fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish blanklari namunalarini tasdiqlaydi;

- FHDY organlarini va O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi konsullik muassasalarini qat'iy hisobdagi gerbli guvohnomalar blanklari bilan ta'minlaydi;

- notariat va FHDY organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, ushbu organlar uchun ko'rsatmalar va uslubiy tushuntirishlar beradi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda davlat notarial idoralarining notariuslari tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha harakatlar, FHDY organlari tomonidan jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan pulli xizmatlar ro'yxatlarini, ushbu harakatlar amalga oshirilganligi va xizmatlar ko'rsatilganligi uchun, shuningdek, notarial arxivlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga notarial tasdiqlangan hujjatlar dublikatlari, ro'yxatlardan ko'chirmalar, ma'lumotnomalar va arxiv hujjatlarining nusxalari berilganligi uchun to'lovlar miqdorlarini tasdiqlaydi;

b) advokatura va yuridik yordamni rivojlantirish bo'yicha:

- O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi va advokatlik tuzilmalarining faoliyatida ko'maklashadi;

- O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan birgalikda malaka komissiyalari vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi tarkibini tasdiqlaydi;

- advokatlarga litsenziyalar berishni va advokatlik tuzilmalarini (advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlik hay'atlari) davlat ro'yxatidan o'tkazishni, shuningdek, yuridik maslahatxonalarni hisobga qo'yishni amalga oshiradi;

- tegishli adliya organida davlat ro'yxatidan o'tgan (hisobga qo'yilgan) advokatlik tuzilmalarida ishlayotgan advokatlarning Yig'ma davlat reyestrini yuritadi;

- advokatlar malakasini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

- O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda advokatlik tuzilmalarining statistika ma'lumotlarini taqdim qilish shakllarini tasdiqlaydi va muddatlarini belgilaydi;

- advokat guvohnomasining shaklini va uni berish tartibini tasdiqlaydi;

- advokat tomonidan ishni olib borishga order shaklini tasdiqlaydi;

- advokatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek, advokatlik tuzilmalari tomonidan ta'sis hujjatlariga, ustav faoliyatiga, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibiga rioya qilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

d) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlarining yuridik xizmatini rivojlantirish bo'yicha:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, mahalliy davlat hokimiyati organlarida, boshqa davlat tashkilotlarida huquqiy ishlarni muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, ularni yaxshilashga doir tavsiyalar ishlab chiqadi;

- aniqlangan, yuridik xizmatlar xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan yo'l qo'yilgan yuridik xizmatlar faoliyatini tartibga soladigan qonun hujjatlari talablari buzilishlarini bartaraf etishga yo'naltirilgan, shuningdek, aybdor shaxslarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortish bo'yicha o'z vakolati doirasida chora-tadbirlar ko'radi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati xodimlarini tayinlashda qatnashadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari yuridik xizmatlariga huquqiy ishlarga tegishli ko'rsatmalar beradi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari yuridik xizmatlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazadi va attestatsiyadan o'tganligi to'g'risida guvohnoma beradi;

- yuridik xizmatlar xodimlarining malakasini oshirishni tashkil-lashtiradi va malaka oshirishni o'taganligi haqida sertifikat beradi;

- yuridik xizmatlar xodimlarining hisobini yuritadi;



• yuridik xizmatlarning ma'lumotlar bazasini tuzish va yuritish tartibini, ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun ma'lumot taqdim etish shakllari va muddatlarini belgilaydi.

*Tadbirkorlikni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini rivojlantirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash sohasida:*

• huquqiy ta'minot samaradorligini oshirishga va tadbirkorlikni rivojlantirishga, tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

• tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish hamda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

• tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquqlarini himoya qilish, mikrofirmalar, kichik korxonalar, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qulay huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini o'rganadi, shuningdek, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

• nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishlarni amalga oshirishning qonuniyligi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

• tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobining shakli va to'ldirish tartibini tasdiqlaydi, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida uning tarqatilishini ta'minlaydi va uni to'ldirish tartibiga rioya qilinayotganlik bo'yicha monitoring amalga oshiradi;

• tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'radi;

• kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga yoki bu sohadagi qonunbuzarliklarga bog'liq jinoiy, fuqarolik, xo'jalik va ma'muriy ishlar materiallarini belgilangan tartibda o'rganadi;

• davlat tuzilmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, ularning mansabdor shaxslari tomonidan tadbirkorlik

subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga noqonuniy holatlarini tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirgan holda aniqlaydi, o'rganadi va monitoringini amalga oshiradi;

- tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi holatlari bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqadi, ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida ularni xabardor qiladi.

*Shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni mustahkamlash sohasida:*

- xo'jalik yurituvchi subyektlarga shartnomalarni, eng avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasidagi xo'jalik shartnomalarini tuzishda va bajarishda huquqiy yordam ko'rsatadi;

- shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash yuzasidan belgilangan tartibda takliflar ishlab chiqadi va kiritadi;

- xo'jalik subyektlari, eng avvalo, ularning mansabdor shaxslarini shartnoma intizomini buzganligi uchun javobgarlikka tortish bo'yicha belgilangan choralarni qo'llash ustidan nazorat olib boradi;

- xo'jalik subyektlari rahbarlarining shartnoma intizomiga rioya qilishi bo'yicha mas'uliyatini oshirish yuzasidan ish olib boradi;

- qishloq xo'jaligida shartnomalar tuzish va bajarishda xo'jalik subyektlarining qonunchilikka rioya qilishi ustidan nazorat olib boradi.

*Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ularni tashkil etishda qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlash sohasida:*

- auditorlik tashkilotlarini, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarini, birjalarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi hukumatining tegishli qarorlari bilan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlarini, shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarni, soliq maslahatchilari tashkilotlarini, bozorlarni, lombardlarni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

- yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlaydi;

- o'zi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslarning davlat reyestrini yuritadi;

- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va o'z ustav fondlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda shakllantirmagan korxonalarni tugatish bo'yicha belgilangan tartibda chora-tadbirlar ko'radi;

- tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish bo'yicha inspeksiyalari faoliyatida ushbu

sohada byurokratik to'siqlar va g'ovlarning oldini olish maqsadida qonuniylikka rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish bo'yicha inspeksiyalar ustidan uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

*Xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini samarali huquqiy himoya qilishni ta'minlash sohasida:*

- belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish bo'yicha takliflarni kelishadi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tayyorlash va bajarishda ishtirok etadi;

- O'zbekiston Respublikasining huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash, tuzish va bajarish haqida belgilangan tartibda takliflar taqdim etadi;

- O'zbekiston Respublikasi tomonlardan biri hisoblanadigan xalqaro-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati ostida tuzilgan qarz va kredit shartnomalari bo'yicha yuridik xulosalar beradi;

- xalqaro shartnomalar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazadi;

- o'z vakolatlari doirasida boshqa davlatlarning tegishli organlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik to'g'risida shartnomalar tuzadi;

- xalqaro-huquqiy axborot masalalari bo'yicha ma'lumotlar bankini tashkil etadi;

- o'z vakolatlari doirasida xorijiy davlatlarda O'zbekiston Respublikasi va uning fuqarolarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi;

- xorijiy davlatlar sudlarida va xalqaro arbitrajlarda tomonlardan biri O'zbekiston Respublikasi bo'lgan nizolar ko'rib chiqilayotganda vakillik qiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va eks-prezidentining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini huquqiy, shu jumladan, sudda himoya qilishni amalga oshiradi.

*Zamonaviy talablarni, davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratlashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish sohasida:*

- davlat organlarining yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydi, ularni Toshkent Davlat yuridik institutida, Toshkent yuridik kollejida, Toshkent Davlat yuridik instituti huzuridagi akademik litseyda va vazirlik tizimining boshqa ta'lim muassasalarida tayyorlash ishlarini tashkil etadi va rahbarlik qiladi;

- huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilishda, ularning pedagog va ilmiy kadrlarini attestatsiyadan o'tkazishda ishtirok etadi;

- zamonaviy talablar va davlat, jamiyat qurilishi sohasidagi demokratlashtirish jarayonlarini, standartlarni hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi;

- kadrlar ishini, huquqshunoslar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- xorijiy davlatlarda yuridik ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olishda va ularning ekvivalentligini qayd etishda qonun hujjatlariga muvofiq ishtirok etadi;

- adliya organlari va muassasalarining kadrlar zaxirasini yaratadi, kadrlarni tayyorlash va stajirovkalarni tashkil etadi, tanlashni amalga oshiradi va belgilangan tartibda joy-joyiga qo'yishda qatnashadi, ularni qayta tayyorlashni tashkil etadi.

*Fuqarolar va tashkilotlarning murojaatlarini ko'rib chiqish sohasida:*

- adliya organlari va muassasalari xodimlarining noqonuniy harakatlari ustidan fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqadi, ushbu masalalar bo'yicha shikoyatlar har tomonlama xolisona ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

- qonunchilikning buzilishi holatlari yuzasidan tushgan shikoyatlarni zarur hollarda joylarda mutasaddi tashkilotlar va mutaxassislar bilan birgalikda tekshirib, adolatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi;

- adliya organlari va muassasalarining shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyatini o'rganadi va bu boradagi ishlarni umumlashtiradi, shu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqadi.

*Huquqiy statistika sohasida:*

- davlat organlari va boshqa organlardan olingan huquqiy statistika ma'lumotlarini umumlashtiradi va tahlil qiladi;

- adliya organlari va muassasalarida statistika hisoboti va birlamchi hisobga olish hujjatlari shakllarini ishlab chiqadi;
- advokatura faoliyati to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini o'rganadi;
- fuqarolik holati dalolatnomalarini va notarial harakatlarni ro'yxatga olishni, shuningdek, adliya organlari va muassasalari faoliyatining boshqa yo'nalishlari bo'yicha statistikasi yuritadi;
- doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari hisobini ro'yxatdan o'tkazish va muvaqqat hakamlik sudlarini hisobga olishni amalga oshiradi.

*Adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalashtirish sohasida:*

- adliya organlari va muassasalari xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minoti to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi;
- adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik ta'minlashni tashkil etadi, adliya organlari va muassasalari binolarini, shu jumladan, davlat notarial idoralari, FHDY organlari, sud ijrochilari bo'limlarini kapital qurish va ta'mirlash choralari ko'radi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar kiritadi;
- adliya organlari va muassasalarini belgilangan tartibda moliyaviy ta'minlashni amalga oshiradi, adliya tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etib, nazorat qiladi;
- adliya organlari va muassasalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

*Sud-ekspert, ilmiy va ta'lim muassasalarini rivojlantirish sohasida:*

- huquqiy fanlarni rivojlantirish choralari ko'radi, sud ekspertizasi sohasida ilmiy tadqiqot, ekspertlik ishlarini tashkil etadi;
- O'zbekiston Respublikasi davlat sud-ekspert muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va unga ilmiy-uslubiy rahbarlik qiladi, shuningdek, Sud ekspertizasi muammolari bo'yicha kengashni boshqaradi;
- H. Sulaymonova nomidagi respublika sud-ekspertiza markazi, respublika yuristlar malakasini oshirish markazi, Toshkent Davlat yuridik instituti, Toshkent yuridik kolleji va boshqa adliya muassasalari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi.

Vazirlik o'z vakolati doirasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari, boshqa tashkilotlar, notariuslar, advokatlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishga haqlidir.

Vazirlik, zarur hollarda boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda qo'shma qarorlar va boshqa hujjatlarni chiqarishga haqlidir.

Vazirlik davlat organlarining huquqni qo'llash amaliyoti va norma ijodkorligi faoliyatida qonun hujjatlari talablariga, qonuniylikka rioya qilishi ustidan ta'sirchan nazorat qilinishi, shuningdek, o'ziga yuklatilgan boshqa vazifalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

**Vazirlik hay'ati.** Ishni tashkil etish va qaror qabul qilishda vazirlik hay'ati muhim ahamiyatga ega. U vazir (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimga ko'ra), shuningdek, vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi. Hay'atning a'zolari, soni va shaxsiy tarkibi vazirning taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlik hay'ati o'zining doimiy chaqiriladigan yig'ilishlarida vazirlik va unga qarashli bo'lgan organlar va muassasalar faoliyatining asosiy masalalarini, shuningdek, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash masalalarini ko'rib chiqadi. Hay'at qarorlari, odatda, vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

Qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarini ijro etish maqsadida vazir buyruqlar, yo'riqnomalar, tushuntirishlar va boshqa idoraviy me'yoriy hujjatlar chiqarish huquqiga ega. Bunday turdagi hujjatlarda davlat notariati va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari faoliyati, sud ekspertizalarini tashkil etish, statistika hisobotlarini yuritish va hokazolarni tashkiliy jihatdan ta'minlash masalalari hal etilishi kerak. Ular vazirlik tizimidagi organlar, muassasa va tashkilotlar xodimlari, boshqa organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ayrim funksiyalarining bajarilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Tabiiyki, ularning vakolatlari doirasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi vakolatlari doirasidan ancha kam. Misol uchun, ular ijro etuvchi hokimiyat markaziy organlari normativ hujjatlarining davlat ro'yxatini yuritmaydi, ulardan qonunchilikni takomillashtirishda keng ishtirok talab etilmaydi. Ularning asosiy vazifasi — kerakli darajada huquqiy xizmatlar ko'rsatish uchun

sharoitlar yaratish, notariat va FHDY organlariga rahbarlik qilish. Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tuzilishi ular bajaradigan ish hajmi va mazmunidan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

## **11.2. Adliya organlari rivojlanishining asosiy bosqichlari**

O'zbekiston Adliya xalq nozirliqi (AXN) 1924-yil 26-noyabrda Turkiston Avtonom Respublikasining Adliya xalq nozirliqi negizida Revolutsion qo'mita (Revqo'm) qarori bilan tashkil etilgan edi. Uning eng muhim vazifalaridan biri O'zbekiston tarkibiga kirgan sobiq davlatlar, ya'ni Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligi hududida adliya organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tizimlashtirishdan iborat edi.

1925-yil 6-mayda O'zbekiston MIQ (Markaziy Ijroiya Qo'mitasi) Rayosati Adliya xalq nozirliqi to'g'risida Nizomni tasdiqladi. Nizomda AXN tuzilishi va vakolatlari doirasi belgilab berildi. Nizomning 1-moddasiga asosan, O'zSSR AXN zimmasiga: barcha sud muassasalari, prokuratura, tergov organlari, notariat va sud ijrochilariga rahbarlik qilish, ularni tashkil etish va ko'rsatmalar berish; yer komissiyalari va boshqa sud funksiyalari berilgan muassasalar faoliyati ustidan kuzatuvni amalga oshirish; adliya organlari bir tomondan, boshqa idoraviy organlar ikkinchi tomondan o'rtasidagi vakolatlarni ajratish borasidagi nizoli masalalarni ko'rib chiqish; O'zSSR MIQ va XNK (Xalq Nozirlari Kengashi)ga kiritiladigan barcha qonunchilik takliflarini dastlabki ko'rib chiqish; qonuniylikka rioya etish ustidan nazorat; amaldagi qonunlarga sharhlar berish va respublika qonun hujjatlari va hukumat farmoyishlari to'plamlarini nashr etish va boshqalar yuklatilgan edi.

Adliya xalq nozirliqi uch asosiy bo'limdan iborat edi: sud tuzilishi va nazorat, prokuratura, shuningdek, qonunchilik takliflari bo'limi. Adliya xalq noziri bir vaqtning o'zida O'zSSR XNK taqdimnomasiga binoan, MIQ tomonidan tayinlanadigan va ozod etiladigan Respublika davlat prokurori ham sanalar edi. Sud va prokuratura organlari faoliyatiga rahbarlik qilish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim masalalarni muhokama qilish va hal etish maqsadida Adliya xalq nozirliqi huzurida Adliya xalq noziri, uning ikki o'rinbosari, O'zSSR AXN bo'limlari mudirlari va Respublika Oliy sudi raisi tarkibida hay'at faoliyat ko'rsatar edi. 1926-yil 22-dekabrda

O'zbekiston Adliya xalq nozirligi to'g'risidagi Nizom o'zgartirildi va to'ldirildi, 1931-yil 11-oktabrda esa keyingi yillarda sud-prokuratura organlari tuzilishi va funksiyalari o'zgarishi munosabati bilan ko'p marta o'zgargan yangisi bilan almashtirilgan edi.

Prokuror nazorati respublika prokurori, Oliy sud huzuridagi prokuror yordamchisi, viloyat prokurorlari va viloyat sudlari huzuridagi hamda alohida uchastkalarda (uyezdlarda) prokuror yordamchilari boshchiligida O'zSSR AXN prokuratura bo'limi tomonidan amalga oshirilgan edi. 1925-yil 6-maydagi «O'zbekiston Adliya xalq nozirligi to'g'risida»gi Nizomning 8-moddasiga ko'ra, O'zSSR AXN prokuratura bo'limi barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xo'jalik muassasalari, jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslarning harakatlari qonuniyligi ustidan davlat nomidan nazoratni amalga oshirar edi; aybdorlarga nisbatan jinoyi ta'qibni amalga oshirgan va mahalliy kengashlar ijroiya qo'mitalari, xalq nozirliklari va respublika markaziy muassasalarining qonunni buzuvchi qarorlari ustidan protest kiritgan.

O'zSSR AXN prokuratura bo'limi zimmasiga jinoyatlarni ochish sohasida tergov va surishtiruv organlari faoliyati ustidan, shuningdek, Davlat siyosiy boshqarmasi (GPU) faoliyati ustidan bevosita kuzatuvni amalga oshirish, ozodlikdan mahrum etish joylari va axloq tuzatish mehnat muassasalari to'g'ri faoliyat ko'rsatish ustidan kuzatuvni amalga oshirish yuklatilgan edi. O'zSSR MIQning 1928-yil 27-oktabrdagi «O'zSSR sud organlariga rahbarlik qilish tartibi to'g'risida»gi qarori bilan respublika Adliya xalq nozirligi tuzilishiga muhim o'zgartirishlar kiritilgan edi. Qarorda sud siyosati yaxlitligini ta'minlash va sud organlariga rahbarlik qilish zarurati tufayli, O'zSSR AXN shunday qayta tashkil etilsinki, unda maksimal tarzda, to'liq hajmda uning faoliyati sohaslariga rahbarlik qilish yaxlitligi ta'minlansin va ayniqsa, prokuratura va sud organlariga nisbatan rahbarlik qilish va boshqaruv ta'minlansin, deb belgilangan.

Sud va prokuratura organlariga rahbarlik qilishni birlashtirish maqsadida Adliya xalq nozirligida ikki o'rinbosar lavozimi ta'sis etilgan edi: biri — prokuratura yo'nalishi bo'yicha (uning o'zi respublika prokurori), ikkinchisi — sud yo'nalishi bo'yicha (uning o'zi O'zSSR Oliy sudi raisi).

Barcha sud organlariga rahbarlik qilish ishlari respublika AXNda mujassamlashgan edi. Sudlarga umumiy turdagi direktiv ko'rsatmalarni Adliya xalq nozirligi Respublika oliy sudi orqali



yoki O'zSSR AXN roziligi bilan bevosita Oliy sud bergan. Sud amaliyotiga kundalik rahbarlik qilish va yagona sud siyosatini amalga oshirish Respublika oliy sudi zimmasiga yuklatilgan edi.

Sud qarorlari, ajrimlari va buyruqlarini ijro etish maqsadida xalq sudlari huzurida ularning bevosita kuzatuv va rahbarligi ostida sud ijrochilari ishlar edi. Ularni tayinlash, boshqa joyga o'tkazish va bo'shatish AXN o'z tashabbusi bilan yoki xalq sudlari va tuman ijroiya qo'mitalari taqdimnomalariga asosan AXN tomonidan amalga oshiriladi. O'zSSR Adliya xalq nozirligi 1931-yil 11-oktabrda O'zSSR MIQ va XNK tomonidan tasdiqlangan yangi Nizomga asosan prokuratura, Oliy sud, tashkiliy ko'rsatmalar berish bo'limi, axloq tuzatish mehnat muassasalari bosh boshqarmasi va umumiy bo'limdan tashkil topgan edi. Adliya xalq noziri respublika prokurori, Oliy sud raisi va axloq tuzatish mehnat muassasalari bosh boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi o'rinbosarlarga ega edi.

O'zSSR AXN respublika hududida yagona sud siyosatini amalga oshirish, barcha adliya organlari faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish va uni tashkil etish, davlat, jamoat muassasalari va xususiy shaxslarning harakatlari qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirish bilan shug'ullanar edi. U jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida barcha tergov organlari faoliyatiga, jinoyatchilik va u bilan kurash usullarini o'rganishga rahbarlik qilgan. Adliya xalq nozirligi vakolatlari doirasiga barcha maxsus sud organlari ustidan nazorat, shuningdek, respublikada axloq tuzatish mehnat amaliyoti ustidan nazoratni amalga oshirish va boshqalar kirar edi.

O'zSSR MIQ qonunchilikda bo'lgan o'zgartirish va to'ldirishlar munosabati bilan 1931-yil 20-iyuldagi qaror bilan «O'zSSR sud tuzilishi to'g'risida»gi Nizom yangidan qabul qilingan edi. O'zSSR prokuraturasini bir vaqtning o'zida Adliya xalq noziri o'rinbosari bo'lgan respublika prokurori boshqarar edi. U O'zSSR MIQ Rayosati tomonidan tayinlanar edi.

Respublika prokuroriga bevosita tuman va shahar prokurorlari bo'ysungan. Alohida hollarda prokuror nazorati bir nechta tumanlarda bir prokuratura tomonidan amalga oshirilgan. Tuman va shahar prokurorlari respublika prokurori tomonidan lavozimga tayinlanar, boshqa joyga o'tkazilar va lavozimdan ozod etilar edi.

1934-yil 10-sentabrda O'zSSR MIQ va XNK «Sud va prokuratura organlarini qayta tashkil etish va mustahkamlash to'g'-

risida» qaror qabul qilishdi, u Adliya xalq nozirligi, O'zbekiston prokuraturasi va Oliy sudi tuzilishini biroz o'zgartirdi. O'shanda AXN respublika prokuraturasi, Oliy sudi va bo'limlardan tashkil topgan edi. O'zSSR prokuraturasi umumiy bo'lim va Oliy sud prokuraturasiga bo'lingan edi. Alohida qism va bo'limlarning funksional qurilishiga xos bo'lgan bunday tuzilish vazifalarning tezkor va to'g'ri hal etilishini ta'minlamas edi, rahbarlikni, umuman, unga kerak bo'lgan aniqlikdan mahrum qilar edi.

Markazlashgan sud va prokuratura tizimini tashkil etishning yakunlovchi hujjati bo'lib sobiq Ittifoq MIQ va XNKning 1936-yil 20-iyuldagi «SSSR Adliya xalq nozirligini tashkil etish to'g'risida»gi qarori bo'ldi. 1936-yil 8-dekabrda sobiq Ittifoq MIQ va XNK Sovet Ittifoqi Adliya xalq nozirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlashdi. O'zbekiston Oliy sudi sud boshqaruvi funksiyasidan ozod etilgan edi, u faqat respublika sudlarining yuqori nazorat instansiyasi bo'lib qoldi. Sovet Ittifoqi Adliya xalq nozirligi tashkil etilishi bilan ittifoqdosh respublikalar Adliya xalq nozirliklari vakolatlari doirasidan barcha prokuratura-tergov organlari ajratib olingan edi. Sovet Ittifoqi Adliya xalq nozirligi zimmasiga sud muassasalari faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish yuklatilgan edi.

Respublika MIQ va XNKning 1937-yil 20-maydagi qarori bilan «O'zSSR Adliya xalq nozirligi to'g'risida»gi yangi Nizom tasdiqlandi, ushbu hujjatga ko'ra, uning zimmasiga sudlar tomonidan Sud tuzilishi to'g'risidagi nizomni, jinoyat, fuqarolik va protsessual kodekslarning qo'llanishi ustidan kuzatish; ularni qo'llash amaliyotini umumlashtirish va ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar ishlab chiqish; sudlar tomonidan sovet qonunlarini qo'llashi ustidan nazorat va sudlarga sud amaliyoti to'g'riligi va yaxlitligini ta'minlash maqsadida umumiy ko'rsatmalar berish; sud tizimini tashkil etish, sudyalarni tanlash va sudlarni tashkiliy-xo'jalik jihatdan ta'minlashni amalga oshirish; O'zSSR sud muassasalarida taftish o'tkazish va ularga ko'rsatmalar berish; himoyachilar hay'ati faoliyatiga rahbarlik qilish va ular ustidan nazoratni amalga oshirish hamda aholiga yuridik yordam berishni tashkil etish; ishlab chiqarish o'rtoqlik va qishloq jamoat sudlari, notariat, yuridik maktablar va kurslar faoliyatiga rahbarlik qilish va ular ustidan nazoratni amalga oshirish; O'zSSR qonunchiligini kodifikatsiyalashtirish bo'yicha ishni amalga oshirish; sud statistikasini yuritish va boshqa vazifalar yuklatilgan edi.

Nizomda O‘zSSR Adliya xalq nozirligi tuzilishi ham belgilangan edi, uning boshida ikki o‘rinbosarga ega Xalq noziri turar edi. O‘zSSR AXN tarkibida sud muassasalari bo‘limlari<sup>1</sup>, sud orqali himoya qilish va aholiga yuridik yordam ko‘rsatish bo‘limi, notariat sektori, O‘zSSR qonunchiligini kodifikatsiyalashtirish bo‘limi, yuridik maslahatxona<sup>2</sup> va boshqalar tashkil etilgandi. AXN huzurida O‘zSSR Adliya xalq noziri tomonidan chaqiriladigan kengash faoliyat ko‘rsatar edi.

O‘zbekiston tarkibiga Qoraqalpog‘iston ASSR qo‘shilishi bilan O‘zSSR Adliya xalq nozirligi zimmasiga yangi tashkil etilgan QQ ASSR Adliya xalq nozirligi va Bosh sudi (keyinchalik Oliy sudga o‘zgartirilgan) ustidan rahbarlik qilish ham yuklatilgan edi. Ittifoq Adliya xalq nozirligining tashkil topishi bilan O‘zSSR Oliy sudi vakolatlari ham o‘zgardi. U sud boshqaruv funksiyasidan ozod etilgandi, ushbu funksiya odil sudlovni amalga oshirish funksiyasidan ajratilgan edi. Bu ajratish birdan emas, asta-sekin, ya‘ni SSSR, ittifoqdosh va avtonom respublikalar sud tuzilishi to‘g‘risidagi Qonun qabul qilinishidan oldin amalga oshirilgan edi (1938-y.).

O‘zSSRning barcha sud organlari faoliyatiga rahbarlik qilish 1939-yil 1-noyabrda O‘zSSR XNK tomonidan tasdiqlangan AXN to‘g‘risidagi Nizom asosida faoliyat ko‘rsatadigan respublika AXN zimmasiga yuklatilgan edi, u Respublika AXN zimmasiga QQ ASSR AXN, viloyat boshqarmalari faoliyatiga rahbarlik qilish, O‘zSSR sudlarini tashkil etish, sud organlari ishi ustidan nazorat, ularning ishini tashkil etish va yaxshilash bo‘yicha rahbarlik ko‘rsatmalar berish, advokatura, notarial organlar faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, O‘zSSR qonun hujjatlarini kodifikatsiyalashtirish uchun materiallar tayyorlash, sud saylovlarini tashkil etish va o‘tkazish hamda boshqalar yuklatilgan edi.

1937—1941-yillarda O‘zSSR AXN «O‘zSSR davlat notariati to‘g‘risida»gi Nizomga bir qator qo‘shimcha kiritdi. Respublikaning 54 tumanida notarial idoralarning yo‘qligi munosabati bilan u 1938-yil 27-avgustda ushbu tuman sudyalari zimmasiga notarial

---

<sup>1</sup> Mazkur bo‘limlar quyidagi bo‘linmalarga ega bo‘lgan: a) tashkiliy-axborot sektori; b) taftish-instruktorlik sektori; d) ishlab chiqarish-o‘rtoqlik va qishloq jamoat sudlari bo‘yicha guruh; e) sud statistikasi sektori.

<sup>2</sup> Mazkur bo‘limga kadrlarni hisobga olish, yuridik maktablar va kurslarning ishiga rahbarlik qilish, rejalarni tuzish kabi vazifalar yuklatilgan edi.

harakatlarni amalga oshirishni yuklash to'g'risida buyruq chiqardi. Respublika AXN hay'ati xalq noziri (komissari), uning o'rinbosarlari va rahbar xodimlari tarkibida o'zining majlislarida amaliy rahbarlik, ijroning tekshirilishi, kadrlarni tanlash masalalarini hal etardi, hisobotlar tinglar edi va h.k. QQ ASSR AXN 1940-yil 9-yanvarda QQ ASSR XNK tomonidan tasdiqlangan QQ ASSR AXN to'g'risidagi nizom asosida faoliyat yuritir edi. Uning tarkibiga xalq sudlari bo'limi sud ijrochilari sektori bilan, kodifikatsiya, advokatura, notariat va boshqa sektorlar kirar edi.

SSSR Oliy Kengashi Rayosatining «O'lka, viloyat sudlari huquqlarini kengaytirish va mehnatkashlar deputatlari viloyat, o'lka kengashlarining huzuridagi ittifoqdosh respublikalarning vazirliklari boshqarmalarini tugatish to'g'risida»gi Farmoniga (1956-yil avgust oyi) va O'zSSR Oliy Kengashi Rayosati 1956-yil 7-avgustdagi «Mehnatkashlar deputatlari viloyat Kengashlari huzuridagi O'zSSR Adliya vazirligi boshqarmalarini tugatish to'g'risida»gi Farmoniga asosan, O'zSSR Vazirlar Kengashi 1956-yil 6-noyabrdagi qarori bilan respublika Adliya vazirligi to'g'risidagi yangi nizomni tasdiqladi. Shu qaror bilan O'zSSR davlat notariati to'g'risidagi Nizomiga o'zgartirishlar kiritildi (O'zSSR Vazirlar Kengashi tomonidan 1956-yil 16-fevralda qabul qilingan).

Nizomga ko'ra, O'zSSR Adliya vazirligi bevosita respublika Vazirlar Kengashiga bo'ysunardi. Vazirlikda vazir, uning o'rinbosarlari va bir nechta rahbar xodimlar tarkibida hay'at faoliyat ko'rsatar edi, u sud muassasalari va adliya organlari faoliyatiga amaliy rahbarlik, ijroning tekshirilishi, kadrlarni tanlash, eng muhim buyruqlar, yo'riqnomalar tayyorlash va boshqa masalalarni ko'rib chiqardi.

Adliya vazirligi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi: QQ ASSR Adliya vazirligi faoliyatiga rahbarlik qilish, sud organlari ishi holati ustidan nazorat va ularning ishini tashkil etish bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar berish; notarial idoralar tashkil etish va viloyat sudlari bilan bir qatorda, ular faoliyatiga rahbarlik qilish; advokatura to'g'risidagi Nizomga asosan advokatura faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish; adliya, sud, notariat, advokatura organlari kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash; qonun hujjatlari va O'zSSR hukumati me'yoriy qarorlari loyihalarini ishlab chiqish, O'zSSR qonunlari, Oliy Kengash Rayosati farmonlari va O'zSSR hukumat qarorlarini kodifikatsiyalashtirish uchun materiallar tayyorlash va ularni tizimlashtirish.

1959-yil 23-martda viloyat va xalq sudlari faoliyati ustidan nazoratni mujassamlashtirish maqsadida O'zSSR Oliy Kengashi Rayosati respublika Adliya vazirligini tugatdi. Viloyat va xalq sudlarida taftish o'tkazish, ularning faoliyati ustidan nazorat qilish huquqi, sud statistikasini yuritish bo'yicha majburiyat O'zSSR Oliy sudi vakolatiga o'tdi. Bunday qayta tashkil etish natijasida sud boshqaruv organlari sifatida yuqori sud instansiyalari hisoblana boshlandi. Ularga xos bo'lmagan bu tashkiliy-boshqaruv funksiyalar bevosita odil sudlovni va sud nazoratini amalga oshirish faoliyatiga ziyon yetkazib, ularning ishga ko'milib ketishiga sabab bo'ldi.

1970-yil 1-oktabrda O'zSSR Oliy Kengashi Rayosati «Ittifoq-respublika miqyosida O'zSSR Adliya vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi Farmonni chiqardi. U to'g'risidagi Nizom esa 1972-yil 27-sentabrda O'zSSR Vazirlar Kengashi qarori bilan tasdiqlangan edi. Adliya vazirligi QQ ASSR Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) xalq sudlari ustidan tashkiliy rahbarlikni amalga oshirar edi, O'zSSR qonun hujjatlarini kodifikatsiyalashtirish haqidagi takliflarni tizimlashtirish va tayyorlash ishini amalga oshirar edi, xalq xo'jaligidagi huquqiy ishlarga uslubiy rahbarlikni, aholi orasida huquqiy bilimlarni targ'ib qilish va qonunchilikni tushuntirish bo'yicha davlat organlari va jamoat tashkilotlari ishiga uslubiy rahbarlik va uni muvofiqlashtirishni amalga oshirar edi, notariat, Toshkent sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutiga rahbarlik qiladi, shuningdek, O'zSSR fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish va advokatura organlari faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi. Bu yillarda Adliya vazirligi jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishda sud faoliyatini yaxshilash masalalarini bir necha bor ko'rib chiqqan<sup>1</sup>.

O'zbekiston xalqi birinchi marta davlat mustaqilligiga erishdi. Uning tarixiy ahamiyati, birinchi navbatda, u inson huquqlari va davlat mustaqilligi prinsiplariga sodiqligini belgilab berishida, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish vazifalarini qo'yishida namoyon bo'ladi.

Demokratik huquqiy davlatni barpo etishni qonunning yuqori va mustahkam nufuzisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu haqiqat yangilanish va taraqqiyot siyosatida asos qilib olingan. Qonun us-

---

<sup>1</sup> Bu haqda batafsilroq qarang: *M. Abdusalomov*. Становление и развитие органов юстиции Узбекистана. Т., «Adolat», 1996.

tuvorligi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining unga bo'ysunishi — huquqiy davlat faoliyat ko'rsatishining zaruriy shartidir. Aynan Konstitutsiya, qonunlar har qanday hokimiyatdan ustun turishi kerak. Mazkur shartsiz insonlarda ularning huquqlari buzilmasligiga ishonch tuyg'usini shakllantirish, shaxsiy va iqtisodiy erkin jamiyat tashkil topishi mumkin emas.

Huquqiy davlat shakllanish davrida respublika umumiyuridik organi sifatida Adliya vazirligining roli ancha oshadi. Adliya organlari roli va javobgarligini oshirish, qonun ijodkorligi faoliyatini faollashtirish, aholiga huquqiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1992-yil 8-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmon chiqardi. Ushbu Farmon bilan Ittifoq-respublika miqyosidagi O'zSSR Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

Prezident I.A. Karimovning 1992-yil 8-yanvardagi Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 12-noyabrda (523-sonli) «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish masalalari to'g'risida»gi qarorni qabul qildi va unda O'zSSR Vazirlar Kengashining 1972-yil 27-sentabrdagi «O'zSSR Adliya vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 427-sonli qarorini o'z kuchini yo'qotgan deb topdi, Adliya vazirligining markaziy apparati tuzilishi va yangi Nizomini tasdiqladi.

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, sud-huquq sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar adliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirishni talab qildi. Adliya vazirligining asosiy va eng muhim vazifasi qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash bo'lib qolishi kerak. Aynan shu bilan 2003-yil 27-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi shartlangan.

2011-yil 23-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish, uning huquqni qo'llash

amaliyotida va qonun ijodkorligi faoliyatida qonuniylikni qat'iy ta'minlash bilan bog'liq faoliyatining samaradorligini oshirish, uning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi rolini kuchaytirish, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qoidalarini izchillik bilan amalga oshirish bilan bog'liq vazifalari belgilab berildi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Ushbu mavzuning ko'rib chiqilishi talabalarga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi amalga oshiradigan hamda odil sudlov, advokatura, notariat va boshqa institutlarning normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan keng hajmdagi tashkiliy-huquqiy tadbirlar roli va ahamiyatini anglash imkonini beradi.*



### NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimini aytib bering.
2. Adliya vazirligi markaziy apparati qanday tuzilishga ega?
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining funktsiya va vazifalari nimalardan iborat?
4. Normativ-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishi ustidan monitoring qilish markazining asosiy vazifalari va funktsiyalari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda adliya organlari rivojlanishining asosiy bosqichlarini bayon eting.

### MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Adliya vazirligi vazifalari va funktsiyalarining o'zaro nisbatini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
2. Chet davlatlar adliya vazirliklari roli va o'rnini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.

### Axborot uslubiy ta'minot

*I.A. Karimov.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr). T., «O'zbekiston», 2010.

## Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-avgustda «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

## Maxsus adabiyotlar

1. *M. Абдусаломов*. Становление и развитие органов юстиции Узбекистана. Т., «Adolat», 1996.
2. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). Т., TDYI, 2010.



## 12-bob. SUDLAR FAOLIYATINI TASHKILY VA MODDIY-TEXNIK JIHATDAN TA'MINLASH

### O'quv maqsadlari

*Ushbu mavzuning o'rganilishi talabalar tomonidan huquqni himoya qilish faoliyatining sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash kabi funksiyasi tushunchasi va ahamiyatini anglash, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi organlarni ko'rib chiqishga qaratilgan.*

### 12.1. Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, uning tushunchasi va ahamiyati

Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash tartibi, shartlari alohida va mustaqil sud hokimiyatini tavsiflovchi elementlardan biri bo'ladi. Muayyan davlatda sud tizimini ta'minlash qanday tashkil etilganligi haqidagi savol maqsadsiz savol emas, chunki u davlat mexanizmida sud hokimiyati roli va o'rniga jamiyat munosabatini yetarlicha to'liq aks ettiradi.

Shu bilan birga, ko'p olimlar mazkur faoliyatni huquqni himoya qilish faoliyatining alohida funksiyasi (yo'nalishi) sifatida qarashadi. Ushbu faoliyat haqida so'z yuritilganda sud faoliyati, uni kadrlar, tashkiliy va resurslar jihatidan ta'minlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish tushuniladi.

Ushbu tushuncha o'z ichiga bir qator elementlarni oladi:

1) tashkiliy turdagi tadbirlar. Asosiy vazifasi sudyalarning zaxirasini shakllantirish va sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlashdan iborat;

2) moliyaviy turdagi tadbirlar: a) sudyalarning va sud devonlari xodimlarini tegishli pul ta'minoti bilan ta'minlash; b) kapital qurilish va boshqa masalalar yuzasidan sudlarni tegishlicha moliyalashtirishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar;

3) moddiy-texnik turdagi tadbirlar (sudlarni tashkiliy texnika, kanselariya va boshqa materiallar, shuningdek, elektr, suv ta'minoti, isitish va h.k.lar bilan amalda ta'minlash);

4) odil sudlovni to'la va mustaqil amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan boshqa tadbirlar o'tkazish.

## 12.2. Tashkiliy turdagi tadbirlar

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuniga binoan, umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudlari faoliyatini tashkiliy (kadrlar) ta'minlash sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi prinsiplariga qat'iy rioya qilingan holda *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi* tomonidan amalga oshiriladi, bu esa quyi instansiya sudlarining yuqori instansiya sudlaridan mustaqilligi kafolatlaridan biri bo'ladi.

Sud hokimiyatining asl mustaqilligini ta'minlash, sud kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish prinsiplarini yanada demokratlashtirish, shuningdek, sudyalik lavozimiga tavsiya etilayotgan va sudyalar vakolatlarini muddatidan ilgari tugatilishi haqida tegishli takliflar kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 30-avgustdagi F-1038-sonli Farmoyishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida sudyalarni tayinlash va ularni ozod etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish komissiyasi tashkil etilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 4-maydagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tayinlash va ularni ozod etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish komissiyasi **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi** sifatida qayta tashkil etildi.

Komissiya sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash siyosatini, sud kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillarini yanada demokratlashtirishni amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi doimiy ishlovchi organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra, Komissiya

zimmasiga sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari sudyalarini tanlash va lavozimlarga tavsiya etish vazifalari yuklatilgan.

Komissiya o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kadrlar siyosatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan Farmon va Farmoyishlari hamda mazkur Nizom asosida sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi tamoyillariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiradi.

Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- sudyalarni tanlash va joy-joyiga qo'yishning demokratik asoslarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- sudya kadrlarni tanlash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tasdig'iga taqdim etishda qonuniylikni ta'minlash;

- sudyalar mustaqilligi va ularning ijtimoiy muhofazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- sudyalik lavozimlariga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish borasidagi ishlarni yaxshilash hamda sudya kadrlarni tarbiyalash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- sudyalikka nomzodlarni tanlab olishning huquqiy negizini takomillashtirish, ularning kasb mahoratini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- sudya kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha ishlarining ochiq-oydinligi va oshkoraligini, bu ishning vertikal bo'yicha hisobot berilishini ta'minlash, shuningdek, bu sohada xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish hollarining oldini olish;

- sudlar faoliyatini tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash;

- sudyalarni tanlash va tayinlash borasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va Komissiyaning ish amaliyotiga tatbiq etish.

Komissiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan besh yil muddatga o'n yetti kishidan iborat tarkibda tuziladi hamda Komissiya raisi, rais o'rinbosari va a'zolaridan tashkil topadi. Komissiya raisi va o'n bir nafar a'zosi besh yillik muddatga tasdiqlanadi va jamoatchilik asoslarida faoliyat ko'rsatadi. Rais o'rinbosari va to'rt nafar Komissiya a'zosi o'z faoliyatini doimiy ravishda olib boradi.

Komissiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolaridan, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi vakillaridan hamda huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislardan, shuningdek, jamoat birlashmalarining vakillaridan tuziladi.

Komissiya faoliyati Komissiya a'zolarining kollegiallik va teng huquqliligi, Komissiya vakolatiga kiruvchi masalalarning har tomonlama, to'liq va xolisona hal etilishini ta'minlash tamoyillariga asoslanadi. Komissiya qonunga asosan kadrlarni sudyalik lavozimlariga tayinlashga tavsiyanoma tayyorlovchi oxirgi bosqich hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 20-iyuldagi «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomga, Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni qabul qilindi, u sud mustaqilligini yanada kuchaytirish, sud sohasi kadrlari bilan ishlashni yaxshilash, sudyalarning malakasini oshirish masalalarini hal etish, shuningdek, sudlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan.

Mazkur qonun bilan kiritilgan o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasini tashkil etish tartibini aniqlashtiradi, uning son tarkibini, komissiya a'zolari vakolatlari muddatini, shuningdek, ularning o'z faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi. Mazkur komissiya bundan buyon sudyalarning malaka hay'atlari raislarining sud kadrlar bilan ishlash holati haqidagi hisobotlarini eshitishi, shuningdek, ularni egallab turgan lavozimdan ozod etish haqidagi taqdimnomalar kiritishi nazarda tutilgan.

Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashda eng muhim masalalardan biri zaxirani shakllantirish va sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash hisoblanadi. Ko'rsatilgan qonunda sud hokimiyati shakllanishining demokratik prinsiplari nazarda tutilgan. Xususan, zaxirani shakllantirish va sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash bilan hozirgi paytda tegishli sudyalarning malaka hay'atlari shug'ullanadi. Sudyalik lavozimiga faqat O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqshunoslar malakasini oshirish Markazida maxsus kurslarni tugatganlik haqidagi sertifikati

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 29—30, 296-modda.

mavjud bo'lgan shaxslar taqdim etilishi mumkinligini birinchi bor belgilaydigan yangilik ham ahamiyatga sazovor. Umuman olganda, mazkur qonun sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan yaxshilashga, proteksionizm, mahalliychilik, o'z xizmat holatini suiiste'mol qilish va boshqa zaxirani shakllantirish va sud kadrlarini tanlashda sudyalar malaka hay'atlari faoliyatida bo'lishi mumkin bo'lgan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etishga qaratilgan<sup>1</sup>.

### 12.3. Moliyaviy va moddiy-texnik turdagi tadbirlar

Sudyalar mustaqilligini mustahkamlash, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-sentabrdagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sudlar faoliyatini tashkiliy, moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti sifatida qayta tashkil etildi<sup>3</sup>. Quyidagilar Departamentning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- sud qarorlari va boshqa organlar qarorlari so'zsiz ijro etilishi ishlarini tashkil etish;
- sud ijrochilari kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish ishlarini hamda ularning samarali faoliyat ko'rsatishini tashkil etish;
- sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash ishlarini tashkil etish hamda takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

---

<sup>1</sup> Mazkur masala sudyaning huquqiy maqomiga bag'ishlangan alohida bobda batafsil ko'rib chiqilgan.

<sup>2</sup> Xorijiy mamlakatlarda sud hokimiyatini ta'minlash bo'yicha vazifalar aksariyat hollarda ayni adliya vazirliklari tomonidan, umuman, ixtisoslashgan sudlarni ta'minlash qismida esa maxsus vakolatli vazirliklar tomonidan bajariladi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga hamda sud hokimiyatini mustaqil tarzda amalga oshirish to'g'risidagi qoidaga mazkur mamlakatlarda amal qilinishi ko'rsatilgan modellardan voz kechishga olib kelmadi, aksincha, mazkur modellar eng samarali, deb hisoblanadi. *Qarang:* Судебная власть. Под ред. И.Л. Петрухина. М., ООО «ТК Велби», 2003, стр. 547—548.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2001, № 18.

- sudlar binolarini qurish va ta'mirlash uchun ajratilgan kapital mablag'lar samarali o'zlashtirilishini ta'minlash hamda sudlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini ko'rish;

- sudyalari va sudlar apparati xodimlarining mehnat, moddiy shart-sharoitlari va ijtimoiy ta'minotini yaxshilash yuzasidan takliflar ishlab chiqish va ularni tegishli organlarga kiritish;

- sudyalari va sud protsesslarining xavfsizligini ta'minlash ishlarini tashkil etish.

Departamentning tuzilishi ham mazkur vazifalarni bajarishga qaratilgan. Departament yuridik shaxs hisoblanadi va o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziriga hisob beradi. Departament tuzilishida tashkiliy-kadrlar bo'limi, kapital qurilish va asosiy fondlarni ekspluatatsiya qilish bo'limi, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash bo'limi, sudlarni moliyalashtirish bo'limi, shuningdek, sud qarorlarini ijro etish bo'limi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishni tashkil etish, shuningdek, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash maqsadida joylarda Departamentning hududiy bo'limlari tashkil etilgan. Bunda Departamentning har bir hududiy bo'limda sudlarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash masalalari bo'yicha katta mutaxassis ajratilgan.

Nizomda Departament hududiy bo'limining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- sud qarorlari va boshqa organlar qarorlari so'zsiz ijro etilishini ta'minlash, sud ijrochilari tuman (shahar) bo'limlari faoliyati ustidan nazorat qilish ishlarini tashkil etish;

- sudlarning binolari, imoratlari va boshqa obyektlarini qurish va ta'mirlashni tashkil etish va bu ishlarni amalga oshirish, ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish;

- sudlarni texnika, asbob-uskunalar, avtotransport, mebel va boshqa zarur moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash;

- sudlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga doir boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Departament to'g'risidagi nizomda Departament odil sudlovni amalga oshirish jarayoniga aralashish huquqiga ega emasligi alohida aytib o'tiladi.

Nizomda sudlarning joriy faoliyatini mablag' bilan ta'minlash va moddiy-texnik ta'minoti respublika budjeti, shuningdek, O'z-

bekiston Respublikasi Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi belgilanganligini nazarda tutish lozim.

Sudlarni navbatdagi moliya yilida mablag' bilan ta'minlash to'g'risidagi takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari va jinoyat ishlari bo'yicha sudlarining ehtiyojlari hisobga olingan holda Departament direktori tomonidan belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

Departament budjet mablag'lari taqsimlanishini hamda ushbu mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda sudlarga yetkazilishini ta'minlaydi.

*Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini* tashkil etish masalasiga ham alohida to'xtalib o'tish lozim. 2003-yil 18-martda sudlar va adliya organlari va muassasalarining (keyingi o'rinlarda — adliya organlari) moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, ular faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida, shuningdek, amaldagi sudlar va adliya organlarini rivojlantirish, ijro ishini rivojlantirish jamg'armalari mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori<sup>1</sup> bilan O'zbekiston Respublikasi sudlari va adliya muassasalarini rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlarini rivojlantirish, Ijro ishini rivojlantirish jamg'armalari negizida yagona Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb yuritiladi) tashkil etildi.

Umumiy yurisdiksiya sudlari binolarini qurish va ta'mirlash, ularni zarur anjomlar, kompyuterlar va boshqa zamonaviy tashkiliy-texnik vositalar bilan ta'minlash Jamg'armaning birinchi navbatdagi vazifasi hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorining 3-bandiga asosan Jamg'arma mablag'lari:

- xo'jalik sudlarini va adliya organlarini, shu jumladan, notariatni, FHDYni va sud ijrochilarini moddiy-texnik ta'minlashga;
- sudlar va adliya organlari xodimlariga malaka toifalari, darajalari va muayyan vaqt davomida ishlaganligi uchun ustama va qo'shimcha haq to'lashga, ularning malakasini oshirishga, kadrlarni o'qitishga;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 147-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

- sudlar va adliya organlari xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishga;
- sudlar va adliya organlari faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqa tadbirlarga ham yo'naltirilishi nazarda tutilgan.

Jamg'armaning samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'arماسi to'g'risida Nizom ishlab chiqilgan, unda Jamg'arماس mablag'lari shakllanishi masalalari, Jamg'arماس vazifalari, pul mablag'larini maqsadli ishlatish, shuningdek, Jamg'arماس boshqarish tartibi va shartlari nazarda tutilgan.

Jamg'arماس mablag'lari:

- umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha jarimalar va davlat bojlari to'lashdan davlat budjetiga tushayotgan summalarning 20 foizi miqdoridagi ajratmalar;

- xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha davlat bojlari va jarima sanksiyalarini to'lashdan davlat budjetiga tushayotgan summalarning 15 foizi miqdoridagi ajratmalar;

- adliya organlari, shu jumladan, FHDY organlari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan 20 foiz, davlat notariuslari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan esa 15 foiz miqdoridagi ajratmalar;

- adliya organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarni, advokatlik byurolarini, firmalarni, hay'atlarni ro'yxatdan o'tkazganlik, notarial va advokatlik faoliyatini litsenziyalaganlik, yuridik kadrlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazganlik uchun undiriladigan mablag'lar, shuningdek, adliya organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida undiriladigan jarimalar;

- ijro ishi bo'yicha budjetga undirilgan summadan 30 foiz miqdoridagi ajratmalar, soliqlar hamda budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzlarni undirilishidan tashqari;

- vakolatli organlar tomonidan olib qo'yilgan va davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni sotishdan tushadigan mablag'larning 10 foizi, shuningdek, soliqlar hamda budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzlarni undirish bo'yicha;

- sud ijrochilari tomonidan undiriladigan ijro yig'implari mablag'lari;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagi PQ-458-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida avtomototransport vositalari va ko'chmas mulkni sotish tartibi to'g'risida»gi Nizom-



ning 37-bandida nazarda tutilgan hollarda sud ijrochilari tuman (shahar) bo'limlarining depozit hisobiga o'tkaziladigan ochiq auk-sionda ishtirok etish uchun kiritilgan zakalatlar;

- mol-mulkni sotish yoki baholash bo'yicha o'zining shartnomaviy majburiyatlarini bajarmagan (lozim darajada bajarmagan) birjalar, baholovchilar, savdo tashkilotlari, boshqa shaxslardan undiriladigan jarimalar va penalar;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Jamg'arma to'g'risidagi nizom o'z mablag'lari chiqimlari predmetini ham aniqlashtiradi. Chunonchi, 4-bandda Jamg'arma mablag'lari:

- a) sudlar va adliya organlari binolari va xonalarini qurish, ta'mirlash va jihozlashga, ularni zarur anjomlar, kompyuterlar va boshqa zamonaviy tashkiliy-texnik vositalar bilan ta'minlashga;

- b) sudlar va adliya organlari texnik vositalarga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlashga;

- d) sudyalarga (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari-dan tashqari) malaka klasslari hamda muayyan yil ishlaganligi uchun ustamalar va qo'shimcha haq to'lashga;

- e) adliya organlari xodimlariga daraja klasslari hamda muayyan yil ishlaganligi uchun ustamalar va qo'shimcha haq to'lashga;

- f) sudlar va adliya organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishga va ijtimoiy muhofaza qilishga (uy-joy qurish, sanatoriy-kurort va tibbiy xizmat ko'rsatish, maoshlarga ustamalar va qo'shimcha haq belgilash, moddiy yordam ko'rsatish);

- g) kadrlar malakasini oshirishga, ularni o'qitishga, tegishli adabiyotlar va matbaa nashrlari bilan ta'minlashga;

- h) sudlarning (sudyalardan tashqari) va adliya organlarining qo'shimcha xodimlari ta'minotiga;

- i) sudyalarni va adliya organlari xodimlarini formal kiyim-boshlar bilan ta'minlash xarajatlarini moliyalashtirishga;

- j) Jamg'arma zaxirasini yaratishga;

- k) sudlar va adliya organlari faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqa tadbirlarga yo'naltirilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 1-noyabr-dagi PQ-722-sonli qarorida Jamg'armaga kelib tushadigan ijro yig'imi mablag'lari, suj ijrochilari tomonidan undiriladigan jarima miqdorlari, shuningdek, mol-mulkni sotish yoki baholash bo'yicha o'zining shartnomaviy majburiyatlarini bajarmagan (lozim darajada bajarmagan) birjalar, baholovchilar, savdo tashkilotlari,

boshqa shaxslardan undiriladigan jarimalar va penalar Sud departamentining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sud ijrochilarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish, shuningdek, sud ijrochilari faoliyatini va majburiy ijro etish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishga ishlatilishi nazarda tutilgan.

Jamg'arma to'g'risidagi nizamning 7-bandida Jamg'arma mablag'laridan foydalanish sudlarni va adliya organlarini rivojlantirish dasturlarini mablag' bilan ta'minlash orqali amalga oshirilishi, ushbu dasturlar har yili mablag'lar va buyurtmanomalar tushishi prognozi asosida shakllantirilishi nazarda tutilgan.

Dasturda sudlar va adliya organlari binolari va xonalarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, jihozlash muddatlari va hajmlari; ularni jihozlar, transport vositalari, kompyuterlar va boshqa zamonaviy tashkiliy-texnik vositalar bilan ta'minlash, shuningdek, sudlar va adliya organlarini rivojlantirish bo'yicha boshqa tadbirlar nazarda tutiladi.

Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish dasturi, ularni mablag' bilan ta'minlash hajmlari hamda Jamg'armaning zaxiraga qo'yiladigan har yilgi qismi miqdori Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratish masalasini hal etish jarayonini ko'rib chiqamiz.

1. *Buyurtmanomalar berish.* Qonunda Jamg'armadan mablag'lar ajratish uchun buyurtmanomalar adresatlari va subyektlari belgilangan. Buyurtmanoma berish subyekti Adliya vazirligi, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti bo'lishi mumkin.

Jamg'armadan mablag'lar ajratish uchun buyurtmanomalar adresati sifatida esa Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi bo'ladi, uning zimmasiga buyurtmanomalarni yig'ish va kuzatuvchi kengash tomonidan ko'rib chiqish uchun materiallarni tayyorlash majburiyati yuklatilgan. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga ijro etuvchi direktor rahbarlik qilishi, u Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimdan ozod qilinishini nazarda tutishi kerak. Jamg'arma mablag'lari to'planishi va sarflanishini tezkor boshqarish Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direktori Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishi uchun shaxsan javob beradi. Belgilangan javobgarlikni nazarda tutgan holda ijro etuvchi direktor o'z majburiyatlarini samarali bajarish maqsadida quyidagi huquqlar bilan vakolatlangan: mablag'lar ajratishga tushgan buyurtmanomalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish; undirilgan va Jamg'armaga o'tkaziladigan pul mablag'larining amalda tushgan summasi bo'yicha tegishli tashkilotlardan axborotlar va statistika ma'lumotlarini so'rab olish va h.k.

2. *Buyurtmanomani ko'rib chiqish.* Umumlashtirilgan buyurtmanomalar ularni ko'rib chiqish uchun Jamg'arma faoliyatini boshqaradigan Jamg'armaning kuzatuvchi kengashiga kiritiladi. Jamg'arma kuzatuvchi kengashiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri rahbarlik qiladi, u Jamg'arma kuzatuvchi kengashining raisi hisoblanadi. Kuzatuvchi kengash tarkibiga lavozimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi raislari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti direktori hamda Jamg'armaning ijro etuvchi direktori kirishiga e'tiborni qaratish lozim.

Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi har chorakda kamida bir marta majlis o'tkazilishi belgilangan. Zarur hollarda Jamg'arma kuzatuvchi kengashining navbatdan tashqari majlislari chaqirilishi mumkin.

Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi majlisi unda Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

3. *Buyurtmanomalarni ko'rib chiqish natijalari.* Jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha qaror Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va Jamg'arma kuzatuvchi kengashi raisi tomonidan imzolanadi. Ijro etuvchi direksiya Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi qarorlari bo'yicha mablag'larni yuqorida ko'rsatib o'tilgan idoralarga qabul qilingan qarorga muvofiq foydalanish uchun o'tkazadi. Ijro etuvchi direksiya quyidagilarga majbur: kuzatuvchi kengash qarorlarini sudlar va adliya organlariga yetkazish, shuningdek, kuzatuvchi kengash qarorlarini o'z vaqtida ijro etish hamda Jamg'armaning ajratilgan mablag'laridan foydalanilishini nazorat qilish va uning monitoringini amalga oshirish. Shu bilan birga, ijro etuvchi direksiya Jamg'armaning ajratilgan mablag'laridan maqsadli foyda-

lanilishini tekshirish; mablag'lardan belgilangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda moliyalashtirishni to'xtatib turish, keyinchalik ushbu masalani kuzatuvchi kengashga ko'rib chiqish uchun kiritish huquqiga ega.

4. *Hisobot.* O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi va Departament Jamg'armaning kuzatuvchi kengashiga Jamg'armaning ajratilgan mablag'laridan foydalanilishi to'g'risida belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi. Bundan tashqari, bevosita ijro etuvchi direksiya kuzatuvchi kengashga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Jamg'arma mablag'laridan foydalanilishi bo'yicha hisobot taqdim etishga majbur.

Jamg'arma mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi hisobot har chorakda Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga taqdim etiladi.

Xulosa sifatida Jamg'arma mablag'larini to'plash va ulardan foydalanish tartibi Jamg'armaning kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanishini belgilab o'tamiz. Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

#### **12.4. Odil sudlovni to'liq va mustaqil amalga oshirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan boshqa tadbirlar**

Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili odil sudlovni to'liq va mustaqil amalga oshirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan boshqa tadbirlar mavjudligi haqida fikr yuritish imkonini beradi:

1) O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»<sup>1</sup>gi 258-II sonli Qonuni;

2) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2007-yil 15-yanvardagi «Ijro harakatlari amalga oshirilayotgan joylarda jamoat tartibini saqlashni ta'minlash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqida»<sup>2</sup>gi 1653-sonli qarori; Ijro harakatlari amalga oshirilayotgan joylarda jamoat tartibini saqlashni ta'minlash bo'yicha yo'riqnoma;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 169-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 3, 29-modda.

3) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2007-yil 15-yanvardagi «Sudga kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo'yicha sud topshiriqlarini ijro etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»<sup>1</sup>gi 1654-sonli qarori; Sudga kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo'yicha sud topshiriqlarini ijro etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomasi;

4) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2007-yil 15-yanvardagi «Sudlar, sud protsesslari va ular ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»<sup>2</sup>gi 1655-sonli qarori; Sudlar, sud protsesslari va ular ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomasi.

Biroq, shubhasiz, odil sudlovni to'liq va mustaqil amalga oshirish uchun sharoitni yaratishda birinchi darajali rolni O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan normalar o'ynaydi. Bu Qonunning sudyalarning mustaqilligining asosiy kafolatlari belgilangan 8-bobi, shuningdek, sudyalarning moddiy va ijtimoiy ta'minotini tartibga soladigan 9-bobidir. Bu masalalar oldingi bobda batafsil yoritilgan va shu sababli yuqorida sanab o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni mazmunini tashkil etadigan odil sudlovni to'liq va mustaqil amalga oshirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan boshqa tadbirlarda to'xtalib o'tamiz.

*I. Ijro harakatlari amalga oshirilayotgan joylarda jamoat tartibini saqlashni ta'minlash bo'yicha yo'riqnomasi.* Ushbu Yo'riqnomasi O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-458-sonli Qaroriga muvofiq, sud ijrochilari tuman (shahar) bo'limlari bilan ichki ishlar organlarining sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish jarayonida jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha o'zaro hamkorligi tartibini belgilaydi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 3, 30-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 3, 31-modda.

*II. Sudga kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo'yicha sud topshiriqlarini ijro etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma.* Odatda, sudlov ishlarini yuritish sud hokimiyatini amalga oshirish shakli bo'lib, jinoyat protsessual va fuqarolik protsessual faoliyat doirasiga jalb etilgan barcha shaxslar va organlarning faol ishtiroki zaruratini nazarda tutadi. U yoki bu sudlov ishlarini yuritish ishtirokchilarining o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishi ish bo'yicha xolis haqiqatni aniqlash va umuman, odil sudlovni amalga oshirishga jiddiy ravishda xalal berishi mumkin. Mana shuning uchun ham chaqiruvlar tartibi batafsil tarzda tarmoq qonunchiliklarida tartibga solingan, shuningdek, tergov va sud organlari huzuriga shaxslarning hozir bo'lishini ta'minlash choralari nazarda tutilgan. Bunday choralardan biri majburiy keltirish hisoblanadi.

Agar *chaqiruvlar bo'yicha hozir bo'lish majburiyati* protsessual majburlashning preventiv ta'minlash chorasi bo'lib, uning mohiyati chaqiruvlar bo'yicha hozir bo'lish majburiyati yozma tarzda tushuntirilsa, *majburiy keltirish* — bu protsessual majburlashning tiklovchi chorasi bo'lib, u uzrsiz sabablarga ko'ra, hozir bo'lmagan shaxslar — ko'rsatuvlar manbayini protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun surishtiruv va dastlabki tergov organlariga yoki sudga majburiy keltirishdan iborat bo'ladi.

O'z navbatida, majburiy keltirish to'g'risidagi topshiriqlarni ijro etishning batafsil tartibi Sudga kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo'yicha sud topshiriqlarini ijro etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma bilan tartibga solinadi. Mazkur Yo'riqnoma, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-458-sonli Qaroriga muvofiq, sudga kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo'yicha sud topshiriqlarini ijro etish tartibini belgilaydi.

*III. Sudlar, sud protsesslari va ular ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma.* Ushbu Yo'riqnoma ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-458-sonli Qarorida belgilangan asosiy qoidalarni bajarishga qaratilgan. Bu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi va yuqorida ko'rsatilgan qarorga muvofiq, sudlar, sud protsesslari va ular ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash tartibini belgilaydi.

Har bir tarmoq protsessual qonunchiligi protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kafolatlar tizimini belgilovchi normalarni o'z ichiga olishini nazarda tutish kerak. O'z navbatida, Sudlar, sud protsesslari va ular ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma mazkur kafolatlarni bajarish va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgan. Yo'riqnoma mazmuni uch bir-biriga bog'liq jihatlarni amalga oshirishga qaratilgan:

1. Sudlar xavfsizligini ta'minlash.
2. Sud protsesslari xavfsizligini ta'minlash.
3. Sud protsesslari ishtirokchilarini himoya qilish.

Sudlar, sud protsesslari va sud protsesslari ishtirokchilari hamda ularning yaqin qarindoshlari xavfsizligini ta'minlash ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilishi Yo'riqnomada belgilangan. Biroq, alohida hollarda, xavfsizlik va himoyani ta'minlash choralarini qonunchilikka muvofiq, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari xodimlari o'z faoliyatini amalga oshirish chog'ida fuqarolarning huquq va erkinlariga rioya etishi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi va ularga berilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqmasligi lozimligi qat'iy tartibga solingan.

*Sudlar xavfsizligini ta'minlash.* Mazkur faoliyat ikki unsurdan tashkil topgan: a) sudlar xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish; b) sud binolarini qo'riqlashni ta'minlash tartibi.

Sudlar xavfsizligini ta'minlash sud binolarini qo'riqlashdan iborat. Sud binolarini qo'riqlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 19-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi adliya va sud organlari faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 18-sonli qaroriga muvofiq, ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti sudlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida sud binolarini qo'riqlash ishini tashkil etadi va buning uchun belgilangan tartibda ichki ishlar organlari xodimlari jalb etiladi.

Sud binolarini qo'riqlash to'g'risidagi shartnoma har bir hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) bo'yicha alohida tuziladi.

Sud binolarini qo'riqlashni ta'minlash tartibi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi «Qo'riqlash» birlashmasining tegishli hududiy bo'limlari shartnoma nusxasini olgandan so'ng, uch kunlik muddatda Sud departamentining hududiy boshqarmalari bilan birga, sud binolarini qo'riqlash ishini tashkil etadi.

Sud binolarini qo'riqlashni tashkil etish uchun Birlashmaning hududiy bo'limi sud binolarini qo'riqlashni amalga oshirish uchun xodimlarni ajratadi. Qo'riqlash bo'limi xodimlari tomonidan sud binolarini qo'riqlash kecha-yu kunduz amalga oshiriladi.

Sud binolarini qo'riqlashni ta'minlash uchun qo'riqlash bo'limi xodimlari tomonidan quyidagi choralar amalga oshiriladi:

- sud binosiga kirish va chiqishning qo'riqlanishi ta'minlanadi;
- sud raisi bilan kelishilgan holda nazorat-ruxsatnoma punkti tashkil etiladi;
- sud hududiga xizmat guvohnomasi yoki ruxsatnoma bo'yicha kirish joriy etiladi;
- sud binosidagi xonalarni qo'riqlash signalizatsiyasi holati nazorat qilinadi, sud raisiga kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritiladi.

Qo'riqlash bo'limi xodimi qo'riqlanayotgan sud binosini o'ziga xosligini, signalizatsiya va yong'inga qarshi kurash vositalarining joylashgan joylari hamda ulardan foydalanishni bilishi, soz holatda ekanligini tekshirib, aniqlangan barcha kamchiliklar bo'yicha darhol sud raisiga xabar berishi lozim.

Yetarli asoslar mavjud bo'lganida qo'riqlash bo'limi xodimi jamoat tartibining buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni ushlashi va ularni tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlariga topshirishi mumkin.

*Sud protsesslari xavfsizligini ta'minlash.* Mazkur faoliyat ham ikki elementdan tashkil topgan: a) sud protsesslari xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish; b) sud protsesslari xavfsizligini ta'minlash tartibi.

*Sud protsesslari xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish.* Sud protsesslari xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bevosita sud majlisi o'tkazilishida kompleks chora-tadbirlar qo'llash yo'li bilan tartibni saqlashdan iborat. Sud protsesslari xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish ichki ishlar organlari xodimlari (keyingi o'rinlarda matnda — xodim) tomonidan amalga oshiriladi.



Sud muhokamasini o'tkazishda to'sqinliklar vujudga kelishi ehtimolini tasdiqlovchi yetarli asoslar mavjud bo'lganida, sud majlisiga raislik qiluvchi sudya (keyingi o'rinda matnda — raislik qiluvchi) yoki sud raisi sud majlisi o'tkazilishiga kamida uch kun qolganda, sud protsesslari xavfsizligini ta'minlash uchun choralar ko'rish to'g'risida tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlariga yozma xabarnoma jo'natadi.

Tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlari sudning yozma xabarnomasini olganidan so'ng, xabarnomada ko'rsatilgan muddatlarda sud protsessi xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish uchun xodimlar ajratadi.

*Sud protsesslari xavfsizligini ta'minlash tartibi.* Sud protsesslari xavfsizligini ta'minlash uchun xodimlar tomonidan quyidagi choralar amalga oshiriladi:

- raislik qiluvchi yoki sud raisi bilan kelishuvga binoan, sud majlisi xonasi va maslahatxona xavfsizligi ta'minlanadi;

- sud majlisidan oldin sud majlisi xonalari va maslahatxonaning ularda egasiz ashyolar, yonuvchi, portlovchi, zaharlovchi va boshqa xavfli buyumlarni aniqlash yuzasidan tekshiruvni tashkil-lashtiriladi;

- tashqi ko'rinishi yoki yurish-turishidan shubha tug'diruvchi shaxslarni tekshirish tashkil etiladi. Ko'rsatilgan shaxslar yetarli asoslar mavjud bo'lganda, ushlanishi va yuqorida sanab o'tilgan buyum va ashyolar yuboriladigan tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlariga topshirilishi mumkin.

Xodim sud majlisi vaqtida doimiy ravishda sud majlisi zalida bo'ladi. Sud majlisi zalini tark etish faqatgina raislik qiluvchining farmoyishi (ruxsati) bilan ruxsat etiladi.

Sud protsesslari xavfsizligini samarali ta'minlash maqsadida xodim tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Zarur hollarda xodim raislik qiluvchi yoki sud raisining farmoyishiga binoan, sud devonxonasidan sud majlisi o'tkaziladigan joyga yoki sudya xonasiga sud ishlari va ashyoviy dalillar yetkazib berilishida ularning qo'riqlanishi hamda saqlanishini ta'minlaydi.

Xodim sud majlisi yakunida qilingan ishlar, sud raisi yoki raislik qiluvchi tomonidan kelib tushgan murojaatlar, shuningdek, sud zalidagi barcha hodisalar va ko'rilgan choralar haqida tegishli tuman (shahar) ichki ishlar bo'limiga yozma hisobot taqdim etadi.

Xodimning sud majlisi yakunlanganligi haqidagi yozma hisoboti sud raisi yoki raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

*Sud protsesslari ishtirokchilarini himoya qilish.* Xavfsizlikni ta'minlashning ushbu jihati quyidagi elementlardan tashkil topgan: a) xavfsizlik choralari qo'llash asoslari va tartibi; b) xavfsizlik choralari.

*Xavfsizlik choralari qo'llash asoslari va tartibi.* Sud protsesslari ishtirokchilari, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining (keyingi o'rinlarda matnda — qo'riqlanayotgan shaxslar) xavfsizligini ta'minlash ko'rsatilgan shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mulkiga suiqasd qilish xavfi mavjud bo'lganda, ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan kompleks choralardan iborat.

Lekin oldin xavfsizlik choralari qo'llash asoslari aniqlab olinishi kerak. Ularga qo'riqlanayotgan shaxslarga nisbatan tahdidning mavjudligini tasdiqlovchi yetarli dalillarning borligi kiradi.

Qo'riqlanayotgan shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralari sud tomonidan ushbu shaxslarning tahdid qiluvchi xavf va boshqa holatlar mavjudligi to'g'risidagi og'zaki (yozma) arizasiga asosan yoki sudning tashabbusi bilan qo'llaniladi. Bunday qaror qabul qilgach, sud tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlariga yuboriladigan, nusxalari esa qo'riqlanayotgan shaxslarga beriladigan ajrim chiqaradi.

Sud ajrimida qo'riqlanayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanilayotgan aniq xavfsizlik choralari va ularni amalga oshirish vaqtlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Bunda, ichki ishlar organlari ishda mavjud ma'lumotlar, xavf tahdid solayotgan shaxslar, tahdid solayotgan xavfning ehtimoliy xususiyati, manbalari, joyi, vaqti va boshqa holatlari to'g'risida xabardor qilinadi. Ichki ishlar organlari sud ajrimini olishi bilan darhol qo'riqlanayotgan shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralari ko'rishlari shart. Qo'riqlanayotgan shaxslar xavfsizligini ta'minlovchi ichki ishlar organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslari tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Alohida hollarda ichki ishlar organlari qo'riqlanayotgan shaxslarga, ularning xavfsizligini ta'minlash uchun rioya etilishi majburiy bo'lgan muayyan ko'rsatmalar berishi mumkin. Qo'riqlanayotgan shaxslarga tahdid solayotgan xavf bartaraf etilganda yoki xavfsizlik choralari bekor qilish uchun boshqa asoslar vujudga kelganda, sud tomonidan qo'riqlanayotgan shaxslarga nisbatan bu haqda asoslantirilgan ajrim chiqariladi. Ushbu ajrim ichki ishlar organlariga yuboriladi, nusxalari esa qo'riqlanayotgan shaxslarga beriladi.

*Xavfsizlik choralari.* Qo‘riqlanayotgan shaxslarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, shuningdek, ularning mulklari saqlanishini ta‘minlash maqsadida quyidagi xavfsizlik choralari qo‘llanilishi mumkin:

- qo‘riqlanayotgan shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanishni cheklash — qo‘riqlanayotgan shaxslarning roziligi bilan ularning shaxsi, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari, yashash joyi va ular haqidagi boshqa ma‘lumotlarni berishga vaqtinchalik cheklov qo‘yilishi mumkin;

- yopiq sud majlisini o‘tkazish — qo‘riqlanayotgan shaxslarning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida yopiq sud majlislari o‘tkazilishi mumkin;

- shaxsni, uy-joy va mol-mulkni himoya qilish — qo‘riqlanayotgan shaxsning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yoxud mol-mulkiga tahdid xavfi mavjud bo‘lganda ularni shaxsi, uy-joy va mol-mulki himoya qilinadi.

Qo‘riqlanayotgan shaxslarni hayotiga, sog‘lig‘iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilish yoki yo‘q qilinish tahdidi xavfining xarakteri va darajasining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, bir vaqtning o‘zida bir necha xavfsizlik choralari qo‘llanilishi mumkin.

Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ularga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Oliy xo‘jalik sudi raisi, Adliya vaziri tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha o‘qotar qurol beriladi.

Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan, ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.

Bundan tashqari, qo‘riqlanayotgan shaxsning shaxsiy xavfsizligini va ishonchli himoyasini ta‘minlash uchun sud protsessida quyidagi talablarga rioya etilishi lozim:

- qo‘riqlanayotgan shaxs unga xavf tahdid solib turgan paytda xodim talablariga bo‘ysunishi shart;

- shaxsni himoya qilish qo‘riqlanayotgan shaxs bo‘lgan barcha joylarda, shuningdek, yopiq sud majlislarida ham amalga oshiriladi;

- xodim zarurat yuzaga kelganida qo‘riqlanayotgan shaxsning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida belgilangan tartibda qurol qo‘llashi mumkin;

- sud majlisidan oldin sud majlisi binosi, sud muhokama xonalari va qo‘riqlanayotgan shaxs bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa xonalar ko‘zdan kechiriladi.

## 12.5. Sud hujjatlarini ijro etish to'g'risida

Sud qarorlarini ijro etish odil sudlovni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan funksiyadir. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 5-moddasida sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shartligi belgilangan. Aks holda sud hujjatlarining bajarilmasligi, nafaqat, sud hokimiyatining nufuzini tushishiga, balki inson va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish institutini yo'qqa chiqarishga olib kelishi mumkin. Qonuniy va asoslangan sud qarorlarini e'lon qilish yetarli emas. Fuqaro va yuridik shaxs uchun ularning buzilgan huquqlari tiklangan sud qarori amalda ijro etilishi juda muhim.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingunga qadar, sud hujjatlarini ijro etish bilan sudlarning tashkiliy va funksional jihatdan sudlar boshqaruvi va nazorati ostida bo'lgan sud ijrochilari shug'ullangan. Sudyalar ularga xos bo'lmagan funksiyalar bilan, ya'ni o'zlari qabul qilgan qarorlarning amaldagi ijrosi bilan shug'ullangan.

2001-yildan boshlab, sud qarorlarining barcha turlari maxsus tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti zimmasiga yuklatildi, uning vakolatlari O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»<sup>1</sup>gi 258-II sonli Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Mazkur Qonunning 1-moddasida nazarda tutilganidek, sud hujjatlari, shuningdek, qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirayotganlarida jismoniy yoki yuridik shaxslar zimmasiga pul mablag'lari va boshqa mol-mulknini o'zga shaxslarga berish yoxud ular foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki bunday harakatlarni amalga oshirishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklash huquqi berilgan boshqa organlarning (mansabdor shaxslarning) hujjatlari majburiy ijro etilayotganda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 169-modda.

Xususan, quyidagi masalalar qonunda tartibga solingan: umumiy qoidalar; ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar; ijro harakatlarini amalga oshirishning umumiy shartlari; sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish asosi va choralari; undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish; undiruvni qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkiga qaratishning xususiyatlari; qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish; qarzdorning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga nisbatan undiruv; mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish; ijro ishi yuritishdagi xarajatlar; undirilgan pul summalarini taqsimlash va undiruvchi talablarini qanoatlantirishning navbati; ijro hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik; sud ijrochisining maqomi. Ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Qonunning 3-moddasida sud hujjatlarini ijro etish organlari ko'rsatilgan. Xususan, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti organlarining sud ijrochilari zimmasiga yuklatiladi, ularning vakolatlari «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi

Shubhasiz, ijro ishi yurituvda bosh vakolatli subyekt bo'lib sud ijrochisi sanaladi. Sud ijrochisi maqomini yoritishga «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunning 12-bobi bag'ishlangan. Unda sud ijrochilariga qo'yiladigan talablar; sud ijrochilarining huquq va majburiyatlari; sud ijrochisining qarori; sud ijrochisining talablarini bajarishning majburiyiligi; sud ijrochilarining javobgarligi; shuningdek, sud ijrochilarining ijtimoiy himoyasi; sud ijrochilari faoliyatining moliyalashtirilishi va moddiy-texnik ta'minoti kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Shunday qilib, qonunda o'rta maxsus (yuridik) yoki oliy (yuridik) ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sud ijrochisi bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Sud ijrochilarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish Sud departamenti direktori bilan kelishilgan holda Sud departamentining hududiy boshqarmasi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

Sud ijrochisi hokimiyat vakili hisoblanadi va xizmat vazifalarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan namunadagi formal kiyim-bosh kiyadi. Sud ijrochilariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda adliya organlari xodimlarining mansab darajalari beriladi.

Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti sud qarorlarini ijro etish boshqarmalari boshlig'i va mutaxassislari, ushbu departamentning hududiy boshqarmalari sud qarorlarini ijro etish masalalari bo'yicha bo'limlari bosh va yetakchi inspektorlari sud ijrochisi maqomiga ega.

Sud ijrochisining o'z vakolatlari doirasidagi talablari O'zbekiston Respublikasi hududida barcha organlar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi majburiyligi belgilab qo'yilgan. Sud ijrochilari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va hujjat nusxalari ularning talabiga ko'ra, bepul va sud ijrochisi tomonidan belgilangan muddatda taqdim etiladi. Sud ijrochisining talablarini bajarmaslik, uning zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarishiga monelik qiluvchi xatti-harakatlar sodir etish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, sud ijrochisining xatti-harakatlari ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) ga yoki sudga shikoyat qilish mumkin. Sud ijrochilari sodir etgan huquqbuzarliklari uchun qonunga muvofiq javobgar bo'lishadi. Sud ijrochisi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qoplanishi lozim. Sud ijrochilari respublika budjeti mablag'lari hisobidan davlat majburiy sug'urtasidan o'tkazilishi kerak.

Sud ijrochilari o'z xizmat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq holda mayib bo'lgan yoki ularning sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilgan yoxud ular halok bo'lgan taqdirda, sud ijrochisiga yoki halok bo'lgan shaxsning oilasiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi. Sud ijrochilari o'z xizmat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq holda ularning mol-mulkiga yetkazilgan zarar respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanib, bu summa keyinchalik aybdor shaxslardan undirib olinadi.

Sud ijrochilari faoliyatining moliyalashtirilishi va moddiy-texnik ta'minoti Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Sud ijrochilarining faoliyatini qo'shimcha moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash maqsadida Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamentida jamg'arma tuzilishi mumkin. Ushbu jamg'armani tashkil etish tartibi qonun hujjatlarini bilan belgilanadi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Mazkur mavzu tahlili sudlarning tashkiliy va moddiy-texnik ta'minoti funksiyasining tashkiliy-huquqiy asoslari xususiyatlari haqida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ushbu funktsiya mazkur faoliyatni amalga oshiruvchi organlar doirasining turli-tumanligida, shuningdek, ko'rsatilgan faoliyatni tashkil etuvchi elementlarda namoyon bo'ladi va talabalar mavzuni o'rganishda unga e'tiborni qaratishlari lozim.*



### NAZORAT SAVOLLARI

1. Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash deganda nima tushuniladi?
2. Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash qanday ahamiyatga ega? Uni qaysi organlar amalga oshiradi?
3. Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Departament hududiy boshqarmasining asosiy vazifalari nimalardan iborat va u qanday tuzilishga ega?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi qanday vakolatlarga ega?

### MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Chet davlatlari sudlari faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
2. Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlashda sud departamenti roli va o'rnini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi huquqiy maqomini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.

### Axborot uslubiy ta'minot

1. *I.A. Karimov*. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza. 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. T., «O'zbekiston», 2002.

2. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

3. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

### Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasi 2001-yil 29-avgustdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi 258-II sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2001, № 21.

3. O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 14-yanvardagi «Ijro ishi yuritish takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-199-sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-458-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 36, 360-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 1-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud departamenti-ning sud qarorlarini ijro etish, moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-722-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007, № 45, 451-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2001, № 18, 133-modda.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 147-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 370-sonli qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi PF-3725-sonli Farmoniga 3-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 12—13, 101-modda.



10. «Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 7-dekabrda 323-II sonli qarori bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

11. «Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-martdagi 147-sonli qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2003, № 5—6, 54-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 36, 360-modda.

13. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamentining hududiy boshqarmalari to'g'risida»gi Nizom. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishga oid qonun hujjatlari to'plami. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2007.

### **Maxsus adabiyotlar**

1. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.

2. *M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva*. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publistsistik nashr. T., TDYI, 2009.



## IV bo'lim

# PROKUROR NAZORATI VA DASTLABKI TERGOV ORGANLARI

### 13-bob. PROKURATURA VA PROKUROR NAZORATI

#### O'quv maqsadlari

*Ushbu mavzuni o'zlashtirish prokuror nazoratini huquqni himoya qilish faoliyatining funksiyasi sifatida o'rganishga; prokuror nazoratining institutsional asoslari va uning xususiyatlarini anglashga; prokuratura organlari tuzilishini o'rganish bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi prokuratura tizimini tahlil qilishga, prokuratura organlari, mazkur organlar kadrlari faoliyati va tashkiliy asoslari prinsiplarini; shuningdek, O'zbekistonda prokuratura organlari tashkil topishi va rivojlanishi masalalarini ko'rib chiqishga qaratilgan.*

#### 13.1. Prokuror nazorati, uning vazifalari. Prokuror faoliyatining asosiy yo'nalishlari

*Umumiy tavsif.* Huquqni himoya qilish faoliyati yo'nalishlari ichida prokuror nazorati yo'nalishini farqlash qabul qilingan va u mazkur bobda ko'rib chiqiladi. Ushbu atama bir necha ma'noga ega.

«Prokuror nazorati» atamasi quyidagi ma'nolarda ko'rib chiqilishi mumkin:

1) *prokuror nazorati* — davlat faoliyati turi sifatida. Prokuror nazorati davlat faoliyati turi sifatida huquqni himoya qilish faoliyatining yo'nalishlaridan birini tashkil etadi hamda «Sud va huquqni himoya qiluvchi organlar» o'quv fani doirasida bizning tadqiqotimiz predmeti bo'lib hisoblanadi;

2) *prokuror nazorati* — o'quv fani sifatida<sup>1</sup>. O'quv fani sifatida prokuror nazorati — bu yuridik oliy o'quv yurtlari ta'lim dasturlarining bir qismi bo'lib, unda prokuror nazorati vazifalari va prinsiplari, prokuratura organlari tizimi, prokurorlar vakolatlari,

<sup>1</sup> Mazkur fan, qoida tariqasida, yuqori kurslarda o'tiladi.

alohida yo'nalishlarda prokuror nazoratini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, turli xil huquqbuzarliklarga prokurorning ta'sir etish xususiyati va h.k.lar ko'rib chiqiladi;

3) *prokuror nazorati* — yuridik fan tarmog'i sifatida. Yuridik fan tarmog'i sifatida prokuror nazorati prokuratura mohiyatini, uning paydo bo'lish va rivojlanish qonuniyatlarini, mazkur faoliyatning samaradorligi muammolarini ochib beradigan tushunchalar, qarashlar, g'oyalar tizimini tashkil etadi.

Huquqni himoya qilish faoliyati yo'nalishlaridan biri sifatida prokuror nazorati mohiyatini ko'rib chiqamiz. Buning uchun prokuror nazorati ahamiyati har bir davlat agar o'zining tashqi siyosatini amalga oshirishda suveren va mustaqil hamda ichki masalalarni hal etishda barqaror bo'lishga intilsa, ushbu maqsadga erishish qabul qilingan qonunlarini to'la, bir xilda va qat'iy ijro etishni davlat mexanizmlari (organlari) orqali ta'minlash tufayligina erishilishi mumkinligini qayd etib o'tish lozim. Boshqa ko'pchilik davlatlar kabi, O'zbekistonda mazkur funktsiya, nafaqat, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari organlari tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Davlatning ushbu funktsiyasini amalga oshirishda alohida o'rin O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi — O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan yagona markazlashtirilgan tizim egallaydi.

Mazkur faoliyat prokuratura tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun asosida amalga oshiriladi. Prokuratura qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa funktsiyalarni ham amalga oshirishini ta'kidlab o'tish kerak.

**Prokuror nazorati** — davlat nomidan maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslarning — prokurorlarning qonun buzilishlarini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish, aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish orqali qonunlarni aniq bajarilishini va bir xilda qo'llashni ta'minlash borasidagi amalga oshiriladigan faoliyati hamda huquqni himoya qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlari (funktsiyalari)dan biridir.

Prokuror nazorati vazifalari prokuror faoliyati umumiy vazifalari bilan shartlangan. Chunonchi, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasi O'zbekiston Respublikasi prokuratura or-

ganlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratligini belgilaydi.

Davlat faoliyati turi sifatida prokuror nazorati *predmeti* deganda, prokuror faoliyati tartibga solishga yo'naltirilgan ijtimoiy munosabatlar sohasi tushuniladi. Prokuror nazorati mohiyatidan prokuror faoliyati Konstitutsiyaga rioya qilish va qonun talablarini bajarish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Chunki Konstitutsiya va qonun talablariga rioya qilish, u taalluqli bo'lgan barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy bo'lganligi sababli prokuror nazoratining predmeti sifatida Konstitutsiyaga rioya qilish hamda yuridik va jismoniy (mansabdor) shaxslarning qonunlarni bajarish hisoblanadi.

Prokuror nazorati *obyekti* sifatida prokuratura organlari qonunlar ijrosini tekshirish o'tkaziladigan korxonalar, muassasalar, tashkilot va boshqa yuridik shaxslar hisoblanadi. Aytish kerakki, 2001-yil avgustiga qadar, fuqarolar ham prokuror nazorati obyekti bo'lgan. 2001-yil 29-avgustda «Prokuratura to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonunning (yangi tahrirda) qabul qilinishi bilan prokuratura vakolatlari doirasi, uning faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan edi, prokuror vakolatlarida bir qator cheklashlar kiritilgan edi. Misol uchun, qonun bilan belgilangan prokuror nazorati obyektlaridan fuqarolar chiqarib tashlangan edi. Demokratik jamiyatda prokuror nazorati obyekti sifatida alohida fuqarolar emas, balki ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlariga rioya qilish hisoblanadi. Prokuratura organlari fuqarolar huquqlarini cheklab qo'yish faktlarining o'z vaqtida oldini olish maqsadida boshqaruv va nazorat organlarining huquqiy hujjatlari qonuniyligi ustidan nazorat qilishi kerak. Prokurorlarning asosiy vazifasi va majburiyati aynan shundan iborat.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga binoan, prokurorlar sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqiga ega emas. Qonun hujjatlariga boshqa

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9–10, 168-modda; 2003, № 5, 67-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. T., 2007, № 6, 249-modda.

o'zgartirish va qo'shimchalar bilan bir qatorda, bu sudlar mustaqilligini ta'minladi hamda sud va prokuratura vakolatlarining zaruriy muvozanatini o'rnatishga imkon berdi.

*Prokuror nazorati subyekt* sifatida mazkur faoliyat ishtirokchisi — prokurorni tushunish kerak. Prokuror vakolatlari — bu nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun prokurorda mavjud bo'lgan huquq va majburiyatlar doirasidir. Prokurorning asosiy vakolatlari «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda belgilangan. Prokuror vakolatlari doirasi va mazmuni u qaysi yo'nalishda prokuror nazoratini amalga oshirishi bilan shartlanganligini e'tiborga olish lozim.

Prokuror nazoratining mohiyatini ochib beradigan asosiy xususiyatlarni umumlashtiramiz:

1) prokuror nazoratini amalga oshirish fuqaro va tashkilotlarning faoliyat yuritish sohasidan qat'i nazar, barcha qonun hujjatlarini bir xilda va to'g'ri qo'llashni ta'minlashga qaratilgan;

2) prokuror nazoratini amalga oshirish va ta'sir etishning keng ko'lami, barcha davlat organlari muayyan idoraviy faoliyat sohasini tartibga soladigan alohida qonunlarni bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi sababli davlatda prokuratura kabi Konstitutsiyaga amal qilish va O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan qonunlarni bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan boshqa davlat organi yo'qligini aytib o'tish lozim;

3) avval belgilanganidek, prokuror nazorati davlat faoliyati (huquqni himoya qilish faoliyati yo'nalishi) bo'lib hisoblanadi;

4) prokuror nazorati — bu davlat tomonidan belgilangan ommaviy rasmiy faoliyat turi bo'lib, qonunda ko'rsatilgan shakl va doiralarda amalga oshiriladi hamda davlat faoliyatining boshqa turlaridan, birinchi navbatda, prokuraturaning maxsus vakolatlariga kiradigan, o'zining qonunlarni to'la, qat'iy va bir xilda bajarilishini ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi;

5) prokuror nazorati maxsus subyektlar — prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi. Prokurorlar davlat xizmatchilari bo'lib, ularning huquqiy holati qonun hujjatlarida belgilangan;

6) prokurorlarning maxsus vakolatlariga ega bo'lishi, shu jumladan, qonun buzilish holatlariga qonun hujjatlarida ko'rsatilgan prokuror ta'sir etish choralari qo'llash imkoniyati;

7) prokuror nazorati oliy qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarga, O'zbekiston Respublikasi oliy mansabdor shaxslariga, umumiy yurisdiksiya sudlariga, xo'jalik sudlariga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga tatbiq etilmaydi.

Prokuror nazorati qonuniylikni ta'minlash sohasida davlat nazoratining shakli sifatida prokuraturaning asosiy funksiyasi bo'ladi va uning davlatdagi, jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. O'zining tabiati va funksional maqsadiga ko'ra, prokuror nazorati yaxlitdir. Biroq, prokuror nazorati jarayonining o'zida ahamiyatga ega tafovutlar mavjud, shu sababli prokuror nazorati nazariyasida prokuror nazoratining alohida tarmoqlari ajratiladi.

Yagona prokuror nazoratini amalga oshirishdagi tafovutlar quyidagilar bilan shartlangan: 1) bajarilishi ustidan nazorat amalga oshiriladigan qonun hujjatlari xususiyatlari; 2) ushbu qonun hujjatlarini ijro etadigan obyektlar va subyektlar o'rtasidagi farqlar; 3) prokurorlarning vakolatlaridagi farqlar.

**Prokuror nazorati tarmog'i** — bu yagona prokuror nazoratining qonun bilan belgilangan tarkibiy qismi bo'lib, o'zining nazorat obyekti va predmetiga ega, shuningdek, maxsus, faqat ushbu ijtimoiy munosabatlar sohasiga xos bo'lgan vazifalar va qonunlar bajarilishi ustidan nazorat bo'yicha prokuror vakolatlariga egaligi bilan tavsiflanadi.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda prokuror nazoratining quyidagi tarmoqlari belgilangan:

- 1) qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- 2) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat;
- 3) jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat;
- 4) ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoyat jazolarini va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat.

Lekin, avval belgilanganidek, prokuror nazoratidan tashqari prokuratura o'z faoliyatini boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham amalga oshiradi. Chunonchi, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasi prokuratura organlari faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadi:

- 1) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

2) fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

3) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

4) tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

5) jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

6) sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

7) soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

8) ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

9) qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Shunday qilib, agar prokuror faoliyatining 1—4<sup>1</sup> va 8-bandlarida ko'rsatilgan yo'nalishlari prokuror nazoratining alohida tarmog'ini tashkil etsa, qolganlari prokuror faoliyati yo'nalishlari

---

<sup>1</sup> Qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish kabi prokuror nazoratining sohasi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi: 1) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish; 2) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish. O'z navbatida, jinoyatchilikka qarshi kurashni olib boradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish sohasi prokuror faoliyatining 4-yo'nalishini tashkil etadi — tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish. *Qarang:* «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun (yangi tahrirda).

bo'ladi, xolos<sup>1</sup>. Aytish kerakki, prokuratura faoliyati yo'nalishlari ancha o'zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi. Bunda prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari u yoki bu rivojlanish bosqichida davlat va jamiyat oldida turgan vazifalar dolzarbligi bilan belgilanadi. Har bir asosiy yo'nalishda muayyan joy va vaqt uchun konkret, muhim bo'lgan masalalarni hal etishga qaratilgan belgilangan harakatlar o'z aksini topgan. Shu bilan birga, prokuratura ishida doimiylik bilan ajralib turadigan ustuvor yo'nalishlar har doim bo'lishi kerak. Ular orasida fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish kabi yo'nalishni ko'rsatib o'tish lozim.

Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari o'z ahamiyatligi va muayyan tarixiy holat xususiyatlari bilan aniqlanadigan davlat, jamiyat va prokuratura organlari oldida turgan vazifalarni hal etish maqsadida prokuraturaning nazorat va boshqa funksiyalarini ro'yobga chiqarish yo'llari sifatida belgilanishi mumkin.

Prokuror faoliyatining har bir yo'nalishini qisqacha ko'rib chiqamiz.

**I. Qonunlar ijrosi ustidan nazorat** («Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 20—23-moddalari). Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi *mazkur nazorat predmeti* hisoblanadi. Qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek, qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Ko'rib turganimizdek, ko'rsatilgan nazorat predmeti o'ta keng, va ayni shu sababli ilgari ushbu tarmoq «umumiy nazorat»<sup>2</sup> deb nomlanar edi. Prokuror nazoratining ko'rib chiqiladigan tarmog'i

---

<sup>1</sup> Fikrimizcha, 7-bandda ko'rsatilgan yo'nalish prokuror nazoratining alohida mustaqil sohasini tashkil etishi mumkin bo'lar edi. Bundan tashqari, ijro ishi yuritish sohasining hozirgi vaqtda isloh qilinishini inobatga olgan holda ijro ishi yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish kabi prokuror nazoratining sohasini belgilab qo'yish mumkin.

<sup>2</sup> «Prokuratura to'g'risida»gi amaldagi Qonunda mazkur atama ishlatilmaydi.



predmeti juda keng ekanligi bois uning faoliyati doirasida qo‘shimcha, ancha chegaralangan yo‘nalishlar ajratiladi: iqtisodiyot sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat; voyaga yetmaganlar to‘g‘risidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat; ekologiya sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat va h.k.

Qonunlar ijrosi ustidan nazorat uning predmeti ta‘rifidan kelib chiqqan holda ikki shaklda amalga oshiriladi: 1) Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish va ular ijrosi ustidan nazorat; 2) nazorat predmetida sanab o‘tilgan obyekt va subyektlar tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi ustidan nazorat.

Qonunlar ijrosi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish maqsadida prokuror tegishli vakolatlarga ega. Qonun buzilishi aniqlangan taqdirda, prokuror qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rishga majbur. Bunda «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 23-moddasi xo‘jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatga prokurorning bevosita aralashishiga taqiq belgilangan. Shuningdek, idoraviy boshqaruv va tekshiruv organlarining vazifalarini bajarishiga ham yo‘l qo‘yilmaydi.

**II. Fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat** («Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 24—26-moddalari). Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, prokuratura fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshira boshladi, ya‘ni prokuror nazoratining yangi tarmog‘i paydo bo‘ldi. Prokuratura faoliyatining ushbu turini ajratish uning huquqni himoya qilish salohiyati ancha oshishi tan olinganligi haqida, fuqaroning huquqlari hamda erkinliklarini himoya qilish davlat mexanizmida prokuratura organlarining pozitsiyasi ancha kuchayganligi haqida dalolat beradi.

Fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi prokuror faoliyatining, nafaqat, ko‘rsatilgan turi predmeti mazmunini belgilaydi. Mazkur vazifa vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish; tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish; soliq

intizomini mustahkamlashga, soliq, valuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish; ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish sohalarida ham amalga oshiriladi.

Fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi jinoyatni dastlabki tergovni amalga oshirish, ishlarni sudlarda ko'rishda ishtirok etish, jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, huquq ijodkorligi faoliyatida, fuqarolarning arizalari, shikoyatlari va boshqa murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etishda ishtirok etish, shuningdek, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishini amalga oshirishda ham prokurorlarning e'tibor markazida bo'ladi. Prokuraturaning huquqni himoya qilish faoliyati O'zbekistonda mavjud bo'lgan fuqaroning huquqlari va erkinliklarini huquqiy ta'minlash tizimini to'ldiradi.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq, *nazorat predmeti* bo'lib, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi hisoblanadi.

Prokuror nazoratining ushbu yo'nalishini tavsiflashda O'zbekiston Respublikasida fuqaroning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishning muhim yo'lini aks etishi sifatida prokuratura organlari faoliyatida uning ustuvorligini yana bir bor ko'rsatib o'tish kerak.

**III. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat** («Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 27—29-moddalari). Jinoyatlar to'g'risidagi arizalar va xabarlarini ko'rib chiqish hamda hal qilish va tergovni olib borishning qonun hujjatlarida belgilangan protsessual tartibi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat *predmeti* hisoblanadi.

Nazoratning ushbu yo'nalishi muhim ahamiyatga ega, chunki jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar fao-

liyati davomida fuqarolarning eng muhim huquqlari va erkinliklariga daxl qiladi. Shuning uchun jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar faoliyati jinoyat-protsessual qonunchiligida aniq tartibga solingan. Ushbu qonunchilikni buzilishi fuqarolar uchun tiklab bo'lmaydigan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Aynan shu sababdan tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish ushbu yo'nalishning ahamiyatligini ko'rsatgan holda nazoratning alohida tarmog'i sifatida ajratilgan.

Shu bilan birga, prokuror nazoratining mazkur tarmog'i jamiyat va davlat manfaatlarini ta'minlashga da'vat etilgan, chunki sodir etiladigan jinoyatlar jamiyat va davlat manfaatlariga ham daxl qilishi mumkin. Qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradigan prokuror jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlardan to'la va o'z vaqtida jinoyatlarni aniqlash hamda ularni tergov qilish, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash, uni qoplash choralarini ko'rish va h.k.larni talab qiladi. Shu orqali u jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladi.

Bundan tashqari, bu sohadagi huquqiy munosabatlarda prokuror nazoratini amalga oshirish jinoyat sodir etgan shaxslarning ham, uning natijasida jabr ko'rgan shaxslarning ham, shuningdek, huquqlari, manfaatlari va erkinliklariga u yoki bu tarzda jinoyat natijasida daxl qilingan boshqa qonunga itoatkor fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga da'vat etilgan.

**IV. Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etish chog'ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat** («Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 30—32-moddalari). Quyidagilar *nazorat predmeti* hisoblanadi:

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etuvchi muassasalarda shaxslar saqlanishining qonuniyligi;
- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etish tartibi va sharoitlari haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi;
- ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlarning, shuningdek, jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari qo'llanilgan shaxslarning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishi;

• jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini qo'llayotgan organ va muassasalar, mansabdor shaxslar faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishi.

Ko'rsatilgan nazorat predmetining tahlili yagona prokuror nazoratidan ushbu tarmoqning ajratilishi jazoni o'taydigan fuqarolar hamda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan fuqarolar huquq va erkinliklarini tartibga soladigan qonunlar majmuyining o'ta muhimligi; qonunlarning va ushbu qonunlarni ijro etadigan organlar faoliyati xususiyatlari bilan tushuntiriladi.

Ko'rib chiqiladigan prokuror nazorati tarmog'ining ajratilishi qonunga itoatkor fuqarolar bilan bir qatorda, jazoni o'tayotgan shaxslarning huquq hamda erkinliklariga rioya qilish muhimligi haqida dalolat beradi. Bunda, nafaqat, jazoni o'tayotgan shaxslarning, balki ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquq va erkinliklarini tartibga soladigan qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Chunki bu hollarda ko'rsatilgan shaxslarning aybi sud tomonidan hali aniqlanmaganligi bois prokuror nazorati fuqarolar erkinligi cheklanishining qonuniyligi kafolati bo'ladi, shu orqali davlatning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish siyosati amalga oshiriladi.

**V. Prokuror faoliyatining keyingi yo'nalishi bo'lmish dastlabki tergovni yuritish** ham huquqni himoya qilish faoliyatining asosiy va mustaqil yo'nalishlaridan (funksiyalaridan) birini — jinoyatlarni aniqlash va ularni tergov qilishni tashkil etadi<sup>1</sup>. Bu funktsiya jinoyatlarning dastlabki tergovini mustaqil yuritish orqali prokurorning jinoyat protsessida ishtirokini nazarda tutadi. Jinoyatlarni tergov qilish faoliyati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solingan va odatda u jinoyat protsessining jinoyat ishini qo'zg'atish hamda surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

Prokuratura organlari jinoyat-protsessual qonunchilik asosida ularning vakolatiga tegishli bo'lgan jinoyatlar bo'yicha tergovni amalga oshiradi. Prokuror jinoyat-protsessual qonunga muvofiq, har qanday jinoyatni tergov qilishni o'z ish yurituviga qabul qilish yoki unga bo'ysunuvchi prokurorga topshirish, shuningdek,

---

<sup>1</sup> Mazkur funktsiya darslikning keyingi bobida ochib berilgan.

<sup>2</sup> Prokuror faoliyatining ushbu yo'nalishi «Jinoyat protsessi» o'quv fani doirasida batafsil o'rganib chiqiladi.

jinoyatni birgalikda tergov qilish uchun prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari hamda boshqa organlar tergovchilari va tez-kor xodimlari tarkibida tergov guruhini tashkil etishga haqli.

**VI. Prokurorlik faoliyatining sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish kabi yo'nalishi prokuror tomonidan quyidagi funksiyalarni amalga oshirilishini nazarda tutadi:**

1) jinoyat ishlari bo'yicha ayblov funksiyasini amalga oshiradi. Bu yo'nalishdagi faoliyat O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi bilan tartibga solingan;

2) prokuror muayyan jinoyat, fuqarolik, xo'jalik va ma'muriy sudlov ishlarini yuritishda bevosita ishtirok etish. Bu yo'nalishdagi faoliyat tarmoq qonunchiligi bilan tartibga solingan (JPK, FPK, XPK, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi);

3) prokuror sudning noqonuniy, asossiz va adolatsiz hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrim va qarorlari ustidan protest bildiradi. Bu yo'nalishdagi faoliyat ham tarmoq qonunchiligi bilan tartibga solingan.

Ko'rsatilgan funksiyalar prokuror tomonidan amalga oshirilishi quyidagi masalalarni yechishni nazarda tutadi:

- inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish;
- jamiyat va davlatning qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qilish;
- korxonalar, tashkilot va boshqa yuridik shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va h.k.

Muayyan ishlarni ko'rib chiqishda va sud qarorlari qonuniyligini ta'minlashda prokuror ishtiroki jarayonida qo'yilgan vazifalarni hal etish prokurorga qonun bilan belgilangan vakolatlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Prokuror vakolatlari «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda va protsessual qonunchilikda belgilangan.

**VII. Soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish** — huquqni muhofaza qilish faoliyatining nisbatan yangi yo'nalishi hisoblanadi.

Iqtisodiyot va soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning iqtiso-

diy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagi «Iqtisodiyot va soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 291-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Soliq sohasidagi qonun buzilishlariga qarshi tezkor kurash bosh boshqarmasi bazasida va uning mavjud shtatdagi xodimlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari tashkil etildi.

Soliq qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 22-iyundagi 28-buyrug'i bilan iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklar va jinoyatlarga qarshi kurash olib borish uchun mas'ul bo'lgan organlar faoliyati ustidan nazoratni oshirish; shuningdek, soliq va valutaga oid jinoyat va huquqbuzarliklarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan tezkor chora-tadbirlar ko'rish; shuningdek, fuqarolar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar alohida e'tibor qaratish; soliq va valuta tartibini mustahkamlashga qaratilgan qonunlar ijrosi holati yuzasidan maxsus bilim, tajriba va tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar ishtirokida joriy tekshirishni amalga oshirish; mazkur yo'nalishda xodimlarning kasb mahoratini oshirishga, ushbu sohada ishni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni uzluksiz amalga oshirish qaror qilindi.

**VIII.** Va nihoyat, prokuror faoliyatining yana bir juda katta ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishi bu — **qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish** hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishning dolzarbligi haqida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 22-iyundagi «Qonunchilikni targ'ibot qilish va qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etishda prokuratura organlarining vazifalari to'g'risida»gi 29-buyrug'i ham dalolat beradi. Ushbu hujjatda huquqiy demokratik davlat barpo etishda va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ishlar ham muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan. Mazkur buyruqda qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish prokuraturaning asosiy funksiyasi deb qaror qilingan. Qonun ijodkorligi faoliyatida va qonunchilik

targ'ibotida samarali ishtirok etishni ta'minlash maqsadida prokuratura organlarining har bir xodimi o'z bilimi hamda kasb mahorati va tajribasini oshirishiga doir doimiy ravishda olib boriladigan faoliyatga muayyan talablar belgilandi. Bunda mazkur faoliyatni tashkil etish va rejalashtirish har bir hududning va sohaning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, jamiyat va davlat oldida turgan muhim ijtimoiy-siyosiy vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerakligi belgilangan.

Buyruqda prokuratura organlari oldida turgan boshqa vazifalar ham ko'rsatilgan:

- prokuror nazoratining asosiy yo'nalishlariga oid olib boriladigan ishlar haqida keng jamiyat xabardorligiga, shu jumladan, amalga oshirilgan tekshirishlar hamda inson huquq va erkinliklari va davlat manfaatlarini himoya qilishga doir ko'rilgan choralar natijalariga doimiy e'tibor qaratish;

- yangi qonunlarni targ'ibot qilish bo'yicha ishlarni kuchaytirish;
- boshqa huquqni himoya qiluvchi organlar, davlat va nodavlat organlar, o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari o'rtasida aloqalar o'rnatish va munosabatlarni mustahkamlash;

- quyi turuvchi prokuraturalar va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, muntazam ularning faoliyatini tekshirish va ularga amaliy uslubiy yordam ko'rsatish;

- targ'ibot samaradorligi, sifatini, uning qonunchilik holatiga ta'sirini tahlil qilish va h.k.

**Prokuror nazorati hujjatlari.** O'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida prokuror qonun bilan belgilangan shaklda rasmiylashtiriladigan qarorlar qabul qiladi.

**Prokuror nazorati hujjatlari** — bu maxsus hujjatda belgilangan prokurorning qarori bo'lib, uning yordamida prokuror huquqiy vositalarni qo'llash orqali aniqlangan huquqbuzarliklarga o'z munosabatini bildiradi.

**Protest.** Bu qonunga zid va nomuvofiq bo'lgan normativ va boshqa huquqiy hujjatlarga, shuningdek, davlat organlari hamda mansabdor shaxslari qarorlari va harakatlariga prokuror ta'sirining yozma yuridik hujjati hisoblanadi. Noqonuniy huquqiy hujjat

aniqlanganda prokuror protest keltirish kabi huquqiy ta'sir chorasini qo'llaydi. Ushbu ta'sir chorasining moddiy ifodalanishi protest hisoblanadi. Qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi.

**Qaror.** Prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab, *jinoyat ishi, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish* haqida qaror chiqaradi. Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi.

Ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab, *o'n besh kun* ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi shart. Uni ko'rib chiqish natijalari haqida *uch kunlik* muddatda prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

**Taqdimnoma.** Bu qonun buzilish holatlarini, bunday qonun buzilishining sabablari va imkon bergan shart-sharoitlarini bartaraf etish to'g'risidagi prokuror ta'sirining huquqiy hujjatidir. Protestdan farqli ravishda taqdimnomada birinchi o'ringa prokuror hujjatining preventiv o'rni, huquqbuzarlik xulqiga imkon tug'diradigan sabab va shartlarni bartaraf etish talabi qo'yiladi. Taqdimnoma kiritishga asos bo'lib aniqlangan qonun buzilish holatlari to'g'risidagi umumlashtirilgan materiallar xizmat qiladi. Taqdimnomada alohida ahamiyat huquqbuzarliklarga qarshi kurashda boshqaruv organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini faollashtirish zaruratiga qaratiladi.

Prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish va kolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi.

Taqdimnoma darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim. Taqdimnoma kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

**Ariza.** Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Prokurorning arizasi sud tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.



**Ogohlantiruv.** Prokuror ta'sirining mazkur hujjati inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan noqonuniy, lekin jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan qilmishlar sodir etishga moyil bo'lgan fuqaro va mansabdor shaxslarga individual profilaktika ta'sirining samarali chorasi bo'lib xizmat qiladi. Shu vaqtning o'zida ogohlantiruv — bu qonunchilik va prokuror talablarini bajarmaganlik uchun subyekt javobgarligini individual tartibda sharhlash usuli hamdir. Prokuror bunday hujjatni qo'llash to'g'risidagi qarorni faqat unda har bir alohida holatda u yoki bu fuqaro yoxud mansabdor shaxs tomonidan huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lganligi to'g'risida dalolat beruvchi ma'lumotlarni huquqiy baholanishini hisobga olgan holda qabul qilishi kerak.

● **Yodda saqlang!** ●

Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlaridir.

(«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 37-moddasi).

Prokuror fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda, huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi.

Ogohlantiruv to'g'risida prokuror yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga), shuningdek, ogohlantiruv e'lon qilingan shaxsning ish, o'qish joyi bo'yicha ish beruvchiga (ma'muriyatga) yoki yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishga haqli.

### **13.2. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari**

Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining prinsiplarini ko'rib chiqishga o'tishdan oldin prokuratura huquqiy maqomining tartibga solinishining qonunchilik manbayi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun bo'lishini aytib o'tish lozim.

Davlat organi huquqiy maqomi asosini uning maqsadi, vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini, shuningdek, boshqa organlar orasida egallaydigan huquqiy o'rnini belgilaydigan huquq normalari tashkil etadi. Biroq, davlat organining rasmiy holatini belgilaydigan huquq normalari orasida birinchi darajali ahamiyatga konstitutsiyaviy-huquqiy qoidalar ega, chunki aynan ular umumiy maqomga oid tavsiflarni belgilaydi va ular jamlanmasi prokuraturaning konstitutsiyaviy-huquqiy (konstitutsiyaviy) maqomini tashkil etadi. Boshqa ko'pchilik davlatlardagi kabi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida prokuraturaga maxsus o'rin belgilangan<sup>1</sup>.

O'zbekiston Asosiy qonunida prokuraturaga bag'ishlangan maxsus bob (24) nazarda tutilgan, bu esa davlat mexanizmi tizimida uning mustaqil konstitutsiyaviy maqomi haqida dalolat beradi. Konstitutsiyaning 118-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishi belgilangan. Ko'rib turganimizdek, qonun chiqaruvchi Konstitutsiyada prokuraturaning faqat asosiy funksiyasini ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Prokuraturaning boshqa funksiyalari Konstitutsiyada ko'rsatilmagan, lekin prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish tartibi va ularning vakolatlari qonun bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan.

**Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining prinsiplari** — bu prokuratura organlari ko'p qirrali faoliyatining eng muhim xususiyat va belgilarini aniqlaydigan asosiy, rahbariy qoidalar hamda ularga qo'yiladigan asosiy talablar.

Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida belgilangan. Qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan prinsip-

---

<sup>1</sup> Ma'lumot uchun qayd etish lozimki, Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Moldova Respublikasi va Rossiya Federatsiyasida prokuratura maqomi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoidalar sud hokimiyatiga bag'ishlangan boblarga kiritilgan. Qirg'iziston Respublikasining Konstitutsiyasida prokuraturaga «Ijro etuvchi hokimiyat» deb nomlangan bobida joy ajratilgan, Belarus, Tojikiston Respublikalari konstitutsiyalarida O'zbekistondagidek prokuratura maqomi «Prokuratura» deb nomlangan mustaqil bobda, Turkmaniston va Ukraina konstitutsiyalarining maxsus bo'limlarida belgilab qo'yilgan. *Qarang:* Прокуратура в странах СНГ: правовой статус, функции, полномочия. Научное и учебное пособие. Под общ. ред. проф. С.П. Щербы. М., «Экзамен», 2007, стр. 11.

larga rioya etish prokuraturaga davlatda qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha uning oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi.

● **Yodda saqlang!** ●

Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari — *birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.*

**Birlik prinsipi.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 119-moddasiga ko'ra, prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi. Birlik prinsipi barcha prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining yagona shakllarida, prokuror nazoratini amalga oshirishning, shuningdek, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga ta'sir etish bo'yicha prokuror vakolatlarining maqsad va vazifalari yagonaligida ifodalanadi.

Birlik prinsipi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- prokuratura faoliyati barcha prokuratura bo'g'inlari uchun yagona bo'lgan qonunchilik asosida amalga oshiriladi;

- prokuror nazorati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni yakka tartibda hal etadi;

- yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorning prokuror nazorati hujjatlarini yakka tartibda bekor qilishi yoki o'zgartirishi mumkin;

- har bir prokuror noqonuniy hujjatlarga shaxsan protest keltiradi, taqdimnoma kiritadi, jinoyat ishi qo'zg'atadi, boshqa qarorlar qabul qiladi;

- yakkaboshchilik prokurorlarning ular tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun shaxsiy javobgarligini oshiradi.

**Markazlashganlik prinsipi.** Prokuraturaning markazlashganligi quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorga, barcha prokurorlar esa butun prokuratura organlari tizimiga rahbarlik qiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysinishini anglatadi. Markazlashganlik prinsipi qonun bilan belgilangan prokurorlarni tayinlash tartibida to'g'ridan to'g'ri namoyon bo'ladi: Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuroridan boshqa barcha prokurorlar (viloyat, tuman va shahar prokurorlari) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

Prokuratura organlari markazlashganligi butun davlat hududida yagona qonuniylikni ta'minlash zarurati bilan yuzaga kelgan, bu

esa faqat yagona markazdan prokurorlarga rahbarlik qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Yagona qonuniylikni ta'minlash prokuratura organlarining shunday tashkil qilinishini nazarda tutadiki, unda O'zbekiston Respublikasi butun hududida prokuror nazorati amalga oshirish uchun yagona talablar ta'minlanishi lozim bo'ladi.

Markazlashganlik prinsipi quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchilarga qat'iy bo'ysunishini, shuningdek, prokurorlarning xizmat intizomi va xizmat javobgarligi xarakterini belgilaydi, bu esa butun prokuratura organlari tizimi ishini to'g'ri tashkil qilinishining muhim sharti bo'ladi. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan yo'naltiriladigan va muvofiqlashtiriladigan prokuratura amaliyotining birligini ta'minlaydi.

Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan, protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek, u o'z bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir.

**Qonuniylik prinsipi.** Mazkur prinsip juda muhim ahamiyatga ega va prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining barcha prinsiplari orasida ajralib turadi, chunki u prokuratura faoliyatining qolgan boshqa prinsiplarini ro'yobga chiqarilishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Qonuniylik — bu butun jamiyatni davlat tomonidan boshqarilishining asosiy prinsiplaridan biridir, davlatchilikni mustahkamlash va taraqqiy etish, davlatning iqtisodiy negizini mustahkamlash va rivojlantirishning muhim vositasidir, davlatning demokratik tizimi faoliyat ko'rsatishining zaruriy shartidir.

Qonuniylik prinsipi prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega — ularning zimmasiga barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish majburiyati yuklatilgan. Shuning uchun mazkur funksiyani bajarish chog'ida prokuraturaning o'zi ham qonunlarga aniq rioya qilishi lozim. «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasiga binoan, prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga ko'ra qilinishidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Mustaqillik prinsipi.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar.

Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining mustaqilligi prinsipi davlat va siyosiy ahamiyatga ega, chunki faqat izchil unga amal qilganda prokuratura O'zbekiston Respublikasi butun hududida qonun ustuvorligini, qonuniylikning yagonaligini ta'minlashi, fuqarolarning huquqlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishi mumkin.

Prokuratura organlarining mustaqilligi prinsipini amalga oshirilishi uning tashkiliy tuzilishi, prokuratura xodimlarining tayinlanish tartibi, prokurorlarning belgilangan bo'ysunish va hisob berish tizimi bilan ta'minlanadi. Shuningdek, mazkur prinsipga amal qilinishining kafolati bo'lib, qonuniy tartibda prokuratura organlari faoliyatiga aralashishga yo'l qo'ymaslik belgilanganligi; prokurorning g'ayri-qonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek, prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajar-maslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'lishi xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ko'rib chiqilayotgan prinsipning kafolati bo'lib, prokurorning siyosiy mustaqilligi sanaladi: prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiya-larga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Prokuratura organlari xodimlari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas. Ular ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo'sh vaqtda shug'ullanishi mumkin («Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 43-moddasi). Bu cheklov belgilanishiga sabab, prokurorlar faoliyati qonuniyligini nazorat qilishi kerak bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan mehnat munosabatlariga kirishmasligi hisoblangan. Boshqa tarafdin, prokuror va tergovchilarning ilmiy ishlardagi ishtiroki nihoyatda rag'batlantiriladi, ayniqsa, bo'lajak prokuror va tergovchilarni tayyorlashdagi o'quv ishlarida. Chunki huquqiy nazariya va qonunlarni qo'llash amaliyoti birlashtirilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yuqori sifatli muta-xassislarni tayyorlashga imkon beradi.

**Oshkoralik prinsipi.** Mazkur prinsipning mohiyati prokuratura organlari shu darajada oshkor faoliyat ko'rsatadiki, bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik, shuningdek, davlat va boshqa maxsus qo'riqlandigan sir to'g'risidagi qonunchilik talablariga zid bo'lmasligida namoyon bo'ladi. Agar prokuraturaning muayyan ishlar bo'yicha olib borgan faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlari davlat, fuqarolar manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkin bo'lsa, bunday ma'lumotlar oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu prinsipni ro'yobga chiqarishga jamoatchilik nazorati belgilanishi yo'naltirilgan. Xususan, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bilan prokuratura faoliyati ustidan nazoratni, birinchi navbatda, jamiyat tomonidan amalga oshirilishini ta'minlovchi mexanizmlar belgilangan, viloyat, tuman va shahar prokurorlari mahalliy xalq deputatlari kengashlariga, zarur hollarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylik holati va jinoyatchilik bilan kurashish haqida ma'lumot berishini nazarda tutuvchi qoidalar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob berishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normani amalga oshirish mexanizmi tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'rib chiqilgan prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining barcha prinsiplari bir-biri bilan bog'liq. Ularning birontasiga amal qilmaslik prokuratura faoliyatining boshqa prinsiplarini buzilishiga olib keladi.

### **13.3. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi, tuzilishi va ularni tashkil etish**

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir.

**Prokuratura tizimi** deganda, nafaqat, uni tashkil etuvchi organlar va muassasalar majmuasi, balki tizim tuzilishida ularning o'рни va o'zaro munosabati, ularning tashkiliy aloqalari va boshqaruv munosabatlari tushuniladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> В.Г. Бессарабов. Прокурорский надзор. Учебник. М., «ТК Велби», «Перспект», 2007, стр. 121.

### ● Yodda saqlang! ●

Prokuratura organlari tizimi quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi;
- viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
- tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
- viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;
  - tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar;
  - O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni liberallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatadi.

(«Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 10-moddasi).

Prokuratura organlari va bo‘linmalarining birlashuvi funktsiyalar, vakolatlar taqsimlanishi, tizim elementlari o‘rtasida asosiy mazmuni bog‘lanish bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatilishi orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, prokuratura organlari tizimiga uning elementlari o‘rtasida ham vertikal aloqalar, ya‘ni bo‘ysunishga doir ichki boshqaruvi uchun, ham gorizontaal aloqalar xos, ya‘ni tizim ichida teng ahamiyatga ega bo‘lgan organ va bo‘linmalar, shuningdek, boshqa organlar va tuzilmalar bilan hamkorlik qilish uchun<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O‘z navbatida, o‘zaro aloqalarning vertikal va gorizontaal xususiyati prokuratura organlari tuzilishining chiziqli va funksional tiplarini belgilaydi. Boshqaruv apparati faqat o‘zaro bo‘ysunadigan organlar, bo‘linmalar va birliklar hisobiga tashkil qilinishi chiziqli tuzilishning mazmunini tashkil etadi. Har bir quyi darajaning zvenolari yuqori turuvchi darajaning rahbariga nisbatan bevosita (chiziqli) bo‘ysunishda bo‘ladilar. Prokuraturaning har bir xodimi faqat bitta rahbarga bevosita bo‘ysunadi va unga hisobot beradi va shuning uchun yuqori turuvchi organlar bilan faqat u orqali aloqada bo‘ladi. Bundan tashqari, chiziqli rahbar (prokuror) unga bo‘ysunadigan organlar faoliyatining butun hajmi uchun to‘liq javobgar bo‘ladi. Chiziqli tuzilishdan farqli ravishda, funksional tashkiliy tuzilish aniq faoliyat turlariga ixtisoslashgan, muayyan funksiyalarni bajaradigan organlar va bo‘linmalardan iborat bo‘ladi. Mazkur tuzilmalar soniga, masalan, transport, tabiatni muhofaza qiluvchi va maxsus obyektlar bilan chegaralangan doirasida o‘z faoliyatini amalga oshiradigan boshqa prokuraturalar kiradi. *Qarang*: Прокуратура в странах СНГ: правовой статус, функции, полномочия. Научное и учебное пособие. Под общ. и научн. ред. проф. С.П. Щербы. М., «Экзамен», 2007, стр. 27—28

**O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi.** Prokuratura organlari tizimida oliy bo'g'in bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinbosariga, o'rinbosarlariga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risidagi Farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining vakolatlari.* O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko'rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko'rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi majlislarida ishtirok etadi, ko'rilayotgan ishlar bo'yicha va muhokama qilina-yotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi majlislarida ishtirok etadi, muhokama qilina-yotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;



• O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay‘atining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

• prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajali unvonlar berish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

• prokuratura organlari xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;

• prokuratura organlari xodimlarini «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlaydi;

• buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

• chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar tuzadi;

• qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi.

*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi.* O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

• qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida muntazam ravishda;

• o‘ta og‘ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to‘g‘risida — zudlik bilan;

• prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to‘g‘risida har olti oyda axborot taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga o‘z faoliyati haqida muntazam ravishda hisobot beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tuzilishining ajratib turadigan xislati shundan iboratki, uning huzurida **Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti** tashkil etilgan va bu «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 18-moddasida o‘z

ifodasini topgan. Mazkur organ birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagi qarori bilan Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti sifatida tashkil etilgan, 2002-yil 28-noyabrda esa Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamentiga aylantirildi. Ushbu ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qilish organining asosiy vazifasi bo'lib, soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida operativ-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va o'tkazish, soliq intizomini mustahkamlash hisoblanadi.

Hozirgi kunda departamentning asosiy vazifalari va funksiyalari, tuzilishi va uni ishini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-apreldagi «Moliya-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoyatlarga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-331-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi «Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti to'g'risida»gi Nizom bilan tartibga solingan.

Departamentning asosiy vazifalari etib, quyidagilar belgilangan:

- soliq, valutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari bajarilishini nazorat qilish;

- davlat soliq siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilarni qamrab olinishi va hisobining to'liqligini ta'minlash, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, qochishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini, «xufyona» iqtisodiyotning shakllanish yo'llarini, korrupsiya holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

- valuta operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotlarning to'liqligi va obyektivligini nazorat qilish; xorijiy valuta mablag'larining qonunga xilof ravishda chetga chiqib ketishi, olib kelinishi va olib chiqilishi, noqonuniy muomalada bo'lishi va valuta ayirboshlash operatsiyalari bilan bog'liq boshqa qonun buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish;

- moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish; jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalar monito-

ringini tashkil etish va amalga oshirish; aniqlangan huquq buzilishlari to'g'risida tegishli huquqni muhofaza qilish organlari bo'linmalariga jinoiy ta'qibni tashkil etish, ma'muriy ta'sir choralarini ko'rishlik uchun o'z vaqtida axborot taqdim etish;

- soliq va valuta-moliya sohasida aniqlangan jinoyatlar va huquq buzilishlari hamda qonun hujjatlariga muvofiq, nazorat qilinadigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona kompyuter bazasini yaratish va yuritish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari va shartnomalariga muvofiq, valutani tartibga solish sohasida, shuningdek, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash;

- soliq siyosati va valuta muomalasini tartibga solish, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish masalalari bo'yicha keng tushuntirish, profilaktika ishlarini amalga oshirish.

Departamentga maqomiga ko'ra, Bosh prokuror o'rinbosariga tenglashtirilgan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan departament boshlig'i rahbarlik qiladi.

Departament boshlig'ining o'rinbosarlari o'z lavozimlariga departament boshlig'i taqdimnomasiga binoan, va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departamentning hududiy boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari tegishli lavozimlarga departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan, Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departament va uning joylardagi bo'linmalarini tashkil etish tartibi ular faoliyati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi.** «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 15-moddasiga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi, u O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdordir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tegishli tuman, shahar prokuraturalarining va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasida boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi.

Boshqarmalar va bo‘limlarning boshliqlari hamda ularning o‘rinbosarlari, prokurorning katta yordamchilari, prokurorning ichki xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha yordamchisi, katta prokuror-kriminalist O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining yordamchilari, boshqarmalar va bo‘limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, prokuror-kriminalistlar, alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar.

**Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari.** MDH davlatlarida prokuratura organlari tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, *hududiy prokuraturalar* hisoblanadi, chunki ular orqali Hamdo‘stlikning Bosh prokuraturalari quyi turuvchi prokuraturalari faoliyatiga rahbarlik qiladi va nazoratni amalga oshiradi.

O‘zbekistonda hududiy prokuraturalarga **viloyatlar, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar** kiradi. Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar, ular O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar hamda lavozimidan ozod etiladilar. Bu prokurorlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo‘ysunadilar va uning oldida hisobdordirlar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tegishli tuman, shahar prokuraturalari va ularga

tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga lavozimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi. Boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari, prokurorlarning katta yordamchilari, prokurorlarning ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yordamchilari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Boshqarmalar va bo'limlar boshliqlarining o'rinbosarlari, katta prokuror-kriminalistlar va prokuror-kriminalistlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning yordamchilari, boshqarmalar va bo'limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

**Tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar.** Sanab o'tilgan prokuraturalar O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining quyi bo'g'inini tashkil etadi. O'z mohiyatiga ko'ra, bu O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining eng asosiy va ko'p sonli bo'g'inidir.

Tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladi, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadi va ularning oldida hisobdordir.

Tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o'rinbosarlari bo'lishi mumkin.

Tumanlar, shaharlar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning katta yordamchilari, yordamchilari, prokuratura katta tergovchilari va tergovchilari, ish o'rganuvchilari, tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

O'z faoliyatini amalga oshirish davomida bunday prokuraturalar hududiy prokuraturalar amal qiladigan qonunlarga amal qiladi, barcha prokuratura organlari uchun umumiy bo'lgan vazifalarni bajaradi, faqat ularning faoliyati maxsus obyektlar yoki prokuror nazoratining alohida sohalar bilan cheklanadi, xolos.

**Ma'lumot uchun!** Barcha MDH davlatlarida ixtisoslashtirilgan prokuraturalar mavjud. Ular, umuman, jamiyat va davlat ehtiyojlari bilan rivojlanadi va faoliyat ko'rsatadi. Bunday bo'g'inlar huquqiy sohaning xususiyatini (tabiatni muhofaza qilish prokuraturalari) yoki nazorat obyektining o'ziga xos xususiyatlarini (transport, mudofaa sanoati korxonalari, axloq tuzatish muassasalari va boshq.) e'tiborga olgan holda tashkil etilgan. Shu bilan birga, ixtisoslashganlik, birinchi navbatda, umumnazorat ishi uchun muhim ahamiyatga ega<sup>1</sup>. Prokuraturaning ixtisoslashgan organlari MDH davlatlarida prokuratura tizimining ajralmas elementi bo'lib hisoblanadi, chunki maxsus sohalar faoliyatida qonuniylikni ta'minlash muammolari haligacha mavjud<sup>2</sup>. Ko'p tadqiqotchilar fikriga ko'ra, aynan mana shu bo'g'inlar yordamida hududiy prokuraturalar tegishli ravishda hal eta olmaydigan turli xil masalalar o'ta samarali o'z yechimini topadi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Н. Руденко. Специализация прокуратуры в Украине. Журнал «Законность», 2000, № 8, стр. 5.

<sup>2</sup> Прокурорский надзор. Учебник для вузов. Под ред. А.Я. Сухарева. М., 2004, стр. 90—91.

<sup>3</sup> Прокуратура в странах СНГ: правовой статус, функции, полномочия. Научное и учебное пособие. Под общ. и научн. ред. проф. С.П. Щербы. М., «Экзамен», 2007, стр. 35.

Ixtisoslashtirilgan prokuraturalarning huquqiy maqomi, ularning tuzilishi va faoliyati alohida me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solingan. Ixtisoslashtirilgan prokuraturalar ham prokuratura organlari uchun umumiy bo'lgan prinsiplar asosida tashkil etildi: ular hududiy prokuraturalar amal qiladigan qonunlarga amal qiladi; ular oldida barcha prokuratura organlari uchun umumiy bo'lgan masalalar turadi; ular aniqlangan qonun buzilishi holatlariga aynan o'sha prokuror ta'sir etish choralari qo'llaydi. O'zbekistonda bunday prokuraturalar misoli bo'lib, harbiy va transport prokuraturalari xizmat qilishi mumkin.

*Harbiy prokuratura.* O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovullik qo'shinlari Bosh boshqarmalari hamda Mudofaa vazirligining harbiy okruglari tashkil etilganligi munosabati bilan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, harbiy idoralarda va vazirliklar hamda idoralarning harbiylashtirilgan tarkibiy bo'linmalarida qonunchilikka rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining to'laligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 30-martdagi «O'zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasini tashkil qilish to'g'risida»gi PF-2277-sonli Farmoniga binoan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy prokuraturasi negizida harbiy okruglarning to'rt harbiy prokuraturasi tarkibida O'zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasi tashkil qilindi.

*Transport prokuraturasi.* O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlari to'g'risida»gi PF-313-sonli Farmoni bilan o'sha vaqtda respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan O'rta Osiyo transport prokuraturasi negizida tashkil etilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi o'z maqomiga ko'ra, viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan.

**Prokuratura organlarining hay'atlari.** O'zbekistonda prokuraturani ta'riflovchi belgi bo'lib, Bosh prokuratura va hududiy prokuraturalar tarkibida hay'atlarning — tegishli prokuraturalar rahbarlari huzurida maslahat organlarining mavjudligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, proku-

ratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda prokuror (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari va prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi tegishli prokurorning taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tuziladigan hay'atlar maslahat organlari bo'lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

Hay'at qarorlari asosida tegishli prokurorlar buyruqlar chiqarishi mumkin.

**Prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta'minlovchi inspeksiya.** O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tarkibida prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta'minlovchi inspeksiya tuziladi.

Prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta'minlovchi inspeksiya prokuratura organlari xodimlari tomonidan sodir etilgan xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish, korrupsiya va egallab turgan lavozimiga noloyiq boshqa nojo'ya xatti-harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha xizmat tekshiruvini o'tkazadi.

Prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta'minlovchi inspeksiya o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

### **13.4. Prokuratura organlari xodimlari**

Prokuratura organlarini kadrlar bilan ta'minlash — uning faoliyatini tashkil etishning asosiy elementlaridan biridir. Aniq bir maqsadga qaratilgan davlat kadrlar siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur siyosatsiz iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa keng ko'lamdagi qayta tashkil etilishlar bo'yicha mo'ljallangan tadbirlar tizimi samarasiz bo'ladi.



Prokuratura organlari faoliyati natijalarini yaxshilash, ular ishi-ning samaradorligini oshirish tadbirlaridan biri bo'lib, ularni malakali kadrlar bilan tegishli ravishda ta'minlash hisoblanadi. Ushbu muammoning dolzarbligiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham o'z diqqatini qaratadi: «huquqni muhofaza etuvchi idoralar — ... prokuratura xodimlari saflarini malakali, Vatanga va o'z burchiga sadoqatli, insofli, yosh, iqtidorli va zamon talabiga javob beradigan kadrlar bilan to'ldirish ishlari kuchaytirilishi lozim»<sup>1</sup>.

Hozirgi vaqtda kadrlar tanlashda «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun bilan belgilangan prokuror, tergovchi va ish o'rganuvchi lavozimlariga tayinlanadigan shaxslarga qo'yilgan quyidagi talablar e'tiborga olinishi lozim:

1. Prokuror, tergovchi va ish o'rganuvchi sifatida faqat **O'zbekiston Respublikasi fuqarolari** bo'lishi mumkin.

2. **Ma'lumot tabiati va darajasi.** Prokuror, tergovchi va ish o'rganuvchi sifatida faqat oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi mumkin. E'tiborga olish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamentiga xizmatga kiradigan shaxslar uchun biroz boshqacha talablar qo'yiladi. Xususan, Departamentga xizmat qilish uchun, nafaqat, huquqshunoslik sohasida, balki iqtisodiyot, axborot texnologiyalari sohalarida oliy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ham qabul qilinadi.

3. **Ishchanlik fazilatlar.** Qonunda prokuror, tergovchi va ish o'rganuvchi lavozimiga zarur kasbiy fazilatlar bo'lgan shaxslar tayinlanishi ko'rsatilgan. Prezident I.A.Karimov bu borada «biz har kim va har bir narsa qonunga bo'ysunishi lozim bo'lgan huquqiy davlat qurmoqchimiz. Bizning jamiyatda qonun boshqaruvning asosiy va ko'p qirrali vositasiga aylanishi zarur. Bunday sharoitda huquqni muhofaza etish organlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Ularning kasb mahorati va axloqiy sifatlariga bo'lgan talab keskin oshadi»<sup>2</sup>. Chunoschi, professionalizm — bu mansab

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir. (Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashi sessiyasida so'zlangan nutq, 1996-yil 16-mart.) Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. T., «O'zbekiston», 1996, 285-bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995-yil 23-fevral.) Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T., «O'zbekiston», 1996, 14-bet.

vazifalarini bajarilish darajasining ko'rsatkichi, bilimlarni kengaytirish va oshirishni rag'batlantiruvchi omili, orttirilgan tajriba, prokuror yoki tergovchi kasblarini samarali egallash uchun muhim bo'lgan tashkiliy va boshqa imkoniyatlarni rivojlantirish ko'rsatkichidir. Chuqur bilimga ega bo'lish kabi fazilatga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Chuqur bilimga ega bo'lish — bu prokuratura xodimi mazkur lavozim bo'yicha funksional vazifalarini bajarish uchun yetarli bilim, ko'nikmalarga egaligi haqida xulosadir. Chuqur bilimga ega bo'lish muayyan shaxsning muayyan lavozimga loyiqligi haqidagi qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi. Professionalizmning chuqur bilimga ega bo'lish bilan muvofiqlashuvi lavozimga loyqlik darajasi va kasbiy o'sish dinamikasi haqida dalolat beradi.

Afsuski, prokurorlar, tergovchilar va ish o'rganuvchilarning kasbiy fazilatleri tizimlashtirilgan ro'yxati me'yoriy tarzda belgilanmagan. Shu o'rinda mazkur masalaga davlatimiz rahbari ham e'tibor qaratgan edi: «qonunda bu organlarda kimning ishlashga haqqi bor, u qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, uning javobgarligi va mansab pillapoyasidan ko'tarilish shartlari o'z aksini topishi kerak»<sup>1</sup>. Ularning ba'zi birlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlarida keltirilgan. Umumiy qoidaga ko'ra, bu fazilatlarga halollik, intizomlilik, prinsipiiallik, hushyorlik, xushmuomalalik, muloyimlik, ishchanlik, tirishqoqlik va ozodalik, xolislik, ish qobiliyati darajasi, sobitqadamlik va boshqalar ko'rsatilgan<sup>2</sup>.

**4. Sog'lig'i ahvoli.** Prokuratura organlari va muassasalaridagi ish sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlarini, prokuratura xodimlari ishining qizg'inligi va shiddatini, hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan boshqa xolis holatlarni hisobga olgan holda mazkur lavozimlarga nomzodlarga ularning sog'lig'i ahvoliga muayyan talablar qo'yiladi. Biroq, oldingi holatdagidek qonun faqat umumiy ta'rif bilan cheklangan, xolos: «zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'lig'i imkon beradigan fuqarolar»<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995-yil 23-fevral.) Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T., «O'zbekiston», 1996, 14-bet.

<sup>2</sup> Biz o'ylaymizki, kasbiy munosiblikni belgilashga yordam beradigan prokurorlar, tergovchilar va ish o'rganuvchilar uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarining shartli ro'yxatini ishlab chiqish lozim.

<sup>3</sup> Fikrimizcha, mazkur lavozimlarga nomzodlar majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida xizmat qilishga qabul qilishni va ushbu organlarda xizmat qilishni istisno etadigan kasalliklar ro'yxati ishlab chiqilishi lozim.

**5. Boshqa talablar.** O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmagan shaxslar tayinlanadi. Prokuratura organlari xodimlari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin emas. Ular ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo‘sh vaqtda shug‘ullanishi mumkin.

Prokuratura organlari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilishi lozim. Prokuror yoki tergovchi lavozimiga birinchi marta tayinlanayotgan shaxs mazmuni «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 44-moddasida keltirilgan qasamyod qabul qiladi. Unda qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi uchun nazoratni amalga oshirish borasidagi og‘ir vazifani bajaradigan mansabdor shaxslarga qo‘yiladigan talablar belgilangan. Qasamyod quyidagi mazmunga ega: **«O‘z xizmat vazifalarimni halol va vijdonan bajarishga, qonun buzilishiga qarshi murosasiz kurashishga, fuqaro, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga tantanali qasamyod qilaman».** Qasamyod qabul qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan belgilanadi.

**Prokurorlar faoliyatini baholash.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, shuningdek, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning faoliyati tegishli yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan ularning vakolat muddati davomida kamida ikki marta kompleks o‘rganib chiqiladi. Prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ta‘minlanishi hisoblanadi.

O‘z faoliyati davrida tegishli hududda qonunlar ijrosi ustidan lozim darajada nazorat o‘rnatilishini ta‘minlab bera olmagan shaxslar prokuror lavozimiga takroran ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Prokuratura organlari xodimlarining darajali unvonlari va harbiy unvonlari.** Prokuratura organlari xodimlariga egallab turgan lavozimlari va mehnat stajiga muvofiq, darajali unvonlar yoki harbiy unvonlar beriladi.

**Prokuratura organlari va muassasalaridagi xizmat.** Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o‘tash, prokuratura organlari

va muassasalarining xodimlariga darajali unvonlar va harbiy unvonlar berish hamda ulardan mahrum etish, ularni rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risidagi nizomda belgilab qo'yiladi.

Prokuratura organlari xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'qotar qurol hamda boshqa shaxsiy himoya vositalari olib yurish huquqiga ega.

**Prokuratura organlari xodimining davlat himoyasi huquqiy asoslari va choralari.** Prokurorlarni davlat himoyalash choralari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

**Huquqiy himoya choralari.** Mazkur himoya, birinchi navbatda, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun *prokuratura organlari xodimining daxlsizligini* o'rnatishida ifodalanadi. Prokuror va tergovchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi.

Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy huquqbuzarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi. Bundan tashqari, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan (JKning 236-moddasi).

**Ijtimoiy himoyalash choralari.** Aytish lozimki, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun prokuratura organlari xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minotini nazarda tutadi va bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- prokuratura organlari xodimlarining ish haqi mansab maoshidan, darajali unvonlar (harbiy unvonlar), ko'p yillik xizmat uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat bo'ladi;

- darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan prokuratura organlarining xodimlari belgilangan me'yorlar bo'yicha bepul xizmat kiyimi bilan ta'minlanadi;

- prokuratura organlari xodimlariga muddati o'ttiz kalendar kunidan iborat haq to'lanadigan yillik ta'til beriladi. O'n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan prokuratura organlari xodimlariga besh kalendar kun, yigirma besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarga esa o'n kalendar kun qo'shimcha ta'til beriladi.

O'z navbatida, *prokuratura organlari xodimlarini hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash choralari* quyidagilarda ifodalanadi:

- prokuratura organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'i davlat himoyasida bo'ladi hamda respublika budjeti mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug'urtalanadi.

Davlat sug'urta organlari quyidagi hollarda sug'urta summalarini to'laydilar:

- prokuratura organlari xodimi ishlayotgan davrida yoki prokuratura organlaridan bo'shatilganidan keyin halok bo'lsa (vafot etsa), agar bu hol u o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi oqibatida ro'y bergan bo'lsa, uning merosxo'rlariga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 194-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan miqdorda;

- prokuratura organlari xodimi o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbiga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolganida yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida, uning oylik ish haqining yigirma besh karrasi miqdorida;

- prokuratura organlari xodimiga u o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kasbiga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etmaydigan va mehnat qobiliyatini doimiy yo'qotishga olib kelmaydigan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida, uning oylik ish haqining besh karrasi miqdorida.

Prokuratura organlari xodimi o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbiga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolganida yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha olingan to'lovlarni hisobga olmagan holda unga ish haqi va tayin etilgan pensiya o'rtasidagi farq har oyda to'lab boriladi.

Prokuratura organlari xodimi o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilishi oqibatida halok bo'lsa (vafot etsa), uning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga yetkazilgan zararining to'lovi boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan tayinlangan pensiya, xuddi shuningdek, boshqa pensiya, ish haqi, stipendiya va o'zga daromadlarni hisobga olmagan holda to'lanadi.

Prokuratura organlari xodimining o'z xizmat faoliyati bilan bog'liq tarzda unga tegishli mol-mulkni yo'q qilish yoki shikastlash oqibatida yetkazilgan zarar unga yoki uning oila a'zolariga to'laligicha qoplanadi.

### 13.5. O'zbekistonda prokuratura organlari tashkil topishi va rivojlanishi

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishiga qadar Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari kabi feodal davlatlarda prokuratura va shu kabi organlar mavjud emas edi. Gap shundaki, shariat qonunlariga rioya etish ustidan maxsus organ tomonidan nazoratni amalga oshirish Qur'onda nazarda tutilmagan. Musulmon huquqi prokuror nazorati kabi institutni, umuman, nazarda tutmaydi.

Prokuror nazorati instituti 1867-yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik nizomning loyihasi bilan nazarda tutilgan edi. Biroq, o'sha paytda prokuratura maxsus organ sifatida hali tashkil etilmagan edi. Prokuror vakolatlarini ko'proq o'z tashabbusi bilan harbiy gubernatorlar oldi.

Turkiston o'lkasining uch mustaqil ma'muriy tuzilmasida (Sirdaryo viloyati, Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limi) uch «prokuror» mavjud bo'lgan: Sirdaryo viloyati gubernatori, Zarafshon okrugi boshlig'i va Amudaryo bo'limi boshlig'i. Bu mansabdor shaxslar ishlarning sudlovga taalluqliligini qayta ko'rib chiqishlari, ularni ma'muriy tartibda hal etishlari va o'z xohishiga binoan, tugatishlari mumkin edi.

1887-yilda adliya vaziri buyrug'i bilan Sirdaryo, Yangi Marg'ilon, Samarqand, Vernensk viloyati sudlari huzurida prokuraturalar tashkil etilgan edi. Ular ma'muriy tartibda Rossiya adliya vaziriga bo'ysunar edi.

Turkistonda chor prokuraturasi ma'muriy-hududiy prinsip bo'yicha tashkil etilgan edi. Okrug sudi huzuridagi prokuror sud palatasi prokuroriga bo'ysunar edi, u esa o'z navbatida — bevosita adliya vaziriga va unga hisobot berar edi. Barcha prokurorlar shoh tomonidan tayinlanar va ozod etilar edi<sup>1</sup>.

Turkistondagi prokuratura chor Rossiyasi prokuraturasining tarkibiy qismi bo'lib<sup>2</sup>, uning qonunlarini joriy etish va ularga rioya

---

<sup>1</sup> *М. Махбуов. Создание и развитие органов прокуратуры в Узбекистане. Автореф. дисс. на соискание ученой степени д.ю.н. Т., 1993, стр. 11.*

<sup>2</sup> Ta'kidlash joizki, Rossiya prokuraturasining tashkil etilishi Pyotr I tomonidan Rossiyada o'tkazilgan davlat islohotlari bilan bog'liq. Senat tashkil etilganidan so'ng, qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat qilishga ixtisoslashgan maxsus organ tashkil etilishining zarurati vujudga keldi. Dastlab bu fiskallar, keyinchalik — prokurorlar instituti bo'lgan. General-prokuror lavozimi Pyotr I farmoni bilan 1722-yilda joriy etildi. Uning zimmasiga Senat,

qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirgan. Prokuratura xodimlarining kam sonligi, mahalliy aholining tili va odatlarini bilmasligi, manfaat-larning bir-biriga mos kelmasligi prokuratura organlari va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilanishiga imkon bermasdi.

keyinchalik esa barcha boshqa davlat organlari faoliyatining qonuniyligi ustidan nazorat qilish bo'yicha vazifa yuklatilgan edi. Qonun buzilishi aniqlangan taq-dirda u xatoni bartaraf etishni taklif etishga majbur edi, bo'ysunmaslik hollarida esa u protest bildirishga va qonun buzilishini bartaraf etishga haqli edi. Asta-sekin prokurorlar davlat xizmatida muhim o'rin egallay olishdi. Prokuror kor-pusi tashkil topilishi jarayoni boshlandi. Prokurorlarni general-gubernator taklifiga binoan Senat saylardi. Ular markaziy va mahalliy muassasalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirardi, aniqlangan kamchiliklar haqida general-gubernatorlarga axborot berishardi. Prokuror qonun buzilishini aniqlab, oldin uni bartaraf etishni og'zaki ravishda taklif qilardi, og'zaki farmoyishga bo'ysun-magan hollarda esa qonunni buzgan organga, keyinchalik esa tegishli hay'atga yoki Senatga yozma protestni berishga haqli edi. Noqonuniy hujjat ustidan pro-  
test bildirilgan holda uning amal qilishi to'xtatilardi. Agar qonun buzilgan hol-lar haqida ma'lumotlar yuqori turuvchi prokurorga kelib tushgan bo'lsa, u ishni tez va to'g'ri ko'rib chiqish bo'yicha choralar ko'rishga majbur edi.

Taxminan shu vaqtda markaziy prokuraturadan tashqari, guberniya proku-raturasi ham tashkil etilgan edi, mazkur prokuratura tashkil etilishiga provin-sial sudlarning prokurorlari asos solishdi. Biroq, Adliya vazirligi tashkil etilishi (1802-y.) bilan adliya vaziri bir vaqtning o'zida general-prokuror lavozimini ham egallashni boshladi, guberniya prokuraturasi esa mahalliy adliya organiga aylanishni boshladi. Prokuratura tashkil etilishi va faoliyati to'g'risida yagona qonunchilik yo'qligi ma'lum darajada ushbu vaziyatga imkon yaratdi. 1864-yilda prokuraturaga «sud joylari huzurida» nazoratni amalga oshirish bo'yicha va-kolatlar taqdim etildi. 1864-yil 20-noyabrdagi sud qoidalarining ta'sis etilishi bilan sudlarda prokuror nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlar general-prokuror bo'lgan adliya vazirining oliy kuzatuv ostida bo'lgan ober-prokuror-lar, prokurorlar va ularning o'rtog'lariga (yordamchilariga) taqdim etildi. Shu vaqtda iyerarxiya intizomiga asoslangan, yakkabosh va mahalliy, ma'muriy va sud organlaridan mustaqil institut bo'lgan prokuratura tashkil etilishining asoslari yaratildi. Ushbu ko'rinishda prokuratura 1917-yilgacha o'z faoliyatini yuritgan. 1917-yil 20-dekabrda sud to'g'risidagi 1-Dekret bilan prokuratura be-  
kor qilindi. Uning faoliyati to'rt yildan ortiq davr ichida tiklanmagan edi. Keyin esa sovet davlatining besh yillik tajribasi qonuniylikka rioya etilishi us-tidan nazoratni amalga oshiradigan mustaqil organ bo'lgan prokuratura tashkil etilishining zarurati haqida fikr tug'dirdi. Shu asnoda, boshqaruvning har bir sohasida tashkil etilgan nazorat qonuniylikning yetarli kafolatlarini yarat-masdi, chunki u idoraviy tusga ega bo'lgan. Qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat viloyat ijroqo'mlarining adliya bo'limlariga va ijroqo'mlarning uyez-diga yuklatilgan bo'lib, uncha samarali bo'lmagan. Davlat o'z oldida qonunlar-ning to'g'ri ijro etilishi ustidan nazoratni takomillashtirish vazifasini qo'ygan edi, chunki shu vaqtga qadar mavjud bo'lgan qonuniylikni ta'minlash tizimi o'zini oqlamadi, u qonuniylik uchun maqsadli kurashni ta'minlay olmagan edi. Markaziy hokimiyat nomidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazo-ratni yagona usullar orqali amalga oshira oladigan va mahalliy ta'sirlardan mustaqil bo'lgan maxsus organ tashkil etilishi zarurati tug'ildi.

1922-yilning boshida Turkiston ASSR davlat prokuraturasi to'g'risidagi dekret loyihasi ustidan ish boshlandi. 1922-yil 9-mayda Turk Respublikasining MIQ va XNK Turkiston ASSR davlat prokuraturasi to'g'risida nizomni tasdiqladi<sup>1</sup>, 1922-yil 3-iyunda u qonuniy kuchga kirdi<sup>2</sup>. 1922-yilning iyun oyi boshlarida Turkiston ASSRda prokuratura ham markazda, ham joylarda tashkiliy jihatdan shakllandi. Aynan mana shu paytdan boshlab, Turkistonda prokuraturaning tashkil topishi boshlanadi<sup>3</sup>.

Turkistonda prokuraturaning ta'sis etilishi, umuman olganda, yangi davlat funksiyasi paydo bo'lganligini va mazkur hududda davlat faoliyatining yangi shakli tashkil topganligini anglatar edi. Umumiy nazoratdan tashqari prokuratura organlari zimmasiga har qanday mansabdor shaxs ustidan o'z tashabbusi bilan yoki bu shaxslar ustidan kelib tushgan shikoyat va arizalar asosida jinoyat ishi qo'zg'atish, ularni ushlab turish yuklatilgan. Nizomga ko'ra, prokuraturaga boshchilikni adliya xalq noziri amalga oshirgan, uning o'zi Turk Respublika prokurori. Davlat prokuraturasi bo'limiga adliya xalq noziri o'rinbosari mudirlik qilgan.

1922-yil 1-avgustdagi Turkiston ASSR MIQ qarori bilan respublika hududida RSFSR Jinoyat protsessual kodeksi amalga kiritildi. Unda prokuror funksiyalari ham belgilangan bo'lib, ularga jinoyatlarni tergov qilish ustidan nazorat qilish bo'yicha juda katta vakolatlar berilgan edi.

1922-yil 21-noyabrdagi Umumbuxoro MIQ (Markaziy Ijroiya Qo'mitasi) qarori bilan Umumbuxoro MIQ Oliy nazorati bo'linmasi sifatida prokuratura tashkil etilgan edi<sup>4</sup>. Mazkur qaror qabul qilinishi bilan amalda 1922-yilning noyabridan faoliyat ko'rsatayotgan BXSР (Buxoro Xalq Sotsialistik Respublikasi) prokuraturasining yuridik jihatdan huquqiy maqomi belgilandi.

1923-yildagi Adliya xalq nozirliги to'g'risidagi nizomga ko'ra, Adliya xalq noziri bir vaqtning o'zida respublika prokurori ham edi va shu munosabat bilan unga juda katta vakolatlar berildi. Prokuror nazorati BXSР Adliya xalq nozirligining davlat prokuraturasi bo'limi orqali amalga oshirilardi. Bo'limga BXSР prokurori

---

<sup>1</sup> Известия ТуркЦИК, 3 июня 1922 года.

<sup>2</sup> ЦГА Республики Узбекистан. Ф. 25, оп. 1. Д. 19-а. Л. 161.

<sup>3</sup> М. Махбубов. Создание и развитие органов прокуратуры в Узбекистане. Автореф. дисс. на соискание ученой степени д.ю.н. Т., 1993, стр. 6.

<sup>4</sup> ЦГА Республики Узбекистан. Ф. 64, оп. 1. Д. 96. Л. 3.



yordamchisi bo'lgan mudir rahbarlik qilib, u respublika prokurori tomonidan tayinlanar va lavozimidan ozod etilar edi.

1924-yil 24-sentabrda XXSR MIQ qarori bilan Adliya xalq nozirligi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi<sup>1</sup>. Nizomga ko'ra, Adliya nozirligiga nozir, bir vaqtning o'zida XXSR davlat prokurori rahbarlik qiladi, uning zimmasiga respublikada qonuniylik ustidan umumiy nazorat amalga oshirish yuklatilgan edi. Bevosita prokuror nazoratini Adliya nozirligi prokuratura bo'limi orqali amalga oshirar edi, uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi: davlat nomidan barcha hokimiyat organlari, xo'jalik muassasalari, jamoat va xususiy muassasalar harakatlari qonuniyligi ustidan aybdorlarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish hamda noqonuniy qarorlar ustidan protest bildirish yo'li bilan nazoratni amalga oshirish; jinoyatlarni ochish borasida tergov va surishtiruv organlari, shuningdek, davlat siyosiy boshqarmalari faoliyatini bevosita kuzatish, ozodlikdan mahrum etish joylari va axloq tuzatish muassasalarining to'g'ri faoliyat ko'rsatishini kuzatish; Oliy sudga nisbatan prokuror nazorati funksiyalarini amalga oshirish.

1926-yil 29-sentabrda O'zSSR MIQ tomonidan tasdiqlangan va 1927-yil 15-fevralda amalga kiritilgan O'zSSR sud tuzilishi to'g'risidagi nizom 1925-yildagi Adliya xalq nozirligi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha tarzda prokuraturaga qonun buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar ustidan intizomiy va ma'muriy ish yurituv qo'zg'atish huquqi berildi, shuningdek, uning zimmasiga jinoyat ishlari bo'yicha kassatsiya instansiyalarida xulosalar berish va jinoyat bilan kurash olib borayotgan barcha organlar faoliyati ustidan umumiy kuzatishni amalga oshirish majburiyatlarini yukladi.

O'zSSR prokurori bir vaqtning o'zida respublika Adliya xalq noziri bo'lganligi tufayli, respublika hukumati tarkibiga ham kirgan. Natijada respublika prokurori O'zSSR MIQ tomonidan tayinlanib, vazifasidan ozod etilishiga qaramay, adliya xalq noziri sifatida respublika Xalq Nozirlari Kengashiga hisobdor edi. Respublika prokurori qonuniylik ustidan nazorat funksiyasini boshqaruv funksiyasi bilan mujassamlashtirar va bu nazorat funksiyalarini amalga oshirishda salbiy ta'sir etardi.

1929-yil 27-yanvarda O'zSSR Adliya xalq nozirligi hay'ati AXN huzuridagi prokuratura bo'limi to'g'risidagi nizomni tasdiqladi. Nizomga ko'ra, O'zSSR hududida prokuratura organlari faoliyatiga

<sup>1</sup> ЦГА Республики Узбекистан. Ф. 71. оп. 1. Д. 144. Л. 66.

rahbarlik respublika prokuratura bo'limiga o'tdi, bo'limga endi xalq noziri emas, O'zSSR Adliya xalq noziri o'rinbosari rahbarlik qilardi, bir vaqtning o'zida u respublika prokurori ham edi.

1931-yil 23-sentabrda O'zSSR MIQ va XNK O'zSSR adliya xalq nozirliigi to'g'risida yangi nizomni tasdiqladi<sup>1</sup>. Unga ko'ra, prokuratura endi bo'lim emas, lavozimi bo'yicha Adliya xalq noziri o'rinbosari bo'lgan respublika prokurori tomonidan boshqariladigan AXN tarkibidagi mustaqil muassasa sifatida tashkil etildi. 1933-yil 10-iyulda Sobiq Ittifoq MIQ va XNKning «Ittifoq prokuraturasini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi prokuratura tarixida ulkan voqea bo'ldi. Sobiq Ittifoq MIQ va XNKning 1933-yil 17-dekabrda qarori bilan Ittifoq prokuraturasi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Shu bilan bir vaqtda Ittifoq Oliy sudi prokuraturasi tugatilishi amalga oshirildi. Nizomda Ittifoq prokuraturasi funksiyalari va ularni amalga oshirish tartibi, shuningdek, prokuror nazoratining yo'nalishlari belgilandi: umumiy nazorat; davlat siyosiy boshqarmalari va militsiya harakatlari to'g'riligi va qonuniyligi ustidan nazorat; dastlabki tergov ustidan nazorat; sud organlari tomonidan qonunlarni to'g'ri va bir xilda qo'llanilishi ustidan nazorat; axloqtuzatish muassasalari faoliyati to'g'riligi va qonuniyligi ustidan nazorat.

Prokuratura hayotining muayyan davri birinchi o'ringa jazolash muassasalari chiqishi, ularning ustuvorligi oliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tan olinganligi bilan bog'liq bo'lgan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati deformatsiyalangan davr bilan bog'liq. Faqat 50-yillarning o'rtalarida qonuniylikni mustahkamlash, davlat rivojlanishining huquqiy negizini yaratishga doir urinishlar bo'ldi.

Prokuratura rivojlanishi jarayonida navbatdagi muhim davr bo'lib, 1955-yil 24-mayda Ittifoqda prokuror nazorati to'g'risidagi nizomning qabul qilinishi hisoblanadi. Unda davlatda qonuniylikning o'rni va uni og'ishmay ta'minlashda prokuror nazorati organlarining roli to'g'risidagi fikrlar qonuniy tartibda belgilanib qo'yildi va keyinchalik o'z rivojini topdi. Nizomda prokurorlarning vazifalari, vakolatlari jinoyat va fuqarolik ish yurituvida aniqlangan qonun buzilish holatlariga prokuror ta'sir etish choralari belgilandi. Nizomning ko'pgina qoidalari keyinchalik jinoyat va fuqarolik ish yurituviga, axloq tuzatish qonunchiligiga kiritildi.

<sup>1</sup> ЦГА Республики Узбекистан. Оп. 9. Д. 153. Л. 169—173.

Harbiy prokuratura organlari ham qayta tashkil etilgan edi. Ularning tizimi va tuzilishi, harbiy prokurorlarning vakolatlari, ularning funksiyalari va hududiy prokurorlar faoliyati bilan o'zaro munosabati — bularning hammasi 1966-yil 14-dekabrda tasdiqlangan Harbiy prokuratura to'g'risidagi nizomda o'z aksini topgan. Unga ko'ra, harbiy prokuratura sovet prokuraturasi organlari tizimiga kirardi va Ittifoq Bosh prokuroriga bo'ysunardi.

Qonuniylik ustidan tegishli nazoratni ta'minlashga doir keyingi qadamlar 1977-yilda Konstitutsiya qabul qilinishi bilan bog'liq. Ittifoq prokuraturasi to'g'risidagi qonun ishlab chiqish haqidagi qaror ushbu qadamlardan biri edi. Bunday qonun o'ninchi chaqiriq Ittifoq Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi tomonidan 1979-yil 30-noyabrda qabul qilindi. Unda sovet prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari hamda yo'nalishlari o'z ifodasini topgan va huquqiy tartibga solingan edi.

Prokuror nazorati ma'muriy-buyruqbozlik tizimining bo'lagi sifatida 1980—1990-yillardagi avtoritar rejim o'tkazuvchisi bo'ldi. Iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va tashkiliy dastaklar ishlashi kerak bo'lgan joylarda zo'rlik choralari ishlatish maqsadida prokuratura qo'llanar edi. Bunday amaliyot ko'pchilik idoralar sovet va nazorat organlari qonuniylik va intizomga rioya qilish ustidan nazoratning mukammalligi va samaraliligini ta'minlamasligiga, prokuror va jinoiy-huquqiy ta'sir choralariga tayangan holda ularga taqdim etilgan huquqlarni to'la ishlatmasligiga olib keldi.

O'zbekiston prokuraturasining yangi maqomiga suverenitet g'oyalari asosida 1991-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonuni va 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi asos solib berdi.

Prokuratura organlarini isloh qilish uning faoliyatini demokratizatsiyalashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ustuvorliklarni aniqlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonun bilan qo'riqlanadigan jamiyat va davlat manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishga qaratilgan.

Totalitar rejim davrida prokuratura organlari partiya elitasi qo'lida qo'rqitish vositasi va quroli bo'lgan. Uning faoliyati inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga emas, aksincha, sotsialistik

tuzum va sotsialistik mulkni himoya qilganda, prokuratura oddiy odamlarning kundalik huquqlarini buzgan. 1992-yil 9-dekabrda «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bilan prokuraturani demokratizatsiyalashtirish va uning faoliyatini O'zbekistonning davlat mustaqilligi manfaatlariga, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishga bo'ysundirish maqsadlarida prokuratura organlarini isloh qilish jarayoni boshlandi.

Nisbatan qisqa muddat davrida O'zbekiston o'z ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida sezilarli natijalarga erishdi. Mamlakatda mulkchilikning turli shakllari paydo bo'ldi, yangi iqtisodiy munosabatlar yuzaga keldi, shaxs huquqlarining kafolatlangan himoyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Biroq, qonunlarga rioya etish ustidan nazorat borasidagi prokuratura organlari faoliyati ko'pincha jazolash xarakteriga ega bo'lib, o'zining ijobiy rolini yo'qotardi. Prokurorlar faoliyatida uchrab turadigan qonunlarni erkin talqin etish holatlari ham xavotirlanishga sabab bo'lar edi. Barcha mazkur omillar 2001-yil 29-avgustda prokuratura vakolatlari doirasi, uning faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va prokuratura organlari vazifalarini aniqlab bergan O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilinishi belgilab berdi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Ushbu mavzuni o'rganishda O'zbekistonda prokuror nazoratining hozirgi holati uzoq tarixiy rivojlanish va davlatda olib boriladigan sud-huquq islohoti natijasi ekanligini yodda tutish kerak. Prokuror nazoratining institutsional asoslarini chuqurroq anglab yetish uchun talabalar uning mohiyatini belgilab beradigan xususiyatlarini o'rganishlari lozim, bu esa prokuror nazoratini boshqa davlat nazorati turlari majmuyidan ajratish imkonini beradi. Prokuratura organlari tizimi tahlili chog'ida hududiy prokuratura organlari tuzilishini o'rganish bilan bir qatorda, ixtisoslashgan prokuraturalarni tashkil etishga ham e'tibor qaratish kerak. Shuningdek, talabalar butun prokuratura organlariga rahbarlik qiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tuzilishi va vakolatlarini ham batafsil tahlil qilishlari lozim.*

*Alohida e'tibor O'zbekistonda prokuratura organlari tashkil topishi va rivojlanishi masalalariga qaratish lozim, bu esa prokuraturaning roli, mohiyati va huquqni muhofaza qilish organlari tizimidagi o'rnini anglab yetish imkonini beradi.*



## NAZORAT SAVOLLARI

---

1. Huquqni muhofaza qilish faoliyati turi sifatida prokuror nazorati tushunchasini tavsiflab bering.
2. Prokuror nazoratini boshqa nazorat turlaridan ajratib turadigan belgilarini ayting.
3. Prokuror nazorati kim nomidan amalga oshiriladi?
4. Prokuror nazorati qaysi hududga tatbiq etiladi?
5. Prokuror nazorati qaysi subyektlarga nisbatan amalga oshiriladi?
6. Qonun buzilishiga prokuror ta'sir etish shakllarining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
7. Prokuratura organi qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish funksiyasidan tashqari boshqa funksiyalarni amalga oshiradimi?
8. Prokuror qabul qilinayotgan qaror va harakatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradimi?
9. Prokuratura vazifalarini ayting va ularni tavsiflang.
10. Prokuratura organlari vazifalari odil sudlov organlari hamda boshqa huquqni muhofaza qilish organlari vazifalari bilan qanday kelishadi?
11. Prokuratura faoliyatini tashkil etish prinsiplarini ayting.
12. Prokuratura organlari rivojlanishining asosiy bosqichlarini tavsiflab bering.
13. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimiga qaysi prokuraturalar kiradi?
14. Prokuror nazorati yo'nalishlariga ta'rif bering va ularni bayon eting.
15. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi funksiyalari to'g'risida gapiring.
16. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qanday huquqiy maqomga ega?
17. Prokuratura organlari xodimlari hamda prokuror va tergovchi lavozimlariga nomzodlarga qo'yiladigan talablarni sanab o'ting.
18. Prokuratura organlari xodimlarining huquqiy, moddiy va ijtimoiy ta'minoti haqida nimalarni bilasiz?
19. Prokuratura organlari xodimlarini rag'batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi nimalardan iborat?
20. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi hay'ati qanday tarkibga va vakolatlarga ega?
21. Quyidagilar kim tomonidan lavozimga tayinlanadi: a) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori; b) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari; d) O'zbekiston Respublikasi harbiy prokurori va uning o'rinbosarlari; e) quyi turuvchi prokurorlar va ularning o'rinbosarlari; f) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi markaziy apparati va quyi prokuraturalarning boshqa xodimlari.

22. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining prokuratura organlariga rahbarlik qilish borasidagi vakolatlarini tavsiflang.
23. Prokurorlar, tergovchilar, prokuratura organlarining boshqa xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortishning asoslari va tartibini bilasizmi?
24. Prokuratura organlari xodimlari uchun qanday daraja unvonlari belgilangan?
25. Daraja unvonlarini berish (shu jumladan, muddatidan oldin), pasaytirish va mahrum etish tartibi qanday?

### *MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR*

1. Xorijiy davlatlardagi prokuraturalarning asosiy modellarini o'rganing va qiyosiy-huquqiy tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
2. «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning eski va yangi tahririni taqqoslang va amaldagi qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating. Ish shakli — *referat*.
3. Prokuratura organlarida lavozimga tayinlanadigan shaxslarga qo'yiladigan talablarni tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
4. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyati prinsiplariga tavsif bering. Ish shakli — *referat*.

### **Axborot uslubiy ta'minot**

1. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995-yil 23-fevral.) Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T., «O'zbekiston», 1996.

2. *I.A. Karimov*. Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir. (Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashi sessiyasida so'zlangan nutq, 1996-yil 16-mart.) Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. T., «O'zbekiston», 1996.

3. *I.A. Karimov*. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. T., «O'zbekiston», 2002.

4. *I.A. Karimov*. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2005-yil 28-yanvar.) O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. T., «O'zbekiston», 2005.

5. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

6. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

### Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda «Prokuratura to'g'risida»gi 746-XII sonli Qonuni (yangi tahrir). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 168-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 257-II sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 168-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 23-dekabrda «Amnistiya aktini qo'llash tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-193-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. T., 2008, № 12, 636-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

6. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari to'g'risida»gi PF-313-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 30-martda «O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasini tashkil etish to'g'risida»gi PF-2277-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustda «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi PF-3644-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 32—33, 242-modda.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-aprelda «Moliya-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoyatlarga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni kuchaytirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-331-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 18, 147-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-727-sonli Qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 24-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 33-sonli qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagi «Iqtisodiyot va soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 291-sonli qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tuzilmasida sudlar tomonidan xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda prokurorning vakolatlarini ta'minlash bo'limini tashkil etish to'g'risida»gi 320-sonli qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

16. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2007-yil 20-noyabrdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash yuzasidan prokuror nazoratini kuchaytirish to'g'risida»gi 69-buyrug'i. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

17. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi «Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-apreldagi PQ-331-sonli Qaroriga 1-ilova). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

18. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi «Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamentida xizmatni o'tash to'g'risida»gi Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagi 291-sonli qaroriga 6-ilova). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

19. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining xodimlarini rag'batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 30-avgustdagi 282-I sonli qarori bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 1996, № 9, 145-modda.

20. O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi idoralari xodimlarining darajali maxsus unvonlari to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabdagi 748-XII sonli qarori bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T., 1993, № 1, 31-modda



## Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev.* «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan oʻquv-uslubiy qoʻllanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.
2. *J.H. Abdurahmonxoʻjayev.* Inson huquqlarini himoya qilishda — xalqaro va milliy qonunchilik normalarining amal qilishi. Risola. T., TDYI, 2008.
3. *O. Madaliyev.* Sudda ayblov xulosasini prokuror tomonidan oʻqib eshittirish. TDYI axborotnomasi. 2011, № 1.
4. *M. Maxbubov.* Создание и развитие органов прокуратуры в Узбекистане. Автореферат на соискание ученой степени докт. юр. наук. T., 1993.
5. Прокуратура в странах СНГ: правовой статус, функции, полномочия. Научное и учебное пособие. Под общ. и научн. ред. проф. С.П. Щербы. М., «Экзамен», 2007.
6. *M.H. Rustamboyev.* Oʻzbekiston Respublikasida Konstitutsiya va prokuratura. Risola. T., TDYI, 2005.
7. *M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtashева.* Sud hokimiyati va Oʻzbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.
8. *S. Saidjonova.* Prokurorning protsessual holati. «Hayot va qonun» jurnali, 2001, № 2—3.
9. *U.A. Tuxtashева, Л.Г. Тон, М.И. Базарова.* Органы прокуратуры зарубежных стран. Учебное пособие. T., ТГЮИ, 2009.
10. *U.A. Tuxtashева.* Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi: tushunchasi va qoʻllash tartibi. Amaliy qoʻllanma. T., TDYI, 2007.

## 14-bob. JINOYATLARNI ANIQLASH VA TERGOV QILISH

### **O'quv maqsadlari**

*Mazkur mavzuning o'rganilishi huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish; surishtiruv va dastlabki tergov organlari oldida turgan vazifalarni tushunib olishga qaratilgan. Talabalar jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish funksiyasini qaysi organlar amalga oshirishini, ular qanday vakolatlarga egaligini; dastlabki tergov va surishtiruv o'rtasidagi o'zaro munosabatlar; shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergov organlari rivojlanishi, bosqichlarini anglab olishlari kerak. Dastlabki tergov organlari funksiyalari va vakolatlarini tahlil qilganda, talabalar tergovchining huquqiy maqomi haqida uning vakolatlari doirasida aniq tasavvur hosil qilishlari kerak.*

### **14.1. Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish tushunchasi**

Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish huquqni muhofaza qilish faoliyatining yo'nalishlaridan (funksiyalaridan) biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish nimalardan iborat va u qanday xususiyatlar bilan tavsiflanadi? Ushbu tushunchani batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Hozirgi vaqtda har bir jamiyatning eng qiyin ijtimoiy muammolaridan biri, bu — jinoyatchilik. Jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari ham o'ta qiyin muammo hisoblanadi. Jamiyat va fuqarolarni jinoyiy tajovuzlardan himoya qilish huquqni muhofaza qilish organlarining muhim va mas'uliyatli burchini tashkil qiladi. Prezident I.A. Karimov aytganidek, «qonunchilikni yanada mustahkamlash, qonunbuzarlikning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, umuman, hozirgi iqtisodiy islohotlar davrida qonun ustuvorligini ta'minlash har bir mutasaddi rahbar va, ayniqsa, huquq-tartibot idoralarining dolzarb vazifasi

bo'lib qolishi kerak»<sup>1</sup>. Mazkur vazifa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalaridan (19-, 20-moddalar) kelib chiqadi, ularga ko'ra:

1) fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas;

2) fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda shubhasiz jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish kabi faoliyatga muhim ahamiyat beriladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi javobgarligini belgilar ekan, davlat huquqni muhofaza qilish organlari timsolida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jinoyatlarni aniqlash, tergovni amalga oshirish, jinoyat sodir etishda aybdor shaxslarni fosh etish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Mazkur faoliyat bevosita O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida o'z huquqiy tartibotini topgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 2-moddasiga binoan, jinoyat protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir. Bu jinoyat protsessual qonun hujjatlari bilan belgilangan tartib qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qaratilishi lozimligini anglatadi.

Bunda jinoyat protsessining «jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berish» vazifasi faqat jinoyat aniqlanganidan keyin amalga oshirilishi mumkin. Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jinoyat protsessining maqsadi bo'lmish haqiqatni aniqlash (jinoyatni ochish)ga imkon beradigan dalillarni to'plashga (tergov harakatlarni amalga oshirish) qaratilgan protsessual harakatlarni (JPK bilan belgilangan) yuritish orqali amalga oshiriladi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir. (Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashi sessiyasida so'zlangan nutq, 1996-yil 16-mart.) Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. T., «O'zbekiston», 1996, 285-bet.

Aytish kerakki, jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish tushunchalari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiluvchi tushunchalardir. Ularni bir-biridan ajratish biroz qiyinchilik tug'diradi. Ko'pincha bir jinoyat tergov davomida boshqa jinoyat sodir etilishi aniqlanadi; jinoyatlarni aniqlashning o'zi ham huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan tergovni tashkil etadigan tegishli harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq.

**Jinoyatni aniqlash** — bu jinoyat belgilarini o'zida mujassam etgan aybli ijtimoiy xavfli qilmishni (harakat yoki harakatsizlik), ya'ni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoiy deb ta'riflangan (kvalifikatsiya qilingan) qilmishni aniqlashni (topish, qayd qilish va h.k.) anglatadi.

Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi. Odatda, u haqida jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslar yoki sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar haqida ma'lumotga ega bo'lgan boshqa shaxslar arizalaridan, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat uyushmalari va mansabdor shaxslar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bergan xabarlardan ma'lum bo'ladi.

Jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumot va izlar bevosita surishtiruv organlari, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan aniqlanishi mumkin. Ayrim hollarda ijtimoiy-xavfli qilmish sodir etgan shaxsning o'zi aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz bilan murojaat qilishi mumkin.

Barcha mazkur ma'lumotlar qonun bilan belgilangan tartibda qayd etilishi va tekshirilishi lozim. Faqat sodir etilgan jinoyat haqida ishonchli dalillar aniqlangandan keyin, bu jinoyat aniqlangan hisoblanadi.

Sodir etilganligi ehtimoli bo'lgan jinoyat haqida birlamchi ma'lumotlarni tekshirish jinoyatlarni ochish va tergov qilishning zaruriy boshlang'ich elementi hisoblanadi. Jinoyat haqidagi birlamchi ma'lumotlarni o'z vaqtida va sifatli tekshirilishi jinoyat ishini qo'zg'atishning asosligiga; dastlabki kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarining o'z vaqtida to'raligicha amalga oshirilishiga va, albatta, jinoyatni ochish va aybdorni fosh etishga qaratilgan tergovning muvaffaqiyatiga ta'sir etadi.

Jinoyatni ochish, javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash maqsadida aybdorlarni fosh etish hamda bir vaqtning o'zida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish — bu dastlabki tergovning asosiy va ustuvor vazifalaridir.

Jinoyatchilikka qarshi kurashning kuchaytirilishi faqat inson huquqlariga rioya qilish sharoitida mumkindir. Inson huquqlari to'g'risida g'amxo'rlik jinoyatchilik qarshi kurashish ahamiyatini kamsitmaydi, chunki mazkur kurashning maqsadi fuqarolik jamiyati va insonni jinoiy tajovuzlardan himoya qilishdan iborat bo'ladi.

## 14.2. Dastlabki tergov tushunchasi va vazifalari

**Dastlabki tergov** — bu jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni fosh etish, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarini aniqlashga qaratilgan protsessual qonunchilikka qat'iy rioya qilgan holda tegishli vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxslar, ya'ni tergovchilar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Mazkur faoliyat prokuratura, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmati organlari tergovchilari tomonidan amalga oshiriladi (JPKning 344-moddasi). Prokuror va tergovchidan tashqari hech qanday boshqa muassasalar yoki shaxslar dastlabki tergov faoliyatini amalga oshirishi mumkin emas.

### ● Yodda saqlang! ●

O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 121-moddasi 1-qismi.)*

Dastlabki tergovni amalga oshirishdan **maqsad** quyidagi natijalarga erishish hisoblanadi:

- jinoyatni ochish;
- aybdorni fosh etish va aybsizni rehabilitatsiya qilish;
- sud muhokamasini o'tkazish uchun yetarli bo'ladigan dalilni bazani shakllantirish;
- ayblanuvchining sudda shaxsiy ishtirokini ta'minlash;
- jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida qabul qilinishi mumkin bo'lgan sudning qarorini ijro etilishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish.

Bu maqsadlarga quyidagi **vazifalarni** bajarish orqali erishiladi:

- dalillarni izlash, to'plash va tekshirish;

- zarur hollarda protsessual majburlov choralarini qo'llash, ayblanuvchining himoyaga bo'lgan huquqini ta'minlash;
- jinoyat ishini sudga o'tkazish yoki jinoyat ishini tugatish.

**Dastlabki tergovni amalga oshirilishining majburiyligi** — dastlabki tergovning umumiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, aytish kerakki, jinoyat protsessual qonunchiligining rivojlanish tarixi shunday davrlarni o'z ichiga oladiki, ularda dastlabki tergov barcha jinoyat ishlari bo'yicha majburiy emas edi. Ba'zan jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish surishtiruv bilan cheklanar edi. Amaldagi Jinoyat protsessual kodeksi bo'yicha barcha jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilishi shart. Biroq, aytish kerakki, jabrlanuvchi (fuqarolik da'vogari) yoki uning vakili tomonidan JPKning 583-moddasiga asosan, yarashuv to'g'risida ariza berilgan bo'lsa, bu hollarda dastlabki tergov amalga oshirilmaydi. Bunday arizada yetkazilgan zararni qoplash va yarashuv munosabati bilan jinoyat ishini yuritishni tugatish haqida iltimos ko'rsatiladi. Bu hollarda surishtiruvchi, tergovchi, gumon qilinuvchining (ayblanuvchining) roziligi asosida yetti sutka ichida ishni sudga jo'natish to'g'risida qaror chiqaradi.

**Tergovga tegishlilik.** Oldin aytib o'tganimizdek, dastlabki tergov prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlari, shuningdek, prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi. E'tiborga olish kerakki, dastlabki tergov amalga oshiriladigan ishlarni taqsimlash jarayoni tartibsiz amalga oshirilmaydi. Bu masala qoidalari JPKda belgilangan tergovga tegishlilik instituti bilan tartibga solinadi.

**Tergovga tegishlilik** deganda, jinoyat ishining shunday belgilari majmuyiga aytiladiki, ularga qarab qonun muayyan ishlarni tergov qilishni u yoki bu dastlabki tergov yoki surishtiruv organi vakolatiga beradi.

Tergovga tegishlilikni aniqlaydigan belgilarga quyidagilar kiradi: jinoyatlar toifasi va ularning turi (predmet belgisi); jinoyat sodir etish joyi (hududiy belgi); jinoyat subyekti (shaxs belgisi). Tergovga tegishlilik haqidagi qoidalar JPKning 345—346-moddalarida mavjud.

*Predmet belgisi* tergovga tegishlilikni sodir etilgan jinoyatning tarkibiga qarab aniqlaydi. Mazkur belgi bo'yicha jinoyat ishlarining prokuratura, ichki ishlar va MXX tergovchilari tergovga tegishliliigi aniqlanadi.

Prokuratura tergovchilari eng xavfli bo'lgan shaxsga qarshi jinoyatlarni tergov qiladi: odam o'ldirish, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar; ekologiya sohasidagi jinoyatlar, davlat hokimiyatiga qarshi jinoyatlar, odil sudlovga qarshi jinoyatlar, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar.

Ichki ishlar organlari tergovchilari bosqinchilik, talonchilik jinoyatlari, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar, ayrim iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi.

MXX tergovchilari — davlatga xoinlik qilish, josuslik, kontra-banda, qo'poruvchilik, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish va boshqa ishlar bo'yicha tergov olib boradilar.

Tergovga tegishlilikning *shaxs belgisi* jinoyat subyekti bilan bog'liq. U harbiy xizmatchilarning, shuningdek, prokurorlar va prokuratura organlari tergovchilarining jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha tergovga tegishlilikni aniqlash uchun qo'llaniladi.

*Hududiy belgi* jinoyat sodir etilgan joyi bo'yicha tergovga tegishlilikni aniqlaydi. Lekin jinoyatni tez, to'la va xolisona tergov qilish uchun u jinoyat aniqlangan joy bo'yicha yoki ayblanuvchi, gumon qilinuvchi turgan joyi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Mazkur belgi ilgari aytilgan barcha belgilar bilan uyg'unlanishi mumkin.

Shunday qilib, har bir jinoyat ishining tergovga tegishliliği predmet va hududiy belgilar yoki shaxs va hududiy belgilar majmuyi bilan aniqlanadi.

Tergovchi ish uning tergoviga tegishli emasligini aniqlab, barcha kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirishi va ishni tergovga tegishliliği bo'yicha yuborish uchun prokurorga berishga majbur. Jinoyat sodir etish joyi belgisi bo'yicha tergovga tegishliliği masalasi tergov boshlangan tuman prokurori tomonidan hal etiladi.

Dastlabki tergov tizimini (surishtiruv va dastlabki tergov) bir necha bosqichga bo'lgan holda tavsiflash mumkin. Birinchi bosqich *umumiy tergov* deb nomlanandi. Bu bosqichda hodisa aniqlanishi fakti bo'yicha (ayblanuvchi bor-yo'qligidan qat'i nazar) tergov amalga oshiriladi. Keyin *umumlashtirilgan tergov* deb nomlangan ikkinchi bosqich boshlanadi. Bu bosqich davrida ayblanuvchi aniqlangan bo'ladi va dastlabki ayblov e'lon qilish boshlanadi. Dastlabki tergovning uchinchi, oxirgi bosqichi *maxsus tergov* deb nomlanadi. Bunday nomlanish quyidagilar bilan shartlangan: oldingi bosqichlarda jinoyat ishida muayyan shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb etish (ayblov e'lon qilish) amalga oshirilgan va

endi bu bosqichda yakuniy ayblovni aniqlashga qaratilgan muayyan ayblanuvchiga nisbatan tergov amalga oshiriladi. Dastlabki tergov, nafaqat, ayblov xulosasini tuzgan holda ishni sudga yuborish bilan, balki jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror bilan yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi qaror bilan tugallanishi mumkin (JPKning 372-moddasi).

Umumlashtirgan holda aytish mumkinki, dastlabki tergov — bu sudgacha ish yuritishning bir qismi bo'lib, ish holatlari bo'yicha uning xulosalari sud uchun dastlabki xarakterga ega bo'ladi va ular sud tomonidan dalillarni bevosita o'rganish sharoitida, taraflarning teng huquqliligi va o'zaro tortishuvi asosida tekshirilishi lozim bo'ladi.

### **14.3. Dastlabki tergov va surishtiruv. Ularning o'zaro munosabati**

«Dastlabki tergov» va «surishtiruv» tushunchalarini o'zaro aloqadorligida ko'rib chiqilishi lozim. Bu ikki faoliyat ham sudga qadar ish yuritishning qismini — jinoyat protsessining yaxlit bosqichini tashkil etishi bilan shartlangan.

**Dastlabki tergov va surishtiruv** — bu jinoyat protsessining bir bosqichi bo'lib, uning mohiyati prokuror nazorati ostida amalga oshiriladigan surishtiruv va dastlabki tergov organlarining jinoyat hodisasi bor-yo'qligini, uni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar turi va miqdorini aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, mustahkamlash va o'rganishga qaratilgan faoliyatida namoyon bo'ladi. Ba'zan mazkur bosqichni faqat dastlabki tergov bosqichi deb nomlashadi. «Dastlabki tergov» atamasi jinoyat protsessi bosqichi sifatida surishtiruv va dastlabki tergovni o'z ichiga oladi.

Dastlabki tergov davomida dalillar to'planadi va jinoyat sodir etilishi, yetkazilgan zarar turi va miqdori, qilmishning jinoyat-huquqiy kvalifikatsiyasi haqida tergov versiyasi shakllantiriladi. Tugallangan sudga qadar ish yuritish bo'yicha tergov xulosalarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular sud uchun majburiy hisoblanmaydi. Ya'ni bu faqat tergov versiyasi, xolos va unga baho sud muhokamasi davomida sud tomonidan beriladi.

Dastlabki tergov davomida ayblov xulosasi tuzish shaklida ifodaladigan ayblov shakllanadi. Yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, ish yuritishni tugatish haqidagi masala hal etiladi yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masala hal etiladi.



Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichining ahamiyati shundan iboratki, bu bosqichda tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish natijasida jinoyat ishi qo'zg'atilishining qonuniyligi yoki xatoligi aniqlanadi. Shuningdek, bu jinoyat protsessual qonunchiligi majburiy bo'lgan usul va vositalarga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi jinoyat ishi qo'zg'atilishining qonuniyligini tekshirish imkonini berishi bilan ham ta'minlanadi. Dastlabki tergovning qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuror ham ancha vakolatlarga ega. Bundan tashqari, jinoyat protsessi ishtirokchilariga mazkur bosqichda qonun bilan belgilangan talablar buzilishi yoki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari poymol etilishi holatlarida sudgacha bo'lgan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar harakatlari ustidan tegishli vakolatli mansabdor shaxsga shikoyat qilish huquqi berilgan.

Surishtiruv va dastlabki tergov yaxlit bosqichni tashkil etishiga qaramasdan, surishtiruv va dastlabki tergov davomida paydo bo'ladigan huquqiy munosabatlarni yaxshiroq anglash uchun ularning protsessual shakli bir-biridan alohida ko'rib chiqiladi. Bu surishtiruv dastlabki tergovning birinchi bosqichi bo'lib, u o'n sutkadan (JPKning 341-moddasi) oshmagan muddatda jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik; dalillarni to'plash va saqlash; jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish; jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritishdan iboratligi (JPKning 339-moddasi) bilan shartlangan. Ya'ni surishtiruv vazifalari uni amalga oshirilishini kechiktirib bo'lmaydigan xarakterini ifodalaydi. Bundan tashqari, birlamchi materiallarni tekshirish uchun vositalar taqdim etish maqsadida qonun jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin ushlab turish, ekspertiza va hodisa joyini ko'zdan kechirishni amalga oshirishga yo'l qo'yadi. Ya'ni tergov oldi tekshiruv amalga oshiriladi va ko'pincha yangilishib, uni surishtiruv deb tushunishadi.

**Surishtiruv tushunchasi, vazifalari va jinoyat ishlarini tergov qilishda uning ahamiyati.** Deyarli barcha jinoyat ishlari boshidanoq tergovchi tomonidan tergov qilinadi. Lekin ba'zan bu ishlarda dastlabki tergovdan oldin surishtiruv amalga oshiriladi.

Ko'p hollarda surishtiruv organlari birinchi bo'lib, sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko'rilayotgan jinoyatlar haqida xabarlar, shikoyat va arizalar olishadi va tergovga kirishadi. Bu hollarda surishti-

ruv organlari faoliyati dalillarni aniqlash, to'plash va mustahkamlash, jinoyat sodir etish joyi vaziyatini saqlash yoki jinoyatchini aniqlash, qidirish va ushlash, tayyorgarlik ko'rilayotgan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan bo'ladi. Surishtiruv organlarining bunday faoliyati muvaffaqiyatiga ularning harakatchanligi, tezkor harakatlari va moddiy-texnik jihatdan yaxshi jihozlanganligi imkon beradi. Shu sababli, surishtiruvning ahamiyati ancha katta va deyarli har doim u bilan jinoyat ishlari tergov boshlanadi. Surishtiruv protsessual qonunchilik bilan belgilangan tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda surishtiruv tushunchasiga ta'rif berilmagan. Surishtiruv tushunchasi haqidagi masalada protsessual adabiyotlarda yagona fikr yo'q. Yaqin vaqtlarga qadar ko'pchilik protsessualistlar surishtiruvning asosiy xususiyati sifatida uning mudatlilik va kechiktirib bo'lmazligini ko'rsatar edilar. Shuningdek, surishtiruv borasidagi harakatlar jinoyatni tergov qilishning boshlang'ich davrida amalga oshirilishi ham aytib o'tilgan. Bir qator olimlar surishtiruvni tergovning dastlabki va sodda shakli sifatida ta'riflagan. Boshqalar esa surishtiruvning jinoyat hodisasini va uning moddiy izlarini aniqlash bo'yicha dastlabki faoliyat deb belgilaganlar<sup>1</sup>. Surishtiruvning asosiy xislati — jinoyatni ochish va aybdor shaxsni aniqlashga qaratilgan harakatlarning kechiktirib bo'lmazligi to'g'risida fikr M.S. Strogovich tomonidan berilgan ta'rif asosiga qo'yilgan. M.S. Strogovichning yozishicha, surishtiruv — bu jinoyat ishini tergov qilishning dastlabki davri bo'lib, unda jinoyat izlari qayd etiladi va jinoyatni ochish hamda jinoyatchini fosh etish uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

Ko'rsatilgan yondashuv bilan bir qatorda yana bir yondashuv paydo bo'ldiki, uning tarafdorlari surishtiruvga quyidagicha tavsif berishdi: bu har qanday emas, muayyan davlat organlari faoliyatidir; tezkor-qidiruv va tergov funksiyalari qo'shilishi, va, nihoyatda surishtiruvning maqsadi jinoyatlarni, nafaqat, ochish, balki ularni aniqlash va oldini olish hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> В. Громов. Дознание и предварительное следствие. М., 1928, стр. 22; М.А. Чельцов. Советский уголовный процесс. М., 1951, стр. 288.

<sup>2</sup> М.С. Строгович. Курс советского уголовного процесса. М., 1958, стр. 274. Ushbu ta'rifni M.S. Strogovich keyin ham takrorlaydi. Qarang: М.С. Строгович. Курс советского уголовного процесса. Т.2. М., 1978, стр. 27.

*Surishtiruv vazifalari. Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirish.* Surishtiruv organi jinoyat ishini qo'zg'atadi, kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshiradi hamda 10 sutkadan kam bo'lmagan muddatda (JPKning 340—341-moddalari) ishni tergovchiga o'tkazadi.

Surishtiruv vazifalari O'zbekiston Respublikasi JPKning 339-moddasida aniq belgilab qo'yilgan. Chunonchi, surishtiruv:

- 1) jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik;
- 2) dalillarni to'plash va saqlash;
- 3) jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish;
- 4) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritishdan iborat.

Surishtiruv organlari zimmasiga jinoyat belgilarini va uni sodir etgan shaxslarni topish, jinoyat protsessual qonunchilik qoidalari bo'yicha tekshiruv amalga oshirilgan jinoyat ishi bo'yicha dalillar sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalarini qo'llash yordamida zaruriy choralar ko'rish yuklatiladi. Bu maqsadlarda ichki ishlar organlari, Milliy xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari, davlat bojxona xizmati organlari tezkor-qidiruv choralari ko'rish huquqiga ega.

Amaldagi JPK kechiktirib bo'lmaydigan sifatida tavsiflanadigan tergov harakatlari ro'yxatiga ega emas. Avval, 1995-yil 1-aprelgacha amalda bo'lgan JPKning 99-moddasida quyidagi qoidalarga ega edi: «Dastlabki tergovni amalga oshirish majburiy bo'lgan jinoyat belgilari mavjud bo'lgan holda surishtiruv organi jinoyat ishini qo'zg'atadi va ushbu kodeks qoidalariga amal qilgan holda jinoyat izlarini aniqlash va mustahkamlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshiradi: ko'zdan kechirish, tintuv, olib qo'yish, guvohlantirish, gumon qilinuvchini ushlab turish va so'roq qilish, jabrlanuvchilarni va guvohlarni so'roq qilish». Aytib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarining tugal ro'yxati berilgan. Boshqa tergov harakatlarini kechiktirib bo'lmaydigan sifatida amalga oshirishga yo'l qo'yilmas edi.

Amaldagi JPKda bunday ro'yxat mavjud emas. Bu esa surishtiruvchi surishtiruv davomida agar bunga zarurat bo'lsa, har

qanday tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Shu bilan birga, tergov harakatlarini kechiktirib bo'lmazligi masalasi jinoyat protsessual fanida muhokamalarga sabab bo'lgan. Masalan, B.B. Hidoyatov fikricha, kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlariga quyidagicha ta'rif berish mumkin: dalillarni topish va mustahkamlash bo'yicha zudlik bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tergov harakatlari va ularni amalga oshirilishining kechiktirilishi dalillarni yo'qolishiga, shikastlanishiga va soxtalashtirilishiga olib kelishi mumkin<sup>1</sup>. Mavjud bo'lgan fikrlarni umumlashtirgan holda kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari quyidagi xususiyatlarga egaligi haqida xulosalar chiqarish mumkin:

- 1) bu huquqiy institut;
- 2) ular surishtiruv organlari vakolatlari doirasini aniqlaydi;
- 3) ularni amalga oshirilishining majburiyligi;
- 4) mazkur tergov harakatining boshqasi bilan almashtirib bo'lmazligi;
- 5) ularni amalga oshirilishining tezkorligi va zudligi<sup>2</sup>.

Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirishning zarurati surishtiruv oldida turgan vazifalar bilan aniqlanadi. Odatda, militsiya organlari dastlabki tergov amalga oshirilishi lozim bo'lgan jinoyatlar haqida birinchi bo'lib ma'lumot oladi. Qonun normalariga ko'ra, ular zudlik bilan hodisa joyiga yetib kelishlari va shu vaqtning o'zida prokurorga va iloji boricha tergovchilarga xabar berishlari kerak. Militsiya tezkor harakatlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarga ega, aksincha, tergovchi bunday imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli JPKning 339-, 340, 341-moddalari asosida militsiya organlari (va boshqa surishtiruv organlari) barcha kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini, shuningdek, jinoyat izlari va dalillarni mustahkamlash bo'yicha harakatlarni amalga oshirishlari kerak. Bu ma'noda surishtiruv ostida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish maqsadlarida kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirish shaklida olib boriladigan jinoyat protsessual qonunchiligi tomonidan maxsus vakolat berilgan davlat organlari va mansabdor shaxslarining faoliyati tushuniladi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Б.Б. Хидоятов. Дознание в Республике Узбекистан. Учебное пособие. Под общ. ред. проф. Г.А. Абдумаджидова. Т., ТГЮИ, 2005, стр. 26.

<sup>2</sup> Qarang: В.И. Куклин. Неотложные следственные действия. Казань, изд. Казанского университета, 1967, стр. 16—17.

<sup>3</sup> Б.Б. Хидоятов. Дознание в Республике Узбекистан. Учебное пособие. Под общ. ред. проф. Г.А. Абдумаджидова. Т., ТГЮИ, 2005, стр. 29.

Shunday qilib, surishtiruv organi, jinoyat ishini qo'zg'atganda 10 sutka ichida kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshiradi, keyin esa jinoyat ishini tergovchiga o'tkazadi. Surishtiruv jinoyat ishini JPKning 584- va 587-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sudga yuborish bilan ham tugallanishi mumkin.

Ayrim hollarda surishtiruvchi surishtiruv yuritishning 10 sutkalik muddati o'tishini kutmasdan ishni **darhol** tergovchiga yoki prokurorga o'tkazishi lozim, basharti:

- 1) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat aniqlangan bo'lsa;
- 2) gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa;
- 3) ishni tugatish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa;
- 4) tergovchi ishning o'z yurituviga berilishini talab qilgan bo'lsa (JPKning 342-moddasi).

Aytib o'tilgan asoslar surishtiruvni amalga oshirishning cheklovlarini belgilaydi: og'ir va o'ta og'ir jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv amalga oshirilmaydi; surishtiruvchi shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi sifatida jalb qilish, shuningdek, gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish turidagi ehtiyot chorasini qo'llash vakolatiga ega emas, va oxirgisi, surishtiruvchi ish yuritishni tugatish haqida qaror qabul qilish huquqiga ega emas.

Ishni tergovchiga o'tkazish jinoyat ishini tergovchiga o'tkazish haqidagi qaror bilan amalga oshiriladi. Qarorda u chiqarilgan vaqt va joyi, qaysi surishtiruv organi surishtiruvchisi qaror chiqarganligi va surishtiruvchining familiyasi, ismi va ota ismining bosh harflari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, qarorning tavsif qismida qisqacha qaysi jinoyat alomatlari bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilganligi, aniqlangan holatlar, ishni tergovchiga o'tkazishning asoslari va bu haqidagi qaror ko'rsatiladi. Qaror surishtiruv organi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Surishtiruv va dastlabki tergov institutlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularni maqsadining birligi, ularni amalga oshirishning umumiy protsessual shartlari (JPKning 39-moddasi 4-qismi) va jinoyat protsessual qonunchiligi tomonidan belgilangan vazifalarning (JPKning 2-moddasi) birligi birlashtiradi. Ushbu institutlarning *umumiy xususiyatlariga* quyidagilar kiradi: jinoyatchilikka qarshi kurashishning umumiy vazifalari, jinoyat alomatlari mavjud bo'lganda o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishi qo'zg'atishning teng ravishda majburiyligi, faoliyatning yagona jinoyat va jinoyat-

protsessual qonunchilik asosida amalga oshirilishi, tergov harakatlari amalga oshirish davomida yagona protsessual shaklga rioya etilishi, aniqlangan faktlarning teng tarzdagi daliliy ahamiyati va h.k.

Surishtiruv va dastlabki tergov o'rtasidagi *tafovutlar* mavjudligi quyidagilardan kelib chiqadi:

- *birinchidan*, surishtiruv va dastlabki tergov jinoyat protsessining alohida bosqichi bo'lmish dastlabki tergovning ketma-ket amalga oshiriladigan turli xil davrlari hisoblanadi;

- *ikkinchidan*, mazkur tergov shakllarining har biri turli xil organlar tomonidan amalga oshiriladi (JPKning 42—43-boblari);

- *uchinchidan*, bir jinoyat ishi bo'yicha tergovni amalga oshirish davomida surishtiruv organlari va dastlabki tergov organlarining turli vakolatlar doiralari belgilangan. E'tiborda tutish kerakki, agar tergovchi jinoyat ishini o'zi qo'zg'atgan bo'lsa yoki jinoyat ishi qo'zg'atilishi bilan o'z ish yurituviga qabul qilsa, surishtiruv amalga oshirilmaydi (JPKning 350-moddasi);

- *to'rtinchidan*, dastlabki tergov va surishtiruvni amalga oshirishning turli muddatlari belgilangan (JPKning 341-, 351-moddalari);

- *beshinchidan*, tergovchi va jinoyat ishi bo'yicha surishtiruvni amalga oshirayotgan shaxsning turli xil protsessual vakolatlar doirasi belgilangan (JPKning 36-, 39-moddalari).

Bularning hammasi tergov shakllarining har biri mustaqil protsessual ahamiyatga egaligi hamda alohida o'rganish predmeti bo'lishi mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Shunday bo'lsa ham, surishtiruv va dastlabki tergovning umumiy xususiyatlari ularning o'zaro munosabati haqida so'z yuritishga, shuningdek, ularni jinoyat protsessining yaxlit bosqichiga — surishtiruv va dastlabki tergov bosqichiga birlashtirishga imkon beradi.

#### **14.4. Surishtiruv organlari rivojlanishining bosqichlari**

Dastlab surishtiruv organlari Turkistonda (hozirda O'zbekiston hududida) 1864-yildan keyin paydo bo'lgan<sup>1</sup>. Turkiston o'lkasining mustamlaka qaramligi sharoitida surishtiruv bir qator holatlarda dastlabki tergov o'rnida amalga oshirilardi. Chor hukumati o'z manfaatlarini himoya qilar edi hamda shu maqsadlarda

---

<sup>1</sup> Tarixiy ocherk B.B. Hidoyatovdan olingan. Дознание в Республике Узбекистан. Учебное пособие. Под общ. ред. проф. Г.А. Абдумаджидова. Т., ТГЮИ, 2005, стр. 105.

Ichki ishlar vazirligi Turkiston qo'riqlash bo'linmasi va ayrim shaharlarning jandarm-politsiya boshqarmalari mansabdor shaxslarini ishga solar edi, ular taraqqiyparvar kishilar faoliyatiga qarshi qonunsizlik va o'zboshimchalikni amalga oshirishar edi. Ko'rsatilgan vaqtdan boshlab, hozirgi davrgacha surishtiruv organlari to'ldirilib, o'zgartirib, rivojlantirilib kelinmoqda.

B.B. Hidoyatov O'zbekiston Respublikasida surishtiruv organlari (instituti) paydo bo'lishi va taraqqiy etishining quyidagi bosqichlarini ko'rsatishni taklif qiladi:

**I bosqich** — Oktabr to'ntarishigacha (1917-yilning oktabr oyigacha) bo'lgan surishtiruv organlarining paydo bo'lishi. Bu davr mobaynida quyidagilar surishtiruv organlariga kirar edi: 1) IIV Turkiston qo'riqlash bo'linmasining mansabdor shaxslari; 2) ayrim shaharlar jandarm-politsiya boshqarmalari.

**II bosqich** — Oktabr to'ntarishidan keyingi (1918—1958-y.) surishtiruv organlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Mazkur bosqichda surishtiruv organlarining quyidagi yangi organlari paydo bo'lgan edi: militsiya, jinoyat qidiruv bo'limi, soliq, sanitariya, texnika, savdo inspeksiyalari va mehnat inspeksiyalari organlari, hukumat muassasalari va mansabdor shaxslarga bo'ysunadigan shaxslarning noqonuniy harakatlari to'g'risidagi ishlar bo'yicha mansabdor shaxslar.

**1926-yil 16-iyunda** MIQ rayosati tomonidan tasdiqlangan (1926-yil 1-iyulda amalga kiritilgan) O'zSSR birinchi JPK surishtiruv organlariga sakkizinchi bob bag'ishlangan edi. U yuqorida aytib o'tilgan surishtiruv organlarini sanab o'tishdan boshlanar edi. Mazkur organlar guvohlarni, gumon qilinuvchini so'roq qilish, olib qo'yish, tintuv, ko'zdan kechirish va guvohlantirishni amalga oshirish, jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchini ushlab turish huquqlariga ega edilar. Gumon qilinuvchini ushlab turish haqida surishtiruv organi 24 soat ichida tergovchiga, prokurorga, o'ziga taalluqli bo'lgan ishlar bo'yicha esa sudga xabar berishi shart edi. 1926-yildagi JPKning 103-moddasiga ko'ra, surishtiruv bir oydan oshmagan muddatda amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Mazkur muddatning uzaytirilishi nazarda tutilmagan edi.

1929-yildagi **JPK qabul qilinganidan keyin quyidagilar** ham surishtiruvni amalga oshirish huquqini qo'lga kiritdi: muassasa, tashkilot va korxonalarining yuriskonsultlari; matlubot jamiyatlari taftish komissiyalari raislari va a'zolari; ulgurji-chakana savdo o'zbek davlat tresti tizimining instruktorlari; moliya-budjet inspeksiyasi inspektorlari va tuman moliya bo'limlari instruktorlari.

O‘zSSR 1929-yildagi JPKning 4-moddasida nazarda tutilganidek, surishtiruvning ushbu organlari qonun bilan tergov yuritish huquqi berilgan boshqa hokimiyat organlari sifatida tan olingan edi.

Qonunni soddalashtirish maqsadida mazkur kodeks 4-moddasida dastlabki tergovni surishtiruv organlari ham amalga oshirishi mumkinligini nazarda tutgan. Ya’ni dastlabki tergov tergovchilar, militsiya, jinoyat qidiruv bo‘limi, davlat siyosiy boshqarmalari umumiy organlari, o‘ziga taalluqli bo‘lgan ishlar bo‘yicha maxsus inspeksiyalar hamda qonun bilan tergov yuritish huquqi berilgan boshqa hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ko‘rib turganimizdek, moddada surishtiruv va dastlabki tergov tushunchalari berilmagan, chunki bu ikki tushuncha faqat «dastlabki tergov» tushunchasida mujassam etilgan edi.

Tergovchiga taalluqli bo‘lgan ishlar bo‘yicha militsiya va jinoyat qidiruvi organlari tergovni boshlashi mumkin edi. Zaruriy tergov harakatlari tugaganidan keyin ish yurituvni boshlagan organ tergovchi farmoyishini kutmasdan, unga ishni o‘tkazishi lozim edi. Ishni tergovchiga o‘tkazgandan keyin mazkur organlar faqat tergovchining topshirig‘i bo‘yicha tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin edi.

Shu bilan birga, 1929-yildagi JPKning 10-moddasi tergovchiga har qanday ishni batafsil tergov qilish uchun surishtiruv organlariga berish huquqini belgilab qo‘ygan edi. Bu esa surishtiruv va dastlabki tergov o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolishiga, shuningdek, tergovchilar tomonidan tergov qilinadigan ishlar sonining kamayib ketishiga olib keldi.

Shunday qilib, 20-yillarning oxiriga kelib, surishtiruv va dastlabki tergov o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolib ketdi, chunki tergovchi va prokurorlar dastlabki tergov amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jinoyat ishlarini tergov qilish uchun surishtiruv organlariga berish huquqidan keng foydalana boshladilar. 1934—1936-yillardagi Umumittifoq qonunlari qabul qilinganidan keyin, dastlabki tergovni amalga oshirish huquqiga davlat xavfsizligi boshqarmalari organlari, yong‘in xavfsizligi organlari va davlat avtomobil inspeksiyasi organlari ham ega bo‘lishdi.

Surishtiruv va dastlabki tergov o‘rtasida aniq protsessual chegaralar o‘tgan asrning 50-yillari o‘rtalarigacha yo‘q edi. Bu holat quyidagi hujjatlar qabul qilinganidan keyin o‘zgardi: 1955-yil 24-maydagi sobiq Ittifoqda prokuror nazorati to‘g‘risidagi nizom, 1958-yil 25-dekabrda sobiq Ittifoq va ittifoqdosh respublikalar jinoyat-sudlov ishlarini yuritish asoslari.



**III bosqich** — O‘zbekiston Respublikasining JPK amalga kiritilgunga qadar bo‘lgan davr mobaynida surishtiruv organlarining taraqqiy etishi (1958 — 1995-yillar).

1959-yil 21-mayda aytib o‘tilgan Asoslar qabul qilinganidan keyin O‘zSSR yangi JPK tasdiqlandi (1960-yil 1-yanvarda amalga kiritilgan). Mazkur kodeksga ko‘ra, jinoyat ishlarini tergov qilishning ikki shakli nazarda tutilgan edi: surishtiruv va dastlabki tergov. Surishtiruvning o‘zi ikki turda amalga oshirilishi mumkin edi:

1) dastlabki tergov amalga oshirilishi majburiy bo‘lgan ishlar bo‘yicha surishtiruv;

2) dastlabki tergov amalga oshirilishi majburiy bo‘lmagan ishlar bo‘yicha surishtiruv.

Surishtiruvning ikkinchi turi jinoyat ishini to‘la ravishda surishtiruv organi tomonidan tergov qilinishini o‘z ichiga olib, dastlabki tergov amalga oshirilmas va surishtiruv materiallari sudga o‘tkazilar edi<sup>1</sup>.

1959-yildagi JPK ko‘ra, surishtiruv organlari ro‘yxati o‘zgartirildi, unga binoan, bu ro‘yxatdan sanitariya, texnika, savdo inspeksiyalari olib tashlandi. Kodeksda quyidagi ro‘yxat keltirilgan edi: 1) militsiya; 2) harbiy qism boshliqlari; 3) axloq tuzatish muassasalari boshliqlari; 4) davlat yong‘in nazorati organlari; 5) chegara qo‘riqlash organlari; 6) davlat xavfsizligi qo‘mitasi organlari.

**IV bosqich** — 1995-yil 1-apreldan buyon bo‘lgan davr mobaynida surishtiruv organlari taraqqiy etishi. O‘zbekiston Respublikasi JPKga binoan, surishtiruvning vazifalari:

1) jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik;

2) dalillarni to‘plash va saqlash;

3) jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish;

4) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta‘minlash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritishdan iborat.

---

<sup>1</sup> Mazkur shaklga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va qoida tariqasida, o‘z aniqligi tufayli ishning faktik holatlarini aniqlashda qiyinchiliklarni tug‘dirmaydigan jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv organlari sodir etilgan jinoyat holatlari to‘g‘risida bayonnoma tuzishardi. Ushbu bayonnoma materiallar bilan birga prokuror sanksiyasi orqali sudga jo‘natilardi. Shunday qilib, materiallarni sudgacha tayyorlashning bayonnoma shakli nazarda tutilgan edi. Surishtiruvning ushbu shakllari hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasining JPKda (119-, 120-moddalari) nazarda tutilgan.

*Surishtiruv vazifalari*

- 1) jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik;
- 2) dalillarni to'plash va saqlash;
- 3) jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish;
- 4) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash.

*(JPKning 339-moddasi.)*

O'zbekiston Respublikasining JPK surishtiruv organlari ro'yxatini qat'iy belgilab qo'ygan. JPKning 38-moddasiga ko'ra, quyidagilar surishtiruv organlari hisoblanadi:

1) militsiya;

2) harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari — ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek, o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoki o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha;

3) milliy xavfsizlik xizmati organlari — qonunga ko'ra, ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha;

4) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolatorlari hamda turmalarning boshliqlari — shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek, mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha;

5) davlat yong'indan nazorat qilish organlari — yong'inlarga doir va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

6) chegarani qo'riqlash organlari — davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

7) olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

8) davlat bojxona xizmati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari — tegishli bojxona, soliq va valuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

9) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta‘minlash departamenti hamda uning hududiy boshqarmalari — voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlashga, sud qarorini bajarmaslikka, shuningdek, band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo‘yicha;

10) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari — bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohasidagi huquqbuzarliklarga doir ishlar bo‘yicha.

Ma‘lumot uchun aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti **2001-yilda** tashkil etilgan va shu vaqtdan boshlab, surishtiruv organlari ro‘yxatiga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta‘minlash departamenti hamda uning hududiy boshqarmalari kabi surishtiruv organi ham e‘tiborni jalb etadi. **2009-yil 15-yanvardan** boshlab, O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 14-yanvardagi «Ijro ishi yuritish takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-199-sonli Qonuni qabul qilinishi bilan mazkur organ surishtiruvni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘ldi. Qonun sud qarorlarini ijro etish sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo‘yishga mo‘ljallangan samarali tizim tashkil etishga qaratilgan bir qator normalarga ega.

Majburiy ijro sohasida jinoyatlarni aniqlash va ularning oldini olish samaradorligini oshirish maqsadida sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarini majburiy ijro etish huquqiga ega bo‘lgan Sud

departamenti va uning hududiy boshqarmalari mansabdor shaxslari voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, otanani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashga, sud qarorini bajarimaslikka, shuningdek, band solingan mol-mulknini qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo'yicha surishtiruvni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lishadi. Bizning fikrimizcha, bu ijro ishlarini yuritish sohasida huquqbuzarliklarni o'z vaqtida oldini olish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish masalalarini tezkor ravishda hal etish imkonini beradi.

*Surishtiruvni tamomlash.* Jinoyat protsessual qonunchilikdagi o'zgartirishlar surishtiruvni tamomlash masalalariga ham tegib o'tdi. Agar avval surishtiruv har doim jinoyat ishini tergovchiga o'tkazilishi bilan tamomlangan bo'lsa, jinoyat protsessual qonunchilikni islohotlashtirilishi natijasida quyidagi o'zgartirishlar kiritildi:

● **Yodda saqlang!** ●

*Surishtiruv tamomlanadi:*

- jinoyat ishini tergovchiga o'tkazish bilan;
- jinoyat ishini taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to'g'risidagi qaror bilan prokurorga yuborish bilan;
- jinoyat ishini amnistiya aktiga, asosan, jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risidagi taqdimnoma bilan birga prokurorga yuborish bilan.

*(JPKning 342-moddasi.)*

• 2001-yildan boshlab, yarashuv instituti kiritilishi natijasida surishtiruv jinoyat ishini taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to'g'risidagi qaror bilan prokurorga yuborish bilan tugallanishi mumkin;

• 2008-yil 23-dekabrda boshlab, amnistiya aktini qo'llashning sud tartibi belgilanishi natijasida surishtiruv jinoyat ishini amnistiya aktiga, asosan, jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risidagi taqdimnoma bilan birga prokurorga yuborish bilan tamomlanishi mumkin<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 23-dekabrda qo'llash tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-193-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2008, № 12, 636-modda.

Jinoyat protsessida surishtiruv institutining rivojlanishi tarixi dastlabki tergovni surishtiruv bilan almashtirilishi maqsadga muvofiq emasligi haqida dalolat beradi. Shu bilan birga, tergovning dastlabki protsessual shakli sifatidagi surishtiruv ham yo'q qilinishi mumkin emas, chunki u jinoyatlarni ochish, oldini olish va ularga chek qo'yish maqsadlarida kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirishga hamda shu orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishga va uning sabablarini bartaraf etishda muhim hissa qo'shishga da'vat etilgan<sup>1</sup>.

1994-yildagi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi barcha jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilishi shartligini (JPKning 345-moddasi) belgilash orqali surishtiruv tergovning boshlang'ich davri ekanligini (ko'p hollarda) nazarda tutgan; dastlabki tergov esa surishtiruv amalga oshirilgan yoki oshirilmaganligidan qat'i nazar, o'tkaziladigan jinoyatlarni tergov qilishning asosiy shakli hisoblanadi.

#### **14.5. Tergovchining protsessual vakolatlari. Tergovchi va surishtiruv organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar**

*Tergovchi* — jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazish qonun bilan zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxsdir. JPKning 35-moddasiga ko'ra, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlarining va milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari olib borishadi.

Tergovchi etib, odatda, oliy yuridik yoki boshqa maxsus ma'lumotga va zaruriy kasbiy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, o'z sog'lig'i holatiga ko'ra, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tayinlanadi.

Tergov qilinadigan ishlarning turi va mazmuni, ularning mu-rakkabligi darajasi, kvalifikatsiya saviyasi, orttirilgan tajribasiga qarab, tergovchilar turli xil mansab pog'onalariga ega bo'ladilar. Ular tergovchi, katta tergovchi, o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchi va o'ta muhim ishlar bo'yicha katta tergovchi deb nomlanishi mumkin. Dastlabki tergovni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan xodimlar mansablarining bunday nomlanishi tergov apparati mavjud bo'lgan barcha davlat idoralarida qo'llaniladi.

---

<sup>1</sup> Б.Б. Хидоятлов. Дознание в Республике Узбекистан. Учебное пособие. Под общ. ред. проф. Г.А. Абдумаджидова. Т., ТГЮИ, 2005, стр. 13.

Masalan, tuman va shahar prokuraturalarida, odatda, tergovchi va katta tergovchilar ishlaydi; Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasida va viloyat prokuraturalarida — tergovchi, katta tergovchi, o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida — o‘ta muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar, o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar. Deyarli xuddi shunday tarzda o‘z mansab pog‘onalari bo‘yicha harbiy prokuraturalar, shuningdek, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmati tergovchilari taqsimlanadi.

Tergovchining protsessual vakolatlari hajmi va protsessual holati uning idoraviy bo‘ysunishiga bog‘liq emas. Ular bir xil. Tergovchi faoliyati mazmuni va yo‘nalishi jinoyat-sudlov ishlarini yuritish vazifalari bilan belgilanadi. Tergovchi jinoyatni ochishi va aybdorlarni fosh etishi, ya‘ni qanday jinoyat kim va qanday tarzda sodir etilganligini aniqlashi, uni sodir etishga daxldor bo‘lgan barcha shaxslarni aniqlash (bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi va boshq.), jinoyat tarkibini tashkil etadigan barcha belgilarni, jinoyat subyektini tavsiflovchi barcha ma‘lumotlarni, jinoyatning subyektiv va obyektiv taraflarini, jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sharoit va sabablarni aniqlashi lozim.

JPKning 36-moddasiga binoan, tergovchi: jinoyat ishini qo‘zg‘atishga va tugatishga, ishni qo‘zg‘atishni rad etishga; jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab va so‘roq qilishga; JPKda nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borishga; shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to‘g‘risida va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash haqida qaror qabul qilishga, qamoqqa olish bundan mustasno; o‘z yurituviga qabul qilgan ishlar bo‘yicha surishtiruv organlariga qidiruv va tergov harakatlarini bajarish to‘g‘risida yozma topshiriqlar berishga; surishtiruv organlaridan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko‘maklashishni talab qilishga; qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma berishga, shuningdek, ehtiyot chorasini JPKning 240-moddasiga muvofiq bekor qilish yoki o‘zgartirishga, amnistiya aktiga asosan, jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida prokurorga taqdimnoma kiritishga haqlidir.

Tergovchi tergovning yo‘nalishi va tergov harakatlarini yuritishga oid barcha qarorlarni, prokuror ruxsatini olish qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mustaqil ravishda qabul qiladi.

Tergovchining mustaqilligi vajavobgarligi prinsipi uning barcha funksiyalari asosida turadi, bu ayniqsa, butun dastlabki tergov davomida amalga oshiriladigan jinoyat ishi holatlarini o'rganish funksiyasida namoyon bo'ladi. Aynan ish holatlarini o'rganish ayblov va himoya uchun jinoyat ishi bo'yicha oraliq va yakuniy qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi. Muayyan jinoyat ishini tergov qilish chog'ida tergovchining ayrim funksiyalari bajarilmasligi ham mumkin (masalan, moddiy zararni undirishni ta'minlash, agarda jinoyat bunday zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa), lekin jinoyat ishi holatlarini o'rganmasdan turib, boshqa biron-bir funksiyani bajarish amalda mumkin emas.

Tergovchining faoliyati bir qator harakat va qarorlardan tashkil topgan, ularning har biriga jinoyat ishini mukammal va o'z vaqtida tergov qilish haqidagi qonun talablari qo'yilgan. Bundan kelib chiqadiki, tergovchining shaxsiy pozitiv javobgarligi dastlabki tergovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha harakat va qarorlariga tatbiq etiladi, javobgarlik esa protsessual mustaqilliksiz, ya'ni qonunga rioya qilgan holda ishning barcha holatlarini har taraflama, to'la va xolis ko'rib chiqish asosidagi o'z ichki xohish-irodasiga tayanib, mustaqil harakat qila olish imkoniyatisiz mumkin emas.

Shubhasiz, tergovchi mustaqilligi cheksiz emas. Bu mustaqillik dastlabki tergovning boshqa ishtirokchilari bilan ahamiyatga ega bo'lgan munosabatlarda tergovchiga berilgan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi. Tergovchi o'z vakolatlarini fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat'iy rioya qilish va hurmat qilish asosida amalga oshiradi. Hattoki, so'roq qilishga chaqirganda hamda boshqa tergov harakatlarini amalga oshirganda, tergovchi shuni hisobga olishi kerakki, u shu bilan chaqirilgan shaxsning vaqtini o'z xohishiga binoan, o'tkazish erkinligini ma'lum darajada cheklaydi, uni odatiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish imkoniyatidan mahrum etadi. Shu sababli tergovchi mazkur shaxsni tergov organi chaqirtirish qanchalik zarurligini hamda jinoyat ishida uni ishtirok etishiga nima sabab bo'lganini batafsil o'rganadi.

Tergovchining mustaqilligi va javobgarligi uning nazorat ostida bo'lishidan ozod etmaydi. Protsessual qonunchilik tergovchini prokuror ko'rsatmalarini bajarishga majburligini belgilaydi (JPKning 382-moddasi).

Faqat shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi, jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqidagi, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida

iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi amnistiya aktiga asosan, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida prokurorga taqdimnoma kiritish haqidagi ishni sudga yuborish yoki ishni tugatish haqidagi, tugallangan ishni qo'shimcha tergovga qaytarish haqidagi masalalar bo'yicha tergovchi o'z e'tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda quyi turuvchi prokurorning ko'rsatmasini yuqori turuvchi prokuror o'z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo'yicha tergov yuritishni boshqa tergovchiga topshiradi (JPKning 36-moddasi 3-qismi). Barcha boshqa holatlarda tergovchi prokuror ko'rsatmalariga rozi bo'lmasa ham, ularni bajarishga majbur.

Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi talablarini aniq bajarigan holda jinoyatlarni ochish, aybdorlarni fosh etish va aybsizlarni asossiz jinoiy javobgarlikka tortilishidan saqlash borasidagi butun faoliyati bilan tergovchi tarbiyalash va oldini olish ta'sirini ko'rsatadi.

Boshqa mansabdor shaxslar kabi tergovchi ham o'z funksiyalarini bajarish mobaynida o'z faoliyatining tashkiliy va boshqa ta'minotiga tayanishi mumkin, chunki subyektning yuridik majburiyatiga u qonuniy va vijdonan amalga oshiradigan faoliyatiga davlat hamkorligi, yordami va muhofazasiga bo'lgan huquqi qarshi turadi. Bu borada protsessual qonunchilikning tergovchining o'z yuritishidagi ish yuzasidan qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiyligi haqidagi ko'rsatmasi ham mavjud (JPKning 36-moddasi 4-qismi).

JPKda tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari vakolatlari tartibga solingan, JPKning 37-moddasiga muvofiq, ular ishlarni tekshirib ko'rishga, shuningdek, dastlabki tergov o'tkazish, shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi, ishning yo'nalishini belgilash, ayrim tergov harakatlarini o'tkazish haqida tergovchiga ko'rsatmalar berishga, ishni bir tergovchidan ikkinchi tergovchiga olib berishga, ishni tergov qilishni bir necha tergovchiga topshirishga, shuningdek, tergovchi vakolatlardan foydalanib, dastlabki tergov olib borishda qatnashishga va dastlabki tergovni shaxsan o'zi olib borishga haqlidir.

Tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhi boshlig'ining va uning o'rinbosarining ish yuzasidan ko'rsatmalari tergovchiga yozma tarzda beriladi va ularning ijro etilishi majburiydir.



Aytish lozimki, olingan ko'rsatmalar ustidan shikoyat qilish ularning ijrosini to'xtatib turmaydi, JPKning 36-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno (shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi, jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqidagi, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi amnistiya aktiga asosan, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida prokurorga taqdimnoma kiritish haqidagi ishni sudga yuborish yoki ishni tugatish haqidagi, tugallangan ishni qo'shimcha tergovga qaytarish haqidagi ko'rsatmalari).

Tergovchi va surishtiruv organi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni ko'rib chiqishda surishtiruv organlari zimmasiga jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish va ularga chek qo'yish maqsadlarida tezkor-qidiruv va jinoyat protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa choralarni ko'rish yuklatilgan. Tergovchi o'zi yuritadigan ishlar bo'yicha JPKning 39-moddasi 3-qismi va 343-moddasiga binoan, surishtiruv organlariga yozma shaklda ular uchun majburiy bo'lgan quyidagi topshiriq va ko'rsatmalar berishi mumkin: 1) qidiruv harakatlarini amalga oshirish haqida; 2) tergov harakatlarini amalga oshirish mobaynida hamkorlik qilish haqida; 3) tergov harakatlarini amalga oshirish haqida.

Qidiruv harakatlarini amalga oshirish haqida topshiriq va ko'rsatmalar berganda, tergovchi tergovning to'g'ri yo'nalishini aniqlash imkonini beruvchi qimmatli ma'lumotga ega bo'lishi, u yoki bu versiyalarni olg'a surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu borada ikki holatni aytib o'tish lozim. Birinchidan, tezkor-qidiruv harakatlari natijasida olingan ma'lumotlarni tergovchi tergov davomida tekshirishi lozim. Ikkinchidan, ishni tergovchiga o'tkazgandan keyin surishtiruv organi mazkur ish bo'yicha tergov harakatlarini faqat tergovchi topshirig'i bo'yicha amalga oshirishi mumkin. Jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash imkoni bo'lmagan jinoyat ishi tergovchiga o'tkazilganda surishtiruv organi jinoyatchini aniqlash bo'yicha tezkor-qidiruv harakatlarini davom ettiradi va bu haqida tergovchiga xabar berib turadi.

Murakkab jinoyatni muvaffaqiyatli ochish va tergov qilish, odatda, tergovchi va militsiya xodimlarining birgalikdagi harakatlari natijasidir. Shu munosabat bilan jinoyatlarning oldini olish, ularni tezkor tarzda va to'la ochish, yashiringan jinoyatchilarni qidirish

maqsadlarida birinchi galda tergovchi va militsiya xodimlarining o'zaro hamkorligi masalalariga e'tibor qaratiladi. Bunday hamkorlikning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi xizmat qiladi.

Bu holat surishtiruv organlari xodimlari tezkor-qidiruv harakatlarni tergovchi bilan yaqin aloqalarni o'rnatgan holda va hamkorlikda amalga oshirishlarini, jinoyat ishi bo'yicha qilinadigan ishning muayyan davrida tergov oldida turgan maqsad va vazifalarni e'tiborga olishni talab qiladi.

Surishtiruv organlarining tergov harakatlarini amalga oshirish davomida tergovchiga ko'rsatadigan yordami voqea joyini muhofaza qilishda, jabrlanuvchi shaxsini aniqlashda, ashyoviy dalillarni izlashda ishtirok etishda, tergov harakatini amalga oshirishni tashkil etishdagi ko'maklashuvda namoyon bo'lishi mumkin.

Tergovchi tergov harakatlarini amalga oshirganda unga ko'rsatiladigan yordam aynan nimada ifodalanishi qonunda belgilanmagan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday yordam quyidagilarda ifodalanishi mumkin: tergov harakatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun surishtiruv organi xodimi tomonidan tegishli shart-sharoitlarni ta'minlashda (voqea joyini muhofaza qilish, tintuv, eksperiment va boshqa tergov harakatlari davomida tartibni ta'minlash); tergovchi ishida uning bevosita ishtirokida (voqea joyini ko'zdan kechirishda, tintuvda, ko'rsatuvlarni hodisa sodir etilgan joyda tekshirishda va h.k.); tergov harakati samaradorligini oshirishga qaratilgan tezkor choralarni o'tkazishda (so'roq qilinadigan shaxsning aloqalarini, jinoyat usullarini, jinoyat faoliyat voqealarini aniqlash, jinoyatga oid narsalar yashirilgan joylarni topishda va h.k.).

Tergovchi tergov harakatlarini amalga oshirishni surishtiruv organlariga faqat o'zi ularni amalga oshirishi mumkin bo'lmaganda (masalan, bir vaqtning o'zida bir necha tintuvlar, so'roqlar va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish kerak bo'lgan hollarda) yoki bu taktik jihatdan maqsadga muvofiq bo'lganda topshirishi mumkin. Turli xil protsessual qarorlar bilan bog'liq bo'lgan tergov harakatlari hech qanday holatlarda surishtiruv organlariga topshirilishi mumkin emas. Bu quyidagilar: ayblov e'lon qilish, ehtiyot chorasini tanlash yoki o'zgartirish, ish yurituvini tugatish yoki to'xtatib turish, ishlarni ajratish va birlashtirish hamda boshqalar.

Qonun bilan nazarda tutilgan hamkorlik shakllari asosan, quyidagi subyektlar o'rtasida amalga oshiriladi:

1) tergovchi — navbatchilik qismi — jinoyat qidiruv bo'limi inspektori (voqea joyini ko'zdan kechirish zarurati mavjud bo'lgan jinoyat haqida xabar olinganda);

2) tergovchi — jinoyat qidiruv bo'limi inspektori (ochiq-oydin sodir etilgan jinoyat fakti bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin va uni ochilguniga qadar);

3) shu subyektlarning o'rtasida (avval to'xtatib qo'yilgan ishlar bo'yicha jinoyat ochilguniga qadar);

4) tergovchi — jinoyat qidiruv bo'limi xodimlari (tezkor tergov guruhi tarkibida murakkab va sermehnat jinoyatlarni tergov qilishda).

Tergovchilarning surishtiruv organlari bilan hamkorligi, na-faqat, qonun asosida, balki ular o'rtasidagi o'zaro yaqin munosa-batlar asosida ham bo'lishi kerak. Odatda, dastlabki tergov amalga oshirilishi lozim bo'lgan jinoyatlar haqida dastlab militsiya organ-lari ma'lumotga ega bo'lishadi. Qonun normalariga ko'ra, ular zudlik bilan hodisa joyiga yetib kelishlari va shu vaqtning o'zida prokurorga va iloji boricha tergovchilarga xabar berishlari kerak. Militsiya tezkor harakatlarni amalga oshirish uchun barcha imko-niyatlarga ega, aksincha, tergovchi bunday imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli JPKning 339-, 340-, 341-moddalari asosida militsiya organlari (va boshqa surishtiruv organlari) barcha kechiktirib bo'lmay-digan tergov harakatlarini, shuningdek, jinoyat izlari va dalillarni mustahkamlash bo'yicha harakatlarni amalga oshirishlari kerak.

Tergovchining tergov va qidiruv harakatlarini bajarish to'g'risi-dagi topshiriqlarini surishtiruvchi tergovchining ijro etish shartlari, tartibi va muddatlari xususidagi ko'rsatmalariga muvofiq bajarishi shart.

Topshiriqni belgilangan muddatda bajarish imkoniyati bo'l-masa, surishtiruvchi bu haqda tergovchini xabardor qiladi va ba-jarish muddatini uzaytirishni yoki ijro etish shartlari va usullarini o'zgartirishni iltimos qiladi.

JPKning 36-, 39-, 339-, 347-moddalari jinoyat ishi qo'z-g'atilganidan boshlab, toki u tugatilgan deb topilgunga qadar su-rishtiruvchi va tergovchi o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy aso-sini tashkil etadi.

Tergovchi o'zining barcha topshiriqlari, ko'rsatma va talablarini surishtiruvchiga surishtiruv organining boshlig'i orqali yuboradi. Surishtiruv organi boshlig'ining huquqiy holati va protsessual ahvolini O'zbekiston Respublikasining JPK belgilaydi. JPKning 39-moddasiga ko'ra, har bir surishtiruv organining rahbarlari surishtiruv organining boshlig'i sifatida ish yuritadi. Surishtiruvchi

surishtiruv organi boshlig'ining topshirig'iga binoan va uning rahbarligida ishlaydi. Surishtiruv organi boshlig'ining yozma ko'rsatmasi surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruvchi ko'rsatmaga norozi bo'lsa, ko'rsatmani bajarishni to'xtatmay turib, bu ko'rsatma ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqlidir. Prokurorning yozma ko'rsatmasi surishtiruv organining boshlig'i va surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruv organining boshlig'i va surishtiruvchi prokuror ko'rsatmasiga rozi bo'lmagan taqdirda, ko'rsatmani bajarishni to'xtatmay turib, uning ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga haqlidir (JPKning 39-moddasi 6-qismi).

Shunday qilib, dastlabki tergov va surishtiruv organlari o'rtasidagi hamkorlik ostida mazkur davlat muassasalari mansabdor shaxslarining qonun asosida jinoyatlarni ochish va aybdorlarni fosh etishga, jinoiy faoliyatlarning oldini olish va ularga barham berishga hamda mazkur organlar tomonidan qo'llaniladigan usullarni oqilona birlashtirilishi yo'li bilan yetkazilgan moddiy zararni to'ldirishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi.

**Dastlabki tergov va surishtiruv organlari o'rtasidagi hamkorlik** deyilganda, ushbu davlat muassasalari mansabdor shaxslarining qonun asosida mazkur organlar tomonidan qo'llaniladigan usullarni oqilona birlashtirilishi yo'li bilan jinoyatlarni ochish va aybdorlarni fosh etishga, jinoiy faoliyatlarning oldini olish va ularga barham berishga hamda yetkazilgan moddiy zararining o'rtasini qoplashga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi.

Bunday hamkorlikning maqsadi bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat ishlarini tergov qilish davomida protsessual, ma'muriy va tezkor-qidiruv funksiyalarini to'g'ri qo'llash va shu orqali jinoyat-sudlov ishlarini yuritishning vazifalarini amalga oshirishda samarali natijalarga etishish hisobiga tergov va surishtiruv organlari kuch va vositalarini maksimal birlashtirish xizmat qiladi.

Ko'p jinoyatlarni muvaffaqiyatli ochilishi tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarining oqilona qo'shilishiga bog'liq bo'lgani tufayli har doim tergov va surishtiruv organlari o'rtasida yaqin aloqalar va hamkorlik o'rnatilishiga intilish lozim. Bunday hamkorlik masalalari jinoyatlarni tergov qilish rejalarida o'z aksini topishi lozim va bu rejalarini tuzish vaqtida tergovchi vaziyatdan keng xabardor bo'lgan surishtiruv organlari fikr-mulohazalarini hisobga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hamkorlik muayyan ish bo'yicha dastlabki tergovni yuritish davomida surishtiruv va tergov organlarining o'zaro yordamini, amalga oshirilayotgan tadbirlar jarayoni va natijalari haqida o'zaro ma'lumotlar almashinuvini hamda jinoyatni ochish va aybdorlarni fosh qilish bo'yicha umumiy javobgarlikni nazarda tutadi. Hamkorlikning shakl va usullari tergov qilinadigan ishlar xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, «issig'ida» ish bo'yicha dastlabki materiallarni aniqlash, to'plash va mustahkamlash, jinoyatchini bevosita qidiruvi, uni aniqlash va jinoyatni ochish — bularning hammasi surishtiruv organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Dastlabki tergovning vazifasi esa ayblanuvchining aybdorligi masalasini atroflicha o'rganib chiqish, ish bo'yicha barcha dalillarni to'plash va xolisona baholash, ayblanuvchiga unga e'lon qilingan ayblovdan himoyalash uchun barcha himoya vositalarini taqdim qilish hisoblanadi.

#### 14.6. Surishtiruv organlari

Avval aytib o'tganimizdek, surishtiruv organlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi JPKning 38-moddasida keltirilgan.

Surishtiruv organlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini ko'rib chiqamiz.

**1. Militsiya.** JPKning 38-moddasida militsiyaning jinoyat-protsessual vakolatlari (hech qanday jinoyat turi bilan) cheklanmagan. Mazkur organ bevosita ichki ishlar organlariga taalluqli bo'lganligi sababli uning faoliyatini tartibga soladigan asosiy hujjat bo'lib, 1991-yil 25-oktabrdagi «Ichki ishlar vazirligi to'g'risida»gi Nizom hisoblanadi<sup>1</sup>.

*Tarixiy nuqtayi nazar.* Fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishni, jamoat tartibini, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari muhim rol o'ynaydi. 1991-yilning ikkinchi yarmida sobiq Ittifoqda hokimiyat tanazzulga uchradi, natijada fuqarolarning xavfsizligi va huquqlari ta'minlanishi katta xavf-xatar ostida qoldi. Tartibsizlik vujudga kelishining real tahdidi vujudga keldi.

---

<sup>1</sup> Mazkur Nizomga O'zbekiston Respublikasi VMning 19.01.1994-yildagi 17-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi VMning 14.12.1994-yildagi 602-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi VMning 01.05.2002 yildagi 150-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi VMning 10.11.2006-yildagi 235-sonli qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan.

Davlatda vujudga kelgan holatni hisobga olgan holda respublika va uning fuqarolari manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida O‘zbekiston Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagi Farmoni bilan O‘zSSR IIV va Davlat xavfsizligi qo‘mitasi respublika yurisdiksiyasi ostiga olingan edi. Mazkur idoralar rahbarlariga birinchi navbatda respublika va uning fuqarolari xavfsizligi va manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlash tayinlangan edi. Respublika hududida joylashgan sobiq SSSR IIV ichki qo‘shinlari O‘zbekiston Prezidentining bevosita tasarrufiga o‘tkazilgan edi. Respublika hududida joylashgan IIV, DXQ, Prokuratura, adliya organlari, shuningdek, Turkiston Harbiy Okrugining (TurkVO) ichki qo‘shinlari, qismlari va qo‘shilmalarining departizatsiyasi amalga oshirilgan edi. Bu organ va muassasalarda yangi tashkiliy tuzilmalar, siyosiy partiyalar va harakatlar tashkil etish man etilgan edi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, Prezidentning aynan shu Farmoni ichki ishlar organlari islohotlarini boshlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi qarori bilan O‘zSSR Ichki ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Ichki ishlar organlarini yanada islohotlashning normativ-huquqiy asosi bo‘lib, 2001-yil mart oyida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish choralari to‘g‘risida»gi Farmoni va mazkur Farmon asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining olti qarori xizmat qiladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga binoan:

- markazdan shahar ichki ishlar bo‘limlarigacha IIV operativ apparatlarining tashkiliy shtab tuzilmalari qayta ko‘rib chiqildi;

- Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi va Korrupsiya, reket va terrorizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasi, shuningdek, viloyat, shahar, tuman ichki ishlar organlarining tegishli bo‘limlari negizida O‘zbekiston Respublikasi IIV Jinoyat qidiruvi va terrorizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmasida, viloyat IIB — jinoyat qidiruvi va terrorizmga qarshi kurashish boshqarmalari; shahar, tuman ichki ishlar organlarida — jinoyat qidiruvi va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘limlari tashkil etilgan edi;

- ishda bir-birini takrorlash va parallelizmni istisno qiladigan va shu bilan birga, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda yagona rahbariyat ostida hamkorlikni ta'minlaydigan hududiy organlar va ularning bo'linmalari faoliyatini qat'iy ixtisoslashtirish joriy etildi;

- jinoyatchilikka qarshi kurashishda IIB operativ apparatlari oldiga muayyan vazifalar qo'yildi va ustuvor yo'nalishlar belgilandi;

- tergov boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi IIV Bosh tergov boshqarmasi tashkil etildi, QR IIV, Toshkent shahar IIB, viloyatlar IIB tergov bo'linmalari boshqarmalarga aylantirildi. IIV hududiy organlari tergov bo'linmalarining namunaviy tuzilishi, O'zbekiston Respublikasi IIV Bosh tergov boshqarmasi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi, IIV tergov bo'linmalari faoliyatining asosiy vazifalari belgilandi;

- Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi (YHXBB) bo'linmalarining asosiy vazifalari belgilandi, O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB to'g'risidagi nizom, uning tashkiliy shtab tuzilishi tasdiqlandi. YHX xizmati xodimlari soni qisqartirildi va ular profilaktika xizmatini mustahkamlashga qaratildi;

- ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarning oldini olish bo'linmalari jinoyatchilikka qarshi kurashishda markaziy o'rinni egalaydi, huquqbuzarliklarni umumiy va individual oldini olish ishlarini, mamlakatda huquqiy tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ishni tashkil etadi;

- O'zbekiston Respublikasi IIV Davlat yong'in xavfsizligi xizmati (DYXX) tashkil etildi.

2004-yilning iyul oyida «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Farmon qabul qilindi, mazkur Farmon jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish, tergov va tezkor-qidiruv faoliyatining eng zamonaviy shakl, usul va vositalarini qo'llashga asoslangan harakatchan, tez moslashuvchi va yuqori malakali huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va to'xtatish tizimini shakllantirishga qaratilgan.

Shunday qilib, Ichki ishlar vazirligi tuzilishida chuqur tizimli islohotlar amalga oshirilgan edi.

**Ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish** 1991-yil 25-oktabrdagi «Ichki ishlar vazirligi to'g'risida»gi Nizom bilan belgilanadi. Vazirlikning asosiy vazifasi bo'lib, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini muhofaza qilishni va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta'minlash hisoblanadi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tuziladi va tugatiladi, so'ngra mazkur Farmon O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan tasdiqlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi oldida o'z zimmasidagi vazifalarning hal etilishi uchun javob beradi. Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadigan vazir boshchilik qiladi. Ichki ishlar vaziri vakolatlari «Ichki ishlar vazirligi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan.

Vazir bo'lmagan hollarda uning vazifalarini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari bajaradi. Vazifalarni kelishilgan holda hal etish va funksiyalarni amalga oshirish uchun vazirlikda hay'at tuziladi. Hay'at qarorlari vazir tomonidan imzolanadi va ularning ichki ishlar organlari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Vazirlik hay'ati boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qarorlar qabul qilishi mumkin. Bunday hollarda qabul qilingan qarorlar, odatda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri va tegishli vazirliklar va idoralar rahbarlarining buyruqlariga ko'ra, hayotga tatbiq etiladi.

Vazirlikning markaziy apparati va ichki ishlar organlari boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslar hamda o'zining shaxsiy, ma'naviy va kasb fazilatlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan xizmatchilar bilan to'ldiriladi.

Vazirlik markaziy apparati va ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatni o'tash tartibi hamda shartlari ichki ishlar organlari oddiy va boshliqlar tarkibining xizmatni o'tash haqidagi tasdiqlangan nizom bilan belgilanadi.

**2. Harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari.** Harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlariga ishlarning taalluqliligi ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek, o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyat alomatlar mavjud bo'lgan harakatlar (harakatsizliklar); xizmat vazifasini bajarish chog'ida yoki qism, qo'shilma, muassasa yoki o'quv yurti hududida O'zbekiston Respublikasi



Qurolli Kuchlari xodimlari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bilan cheklangan. Surishtiruvni yuritish chog'ida mazkur shaxslar JPKda nazarda tutilgan qoidalarga amal qiladi.

**3. Milliy xavfsizlik xizmati organlari** tomonidan surishtiruv milliy xavfsizlik xizmati tergovchilariga taalluqli bo'lgan ishlar bo'yicha o'tkaziladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 150—163, 182, 223, 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat ishlari. Jinoyat kodeksining 167, 176—181, 184, 185, 185<sup>2</sup>, 186<sup>3</sup>, 188—192, 244<sup>1</sup>, 244<sup>3</sup>-moddalar bo'yicha jinoyat ishi milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan qo'zg'atilgan bo'lsa, bu jinoyat ishlari bo'yicha ham surishtiruv MXX organlari tomonidan amalga oshiriladi.

MXX organlari tomonidan surishtiruvni amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lib, JPK va 1991-yil 2-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida»<sup>1</sup>gi Nizom hisoblanadi.

**4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolatorlari hamda turmalarning boshliqlari.** Mazkur mansabdor shaxslar shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek, mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha jinoyat ishlarini qo'zg'atishi va surishtiruvni amalga oshirishi mumkin.

**5. Davlat yong'indan nazorat qilish organlari.** O'zbekiston Respublikasi davlat yong'in nazoratini amalga oshiruvchi organlar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimiga kiradi va amaldagi qonun hujjatlariga rioya qiladi. Bu organlar faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 17-maydagi 227-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi davlat yong'in nazorati to'g'risida»gi Nizom bilan tartibga solinadi. Mazkur nizomga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat yong'in nazorati yong'in chiqishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlash va yong'inga qarshi ahvolni yaxshi-

---

<sup>1</sup> Mazkur Nizomga O'zbekiston Respublikasi VMning 24.11.1995-yildagi 442-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi VMning 01.05.2002-yildagi 150-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi VMning 26.05.2005-yildagi 135-sonli qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan.

lash bo'yicha asosli tavsiyalar berish hamda respublikada shaharlar, aholi punktlari va xalq xo'jaligi obyektlarining yong'in xavfsizligini zarur darajada saqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasida davlat yong'in nazorati organlari hisoblanadilar: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yong'inidan muhofaza qilish boshqarmasi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmalarining yong'inidan muhofaza qilish boshqarmalari va bo'limlari; shaharlar, tumanlar va shaharlardagi tumanlar ichki ishlar bo'limlarining davlat yong'in nazorati bo'limlari, inspeksiyalari, inspektorlari, O'zbekiston Respublikasi IIV axloq tuzatish ishlari boshqarmasi, transport ichki ishlar boshqarmalari, bo'limlari, ichki ishlarning transport yo'lida ishlovchi bo'limlari; Ichki ishlar vazirligining shaharlarni, aholi punktlarini va xalq xo'jaligi obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha harbiylashtirilgan va professional yong'inidan muhofaza qilish otryadlari va qismlari; O'zbekiston Respublikasi IIV yong'inidan muhofaza qilish boshqarmasiga bevosita bo'ysunuvchi yong'inidan muhofaza qilish bo'limlari.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, yong'inlar va yong'in xavfsizligi qoidalari buzilishiga oid ishlar bo'yicha surishtiruv o'tkazish davlat yong'in nazorati vazifalari qatoriga kiradi.

**6. Chegarani qo'riqlash organlari** O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati bo'linmasi hisoblanadi. Chegara qo'riqlash organlarining surishtiruv o'tkazishining huquqiy asosi bo'lib, JPK hamda «O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi Nizom xizmat qiladi. Mazkur organlar davlat chegarasini buzish bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha surishtiruvni o'tkazadi.

**7. Olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari.** Dengiz kemalari kapitanlarining protsessual vakolatlari biron-bir toifadagi ishlar bilan chegaralanmagan. Tegishli portga yetib kelgunga qadar, dengiz kemasida sodir etilgan barcha jinoyatlar bo'yicha dalillarni aniqlash va mustahkamlash maqsadida surishtiruv o'tkazilishi lozim.

**8. Davlat bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari.**

**Davlat bojxona xizmati.** Boj qonunchiligi sohasidagi qonun buzilishi to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruvni o'tkazish Jinoyat-protsessual kodeksiga (38-modda) binoan, davlat bojxona xizmati organlari zimmasiga yuklatilgan.

Surishtiruvni o'tkazish bo'yicha davlat bojxona xizmati organlarining vakolatlari JPK, «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi.

**Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari** soliq va valutaga oid qonunchilik sohasidagi qonun buzilishi to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruvni o'tkazadi<sup>2</sup>.

**9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti hamda uning hududiy boshqarmalari.**

Avval aytganimizdek, O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 14-yanvardagi «Ijro ishi yuritish takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-199-sonli Qonuniga binoan, sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarini majburiy ijro etish huquqiga ega bo'lgan Sud departamenti va uning hududiy boshqarmalari mansabdor shaxslari voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashga, sud qarorini bajarmaslikka, shuningdek, band solingan mol-mulknii qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo'yicha surishtiruvni amalga oshirish vakolatiga ega bo'ldilar. Mazkur o'zgartirishlar sud qarorlarini ijro etish sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishning samarali tizimini yaratishga qaratilgan<sup>3</sup>.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Mazkur mavzuni o'rganish chog'ida talabalar militsiya, milliy xavfsizlik xizmati organlari, davlat yong'in nazorati organlari, chegarani qo'riqlash organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hu-*

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Qonuni.

<sup>2</sup> Mazkur Departament huquqiy maqomini tartibga solish va uning faoliyatini tashkil qilish masalalari darslikning 13-bobida yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi «Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti to'g'risida»gi Nizomga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-apreldagi PQ-331-sonli Qaroriga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 18, 147-modda) qarang.

<sup>3</sup> Sud departamentning tashkiliy-huquqiy asoslari darslikning 12-bobida batafsil ko'rib chiqilgan.

*zuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti kabi organlarni tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslariga e'tiborlarini qaratishi lozim. Ularning vakolatlari doirasini o'rganish jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish funksiyasining mohiyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.*



## NAZORAT SAVOLLARI

---

1. Dastlabki tergovning mohiyati va mazmuni nimadan iborat?
2. Dastlabki tergov qanday vazifalarni bajaradi?
3. Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazish zaruratini qaysi sabablar keltirib chiqaradi?
4. Dastlabki tergovga ta'rif bering va uning vazifalarini tavsiflang.
5. Dastlabki tergov organlarini ayting.
6. Hozirgi vaqtda qaysi idoralarda tergov apparati mavjud?
7. Turli idoralar tergovchilari o'rtasida vakolatlar qanday taqsimlanadi?
8. Jinoyat ishlarining tergovchilarga tegishliligi qaysi me'yoriy-huquqiy hujjat bilan aniqlanadi?
9. Prokuratura tergovchilarini kim lavozimga tayinlaydi va ozod etadi?
10. Prokuratura tergovchilarini intizomiy javobgarlikka tortish asoslari va tartibining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud va ularni qanday rag'batlantirish choralari nazarda tutilgan?
11. Surishtiruv mohiyati va vazifalarini tavsiflang.
12. Qaysi organlar jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvni o'tkazish huquqiga ega? Ularning vakolatlari qanday taqsimlanadi?
13. Surishtiruv organlari vakolatlari qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatda belgilangan?
14. Surishtiruv organi sifatida militsiyaning boshqa surishtiruv organidan farqi nimadan iborat?
15. Jamoat vakillari jinoyatlarni tergov qilishda qanday shakllarda ishtirok etishi mumkin? Bu hollarda qaysi shartlarga rioya qilish kerak?
16. O'zbekiston Respublikasining MXX zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni aytib o'ting.
17. MXX organlari faoliyati qaysi prinsiplar asosida amalga oshiriladi?
18. O'zbekiston Respublikasining IIV zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan?
19. Bojxona organlarining asosiy vazifalarini aytib o'ting.

20. Bojxona organlari zimmasiga qanday majburiyatlar yuklatilgan?
21. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti vazifalarini ayting.
22. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan?
23. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi qanday huquqlarga ega?

### **MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR**

1. Jinoyatlarini aniqlash va tergov qilish funksiyasini huquqni muhofaza qilish faoliyati funksiyasi sifatida tavsiflang. Ish shakli — *referat*.
2. MDH davlatlari hamda boshqa xorij davlatlaridagi dastlabki tergovning asosiy modellarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
3. Surishtiruv va dastlabki tergov o'rtasidagi o'zaro munosabatini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
4. Tergovchi va surishtiruvchining protsessual holatini taqqoslang. Ish shakli — *referat*.
5. Surishtiruv va tergov organlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.

### **Axborot uslubiy ta'minot**

1. *I.A. Karimov*. Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir. (Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashi sessiyasida so'zlangan nutq, 1996-yil 16-mart.) Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. T., «O'zbekiston», 1996.

2. *I.A. Karimov*. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2005-yil 28-yanvar.) O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. T., «O'zbekiston», 2005.

3. *I.A. Karimov*. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust.) T., «O'zbekiston», 2007.

4. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

## Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda «Prokuratura to'g'risida»gi 746-XII sonli Qonuni (yangi tahrir). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 168-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 257-II sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T., 2001, № 9—10, 168-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

5. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

6. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 23-dekabrda «Amnistiya aktini qo'llash tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-193-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2008, № 12, 636-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari to'g'risida»gi PF-313-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 30-martda «O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasini tashkil etish to'g'risida»gi PF-2277-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustda «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi PF-3644-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2005, № 32—33, 242-modda.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrda «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida»gi 270-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to'plami. T., 1991, № 10, 36-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 2-noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi 278-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to'plami. T., 1991, № 11, 38-modda.

13. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi «Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti to'g'risida»gi Nizom (O'z-

bekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-apreldagi PQ-331-sonli Qaroriga 1-ilova). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2006, № 18, 147-modda.

14. «O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati haqida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 2-noyabrdagi 278-sonli qaroriga 1-ilova). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

15. «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi 270-sonli qaroriga 1-ilova). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

16. «O'zbekiston Respublikasi davlat yong'in nazorati haqida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 17-maydagi 227-sonli qarori bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

### Maxsus adabiyotlar

1. *Г.А. Абдумаджидов*. Развитие законодательства о расследовании преступлений. Т., «O'zbekiston», 1974.

2. *Г. Абдумаджидов*. Расследование преступлений. (Процессуально-правовое исследование). Т., «O'zbekiston», 1986.

3. *Ж.Н. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). Т., TDYI, 2010.

4. Jinoyat protsessi (Umumiy qism). Yuridik institut va fakultetlari talabalari uchun darslik (Z.F. Inog'omjonovanning umumiy tahriri ostida). Т., TDYI, 2008.

5. *М.Н. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva*. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. Ilmiy-publitsistik nashr. Т., TDYI, 2009.

6. *Б.Б. Хидоятов*. Проблемы регулирования дознания в Республике Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата юридических наук. Т., ТГЮИ, 2002.

7. *Б.Б. Хидоятов*. Дознание в Республике Узбекистан. Учебное пособие. Под общ. ред. проф. Г.А. Абдумаджидова. Т., ТГЮИ, 2005.



## V bo'lim

# HUQUQIY YORDAMNI TA'MINLASH ORGANLARI

### 15-bob. HUQUQIY YORDAMNI TASHKIL ETISH VA KO'RSATISH

#### O'quv maqsadlari

*Mazkur mavzuning maqsadlari talabalarni fuqarolarning malakali yuridik yordam olish huquqini belgilaydigan konstitutsiyaviy qoidalar bilan tanishtirishga, advokatura institutining huquqiy maqomi va uning vazifalarini o'rganishga; advokaturani tashkil etish va uning faoliyati prinsiplarini anglab yetishga; advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllarini ko'rib chiqishga; shuningdek, advokatlarning huquq va majburiyatlarini o'rganishga qaratilgan.*

#### 15.1. Advokatura tushunchasi, uning vazifalari va advokatlik faoliyati turlari

**Advokatura** — huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi.

*(«Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasi.)*

*Advokatura tushunchasi va uning vazifalari.* Qonun ustuvorligi hamda fuqarolarning va birlashmalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilinishini tan oladigan har qanday davlatda advokatura muhim huquqiy institut hisoblanadi. Har bir fuqaroning o'z farovonligiga ishonchi jamiyatda advokaturaning uyushqoqligi, mustaqilligi va huquqiy himoyalanganligi darajasiga mutanosibdir. Chunki advokaturaning asosiy vazifasi fuqaro va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda butun jamiyatga va uning a'zolariga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yuridik xizmatlar ko'rsatishdan iboratdir<sup>1</sup>. Agar hozirgi

<sup>1</sup> *Qarang.* Адвокатская деятельность. Учебно-практическое пособие. Под общ. ред. к.ю.н. В.Н. Бурбина. 3-е изд., перераб. и доп. М., «Статут», 2005, стр. 15.



jamiyat odillik va insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lgan taqdirda bugungi kunda advokatlarga ehtiyoj bo'lmas edi. Ommaviy institut va huquqni himoya qilishning ijtimoiy ko'rinishi bo'la turib, advokatura jamiyat uchun hayotiy zarur bo'lgan funksiyalarni bajaradi<sup>1</sup>.

Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari to'liq ravishda amalga oshirilishi faqat ular ishni bilgan holda va malakali himoya qilinganda mumkindir. Boshqacha qilib aytganda, ushbu faoliyat fuqarolik jamiyatining maxsus instituti — advokatura tomonidan amalga oshirilishi kerak. Advokatura nooshkor ijtimoiy shartnomani oshkor etish shakli sifatida, ijtimoiy o'zaro yordam turi sifatida, odil sudlovni tegishli tarzda amalga oshirish ustidan mustaqil fuqarolar nazorati sifatida, adliya va qonun ijodkorligi sohasidagi davlat siyosatiga ijtimoiy ta'sir etish omili sifatida, hokimiyat zo'ravonligini tiyib turuvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Advokatura og'ir ahvolga tushib qolgan zaif va muhtojlarga vasiylik qilish orqali paternalistik funksiyani, ijtimoiy ongni mustahkamlash orqali ijtimoiy-psixologik funksiyani, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish orqali mediatorlik funksiyasini, jamiyatni kamol topishga, takomillashishga undash orqali ijtimoiy-tanqidiy funksiyani, huquqiy ma'rifatni ommalashtirish va insonlarni o'z muammolarini qonun doirasida va qonun orqali hal etishga o'rgatish orqali ijtimoiy-pedagogik funksiyani amalga oshiradi<sup>2</sup>.

Advokatlik faoliyatini amalga oshirish doimo har bir jamiyatning madaniy, ijtimoiy, siyosiy va tarixiy hayot tarzi bilan uzviy bog'liqlikda qaralgan. Har qanday demokratik jamiyatda advokatlarning odil sudlovni amalga oshirishda, nizolarning oldini olish va ularni hal etishda, shuningdek, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi<sup>3</sup>.

Advokaturani davlat institutlari qatoriga kiritilishining yuridik asossizligi va ijtimoiy nomuvofiqligi hamma tan olgan fakt hisoblanadi<sup>4</sup>. Ko'pincha ushbu nuqtayi nazar quyidagicha asoslan-

---

<sup>1</sup> *А.В. Воробьев, А.А. Поляков, Ю.В. Тихонравов. Теория адвокатуры. М., «Грантъ», 2002, стр. 140.*

<sup>2</sup> O'sha yerda.

<sup>3</sup> Изложение мотивов для рекомендации Комитета Министров Совета Европы государствам-членам Совета Европы «О свободе осуществления профессии адвоката». Журнал «Адвокатские вести», 2002, № 1, стр. 2.

<sup>4</sup> *Н. Андрианов. Адвокатура и гражданское общество. Журнал «Адвокатские вести», 2001, № 7, стр. 6.*

tiriladi: davlat organlari tizimiga kirmaydigan barcha institutlar fuqarolik jamiyatiga tegishlidir, demak, advokatura ham fuqarolik instituti hisoblanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni birinchi moddasida advokaturaga ta'rif berilgan: «Advokatura — huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi». Ko'rib turganimizdek, qonun chiqaruvchi advokatura fuqarolik jamiyati institutlaridan birimi yoki yo'qmi kabi falsafiy va siyosiy savollarga ahamiyat bermay, advokaturani huquqiy institut deb atab qo'ygan. Qonunning I-moddasi, shuningdek, ushbu institutning tarkibiy ro'yxatini ham belgilab qo'ygan: advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalari.

Bizning fikrimizcha, advokatura davlat yoki fuqarolik jamiyati institutlariga tegishliligini hal etish masalasi falsafiy xulosa chiqarish mavzuyidir. Fuqarolik jamiyati nazariyasi ko'p faylasuflarning tadqiqot mavzuyi bo'lgan. Hozirgi kunda fuqarolik jamiyati masalalariga bag'ishlangan juda ko'p adabiyotlar mavjud.

Fuqarolik jamiyatining eng yaxlit konsepsiyasi Gegel tomonidan yaratilgan. Fuqarolik jamiyati va siyosiy davlatni bir-biridan ajratgan holda Gegel fuqarolik jamiyatini aslini olganda burjuaziya jamiyatiga tenglashtirgan<sup>1</sup>. Gegel yozishicha, fuqarolik jamiyati faqatgina har qanday g'oyaga o'z huquqini beradigan hozirgi zamonda barpo etilgan<sup>2</sup>. Fuqarolik jamiyati — alohida shaxsning maxsus, xususiy maqsad va manfaatlarini amalga oshirish sohasidir. Huquqning rivojlanishi nuqtayi nazaridan bu zaruriy bosqich, chunki aynan shu yerda umumiy va maxsusning o'zaro aloqadorligi, o'zaro bog'liqligi namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyatining qonunchilik, sud va politsiya tomonidan himoyalananadigan oliy manfaatlarini ushbu soha doirasi ortida, ya'ni davlat sohasiga kiradi<sup>3</sup>.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi borasida olib borilgan ko'pchilik tadqiqotlarga qaramasdan, yuqorida aytib o'tilganidek,

<sup>1</sup> В.С. Нерсесянц. *Философия права. Учебник для вузов.* М., «НОРМА-ИНФРА М», 1999, стр. 502.

<sup>2</sup> Гегель. *Философия права.* М., 1990, стр. 228.

<sup>3</sup> В.С. Нерсесянц. *Философия права. Учебник для вузов.* М., «НОРМА-ИНФРА М», 1999, стр. 502.

bugungi kunda umumiy, yagona fuqarolik jamiyati tushunchasi haligacha topilmagan. Lekin fuqarolik jamiyatining qonuniy ta'rifi yo'qligi bu jamiyatni anglashga to'siq bo'la olmaydi. Chunki, fuqarolik jamiyati prinsiplari huquqiy (sud) qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan, birinchi navbatda, bu siyosiy kategoriya<sup>1</sup>.

Bizning fikrimizcha, «advokatura», «fuqarolik jamiyati» va «davlat» o'zaro bog'liq tushunchalardir. Advokatura bu jamiyatda barcha shaxslarning, ya'ni fuqarolik jamiyatining, huquq va manfaatlarini himoya qilish ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan jamiyat faoliyati samarasidir. Advokaturaning tashkiliy-huquqiy asoslarini esa qonun chiqaruvchi hokimiyat orqali davlat belgilaydi, ya'ni advokatura bu qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish maqsadida faoliyat olib boradigan huquqiy institutdir. Ya'ni advokatura faoliyati davlat tomonidan qabul qilinadigan qonun bilan belgilanadi. Jamiyat manfaatlarini himoya qilish davlatning vazifasi, bu himoya advokat faoliyatini ko'zda tutish orqali amalga oshiriladi. «Davlat», «fuqarolik jamiyati» va «advokatura» institutlarini uzviy bog'laydigan bo'g'in bu huquq, ya'ni Qonun, xususan, «Advokatura to'g'risida»gi Qonun, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonun. Jamiyatning advokaturaga ehtiyoji, zarurati jamiyat manfaatlarini yo'lida bu institutning rivojlanishi va faoliyatini tartibga solishi kerak bo'lgan davlatni ushbu ehtiyojga e'tiborini qaratishga majbur qiladi. Fuqarolik jamiyati va davlatning barcha sohalarining mukammallashgani sayin advokatura instituti va advokatlik faoliyatini yanada isloh qilish zarurati paydo bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganlarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha milliy markazi direktori, professor, yuridik fanlar doktori A.X. Saidov fikriga qo'shilamiz. Uning fikricha, advokatura — har bir shaxsning malakali yuridik yordam olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini kasbiy asosda ta'minlashga qaratilgan demokratik huquqiy institut. Advokaturaning ahamiyati inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatdagi konstitutsiyaviy qonuniylik rejimini mustahkamlashda

---

<sup>1</sup> A.V. Воробьев, А.А. Поляков, Ю.В. Тихонравов. Теория адвокатуры. М., «Грантъ», 2002, стр. 165.

namoyon bo'radi<sup>1</sup>. Axir fuqarolik huquqiy jamiyat sharoitida advokatura tom ma'noda ommaviy fikr ko'zgusi sanaladi.

Advokatura faoliyati sud (odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi) ishi bilan bog'liq bo'lgan ommaviy-huquqiy xarakterga ega, bu esa advokatura va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini advokaturaning mustaqilligi, korporativligi va o'zini o'zi boshqarish prinsiplarini e'tiborga olgan holda aniq-ravshan, qonun doirasida tartibga solinishini taqozo etadi<sup>2</sup>. Shubhasiz, erkin va mustaqil advokaturaning mavjudligi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi.

Ushbu jarayonni optimallashtirish maqsadida 2008-yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»<sup>3</sup>gi PF-3993-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitutsiyaviy normani amalga oshirish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta'minlash, uni yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirish, advokatlarining mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish, advokatlik kasbining obro'si va nufuzini oshirishga qaratilgan.

Ushbu Farmon advokatura institutini isloh qilishning asosiy vazifalarini belgilab berdi:

- inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan advokaturaning samarali o'zini o'zi boshqaradigan markazlashtirilgan tizimini tashkil qilish;

- advokatlikka nomzod shaxslarning malakasiga nisbatan qo'yilayotgan talablarni kuchaytirish, ularning yuridik soha bo'yicha

---

<sup>1</sup> *A.X. Саидов. Международные стандарты и законодательство об адвокатуре в странах Центральной Азии. «Современное состояние адвокатуры в странах Центральной Азии: проблемы и перспективы». Материалы Международной региональной конференции (4—7 февраля 2003 г. Ташкент, Узбекистан). Т., 2003, стр. 8.*

<sup>2</sup> *А.П. Галоганов. Адвокатура и государство. «Современное состояние адвокатуры в странах Центральной Азии: проблемы и перспективы». Материалы Международной региональной конференции (4—7 февраля 2003 г. Ташкент, Узбекистан). Т., 2003, стр. 48.*

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. Т., 2008, № 18, 144-modda.

ish tajribasiga ega bo'lishi va advokatlik tuzilmalarida amaliyot o'tashini belgilash, shuningdek, advokatlarning muntazam ravishda kasbga oid malakasini oshirishning majburiyligini joriy qilish;

- advokaturani halol va kasb mahorati yuqori mutaxassislar bilan to'ldirishni ta'minlaydigan samarali litsenziyalash tizimini tashkil etish;

- advokatlik tuzilmalarining vakolatlarini aniqlashtirish va huquqiy maqomini belgilab berish;

- jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarining protsessual huquqlari tengligini ta'minlash;

- huquqshunoslik sohasida maxsus bilimga ega bo'lmagan shaxslarning sud ishida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaslikka qaratilgan taraflar vakilligi institutini bosqichma-bosqich takomillashtirish;

- advokatlar tomonidan kasb etikasi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmi va advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritish tizimini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3993-sonli Farmoni asosida ishlab chiqilgan «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun Jinoyat kodeksiga, Jinoyat protsessual kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga, Jinoyat-ijroiya kodeksiga, «Advokatura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutgan va quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga olgan:

- 1) advokatlikka nomzod shaxslarning malakasiga nisbatan qo'yilayotgan talablarni kuchaytirish, ularning yuridik soha bo'yicha ish tajribasiga ega bo'lishi va advokatlik tuzilmalarida amaliyot o'tashini belgilash, shuningdek, advokatlarning muntazam ravishda kasbga oid malakasini oshirishning majburiyligini joriy qilish nazarda tutilgan;

- 2) advokaturani halol va kasb mahorati yuqori mutaxassislar bilan to'ldirishni ta'minlaydigan samarali litsenziyalash tizimini tashkil etish nazarda tutildi;

- 3) advokatlik tuzilmalarining vakolatlari aniqlashtirildi va huquqiy maqomi belgilandi;

4) inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan advokaturaning samarali o'zini o'zi boshqaradigan markazlashtirilgan tizimini tashkil qilishni nazarda tutadi;

5) advokatlar tomonidan kasb etikasi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmi va advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritish tizimi takomillashtirilmoqda;

6) jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarining protsessual huquqlari tengligi ta'minlanmoqda<sup>1</sup>.

Umuman qabul qilingan Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3993-sonli Farmonida nazarda tutilgan advokatura institutini yanada isloh qilish hamda inson huquqlari va erkinliklarining samarali himoya qilinishini har tomonlama ta'minlashga qaratilgan.

Advokatura **vazifalari** «Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida ham belgilangan — «Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi». Boshqacha qilib aytganda, advokatura oldida barcha jismoniy, yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, odil sudlovni amalga oshirishga, qonuniylikka rioya qilish va uni mustahkamlash, fuqarolarni qonunlarni aniq va qat'iy bajarish, boshqa shaxslar huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga ko'maklashish vazifalari qo'yilgan. Bunday vazifa amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti maqsadlaridan kelib chiqadi: «advokatlar tizimining mavqeyi va ahamiyatini keskin ko'tarish lozim. Ular, birinchi navbatda, sudlov amaliyotida konstitutsiyaviy va huquqiy me'yorlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlashlari, o'z himoyalardagi fuqarolarning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishlari kerak»<sup>2</sup>. Shu bilan birga, Prezident I.A. Karimov advokatura institutini takomillash-

---

<sup>1</sup> Mazkur o'zgartirishlar darslikning 15-bobidagi keyingi paragraflarida batafsil ko'rib chiqiladi.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. (Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida so'zlangan nutq, 1996-yil 29-avgust.) Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. T. 5. T., «O'zbekiston», 1997, 128-bet.

tirilishi quyidagi maqsadga erishishga qaratilgan bo'lishi kerakligiga e'tiborni qaratadi: «odamlar faqatgina sudga ishi tushganda emas, balki kundalik hayotida ham advokatlar xizmatidan, ularning maslahat va tavsiyalaridan foydalana oladigan bo'lsinlar»<sup>1</sup>. Advokatura instituti o'z faoliyatini qaysi yo'nalishlarda amalga oshirishini ko'rib chiqamiz.

**Advokatlik faoliyatining turlari.** Advokatura oldida turgan vazifalarni amalga oshirishga advokatlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'ysungan. «Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasi advokatlik faoliyatining quyidagi turlarini belgilaydi:

1) huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonun hujjatlari yuzasidan og'zaki va yozma ma'lumotnomalar berish. Og'zaki va yozma shakllarda huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar va ma'lumotnomalar berish amaldagi qonunchilik mazmuni borasida aholining xabardorligini ta'minlaydi. Advokat aniq huquqiy munosabat mavjudligidan yoki ma'lumot olish fuqaroning qiziqishi bilan vujudga kelganligidan qat'i nazar, maslahatlar va ma'lumotnomalar beradi. Maslahat amaldagi qonunchilikni tushuntirishi bo'lsa, ma'lumotnoma — qonunning u yoki bu qoidalari mazmuni haqida ma'lumotni tashkil etadi;

2) huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzish. Ushbu hujjatlar, odatda, huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki tugatilishi haqidagi iltimos yoki talabni o'z ichiga oladi.

*Ariza* — bu huquqiy munosabatni vujudga keltirish haqida asoslangan iltimosni o'z ichiga olgan hujjatdir. Bunday iltimos ravshan, tegishli adresatga mo'ljallangan va arizachi tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

*Shikoyat* — bu yuqori organga yoki yuqori mansabdor shaxsga qaratilgan va qarorni o'zgartirish yoki bekor qilish, shikoyat keltirilgan organing (mansabdor shaxsning) harakati yoki harakatsizligini taqiqlash yoxud uni noqonuniy deb topish to'g'risidagi iltimosni o'z ichiga olgan hujjatdir.

*Iltimosnoma* — bu shaxsiy yoki vakillik huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarish maqsadida harakatni amalga oshirish, qaror

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Qonun va adolat ustuvorligining hayotbaxsh manbayi. (Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq, 1998-yil 5-dekabr.) Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. T., «O'zbekiston», 1999, 251-bet.

qabul qilish yoki uni rad etish to'g'risida arz qilingan tegishli hokimiyat vakolatlariga ega organ yoki mansabdor shaxslarga berilgan rasmiy iltimosdir;

3) fuqarolik ishlari hamda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirish. Advokatning vakil sifatidagi vakolatlari protsessual qonunchilikda belgilangan;

4) jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergovda va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etish. Ko'rib turganimizdek, jinoyat-sudlov ishlarini yuritishda advokat ham ayblov, ham himoya tarafida ishtirok etishi mumkin. Bundan tashqari, «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi-ning ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan jinoyat-sudlov ishlarida advokat ishtirokining yangi shakli nazarda tutilgan — guvohning advokati sifatida;

5) tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatish.

Advokat O'zbekiston qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa yuridik yordam turlarini ham ko'rsatishi mumkin. Bu advokat tomonidan ko'rsatilayotgan yuridik yordam turlari ro'yxati tugal emasligini anglatadi. Yordamning boshqa turlari ular qonunda belgilanganligidan qat'i nazar, advokat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

**Advokatlik faoliyati prinsiplari.** Ilmiy adabiyotlarda prinsiplar haqida turli xil fikrlar aytib o'tilganligiga qaramay, prinsiplar bu — u yoki bu faoliyat (jarayon) amalga oshirilganda, umumiy amal qilinadigan qoidalardir, degan fikr barcha mualliflar tomonidan tan olinadi. Advokaturaga doir prinsiplarni fuqarolik jamiyatining ushbu instituti tashkiliy asoslari va faoliyatini tartibga soladigan, davlat tomonidan advokaturaning tegishli ravishda himoyasini va uning faoliyatiga aralashmaslikni ta'minlaydigan qonunchilik mazmunini to'liq ifodalaydigan tegishli faoliyat yo'nalishlari va amalga oshirish asoslari sifatida belgilasa bo'ladi.

Advokatura faoliyati va uni tashkil etish prinsiplari bir-biri bilan mujassam bog'liq va advokatura maqsadlariga yetishish uchun bir xilda muhim bo'lgan yagona huquqiy asoslar majmuyini tashkil etadi. E'tibor berish kerakki, advokatura va advokatlik faoliyatining ahamiyati shundaki, ular advokaturaning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish uchun xizmat qiladi.



Afsuski, O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni prinsiplarning mazmun-mohiyatini ochib bermasdan, faqat ularni sanab o'tadi. Davlatimizdagi advokaturaga doir qonunchilik «advokatura o'z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida» amalga oshirishini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni 2-moddasi advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratligini belgilaydi:

- advokatning mustaqilligi;
- advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga qat'iy rioya etish;
- qonun hujjatlarida man qilinmagan usullar va vositalarni qo'llash.

Demak, qonun chiqaruvchi advokatlar faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik va mustaqillik ekanligini ta'kidlaydi.

**Qonun ustuvorligi.** O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonunida qonuniylik prinsipi advokatning huquq va majburiyatlari belgilangan qoidalar va boshqa moddalarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonunida tushuntirilgan.

Shubhasiz, qonuniylik turli xil huquq sohalari va qonunni tatbiq etishning turli tarmoqlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan umumhuquqiy prinsip hisoblanadi. Qonuniylik advokatura faoliyati va uni tashkil etish prinsipi sifatida quyidagi qoidalarni o'z ichiga oladi.

Advokatura, advokatlik tuzilmalari amaldagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etiladi. O'z faoliyati davomida advokatlar qonun talablari, huquqni tatbiq etuvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonuniy talablarini bajarishga majbur.

Amaldagi qonun hujjatlari qoidalarini buzganlik uchun advokatlar qonun bilan belgilangan javobgarlikka tortiladilar. Sodir etilgan huquqbuzarlikning xususiyati va turini e'tiborga olib, advokat intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

O.Y. Bayev va M.O. Bayev qonuniylik prinsipini ta'riflaganda eng yaxshi himoya — bu qonun himoyasidir, deb ta'kidlashadi. Bu qoida advokatni huquqqa (jinoiyat, jinoiyat protsessual, ma'mu-

riy, fuqarolik va boshqalar) oid har bir harakati, qarori yoki il-timosi tegishli qonunga, sud sharhlari aktlariga tayangan holda asoslashga majbur qiladi<sup>1</sup>.

Qizig'i shundaki, ushbu mualliflar himoyaning taktik usullari maqbulligi prinsipi mezonlari sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tishadi:

- qonuniylik (nima taqiqlanmagan bo'lsa, hammasiga ruxsat berilgan);

- tanlashlik (taktik usul himoya ostidagi shaxsga e'lon qilingan aybga nisbatan kamida betaraf bo'lishi lozim);

- axloqiylik.

Oxirgi va, bizning fikrimizcha, eng muhim mezon taktik usul ish materiallari bilan asoslanmagan biron-bir protsess ishtirokchilarining sha'ni va qadr-qimmatini kamsitivchi ma'lumotlarni ichiga olmasligi lozim. Agarda, ushbu ma'lumotlar himoya ostidagi shaxsning aybdorligi yoki uning javobgarlik darajasiga ta'sir etmasa, bu ma'lumotlar hech qanday holatda ishlatilmasligi lozim. Himoyachi:

- sodir etilgan jinoyatni oqlash;

- o'zining himoyasi ostidagi shaxs yoki uchinchi shaxslarning aybi yo'q shaxslarga tuhmat qilishga undash yoki provokatsiya qilish;

- himoya ostidagi shaxsning ongli ravishda va erkin holda o'z aybiga iqrор bo'lishi, shuningdek, unga ayb e'lon qilinmagan jinoyatlarni sodir qilganlikda ham iqrор bo'lish niyatiga qarshilik qilish;

- himoyada bila turib yolg'on ma'lumotlarni qo'llash, xususan, narsalar va hujjatlarning kelib chiqishi haqida, asossiz tergov va sud organlari obro'siga zarar yetkazishga haqli emas<sup>2</sup>.

Yana bir tadqiqotchi V.Y. Reznik, o'z navbatida, advokatlik faoliyati prinsiplariga xuddi shunday ma'no bergan. Boshqa prinsiplar bilan bir qatorda, u pozitsion birdamlik prinsipini (himoya pozitsiyasining yaxlitligi va kelishganligi), shuningdek, himoya ostidagi shaxsning faqat qonuniy manfaatlarini himoya qilish prinsipini aytib o'tadi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> *О.Я. Баев, М.О. Баев. Стратегические принципы тактики защиты по уголовным делам. (Криминалистические аспекты профессиональной защиты по уголовным делам.) Сб. статей. Екатеринбург, 2001, стр. 13—14.*

<sup>2</sup> O'sha joyda. 16—17-bet.

<sup>3</sup> *В.Ю. Резник. Общие вопросы тактики защиты на предварительном следствии. (Криминалистические аспекты профессиональной защиты по уголовным делам.) Сб. статей. Екатеринбург, 2001, стр. 119—121.*

Bunda himoya ostidagi shaxsning «manfaati qonuniyligi» mohiyatini ochib berishda, u O.Y. Bayev va M.O. Bayevlarning quyidagi fikriga qoʻshiladi: ayblanuvchining ayblovdan himoyalanihga qaratilgan intilishi (uning moddiy manfaati) har doim qonuniy — faqat u yoki bu himoya vositalari noqonuniy boʻlishi mumkin<sup>1</sup>.

R.M. Jamiyev ham qonuniylik prinsipi axloq masalalarini oʻz ichiga oladi deb hisoblaydi. Bu tadqiqotchi quyidagi fikrga amal qiladi: qonun bilan tartibga solinmagan kasbiy himoya taktikasi masalalari axloqiy xarakterga ega boʻlgan korporativ normalar orqali tartibga solinadi. Advokat-himoyachi axloq va odob normalarini buzmaslikka harakat qilishi kerak. Muallifning fikricha, etikopsixologik tusga ega boʻlgan taktik xatolar, axloqsiz himoya vositalarini qoʻllash, nafaqat, axloq normalariga, balki qonun normalariga ham zid<sup>2</sup>.

Taktik usullarning mezoni sifatida ularning, nafaqat, qonunga, balki axloq normalariga ham muvofiqligi hisoblanadi. Yaʼni advokat tomonidan qoʻllanadigan taktik usul axloq normalariga mos boʻlishi, protsess ishtirokchilarining shaʼni va qadr-qimmatini kamsitmasligi lozim. Axloqiy taktik usul jinoyatni himoya qilishga va uni oqlashga qaratilmagan, u himoya ostidagi shaxsning himoyasi masalalari bilan cheklangan<sup>3</sup>. Buyuk rus huquqshunosi A.F. Koni aytganidek, advokat oʻz mijozining quli, odil sudlovning adolatli jazosidan qutulib qolishda yordamchisi boʻlmasligi lozim. Jinoyat protsessida himoyachining u bilim va chuqur halollik bilan qurollangan, usullar qoʻllashda moʻtadil, moddiy jihatdan begʻaraz, mustaqil eʼtiqodli inson sifatida baholaydi<sup>4</sup>.

Butun jahonda taniqli boʻlgan «Advokatura maktabi» kitobining muallifi R. Garrisning aytishicha, oʻz mijoziga xizmat qilish uning eng yuqori, shak-shubhasiz burchi boʻlsin, lekin shu burch uchun u oʻzining inson sifatidagi majburiyatlari haqida unutmaydi va halol yoʻllar bilan yutib boʻlmaydigan ishdan voz kechadi deb umid qilsa boʻladi<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup> O.Y. Baev, M.O. Baev. Защита от обвинения в уголовном процессе. (Тактика профессиональной защиты по уголовным делам. Право обвиняемого на защиту.) Воронеж, 1995, стр. 21.

<sup>2</sup> P.M. Жамиев. Теория принятия и реализации решений в тактике профессиональной защиты. (Тактика, методика и стратегия профессиональной защиты.) Сб. статей. Екатеринбург, 2002, стр. 16—39.

<sup>3</sup> V.Y. Reznik. Koʻrsatilgan asar, 124—125-bet.

<sup>4</sup> A.Ф. Кони. На жизненном пути. СПб., 1912, стр. 29.

<sup>5</sup> P. Гаррис. Школа адвокатуры. Тула, 2001, стр. 210.

Himoyaning taktik usullari, vositalari va metodlarining axloqiylik, odoblilik prinsiplari mazmunini to'raligicha qamrab olib bo'lmasligini payqash qiyin emas. Shuning uchun yuqorida aytib o'tilgan mualliflar o'z prinsiplarini asoslashda axloqsiz xulqning tipik misollari bilan yoki uning eng umumlashtirilgan mezonlarini, ya'ni halollik, insofilik, vijdon, mo'tadillik va boshqalarni keltirish bilan cheklanadilar. Lekin shu bilan birga, ikki muhim qoida yaqqol namoyon bo'ladi:

- so'z jamiyatda hukmronlik qilayotgan hamma qabul qilgan axloq normalari haqida;

- advokatning axloqsiz, odobsiz xulqi, nafaqat, axloqsiz, jamiyat tomonidan, korporatsiya tomonidan tanbehlanadi, balki noqonuniy hamdir.

Axloqsiz, odobsiz vosita va usullar qonunga zid keladi, demak, huquqiy baholanadi, bu vosita va usullarni qo'llaydigan advokatlar esa intizomiy yoki amaldagi qonunchilik bo'yicha boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

**Mustaqillik prinsipi.** Mustaqillik prinsipiga ko'ra, advokatlik tuzilmalarini tashkil etish va faoliyatini amalga oshirish, shuningdek, advokatning kasbiy faoliyati advokatura tizimiga kirmaydigan organlar va mansabdor shaxslarning fikri, qarori va harakatlari bilan bog'liq emas. Bu mustaqillik jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblangan advokatura institutining o'ziga xos xususiyati bilan shartlangan.

*Advokatning mustaqilligi:*

- unga qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijozat berish, bu faoliyatni to'xtatib turish va tugatish;
- advokatning daxlsizligi;
- advokatlik sirini oshkor etishni talab qilishni man etish;
- advokat olib borayotgan ishlarga aralashganlik yoxud advokatning daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik;
- davlat tomonidan unga advokatlik faoliyati kafolatlari berilishi hamda ijtimoiy himoyalaniishi orqali ta'minlanadi.

Bizning qonunchiligimizda advokatlik faoliyatining mustaqilligi prinsipi O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni 5-moddasida batafsil yoritilgan.

Advokat mustaqilligi prinsipining ahamiyati advokat kasbining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan himoya funksiyasi ko'pchilik holatlarda manfaatlari davlat manfaatlariga zid bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishni talab qilishi bilan shartlangan. Shu sababli advokat davlat organlaridan mustaqil harakat qilishi lozim. Albatta, advokat ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi) shaxs bilan davlat organlari manfaatlariga qarshi bo'lgan nuqtayi nazarni yoqlash holatlari advokat ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi) shaxs nuqtayi nazarini qabul qildi, degani emas. Advokat o'z faoliyatini erkin va mustaqil amalga oshirishi uchun davlat kafolatlar yaratib beradi va bu holat xalqaro huquq normalariga muvofiq keladi.

Advokatning mustaqilligini ko'rsatuvchi muhim belgi bu qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijozat berish, bu faoliyatni to'xtatib turish va tugatish asoslari qonunda aniq ko'rsatilganligi hisoblanadi. Qonunda ko'rsatilgan asoslardan tashqari advokatning kasbiy faoliyatini cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Advokat mijoz topshirig'ini bajarish moyinida himoya usullarini qo'llashda, huquqiy pozitsiyani tanlashda, ma'lumotlar to'plashda va maslahatlar berishda mustaqil bo'lib, ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi) shaxs manfaatlariga qarama-qarshi bo'lgan ma'muriyatning (u ishlaydigan advokatlik tuzilmasi yoki kasaba uyushmasining rahbariyati) yo'l-yo'riqlari va buyruqlarini bajarishga majbur emas. Advokat o'zi ishlaydigan firma yoki hay'atga faqatgina tashkiliy tartibda mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda bo'ysunadi. Ushbu rahbarlik qiluvchi organ advokatning kasbiy faoliyatiga qonunga zid ravishda aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Aytib o'tish lozimki, advokat mustaqilligini ta'minlashning shartlaridan biri sifatida uning daxlsizligi ko'rsatib o'tilgan (O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni 6-modasi). Advokatning daxlsizligi quyidagilarda ifodalandi:

1) Qonunda advokatga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxati ko'rsatilganligi. Chunonchi, advokatga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish huquqi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahri prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarga berilgan. Qonunda ushbu normalarning belgilanishi advokatning o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish

mobaynida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya tomonidan tazyiq o'tkazilishining oldini olib, advokatning qonuniy usul va metodlar orqali mijoz manfaatlarini qat'iy himoyasini ta'minlaydi.

2) Qonunda advokatning uy-joyi yoki xizmat xonasi, shaxsiy yoki foydalanishidagi transporti va boshqa aloqa vositalari, uning yozishmalari, unga tegishi ashyolar va hujjatlarning daxlsizligi belgilanganligi. Bu daxlsizlik faqatgina jiddiy asoslar bo'lgan taqdirda va yuqorida ko'rsatilgan vakolatli shaxslar ruxsati bilan cheklanishi mumkin.

3) Qonunda advokatning ish bo'yicha huquqiy nuqtayi nazariga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek, sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emasligi ko'rsatilganligi. Bu quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

- advokatning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan qonun normalari uning mustaqilligini kafolatlaydi, demak, yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yordam ko'rsatish maqsadida erkin harakat qilish imkoniyatini beradi;

- o'z bo'yniga olingan majburiyatlarni bajarishda advokat himoya ostidagi shaxs manfaatlarini u davlatga qarshi og'ir yoki shaxsga qarshi o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganligiga qaramasdan, barcha qonuniy usullar orqali vijdonan bajarishi lozim;

- himoya ostidagi shaxsning himoyasiga kirishishdan avval, advokat u bilan kelishgan holda himoya pozitsiyasini aniqlab oladi.

Hattoki, bu huquqiy pozitsiya davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, advokat dastlabki tergovda yoki sudda himoya ostidagi shaxsning nuqtayi nazarini qo'llab-quvvatlashi lozim. Bu hollarda uning ish bo'yicha huquqiy nuqtayi nazariga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, sud esa xususiy ajrim chiqara olmaydi. Ushbu normalar advokatning daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan va ularning amaliy ro'yobga chiqishi advokat daxlsizligi prinsipi mustahkamlanishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Advokat mustaqilligini ta'minlash choralaridan biri sifatida o'z funksiyalarini bajarish davomida unga ayon bo'lgan advokatlik sirini oshkor qilishni talab qilishni man etish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni 7-moddasiga binoan, «advokatdan va uning yordamchisidan va stajoridan advokatlik siri predmeti hisoblangan holatlar to'g'risida biron-bir tushuntirish yoki ko'rsatmalar berishni talab qilish, shuningdek,

ular haqida tezkor-qidiruv faoliyatida, jinoyat ishlari, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar va boshqa ishlarni yuritishda foydalanish uchun biron-bir material taqdim etishni talab qilish man etiladi». Advokatlik sirini oshkor etish man etilishi O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni 9-moddasida o'z ifodasini topgan.

Kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida advokat manfaatlari himoyasi ostidagi shaxs yoki ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlariga zid bo'lgan shaxslar (ya'ni qarshi taraf, uning qarindoshlari, advokati va boshq.) bilan uchrashishga va suhbatlashishga, ma'lumotlar to'plash va dalillar uchun boshqa qonuniy metodlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Lekin amaliyotda ayblanuvchi yoki sudlanuvchining himoyasi vaqtida ushbu jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchi deb topilgan shaxslar yoki ularning vakillari advokatga nisbatan tazyiq o'tkazishga harakat qilishadi va himoya pozitsiyasini o'zgartirishga yoki himoya ostidagi shaxsning himoyasidan voz kechishga undashadi. Ba'zan himoya ostidagi (ishonch bildiruvchi) shaxsning manfaatlariga putur yetkazish maqsadida fuqarolik yoki xo'jalik ishlarida vakil bo'lib ishtirok etadigan advokatlarni og'dirib olishga qaratilgan harakatlar amalga oshiriladi.

Surishtiruv, dastlabki tergov, sud va prokuratura organlari tomonidan muayyan biron-bir ishni o'rganib chiqishda to'sqinlik qilish, boshqa usullar bilan ta'sir etish holatlari ham bo'lib turadi. Advokatlik faoliyatiga aralashishga yo'l qo'ymaslik maqsadida uning daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Bu esa advokatning mustaqilligi va uning manfaatlari himoyasi davlat tomonidan kafolatlanganligini anglatadi.

O'zining kasbiy majburiyatlarini amalga oshirish uchun advokat qaysidir darajada davlat apparatining qoralovchi organi hisoblangan huquqni himoya qilish muassasalari bilan ishlashga, ba'zi hollarda esa ularning manfaatlariga mos kelmaydigan vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi, shu sababli ushbu mansabdor shaxslar tomonidan advokatga to'sqinlik qilishning oldini olish maqsadida o'z kasbiy majburiyatlarini bajarish vaqtida advokat va uning kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi. Demak, davlat va boshqa organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan advokatning kasbiy huquqlari buzilishi ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo'la oladi.

«Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonunning 8-moddasiga asosan, yuridik yordam berish bilan bog'liq axborotni talab qilib olish, olib

qo'yish, ko'zdan kechirish, tekshirish, undan nusxa ko'chirish, bunday axborotni to'plash va undan foydalanish qonunda ko'rsatilgan hollardan tashqari man etiladi.

**Advokat mustaqilligining kafolatlari.** Advokaturaning butun jahon tarixi advokatlarning mustaqilligi kafolatlarini faqatgina e'lon qilinishi muammolarni yechmasligini ko'rsatadi. Advokatlar mustaqilligini ta'minlash davlat zimmasiga yuklatilgan bo'lishi lozim<sup>1</sup>.

Zamonaviy xalqaro huquqda aholiga yuridik xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida advokatning huquqni himoya qilishga qaratilgan faoliyatining tashkiliy va huquqiy kafolatlari ko'rinishida tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan, ya'ni inson huquqlarining fundamental huquqlaridan biri bo'lgan himoyalani huquqini ta'minlashga qaratilgan advokatlik faoliyatining xalqaro standartlari<sup>2</sup>. Advokatlik faoliyatining standartlari — bu xalqaro aktlarda, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan advokatning tegishli, birinchi navbatda, protsessual harakatlarining sifatiga qo'yilgan talablar, shuningdek, samarali ishlash imkoniyatini beradigan advokat amaliyoti davomida to'plangan usul va metodlar<sup>3</sup>. Odatda, advokatlik faoliyati standartlari deganda, advokatning kasbiy xislatlari va harakatlariga qo'yiladigan talablar tushuniladi. Biroq, bizning fikrimizcha, advokatlik faoliyatining standartlari bu bilan chegaralanmaydi, chunki ular amalda advokatlik faoliyatini mustaqil amalga oshirish kafolatlari hamdir.

Xalqaro miqyosda advokat faoliyatining huquqiy va axloqiy tartibga solish asosini quyidagi xalqaro-huquqiy aktlar tashkil etadi:

1. 1945-yil 26-iyundagi BMT Nizomi. Ushbu hujjatda turli xil millatlar odamlarining jinsi, tili, e'tiqodidan qat'i nazar, shunday

---

<sup>1</sup> N. Andrianov fikriga ko'ra, davlatning mazkur roli «Tavsiya»ning muqaddimasida quyidagicha ifoda etilgan: odil sudlovning adolatli tizimi advokatlarning mustaqilligini ta'minlaydi. *Qarang*: Адвокатская деятельность в Республике Узбекистан. Учебник для студентов бакалавриата. В 2-х томах. Т. 1. Отв. ред. М.Х. Рустамбаев, Л.Б. Хван. Т., «Консаудитинформ-Нашр», 2007, стр. 17.

<sup>2</sup> А.Х. Саидов. Международные стандарты и законодательство об адвокатуре в странах Центральной Азии. «Современное состояние адвокатуры в странах Центральной Азии: проблемы и перспективы». Материалы Международной региональной конференции (4—7 февраля 2003 г. Ташкент, Узбекистан). Т., 2003, стр. 8.

<sup>3</sup> *Qarang*: Адвокатская деятельность. Учебно-практическое пособие. Под общ. ред. к.ю.н. В.Н. Буробина. 3-е изд., перераб. и доп. М., «Статут», 2005, стр. 130.



sharoitlar yaratish kerakki, unda inson huquqlari hurmat qilinadi va qonuniylikka rioya qilinadi.

2. 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi<sup>1</sup>. Unda insonlarning qonun oldida tengligi, aybsizlik prezumpsiyasi, sudda ishlarni xolis va ochiq holda ko'rilishi va eng muhimi himoya kafolati prinsiplari belgilab qo'yilgan.

3. 1966-yil 19-dekabrda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt<sup>2</sup>. Ushbu pakt BMT Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy qoidalarini tasdiqlaydi.

4. BMTning Jinoyatlar oldini olish bo'yicha Sakkizinchi kongressi tomonidan 1990-yilda Nyu-Yorkda qabul qilingan Advokatlar roli to'g'risida asosiy qoidalar<sup>3</sup>. Ularda quyidagi holatlar belgilangan:

a) qo'rqitishsiz, to'siqlarsiz, tashvishlarsiz va noo'rin aralashishlarsiz barcha kasbiy majburiyatlarni amalga oshirish imkoniyati;

b) erkin bir joydan ikkinchi joyga ko'chish va mijozlarga o'z davlatida va boshqa davlatlarda maslahatlar berish imkoniyati;

d) kasbiy majburiyatlar, standartlar va axloq normalari asosida amalga oshirilgan maxsus harakatlar uchun javobgarlikka tortilmaslik, ma'muriy, iqtisodiy va boshqa sanksiyalarning qo'llanilmasligi imkoniyati;

e) advokat xavfsizligi kasbiy majburiyatlarini bajarish vaqtida xavf-xatar ostida bo'lsa, u davlat tomonidan tegishli ravishda himoyalangan bo'lishi lozim;

f) agarda advokat milliy qonunchilik va uni qo'llash amaliyoti bilan diskvalifikatsiya qilinmagan bo'lsa, sud yoki ma'muriy organ advokatning mijoz manfaatlarini ifodalash huquqini tan olishni rad etmasligi lozim;

g) tegishli ma'lumotlar, hujjatlar va ish materiallari bilan o'z vaqtida, jinoyat protsessida esa dastlabki tergov tugagach va sud muhokamasidan oldin tanishish imkoniyatini advokat uchun ta'minlash vakolatli hokimiyat organlarining majburiyati sanaladi.

<sup>1</sup> Всеобщая декларация прав человека. Основные международные документы. Сб. документов. М., 1989, стр. 134—141.

<sup>2</sup> Международный пакт о гражданских и политических правах. Международная защита прав и свобод человека. Сб. документов. М., 1990, стр. 32—53.

<sup>3</sup> *Qarang*: Законы и нормативные акты по адвокатуре и адвокатской деятельности Республики Узбекистан. Сборник. Составитель Б.С. Саломов. Т., «Adolat», 2006, стр. 322—329.

5. 1988-yilning dekabr oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan, shaklidan qat'i nazar, ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplari to'plami. Ushbu hujjatga asosan, har qanday ushlab turilgan shaxs advokat tomonidan yuridik yordam ko'rsatilishi huquqiga ega.

6. BMTning Jinoyatlar oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha Sakkizinchi kongressi tomonidan 1990-yilda Gavanada qabul qilingan Yuristlar rolining asosiy prinsiplari<sup>1</sup>. Bu hujjat quyidagi holatlarni belgilab qo'ygan:

- huquqshunoslar va yuridik xizmatlarga murojaat qilish imkoniyati;

- jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish vaqtida maxsus kafolatlar;

- kadrlar tayyorlash va ularning malakasi;

- funksiya va majburiyatlar;

- huquqshunoslarning o'z majburiyatlarini bajarishdagi kafolatlari;

- ishonch erkinligi;

- huquqshunoslarning kasbiy assotsiatsiyalari;

- huquqshunoslarning o'z majburiyatlarini tegishli ravishda bajarmaganliklari uchun intizomiy ta'sir choralari.

7. 1990-yil sentabr oyida Nyu-Yorkda Huquqshunoslarning xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan Yuridik kasbning mustaqilligi standartlari quyidagilarni belgilab qo'ygan:

a) yuridik kasb va yuridik ma'lumotga ega bo'lish erkinligi;

b) jamiyatning huquqiy ta'limi;

d) huquqshunoslarning huquq va majburiyatlarini;

e) nochor shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish;

f) advokatlar assotsiatsiyasi vazifalari;

g) huquqshunoslarni intizomiy javobgarlikka tortish asoslari.

Bundan tashqari, Yevropa Hamjamiyati miqyosida integratsiyani yanada rivojlantirish va hamjamiyat davlatlarida advokatlarning xalqaro faoliyatini kengaytirish maqsadida Yevropa Hamjamiyati davlatlari advokatlari uchun qoidalar umumiy kodeksi qabul qilingan.

Advokatlarning jamiyatdagi roli to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan va boshqa bir qator xalqaro-huquqiy aktlar advokatlik huquqi xalqaro standartlari asosini tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> *Qarang:* Законы и нормативные акты по адвокатуре и адвокатской деятельности Республики Узбекистан. Сборник. Составитель Б.С. Саломов. Т., «Adolat», 2006, стр. 311—322.

O'zbekiston Respublikasida advokatlar faoliyatini mukammal amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 1998-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ilgari bunday kafolatlar amalda yo'q edi. SSSRning 1979-yil 30-noyabrdagi «Advokatura to'g'risida»gi Qonunida ham, O'zSSRning 1980-yildagi «Advokatura to'g'risida»gi Nizomida ham mustaqillik prinsipining kafolatlarini ta'minlaydigan qoidalar yo'q edi, istisno sifatida faqat advokatlik siri himoyasini aytish mumkin.

Olib borilayotgan sud-huquq islohoti advokatura institutini ham cheklab o'tmadi. Avvalida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida «davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi» belgilab qo'yildi. 116-moddasida esa «tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxonaga, muassasaga va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi», deb belgilab qo'yilgan. Bu advokat va advokatura konstitutsiyaviy institut maqomini olganligidan dalolat beradi<sup>1</sup>.

Boshidanoq shu vaqtgacha bo'lgan ushbu institutni qayta qurish borasidagi muhokamalar yanada qizg'in pallaga kirdi. Ushbu muhokamalarning asosiy obyekti advokaturaning davlat organlaridan, ayniqsa, adliya va sud, shuningdek, mahalliy ijro organlaridan mustaqilligi va erkinligini yanada kengaytirish masalasi bo'lgan. O'zining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda advokat mustaqilligi kafolatlari, albatta, ta'minlanishi lozim.

Aholiga yuridik yordam ko'rsatilishi va advokatlik faoliyatiga ko'maklashish uchun davlat hokimiyati organlari advokatura mustaqilligi kafolatlarini ta'minlashi lozim. Advokatlar va advokatlik faoliyatining mustaqilligini ta'minlash malakali yuridik yordam ta'minlangan fuqarolik jamiyati qurayotgan davlatning vazifasi.

Bu kafolatlarga advokatlik siri kafolatini misol qilishimiz mumkin. Xususan, advokat yuridik yordam ko'rsatish jarayonida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tafsilotlar yuzasidan guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas. «Advokatura to'g'risida»gi

---

<sup>1</sup> *A.X. Саидов. Международные стандарты и законодательство об адвокатуре в странах Центральной Азии. «Современное состояние адвокатуры в странах Центральной Азии: проблемы и перспективы». Материалы Международной региональной конференции (4–7 февраля 2003 г. Ташкент, Узбекистан). Т., 2003, стр. 14.*

Qonunning 9-moddasida advokatlik siri jumlasiga ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatdan yordam so'rab murojaat etganligining o'zi, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) yordam so'rab murojaat etgan masalalar, advokatdan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) olgan maslahatlar, nasihatlar va tushuntirishlarning mohiyati, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan o'tkazgan suhbatida to'xtab o'tilgan barcha masalalar kirishi ko'rsatilgan. Shu ma'noda advokat, advokat yordamchisi, advokat stajori, advokatlar byurolari, hay'atlari va firmalari mansabdor shaxslari va texnik xodimlarining advokatlik siri bo'lmish ma'lumotlarni oshkor etishi va bu ma'lumotlardan o'z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo'lida foydalanishi man etiladi.

Ushbu Qonunning 10-moddasida esa alohida kafolat sifatida advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda aralashish, ular o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek, advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanishi aytib o'tilgan. Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biron-bir shaklda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari, ushbu moddada advokat himoyachilik yoki vakillik vazifasini bajarayotganda o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tafsilotlar yuzasidan guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emasligi ham ko'rsatilgan. Advokat kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan qo'lga kiritgan advokatlik dalillari (ashyolari), hujjatlari undan olib qo'yilishi yoki ko'zdan kechirilishi mumkin emas, shuningdek, uning o'zi yuridik yordam ko'rsatayotgan shaxslar bilan uchrashish huquqi cheklanishi mumkin emas.

Advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtayi nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek, sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas.

Advokatga nisbatan jinoiy ish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «biz advokatura tizimini kuchaytirish va uning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ularning vakolatlari va maqomini prokuratura maqomiga tenglashtirish uchun qonunchilik sohasida

ham, amaliy ishlar sohasida ham ko'pgina chora-tadbirlar ko'rmoqdamiz»<sup>1</sup>. Advokatlik faoliyati kafolatlari tizimini o'rnatishda qonun chiqaruvchining e'tibori haqida alohida O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarining ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni ham dalolat beradi.

Qonunchilikda advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllarini asossiz tekshirishlar, ma'muriy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvni va advokatura muassasalari faoliyati ustidan moliyaviy nazorat qilishning oldini olishga qaratilgan huquqiy normalar ham belgilangan. Masalan, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarining ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasiga asosan, advokaturaning shtatlari, mansab maoshlari va ma'muriy-xo'jalik xarajatlarining smetalari moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilmasligi, advokaturaning ish haqi fondi banklar tomonidan nazorat qilinmasligi belgilangan.

Bundan tashqari, qonunchilikning avvalgi tahririda advokatning kasbiy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilangan normalar aks etgan edi, biroq, javobgarlik turi belgilanmagan. Shu munosabat bilan advokatlarda o'z faoliyatini amalga oshirishi davomida turli to'siqlarga duch kelar edi.

Shundan kelib chiqqan holda qonunchilikdagi bo'shliqni to'ldirish maqsadida 2008-yil 31-dekabrda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun bilan advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish uchun advokat so'roviga javob taqdim etmaslikda ifodalangan advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish, shuningdek, advokatning ishda ishtirok etishiga to'sqinlik qilish yoki ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaatlariga zid bo'lgan vaziyatni majburan egallashiga erishish maqsadida advokatga qanday shaklda bo'lmasin ta'sir o'tkazishda ifodalangan ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Ko'rsatilgan qonunchilik tadbirlari advokatning mustaqilligi va daxlsizligini, uning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi, bu esa mazkur kasbning nufuzini yanada oshiradi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. (Birinci chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1999-yil 14-aprel.) Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T., «O'zbekiston», 1999, 390-bet.

## 15.2. O'zbekistonda advokaturaning rivojlanish bosqichlari

O'zbekistonda dunyoning boshqa ko'pchilik mamlakatlari-dagi kabi qadimiy yuridik institut — advokaturaning rivojlanishidan oldin oila boshlig'i, nafaqat, qarindosh oila a'zolarining, balki boshqa oila a'zolarining, shuningdek, undan himoya va homiylik so'rab kelgan boshqa shaxslarning ham manfaatlarini sud oldida himoya qilgan oila vakilligi bo'lgan.

Shartli ravishda O'zbekiston hududida advokatura institutining rivojlanish bosqichlarini quyidagi tarzda ko'rsatish mumkin.

**Birinchi bosqich — yuridik himoya institutining paydo bo'lishi (musulmon huquqi bilimdonlari sifatida muftiyalar).**

Adolatsizlikdan himoyalaniish va haqiqat uchun kurash har zamonda har bir kishining hayoti va faoliyati asosi bo'lib kelgan. Bu bilan haqiqat va huquqiy ma'rifatga bo'lgan qiziqish tushuntiriladi. Mazkur masala tarixida O'zbekiston tarixiy solnomalari ham mustasno emas. Barcha buyuk O'rta Osiyo olimlari — Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Motrudiy, Buxoriy, Ulug'bek, Navoiy va boshqalar — huquqshunoslikni (fiqh) o'rganishib, shariat normalariga asoslangan qonun talablariga rioya qilganlar hamda unga hurmatsizlikning katta ziyoni haqida boshqalarni o'qitganlar<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, Turkiston o'lkasida, shuningdek, Buxoro amirligida, Xiva xonligida shariat (musulmon huquqi) va odat (odat huquqi) asosida faoliyat yuritgan qozi va biylar feodal sudlari jinoyat va fuqarolik ishlarini advokat ishtirokisiz ko'rib chiqishgan.

Shunga qaramasdan, o'rta asrlardayoq Sharqda qozi sudlari huzurida maxsus xizmatchilar, musulmon huquqi — shariat, bilimdonlari — muftiyalar va aglamlar bo'lgan. Ular qozi topshirig'i yoki da'vogar va javobgar, jabrlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilar iltimosi bo'yicha ariza, shikoyat va ish qog'ozlari, rivoyat, ya'ni shariat normalari asosida nizoni yoki ayblovni taxminiy hal etilishini tuzishgan. Ularning zarurati mahalliy aholining ko'pchilik qismi Qur'on iboralari sharhlaridan hamda ko'p hollarda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, aniq ifodalanmagan, yozilmagan

---

<sup>1</sup> Адвокатская деятельность в Республике Узбекистан. Учебник для студентов бакалавриата. В 2-х томах. Т. 1. Отв. ред. М.Х. Рустамбаев, Л.Б. Хван. Т., «Консаудитинформ-Нашр», 2007, стр. 50; Г. Абдумажидов. Развитие адвокатуры в Республике Узбекистан. Журнал «Адвокат», 2005, № 2, стр. 53.

odat normalaridan kelib chiqadigan murakkab va chigal shariat tizimining xususiyatlarida mustaqil muhokama qila olmasligi bilan vujudga kelgan. Bunday sharoitlarda sudga jalb etilgan yoki qozi va biylar sudlariga o'z tashabbusi bilan murojaat qilgan shaxslar muftiylar, qonunshunos-mirzalar xizmatlaridan foydalanishga majbur bo'lgan. Masalan, Buxoro amirligining bosh qozisi (qozikalon) huzurida haq evaziga murojaatchilarga yordam bergan 12 muftiy xizmat qilgan.

**Ikkinchi bosqich — O'zbekistonda advokatura institutining paydo bo'lishi.** Kechroq, revolutsiyagacha bo'lgan Turkistonda butun Rossiyadagi kabi chor sudlarida jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlar qasamyod qilishgan, ishonchli vakillar va ularning yordamchilari ishtirok etgan. O'zbekiston hududida o'zini o'zi boshqaruvchi tuzilma sifatida birinchi advokatura Sankt-Peterburgda yuridik ta'lim olgan Abdunabi Qurolboy tashabbusi bilan «Himoyachilar filiali» 1879-yili Qo'qonda tashkil etilgan. Uni birinchi o'zbek advokati sifatida tan olishadi. Advokatlarning Qo'qon filiali «zakonchi» deb ataladigan o'ndan ortiq qonun himoyachilarini birlashtirdi. Ular aholiga ahamiyatli yuridik yordam ko'rsatardi.

1899-yilda Toshkent sud palatasi va okrug sudlari huzurida rus qonunchiligiga amal qilgan himoyachilar hay'atlari tashkil etildi. 1915-yildan Buxoroda Rossiya va Turkiya advokatlik amaliyotini o'rgangan Valixon-Xo'ja tomonidan tashkil etilgan «Ixtiyoriy advokatlar filiali» faoliyat ko'rsatar edi. Filial a'zolari, shu jumladan, keyinchalik O'zbekiston hukumatiga rais bo'lgan Fayzulla Xo'jayev, bir necha marotaba Buxoro amirligi qozikaloni Sharifxon Sadri Ziyoga murojaat qilishgan hamda ko'pincha aholining nochor qatlamlari mulkiy, yer va mehnat huquqlari bilan bog'liq bo'lgan nizolar adolatli hal etilishiga erishganlar<sup>1</sup>.

Revolutsiyagacha bo'lgan Turkistonda advokatura instituti faoliyat ko'rsatishining mashaqqatlari xususida quyidagi tarixiy fakt ham dalolat beradi: advokat U. Asadullaxo'jayev va uning maslakdoshlaridan biri S. Kelginboyev (akademik Hadicha Sulaymonovanning otasi) hayotini xavf ostiga qo'ygan holda 1916-yilda mehnatga layoqatli aholini Sibirga majburiy ishlarga zo'rlik bilan mobilizatsiya qilinishi tufayli umumxalq tashvishiga hamdard bo'lgan aybsiz odamlarning qirib tashlanishi munosabati bilan chor

<sup>1</sup> S. Ayniy. Esdaliklar. T., «O'zbekiston», 1953.

hukumatiga keskin norozilik bildirgan. Shu sababli ular sudga berildi, lekin sudlanuvchilar mumkin bo'lmagan narsaga erishdilar — ular oqlandi<sup>1</sup>.

1918—1924-yillarda O'zbekiston hududida advokatura instituti tarkibiga Turkiston ASSR ham kirgan RSFSR qonunchiligiga binoan, amal qilgan. 1917-yil 12-dekabrda Turkiston o'lkasi XNK buyrug'i o'zining asosiy qoidalarida, shu jumladan, himoya masalalarida ham 1-Dekretga mos kelgan. U ilgari o'lkada bo'lgan sud tizimini bekor qildi, advokatura institutini tugatdi. Dekret ayblanuvchining himoyalani sh huquqini e'lon qildi va barcha qoralanmagan, fuqarolik huquqlardan foydalanuvchi fuqarolarni sudlarda himoyachi va taraflar vakillari sifatida ishtirok etishiga ruxsat berdi. 1918-yil 16-yanvarda Toshkent shahar kengashi revolyutsion tribunal tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi, unda tribunal sud majlisida himoyachi sifatida barcha siyosiy huquqlardan foydalanuvchi, jinsidan qat'i nazar, yoshi 20 dan kam bo'lmagan fuqarolar bo'lishi mumkinligi belgilangan.

Himoyaga dastlabki tergov bosqichidan yo'l qo'yilgan edi. Tergov komissiyasi shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb qilish to'g'risidagi qaror qabul qilgan vaqtdan boshlab, himoyachi ishga kirishar edi. Himoyachi qamoqda bo'lgan ayblanuvchi bilan yolg'iz uchrashish huquqiga, ish bilan tanishish huquqiga, undan ko'chirmalar olish huquqiga va boshqa huquqlarga ega bo'lardi. Ish bo'yicha ayblanuvchilar manfaatlarida qarama-qarshiliklar bo'lganda, ularning har biriga alohida himoyachi tayinlanar edi. Jamoat himoyachisi sud majlisida ishtirok etishga majbur bo'lgan shaxslar doirasiga kirar edi, u ayblanuvchiga e'lon qilingan ayblovni rad qiladigan yoki yumshatadigan holatlarga sud e'tiborini qaratgan holda himoya nutqi bilan chiqish huquqiga, shuningdek, jinoyat kvalifikatsiyasi va jazo chorasi haqida o'zining mulohazasini bildirish huquqlariga ega edi.

Himoyachilar instituti tobora muayyan tashkiliy shakllarga ega bo'ldi. 1919-yilning o'rtalaridayoq huquqni himoya qiluvchilar komissiyalari va hay'atlari TASSR ham Oliy, ham viloyat tribunallari huzurida mavjud edi. Turkiston ASSR MIQning 1919-yil 6-maydagi Dekreti bilan Turkiston Respublikasi Oliy va viloyat revolyutsion tribunallari to'g'risidagi nizom tasdiqlandi, unda ishda himoyaning ishtirok etishiga ruxsati butkul tribunalga bog'liqligi

---

<sup>1</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakasi davrida. T., «SHARQ», 2000, 438-bet.



ko'rsatilgan. Lekin ishda ayblovchi ishtirok etadigan bo'lsa, tribunal himoyachini ishga jalb qilishga yoki tayinlashga majbur. Oliy revolyutsion tribunal huzuridagi huquqni himoya qiluvchilar hay'ati a'zolari viloyat ijroiya qo'mitalari tomonidan tayinlanishi va ozod etilishi yangilik bo'ldi. Ular mansabdor shaxs hisoblanib, respublika Adliya xalq nozirligi smetasi bo'yicha sudyalar bilan teng ravishda ish haqi olishgan<sup>1</sup>.

MIQning 1920-yil 18-martdagi Dekreti bilan Revolyutsion tribunallar to'g'risidagi nizom tasdiqlandi, unga ko'ra, himoyachilar hay'atlari a'zolaridan tashqari, himoyachi sifatida sudlanuvchilarning yaqinlari yoki qarindoshlari yoxud tribunalning ishonchiga sazovor bo'lgan shaxslar ishtirok etishi mumkin edi. Himoyachilar sud tomonidan belgilanadigan muayyan miqdorda haq olishardi. U ayblanuvchilar, taraflardan undirilib, Adliya xalq nozirligi smetasi bo'yicha respublika daromadiga o'tkazilardi. 1920-yilda paydo bo'lgan Buxoro va Xorazm XSRda esa ularning hududida bo'lgan qozilar va biylar sudlarida TASSR hududida vaqtincha saqlanib qolgan qozi va biylar sudlaridagi singari himoyachilar yo'q edi. Buxoro Respublikasining sho'ro sudi organlarida himoyachilar instituti endi rivojlanayotgandi, XXSRda esa o'sha vaqtda himoyachilar hay'atlari yo'q edi.

RSFSR Adliya xalq nozirligi tomonidan tasdiqlangan «Advokatura to'g'risida»gi Nizom 1922-yil 29-oktabrda Turkiston Respublikasi MIQ qarori bilan qo'llashga qabul qilindi.

1924-yil 1-oktabrda Buxoro Respublikasi hukumati «BXSR sudlari huzurida huquqni himoya qiluvchilar hay'ati to'g'risida»gi Nizomni tasdiqladi. Uning qabul qilinishi 1924-yil 5-yanvardagi BXSR sudlari tuzilishi to'g'risidagi nizom bilan nazarda tutilgan edi. Ushbu nizomga asosan, Buxoro Respublikasi sudlari huzurida huquqni himoya qiluvchilar hay'atlari tashkil etilgandi. Huquqni himoya qiluvchilar hay'ati okrug sudlari tashkil qilingunga qadar, huquqni himoya qiluvchilar hay'atning 1-chaqiriq a'zolarini tasdiqlagan Adliya xalq nozirligiga bo'ysunardi. Keyinchalik yangi a'zolarini qabul qilish nusxasi Adliya xalq nozirligiga taqdim etiladigan va respublika Davlat prokurorini xabardor qilgan holda hay'at umumiy yig'ilishi qarori bilan amalga oshirilardi.

---

<sup>1</sup> Адвокатская деятельность в Республике Узбекистан. Учебник для студентов бакалавриата. В 2-х томах. Т. 1. Отв. ред. М.Х. Рустамбаев, Л.Б. Хван. Т., «Консаудитинформ-Нашр», 2007, стр. 55.

Shunday qilib, sovet hokimiyatining birinchi yillarida O'zbekiston hududida himoya huquqini amalga oshirilishi butunlay advokaturaning jamiyatdagi maqomi va o'rniga bog'liq edi. Advokaturani davlat tasarrufiga o'tkazishga urinishi jinoyat-sudlov ishlarini yuritishda uning amaldagi mavjud bo'lish imkoniyatlarini ancha qisqartirar, boz ustiga manfaatlar himoyasida sinfiy qarash fuqarolarning qonun va sud oldida tengsizligiga, shuningdek, alohida toifa shaxslarning himoyalani shu huquqidan mahrum bo'lishiga olib keldi.

**Uchinchi bosqich — advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bosqichi.** O'rta Osiyo respublikalarining milliy-davlat chegaralanishi va O'zSSR tashkil topishidan keyin respublikaning barcha tumanlari uchun yagona bo'lgan adliya organlari mantiqli tizimini tashkil etish bo'yicha katta ish amalga oshirildi. Bu teng ravishda advokaturaga ham tegishlidir. 1925-yilda O'zSSR MIQ Adliya xalq nozirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqladi, unda xususan, O'zSSR AXN himoyachilar hay'atlari faoliyatiga rahbarlik qilishi nazarda tutilgan<sup>1</sup>. Keyinchalik 1926-yil 29-sentabrda «Respublika sudlari tuzilishi to'g'risida»gi Nizom qabul qilindi va 1927-yil 15-fevralda amalga kiritildi. Mazkur normativ hujjat 1927-yil 14-dekabrda O'zSSR AXN tomonidan tasdiqlangan Himoyachilar hay'atlari to'g'risidagi nizomning asosi bo'ldi. Nizom avval mavjud bo'lgan hay'atlar tuzilishi, ularni to'ldirish tartibi, yangi a'zolarini qabul qilish shartlari va advokat xizmatlari haqining eski prinsiplarini saqlab qolgan.

Sovet Ittifoqining 1936-yildagi, O'zSSRning 1937-yildagi konstitutsiyalari, 1938-yildagi Sudlar tuzilishi to'g'risidagi Qonun va 1939-yildagi Sovet Ittifoqining advokatura to'g'risidagi nizomi asosida O'zSSRda va 1936-yilda uning tarkibiga kirgan Qoraqalpoq ASSRda tashkiliy tuzilishi va faoliyati 1939-yildagi Nizom bilan aniqlanadigan advokatlarning viloyat hay'atlari tashkil etilgan edi. Advokaturaning barcha funksiyalari shahar va tuman yuridik maslahatxonalarini orqali amalga oshirilgan edi.

O'zSSR advokatura institutining qonunchilikda tartibga solinishining keyingi bosqichini 1958-yildagi Sud tuzilishi to'g'risidagi qonunchilik asoslari aniqlab berdi. Unga ko'ra, advokatlar hay'ati sudda himoyani amalga oshirish, shuningdek, fuqaro, korxonalar, muassasa va tashkilotlarga boshqa yuridik yordam ko'rsa-

---

<sup>1</sup> Г. П. Саркисянц. Адвокатура советского Узбекистана. Т., «Фан», 1972, стр. 15—21.

tish maqsadida faoliyat ko'rsatadi. 1961-yil 30-mayda O'zSSR Oliy Kengashi tomonidan «Advokatura to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi va u 1979-yil 30-noyabrda Sovet Ittifoqi Oliy Kengashi tomonidan «Sovet Ittifoqida advokatura to'g'risida»gi Qonun qabul qilingunga qadar amal qildi.

1977-yilda sovet advokaturasi tarixida birinchi marta uning huquqiy holati Sovet Ittifoqi Konstitutsiyasida (161-moddasi) belgilangan edi, 1979-yilda esa «Sovet Ittifoqida advokatura to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun bilan Butunittifoq miqyosida advokaturani tashkil etish va uning faoliyati masalalari tartibga solingan edi. Ushbu hujjatni ijro etish maqsadida O'zbekistonda advokatura to'g'risida nizom qabul qilindi va 1980-yilda tasdiqlandi. Chunonchi, 1980-yil 12-noyabrda O'zSSR Oliy Kengashi tomonidan «O'zSSR advokatura to'g'risidagi» Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi, u 9 bob, 35 moddadan iborat edi. Bu Nizomga 1996-yilda mustaqil va suveren O'zbekistonda «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingunga qadar amal qildi.

1980-yildagi Nizomning 1-moddasida belgilanganidek, sovet advokaturasining asosiy vazifasi odil sudlovni amalga oshirish, sotsialistik qonuniylikka rioya qilish va uni mustahkamlash, fuqarolarni sovet qonunlarini aniq va qat'iy bajarish, xalq mulkiga ehtiyotkorona munosabat, mehnat intizomiga rioya qilish, boshqa shaxslarning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini, sotsialistik turmush tarzi qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash borasida fuqaro va tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatish bo'lgan. Shu bilan birga, advokat S. Yakubov aytganidek, asosiy vazifalardan biri — fuqaro-insonning erkinligi himoyasi ko'rsatilmagan edi<sup>1</sup>. Shu orqali «Advokatura to'g'risida»gi Nizom tahlilidan shaxs manfaatlari ustidan davlat manfaatlari ustuvorligi mavjud bo'lgani haqida xulosa qilish mumkin. Advokat sotsialistik odil sudlovga va sotsialistik qonuniylikni mustahkamlash ishiga xizmat qilishga majbur edi, bu esa uni davlat xizmatida bo'lgan va muayyan siyosiy funksiyalarni bajaradigan shaxsga aylantirar edi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Адвокатская деятельность в Республике Узбекистан. Учебник для студентов бакалавриата. В 2-х томах. Т. 1. Отв. ред. М.Х. Рустамбаев, Л.Б. Хван. Т., «Консаудитинформ-Нашр», 2007, стр. 55.

<sup>2</sup> Адвокатская деятельность. Учебно-практическое пособие. Под общ. ред. к.ю.н. В.Н. Бурбина. 3-е изд., перераб. и доп. М., «Статут», 2005, стр. 19.

Nizomning ikkinchi bobi advokatlar hay'ati va ularning organlari faoliyatini tartibga solar edi. Advokatlar hay'atining huquqiy maqomi advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ko'ngilli birlashmasi sifatida belgilandi. 3-moddada advokatlar hay'atining oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan ta'sisчилardan shakllanish tartibi ham belgilangan edi. Advokatlar hay'atlari xalq deputatlari kengashlari tashabbusi bilan ham tashkil etilishi mumkinligini aytib o'tish lozim.

Advokatlar hay'atini tashkil etish to'g'risidagi takliflar respublika Adliya vazirligiga jo'natilar, keyinchalik bu takliflarni tasdiqlash va qayd etish uchun Qoraqalpog'iston ASSR Vazirlar Kengashiga, viloyat va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari ijroiya qo'mitalariga jo'natilgan va shundan keyin advokatlar hay'atlari yuridik shaxs hisoblanishgan, bankda hisob ochishib, ularning nomi yozilgan yumaloq muhr va shtampni olishgan. Advokatlar hay'atining organlari bo'lib, oliy organ sifatida umumiy yig'ilishlar (konferensiyalar), ijro organi sifatida hay'at rayosati va nazorat-tekshiruv organi sifatida taftish komissiyasi hisoblangan. 1980-yildagi Nizomda yig'ilishni chaqirish muddati, uning vakolatlari hamda chaqirish tartibi aniqlangan edi.

1980-yildagi Nizom bilan advokatlar hay'ati a'zolariga quyidagi talablar qo'yilgan edi:

- Sovet Ittifoqining fuqaroligiga ega bo'lish;
- oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish;
- huquqshunos mutaxassisligi bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lish;
- uch oygacha bo'lgan sinov muddatini o'tash.

Bu talablar juda adolatli edi, chunki advokatning faoliyati huquqshunos-mutaxassisning suddagi, prokuraturadagi, militsiyadagi ishidan mutlaqo ajralib turadi, negaki, advokatning asosiy, bosh vazifasi — bu amaldagi qonunchilikka binoan, fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hamda tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, «Advokatura to'g'risidagi» Nizom bilan advokatning huquq va majburiyatlari tartibga solingan, shu jumladan, hay'at va uning organlari faoliyatida faol ishtirok etish

---

<sup>1</sup> Адвокатская деятельность в Республике Узбекистан. Учебник для студентов бакалавриата. В 2-х томах. Т. 1. Отв. ред. М.Х. Рустамбаев, Л.Б. Хван. Т., «Консаудитинформ-Нашр», 2007, стр. 61.

huquqi, shuningdek, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha vakil va himoyachi bo'lish huquqi ham.

Advokatlarning asosiy majburiyatlari amaldagi qonunchilik talablariga aniq va qat'iy rioya qilish, advokatga yuridik yordam so'rab murojaat qilgan fuqaro-tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda ko'rsatilgan barcha chora hamda usullarni qo'llash ta'kidlab o'tilgan. Nizomda advokat yuridik yordam ko'rsatishini istisno etadigan quyidagi holatlar nazarda tutilgan:

1) agar u muayyan ish bo'yicha ishini yuritish haqidagi iltimos bilan murojaat qilgan shaxsning manfaatlariga zid bo'lgan shaxslarga yuridik yordam ko'rsatayotgan bo'lsa yoki avval ko'rsatgan bo'lsa;

2) agar u sudya, prokuror, tergovchi, tarjimon, guvoh yoki xolis sifatida ishtirok etgan bo'lsa;

3) ishni tergov qilishda yoki ko'rib chiqishda advokat qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan mansabdor shaxs ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan bo'lsa.

1980-yildagi Nizomga ko'ra, fuqaro va tashkilotlar bilan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha advokatlar ishini tashkil etish uchun yuridik maslahatxonalar tuzilishi mumkin, ularning joylashuvi hay'at rayosati tomonidan joylardagi adliya organlari bilan muvofiqlashtiriladi. Yuridik maslahatxona mudirining huquq va majburiyatlari batafsil tartibga solingan, shuningdek, fuqaro va tashkilotlarga advokatlar tomonidan ko'rsatilayotgan yuridik yordam turlari belgilangan edi.

1980-yildagi Nizomda advokatlarning mehnat haqi, ta'tilga chiqish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa olish va nafaqa bilan ta'minlash kabi ijtimoiy huquqlar masalalari ham tartibga solingan. Advokat mehnatiga haq fuqaro va tashkilotlardan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun yuridik maslahatxonaga kelib tushgan mablag'lardan to'langan.

1980-yildagi Nizomda rag'batlantirish ham ko'rsatilgan, advokatlar hay'ati a'zolarining intizomiy javobgarligi aniqlangan. O'z kasbiy majburiyatlarini namunali bajarganlik uchun, uzoq va bekam-ko'st ish uchun, faol jamoat faoliyati uchun advokatga rag'batlantrish sifatida hay'at rayosati tashakkurnomasi e'lon qilinishi, pul mukofoti berilishi, qimmatli sovg'a berilishi, faxriy yorliq bilan mukofotlanishi, Hurmat kitobiga va Hurmat taxtasiga kiritilishi mumkin edi.

Intizomiy ta'sirning eng oxirgi chorasi sifatida hay'at a'zolari safidan chetlashtirish qo'llanardi. Intizomiy ta'sir chorasi qo'l-

lanilishidan oldin advokatdan tushuntirish olgan holda dalillar-ning puxta tekshiruvi o'tkazilishi lozim edi, shundan keyin intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atilar edi. 1980-yildagi Nizom intizomiy ta'zir chorasini olib tashlash tartibini ham belgilagan edi. Ta'zir chorasi qo'llanilgan kundan boshlab, bir yil ichida advokat yangi nojo'ya harakat sodir etmasa, u intizomiy javobgarlikka tortilmagan hisoblanar edi. Mehnatga bo'lgan vijdonan munosabati hamda benuqson xulqi uchun rayosat intizomiy ta'sir chorasini muddatidan oldin olib tashlash huquqiga ega edi.

1980-yildagi Nizom advokatning hay'at tarkibidan chiqarib yuborish orqali uning faoliyatini tugatish qoidalarini ham nazarda tutgan edi. Advokatlar hay'atidan chiqarib yuborish ustidan hay'at rayosatining chiqarib yuborish to'g'risidagi qarori nusxasi topshirilgan kundan boshlab, bir oylik muddat ichida sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin edi.

1980-yildagi Nizomda advokaturaning davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlari tartibga solingan edi. Advokatlar hay'atiga umumiy rahbarlikni qonun hujjatlariga binoan, ularning vakolatlarini belgilaydigan ham bevosita, ham Sovet Ittifoqi, O'zSSR, Qoraqalpog'iston ASSR Adliya vazirligi, viloyat hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari ijroiya qo'mitalarining adliya bo'limlari orqali xalq deputatlari kengashlari va ularning ijro hamda idora organlari amalga oshirar edi. Respublikaning Adliya vazirligi va uning joylardagi organlari Sovet Ittifoqida advokatura to'g'risidagi Qonun, O'zSSR advokatura to'g'risidagi nizom, advokatura faoliyatini tartibga soladigan Sovet Ittifoqi, O'zSSR, QQ ASSR boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish ustidan nazorat qilish huquqiga ega edi.

Respublika Adliya vazirligi va uning joylardagi organlariga amaldagi qonunchilik normalariga mos bo'lmagan advokatlarning umumiy yig'ilishi (konferensiyasi) qarorlari, hay'at rayosati qarorlarini to'xtatib turish huquqi taqdim etilgan edi. Bunday hollarda mazkur masala yangidan muhokama qilish uchun umumiy yig'ilishga yoki advokatlar hay'ati rayosatiga kiritilishi mumkin edi<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, «Advokatura to'g'risida»gi Nizomda mehnat jamoalari, xalq deputatlari, o'rtoqlik sudlari hamda huquqbuzar-

---

<sup>1</sup> Адвокатская деятельность в Республике Узбекистан. Учебник для студентов бакалавриата. В 2-х томах. Т. 1. Отв. ред. М.Х. Рустамбаев, Л.Б. Хван. Т., «Консаудитинформ-Нашр», 2007, стр. 65.

liklar bilan kurash olib boradigan, aholiga qonunchilik asoslarini tushuntiradigan boshqa jamoat tuzilmalariga huquqiy yordam ko'rsatish yo'li bilan advokatlar hay'atining huquqiy targ'ibotdagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratilganligini aytib o'tish lozim.

Umuman, sho'rolar davrida advokatura institutini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramay, tarix advokatura zaif va kam sonli bo'lganligi haqida guvohlik beradi. Chunonchi, 1924-yilning mayida Turkistonda atigi 108 himoyachi mavjud edi, jumladan, Sirdaryo viloyatida — 52, Samarqandda — 18, Turkmanda — 13, Jetisoyda — 14, Farg'onada — 9, Amudaryo viloyatida esa o'shanda birorta ham himoyachilar hay'ati a'zosi yo'q edi. Himoyachilar umumiy sonining atigi 16 nafarini mahalliy millatlar vakillari tashkil etgan. Hattoki, 10 yildan keyin ham, 1935-yil 1-yanvarga kelib, advokatlar soni 122 taga yetdi, jumladan, oliy yuridik ma'lumot bilan 35 kishi; o'rta ma'lumot bilan — 30; ularning ichida o'zbeklar 35 kishini tashkil qilgan. Chorak asr o'tgach, 1960-yilning boshlarida respublika advokatlar hay'atlarida 420 kishi band edi. Ulardan 302 nafari oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan.

Bundan tashqari, o'tgan asrning 30—40-yillarida advokatlar faoliyatining samaradorligi, ayniqsa, jinoyat ishlari bo'yicha, quyidagi sabablar tufayli pasayib ketgan edi. Bu sud xodimlari, Adliya xalq nozirliги va boshqa huquqni himoya qiluvchi organlar rahbarlarining jinoyat-sudlov ishlarini yuritishda advokatlar ishtirokiga bo'lgan salbiy munosabat. Sovet Ittifoqi MIQning 1934-yil 1-dekabrda va 1937-yil 14-sentabrda qarorlari juda salbiy rol o'ynadi, ular terroristik tashkilotlar va terroristik aktlar to'g'risidagi, aksilinqilobiy zararkundalik va qo'poruvchilik ishlari bo'yicha alohida sudlov ishlarini yuritish tartibini belgiladi. Mazkur ishlarni sudda ko'rib chiqish soddalashtirilgan tartibda olib borilar edi, xususan, ayblov va himoya ishtirokisiz<sup>1</sup>.

**To'rtinchi bosqich — mustaqil O'zbekistonda advokatura institutini islohotlashtirish bosqichi.** Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan va O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingach, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O'zbekiston Respublikasining yangi «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni qabul

---

<sup>1</sup> К.Ф. Гуценко, М.А. Ковалев. Правоохранительные органы. Учебник для юридических вузов и факультетов. Изд. 6-е., перераб. и доп. Под ред. К.Ф. Гуценко. М., «Зерцало-М», 2001, стр. 330—331.

qilingunga qadar, O'zbekistonda 1980-yildagi O'zSSR Advokatura to'g'risidagi Nizom amal qilgan. 1996-yil 27-dekabrda «Advokatura to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, 1997-yil 9-yanvarda amalga kiritildi. Keyinroq 1998-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»<sup>2</sup>gi Qonuni 17 moddadan iborat bo'lib, unda advokaturaning maqomi va funksiyalari, advokatura faoliyatining prinsiplari va tashkiliy shakllari, advokat maqomiga ega bo'lish shartlari belgilangan, advokatning huquq va majburiyatlari, advokatlik faoliyatining turlari sanab o'tilgan. Shuningdek, bu qonunda advokat yordamchisi va advokat stajoring huquqiy maqomi belgilangan, advokatlik siriga tushuncha berilgan, advokatlik faoliyatining va advokatning ijtimoiy himoyasi kafolatlari aks ettirilgan. Qonunda, shuningdek, malaka komissiyalarini tuzishning umumiy huquqiy asoslari, ularning tarkibi, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyalarni berish shartlari, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish va tugatish, advokatning intizomiy javobgarligi ko'rsatilgan, advokatura va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar belgilangan. Belgilab qo'yish kerakki, respublika advokaturasi tarixida O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuniga binoan, advokaturaning mustaqilligi; xususiy advokatura institutining barpo etilgani (advokatura hech qachon davlat tashkiloti bo'lmagan bo'lsa ham); advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya mavjud bo'lishi kerakligi; advokat yordamchisi va stajori fao-

---

<sup>1</sup> Ma'lumot uchun aytish joizki, Qozog'istonda advokatura faoliyati 1997-yil 5-dekabrda «Advokatlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun bilan, Qirg'iziston Respublikasida 1999-yil 21-oktabrdagi «Advokatlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun bilan, Tojikistonda 1995-yil 4-noyabrdagi «Advokatura to'g'risida»gi Qonun bilan, Armanistonda 1998-yil 18-iyundagi «Advokatlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun bilan, Ozarbayjonda 1999-yil 28-dekabrda «Advokatlar va advokatlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun bilan, Gruziyada 2001-yil 20-iyundagi «Advokatlar to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi.

<sup>2</sup> Hozirgi vaqtda mazkur Qonunga O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-198-sonli Qonuni bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 52, 514-modda.



liyatlarining tartibga solinishi; malaka komissiyalarini, shuningdek, Oliy malaka komissiyasini tuzish va ularning faoliyati tartibga solinishi; advokat mehnatiga haq to'lash ishonch bildiruvchi shaxs yoki himoya ostidagi shaxs bilan tuziladigan bitim (shartnoma) asosida amalga oshirilishi; o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish davrida advokatga keng huquqlar berilishi respublika advokaturasi tarixida yangilik hisoblanadi<sup>1</sup>.

«Advokatura to'g'risida»gi Qonunda advokatlik faoliyatiga ta'rif berilmagan. Lekin 1-moddada advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatishi belgilangan. Shu orqali huquqiy himoya konstitutsiyaviy huquq ekanligi aytilgan<sup>2</sup>. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi ma'nosidan ham kelib chiqadi, ya'ni O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

---

<sup>1</sup> С.А. Якубов. Адвокатура — институт гражданского общества. «Современное состояние адвокатуры в странах Центральной Азии: проблемы и перспективы». Материалы Международной региональной конференции (4—7 февраля 2003 г. Ташкент, Узбекистан). Т., 2003, стр. 88.

<sup>2</sup> *Ma'umot uchun*: Markaziy Osiyo mintaqasining ko'plab davlatlari malakali yuridik yordam olish huquqini bevosita o'z konstitutsiyalarida mustahkamladilar. Chunonchi, Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, har bir shaxs malakali yuridik yordam olish huquqiga ega. Qonunda belgilangan hollarda yuridik yordam bepul ko'rsatiladi (13-modda); Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida aytib o'tilganidek, Qirg'iziston Respublikasining har bir fuqarosiga malakali yuridik yordam hamda Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklari himoyasi ta'minlanadi; o'z navbatida, Tojikiston Konstitutsiyasining 92-moddasida belgilab qo'yilganidek, yuridik yordam tergov va sudning barcha bosqichlarida kafolatlanadi; o'xshash tarzda mazkur masala Turkmaniston Konstitutsiyasining 108-moddasida hal qilingan: malakali yuridik yordam olish huquqi sudlov ishlarini yuritishning har qanday bosqichida e'tirof etiladi. Ushbu konstitutsiyaviy normalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, himoyalani huquqi davlat tomonidan konstitutsiyaviy huquq sifatida e'tirof etilishiga qaramasdan, aksariyat hollarda mazkur huquq konstitutsiyalar matnlarida jinoyat sud ishlarini yuritish sohasi bilan chegaralanadi (masalan, Tojikiston, Turkmaniston). Shu bilan birga, amaliyot ko'rsatishicha, advokatlik faoliyatining inson va davlat hayotining barcha sohalarida amal qilishi haqida gap yuritish lozim (shu jumladan, konstitutsiyaviy, fuqarolik, xo'jalik yurituv va boshq.). Lekin ushbu masala (malakali yuridik yordam olish huquqi) mazkur tadqiqotning predmeti bo'lmaganligi tufayli, bu haqda biz munozara qilmaymiz.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 22-moddasi ham — O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonuni 2-moddasiga, asosan, O‘zbekiston Respublikasida advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari mazkur Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iborat. O‘zbekiston Respublikasining «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunida advokatlik faoliyati va advokatlarning ijtimoiy himoyasi kafolatlari yetarli darajada aks ettirilmaganligi sababli yuridik himoyaga muhtoj bo‘lganlarga himoyani ta‘minlashning qonun darajasida kafolatlash zarurati tug‘ildi va 1998-yil 25-dekabrda «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi<sup>2</sup>.

**Beshinchi bosqich — advokatura institutini yanada isloh etish bosqichi.** Advokatura institutini yanada isloh etish fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda inson huquq va erkinliklarini samarali himoyasini har tomonlama ta‘minlashga qaratilgan hozirgi bosqichdagi sud-huquq tizimi islohotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu advokatura har qanday davlatning qonun ustuvorligi hamda o‘z fuqarolari va birlashmalarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari hurmat qilinishini tan oladigan asosiy huquqiy institut bo‘lishi bilan shartlangan. Inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini to‘la tarzda ro‘yobga chiqarilishi ularning ishini puxta bilgan holda malakali himoya qilinganida mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur faoliyat fuqarolik jamiyatining maxsus instituti — advokatura tomonidan amalga oshirilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan advokatura birinchi marta fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida tan olindi.

Aynan advokatura institutini isloh qilish va malakali yuridik yordamni ta‘minlash maqsadida 2008-yil 31-dekabrda O‘zbekis-

---

<sup>1</sup> *Qarang:* Комментарий к Конституции Республики Узбекистан. Т., «Adolat», Академия МВД Республики Узбекистан, 1997, стр. 77, 78, 86, 87; Комментарий к Конституции Республики Узбекистан. Т., «O‘zbekiston», 2001, стр. 97—105, 121—124.

<sup>2</sup> Адвокатская деятельность в Республике Узбекистан. Учебник для студентов бакалавриата. В 2-х томах. Т. 1. Отв. ред. М.Х. Рустамбаев, Л.Б. Хван. Т., «Консультинформ-Нашр», 2007, стр. 66.

ton Respublikasi Parlamenti tomonidan qabul qilingan qonunlardan biri «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonuni bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi «O'zbekiston Respublikasi advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3993-sonli Farmoni asosida ishlab chiqilgan mazkur qonun Jinoyat-protsessual kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga, Jinoyat-ijroiya kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutgan hamda quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga olgan:

**1) advokatlikka nomzod shaxslarning malakasiga nisbatan qo'yilayotgan talablarni kuchaytirish, ularning yuridik soha bo'yicha ish tajribasiga ega bo'lishi va advokatlik tuzilmalarida amaliyot o'tashini belgilash, shuningdek, advokatlarning muntazam ravishda kasbga oid malakasini oshirishning majburiylikini joriy qilish.**

Advokatura saflarini maxsus bilimlarga ega bo'lgan malakali mutaxassislar bilan to'ldirish maqsadida advokatlikka nomzodlarga qo'yiladigan yangi talablar nazarda tutilgan: yuridik soha bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lish, shu jumladan, advokatlik tuzilmalarida kamida olti oylik muddat stajirovka o'tash. Bundan kelib chiqqan holda advokat stajorining maqomini belgilovchi normalar, unga qo'yiladigan talablar va stajirovkani o'tash bilan bog'liq bo'lgan boshqa asosiy qoidalar aniq ko'rsatilgan.

Shuningdek, advokatning o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish, Advokatlar palatasi tomonidan belgilangan tartibda uch yilda kamida bir marta kasbiy malakasini oshirish majburiyati belgilanadi. Shu bilan birga, advokatning mustaqilligini ta'minlash maqsadida qonun ilmiy va pedagogik faoliyatdan boshqa har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishni taqiqlaydi;

**2) advokaturani halol va kasb mahorati yuqori mutaxassislar bilan to'ldirishni ta'minlaydigan samarali litsenziyalash tizimini tashkil etish nazarda tutilgan.**

Ilgari amal qilgan advokatlik faoliyatini litsenziyalash tartibi bugungi kun talablariga javob bermagan holda litsenziya olgan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 52, 514-modda.

shaxslarning advokatlik faoliyatini amalga oshirishga undamasdi. Natijada, litsenziya olgan 7000 nafar shaxslardan, advokatlik faoliyati bilan 4000 dan ko'prog'i shug'ullangan, xolos.

Samarali litsenziyalash tizimini tashkil etish uchun belgilangan tartibda litsenziya olgan talabgor uch oy ichida advokat qasam-yodini qabul qilishi va yakka tartibda yoki litsenziyaga ega bo'lgan boshqa shaxslar bilan birgalikda advokatlik tuzilmasini tuzishi yoxud faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmalaridan biriga kirish majburiyati belgilangan. Bundan buyon mazkur talablarni bajarmaslik litsenziyaning tugatilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish va tugatishning aniq asoslari, shuningdek, advokat maqomini to'xtatib turishni talab qiladigan asoslar nazarda tutilgan;

**3) *advokatlik tuzilmalarining vakolatlari aniqlashtirildi va huquqiy maqomi belgilab berildi.***

Qabul qilingan qonunda advokatlik tuzilmalari turlari har birining huquqiy holatini aniqlashtiruvchi normalar belgilangan edi: advokatlik byurosi — advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshiradigan advokatlik tuzilmasi; advokatlik firmasi — shiriklikka asoslangan va ikki yoki undan ortiq advokatlar tomonidan ta'sis etilgan advokatlik tuzilmasi; advokatlar hay'ati — a'zolikka asoslangan hamda a'zolari soni o'n nafar advokatdan kam bo'lmagan advokatlik tuzilmasi; yuridik maslahatxona — yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, joylarda advokatlar soni yetarli bo'lmagan hollarda tashkil etiladigan Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasining tarkibiy bo'linmasi;

**4) *qonun inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasida fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan advokaturaning samarali o'zini o'zi boshqaradigan markazlashtirilgan tizimini tashkil qilishni nazarda tutadi.***

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi «O'zbekiston Respublikasi advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3993-sonli Farmoniga ko'ra, O'zbekiston Advokatlar assotsiatsiyasi negizida respublikaning barcha advokatlarining majburiy a'ziligiga asoslangan O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tashkil etildi, uning faoliyati advokatlarning korporativ yaxlitligini, advokatlar manfaatlarini vakilligi va himoyasini ta'minlashga, advokatlik tuzilmalari faoliyatini tartibga solishga, Advokatlar kasb etikasi qoidalarini qabul qilish va ularga rioya qilishni ta'minlashga, advokatlarning kasbiy tayyorlash ish-

larini tashkil etish va ularning malakasini oshirish uchun sharoitlar yaratishga, shuningdek, advokatlar tomonidan ko'rsatilayotgan yuridik yordam hamda yuqori malakaning barcha uchun baravarligini ta'minlashga qaratilgan.

Shu munosabatda Qonunda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari huquqiy maqomi, ularning asosiy vazifalari, organlari va mansabdor shaxslari, moliyalashtirish manbalari va h.k.lar ko'rsatilgan normalar belgilangan;

**5) *advokatlar tomonidan kasb etikasi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmi va advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritish tizimi takomillashtirildi.***

Ilgari amalda bo'lgan amaliyot advokatlar kasb etikasining barcha advokatlar uchun yagona standartlar va tegishli advokatlar tomonidan kasb etikasi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmi yo'qligi haqida dalolat beradi. Hatto O'zbekiston advokatlar assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan Advokatlar kasb etikasi qoidalari faqat o'z a'zolariga tatbiq etilganiga qaramay (faoliyat ko'rsatadigan advokatlarning atigi 50 % i Assotsiatsiya a'zolari bo'lgan), ularga rioya etilishi ustidan nazorat umuman bo'lmagan.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi maqomidan kelib chiqqan holda uning asosiy vazifalaridan biri sifatida advokatlar tomonidan qonunchilikka, kasb etikasi qoidalariga va advokat qasamyodiga rioya etilishini nazorat qilish qonun darajasida belgilab qo'yilgan;

**6) *jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarining protsessual huquqlari tengligi ta'minlanmoqda.***

Tortishuvli jinoyat protsessida taraflarning tengligini ta'minlash uchun himoyachi isbot qilishda teng ishtirok etishi maqsadida qo'shimcha protsessual imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Himoyachi dalil sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil yig'ish va tergov organlariga taqdim etish huquqiga ega. Bunda himoyachi tomonidan taqdim etilgan materiallarni ishga qo'shib qo'yish haqida bergan iltimosnomasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan qondirilishi shart, bu esa himoya tarafining pozitsiyasini ancha kuchaygani va isbotlash jarayonida himoyachining ishtirok etish huquqini amalga oshirish kafolati haqida guvohlik beradi.

Ushlab turilgan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini o'z vaqtida himoyachi bilan ta'minlash imkoniyatini taqdim etish maqsadida ular advokat va yaqin qarindoshga qo'ng'iroq qilish huqu-

qiga ega bo'ladi, bundan tashqari, qonun ularga birinchi so'roq qilingunga qadar, himoyachi bilan soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda uchrashish huquqini kafolatlaydi.

Shu munosabat bilan tergov va sud jarayonida sukut saqlash huquqi aybsizlik prezumpsiyasining ajralmas qismi hamda aybni tan olishga yoki o'ziga qarshi ko'rsatmalar berishga majbur qilmaslik huquqining muhim kafolati bo'lganligi bois gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga ko'rsatmalar berishdan bosh tortish huquqi hamda uning ko'rsatmalari jinoyat ishi bo'yicha unga qarshi dalillar sifatida qo'llanilishi mumkinligi haqida ogohlantirilish huquqi belgilab qo'yildi.

Jinoyat protsessida himoyachining amaldagi mustaqilligiga erishish maqsadida Jinoyat protsessual kodeksdan himoyachi ishga jalb etilganligining yozma tasdig'ini olishini, shuningdek, himoya ostidagi shaxs bilan uchrashish uchun ruxsat olishini nazarda tutuvchi normalar olib tashlandi. Bunda himoyachining vakolatlarini belgilaydigan va uni ishda ishtirok etishga yo'l qo'yadigan hujjatlar sifatida guvohnoma va order ko'rsatib o'tilgan.

Amaliyotda jinoyat ishi bilan tanishish uchun ko'p vaqt sarflashini inobatga olgan holda, ayniqsa, ko'p jildli jinoyat ishlaridan ko'chirmalar olishi kerak bo'lganda, ish bilan tanishishni tezlashtirish va uni samarali o'rganish maqsadlarida himoyachiga zamonaviy texnik vositalardan foydalanish huquqi taqdim etilgan. Shunday qilib, himoyachiga jinoyat ishi yurituvchi uchun javobgar davlat organlari va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda jinoyat protsessining har qanday bosqichida malakali yuridik yordam ko'rsatish imkoniyati taqdim etiladi.

Har bir shaxsga malakali yuridik yordam ko'rsatilishini kafolatlaydigan konstitutsiyaviy normani ro'yobga chiqarish maqsadida guvohning advokatura instituti nazarda tutilgan. Jinoyat protsessining yangi ishtirokchisi sifatida guvoh advokatining huquqiy maqomi JPKning 66<sup>1</sup>-moddasi bilan aniqlanadi. Shu munosabat bilan guvohning huquq va majburiyatlarini tartibga soladigan moddalarga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

Avval amalda bo'lgan qonunchilikda advokatning kasbiy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan normalar o'z aksini topgan, lekin javobgarlik turi belgilanmagan edi. Shu munosabat bilan advokatlar o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida turli to'siqlarga duch keladi.

Shundan kelib chiqqan holda qonunchilikdagi bo'shliqni to'ldirish maqsadida advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik

qilish uchun advokat so'roviga javob taqdim etmaslikda ifodalan- gan advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish, shu- ningdek, advokatning ishda ishtirok etishiga to'sqinlik qilish yoki ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaatlariga zid bo'lgan vaziyatni majburan egallashiga erishish maqsadida advo- katga qanday shaklda bo'lmasin ta'sir o'tkazishda ifodalanadigan ma'muriy javobgarlik belgilangan.

O'zbekistonda advokatura instituti rivojlanishining ilk bosqich- lari tahlili advokaturani mustaqil va erkin institut sifatida faoliyat ko'rsatishi haqida so'z yuritish qiyinligidan dalolat beradi. Advoka- tlar va advokatlik faoliyatiga bo'lgan ma'muriy munosabat advo- katura maqomini har qanaqasiga siqib qo'ygan edi. Advoka- turaning uzoq muddat davomida faoliyat ko'rsatishi jarayonida advokatura to'g'risida alohida qonunning yo'qligi va uning fao- liyati faqat nizomlar bilan tartibga solinishi bunday munosabatni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, hattoki, ushbu sharoitda ham advoka- tlar o'z vazifasini bajarishga harakat qilishib, yuridik yordamga muhtoj bo'lganlarga bunday yordam ko'rsatishadi. Bunda bevosita aynan mazkur kasb vakillari uchun talablar ishlab chiqilgan edi. Advokatura rivojlanishining ilk bosqichlarida advokatlarning ax- loqiy sifatlariga katta e'tibor qaratilgani diqqatga sazovor.

Umuman, advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslari va u haqidagi qonun hujjatlari izchillik bilan o'zgarib borganini aytib o'tish lozim, axir madaniyatli demokratik huquqiy davlatni avtoritar siyosiy rejimdagi yoki bunday rejimdan yaqinda ozod bo'lgan davlatdan ajratib turuvchi asosiy mezonlardan biri, bu — advokatura va advokatlik faoliyatiga hurmat munosabati sanaladi.

### 15.3. Advokatlik faoliyatining tashkiliy asoslari

Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari «Advokatura to'g'ri- risida»gi Qonunning 4-moddasida ko'rsatilgan.

**Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari** — advokatlik byu- rosi; advokatlik firmasi; advokatlar hay'ati; yuridik maslahatxona.

«Advokatura to'g'risida»gi Qonun advokatlar o'z xohishiga ko'ra, faoliyatini turli tashkiliy shakllarda amalga oshirishi mum- kinligini nazarda tutadi: o'z advokatlik byurosini ochib, yakka tar- tibda amalga oshirishga; yoxud boshqa advokatlar (sherkarlar) bilan

advokatlik firmasini yoki a'zolikka asoslangan advokatlar hay'atini tuzishga; yoxud faoliyat ko'rsatayotgan shunday advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishga yoki yuridik maslahatxonada ishlagan holda advokatlik faoliyatini amalga oshirishga haqli. Advokat o'z faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzilmasida amalga oshirishga haqli.

Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, yuridik maslahatxonalarni hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Advokatlik tuzilmalarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, tuzilmasi, shtatlari, vazifalari, mablag'larni sarflash tartibi, rahbar organlarining vakolatlari, ularni saylash tartibi hamda advokatlik tuzilmalari faoliyatiga taalluqli boshqa masalalar ularning ustavlari (nizomlari), ta'sis shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlari ular ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran, yuridik shaxs maqomini oladi. Yuridik maslahatxona hisobga olingan kundan e'tiboran, o'z faoliyatini amalga oshirishga haqli.

Advokatlik tuzilmalari fuqarolar va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatganlik uchun ulardan tushadigan pul mablag'lari (daromadlar) hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan ta'minot oladi.

Advokatlar qonunda belgilangan tartibda advokatlarning jamoat birlashmalarini tuzishi mumkin.

Advokatlik firmasi va advokatlar hay'ati ustavlari bilan ayrim bir-biriga mos keladigan masalalarni ko'rib chiqamiz.

*Advokatlik firmasida yoki advokatlar hay'atida o'z faoliyatini amalga oshiradigan advokatlarning huquq va majburiyatlari.* Mazkur advokatlar quyidagi huquqlarga ega:

- advokatlik tuzilmasi faoliyati bilan bog'liq masalalar muhokama qilinyotganda ishtirok etish;
- advokatlik tuzilmasi ishini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish;
- advokatlik tuzilmasining rahbar organlariga saylash va saylanish;
- advokatlik tuzilmasi faoliyati to'g'risida axborot olish, hujjatlar bilan, shu jumladan, advokatlik tuzilmasining moliyaviy faoliyati bilan bog'liq hujjatlar bilan tanishish;
- advokatlik tuzilmasi tarkibidan chiqish;
- advokatlik tuzilmasi tarkibidan chiqqanida, advokat tomonidan advokatlik tuzilmasi mulki qilib topshirilgan mol-mulk qiy-



mati doirasida uning mol-mulkinging bir qismini yoki ana shu mol-mulk qiymatini olish, har oylik to'lovlar bundan mustasno;

- advokatlik tuzilmasi tugatilganida, advokat tomonidan advokatlik tuzilmasi mulki qilib topshirilgan mol-mulk qiymati doirasida firmaning kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilinganidan keyin qolgan mol-mulkinging bir qismini yoki ana shu mol-mulk qiymatini olish huquqiga ega.

Advokatlar qonun hujjatlariga, firmaning sheriklik shartnomasiga (hay'atning ta'sis shartnomasiga) va advokatlik tuzilmasi ustaviga muvofiq, boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Umumiy masalalarni hal etishda advokatlarning huquqlari teng va ular kiritgan mulkiy ulushga, advokatlik faoliyati stajiga hamda boshqa shartlarga bog'liq bo'lmaydi.

Advokatlar:

- advokatlik tuzilmasining sheriklik shartnomasi (hay'atning ta'sis shartnomasiga) va ustav talablariga rioya etishlari hamda ularni bajarishlari;

- advokatlik tuzilmasining faoliyatida faol ishtirok etishlari;

- advokatlik tuzilmasi rahbar organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini ijro etishlari;

- advokatlik tuzilmasi ta'minoti uchun har oylik to'lovlarni o'z vaqtida to'lashlari;

- advokatlik tuzilmasi faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmasliklari shart.

Advokatlar qonun hujjatlariga, firmaning sheriklik shartnomasiga (hay'atning ta'sis shartnomasiga) va ustavga muvofiq, boshqa majburiyatlarni ham bajaradilar.

Advokatlarga boshqa advokatlik tuzilmasida advokatlik faoliyatini amalga oshirish taqiqlanadi. Ular faqat bitta advokatlik tuzilmasida faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

*Advokatlik tuzilmasi tarkibidan chiqarish va mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari.* Advokat quyidagi hollarda advokatlik tuzilmasi tarkibidan chiqariladi va u bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilinadi:

- advokatning arizasiga binoan;

- advokatni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi sudning qarori qonuniy kuchga kirganda;

- advokat tomonidan advokatning sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan hamda advokaturaning obro'sini tushiradigan qilmish sodir etilgan holda;

- advokat tomonidan o'z majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan holda;

- advokat unda sudlanganligi olib tashlanmagan yoki sudlanganlik holati tugallanmagan holat kelib chiqishiga olib keladigan jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilganligi to'g'risidagi sudning hukmi qonuniy kuchga kirganida;

- advokat tomonidan advokatlik tuzilmasiga qabul qilinayotganida o'zi to'g'risida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar berilgan holda;

- advokatning advokat maqomi tugatilgan holda.

Advokatni advokatlik tuzilmasi tarkibidan chiqarish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin. Advokatni advokatlik tuzilmasi tarkibidan chiqarish to'g'risidagi qaror advokatlik tuzilmasining Oliy organi tomonidan qabul qilinadi.

*Advokatlik tuzilmalarining rahbar organlari.* Firma va hay'atning oliy organi bo'lib, tegishli advokatlik firmasi Sheriklarining yig'ilishi va advokatlar hay'ati a'zolarining Umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Joriy rahbarlik boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Ko'rsatilgan advokatlik tuzilmalari Oliy organlarining mutlaq vakolatlari masalalari ham o'xshash:

- advokatlik tuzilmasi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;

- advokatlik tuzilmasi ustavini tasdiqlash, shuningdek, unga hamda Firmaning sheriklik shartnomasiga (hay'atning ta'sis shartnomasiga) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- ichki mehnat tartib-qoidalarini va boshqa lokal hujjatlarni tasdiqlash;

- advokatlik firmasi va advokatlar hay'ati tuzilmasini, xarajatlar smetasini, xodimlarning shtatlari va ish haqi miqdorlarini tasdiqlash;

- boshqaruvchini, uning o'rinbosarlarini saylash va lavozimdan ozod qilish (shu jumladan, muddatidan oldin ozod qilish);

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

- advokatlik tuzilmasiga sheriklarni (a'zolari) qabul qilish va chiqarish;

- advokatlik tuzilmasi ta'minoti uchun har oylik to'lovlar miqdorini belgilash;

- yuridik yordam ko'rsatish uchun haq to'lash shakllarini belgilash;

- advokatlik tuzilmasini qayta tashkil etish va tugatish.

---

<sup>1</sup> Advokatlik firmasida — boshqaruvchi sherik.

Advokatlar hay'atining oliy organi — umumiy yig'ilish — bundan tashqari hay'at filiallarini tashkil etish va faoliyatini tugatish masalalarini hal etish huquqiga ham ega. Oliy organ advokatlik tuzilmasi faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalarni ham ko'rib chiqishi mumkin. Oliy organning mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar boshqaruvchiga hal etishi uchun berilishi mumkin emas. Oliy organi yig'ilishi, agar unda jami sheriklarning (a'zolarining) kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli (kvorunga ega) hisoblanadi.

Oliy organning qarorlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Boshqaruvchi (boshqaruvchi sherik) saylanadigan muddat advokatlik tuzilmasining ustavida belgilanadi.

*Boshqaruvchi (boshqaruvchi sherik):*

- advokatlik tuzilmasining samarali ishlashini ta'minlaydi;
- advokatlik tuzilmasi nomidan ish yuritadi va uni ishonchnomasiz ifoda etadi;
- xo'jalik, fuqaroviy-huquqiy va boshqa shartnomalar tuzadi;
- advokatlik tuzilmasining xodimlari, shu jumladan, hay'at xodimlari (sheriklar), advokatlarning stajorlari va yordamchilari bilan mehnat shartnomalari (kontraktlar) tuzadi va bekor qiladi;
- advokatlik tuzilmasi Oliy organi qarorlarining ijrosini ta'minlaydi;
- advokat tomonidan ishni olib borishga order blanklari hisobini yuritadi, saqlanilishi va maqsadli foydalanilishini ta'minlaydi;
- advokat tomonidan ishni olib borishga orderni imzolaydi va beradi;
- buyruqlar, farmoyishlar va boshqa lokal hujjatlar chiqaradi;
- advokatlik hay'ati a'zolari (firmasi sheriklari) tomonidan o'z kasbiy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari va advokatlarning stajorlarini tayyorlashlari ustidan nazoratni amalga oshiradi;

• qonun hujjatlariga, hay'atning ta'sis shartnomasiga (firma sheriklik shartnomasiga) va ustavga muvofiq, advokatlik tuzilmasining faoliyati bilan bog'liq va advokatlik tuzilmasi Oliy organining mutlaq vakolatlariga kiritilmagan masalalar bo'yicha boshqa qarorlar qabul qiladi.

Advokatlar hay'atining boshqaruvchisi bundan tashqari hay'at filiallari rahbarlarini tayinlash va lavozimdan ozod qilish masalalarini hal etish huquqiga ega. Boshqaruvchi (boshqaruvchi sherik) advokatlik tuzilmasining oliy organiga hisobdordir.

Advokatlik byurosi, advokatlik firmasi va advokatlar hay'ati tugatilishi va qayta tashkil etilishi mumkinligiga e'tiborni qaratish lozim. Bunda qayta tashkil etish masalasi faqat mazkur advokatlik

tuzilmalari vakolati doirasida bo'lsa, bu tuzilmalarni tugatish masalasi, nafaqat, ularning qarorlari asosida, balki xo'jalik sudi qarori asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Advokatlik tuzilmasi ixtiyoriy ravishda tugatilganda ular (tegishlicha advokat, yig'ilish va umumiy yig'ilish) tomonidan tugatuvchi tayinlanadi hamda qonunga muvofiq, tugatish tartibi va muddatlari belgilanadi.

Qonunda nazarda tutilgan har bir advokatlik tuzilmasini qisqacha ko'rib chiqamiz.

**Advokatlik byurosi.** Advokatlik byurosi advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir. Yakka tartibda deganda, advokat o'z faoliyatini tashkiliy jihatdan boshqa advokatlar bilan doimiy ravishda birlashmagan holda amalga oshirilishi tushunilishi kerak. Lekin shu bilan birga, murakkab jinoyat va fuqarolik ishlari va h.k.lar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatishda advokat boshqa advokatlar bilan kuchlarini birlashtirish huquqiga ega emasligi tushunilmasligi kerak. Shuningdek, advokatlik byurosida advokat yordamchisi va stajori ham faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Advokatlik byurosining ta'sis hujjati muassis tomonidan tasdiqlanadigan ustavidir. Byuro o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Advokatlarining kasb etikasi qoidalariga va ustavga amal qiladi.

Byuroni boshqarish uchun advokat quyidagi huquqlarga ega:

- byuroning samarali ishlashini ta'minlaydi;
- byuro faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;
- byuro ustavini tasdiqlaydi, shuningdek, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi;
- ichki mehnat tartib-qoidalarini va boshqa lokal hujjatlarni tasdiqlaydi;
- byuro tuzilmasini, smeta xarajatlarini, byuro xodimlarining shtatlari va ish haqi miqdorlarini tasdiqlaydi;
- byuro nomidan ish yuritadi va uni ishonchnomasiz ifoda etadi;
- xo'jalik, fuqaroviy-huquqiy va boshqa shartnomalar tuzadi;

• byuro xodimlari, shu jumladan, advokatning stajorlari va yordamchilari bilan mehnat shartnomalari (kontraktlar) tuzadi va bekor qiladi;

• advokat tomonidan ishni olib borishga order blanklari hisobini yuritadi, saqlanilishi va maqsadli foydalanishini ta'minlaydi;

• buyruqlar, farmoyishlar va boshqa lokal hujjatlar chiqaradi;

• byuroni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi;

• byuro faoliyati bilan bog'liq boshqa qarorlar qabul qiladi.

Byuroni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlariga va advokatlik byurosi ustaviga muvofiq amalga oshiriladi. Byuro o'z faoliyati natijalari hisobini olib boradi va belgilangan tartibda tegishli tashkilotlarga hisobotlar taqdim etadi.

**Advokatlik firmasi.** Advokatlik firmasi sheriklikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir.

Advokatlik firmasi advokatlik faoliyatini amalga oshirishning jamoaviy shakli hisoblanadi. Advokatlik firmasining ta'sis hujjati uning muassislari tomonidan tasdiqlanadigan ustavdir.

Advokatlik firmasi oddiy yozma shaklda o'zaro sheriklik shartnomasini tuzish orqali ta'sis etiladi. Sheriklik shartnomasiga ko'ra, advokatlar — sheriklar barcha sheriklar nomidan yuridik yordam ko'rsatish uchun o'z sa'y-harakatlarini birlashtirish majburiyatini oladi. Sheriklik shartnomasida uning amal qilish muddati, sheriklar tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi, boshqaruvchi sherikni saylash tartibi, uning vakolatlari va boshqa muhim shartlar ko'rsatiladi.

Advokatlik firmasining umumiy ishlarini yuritish, agar sheriklik shartnomasida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, boshqaruvchi sherik tomonidan amalga oshiriladi. Ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan yuridik yordam ko'rsatish haqidagi bitim (shartnoma) boshqaruvchi sherik yoki barcha sheriklar nomidan ular bergan ishonchnomalar asosida boshqa sherik tomonidan tuziladi. Ishonchnomalarda ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) va uchinchi shaxslar bilan bitimlar (shartnomalar) hamda kelishuvlar tuzayotgan sherik vakolatlarining barcha cheklovlari ko'rsatiladi. Mazkur cheklovlar ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) va uchinchi shaxslar e'tiboriga yetkaziladi.

Sheriklik shartnomasi quyidagi hollarda tugatiladi:

• sheriklik shartnomasining amal qilish muddati tugaganda;

• sheriklardan biri bo'lgan advokatning maqomi tugatilganda yoki to'xtatib turilganda, agar sheriklik shartnomasida boshqa sheriklar o'rtasidagi munosabatlarda ushbu shartnomaning kuchda qolishi nazarda tutilmagan bo'lsa;

• sheriklardan birining talabiga ko'ra, sheriklik shartnomasi bekor qilinganda, agar sheriklik shartnomasida boshqa sheriklar o'rtasidagi munosabatlarda ushbu shartnomaning kuchda qolishi nazarda tutilmagan bo'lsa.

Sheriklik shartnomasi tugatilgan paytdan e'tiboran, uning ishtirokchilari ishonch bildiruvchi shaxslarga (himoya ostidagi shaxslarga) va uchinchi shaxslarga nisbatan ijro etilmagan umumiy majburiyatlar bo'yicha solidar tartibda javobgar bo'lishadi. Sheriklardan biri sheriklik shartnomasidan chiqqanda u o'zi yuridik yordam ko'rsatgan barcha ishlar bo'yicha ish yuritishni boshqaruvchi sherikka topshirishi shart.

Sheriklik shartnomasidan chiqqan advokat sheriklik shartnomasida o'zi ishtirok etgan davrda yuzaga kelgan umumiy majburiyatlar bo'yicha ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) va uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'ladi.

Sheriklik shartnomasi tugatilganidan keyin advokatlar yangi sheriklik shartnomasini tuzishlari shart. Agar yangi sheriklik shartnomasi avvalgi sheriklik shartnomasining amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran, bir oy ichida tuzilmasa, advokatlik firmasi advokatlik tuzilmasining boshqa shakliga o'zgartirilishi yoki tugatilishi kerak.

Sheriklik shartnomasi tugatilgan paytdan e'tiboran va advokatlik firmasi advokatlik tuzilmasining boshqa shakliga o'zgartirilguniga qadar yoxud yangi sheriklik shartnomasi tuzilguniga qadar, advokatlar yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida bitimlar (shartnomalar) tuzishga haqli emas.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan va advokat qasamyodini qabul qilgan shaxslar, shuningdek, boshqa advokatlik tuzilmalarida ishlayotgan advokatlar firmaga sheriklikka qabul qilinadi. Firma sherikligiga qabul qilish to'g'risidagi qaror advokatlik firmasi sheriklarining yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Sherikni ishga qabul qilish boshqaruvchi sherikning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Firma uning sherigi uchun asosiy ish joyidir.

Boshqa advokatlik tuzilmasida ishlayotgan advokat firma sherikligiga qabul qilinganidan keyin uni ana shu tuzilmadan chi-

qarish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Sheriklar boshqaruvchi sherikni kamida uch oy oldin xabardor qilib, istagan vaqtda firmadan chiqishga haqli.

*Advokatlik firmasining Oliy organi haqida.* Sheriklar yig'ilishi, agar unda jami sheriklarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli (kvorunga ega) hisoblanadi.

Shaxslarni firma sherikligiga qabul qilishga, firmaning sheriklik shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir masalalar bo'yicha sheriklar yig'ilishi qarorlari bir ovozdan, firma faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, firmaning ustavini tasdiqlash, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, firmani qayta tashkil etish va tugatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik ovoz bilan, boshqa masalalar bo'yicha esa, sheriklar yig'ilishida ishtirok etayotgan sheriklarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Firmaning har bir sherigi sheriklar yig'ilishida bir ovozga ega.

Sherikni firmadan chiqarish masalasi bo'yicha qaror ushbu sherikning ovozi hisobga olinmagan holda sheriklar yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Sheriklar yig'ilishi boshqaruvchi sherik tomonidan zaruratga qarab, ammo yiliga kamida bir marta chaqiriladi. Sheriklar yig'ilishi barcha sheriklarning kamida uchdan ikki qismi tashabbusiga ko'ra ham chaqirilishi mumkin.

Boshqaruvchi sherik firmaning sheriklik shartnomasida, firmaning sheriklari tomonidan beriladigan ishonchnomalarda va ustavda belgilangan o'zining vakolatlari doirasidan chiqqan holda qabul qilgan qarorlari bo'yicha shaxsan, shu jumladan, moddiy javob beradi. Firmaning sheriklik shartnomasi va ustavi mos kelmagan holda ustav qoidalari uchinchi shaxslar va sheriklar uchun ustuvor kuchga ega bo'lishini e'tiborga olish zarur.

**Advokatlar hay'ati.** Advokatlar hay'ati a'zolikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir. Advokatlar hay'atlari tarkibidagi a'zolar soni o'ntadan kam bo'lmasligi kerak.

Advokatlar hay'atining ta'sis hujjatlari uning muassislari tomonidan tasdiqlanadigan ustav hamda ular tomonidan tuziladigan ta'sis shartnomasidir.

Ta'sis shartnomasida muassislar advokatlar hay'atiga o'z mulkini o'tkazish shartlarini, ushbu hay'at faoliyatida ishtirok etish tartibini, advokatlar hay'atiga yangi a'zolarini qabul qilish,

muassislarning (a'zolarining) uning tarkibidan chiqish tartibi va shartlarini, shuningdek, advokatlar hay'ati muassislarining (a'zolarining) huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Advokatlar hay'atida yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitimlar (shartnomalar) advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o'rtasida tuziladi hamda advokatlar hay'atining hujjatlarida ro'yxatdan o'tkaziladi. Advokatlar hay'ati yuridik yordam ko'rsatish uchun o'zi turgan yerdan tashqarida joylashgan filiallar tuzishga haqli.

*Hay'atda a'zolik.* Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan va advokat qasamyodini qabul qilgan shaxslar, shuningdek, boshqa advokatlik tuzilmalarida ishlayotgan advokatlar hay'atga a'zo sifatida qabul qilinadi.

Hay'at a'ziligiga qabul qilish to'g'risidagi qaror advokatlar hay'atining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Ishga qabul qilish hay'at boshqaruvchisining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Hay'at a'zosining mehnat sharoitlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan mehnat shartnomasi (kontrakt) bilan belgilanadi. Hay'at uning a'zosi uchun asosiy ish joyidir.

Boshqa advokatlik tuzilmasida ishlayotgan advokat hay'at a'ziligiga qabul qilinganidan keyin uni ana shu tuzilmadan chiqarish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Hay'at a'zolari hay'atni kamida uch oy oldin xabardor qilib, istagan vaqtda uning tarkibidan chiqishga haqli.

*Advokatlar hay'atining Oliy organi haqida.* Umumiy yig'ilish, agar unda jami a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi.

Hay'atning ta'sis shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir masalalar bo'yicha umumiy yig'ilish qarorlari bir ovozdan, hay'at faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, hay'at ustavini tasdiqlash, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, hay'atni qayta tashkil etish va tugatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha umumiy yig'ilish qarorlari hay'at a'zolarining to'rt-dan uch qismdan iborat ko'pchilik ovozi bilan, boshqa masalalar bo'yicha esa, umumiy yig'ilishda ishtirok etayotganlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Hay'atning har bir a'zosi Umumiy yig'ilishda bir ovozga ega.

Hay'at a'zosini hay'atdan chiqarish masalasi bo'yicha qaror ushbu a'zoning ovozi hisobga olinmagan holda Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilinadi. Umumiy yig'ilish boshqaruvchi to-



monidan zaruratga qarab, ammo yiliga kamida bir marta chaqiriladi. Umumiy yig'ilish barcha hay'at a'zolarining kamida uchdan ikki qismi tashabbusiga ko'ra ham chaqirilishi mumkin.

Boshqaruvchi hay'atning ta'sis shartnomasida va ustavda belgilangan o'zining vakolatlari doirasidan chiqqan holda qabul qilgan qarorlari bo'yicha shaxsan, shu jumladan, moddiy javob beradi.

Hay'atning ta'sis shartnomasi va ustav qoidalari mos kelmagan holda ustav qoidalari uchinchi shaxslar va hay'at a'zolari uchun ustuvor kuchga ega bo'ladi.

**Yuridik maslahatxona.** Advokatlik hay'atlari va advokatlik firmalari tashkil etilmagan, shuningdek, yakka tartibda faoliyat ko'rsatadigan advokatlar byuro tashkil etishga harakat qilmaydigan joylardagi aholi va yuridik shaxslarni malakali yuridik yordam bilan ta'minlash maqsadida Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan yuridik maslahatxonalar tashkil etiladi.

Yuridik maslahatxona — advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan advokatlik tuzilmasi.

Yuridik maslahatxona tegishli hududda yuridik yordamga bo'lgan ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun advokatlik tuzilmalarining soni yetarli bo'lmagan hollarda Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladi. Tegishli hududlardagi yuridik yordamga bo'lgan ehtiyoj O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanadigan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

Yuridik maslahatxonaning moddiy-texnik ta'minoti tartibi va shartlari, yuridik maslahatxonalariga ishlash uchun yuborilgan advokatlar uchun xizmat xonalari va zarurat bo'lganda, turar joylar ajratish bilan bog'liq masalalar Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tuman, shahar hokimligi bilan birgalikda hal qilinadi.

Yuridik maslahatxona Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomga asosan ish olib boradi.

**Yuridik maslahatxonani boshqarish.** Yuridik maslahatxonaga hududiy boshqarma boshlig'i tomonidan tayinlanadigan mudir rahbarlik qiladi. Mudir:

- yuridik maslahatxonani samarali ishlashini ta'minlaydi;
- hududiy boshqarma qarorlari ijro etilishini ta'minlaydi;

- advokat tomonidan ishni olib borishga order blanklari hisobini yuritadi, saqlanilishi va maqsadli foydalanilishini ta'minlaydi;
- advokat tomonidan ishni olib borishga orderni imzolaydi va beradi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tayinloviga binoan, navbatchilik jadvaliga muvofiq, jinoyat ishlarida advokatlarni ishtirok etishini ta'minlaydi;

- yuridik maslahatxonaning advokatlari tomonidan o'z kasbiy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari va advokatlarining stajorlarini tayyorlashlari ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- yuridik maslahatxona faoliyati bilan bog'liq boshqa ishlarni yuritadi.

Mudir hududiy boshqarmaga hisobdordir. Yuridik maslahatxona o'z faoliyati natijalarini hisobini olib boradi va hududiy boshqarmaga tegishli hisobotlar taqdim etadi. Hududiy boshqarma yuridik maslahatxonaning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Yuridik maslahatxona faoliyatini tugatish qonun hujjatlariga, hududiy boshqarma to'g'risidagi nizom va yuridik maslahatxona to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

**Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini ro'yxatdan o'tkazish, yuridik maslahatxonalarni hisobga olish.** O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni 4-moddasiga muvofiq, advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, yuridik maslahatxonalarni hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, ro'yxatdan o'tkazish (hisobga olish) Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish (hisobga olish) advokatlik tuzilmasi joylashgan joydagi adliya organi tomonidan amalga oshiriladi. Advokatlik byurosi, firmasi yoki advokatlar hay'atini ro'yxatdan o'tkazish uchun adliya organiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- muassis tomonidan (boshqa muassislardan biri tomonidan) imzolangan ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza;

- advokatlik firmasi yoki advokatlar hay'atini tashkil etish to'g'risidagi, ularning muassislari to'g'risidagi, ularning ustavlarini tasdiqlash to'g'risidagi, rahbarlik organlarini shakllantirish to'g'risidagi;

risidagi (advokatlik firmalari yoki advokatlar hay'atlari uchun) ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ta'sis yig'ilishining bayonnomasi;

- ta'sis hujjatlarining davlat tilidagi, notarial tasdiqlangan ikki asl nusxasi;

- muassislar litsenziyalarining nusxalari;

- malaka komissiyalarining advokat qasamyodi muassislar qabul qilganligini tasdiqlash to'g'risidagi qarori, agar ular advokat maqomiga ega bo'lmasalar;

- davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan miqdordagi davlat boji to'langanligi to'g'risida bankning to'lov hujjati;

- ikki nusxada muhr va shtamp namunalari eskizi, agar mavjud bo'lsa, emblema va boshqa ramzlarning ham;

- davlat statistika organi tomonidan berilgan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki o'xshash nomlarning yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Yuridik maslahatxonani hisobga olish uchun adliya organiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- tegishli hududiy boshqarmaning rahbari tomonidan imzolangan, yuridik maslahatxona tashkil etish zarurati asoslarini aks ettirgan hisobga olish to'g'risidagi ariza;

- hududiy boshqarma rahbarining yuridik maslahatxona tashkil etish to'g'risidagi buyrug'i;

- yuridik maslahatxona to'g'risidagi nizomning notarial tasdiqlangan ikki asl nusxasi;

- hisobga olish uchun belgilangan miqdorda davlat boji to'langanligi to'g'risida bankning to'lov hujjati;

- ikki nusxada muhr va shtamp namunalari eskizi.

Yuridik maslahatxona to'g'risidagi nizom tegishli hududiy boshqarma rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza adliya organi tomonidan yigirma kun muddatda ko'rib chiqiladi.

Hisobga olish to'g'risidagi ariza adliya organi tomonidan o'n kun muddatda ko'rib chiqiladi.

Arizani barcha zarur hujjatlar bilan birga ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra, adliya organi ro'yxatdan o'tkazish (hisobga olish) to'g'risida yoki ro'yxatdan o'tkazishni (hisobga olishni) rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi va ariza beruvchini qabul qilingan qaror to'g'risida uch kun muddatda xabardor qiladi. Ro'yxatdan o'tkazish (hisobga olish) to'g'risidagi qaror adliya organi rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Ariza beruvchining bildirishnoma olgandan keyin murojaati bo'yicha advokatlik byurosi, advokatlik firmasi va advokatlar hay'ati ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda quyidagilar beriladi:

- qonun hujjatlariga muvofiq, shakl bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma;
- adliya organining muhri bilan tasdiqlangan, «ro'yxatdan o'tkazilgan» belgisi qo'yilgan ta'sis hujjatlari;
- ikki nusxada muhr va shtamp namunalari eskizi, agar mavjud bo'lsa — emblemasi va boshqa ramzlari ham, «tasdiqlangan» belgisi bilan.

Ariza beruvchining bildirishnoma olgandan keyin murojaati bo'yicha yuridik maslahatxona hisobga qo'yilganda, hududiy boshqarmaga quyidagilar beriladi:

- qonun hujjatlariga muvofiq, shakl bo'yicha hisobga olish to'g'risidagi guvohnoma;
- yuridik maslahatxona to'g'risidagi nizom, «hisobga qo'yildi» belgisi bilan;
- muhr va shtamp namunalari eskizlari, «tasdiqlangan» belgisi bilan.

Ro'yxatdan o'tkazish (hisobga olish) to'g'risidagi guvohnomalarning blanklari qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi. Guvohnomalarning blanklari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining buyurtmanomasi bo'yicha bosmaxona usulida «Davlat belgisi» davlat ishlab chiqarish birlashmasida tayyorlanadi.

Guvohnomalar blanklarini saqlash va hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

#### **15.4. Advokatlarning huquqlari va majburiyatlari**

**Advokat maqomiga ega bo'lish shartlari.** O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni 3-moddasi «advokat» atamasiga ta'rif beradi. Unga ko'ra, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin. Qonunning 3'-moddasi litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi, shu jumladan,

## • Yodda saqlang! •

### *Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxsga qo'yiladigan talablar<sup>1</sup>:*

- 1) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi;
- 2) oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi;
- 3) advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lishi;
- 4) yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi, shu jumladan, advokatlik tuzilmasida kamida olti oy muddat stajirovka o'tashi.

advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay'atida, yuridik maslahatxonada) kamida olti oy muddat stajirovka o'tagan bo'lishi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shartligi belgilangan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Litsenziya olish uchun imtihon Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Armanistonda ham topshiriladi, Gruziyada esa umumiy yoki mutaxassislik bo'yicha testni topshirish nazarda tutilgan.

<sup>2</sup> *Ma'lumot uchun:* Rossiya qonunchiligida nomzodlarga qo'yilayotgan talablarning quyidagi ro'yxati nazarda tutilgan: 1) oliy yuridik ma'lumotga yoki yuridik mutaxassislik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lish; 2) yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish staji yoki advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tash. Ta'kidlash joizki, agar federal qonunda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, federal qonun bilan belgilangan tartibda advokat maqomini olgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham RFning butun hududida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Advokat maqomini olmoqchi bo'lgan shaxslarga qo'yiladigan o'xshash talablar MDH mamlakatlari qonunchiligida aks ettirilgan. Qozog'iston qonunchiligida quyidagi talablar qo'yilgan: Qozog'iston Respublikasi fuqaroligi, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lish, advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olish (7-modda). Qirg'iziston Respublikasida Qirg'iziston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, oliy yuridik ma'lumotga va yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida bir yillik ish stajiga yoki advokat yordamchisi sifatida ishlash bo'yicha kamida bir yillik tajribaga ega bo'lgan shaxslar litsenziya olish bo'yicha imtihonlarga qo'yiladilar (8-modda). Ozarbayjon Respublikasida advokatlikka nomzodlarga quyidagi talablar qo'yiladi: oliy yuridik ma'lumotga, yurist mutaxassisligi bo'yicha kamida uch yillik tajribaga ega bo'lgan yoki huquq sohasidagi ilmiy muassasalar va pedagogik o'quv idoralarida ishlayotgan va malaka komissiyasida imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan shaxslar (8-modda). Gruziyada talablarning quyidagi ro'yxati mustahkamlangan – oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish; advokatlik testlarini topshirish, qasamyod qilish, yurist yoki advokat-stajor sifatida kamida bir yillik ish stajiga ega bo'lish. Shunday qilib, ko'rinib turibdiki, yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lish asosiy talab hisoblanadi.

«Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi tahlilidan advokatlik faoliyati litsenziyalanadigan faoliyat turlariga kirishini ko'rishimiz mumkin. Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomondan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi.

Qonunda advokatlik maqomiga ega bo'lishga talabgor bo'la olmaydigan shaxslar toifalari belgilangan. Bu belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, Qonunda advokat ilmiy va pedagogik faoliyatdan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidagi va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emasligi belgilangan. Boshqa haq to'lanadigan faoliyat turi bilan shug'ullanishga taqiq belgilanganligi advokatning o'z ishida diqqatini jamlashga ko'maklashadi, amaliy malakali yordam ko'rsatishga imkon beradi.

**Advokat maqomiga ega bo'lish tartibi.** O'zbekistonda talabgorga advokat maqomini berish yoki berishni rad etish to'g'risidagi malaka komissiyasining qarori, odatda, advokatlikka nomzodlarning barchasi imtixon topshirishi bilan qabul qilinadi.

Qonunda malaka imtixonini topshira olmagan talabgor uni takroran topshirishga kamida bir yildan keyin qo'yilishi belgilangan. Shu bilan birga, malaka imtixonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgor litsenziya olish uchun tegishli adliya organiga uch oy ichida murojaat qilishi kerak. Bu muddatni o'tkazib yuborgan talabgor litsenziya olish uchun adliya organiga malaka imtixonini takroran topshirganidan keyingina murojaat qilishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuniga binoan, zarur bilimlar va kasbiy malakaga ega bo'lgan shaxslarga litsenziya berish to'g'risidagi ma-

---

<sup>1</sup> *Ma'lumot uchun:* mazkur ro'yxatga advokatura to'g'risidagi Qozog'iston qonunchiligida advokatlar hay'atidan chiqarilgan, intizomiy qoidabuzarlik uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlardan bo'shatilgan shaxslar — ishdan bo'shatilgach, bir yil davomida (7-moddaning 2-bandi); Ozarbayjon qonunchiligida — ikki fuqaroligi bo'lgan; boshqa davlatlar oldida majburiyatlari bo'lgan, shuningdek, davlat xizmatida bo'lgan shaxslar (8-moddaning 2, 3-bandlari); Armanistonda — davlat xizmatchisi bo'lgan shaxs qo'shilgan.

salani hal etish maqsadida, Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida advokatlar hamda adliya organlari xodimlaridan teng miqdordagi malaka komissiyalari tuziladi<sup>1</sup>.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya malaka komissiyasining qarori asosida adliya organi tomonidan beriladi. Shunday qilib, litsenziya muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat beradigan, davlat organi tomonidan berilishi kerak bo'lgan hujjatdir.

Talabgor litsenziya olgandan keyin uch oy ichida advokat qasamyodini qabul qilishi va yakka tartibda yoki litsenziyaga ega bo'lgan boshqa shaxslar bilan birgalikda advokatlik tuzilmasini tuzishi yoxud faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishi shart.

Talabgor advokatlik guvohnomasi berilgan kundan e'tiboran, advokat maqomini oladi, Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasi adliya organi tomonidan bu haqda uch kunlik muddatda xabardor qilinadi. Shunday xabarnoma olingan paytdan e'tiboran, advokat Advokatlar palatasining a'zosi bo'ladi.

**Advokatlarning huquqlari va majburiyatlari.** Advokat huquqiy maqomining tarkibiy qismini uning huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha samarali himoyani amalga oshirish, shuningdek, malakali yuridik yordam ko'rsatish maqsadida qonun advokatlarga keng huquqlar va majburiyatlar belgilaydi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasiga binoan, advokat o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida quyidagi **huquqlarga** ega:

---

<sup>1</sup> Ta'kidlash joizki, Qozog'istonda ham, Ozarbayjonda ham, Belorussiyada, Ukrainada, shuningdek, Rossiya Federatsiyasida malaka komissiyalari tarkibiga sud, mahalliy hokimiyat organlari va adliya idoralarining vakillari kiritiladi. *Qarang:* Положение о Центральной аттестационной комиссии. Утв. приказом Минюста Республики Казахстан от 23.03.1999 г. № 148, ст. 13; Квалификационная комиссия адвокатов Закон об адвокатах и адвокатской деятельности. Собрания законодательства Азербайджанской Республики. 2000, № 1, стр. 19, ст. 11; Квалификационная комиссия по вопросам адвокатской деятельности в Республике Беларусь. Закон Республики Беларусь «Об адвокатуре». Информ.-прав. агентство «Регистр»; *А.М. Бандурки.* Судебные и правоохранительные органы Украины. Учебник. Харьков, «Эспада», 1999, стр. 283—284; *К.В. Питулько, В.В. Коряковцев.* Постатейный комментарий к федеральному закону «Об адвокатской деятельности и адвокатуре в РФ». СПб., «Питер», 2002, стр. 117—118 (серия «Закон и комментарии»).

- tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig'iga muvofiq, ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish;

- sudlarda, shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlarda dalil sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash. Yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash advokatlik faoliyatining tegishli informatsion bazasini ta'minlaydi;

- yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan advokat tomonidan so'ralgan hujjatlarni yoki ularning tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berishi shart bo'lgan davlat organlari va boshqa organlardan, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar hamda boshqa hujjatlarni so'rash va olish. Advokat to'plashi mumkin bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati tugal emas. U yoki bu advokatlik faoliyatiga nisbatan to'plangan ma'lumotlarning xarakter va hajmi o'zgaradi;

- yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarning ma'lumotnoma-maslahatlarini ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) roziligi bilan so'rash va olish. Mutaxassislar advokatda mavjud bo'lgan bilimlar to'g'ri qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda jalb qilinishi mumkin;

- ishga taalluqli axborotdan xabardor bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirish olish. Ularning roziligi bilan shaxslarni so'rovdan o'tkazish — advokatning fikricha, ishga oid bo'lgan ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar bilan suhbatlashish imkoniyatida namoyon bo'ladigan advokat huquqidir. Mazkur vakolat advokat faoliyati ko'lamini ancha kengaytiradi, ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlarini himoya qiladigan ish bo'yicha dalillar bazasini tashkil etishga faol ta'sir etish imkoniyatini beradi;

- to'plangan materiallarni o'zi ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) ishi yuzasidan ish yuritayotgan sudlarga va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

- advokat yuridik yordam ko'rsatayotgan ishdagi zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan nusxalar olish yoki ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish, bunda davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o'z ichiga olgan axborotni oshkor qilmaslik;



• ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan maxfiylik ta'minlangan sharoitlarda (shu jumladan, uni qamoqda saqlab turish davrida), uchrashuvlarning soni va ularning davom etish vaqti cheklanmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xoli uchrashish;

• mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bildirish va shikoyatlar berish hamda ulardan yozma shaklda asoslantirilgan javoblar olish;

• o'zining kasbga oid mulkiy javobgarlik xavfini sug'urta qilish. Advokatlik xizmatlari iste'molchilarini advokat tomonidan yo'l qo'yilgan xatolari va kamchiliklari natijasida moddiy ziyon yetkazish ko'rinishida bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlardan cheklash maqsadida Qonunda advokatning kasbga oid mulkiy javobgarlik xavfini ixtiyoriy sug'urtasi belgilanishi nazarda tutilgan;

• qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa harakatlarni bajarish.

Advokat **yordamchiga** va **stajorga** ega bo'lishi mumkin. Yordamchi va stajorning huquqiy maqomi «Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 8 va 8<sup>1</sup>-moddalarida belgilangan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining yuridik ma'lumotga ega bo'lgan fuqarosi advokat yordamchisi, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan fuqarosi esa stajor bo'lishi mumkin.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudlanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxs advokat yordamchisi va stajori bo'lishi mumkin emas.

Advokat yordamchisi advokat huquqlariga ega bo'lmaydi hamda uning surishtiruv, dastlabki tergov organlarida, sudlarda va boshqa davlat organlarida ishlarni olib borishiga yo'l qo'yilmaydi. U advokat ko'rsatmasiga binoan, advokatning yurituvidagi ishlar bo'yicha topshiriqlarni bajaradi, advokatning protsessual vakolatlariga taalluqli ishlar bundan mustasno.

### • Yodda saqlang! •

Kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan advokat stajorga ega bo'lishga haqli.

Stajirovka advokatlik tuzilmasida o'tiladi. Advokatning stajori o'z faoliyatini advokat rahbarligida, uning alohida topshiriqlarini bajargan holda amalga oshiradi. Stajor advokatlik faoliyati bilan mustaqil ravishda shug'ullanishga haqli emas.

Advokat stajorining mehnat sharoitlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi. Advokat stajorining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

**«Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga binoan, advokat quyidagi majburiyatlarga ega:**

- O'z professional faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari talablariga, advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etishi, o'ziga yuridik yordam so'rab murojaat etgan jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari hamda usullaridan foydalanishi shart. Bu qoida ishonch bildiruvchi shaxsga muvofiq bo'ladigan natijaga erishish uchun advokatning bor kuchi va qonun bilan taqdim etilgan vositalarni eng maqbul ravishda qo'llashini ta'minlashga da'vat etilgan. Advokatlar palatasida a'zolik barcha advokatlar uchun majburiy bo'lganligi bois ular Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlangan advokatning kasb etikasi qoidalariga rioya qilishlari shart. Advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi unga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Intizomiy ish yuritish Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasi yoki advokatga guvohnoma bergan adliya organi tomonidan qo'zg'atiladi.

Intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlarining, advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodining advokat tomonidan buzilishi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi yoki adliya organi tomonidan aniqlanganligi;

- jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari;
- sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimi.

Intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha advokatga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

- ogohlantirish (malaka komissiyasining qaroriga asosan);
- litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to'xtatib turish;
- litsenziyaning amal qilishini tugatish.

Malaka komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinguniga qadar advokat intizomiy ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan shikoyatni bergan shaxs bilan yarashuv choralari ko'rishga haqli. Advokat

katlik tuzilmalari mehnat intizomini buzganlik uchun advokatga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, intizomiy jazo choralari qo'llashga haqli.

Advokat muayyan ish bo'yicha yuridik yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yuridik yordam ko'rsatgan shaxslarning manfaatlarini olib borishni so'rab murojaat etgan shaxsning manfaatlariga zid kelgan yoki u sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruv o'tkazuvchi shaxs, jamoat ayblovchisi, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarining vakili, guvoh, xolis, tarjimon sifatida ishtirok etgan hollarda, shuningdek, agar ishni dastlabki tergov qilishda yoxud suda advokatning qarindoshi bo'lgan mansabdor shaxs ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan bo'lsa, xuddi shuningdek, agar advokat bevosita yoki bilvosita shu ishdan shaxsan manfaatdor bo'lsa, bu hol unga ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) manfaatlariga zid kelsa, yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emas. Bunda ishonch bildiruvchi shaxs bilan kelishuv predmeti bo'yicha advokat alohida manfaatga ega bo'lmasligi lozimligini anglatadi: bunday manfaat mavjud bo'lgan taqdirda, u topshiriqni qabul qilish huquqiga ega emas va u rad etilishi lozim.

Ro'yxatda ko'rsatilgan advokat undan yordam so'rab murojaat qilgan shaxsning topshirig'ini qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan holatlar quyidagi guruhlarga tasniflanishi mumkin:

1) agar ilgari advokat ishda boshqa maqom bilan ishtirok etgan bo'lsa;

2) agar advokat ishga aloqasi bor yoki aloqasi bo'lgan mansabdor shaxslar bilan qarindoshlik yoki oilaviy munosabatlarda bo'lsa;

3) agar advokat muayyan ish bo'yicha yuridik yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yuridik yordam ko'rsatgan shaxslarning manfaatlarini olib borishni so'rab murojaat etgan shaxsning manfaatlariga zid bo'lsa;

4) agar advokat ishonch bildiruvchi shaxsning manfaatlariga zid keladigan o'zining manfaatlariga ega bo'lsa.

• Advokat qaysi shaxsning manfaatlarini himoya qilish topshirig'ini olgan bo'lsa, o'z vakolatlaridan shu shaxsning zarariga foydalanishga hamda gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini himoya qilishdan bosh tortishga, agar uni bundan ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) o'zi ozod etmasa, haqli emas.

• Advokat o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, Advokatlar palatasi tomonidan belgilangan tartibda uch yilda kamida bir marta kasbiy malakasini oshirishi shart.

• Jinoyat ishida ishtirok etishga tayinlangan advokat fuqaroning to'lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko'rsatishdan bosh tortishga haqli emas.

• Advokat davlat xizmatida turishi mumkin emas.

*Qonun advokat maqomini to'xtatib turish, advokat litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turish va tugatish harakatlarini ajratadi.*

**Advokat maqomini to'xtatib turish.** Advokat maqomini to'xtatib turish advokatga guvohnoma bergan adliya organining qarori bilan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

• advokat advokatlik faoliyati bilan birga olib borib bo'lmaydigan doimiy lavozimga saylanganda yoki tayinlanganda — ish davriga;

• advokat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb topilganda — bedarak yo'qolgan deb topish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinguniga qadar bo'lgan davrga;

• advokat harbiy xizmatga chaqirilganda — harbiy xizmatni o'tash davriga;

• sud tomonidan advokatga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilinganda, agar sudning mazkur qarori «Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasiga muvofiq, litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo'lmasa — tibbiy yo'sindagi majburlov choralari sud tomonidan bekor qilinguniga qadar yoki o'zgartirilguniga qadar bo'lgan davrga;

• «Advokatura to'g'risida»gi Qonunning 15-moddasiga muvofiq, litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilganda — litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilgan davrga;

• advokatlik tuzilmasi tugatilganda yoki advokat undan chiqqanida — advokat tomonidan uch oydan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladigan boshqa advokatlik tuzilmasi tashkil etilguniga qadar yoxud mavjud advokatlik tuzilmalaridan biriga kirguniga qadar bo'lgan davrga.

Advokatlik maqomini to'xtatib turish haqidagi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran, advokat maqomi to'xtatiladi.

Adliya organi uch kunlik muddat ichida advokatning guvohnomasini olib qo'yadi, bundan advokat bedarak yo'qolgan deb topilgan hol mustasno va Advokatlar palatasining tegishli hududiy

boshqarmasiga advokat maqomi to'xtatilganligi haqida xabar beradi. Advokat maqomining to'xtatib turilishi advokatning Advokatlar palatasiga a'zoligi to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

Advokat maqomi to'xtatib turilgan shaxs advokat maqomini to'xtatib turish uchun asos bo'lgan hollar tugatilganidan keyin uch oy ichida advokatlik faoliyatiga kirishishi kerak. Mazkur talabni bajarmaslik litsenziyaning amal qilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatilishiga sabab bo'ladi.

**Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish.** Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish advokatga guvohnoma bergan adliya organining qarori bilan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- advokat jinoiy javobgarlikka tortilganda, u ayblanuvchi tariqasida jalb etilgan paytdan boshlab va sud hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan, uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar;

- advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi aniqlanganda (malaka komissiyasining qaroriga asosan);

- Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasining yoki adliya organining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan, shu jumladan, advokatning zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklaydigan qarorlari advokat tomonidan bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda (malaka komissiyasining qaroriga asosan).

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddati olti oydan oshishi mumkin emas, advokat jinoyat ishida ishtirok etishga ayblanuvchi tariqasida jalb qilingan hol bundan mustasno. Litsenziyasining amal qilishi to'xtatib turilgan shaxs litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni, agar ular bartaraf etib bo'lmaydigan xususiyatga ega bo'lmasa, ko'rsatilgan muddatda bartaraf etishi shart.

Adliya organining litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish advokat maqomining to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

**Litsenziyaning amal qilishini tugatish.** Litsenziyaning amal qilishini tugatish advokatga guvohnoma bergan adliya organining qarori bilan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- advokat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etganda, agar ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) buni talab qilsa, ilgari qabul qilingan topshiriqni bajarib bo'lganidan so'ng;

- agar talabgor litsenziya berish uchun qaror qabul qilinganligi to'g'risida bildirishnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran, uch oy ichida litsenziya berganlik uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni adliya organiga taqdim etmagan bo'lsa;

- «Advokatura to'g'risida»gi Qonun 3<sup>1</sup>-moddasining 6-qismida va 3<sup>1</sup>-moddasining 5-qismida nazarda tutilgan talablar bajarilmaganda;

- litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi aniqlanganda;

- litsenziya berish to'g'risidagi qarorning g'ayriqonuniy ekanligi aniqlanganda;

- advokatning muomala layoqati cheklangan yoki u belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

- sudning advokatni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish haqidagi ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

- kasbiga doir vazifalarini uch oy ichida uzrsiz sabablarga ko'ra, bajarmaganda (malaka komissiyasining qaroriga asosan);

- advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi muntazam ravishda yoki bir marta qo'pol ravishda buzilganda, advokatning sha'ni va qadr-qimmatiga dog'tushiradigan hamda advokaturaning obro'sini tushiradigan qilmish sodir etilganda (malaka komissiyasining qaroriga asosan);

- litsenziyasining amal qilishi to'xtatib turilgan shaxs litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishiga olib kelgan holatlarni litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilgan muddatlarda bartaraf etmagan (malaka komissiyasining qaroriga asosan);

- advokat O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganda;

- advokat vafot etganda yoki sudning uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirganda.

Litsenziyaning amal qilishi sudning qaroriga ko'ra ham, tugatilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilishini tugatish litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan sandan e'tiboran, amalga oshiriladi.

Adliya organining litsenziya amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Litsenziyaning amal qilishini tugatish advokat maqomi tugatilishiga sabab bo'ladi.

Adliya organi uch kunlik muddatda Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasini advokat maqomining tugatilganligi haqida xabardor qiladi, shuningdek, tegishli xabarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi. Advokat maqomining tugatilishi advokatning Advokatlar palatasiga a'zoligi tugatilishiga sabab bo'ladi.

### **15.5. Advokatlar palatasi**

Advokatlar palatasi O'zbekiston Respublikasi barcha advokatlarining majburiy a'ziligiga asoslangan notijorat tashkilotidir. Advokatlar palatasi birgalikda yuridik yordam ko'rsatish uchun emas, balki korporativ manfaatlarni ta'minlash maqsadida barcha advokatlarning birlashmasini tashkil etishini aytib o'tish lozim. Shu bilan birga, Advokatlar palatasi jamoat tashkiloti hisoblanmaydi, chunki advokatlarning uning tarkibiga kirishi ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmagan; shuningdek, u uning a'zolari xohishi bilan ham, biron-bir davlat organlari qarori bilan ham, tugatilishi mumkin emas. Advokatlar palatasiga a'zolik advokatlik faoliyatiga ruxsat etilishining ajralmas shartidir. Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari timsolida advokatlik hamjamiyati advokat maqomini berish huquqiga ega.

Advokatlar palatasi o'zining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladigan hududiy boshqarmalari bilan birgalikda advokaturaning yagona o'zini o'zi boshqarish tizimini tashkil etadi.

Advokatlar palatasi advokatlarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashmaslik prinsipi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Advokatlar palatasining vazifalari va vakolatlariga o'xshash vazifalar va vakolatlarga ega bo'lgan boshqa tashkilotlarni tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi. Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari barcha advokatlik tuzilmalari va advokatlar uchun majburiydir. Advokatlar palatasi faoliyatini moliyalashtirish Advokatlar palatasi konferensiyasi tomonidan miqdori belgilanadigan kirish va a'zolik badallari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

**Advokatlar palatasining asosiy vazifalari.** Advokatlar palatasining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- advokatlik tuzilmalarining faoliyatini markazlashtirilgan holda muvofiqlashtirib borish;

- advokaturani yanada rivojlantirishga, uning obro‘-e‘tiborini oshirishga, advokaturaning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi rolini kuchaytirishga ko‘maklashish;

- aholining huquqiy bilimlari va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- qonun hujjatlarini va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, huquqiy tartibga solishning yaxlitligini hamda qonun hujjatlari normalarining bir xilda qo‘llanilishini ta‘minlashga doir takliflar kiritish;

- advokatura faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, ular yuzasidan takliflar tayyorlash;

- advokatlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish, shu jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan munosabatlarda, shuningdek, sudda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

- advokatlarni ularning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq ta‘qiblardan, cheklashlar va tajovuzlardan himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

- advokatlarning kasbiy tayyorgarligi va malaka oshirishini tashkil etish;

- aholining yuridik yordamdan foydalana olish imkoniyatini tumanlar va shaharlarda yuridik maslahatxonalar tashkil etish orqali ta‘minlash;

- advokatura faoliyati to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlarni to‘plash va o‘rganish, advokatlarning ijobiy ish tajribasini ommalash-tirish, advokatlik tuzilmalariga uslubiy yordam ko‘rsatish;

- advokatlar tomonidan qonun hujjatlariga, Advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Advokatlar palatasi qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Advokatlar palatasining organlari va mansabdor shaxslari.** Advokatlar palatasining konferensiyasi palataning yuqori organi bo‘lib, kamida besh yilda bir marta chaqiriladi.



Advokatlar palatasi boshqaruvi Advokatlar palatasining advokatlar orasidan saylanadigan ijro etuvchi organi bo'lib, palatasining faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi.

Advokatlar palatasining raisi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taqdimnomasiga binoan, Advokatlar palatasining konferensiyasi tomonidan ushbu konferensiya saylagan Advokatlar palatasi boshqaruvi a'zolari orasidan besh yil muddatga saylanadi.

Advokatlar palatasining raisini lavozimidan muddatidan oldin chaqirib olish Advokatlar palatasining ustavida belgilangan hollarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taqdimnomasiga binoan, Advokatlar palatasining konferensiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Advokatlar palatasining taftish komissiyasi Advokatlar palatasining moliyaviy nazorat organi hisoblanadi va advokatlar orasidan saylanadi.

**Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari.** Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari yuridik shaxs bo'lib, Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalarining rahbarlari Advokatlar palatasining raisi tomonidan lavozimga (tegishli hududda faoliyat ko'rsatayotgan advokatlar orasidan) tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Advokaturaning tashkiliy asoslarini o'rganishda talabalar uning maqomining o'ziga xos xususiyatlariga; advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllaridagi asosiy farqlarga e'tiborlarini qaratishlari lozim. Talabalar advokat maqomini to'xtatib turish; advokat litsenziyasining amal qilishini tugatish asoslarini anglab yetishlari lozim.*

*Shu bilan birga, talabalar advokaturani tashkil etilishining huquqiy prinsiplari kompleksida, u tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar majmuyida, uning faoliyati ustidan davlat va ichki nazorat xususiyatlarida, shuningdek, advokatlar huquqiy maqomida aniq tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Talabalar, shuningdek, Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari huquqiy maqomini o'rganishlari kerak.*



## NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik yordam tushunchasining mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
2. Advokatlar hay'ati tushunchasini aniqlang va uni tashkil etishning asosiy prinsiplarini tasvirlang.

3. Advokatlar tomonidan ko'rsatilayotgan yuridik yordam uchun to'lovlar amalga oshirish tartibi qanday?
4. Advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlarida qanday intizomiy ta'sir choralari nazarda tutilgan?
5. Advokatlik faoliyatini tugatish uchun asoslarni aytib o'ting.
6. Advokat yordamchisi huquqiy maqomini ochib bering.
7. Advokatlik faoliyatining kafolatlarini ayting.
8. Advokat qanday ijtimoiy huquqlarga ega?
9. Advokatura va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'rtasidagi munosabatlar qanday tashkil etiladi?

### *MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR*

1. «Advokatura» va «jamiyat» tushunchalarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
2. «Advokatura» va «davlat» tushunchalarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.
3. Advokat huquqiy maqomini ochib bering. Ish shakli — *referat*.
4. Advokatlik faoliyati prinsiplarini tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
5. Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari — advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlar hay'ati — huquqiy maqomini qiyoslang. Ish shakli — *referat*.
6. Advokatura va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiling. Ish shakli — *referat*.
7. O'zbekistonda advokatura institutining tarixiy rivojlanishiga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib bering. Ish shakli — *referat*.
8. Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarini davlat hisobiga o'tkazish masalalarini ko'rib chiqing. Ish shakli — *referat*.

### **Axborot uslubiy ta'minot**

1. *I.A. Karimov*. Yuksak huquqiy tafakkur — demokratik jamiyat taqozosi. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. T., «O'zbekiston», 1998.
2. *I.A. Karimov*. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. (Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1999-yil 14-aprel.) Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T., «O'zbekiston», 1999.
3. *I.A. Karimov*. Qonun va adolat ustuvorligining hayotbaxsh manbayi. (Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq, 1998-yil 5-dekabr.) Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. T., «O'zbekiston», 1999.
4. *I.A. Karimov*. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish — taraqqiyot garovi. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil birinchi

yarmi yakunlariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishidagi ma'ruza, 2001-yil 17-iyul.) Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. T., «O'zbekiston», 2001.

5. *I.A. Karimov*. Adolat — qonun ustuvorligida. (Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza. 2001-yil 29-avgust.) Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. T., «O'zbekiston», 2002.

6. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr.) T., «O'zbekiston», 2010.

### Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda «Advokatura to'g'risida»gi 349-I sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

3. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlar ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi 721-I sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

4. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-198-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 52, 514-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-mayda «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3993-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 18, 144-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. T., 2008, № 5, 252-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi advokatlar kollegiyalarida advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 27-sonli qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 13-martda «Advokatlik byurolari, hay'atlari, firmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyalar berish tartibi to'g'risida»gi 139-sonli qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 5-noyabrda «Advokatlik byurolari, hay'atlari, firmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyalar berish tartibi

to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 485-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to'plami. T., 2003, № 11, 109-modda.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-iyundagi «Advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to'lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 137-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 26—27, 250-modda.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 27-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 112-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 22—23, 201-modda.

11. 2008-yil 26-noyabrdagi Adliya vazirligining 8- va Moliya vazirligining «Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 109-qarori (Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 2-dekabrda 1878 raqam bilan ro'yxatga olingan). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 49, 487-modda.

12. «Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 2-dekabrda 1878 raqam bilan ro'yxatga olingan 2008-yil 26-noyabrdagi Adliya vazirligining 8- va Moliya vazirligining 109-qarori bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008, № 49, 487-modda.

13. «Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish (hisobga olish) to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 60-sonli qarori bilan tasdiqlangan). «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

### Maxsus adabiyotlar

1. *J.H. Abdurahmonxo'jayev*. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). T., TDYI, 2010.

2. Advokatura institutini isloh etishning ayrim yo'nalishlari. Davra suhbat materiallari to'plami. T., TDYI, 2009.

3. Advokatlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, 2010.

4. *Д.Б. Базарова*. Адвокат как участник в досудебных стадиях уголовного процесса. Монография. Т., ТГЮИ, 2011.

5. *О. Madaliyev*. Advokatura institutini isloh etish: ayblov va himoya-ning tengligini ta'minlash masalalari. «Fan va yoshlar», 2009, № 4.

6. *M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva. Advokatura. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.* T., «ILM ZIYO», 2010.

7. *M.H. Rustamboyev, U.A. Tuxtasheva. Sud hokimiyati va O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari.* Ilmiy-publitsistik nashr. T., TDYI, 2009.

8. *B. Salomov. O'zbekistonda advokatlik faoliyati.* 1—2-jild. T., «Adolat», 2000.

9. *O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5380100-yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabalari uchun darslik.* 2 jildli. Mualliflar: *G'. Abdumajidov va boshq.* T., «Konsauditinform-Nashr», 2007.

## 16-bob. NOTARIAT

### O'quv maqsadlari

*Mazkur mavzuni mustaqil o'rganilishi talabalarga notariusning huquqiy maqomi, notariatning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, notarius tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar bilan tanishish imkonini beradi.*

### 16.1. Notariat faoliyatining tashkiliy asoslari

**Notariat va notarial faoliyatning tushunchasi.** O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuni 1-moddasida «O'zbekiston Respublikasida notariat qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni hamda ular bilan bevosita bog'liq huquqiy va texnik tusdagi harakatlarni notariuslar tomonidan amalga oshirish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga da'vat etilgan huquqiy institutdir» deb ko'rsatilgan. Shunday ekan, notariat faoliyati huquqni himoya qilish faoliyati bilan bevosita bog'lanishga ega hamda mazkur faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga o'zining maxsus usullari bilan ko'maklashishga da'vat etilgan deb hisoblash mumkin.

Notariat va huquqni himoya qilish faoliyatining yaqinligi haqida ko'p sonli va turli notarial harakatlarning mazmuni ham dalolat beradi. Ularning deyarli tugal ro'yxati «Notariat to'g'risida»gi Qonunning 5-bobida keltirilgan. Bu, nafaqat, barcha uchun odatiy bo'lgan hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlash, hujjatlardagi imzoning haqiqiyiligini shahodatlash, balki bir qator boshqa harakatlar ham: bitimlarni tasdiqlash, er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar berish, mol-mulkni o'zga shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yish va taqiqni bekor qilish, fuqaroning muayyan joyda ekanligi yoki fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlash, dalillarni ta'minlash, ijro xatlarini

yozish va h.k. Barcha notarial harakatlar u yoki bu tarzda huquqni himoya qilish funksiyalariga bog'liq, bunday funksiyalarni amalga oshiradigan organlarga yordam beradi yoki yordam berishi mumkin.

*Notariat* — bu shartnoma va boshqa bitimlarni tasdiqlash, merosga bo'lgan huquqlarni rasmiylashtirish, ijro xatlarini yozish va boshqa notarial harakatlarni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirish orqali ko'rsatilgan maqsadga yetishishni ta'minlaydigan maxsus tashkil etilgan organlar va boshqa muassasalar majmuasidir.

Umuman, notariat zimmasiga nizosiz huquqlarni va faktlarni tasdiqlash, hujjatlarni shahodatlash, kelgusida fuqarolik huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida ularni yuridik tasdiqlash va belgilab qo'yishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajarish yuklatilgan. Notarial faoliyat buzilgan huquqni himoya qilish vositasi ham bo'lishi mumkin, masalan, ijro xati (notariusning qarzdordan undiruvchiga tegishli bo'lgan muayyan pul miqdorini yoki boshqa mulkni undirish to'g'risidagi farmoyishi) yozilganda, javobgarlik nizosiz taqdim etilgan hujjatdan kelib chiqadi.

Notarial organlar ishi natijasiga fuqarolik muomalasining normal faoliyat ko'rsatishi, amalga oshiriladigan bitimlarning huquqiy «sofligi», ularning amaldagi qonun hujjatlariga mosligi bog'liq. Bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitlarida tadbirkorlikka oid bo'lgan shartnomalarni rasmiylashtirish va ro'yxatga olishda, mulkchilik bitimlarining turli shakllari mavjudligi vaziyatida notariatning ahamiyati, ayniqsa, oshdi.

Asosan, fuqarolik huquqiga doir nizolarni hal etiladigan sudlardan farqli ravishda, notarial faoliyatining predmeti nizosiz ishlar bo'ladi. Aynan shu holat notarius uning vakolatiga tegishli bo'lgan masalalarni hal etish uchun o'zining maxsus usuliga ega ekanligini belgilab beradi. Bitimlarni tasdiqlashda, hujjatlar nusxalarining to'g'riligini shahodatlashda, qarzdorning nizosiz majburiyatini majburiy tarzda ijro etishini ta'minlashda notariuslar protsessning tortishuvlik shaklini qo'llamaydi, notarial harakatlarni yakka tartibda amalga oshiradi, odatda, yuridik faktlarni yozma dalillar asosida aniqlaydi, ommaviylik prinsipini qo'llamaydi. Bundan tashqari, amalga oshiriladigan notarial harakatlar haqidagi ma'lumotlar notarial harakatlar maxfiyligi tushunchasi doirasiga kiradi.

Notariatni, odatda, profilaktik odil sudlov organi deb nomlashadi, chunki notariuslar nizo mavjud bo'lmagan vaqtda ham

huquqiy himoyani ta'minlaydi, sudlar esa aksincha, muayyan fuqarolik-huquqiy munosabati ishtirokchilari o'rtasida nizo vujudga kelgan taqdirdagina bunga erishishi mumkin. Nizosiz huquqlarni yuridik jihatdan mustahkamlash sudga murojaat etishning oldini oladi va, nafaqat, taraflarning vaqti va mablag'larini, balki davlatning sud tizimiga qiladigan xarajatlarini ham tejaydi. Bularning barchasi notariat har qanday huquqiy tizimning tarkibiy qismi ekanligi, u davlatga uning huquqni himoya qilish, fiskal va sudlov-yurisdiksiyon funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini berishi haqida xulosa qilish mumkin.

Shunday qilib, notarial faoliyatining mohiyati shundan iboratki, u tasdiqlovchi xarakterga ega bo'la turib, fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini kelgusida buzilishining oldini olish maqsadida ularni yuridik jihatdan mustahkamlaydi yoki buzilgan huquqni himoya qilish vositasi bo'ladi.

**Notariat faoliyatining tashkiliy asoslari.** Notariat faoliyatining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda «Notariat to'g'risida»gi 343-I sonli Qonuni tashkil etadi.

Bugungi kunda notariat ko'p jabhali hodisani tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat notarial idoralarining notariuslari tomonidan amalga oshiriladi. Boshqa davlatlarning hududida notarial harakatlarni O'zbekiston Respublikasi konsullari amalga oshiradi.

*Davlat notarial idoralari* O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi. Davlat notarial idoralarning reyestrini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuritadi. Notariuslarga qonun hujjatlariga muvofiq, maxsus unvonlar — mansab darajalari beriladi.

«Notariat to'g'risida»gi Qonun kuchga kirgan vaqtdan boshlab (1996-yil 26-dekabr), O'zbekiston Respublikasi hududida *xususiy notarial amaliyotiga* yo'l qo'yilgan edi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 5-maydagi «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralarini to'g'risidagi»gi PF-4216-sonli Farmoniga asosan, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar tizimi 2010-yil 15-maydan e'tiboran tugatildi.

Tuziladigan bitimlarning qonuniyligini ta'minlashga va nizoli holatlar kelib chiqishidan taraflarni himoya qilishga qaratilgan notariat instituti fuqarolar va yuridik shaxslar huquqlarini himoya qilish sohasida alohida o'rin egallaydi. Mustaqillik yillarida mam-



lakatimizda notariat faoliyatining zarur normativ-huquqiy bazasi va tegishli huquqni qo'llash amaliyoti shakllantirildi. Shu bilan birga, davlat notariuslari bilan bir qatorda, xususiy notariuslarning ham faoliyat ko'rsatishini nazarda tutuvchi amaldagi notariat tizimi ularga yuklatilgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirilishiga imkon bermayapti. Xususiy notariuslar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish natijalari notariat institutining obro'siga putur yetkazadigan salbiy tendensiyani aniqlab berdi.

Ta'kidlash joizki, xususiy notariuslar faoliyatini tekshirish jarayonida ular tomonidan qonun bilan belgilangan normalarni jiddiy buzish, shuningdek, xizmat vakolatlaridan g'arazli maqsadlarda foydalanib, suiiste'mol qilish holatlari aniqlandi. Faqatgina foyda olish maqsadini ko'zlash amaliyotda ayrim hollarda xususiy notarial idoralar atrofida kriminogen vaziyatning paydo bo'lishiga olib keldi. Xususiy notariuslar va ko'chmas mulk bo'yicha dallollar, avtotransport dilerlari o'rtasida o'zaro til birlashtirish bitimlarning ancha qismini xususiy notariuslarda jamlanishiga, nazorat qilib bo'lmaydigan vositachilik faoliyatining amalga oshirilishiga sharoit yaratdi. Natijada, faqatgina 2008—2009-yillar davomida yo'l qo'ygan qonunbuzilishlari uchun 110 nafar xususiy notariuslar turli xil javobgarlikka tortildi. Xususan, 49 nafar xususiy notariusning litsenziyasini amal qilishi to'xtatildi va tugatildi, 61 nafar xususiy notarius intizomiy va jinoiy javobgarlikka tortildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 5-maydagi «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi PF-4216-sonli Farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2010-yil 2-iyunda «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida» 2010-yil 5-maydagi PF-4216-sonli Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 104-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga binoan, 2010-yil 15-maydan boshlab, O'zbekiston Respublikasi hududida notarial harakatlar davlat notarial idoralarida ishlaydigan notariuslar tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Shuningdek, notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun undiriladigan davlat boji summasi quyidagi tartibda taqsimlanishi belgilandi:

- 73 foizi — mahalliy budjet daromadiga;
- 12 foizi — Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'ar-masini shakllantirishga;

• 15 foizi — mablag'larni adliya organlarining g'azna hisob-varaqlarida jamlash yo'li bilan davlat notarial idoralari va notarial arxivlarni moliyalashtirishga.

Prezident Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuniga 2010-yil 14-sentabrdagi O'RQ-255-sonli Qonun bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, notariat faoliyatni huquqiy tartibga solish yanada takomillashtirildi va notariuslik lavozimini egallovchi shaxslarga nisbatan talablar kuchaytirildi.

## 16.2. Notariusning huquqiy maqomi

Yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida uch yil muddatli ish stajiga ega bo'lgan, shu jumladan, notarial idorada kamida ikki yil muddatli stajirovkani o'tagan, malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius bo'lishi mumkin. Quyidagilar notarius bo'lishi mumkin emas: belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxs; qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs; o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun notarius, advokat, tergovchi, prokuror, sudya yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolati belgilangan tartibda tugatilgan shaxs.

Notarius yordamchi va stajorga ega bo'lishi mumkin. Notarius yordamchisi va stajorini ishga qabul qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, shuningdek, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Notarius yordamchisi notariusning topshirig'iga ko'ra, notarial harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etishga, bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlar loyihalarini tuzishga, hujjatlarning ko'chirma nusxalari va dublikatlarini, ulardan ko'chirmalarni tayyorlashga, shuningdek, notarial harakatlarni amalga oshirish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berishga haqli. Notarius stajori o'z faoliyatini notarius rahbarligida, uning alohida topshiriqlarini bajargan holda amalga oshiradi. Notarius stajorining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari stajirovkadan o'tgan

shaxslardan malaka imtihonlarini qabul qilish maqsadida tashkil etiladi. Malaka komissiyalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalarining qarorlari bilan notariuslar hamda adliya organlarining boshqa xodimlari orasidan teng miqdorda tuziladi. Notarius lavozimiga tayinlash bo‘yicha tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi masalani hal etish, notarius qasamyodini qabul qilish, malaka komissiyalarining qarorlari ustidan berilgan apellatsiyalarni ko‘rib chiqish, shuningdek, malaka komissiyalarining ish amaliyotini umumlashtirish va tahlil qilish uchun o‘n bir kishidan iborat tarkibda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Oliy malaka komissiyasi tuziladi.

Stajirovkadan o‘tgan shaxslar malaka komissiyasiga malaka imtihoni topshiradi. Malaka komissiyasining qarori ustidan apellatsiya malaka komissiyasining qarori manfaatdor shaxsga topshirilgan kundan e‘tiboran, bir oylik muddat ichida Oliy malaka komissiyasiga beriladi. Malaka imtihonidan o‘ta olmagan shaxslar malaka komissiyasi tomonidan qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran, kamida bir yildan so‘ng qayta imtihon topshirishga qo‘yiladi. Malaka imtihonini topshirgan, lekin notarius lavozimida uch yil mobaynida ishlamagan shaxsning notarius lavozimida ishlashiga u malaka imtihonini qayta topshirganidan keyingina yo‘l qo‘yiladi.

#### **Notarius, notarius yordamchisi va stajori:**

- ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari, tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga;

- shartnomalar tuzishda vositachilik xizmati ko‘rsatishga haqli emas.

Notarius o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lib, bu faoliyatni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi. Notariuslarning o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishi ustidan nazoratni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari amalga oshiradi. Notariusning, notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslarning, shuningdek, amalga oshirilayotgan notarial harakatlardan xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan xabardor bo‘lib qolgan shaxslarning o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan axborotlarni oshkor qilishi, shu jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin ham oshkor qilishi taqiqlanadi.

Amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (hujjatlar) bu harakatlar kimning nomidan yoki kimning topshirig‘i bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha shaxslarning o‘ziga-

gina berilishi mumkin. Amalga oshirilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar (ma'lumotlar) sud, prokuratura, tergov organlarining talabiga binoan, ular yuritayotgan ishlar munosabati bilan beriladi. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar (ma'lumotlar) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi. Ko'chmas mulk ijarasi shartnomalarini tasdiqlash va ijara haqining miqdori to'g'risidagi, meros yoki hadya tartibida fuqarolar mulkiga o'tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma'lumotnomalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Vasiyatnoma to'g'risidagi ma'lumotnomalar vasiyat qiluvchining vafotidan keyingina beriladi.

Amalga oshirilgan notarial harakatlarning maxfiylikini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasida notarial idoralar tarmog'i, ularning shtatlari notarial idoralar uchun belgilangan shtatlar soni va ish haqi fondi doirasida mansab okladlari chizmasiga rioya qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ikki nafar va undan ortiq notarius ishlaydigan notarial idoralarda notariuslardan biri katta notarius etib tayinlanadi va uning zimmasiga ushbu notarial idoraning ma'muriy-tashkiliy ishlarini nazorat qilish vazifasi yuklatiladi. Notarius lavozimi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ta'sis etiladi va tugatiladi.

Muayyan hududdagi (notarial okrugdagi) notariuslar lavozimlarining soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatiladigan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Notarial okrugdagi notariuslar lavozimining soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-iyundagi 104-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Notarial okrugda notariuslar lavozimlari sonini belgilash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ushbu Nizomga muvofiq belgilanadigan tegishli notarial okrugdagi notariuslar lavozimlari sonidan kelib chiqqan holda notarius lavozimini ta'sis etadi va tugatadi. Notarial okrugda notariuslar lavozimlari soni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan bir yilda ko'pi bilan bir marta belgilanadi.

Har bir notarial okrugda kamida bitta notarius lavozimi ta'xis etiladi. Ikkinchi va undan keyingi notariuslar lavozimlarini belgilashda quyidagi mezonlarning hammasi hisobga olinadi:

a) notarial okrug notariuslari tomonidan, qoidaga ko'ra, oxirgi uch yilda amalga oshirilgan notarial harakatlarning o'rtacha oylik soni. Bunda notariuslar lavozimlari soni bir notariusga bir oyda 350—500 notarial harakatlar hisobidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

b) notarial okrugdagi aholi soni. Bunda notariuslar lavozimlari soni quyidagi tarzda belgilanadi:

- Toshkent shahri, Nukus shahri va viloyat markazlari chegaralarida belgilangan notarial okruglarda — 15 mingdan ko'p bo'lmagan aholiga bir notarius;

- viloyat bo'ysunishidagi shaharlar chegaralarida belgilangan notarial okruglarda — 25 mingdan ko'p bo'lmagan aholiga bir notarius;

- qishloq tumanlari chegaralarida belgilangan notarial okruglarda — 30 mingdan ko'p bo'lmagan aholiga bir notarius.

Yuqorida nazarda tutilgan mezonlarga qo'shimcha ravishda, notariuslar lavozimlari sonini belgilashda muayyan holatlardan kelib chiqib, shuningdek, bir notarial okrug chegaralarida aholi punktlarining bir-biridan olisligi va ular o'rtasidagi mavjud transport aloqasi hisobga olinishi mumkin.

Notarial okrugda notariuslar lavozimlari soni to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan kiritiladi.

Takliflarga notarial okrug bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan materiallar ilova qilinadi:

- oxirgi uch yilda amalga oshirilgan notarial harakatlar soni;
- aholi soni;
- davlat notarial idorasi ta'minoti xarajatlarini qoplash imkoniyati;
- notarial okrugda notariuslar lavozimlari soni to'g'risidagi taklifni asoslaydigan boshqa ma'lumotlar.

Notarial okrugda notariuslar lavozimlari soni to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Nizomda nazarda tutilgan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

Davlat notarial idoralarida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qarori bilan notariusning yordamchisi, notariusning stajori, notariusning kotibi va arxivarius lavozimlari joriy etilishi

mumkin. Notariusning yordamchisi va notariusning kotibi lavozimi, qoidaga ko'ra, har bir notarius lavozimiga 1 birlikdan joriy etiladi. Stajorlar va arxivariuslar soni har bir lavozim bo'yicha respublikadagi notariuslar umumiy sonining 10 foizidan oshmasligi kerak.

Notariusning oliy yuridik ma'lumotli stajori va yordamchisi bo'lishi mumkin. Tegishli notarial idorasiga stajor va yordamchini ishga qabul qilish mehnat shartnomasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Yordamchi xodim lavozimlari soni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, davlat boshqaruvi organlari uchun belgilangan normativlarga muvofiq belgilanadi. Kassir vazifasi, qoidaga ko'ra, notariusning kotibiga yuklanadi, zarurat bo'lganda esa, Adliya vazirligining qarori bilan kassir lavozimi joriy etilishi mumkin.

Notariusning faoliyat ko'rsatish hududi (notarial okrug) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvofiq belgilanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari aniq holatlarni hisobga olib, muayyan notarial okrugda notarial harakatlarni amalga oshirishni boshqa notarial okrugda faoliyat yuritayotgan notariusga yuklashi mumkin. Notariusga mazkur notarial okrug doirasida ish joyi berilishi shart.

Har bir fuqaro yoki yuridik shaxs notarial harakatlarni amalga oshirish uchun xohlagan notariusga murojaat qilishga haqlidir, «Notariat to'g'risida»gi Qonunning 37, 44, 51, 52, 59, 62, 63, 74, 82 va 93-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Notariusning notarial harakatni belgilangan faoliyat hududidan tashqarida amalga oshirishi bu harakatni haqiqiy emas, deb topishga asos bo'lmaydi. Notarius mavjud bo'lmagan hududagi vasiyat qiluvchi og'ir kasal bo'lgan hollarda vasiyatnomani tasdiqlash uchun notarius o'zi xizmat ko'rsatadigan hududdan tashqariga chiqishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonunida notariuslarning asosiy *huquq va majburiyatlari* belgilangan. Notarius quyidagi huquqlarga ega: o'ziga murojaat qilgan barcha shaxslar uchun qonunda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish, notarial harakatni amalga oshirish joyi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno; bitim va

arizalarning loyihalarini tuzish, hujjatlarning nusxalarini va ulardan ko'chirmalarni tayyorlash, shuningdek, notarial harakatlarning amalga oshirilishiga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish; jismoniy va yuridik shaxslardan notarial harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni talab qilib olish; davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan notarial harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni so'rash hamda olish; jismoniy va yuridik shaxslar nomidan tegishli davlat organlariga mol-mulkka bo'lgan huquqlarni va hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirish uchun, shuningdek, hujjatlarning chet elda amal qilishi uchun mazkur organlar tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlarni olgan holda hujjatlarni legallashtirish uchun murojaat qilish.

Notariuslarning **majburiyatlari** sifatida quyidagilar belgilab qo'yilgan:

- jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko'maklashish, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berish;
- tomonlar taqdim etgan bitimlar loyihalarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish, ushbu bitimlar mazmuni tomonlarning asl maqsadiga mos kelish-kelmasligini va qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirish;
- yuridik jihatdan bexabarlik jismoniy va yuridik shaxslar zarariga foydalanilmasligi uchun amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlarini haqida ularni ogohlantirish;
- qonun hujjatlariga mos kelmaydigan notarial harakatni amalga oshirishni rad etish;
- notarial harakatlarni amalga oshirish vaqtida fuqarolar yoki mansabdor shaxslar tomonidan qonunchilik buzilganligini aniqlagan taqdirda, zarur chora-tadbirlar ko'rilishi uchun tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokurorga bu haqda xabar qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda besh yilda kamida bir marta o'z kasbiy malakasini oshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ko'chmas mulk ijarasi shartnomalarini tasdiqlash va ijara haqining miqdori to'g'risidagi, meros yoki hadya tartibida fuqarolar mulkiga o'tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma'lumotnomalarni davlat soliq xizmati organiga taqdim etish;

- sud, prokuratura, tergov organlari talabiga binoan, mazkur organlarning yurituvida bo'lgan ishlar bilan bog'liq notarial harakatlarni amalga oshirganlik to'g'risida ma'lumotnomalar (ma'lumotlar) berish;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar (ma'lumotlar)ni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish.

Notarius o'z kasbiy majburiyatlarini buzganligi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi. Notarius o'z kasbiy majburiyatlarini buzganligi oqibatida yetkazgan zararining o'rnini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat tomonidan qoplanadi.

Notarius notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan stavkalar bo'yicha davlat boji undiradi. Notarius notarial harakatni amalga oshirish uchun o'z ish joyidan boshqa joyga borganida manfaatdor jismoniy yoki yuridik shaxslar uning haqiqatda qilingan transport xarajatlarining o'rnini qoplaydi. Notariusga murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan notarius o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha harakatlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haq undiriladi.

Notarial idoralar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moliyalashtiriladi.

Notariuslar quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) bitimlarni tasdiqlaydi;
- 2) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- 3) er-xotinning umumiy mol-mulkiidagi ulushga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar beradi;
- 4) mol-mulkni o'zga shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yadi va taqiqni bekor qiladi;
- 5) merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma beradi;
- 6) meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;
- 7) hujjatlar nusxalari va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlaydi;



- 8) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
- 9) hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi;
- 10) ko'chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;
- 11) fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- 12) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- 13) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;
- 14) hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlaydi;
- 15) jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga topshiradi;
- 16) pul summalari va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- 17) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;
- 18) pul to'lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo'yicha pul to'lanmaganligini tasdiqlaydi;
- 19) ijro xatlarini yozadi;
- 20) veksellarning protestlarini amalga oshiradi;
- 21) dengiz protestlarini amalga oshiradi;
- 22) notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reyestrlardan ko'chirmalarni beradi.

Notariuslar qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Talabalar mazkur mavzuni mustaqil ravishda o'rganishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida notariatning o'rni va u tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarga e'tiborni qaratishi kerak.*



### NAZORAT SAVOLLARI

1. Notariatning vazifalari nimadan iborat?
2. Notarial faoliyat huquqni muhofaza qilish faoliyatiga kiradimi?
3. Kim notarius bo'lishi mumkin?
4. Notariatning funksiyalari nimadan iborat?
5. Aholi punktida notarius mavjud bo'lmagan taqdirda, kim notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega?
6. Notariat paydo bo'lish tarixini ko'rib chiqing.

## Axborot uslubiy ta'minot

### Huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.
2. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda «Notariat to'g'risida»gi 343-I sonli Qonuni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.
3. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 27-sentabrda «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga va «Notariat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-56-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. T., 2006, № 9, 498-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 5-mayda «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi PF-4216-sonli Farmoni. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-iyunda «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 2010-yil 5-mayda PF-4216-sonli Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 104-sonli qarori. «NORMA» axborot-huquqiy tizimi.

### Maxsus adabiyotlar

*M. Amirova, C. To'g'ayev.* Notariat. Вопросы и ответы. Т., «O'zbekiston», 2001.

## VI bo'lim

# XORIJIY MAMLAKATLARDA SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINING TASHKIL ETILISHI



### 17-bob. XORIJIY MAMLAKATLARDA SUD, PROKURATURA, ADVOKATURA

#### O'quv maqsadlari

*Mazkur mavzuning mustaqil o'rganilishi talabalarda ayrim xorijiy davlatlarning huquqiy tizimi haqida tasavvurlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu material axborot tuzdagi (mazkur sohada izlanish olib boradigan tadqiqotchilardan olingan, mualliflar ro'yxati adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan) material bo'lib, to'liq va chuqur bo'lishga da'vo qilmaydi, u xorijiy davlatlarda sud, prokuratura, advokaturaning umumiy ta'rifini hamda ayrim o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.*

#### 17.1. Angliya va Uels

**Sud tizimi.** Angliya va Uelsda sud tizimi va sudlarning turli tiplari ko'p asrlar davomida shakllanib kelgan. Hozirgi kunda sud tizimi quyidagilardan iborat:

- magistrat sudlari;
- graflik sudlari;
- Korona sudi;
- Yuqori sud (qirol kursisi bo'limi, kanslerlik va oilaviy bo'limlardan iborat);
- Apellatsiya sudi;
- Oliy sud;
- Lordlar palatasi.

*Magistrat sudlari* XIV asrda tashkil topgan bo'lib, sud tizimi-ning asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Hozirgi kunda magistrat sudini-ning faoliyati 1980-yildagi Magistrat sudlari to'g'risidagi Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu sudlar, odatda, jinoyat ishlarini

hamda qarzlarni va mahalliy soliqlarni undirish haqidagi fuqarolik va oilaviy ishlarni ko'rib chiqadilar, shuningdek, qimor va restoran biznesini litsenziyalash bilan shug'ullanadilar. Sud statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, har yili mamlakatda ro'yxatga olinadigan ishlarning 95—98 %i magistrat sudlarida ko'riladi.

Magistrat sudlari faoliyati tashkiliy-huquqiy asoslarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, professional yurist bo'lmagan shaxs ham sudya-magistrat bo'lishi mumkin. Ular yarashtiruvchi sudyalardan deb ham ataladi. Oxirgi paytlarda magistrat-sudyalarning umumiy soni 30 mingga yaqinlashdi. Mazkur sudlar, odatda, ishlarni uch nafar sudyadan iborat bo'lgan hay'atlarda ko'rib chiqadilar, huquqiy masalalar bo'yicha ularga yuridik ma'lumotga ega bo'lgan sudyalik klerklar maslahatlar beradi.

*Graflik sudlari.* Ushbu sudlar XIX asr o'rtasida (1846-yil) ta'sis etilgan va fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovning asosiy organlari hisoblanadi. Ularning umumiy soni 270 taga yaqin. Har-yili graflik sudlari tomonidan 1,5 mln yaqin sud ishlari ko'rib chiqiladi, lekin mazkur sudlar faqat uncha qiyin bo'lmagan ishlarni ko'radilar. Qiyinroq ishlar Yuqori sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Graflik sudlarining faoliyati 1984-yildagi «Graflik sudlari to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Graflik sudlariga okrug yoki tuman sudyalari rahbarlik qiladi. Okrug sudlari kattaroq va qiyinroq ishlarni ko'rib chiqadilar, shuningdek, tuman sudylarining qarorlariga kelib tushadigan ayrim shikoyatlarni ko'radilar. Graflik sudlarida «o'rindoshlik asosida» sudyalardan ham — rekorderlar (sudyalardan majburiyatlarini bajarishga jalb qilinadigan yuristlar), rekorderlar yordamchilari va tuman sudylarining o'rinbosarlari — faoliyat yuritadilar.

*Korona sudi (Toj sudi).* 1972-yilda tashkil etilgan ushbu sud yagona milliy sud bo'lib, markazlari Angliya va Uelsning turli shaharlarida joylashgan graflik bo'yicha o'z majlislarini o'tkazadi. Korona sudi eng jiddiy jinoyat ishlarini ko'rib chiqadi. Sud ishlari sudya raisligida 12 ta prisyajniylar (qasamyod qildirilgan xalq maslahatchilari) tomonidan ko'riladi.

Korona sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida ham, apellatsiya sudi sifatida ham ko'rib chiqadi. Apellatsiya tartibida ishning qayta ko'rib chiqilishi prisyajniylarsiz amalga oshiriladi, sud tarkibiga sudyadan tashqari ikkitadan to'rttagacha magistratlar (ular professional yuristlar bo'lmaydi) kiradi.

*Yuqori sud.* Yuqori sud 1873—1875-yillardagi sud islohotlari to'g'risidagi qonunlarga asosan tashkil etilgan. 1971-yilgacha Yuqori sud sudyalari Londonning Strend degan joyidagi odil sudlov Qirollik saroyida joylashgan. Yuqori sud sudyalari, odatga ko'ra, joylarda sayyor sud majlislari o'tkazishgan. Genrix II o'tkazgan sud islohotlari natijasida «sayyor» sudlar «assizlar sudlari» deb atala boshlandi. Aynan assizlar sudlari yuz yillar davomida Angliya umumiy huquqini shakllantirdi va rivojlantirdi. 1971-yildagi sudlar to'g'risidagi qonun assizlar sudlarini tugatdi va Yuqori sudning majlislari uning Angliya va Uelsning barcha hududida joylashgan 45 ta bo'limida ham o'tkazilishi mumkinligini belgilab qo'ydi. Yuqori sud bo'limlari joylashadigan muayyan shaharlar lord-kanslerning qarori bilan belgilanadi. Ushbu sud, asosan, juda murakkab bo'lgan fuqarolik ishlarini birinchi va ikkinchi instansiyalar bo'yicha ko'rib chiqadi. Yuqori sud monarx tomonidan tayinlanadigan 80 sudyadan, sudlov ishi sohasida yirik tajribaga va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan obro'ga ega bo'lgan ingliz huquqining katta bilimdonlaridan, shuningdek, sud idorasining ayrim yuqori turuvchi mansabdor shaxslaridan (Lord-kansler, Lord-bosh sudya, Sud arxivlarining bosh saqllovchisi) iborat bo'ladi.

Yuqori sud uch bo'limdan iborat:

- *qirol kursisi bo'limi.* Unga Lord -bosh sudya rahbarlik qiladi. Mazkur bo'lim fuqarolik ishlarining keng spektrini (shartnoma shartlari buzilishi va tuhmat qilish natijasida yetkazilgan zararni qoplash haqidagi da'volar, savdo nizolari va admiralteystvoning ishlari) ko'rib chiqadi;

- *kanslerlik bo'limi.* Unga Lord-kansler rahbarlik qiladi, biroq, bo'lim ishiga asosiy rahbarlikni vitse-kansler amalga oshiradi. Ushbu bo'lim mulk munosabatlari, shu jumladan, mulkdor o'limidan keyin mulkni boshqarish, vasiyatnomalarni sharhlash, bankrotlik va aksiyadorlik jamiyatlar faoliyati bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqadi;

- *oila bo'limi.* Rais rahbarligida mazkur bo'lim nikohni bekor qilish ishlari, oilaviy munosabatlar, vasiylik va homiylik, farzandlikka olish masalalari, nizosiz tartibdagi vasiyatnomalar hamda vasiyatnomalar qoldirmasdan vafot etgan mulkdorlarning mol-mulkini bo'lish bilan shug'ullanadi.

Yuqori sud bir qator sudlar, tribunallar, organlar va davlat lavozimlarini egallayotgan ayrim shaxslarga, jumladan, hukumat vazirlariga nisbatan nazorat funksiyalarini ham amalga oshiradi.

Ta'kidlash joizki, Yuqori sud birinchi instansiya sudi sifatida ham, apellyatsiya instansiyasi sudi sifatida ham o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Agar birinchi instansiyada sudya protsessni yakka tartibda olib boradigan bo'lsa, apellyatsiya instansiyasi sifatida Yuqori sud ishlarni ikki yoki uch sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqadi.

*Apellyatsiya sudi.* Apellyatsiya sudi ikki bo'linmadan iborat bo'ladi: jinoyat va fuqarolik. Sudning sud majlislari zali va xizmat xonalari Londonda Odil sudlov qirolik saroyida joylashgan. Lord-kansler, Lord-bosh sudya, oilaviy ishlari bo'yicha bo'linmaning raisi, Sud arxivlarining bosh saqlovchisi hamda monarx tomonidan tayinlanadigan va apellyatsiya lordlari deb nomlanayotgan apellyatsiya sudning 14 nafar a'zosi mazkur sudning sudyalari hisoblanadi.

Apellyatsiya sudi, odatda, o'z qarorlarini ish hujjatlari, oldingi sud majlislarining yozuvlari va taraflar advokatlarining dalillari asosida qabul qilib, kamdan kam hollarda guvohlarni so'roq qiladi. Apellyatsiya sudi uch, kamroq hollarda ikki sudyadan iborat tarkibda ishlarni ko'radi, biroq, besh va undan ko'p sudyalar ham bo'lishi mumkin.

*Oliy sud.* Korona sudi, Yuqori sud va Apellyatsiya sudi Oliy sudni tashkil etadilar. Ayrim ingliz manbalari ko'rsatishicha, mazkur o'ziga xos tuzilish ingliz sudlarining bir-biridan ajralganligini yengish, sud tizimining birligini va uning markazga bo'ysunishini belgilash uchun kerak bo'ldi<sup>1</sup>.

*Lordlar palatasi.* Lordlar palatasi ingliz sud tizimining oliy instansiyasi bo'lib, parlamentning yuqori palatasi funksiyasini bajarish bilan birga, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha apellyatsiya instansiyasi funksiyalarini amalga oshiradi. Ko'rinib turibdiki, uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bir vaqtning o'zida qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarini mujassam qiladi. Muayyan darajada u ijro etuvchi hokimiyatni ham mujassam qilishi mumkin, chunki uning raisi Lord-kansler hisoblanadi, u esa parlament yuqori palatasining spikeri, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining a'zosi hamda sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash funksiyalarini bajaradigan ijro etuvchi organning — Departamentning rahbari bo'ladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> К.Ф. Гуценко, Л.В. Головки, Б.А. Филимонов. Уголовный процесс западных государств. М., «Зерцало-М», 2001, стр. 71.

<sup>2</sup> Ko'rsatilgan asar, 69-bet.

Lordlar palatasi tomonidan apellatsiyalar ko'rib chiqilishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u taraflar manfaatlarini emas, butun ingliz huquqiy tizimining manfaatlarini ko'zlab<sup>1</sup>, ya'ni pretsedent huquqining normalarini yaratish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida o'z faoliyatini amalga oshiradi. Ishlar maxsus tayinlanadigan «apellatsiya bo'yicha ordinar lordlar» tomonidan ko'rib chiqiladi. Ularni sud lordlari deb ham nomlashadi.

Ta'kidlash joizki, yuqorida ko'rsatilgan sudlar bilan bir qatorda, Angliya va Uelsda *ixtisoslashgan sudlar* mavjud:

- koroner sudlari, ushbu sudlarda koronerlar (tergovchilar) odam o'ldirish, g'ayritabiiy va shubha tug'diradigan o'limlar yoki aniqlanmagan sabablarga ko'ra, kelib chiqqan o'lim holatlarini tergov qiladilar;

- harbiy jinoyatlarni sodir etishda harbiy xizmatchilarga nisbatan ayblovlarni ko'rib chiqadigan harbiy sudlar;

- anglikan cherkov va cherkov huquqi masalalari bilan shug'ullanayotgan cherkov sudlari.

Bundan tashqari, Angliya sud tizimida immigratsiya, soliqqa tortish, fuqarolarning ruhiy sog'lig'i, yerdan foydalanish va yerga egalik qilish, mulk, ijtimoiy sug'urta, transport, sanoat, aholi bandligi masalalari bilan shug'ullanadigan *tribunallar* ham mavjud bo'ladi.

Tribunallarda ishlarni ko'rib chiqish tartibi boshqa sudlarga qaraganda oddiyroq bo'ladi. Yuridik ma'lumotga ega bo'lmagan mutaxassislar-ekspertlar (masalan, shifokorlar) tribunallar a'zolari bo'lishi mumkin, biroq, tribunal raisi har doim professional yurist bo'lishi shart.

Sudlar qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida bir necha gap aytishimiz lozim.

Chunonchi, *magistrat sudlari* hukmlari ustidan shikoyatlar Korona sudiga beriladi. Apellatsiya shikoyatlari sudya tomonidan prisyajniylarsiz to'rttagacha hakamlilik sudlari ishtirokida ko'rib chiqiladi. Huquq va tartib-tamoyil masalalari bo'yicha shikoyatlar Yuqori sudning Qirol kursisi bo'linmasiga taqdim etiladi. Oilaviy masalalar bo'yicha qarorlar ustidan Yuqori sudning Oilaviy bo'linmasiga protest bildirish mumkin.

---

<sup>1</sup> К.Ф. Гуценко, Л.В. Головки, Б.А. Филимонов. Уголовный процесс западных государств. М., «Зерцало-М», 2001, стр. 155.

*Graflik sudlarining* qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar, odatda, Apellatsiya sudi tomonidan ko'rib chiqiladi, Yuqori sud (Kanslerlik bo'linmasi) tomonidan ko'rib chiqiladigan bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha berilgan shikoyatlar bundan mustasno.

*Korona sudining* hukmlari va qarorlari ustidan shikoyatlar Apellatsiya sudining Jinoyat bo'linmasiga beriladi.

*Yuqori sudning* qarorlari ustidan shikoyatlar Apellatsiya sudining Fuqarolik bo'linmasiga beriladi.

*Lordlar palatasiga* shikoyat berish uchun Apellatsiya sudi yoki Lordlar palatasining petitsiyalar bo'yicha qo'mitasi ruxsat berishi shart. Lordlar palatasida:

- Apellatsiya sudining qarorlari;
- Yuqori sudning qarorlari;
- Shotlandiya Sud palatasining qarorlari;
- Shimoliy Irlandiya Apellatsiya sudining qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar ko'rib chiqilishi mumkin.

Ko'rib turishimizcha, yagona sud tizimining yo'qligi ingliz sud tizimining o'ziga xos xususiyatidir. Angliyaning turli sudlari har xil tarkibiy va tashkiliy holatda bo'ladi. Ularning ustida o'ziga xos sud rahbariyati rolini o'ynaydigan, sudlar va sudyalar faoliyatini isloh qilish bo'yicha yagona ko'rsatmalar beradigan ma'muriy markaz mavjud emas. Hisoblanadiki, ingliz sudyalar faqat bitta xo'jayinni — huquqni tan oladilar<sup>1</sup>.

**Sudyalar.** Buyuk Britaniyadagi barcha sud lavozimlari saylanish natijasida emas, balki tayinlanish natijasida egallanadi. Yuqori sudlar sudyalari ord-kansler tavsiyasi bilan qirolicha tomonidan, quyi sudlar sudyalari esa Lord-kansler tomonidan tayinlanadi. Oliy sud sudyalari kamida o'n yillik mehnat stajiga ega bo'lgan barristerlardan, okrug sudyalari esa xuddi shunday stajga ega bo'lgan barristerlardan yoki shu lavozimni kamida uch yil egallab kelgan rekorderlardan tayinlanadi.

**Politsiya va prokuratura.** *Politsiya* eng eski organlardan biri hisoblanadi. Regional politsiya xizmatlariga *katta konstebllar* rahbarlik qiladi. London poytaxt politsiyasi (Skotland Yard) eng katta xizmatdir. Mamlakatda politsiya xizmatlariga umumiy rahbarlik qilish majburiyati Ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatilgan.

---

<sup>1</sup> A. K. Романов. Правовая система Англии. Учебное пособие. М., «Дело», 2000, стр. 244.



Eng ahamiyatsiz jinoyatlarni ham, o'ta og'ir jinoyatlarni ham, ya'ni barcha toifadagi jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va tergov qilish konstebllar tomonidan amalga oshirildi. Ayrim hollarda politsiya funksiyalari soliq xizmati, sog'liqni saqlash va sanitariya xavfsizligi inspeksiyasi, ijtimoiy ta'minot departamenti, bojxona xizmati, ish haqi masalalari bo'yicha inspeksiyasi va boshqa organlar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Politsiya o'z diskretсион vakolatlarini amalga oshirgan paytida aslida shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish huquqiga ega bo'lganligi kabi o'ziga xos xususiyatni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bunday o'ziga xoslik shundan iboratki, politsiya batafsil vaj-sabablarni keltirmagan holda ish bo'yicha yurituvni tugatish haqida qaror qabul qilishga haqli bo'ladi.

*Ta'qib qilish qirollik xizmati.* Oldin jinoiy javobgarlikka tortilayotgan aksariyat shaxslarni ta'qib qilish politsiyaning ishi (sud majlisi bosqichida ayblovni quvvatlash uchun u, odatda, advokatlik kasbining vakillarini — barristerlar va solisitorlarni jalb qilardi) va xususiy shaxslarning ishi hisoblanardi. Mazkur holat tanqid qilinib, Angliyada prokuratura kabi davlat organi tashkil etilishining maqsadga muvofiqligi haqida munozaralarni kuchaytirdi. Shunday qilib, Ta'qib qilish qirollik xizmati ta'sis etildi.

Hozirgi kunda Ta'qib qilish qirollik xizmati ijro etuvchi hokimiyatining ixtisoslashgan davlat organlari tizimidan iborat. Uning eng quyi bo'g'ini bo'lgan mahalliy bo'linmalariga (93 aholi punktlarida joylashgan) *mahalliy qirollik ta'qib qiluvchilar* rahbarlik qiladilar. Ularning zimmasiga sudlarda jinoiy ta'qibni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha ishlarni bajarish yuklatilgan.

O'rta bo'g'inni 42 okrug bo'linmalari tashkil etadi. Ularning zimmasiga, asosan, ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan va qiyin jinoyatlar haqidagi ishlar bo'yicha jinoiy ta'qibni amalga oshirish, shuningdek, mahalliy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga qonun hujjatlari bilan belgilangan doirada rahbarlik qilish yuklatilgan. O'rta bo'g'in xizmatining bo'linmalariga *katta qirollik ta'qib qiluvchilar* rahbarlik qiladi.

Ommaviy ta'qiblar direktori Ta'qib qilish qirollik xizmatining boshlig'i hisoblanadi. Direktorni tayinlash va uning faoliyatiga rahbarlik qilish *Bosh attorney* tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy protsessual funksiyasi sudda hukumat nomidan o'ta muhim jinoyat ishlari bo'yicha ayblovni quvvatlashdan iborat bo'ladi. Shuningdek, Bosh attorney hukumat sudda da'vogar yoki

javobgar sifatida ishtirok etadigan hollarda hukumatning manfaatlarini himoya qiladi. Bosh attorney katta ijtimoiy diqqatga sazovor bo'lgan ishlar bo'yicha da'vogar sifatida ishtirok etishi ham mumkin. O'z maqomiga ko'ra, Bosh attorney ingliz Parlamentining a'zosi bo'ladi, biroq, mahkamaning a'zosi bo'lishga uning haqi yo'q.

**Advokatura.** Angliyada advokatlar ikki guruhga bo'linadi: *bar-risterlar va solisitorlar*. Ingliz advokatlarining eng katta guruhi — **solisitorlar**, ular mustaqil advokatlar hisoblanadi. Solisitorlar yakka tartibda yoki boshqa solisitorlar bilan hamkorlikda o'z mijozlariga yuridik masalalar bo'yicha maslahatlar berishadi. Solisitorlar ko'pincha ular olib boradigan ishlarning amaliy jihatlari bilan shug'ullanadi. Ular sud nizolarining tayyorlash bosqichini ta'minlaydilar va sud protsessi boshlanishi uchun zarur choralarni ko'rishga haqli bo'ladi; guvohlarni so'roq qiladilar, o'z mijozlari topshiriqlariga muvofiq, arizalar va boshqa hujjatlar matnlarini tayyorlaydilar.

Solisitor sifatidagi advokatlik faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular mazkur lavozimda muayyan muddat davomida ishlab turib, sudya lavozimiga tayinlanishi mumkin:

- o'z lavozimida kamida o'n yil ishlagan solisitorlar rekorderlar lavozimiga, ya'ni advokat majburiyatlarini Korona sudida sudya majburiyatlari bilan birlashtiradigan solisitorlar sifatida tayinlanishi mumkin;

- kamida besh yillik ish stajiga ega bo'lgan solisitorlar okrug sudyalari (bu Korona sudi yoki graflik sudlarining sudyalari) bo'lishi mumkin.

Solisitor magistrat sifatida ham, ya'ni pulli asosda magistrat sudining sudyasi yoki Oliy sud apparatining xizmatchisi sifatida tayinlanishi mumkin.

Solisitorlar shirkatlarga birlashishi mumkin. *Yuridik jamiyat* solisitorlar professional birlashmasining rahbariy va nazorat qiluvchi organi hisoblanadi. Yuridik jamiyatda a'zolik ixtiyoriy bo'ladi. Solisitorlar birlashmasiga yangi a'zolari qabul qilishda malaka sinovlarini ta'minlash Yuridik jamiyat zimmasiga yuklatiladi. U malaka imtihonini topshirgan har bir solisitorni ro'yxatga oladi; solisitorlarning shaxsiy ma'lumotlari reyestrini olib boradi; mijozlarga zarar yetkazgan hollar bo'yicha solisitorlarni sug'urta qilish uchun javobgar bo'ladi; solisitorlar faoliyatining tekshirishlarini o'tkazadi; ular tomonidan buxgalteriya hisobotlarini

olib borish va daromadlari masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qiladi; solisitorlarga nisbatan intizomiy va professional talablarni belgilaydi.

**Barristerlar** — bu ingliz yuridik terminologiyada advokatlar hamjamiyati deb nomlanadigan uyushmani tashkil etuvchi shaxslardir<sup>1</sup>. Barristerlarni qirol advokatlariga va qolganlarga ajratishadi.

Mantiyaga va sudda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan barristerlarga qirollik advokatlari bo'lishi mumkin. Ushbu barristerlar ingliz advokaturaning to'la huquqli a'zolari soniga kiradilar. Qolganlar esa (mantiyasiz barristerlar) advokatlik iyerarxiyasida quyi joyni egallashadi. Ularning aksariyati biznes sohasida va pedagogik faoliyatida band bo'ladi.

Barristerning ishi, asosan, sudlarda advokat vazifalarini bajarishdan hamda ular ixtisoslashadigan huquq sohasi bo'yicha yozma xulosalarni tayyorlashdan iborat bo'ladi.

Barcha barristerlar ikki guruhga bo'linadi — kichik va katta barristerlar. Muvaffaqiyatli kichik barrister o'n yil ishlaganidan keyin, qoida tariqasida, «mantiya oladi», ya'ni Hazrati oliylarining advokati maqomiga ega bo'lishadi. Sudyalikka tayinlash (Yuqori sud va graflik sudlariga) asosan, mantiyaga ega bo'lgan barristerlar orasidan amalga oshiriladi.

Solisitorlardan farqli ravishda, barristerlar har qanday sudda ishtirok etish huquqiga ega bo'lishadi, biroq, ularga uyushmalarni tashkil etish taqiqlanadi. Barristerlar yakka tartibda yoki palatalar tarkibida ish yuritadilar.

Barristerlar uchun palata kotibiyat rolini bajaradi. Palata tarkibida maxsus xizmatchi — klerk bo'ladi, uning majburiyatlari barrister faoliyatining amaliy masalalarini hal qilishdan iborat bo'ladi.

Sud *innlari senati* advokatlar-barristerlarning o'zini o'zi boshqarish bo'yicha bosh organ hisoblanadi. Senat barristerlar hamjamiyati xulqi va ishining umumiy yo'nalishini ishlab chiqadi; Xulq kodeksini qabul qiladi va unga qat'iy va so'zsiz rioya etilishini ta'minlaydi; advokatura faoliyatining moliyalashtirilishini amalga oshiradi; intizomiy organ vazifalarini bajaradi. Senat tarkibiga 90 ta a'zo kiradi (jumladan, Bosh attorney, Bosh solisitor, Yuridik ta'lim bo'yicha kengashning raisi, kursining 24 haqiqiy a'zosi, 39 barrister va boshq.).

---

<sup>1</sup> А.К. Романов. Правовая система Англии. Учебное пособие. М., «Дело», 2000, стр. 288.

Barristerlarning professional darajasini saqlash uchun *Barristerlar kengashi* javobgar bo'ladi, u advokatlar hamjamiyatining himoyasini ham ta'minlaydi.

**Bosh attorney** — bu Britaniya advokatlari hamjamiyatining oliy mansabdor shaxsi. Bosh attorney bevosita qirolicha tomonidan tayinlanadi, u hukumat va qirolichaning bosh yuridik maslahatchisi hisoblanadi.

*Bosh solisitor* — Bosh attorneyning o'rinbosari. U barrister va Parlament a'zosi ham bo'ladi. Bosh attorney ham, Bosh solisitor ham xususiy solisitor bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

So'nggi yillarda kam ta'minlanganlarga bepul yoki imtiyozli yuridik yordam ko'rsatish tizimi tez rivojlandi. 1988-yilda qabul qilingan qonunga ko'ra, tajribali barristerlar va solisitorlardan tayinlanadigan Qashshoqlarga yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha kengash maxsus jamg'arma ta'sis etib, bu jamg'arma hisobidan bepul yoki imtiyozli yuridik yordam ko'rsatish uchun mablag'lar ajratadi<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatishicha, Angliyaning huquqiy tizimi o'z mazmuni bo'yicha murakkab va o'ziga xos tusga ega. Angliya huquqiy tizimining asosiy o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, yuridik kasblar, ya'ni sudya, advokat va jinoiy ta'qibni amalga oshiradigan shaxs o'rtasida aniq chegaralar mavjud emas. Tahlil ko'rsatishicha, advokatlik faoliyati asosiy va tayanch faoliyat hisoblanadi. Qoida tariqasida, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxs belgilangan talablarga javob beradigan bo'lsa, sudya lavozimini egallashi, shuningdek, jinoiy ta'qib bilan shug'ullanishi mumkin.

## 17.2. Germaniya

*Sud tizimi.* Germaniyada odil sudlovning tashkil etilishi ikki asosiy omil bilan ta'riflanadi:

- Germaniyaning federativ davlat tuzilishi bilan;
- bir necha yurisdiksiyalarga bo'linish bilan.

Sud yurisdiksiyalari bir necha tarmoqlarni tashkil etadi. Butun sud va konstitutsiyaviy tizimlarida alohida, fundamental rol o'ynaydigan konstitutsiyaviy yurisdiksiyadan tashqari, besh asosiy

---

<sup>1</sup> *Ф.М. Решетников. Правовые системы стран мира (Справочник). М., «Юридическая литература», 1993, стр. 39—43.*

yurisdiksiyalar mavjud: umumiy, ma'muriy, moliya, mehnat ishlari bo'yicha yurisdiksiya va ijtimoiy masalalar bo'yicha yurisdiksiya. Mazkur barcha yurisdiksiya yer (o'lka) darajasida ham, federal darajada ham o'z faoliyatini amalga oshiradilar, federal darajada ularning har biriga oliy instansiya, ya'ni Oliy sud rahbarlik qiladi. Boshqacha qilib aytganda, german sudlarining tizimi ikki guruhga bo'lingan tuzilishga ega — vertikal (yerlar sudlari va oliy darajada federal sud) va gorizontaal (turli yurisdiksiya sudlari).

Bundan tashqari, Konstitutsiya bo'yicha parlament maxsus sudlarni tashkil etishga haqli (shunday tarzda turli professional guruhlar, ya'ni advokatlar, auditorlar va boshqalar uchun sha'n sudlari tashkil etildi).

Ta'kidlab o'tilganidek, GFR Konstitutsiyasi adliyaning besh asosiy sohasini farqlaydi (umumiy, mehnat, ijtimoiy, moliyaviy va ma'muriy) hamda ularga muvofiq, besh sud tizimini ta'sis etadi, bu tizimlarning har biri o'z oliy sud organi tomonidan boshqariladi. Bunda umumiy sudlarning vakolatiga ma'muriy adliya organlarining va boshqa ixtisoslashtirilgan sudlarning vakolatiga kirmaydigan barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqish kiradi. Umumiy sudlarning faoliyati «Sud tuzilishi to'g'risida»gi Qonun, boshqa tegishli qonunlar va ular to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

**Oliy federal sud** umumiy sudlar tizimiga rahbarlik qiladi. U sud raisi, senatlar raislari va sud a'zolaridan tarkib topgan. Oliy federal sudda sud tergovchilari ham bo'lib, ular hukmlari ustidan shu sudga shikoyat keltirilgan ayrim jinoyat ishlarini eshitishga tayyorlash bilan shug'ullanadilar. Oliy federal sud tarkibiga fuqarolik ishlari bo'yicha 11 ta senat, jinoyat ishlari bo'yicha 5 ta senat va maxsus masalalarni (kartellar ishlari bo'yicha, advokatlar, notariuslar ishlari bo'yicha va boshq.) ko'rib chiqish bo'yicha 7 ta senat kiradi.

Katta senatlar va birlashgan senatlar ham tashkil etilib, ular bitta senat ikkinchi senatning muhim huquqiy masalalar bo'yicha pozitsiyasidan chetga chiqqan hollarda ishlarni hal qiladilar. Adliya federal vaziri Oliy sud bo'lishidan tashqari senatlarni tashkil etishga va tergovchi-sudyalarning sonini aniqlashga haqli.

Oliy sud sudyalarini tayinlash jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular sudyalarni tanlash bo'yicha komissiya bilan birgalikda Adliya federal vaziri tomonidan tanlanadi va mamlakat Prezidenti

tomonidan tasdiqlanadi. Oliy sud birinchi instansiya sudi vazifalarini bajarmasdan, faqat sud nazoratini amalga oshiradi. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha uning vakolatlari shikoyat qilina-yotgan qarorning xarakteriga va uni chiqargan sudga bog'liq bo'ladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Oliy federal sud vakolatiga yerlarning oliy sudlari tomonidan ish birinchi instansiyada ko'rib chiqilganda chiqarilgan hukmlarga, shuningdek, prisyajniylar sudi va yerlar sudlari katta palatalarining hukmlariga, agar bu hukmlar ustidan yerning oliy sudiga kassatsiya shikoyatini keltirish mumkin bo'lmasa, keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish kiradi. Oliy federal sud yangi ochilgan holatlar bo'yicha ayblov hukmi chiqarilgan holda ham, oqlov hukmi chiqarilgan holda ham ishni yangidan ko'rib chiqishi mumkin. 1969-yildan boshlab, Oliy federal sud vakolatiga jinoyat ishlarini birinchi instansiyada ko'rish kirmaydi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy federal sud vakolatiga yerlarning oliy sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlar ustidan keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish kiradi. Kassatsiya tartibida shikoyat keltirish deganda (u taftish deb ham ataladi) GFRda sudning qarori yoki hukmi ustidan hukmning ishning haqiqiy holatlariga mos kelish-kelmasligi asoslari bo'yicha emas, balki faqat qonunni buzish yoki uni noto'g'ri qo'llash asoslari bo'yicha shikoyat keltirish tushuniladi. Kassatsiya shikoyatlari Oliy federal sudning senatlari tomonidan senat raisi rahbarligida besh a'zodan iborat tarkibda ko'rib chiqiladi (ayrim masalalar uch sudyadan iborat hay'atlar tomonidan yoki yakka tartibda hal qilinishi mumkin). Senat kassatsiya shikoyatini qaytarishi yoki uni asosli deb e'tirof etishi mumkin, oxirgi holda u yoki quyi sudga ishni yangidan ko'rib chiqish bo'yicha topshiriq berishga yoki u bo'yicha o'z hukmini, yoxud qarorini qabul qilishga haqli.

Oliy federal sudda tegishli fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha katta senatlar tashkil etilib, ushbu senatlar huquqning tegishli sohasi uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etuvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Katta senatlar tarkibiga Oliy federal sud raisi (u har ikki senatda ham raislik qiladi) hamda rais tomonidan ikki yillik muddatga tayinlanadigan sudning sakkiz a'zosi kiradi. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha senatlarning pozitsiyalarida tafovutlarni bartaraf etish zarur bo'lgan hollarda birlashgan katta senat chaqiriladi, uning tarkibiga Oliy federal sud raisi va katta senatlarning barcha a'zolari kiradi.

Barcha umumiy sudlar qatorida faqat Oliy federal sudgina federal muassasa hisoblanadi, qolgan barcha quyi turuvchi sudlar tegishli yerlarning sudlari hisoblanadi. Ayrim yerlarning umumiy sudlari tuzilishi va vakolatlari o'rtasida farqlar mavjud bo'ladi, biroq ular unchalik jiddiy emas.

**Yerlarning oliy sudlari** ham birinchi instansiya sudi sifatida, ham apellatsiya va kassatsiya instansiyalari sifatida ish yuritadilar. GFR tarkibiga kiruvchi barcha yerlarda bunday sudlar tashkil etilgan va ularning soni birdan to'rtgacha bo'ladi.

Yerning har bir oliy sudi rais tomonidan boshqarilib, uning tarkibida fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha yetarli miqdorda senatlar tashkil etiladi va bu senatlarga ularning raislari rahbarlik qiladi. Birinchi instansiya sudi sifatida jinoyat ishlari bo'yicha senat yerning oliy sudi a'zolaridan bo'lgan besh professional sudya tarkibida davlatga xoinlik qilish, josuslik, terroristik harakatlar yoxud yerning quyi turuvchi sudlari sudloviga tegishli bo'lgan, biroq, o'ta ahamiyatli yoki murakkab deb topilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi. Kassatsiya instansiyasi sifatida fuqarolik ishlari bo'yicha senatlar yer oliy sudining uch a'zosi tarkibida quyi sudlarning qarorlari va ajrimlari ustidan keltirilgan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi (ayrim masalalar sudya tomonidan yakka tartibda hal etilishi mumkin). Jinoyat ishlari bo'yicha senatlar yer oliy sudining uch a'zosi tarkibida uchastka sudyalarining apellatsiya shikoyati keltirilmaydigan hukmlari ustidan, yer sudlarining apellatsiya shikoyatlari bo'yicha chiqargan hukmlari ustidan, shuningdek, prisyajniylar sudlari yoki yer sudining katta palatasi chiqargan hukmlari ustidan keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi, biroq, keltirilgan kassatsiya shikoyatiga asos federal qonun hujjatlari normalarining buzilishi emas, balki faqat yer qonun hujjatlari normalarining buzilishi bo'lishi kerak.

**Yer sudlari** birinchi instansiya sudi sifatida ham, quyi turuvchi sudlarning qarorlari va hukmlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadigan ikkinchi instansiya sudi sifatida ham ish yuritadi. Har bir yer sudi tarkibiga unga rahbarlik qiluvchi rais, fuqarolik (shu jumladan, savdo) ishlari bo'yicha va jinoyat ishlari bo'yicha tashkil qilinadigan palatalar kiradi. Fuqarolik ishlari bo'yicha palatalar yer sudi raisi yoki palata raisi rahbarligida uch professional sudyadan iborat tarkibda faoliyat yuritadi. Uncha murakkab bo'lmagan ishlar sudyalar tomonidan yakka tartibda ko'rib

chiqilishi mumkin. Savdo ishlari bo'yicha palatalar raislik qiluvchi — yer sudining a'zosi hamda u bilan teng huquqli bo'lgan va tajribali savdogarlar ichidan uch yillik muddatga savdo-sanoat palatalari xulosasiga muvofiq tayinlanadigan ikki professional bo'lmagan sudyadan iborat tarkibda ish yuritadi. Nizolarning ayrim toifalari palata raisi tomonidan yakka tartibda hal qilinadi. «Sud tuzilishi to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, bitim ishtirokchilari, savdo shirkatlari o'rtasida vujudga keladigan nizolar, veksellar bilan bog'liq nizolar, «Cheklar to'g'risida»gi Qonunni qo'llashga oid nizolar, tovar belgilarini himoya qilish bilan bog'liq nizolar va boshqa bir qator nizolar bo'yicha aniq belgilangan ishlar savdo ishlari doirasi qatoriga kiradi.

*Fuqarolik va savdo ishlari bo'yicha palatalar* vakolatiga da'vo summasi 3000 yevrodan yuqori bo'lgan ishlarni, shuningdek, otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni hamda g'aznaga, o'z xizmat vakolatlari doirasidan chiqib ketganligi munosabati bilan sudyalardan va xizmatchilarga nisbatan kiritiladigan da'volarni va bir qator ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqish kiradi. Palatalar uchastka sudlarining qarorlari va ajrimlari ustidan keltiriladigan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi, ular bo'yicha shikoyatlar yerlarning oliy sudlariga kiritiladigan ishlar toifalari bundan mustasno. Da'vo summasi 500 yevrogacha bo'lgan ishlar bo'yicha chiqarilgan uchastka sudlarining qarorlari ustidan shikoyatlar qabul qilinmaydi.

*Yer sudlarining jinoyat ishlari bo'yicha palatalari* uchastka sudlari yoki yerning oliy sudlari vakolatiga kiritilmagan barcha jinoyat ishlarini birinchi instansiyada ko'rib chiqadi. Ularning sudloviga uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki ruhiy kasalxonaga majburiy joylashtirish kabi jazolar ko'zda tutilgan barcha jinoyatlar to'g'risidagi ishlar kiradi. Ishlarni birinchi instansiyada yoki prisyajniylar sudi sifatida ish yuritadigan jinoyat ishlari bo'yicha palata yoki jinoyat ishlari bo'yicha katta palata ko'rib chiqadi. 1975-yilgacha GFRda prisyajniylar sudi uch professional sudyadan va olti *sheffendan* iborat bo'lgan (GFRda sheffen deb ishni muhokama qilishda ishtirok etuvchi va professional sudyalardan birgalikda sudlanuvchining aybli yoki aybsizligi va unga jazo chorasi qo'llash masalasi yuzasidan qaror qabul qiluvchi prisyajniy maslahatchi tushuniladi). Hozirgi kunda prisyajniylar sudi uch professional sudyadan va ikki sheffendan tashkil topadi. Prisyajniylar sudi qasddan odam o'ldirish yoki inson hayoti uchun



xavf tug'dirish bilan bog'liq boshqa jinoyatlarda (o't qo'yish, portlatish, samolyotlarni olib qochishga urinish, bosqinchilik va aybni og'irlashtiruvchi holatlarda tovlamachilik qilish va h.k.) ayblash yuzasidan jinoyat ishlarini ko'rib chiqish zarurati tug'ilganda chaqiriladi.

*Jinoyat ishlari bo'yicha katta palata* uch sudya va ikki sheffen tarkibida jinoiy tajovuzlar to'g'risidagi yer sudlari sudloviga tegishli ishlarning asosiy qismini ko'rib chiqadi. Okrugida yerning oliy sudi joylashgan yer sudlarida davlat jinoyatlari to'g'risidagi ishlar bo'yicha palata tashkil etilib, bu palatada, asosan, «demokratik huquqiy davlatga tahdid» bilan hamda g'ayriqonuniy tashkilotlar faoliyatining taqiqlanishini buzish bilan bog'liq ishlar ko'riladi. 1976-yildan boshlab, yerlarning ko'plab sudlarida jinoyat ishlari bo'yicha katta palatalar tarkibidan vijdotsiz raqobat, korxonalarining moliyaviy faoliyati, soliqlar va h.k. to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha palatalar ajratilgan. Jinoyat ishlari bo'yicha katta palata uch sudya va ikki sheffen tarkibida yer sudi nomidan uchastka sudlarida sheffenlar sudi chiqargan hukmlar ustidan keltirilgan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Uchastka sudyalari tomonidan yakka tartibda chiqarilgan hukmlar ustidan keltirilgan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun yer sudi tarkibida yer sudi a'zosi va ikki sheffendan iborat tarkibda faoliyat yuritayotgan *jinoyat ishlari bo'yicha kichik palata* tashkil etiladi.

**Uchastka sudlari** umumiy sudlar tizimining quyi bo'g'inini tashkil qiladi. Ular bitta yoki bir necha uchastka sudyalaridan iborat bo'lishi mumkin (ayrim uchastka sudlarida ularning soni 30 dan oshadi). Agarda uchastka sudida faqat bir sudya ishlayotgan bo'lsa, unga yer sudyalari orasidan doimiy o'rinbosar tayinlanadi. Bu yerda fuqarolik ishlari sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Uchastka sudyasi sudloviga 3000 yevrogacha miqdordagi mulkiy nizolar, shuningdek, da'vo summasidan qat'i nazar, yashash joylari va boshqa binolarni ijaraga berish to'g'risidagi nizolar, mehmonxona egalari va mijozlari o'rtasidagi, transport vositalari haydovchilari va yo'lovchilari o'rtasidagi, sayyohlik byurolari va sayyohlar o'rtasidagi va h.k. nizolar tegishlidir. Uchastka sudlarida bir yoki bir necha sudya nikoh-oila ishlariga tegishli, jumladan, nikohni bekor qilish, aliment undirish va h.k. ishlarni ko'rib chiqishga ixtisoslashadi.

Uchastka sudlarida jinoyat ishlari sudya tomonidan yakka tartibda yoki sheffenlar sudi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin. Uchastka sudyasi yakka tartibda xususiy ayblov tartibida qo'zg'atilgan ishlarni, bundan tashqari, nojo'ya qilmish toifasiga kiruvchi jinoiy harakatlar to'g'risidagi ishlarni va, nihoyat, prokuror taklifiga ko'ra, nojo'ya qilmish uchun tayinlanadigan jazodan og'irroq, ya'ni bir yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash kutilmaydigan ayrim jinoyat ishlarini ko'rib chiqadi.

Uchastka sudyasi ayblanuvchining roziligi bilan prokuratura yoki politsiya taqdim qilgan materiallar asosida sud muhokamasini o'tkazmasdan, «jazo to'g'risidagi buyruq» yo'li bilan hukm chiqarishi mumkin. Biroq, bu holatda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazo tayinlanishi mumkin emas, «jazo to'g'risidagi buyruq» esa sudlangan shaxs bir hafta ichida uni bekor qilishni va sud muhokamasi o'tkazishni talab qilmagan hollardagina ijro etiladi.

**Sheffenlar sudi** uchastka sudyasi va ikki sheffen tarkibida hay'at sifatida ish ko'radi. Sheffenlar jamoalarda yashovchi 30 yoshga yetgan va cheklovlari (sudlanganligi, jismoniy yoki ruhiy kasalligi, mansab majburiyatlari va h.k.) bo'lmagan fuqarolar ichidan jamoa kengashi tuzgan nomzodlar ro'yxatlari asosida o'z majburiyatlarini bajarishga jalb etiladi. Sheffenlar sudlari yer sudlari yoki yerning oliy sudlari istisno vakolatiga kiritilmagan jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlarini ko'rib chiqishga haqli, biroq, ular tomonidan tayinlanadigan jazo uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosidan oshmasligi kerak. Agar mazkur sud tomonidan ko'rib chiqish uchun taqdim qilinayotgan ish ancha murakkab yoki katta hajmli bo'lsa, prokuror iltimosnomasiga muvofiq, sheffenlar sudining kengaytirilgan tarkibi shakllantiriladi — ikki professional sudya va ikki sheffen. Xuddi shunday tarkib yuqori turuvchi suddan yangidan ko'rib chiqish uchun kelib tushgan ishni hal qilish uchun zarur bo'ladi.

Faqat GFR fuqarolari sheffenlar bo'lishi mumkin; shu bilan birga, sheffen bo'lishga haqqi yo'q bo'lgan shaxslarning ancha keng doirasi belgilangan (25 yoshga to'lmagan va 70 yoshga to'lgan shaxslar; sudyalar; politsiya xodimlari va boshq.). Sheffenlarni tanlab olish tartibi qonun bilan batafsil belgilab qo'yilgan.

Sheffen (sudning professional bo'lmagan a'zosi) funksiyasi faxriy hisoblanadi. Sud majlisi va qabul qilinayotgan qarorning

muhokamasi paytida sheffenlar professional sudyaning barcha huquqlaridan foydalanadi, shuningdek, uning barcha majburiyatlarini bajaradi; professional sudyalari bilan birgalikda sheffenlar sudlanuvchining aybi va unga tayinlanayotgan jazo to'g'risida qaror qabul qiladi. Odil sudlovni amalga oshirishda professional bo'lmagan sudyalarning ishtiroki aholiga sud amaliyotiga bevosita ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi.

**Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudlar.** Umumiy sudlar tizimiga mustaqil tuzilma sifatida voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudlar ham kiritilgan. Bu sudlar 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ayblanayotgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, voyaga yetmaganlarning ishi bo'yicha sud xulqi «o'smirlarga xos» deb topgan 21 yoshgacha bo'lgan yoshlarning jinoyat ishlarini ko'rib chiqadi. Aynan shu sudlarda, umumiy sudlardagidek, voyaga yetmaganlarning manfaatlari katta yoshlilar tomonidan buzilganligi to'g'risidagi ishlar, shuningdek, voyaga yetmaganni guvoh sifatida so'roq qilish lozim bo'lgan ishlar ko'rib chiqilishi mumkin. Shu turdagi sud muassasalariga yer sudlaridagi voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha palatalar (uch professional sudya va ikki sheffen tarkibida) hamda uchastka sudlarida voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sheffenlar sudi (professional sudya va ikki sheffen tarkibida) va voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudya kiradi. Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sheffenlar sifatida yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega bo'lgan shaxslar (qoida tariqasida, ularning biri ayol bo'ladi) tayinlanadi.

Yer sudining voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha seksiyasi, odatda, prisyajniylar sudining sudloviga tegishli bo'lgan, ya'ni eng og'ir jinoyatlar, jumladan, qasddan odam o'ldirish to'g'risidagi ishlarni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqadi.

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha seksiya voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudlarining hamda voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sheffen sudlarining hukmlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ham ko'rib chiqadi.

Yer oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha palatasi voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha amaldagi sheffenlar sudlarining voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudyalari tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida chiqarilgan hukmlari ustidan, shuningdek, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha seksiya tomonidan apellatsiya shikoyatlari bo'yicha chiqarilgan qarorlari

ustidan keltirilgan shikoyatlarni taftish tartibida ko'rib chiqadi. Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha seksiya tomonidan birinchi instansiya bo'yicha chiqarilgan qarorlar ustidan taftish tartibida Oliy federal sudga shikoyat berish mumkin.

Sudyalar, prokurorlar va voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sheffenlar pedagogik malakaga hamda voyaga yetmaganlarni tarbiyalash bo'yicha ishlash tajribasiga ega bo'lishlari zarur.

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sud majlislari har doim yopiq tusga ega bo'ladi. 18—21 yoshda bo'lgan yoshlarning ishlari bo'yicha majlislar yopiq eshiklarda o'tkazilishi mumkin, agarda bu tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yordam beradigan bo'lsa. Ushbu huquqbuzarlarni qayta tarbiyalash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar va ularning qonuniy vakillari shu sohada ancha keng vakolatlarga ega bo'ladi.

*Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudlar huzuridagi yordam xizmati* ayblanuvchining shaxsini, xarakterining shakllanishini, uning atrofini o'rganib chiqadi va uning ijtimoiy hamda ta'lim manfaatlarini himoya qilish yuzasidan o'z pozitsiyasini bildiradi. Zarurat bo'lganda, ekspertlar taklif qilinishi mumkin, ularning xulosalari eshitiladi.

**Mehnat ishlari bo'yicha sudlar.** GFRda faoliyat yurituvchi ixtisoslashtirilgan sudlar orasida umumiy sudlar bilan bir qatorda, mehnat ishlari bo'yicha sudlar ham muhim o'rin tutadi. Mazkur sudlarning faoliyati ish haqi to'lash, ta'tillar berish, ishdan bo'shatish masalalari bo'yicha ishga yollovchilar va individual xizmatchilar o'rtasidagi nizolarni, shuningdek, kasaba uyushmalari va tadbirkorlar birlashmalari o'rtasidagi nizolar, jumladan, ish tashlashning yoki korxonalar yopilishining huquqqa xilofligi kabi masalalarni ko'rib chiqishga qaratilgan. Mazkur tizimga Kassel shahrida joylashgan beshta senatdan tashkil topgan Mehnat ishlari bo'yicha federal sud rahbarlik qiladi. Ushbu senatlar hay'atlarida uch professional sudya va ikki «faxriy» sudyalar (ular tegishli tadbirkorlar va kasaba uyushmalarining vakillari bo'ladi) mazkur tizimga kiruvchi quyi sudlarining qarorlari ustidan keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadilar. GFR yerlarining har birida mehnat ishlari bo'yicha bittadan yer sudi bo'lib, Shimoliy Reyn-Vestfaliyada esa mehnat ishlari bo'yicha ikkita yer sudi ta'sis etilgan.

Mazkur sudlarda bir nafar professional sudya hamda tadbirkorlar va ishchilar manfaatlarini himoya qiladigan ikki yoki

to'rt (ishning toifasiga qarab) «faxriy sudya»lardan iborat hay'atlar tashkil etiladi. Mehnat ishlari bo'yicha yer sudlari apellatsiya instansiyasi hisoblanib, ularga quyi turuvchi sudlarning qarorlari ustidan shikoyatlar keltiriladi.

Mehnat ishlari bo'yicha sudlar mazkur tizimning eng quyi instansiyasi bo'lib (GFR hududida ularning soni 107 ga borgan edi), birinchi instansiya bo'yicha barcha mehnat nizolarini ko'rib chiqadi. Ularda, mehnat ishlari bo'yicha yer sudlarida tashkil etiladigan hay'atlarning tarkibidagidek, hay'atlar tashkil etiladi. Mazkur sudlarda nizolarni imkoni boricha, o'zaro kelishuv asosida hal etish uchun zarur choralar ko'riladi.

Mehnat ishlari bo'yicha sudlar quyidagi sohalarda mustaqil fuqarolik-huquqiy vakolatlarga ega:

a) quyidagi nizolarni hal etish doirasida:

- jamoa mehnat shartnomasi taraflari yoki ushbu taraflar va uchinchi taraf o'rtasidagi — mazkur shartnomaning mavjudligi haqida; ish tashlash munosabati bilan amalga oshirilgan xatti-harakatlar haqida yoki kasaba uyushmalariga birlashish erkinligi masalalari bo'yicha;

- ish beruvchilar va yollangan xodimlar o'rtasidagi ularning shartnomaviy munosabatlari yuzasidan nizolar — mehnat shartnomasining mavjudligi, mazkur shartnomani tuzish bo'yicha muzokaralar, uning oqibatlari, uning asosida kelib chiqadigan deliktlar yoki kvazideliktlar haqida;

- xodimlar o'rtasida — ular tomonidan birgalikda bajariladigan ishlar hamda mazkur munosabatlar natijasida vujudga keladigan deliktlar yoki kvazideliktlar yuzasidan;

- xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi — ixtiro uchun mukofotning qat'iy o'rnatilgan yoki taxminan belgilangan summasini to'lash yuzasidan;

b) qarorlarni qabul qilish jarayoni doirasida:

- «Korxonalar maqomi to'g'risida»gi Qonun bo'yicha hal qilinadigan nizolar yuzasidan;

- jamoa mehnat shartnomasini tuzish bo'yicha kasaba uyushmasining huquqi yuzasidan.

Xususiy huquq subyektlari bo'lgan yuridik shaxslar hamda o'zining nomidan yoki mazkur yuridik shaxs rahbar organining a'zolari sifatida ishtirok etayotgan yuridik shaxsning qonuniy vakillari o'rtasidagi fuqarolik da'volari mehnat ishlari bo'yicha sudlarning vakolatiga kirmaydi, biroq, ular taraflarning kelishuviga

asosan mazkur sudlarga berilishi mumkin. Odatda, mehnat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqilmaydigan boshqa da'volar istisno tariqasida mazkur sudlarga ko'rib chiqish uchun berilishi mumkin, agarda ular yuridik yoki iqtisodiy jihatdan yuqorida ko'rsatilgan «a» bandida nazarda tutilgan fuqarolik da'vo bilan bog'liq (yoki ushbu da'vo bilan bir vaqtda kiritilayotgan) bo'lsa hamda mazkur masalalar boshqa sudning mutlaq vakolatiga kiritilmagan bo'lsa.

Mehnat ishlari bo'yicha sudlarning vakolatiga kiritilgan masalalar taraflarning kelishuviga asosan mazkur sudlarning sudlovidan chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yagona istisno holati jamoa mehnat shartnomasining taraflariga nisbatan belgilangan bo'lib, ushbu taraflar:

- jamoa mehnat shartnomasining mazmuni bo'yicha yoki mazkur shartnomaning mavjudligi yuzasidan ular o'rtasida vujudga kelgan fuqarolik nizolari bo'yicha o'zaro kelishuvga asosan mazkur nizolarni umuman yoki ayrim ish bo'yicha — mehnat ishlari bo'yicha sudning vakolatidan chiqarishga va ularni arbitraj sudiga ko'rib chiqish uchun berishga;

- jamoa mehnat shartnomasiga asosan, tuzilgan individual mehnat shartnomasi yuzasidan, fuqarolik nizolarni mehnat ishlari bo'yicha sudning vakolatidan chiqarib, ularni o'z kelishuvi bo'yicha arbitraj sudiga berishga haqlidirlar, agarda mazkur jamoa mehnat shartnomasi, asosan, quyidagi toifalarga tatbiq etiladigan bo'lsa: teatr, kino, sirk xodimlari, german savdo flotining kaptanlari va ekipajlari.

**Mehnat ishlari bo'yicha sudlar** yerlarning yurisdiksiyon organlari hisoblanadi. Ular professional sudya va tegishlicha xodimlar va ish beruvchilarning vakillari bo'lgan ikki maslahatchidan iborat tarkibda faoliyat yuritayotgan palatalarda ishlarni birinchi instansiya sifatida ko'rib chiqishadi.

Mehnat ishlari bo'yicha sudlarning qarorlari ustidan apellatsiya tartibida shikoyat berish mumkin. Ayrim holatlarda ish bo'yicha shikoyat apellatsiya instansiyasidan o'tmasdan, bevosita mehnat nizolari bo'yicha federal sudga berilishi mumkin. Mehnat ishlari bo'yicha uzil-kesil qarorlar ustidan Mehnat ishlari bo'yicha oliy sudga shikoyat berish mumkin.

Mehnat ishlari bo'yicha oliy sudlar yer yurisdiksiyasi organlari bo'lib, ikkinchi instansiya sudlari hisoblanadi; ularda, qoida tariqasida, professional sudya va tegishlicha xodimlar va ish

beruvchilarning vakillari bo'lgan ikki maslahatchidan iborat tarkibda faoliyat yuritayotgan palatalar qarorlarni qabul qiladi.

Mehnat ishlari bo'yicha oliy sudlarning qarorlari ustidan taf-tish tartibida qarorni qabul qilgan organ roziligi bilan mehnat ishlari bo'yicha federal sudiga shikoyat berish mumkin. Muhim ahamiyatli huquqiy masala ko'tarilgan bo'lsa yoxud chiqarilgan sud qarori Oliy federal sudlari umumiy senatining, mehnat ishlari bo'yicha federal sudining qarorlaridan yoki ushbu qarorlar yo'q bo'lgan hollarda mehnat ishlari bo'yicha federal sudining qarorlaridan, shuningdek, mehnat ishlari bo'yicha xuddi shu yer oliy sudining boshqa palatasi yoxud mehnat ishlari bo'yicha boshqa yer oliy sudi tomonidan o'xshash ish bo'yicha qabul qilingan qarordan farq qiladigan bo'lsa, ruxsat beriladi. Garchi, mazkur farq shikoyatning avtomatik ma'qulligini kafolatlamaydigan bo'lsa-da, shu bilan birga, u mehnat ishlari bo'yicha yer sudini shikoyat berish uchun ruxsat berishga majbur qiladi, ushbu ruxsat berilmagan hollarda mazkur farq yuqori turuvchi instansiyaga shikoyat berish uchun ruxsat olishning rad etilishi ustidan shikoyat qilish uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Mehnat ishlari bo'yicha federal sudga huquq masalalari bo'yicha shikoyat berish orqali mehnat ishlari bo'yicha yer oliy sudlarining qarorlari yuzasidan nizolashish mumkin. Mazkur shikoyat ko'rib chiqishga yer sudining ruxsati bilan rad qilingan hollarda esa mehnat ishlari bo'yicha federal sudining ruxsati bilan qabul qilinadi.

Mehnat ishlari bo'yicha federal sud federatsiyaning oliy sudi, ya'ni uchinchi instansiya sudi hisoblanadi. U professional sudya bo'lgan rais, ikki professional sudya va tegishlicha xodimlar va ish beruvchilar vakillari bo'lgan ikki professional bo'lmagan sudyalardan iborat tarkibda faoliyat yuritayotgan senatlardan iborat bo'ladi. Mehnat ishlari bo'yicha federal sud katta senat tarkibida ham, ya'ni mehnat ishlari bo'yicha federal sudning raisi rahbarligida, senatning eng keksa raisi, to'rt professional sudyalar hamda tegishincha xodimlar va ish beruvchilar vakillari bo'lgan ikki professional bo'lmagan sudyalar ishtirokida ishlarni hal qiladi.

Agarda senatlarning bittasi mehnat ishlari bo'yicha federal sudining senatlari, jumladan, katta senat tomonidan o'xshash ishlar bo'yicha oldin qabul qilingan qarorlardan farq qiladigan qarorni qabul qilayotgan bo'lsa, mazkur ish katta senatga ko'rib

chiqish uchun yuboriladi. Juda muhim huquqiy masala ko'tarayotgan ishni katta senatga ko'rib chiqish uchun yuborish to'g'risidagi qaror mazkur holatda qonunchilikni takomillashtirish va sud amaliyotining yagonaligini saqlash uchun katta senatning qarori qabul qilinishi zarurligi to'g'risidagi xulosaga kelgan senatlarning biri tomonidan ham qabul qilinishi mumkin.

**Moliyaviy sudlar.** Mazkur sudlarning vakolatiga yig'im va soliqlar yuzasidan vujudga kelgan nizolarni, moliyaviy muassasalar ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish kiradi. Xususan, soliqlarni hisoblash bo'yicha e'tirozlar bir oylik muddatda taqdim qilinishi lozim. Moliyaviy organlar qarorining qonunga xilofligini sudda e'tirof etishga yoki moliyaviy muassasalar bilan tegishli muzokaralarni o'tkazishga imkon beruvchi turli tartib-tamoyillar nazarda tutilgan. GFRda soliq tizimi ancha murakkab, soliqlar, odatda, soliq maslahatchilari yordamida hisoblab chiqiladi, bu esa moliyaviy sudlarning amaliyotini belgilaydi.

Moliyaviy sudlar tizimi Myunxendagi Federal moliyaviy sudni va 15 ta moliyaviy sudlarni (bitta-ikkitadan har bir yerda) o'z ichiga qamrab oladi. Federal moliyaviy sudda sakkizta senat tashkil etilgan bo'lib, ushbu senatlarda besh professional sudyadan iborat hay'atlarda moliyaviy sudlarning qarorlari ustidan berilgan va faqat huquq masalalariga bag'ishlangan kassatsiya shikoyatlari ko'rib chiqiladi, bunda ko'rib chiqilayotgan nizo 10 000 yevroga teng summadan kam bo'lmasligi shart. Birinchi instansiya sudlari hisoblanadigan, biroq, o'z maqomi bo'yicha yerlarning oliy sudlariga teng bo'lgan moliyaviy sudlarda ishlar uch professional sudya va ikki «faxriy sudya»dan iborat hay'atda ko'rib chiqiladi.

Moliyaviy sudlar vakolatiga fiskal nizolar, birinchi navbatda, soliq va bojxona nizolarini ko'rib chiqish kiradi. Mazkur masalalarning ayrimlari ma'muriy sudlar sudloviga tegishlidir (xususan, mahalliy soliqlar to'g'risidagi nizolar). Moliyaviy organlar hujjatlarini (masalan, soliqni to'lash to'g'risida) bekor qilish talabi bilan, hokimiyatlarni ularning harakatsizligi tufayli qabul qilinmagan hujjatni qabul qilishga majburlash talabi bilan, shuningdek, deklarator da'volar bilan moliyaviy sudga murojaat etish mumkin.

Moliyaviy sud ishlarni birinchi instansiya bo'yicha uch professional sudya va ikki maslahatchidan iborat palatada ko'rib chiqadi. Qaror ommaviy eshitishsiz yoki soddalashgan yozma



tartibida qabul qilinayotgan bo'lsa, maslahatchilar uning qabul qilinishida ishtirok etishmaydi. Ishning faktik jihatidan ham, huquqiy jihatidan ham ancha murakkab bo'lmagan nizolar, odatda, palata tomonidan sudyalarning birontasiga yakka tartibda ko'rib chiqish uchun beriladi.

Moliyaviy sudning qarori ustidan taftish tartibida Federal moliyaviy sudga shikoyat berish mumkin, agarda, bu moliyaviy sudning ish bo'yicha qabul qilgan qarorida nazarda tutilgan bo'lsa. Ruxsat berish uchun asoslar ma'muriy sudlarning qarorlari ustidan taftish tartibida shikoyat qilish asoslari bilan bir xil (ishning prinsipial ahamiyati, sudning mazkur qarori boshqa sudlarning pozitsiyasidan farq qilishi, protsessual tusdagi qonun buzilishlari). Moliyaviy sud ushbu ruxsat berishni rad etishi ustidan bir oylik muddatda shikoyat qilishi mumkin.

Moliyaviy sudning qarorlari ustidan Federal moliyaviy sudga shikoyat qilish mumkin.

**Ma'muriy sudlar.** GFRda ma'muriy adliya tizimi jismoniy va yuridik shaxslarning davlat boshqaruvi organlarining hujjatlari va xatti-harakatlari ustidan keltirilgan shikoyatlarini, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqish uchun ta'sis etilgan bo'lib, bu shikoyatlar va nizolar boshqa sudlar sudloviga tegishli bo'lmasligi lozim. Qoida tariqasida, xatti-harakatlariga shikoyat keltirilayotgan boshqaruv organi yoki mansabdor shaxsga e'tiroz bildirilib, yuqori turuvchi boshqaruv organiga keltirilgan shikoyat qanoatlantirilmaganidan so'nggina ma'muriy adliya organlariga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin.

Mazkur tizimni Federal ma'muriy sud boshqarib, u Berlin shahrida joylashgan. Uning tuzilmasida besh professional sudyadan iborat tarkibda quyi turuvchi ma'muriy sudlarning qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish bilan shug'ullanadigan 12 ta senatlar mavjud. Xuddi shu tarkibda Federal ma'muriy sudning senatlari (birinchi va oxirgi instansiya sifatida) mazkur sudning mutlaq vakolatiga kiritilgan, biroq, uncha ko'p bo'lmagan ishlar toifalarini ko'rib chiqadilar — yerlar o'rtasidagi hamda yerlar va federatsiya o'rtasidagi konstitutsiyaviy tusga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha, shaxslarning u yoki bu uyushmasining faoliyatini konstitutsiyaga zid deb e'tirof etish to'g'risidagi federal hukumatining murojaatlari bo'yicha, shuningdek, federal organlariga qarshi berilgan da'volarning ayrim toifalari bo'yicha.

Mazkur holatda sud vakolatining o'ziga xos sohasi haqida gap yuritish lozim. U konstitutsiyaviy sudlar sudloviga tegishli bo'lmagan ommaviy boshqaruvning holatlari bo'yicha odil sudlov sifatida belgilanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, huquqlari ommaviy hokimiyat tomonidan buzilgan har bir shaxsga qonunga muvofiq, ma'muriy sudlarga murojaat etish erkinligi ta'minlanadi. Istisno holatlar alohida belgilab qo'yilgan. Umumiy ma'muriy sud vakolatlari, ya'ni ma'muriy sudlar hamda moliyaviy va ijtimoiy sudlovga tegishlilikini o'z ichiga qamrab oladigan maxsus vakolatlar ajratiladi.

Ma'muriy yurisdiksiya sudlarining faoliyati fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning tartibga solinishiga va to'g'riligiga muhim ta'sir o'tkazadi.

*Oliy ma'muriy sudlar* bittadan GFRning barcha yerlarida tashkil etilgan, Pastki Saksoniya va Shlezvig-Golshteyn bundan mustasno — mazkur ikki yerda bitta umumiy sud ta'asis etilgan. Ularning vakolatiga ma'muriy sudlarning qarorlari va ajrimlari ustidan keltirilgan apellatsiya, ayrim holatlarda esa kassatsiya shikoyatlarini ham, shuningdek, istisno holatlarda, eng muhim ishlarni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqish kiradi. Oliy ma'muriy sudlarda ishlarni yoki uch professional va ikki «faxriy sudya»dan iborat yoki (ayrim yerlarda) faqat uch professional sudyadan iborat hay'atlar ko'rib chiqadi.

Ma'muriy sudlar ma'muriy adliya organlari vakolatiga kiradigan ishlarning asosiy qismini birinchi instansiya bo'yicha uch professional sudya va ikki «faxriy sudya»dan iborat tarkibda ko'rib chiqadi. Ma'muriy sudlarning qaroriga ko'ra, ustidan shikoyat keltirilgan davlat boshqaruv organining hujjati bekor qilinishi yoxud mansabdor shaxslar xatti-harakatlari bilan buzilgan fuqarolar va muassasalarning huquqlari tiklanishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan besh oliy sud organlari ayrim sud tizimlarini (umumiy, mehnat ishlari bo'yicha va h.k.) boshqarib, alohida va bir-biridan mustaqil hisoblanadi. Jiddiy huquqiy masalalar yuzasidan ularning nuqtayi nazarlari o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqqan hollarda, Asosiy qonunga ko'ra (95-modda), Oliy federal sudlarining umumiy senati chaqiriladi, bu senat chiqargan qaror barcha tizimlarning sudlari uchun majburiydir va u sud amaliyotining yagonaligini ta'minlaydi.

Mustaqil sud muassasalari sifatida ayrim **ixtisoslashtirilgan sudlar**, shu jumladan, umumfederal darajadagi sudlar ham faoliyat yuritadi. Bular qatoriga, xususan, fuqarolik xizmat-

chilarning hokimiyat organlari xatti-harakatlari ustidan keltirilgan shikoyatlarini ko'rib chiquvchi *Federal intizomiy sud* va *yerlarning intizomiy sudlari*, shuningdek, *Federal patent sudi* kiradi.

**Federal patent sudi** tarkibiga 144 nafar sudya kiradigan 14 sennatdan iborat bo'ladi. U maxsus qonun hujjatlari bilan belgilanadigan tartibga muvofiq, patent xizmati ustidan berilgan shikoyatlarni, patentlarning haqiqiyiligi e'tirof etish masalalari hamda tovar belgilari va namunalari to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi. Uning asosiy vazifasi, bu — Patentlar va tovar belgilari bo'yicha german idorasi tomonidan patentlarni berish yoki tovar belgilarini ro'yxatga olish haqidagi talabnomalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar ustidan berilgan apellatsiyalarni eshitishdir. Agar patentlarni berishni yoki tovar belgilarini ro'yxatga olishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilingan bo'lsa, mazkur sudga apellatsiya beriladi. Huquqiy jihatlar bo'yicha keyingi apellatsiya Federal oliy sudga berilishi mumkin. Patent sudining ikkinchi funksiyasi — patentlarning haqiqiyiligi yuzasidan da'volarni eshitishdir. Germaniyada patent berilishidan so'ng uning haqiqiyiligi yuzasidan faqat Federal patent sudida va apellatsiya berilishidan so'ng Federal oliy sudida nizolashish mumkin. Patent huquqlarini buzish bilan bog'liq tartibotlar jarayonida sudya patent berilishini e'tirof etishi kerak. Sudya patent huquqlari buzilishi bilan bog'liq protsessni patent haqiqiy emas deb topilishining katta ehtimoli bor degan fikrga kelsagina boshlaydi.

Patent sudining bitta o'ziga xos xususiyati bor. Ushbu sudda da'volar uchtdan beshgacha sudyadan iborat guruh tomonidan ko'rib chiqiladi. Tovar belgilari bilan bog'liq da'volarni ko'rib chiqishda barcha sudyalar yuridik ma'lumotga ega bo'lishi shart bo'lsa, patent da'volarini ko'rib chiqishda sudyalar tarkibi qo'shma bo'lib, yuridik ma'lumotga ega bo'lgan sudyalarni hamda ilmiy-texnik ma'lumotga ega bo'lgan sudyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Agar Patent sudida biokimyo ixtiroga patent berishni rad qilishga qarshi e'tirozlar yuzasidan da'vo ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, sudyalar tarkibiga biokimyo sohasidagi mutaxassis kiritiladi. Agar sudda elektronika sohasidagi patentning amal qilishi bilan bog'liq da'vo ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, mazkur da'vo bo'yicha qarorni besh sudya qabul qiladi, ularning tarkibiga fizika sohasidagi uch mutaxassis va uch muhandis kiradi. Sud a'zolari zarur ekspert bilimlariga ega bo'lishlari tufayli, ushbu sud, odatda, ekspert dalillarini eshitmaydi.

GFR oliy davlat va sud muassasalari orasida **Federal konstitutsiyaviy sud** alohida o'rinni egallaydi. U har birida Federal konstitutsiyaviy sudning sakkiz a'zosi bo'lgan ikki senatdan tashkil topgan. Butun sudning va birinchi senatning ishiga Federal konstitutsiyaviy sud raisi, ikkinchi senat ishiga raisning birinchi o'rinbosari rahbarlik qiladi. Federal konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyani sharhlashning munozarali masalalarini, Konstitutsiyaning boshqa federal qonunlar va yerlarning hokimiyat organlari tomonidan chiqarilgan qonunlar bilan muvofiqligi yuzasidan nizolarni ko'rib chiqadi. Federal konstitutsiyaviy sudning vakolatlari GFR parlamenti va yerlarning hokimiyat organlari tomonidan chiqarilgan qonunlarni, hukumatning va boshqa boshqaruv organlarining har qanday qarorlarini va, nihoyat, har qanday sud instansiyalari, jumladan, oliy federal sudlarning qarorlarini ularning konstitutsiyaga zid bo'lganligi asosida bekor qilish imkoniyatini o'z ichiga qamrab oladi. Federal konstitutsiyaviy sud turli tashkilotlar va fuqarolar birlashmalarining faoliyatini konstitutsiyaga zid deb topishga haqlidir. Federal konstitutsiyaviy sudning muhim funksiyasi, bu — hokimiyat organlari tomonidan jamoalar va ayrim fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi yuzasidan shikoyatlarini ko'rib chiqishdir. GFRga kiruvchi yerlarning aksariyatida o'z konstitutsiyaviy sudlari mavjud bo'lib, ularning vakolati yerlarning konstitutsiyalari qoidalarini sharhlash va ularda mustahkamlangan huquqlarning buzilishi yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqish bilan cheklanadi. Mazkur sudlarning qarorlari ustidan shikoyat berish mumkin emas.

Germaniya sud tizimining tahlili mazkur tizimning o'ziga xos xususiyati uning chuqur ixtisoslashganligidan iborat degan xulosaga kelishga imkon beradi. Uning asosiy afzalligi shundan iboratki, sudyalar butun o'zining diqqatini muayyan huquqiy sohaga qaratishlari, mazkur sohada chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishlari mumkin. Ko'rsatib o'tilgan ixtisoslashganlikning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Masalan, ko'plab hollarda muayyan ish qanday yurisdiksiya turining sudloviga tegishli bo'lganligi aniq emas. Bundan tashqari, bitta yurisdiksiya sudi ayrim huquqiy masalani hal qilishda boshqa yurisdiksiya sudlarining amaliyotiga qarshi boradigan va butun sud amaliyotining yagonaligi uchun tahdid soluvchi an'anani rivojlantirishi mumkin. Oxiri, mustaqil maxsus sudlarni va turli oliy sudlarni o'z ichiga qamrab oladigan ko'p bosqichli sud tizimi juda qimmat bo'ladi.

**Sudyalar.** Federal sudlarining sudyalari rasman o'z lavozimlariga tegishli vazirning (Oliy federal sudga tayinlanishda — Adliya vaziri, Mehnat ishlari bo'yicha federal sudga tayinlanishda — Mehnat vaziri va h.k.) qaroridan so'ng GFR Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Bundan oldinroq esa sudyalikka nomzodlar tarkibi GFR tegishli vaziridan va yerlarning tegishli idoralari rahbarlaridan, shuningdek, Bundestag tomonidan saylangan 11 a'zodan iborat maxsus komissiya tasdig'idan o'tishi lozim. Ular komissiyalarda, qoida tariqasida, bir necha nomzodlar ichidan tanlab olinadi.

Ayrim yerlardagi sudlarda sudyalik lavozimini egallash turlicha kechadi. Ba'zi yerlarda sudyalar bosh vazir tomonidan tayinlansa, boshqalarida shu yerning Adliya vaziri tomonidan tayinlanadi. Yana ba'zilarida esa yer parlamenti deputatlardan, sudyalardan va advokatlardan tashkil topgan saylov qo'mitasi — maxsus komissiya tomonidan nomzod saylangach, sudyalik lavozimi egallanadi. Bundan tashqari, ko'plab yerlarda biror yer sudlaridagi sudyalik lavozimini egallash uchun vazirlar mahkamasining barcha a'zolari — barcha vazirlarning roziligi talab etiladi. Barcha sudyalar o'z lavozimlariga umrbod tayinlanadilar.

GFR federal parlamenti tomonidan bevosita 12 yillik muddatga faqat Federal konstitutsiyaviy sud sudyalari saylanadilar: ularning yarmi Bundestag tomonidan, qolgan yarmi Bundesrat tomonidan saylanadi. Sudyalar o'z lavozimlaridan sudyalar va prokurorlar uchun federal intizomiy sud yoxud yer intizomiy sudi qarori bilangina chetlatilishlari mumkin. Intizomiy ish GFR yoki yerlarning Adliya vazirlari tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Sudyalarning iste'foga chiqish yoshi 65 yosh (Federal konstitutsiyaviy sud a'zolari uchun — 68 yosh).

**Prokuratura.** GFRda prokuratura 1818-yilda fransuz modeli bo'yicha huquqni muhofaza qilish funksiyalarini amalga oshiradigan hamda haqiqatni doimiy ravishda izlaydigan organ sifatida tashkil etilgan.

Nemis prokuraturasi tashkil etilishi va faoliyatining huquqiy asosi sifatida «Sud tuzilishi to'g'risida»gi Qonun, Prokuraturaning tashkiliy tuzilmasi to'g'risidagi nizom va Ichki tartib-qoidalari xizmat qiladi. Germaniyada prokuratura adliya organlari tizimiga kiradi va ijro etuvchi hokimiyatning ko'rsatmalariga bo'ysunadi. Federal darajada u federal adliya vaziriga, yerlar darajasida adliya organlarining yer boshqarmasiga bo'ysunadi. Shu bilan birga, u

ijro etuvchi hokimiyatning haqiqiy organi emas, chunki funksional jihatdan u huquqni muhofaza qiluvchi idora hisoblanadi.

Iyerarxiyaga asoslangan idora bo'lgan GFR prokuraturasining tashkiliy tuzilmasi sud tizimi tuzilmasi bilan bir xil bo'lib, federal va yerlar prokuratura organlariga bo'linadi. Yerlar sudlari va Federal oliy sud huzurida tegishli prokuraturalar tashkil etilgan. Uchastka sudlari huzurida prokuraturalar, odatda, tashkil etilmaydi. Ularni tashkil etish tegishli yerning qonun chiqaruvchisi vakolatiga kiradi va zarurat tug'ilganda amalga oshiriladi.

Federal Bosh prokuror Adliya vaziri taqdimnomasiga binoan hamda Bundestag roziligi bilan mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Xuddi shu tartibda boshqa federal prokurorlar tayinlanadi. Bosh prokuror ober-prokurorlarni tayinlaydi, ularga nisbatan ham Davlat xizmatchilari to'g'risidagi Qonun tatbiq etiladi. Prokuror lavozimiga tayinlanayotgan shaxsga nisbatan sudyalarga qo'yiladigan talablar bilan bir xil bo'lgan yuqori malakaviy talablar qo'yiladi. Mazkur lavozimlarni egallash uchun oliy yuridik ma'lumotga, uch yillik stajirovkaga hamda uch yildan besh yilgacha mutaxassislik bo'yicha tajribaga ega bo'lish lozim.

Umumiy olganda, GFRda Oliy sud huzuridagi Federal prokuratura; yerlarning oliy sudlari huzuridagi 24 prokuraturalar; yer sudlari huzuridagi 115 prokuraturalar faoliyat yuritadi. Uchastka sudlariga, asosan, prokurorlar va boshqa mansabdor shaxslar — amtsanvaltlar tayinlanadi. Ular prokuror huquqlaridan foydalanib, jinoyat ishlarini, keyinchalik ularni «o'z» sudida ko'rib chiqish uchun, qo'zg'atishga vakolatli bo'ladi. Amtsanvalt vazifalarini prokuror kuzatuv ostida ishlaydigan referendar (stajor) bajarishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, prokuraturalar Federal Adliya vazirligi tuzilmasiga kiradi, biroq sudlar huzurida bo'ladi. Tegishli Oliy sud huzuridagi Federal bosh prokuror, yerlar oliy sudlari huzuridagi prokurorlar, yerlar sudlari huzuridagi prokurorlar prokuratura bo'g'inlari hisoblanadi. GFR prokuraturasi markazlashtirish qoidalariga asoslanmaydi, chunki uning bo'g'inlari federal adliya organlariga ham, yerlar adliya organlariga ham bo'ysundilar. Bundan tashqari, prokuratura faoliyatining eng muhim muammolari aynan yerlar darajasida belgilanadi va hal qilinadi.

Prokurorlarni tayinlash federal darajada alohida tartibga sovinadi. «Sud tuzilishi to'g'risida»gi Qonunning 149-moddasiga

muvofig, federal prokurorlarni tayinlash uchun Adliya vazirligining taklifi, Bundestag roziligi va Prezidentning qarori zarur bo'ladi. Yerlar darajasida o'ziga xos tartib nazarda tutilgan.

GFR Oliy sudi huzuridagi prokuraturaning faoliyati «Sud tuzilishi to'g'risida»gi Qonunning 142- va 143(A)-§ bilan tartibga solinadi.

Uning tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- Federal Bosh prokuror va bo'limlar rahbarlari;
- federal prokurorlar, ober-prokurorlar;
- boshqaruv funksiyalarini bajaradigan shaxslar.

Federal Bosh prokuror Oliy sud joylashgan Karlsrue shahrida joylashadi. Unga Berlindagi Federal markaziy registr hamda Leypsigdagi Federal bosh prokuraturasining filiali bo'ysunadi. Yerlar darajasida federatsiya subyektining oliy sudi huzuridagi prokuraturaga Bosh prokuror, yer sudi huzuridagi prokuraturaga ober-prokuror rahbarlik qiladi. Tashkiliy jihatdan prokuraturaning mazkur muassasalari mustaqil organlar sifatida ko'riladi.

Germaniyada prokuratura uch asosiy vazifani bajaradi:

- *birinchidan*, jinoyatlarni tergov qiladi, ular bo'yicha jinoiy ta'qibni amalga oshiradi va sudda ayblovchi sifatida ishtirok etadi;
- *ikkinchidan*, sud protsessining tarafi bo'lmasdan, protsessning «beg'araz tarafi» sifatida ishtirok etadi;
- *uchinchidan*, sud qarorini ijro etish maqsadida tegishli xatti-harakatlarni amalga oshiradi, hukm ijro etilishi ustidan nazorat qiladi.

Prokuraturaning asosiy vazifasi — jinoiy ta'qibni amalga oshirishdir. Prokuratura zimmasiga mazkur ta'qiblarni boshlash, ish holatlarini aniqlash, dalillarni to'plash, tergovni tugatish to'g'risida qaror qabul qilish kabi vazifalar yuklatilgan.

Prokuror ayblanuvchini, guvohlarni, ekspertni so'roq qiladi, tintuv o'tkazish, ashyoviy dalillarni olish hamda boshqa harakatlarni bajarish bo'yicha politsiyaga ko'rsatmalar beradi. Prokuratura yoki ayblov e'lon qilib, sudga ommaviy da'voni berish orqali yoki ishni tugatish orqali tergov qilishni tugatadi.

Asosiy sud majlisida ishtirok etish, sudya qarori ustidan protest bildirish, sud qarorini ijro etish bo'yicha tegishli harakatlarni amalga oshirish kabi vazifalar prokuror zimmasiga yuklatiladi.

Tergov harakatlarida tergovchi-sudya ham muayyan tarzda ishtirok etadi. U politsiya yoki prokuratura yurituvida bo'lgan ishlar bo'yicha ayrim tergov harakatlarini amalga oshiradi. Odatda,

tergovchi-sudya vazifalarini uchastka sudyasi bajaradi. Tergovchi-sudyalar yuqori turuvchi sudlar, jumladan, Federal Bosh prokuratura tomonidan tergov olib boriladigan holatlarda tergovda ishtirok etadigan Federal oliy sudi huzurida bo'ladilar.

Amaliyotda oldin tergov, asosan, politsiya tomonidan amalga oshirilardi, prokuraturaning roli esa politsiya olib borgan tergovning materiallarini umumlashtirishdan iborat edi. Germaniyada o'tgan asrning 80-yillari boshida prokuraturaning roli ancha o'sdi. Uning tarkibida og'ir jinoyatlarni, davlat, siyosiy jinoyatlarni, ekologik jinoyatlarni, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni hamda patent va mualliflik huquqlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha maxsus bo'limlar tashkil etildi.

GFRda prokuratura huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini ham bajaradi. «Dastlabki tergov bosqichida qirolicha» bo'lgan prokuratura va politsiya bilan birgalikda jinoiy ta'qibni «prokuraturaning yordamchi xodimlari» amalga oshiradi. Ular qatoriga qo'riqlash politsiyasi, jinoyat politsiyasi xizmatchilari, shuningdek, boshqa davlat organlarining bir qator mansabdor shaxslari (ovchilik inspektorlari va boshq.) kiradi. «Federal prokuraturaning yordamchi xizmatchilari (xodimlari)» maqomi beriladigan xodimlar toifalari ro'yxati yerlar hukumatlari yoki yerlarning adliya organlari tomonidan belgilanadi. Politsiya xizmatlari orasida mazkur shaxslar toifalari prokuratura rahbarligida tergov olib borish bo'yicha keng vakolatlarga ega bo'ladi.

Prokuratura vakolati doirasiga fuqarolik huquqining ayrim masalalari ham kiradi: FPKga muvofiq, prokuror nikohni haqiqiy emas deb topish maqsadida da'voni qo'zg'atishga, shaxsni muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etishga, bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxsning vafot etganligini belgilash maqsadida chaqirib, ish yuritishni amalga oshirishga haqlidir.

**Advokatura.** Advokatlik faoliyati erkin professionallar qatoriga kiradi. Advokatlar tomonidan shirkatlar, sherik jamiyatlari hamda mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilishiga yo'l qo'yiladi, muayyan doirada reklama faoliyati bilan shug'ullanish ham mumkin. Advokat — bu professional mustaqil maslahatchi va barcha huquqiy ishlarda vakil. Har bir shaxs o'z xohishiga ko'ra, advokat xizmatidan foydalanishi va unga o'z manfaatlarini sudda yoki idorada himoya qilish bo'yicha topshiriq berishi mumkin. Advokat



tomonidan beriladigan yuridik maslahatning eng asosiy vazifalaridan biri kerak bo'lmagan protsesslardan chetda qolishdan iboratdir. Adliya vazirligining tadqiqoti ko'rsatishicha, ishlarning 70 % advokatlar tomonidan suddan tashqarida hal qilinadi, bu esa sudlar ishini ancha yengillashtiradi.

Advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanish uchun ruxsat tegishli yer boshqarmasi tomonidan beriladi. Mazkur ruxsatni berishni rad etish sabablari advokatura to'g'risidagi maxsus federal nizomlarida to'liq sanab o'tilgan; faoliyat yuritayotgan advokatlar soni bo'yicha cheklovlar nazarda tutilmagan. Qoida tariqasida, advokat muayyan sud huzurida fuqarolik ishlari bo'yicha advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsat oladi va aynan shu sud tomonidan ishlar ko'rib chiqilishida ishtirok etadi. Jinoyat ishlari bo'yicha esa himoyachi sifatida har qanday advokat Germaniya hududida joylashgan har qanday sudda ishtirok etishi mumkin. Nemis advokatlarining birlashmalari ancha yaxshi tashkil etilgan. Germaniyada Advokatlar ittifoqi (DAV), Advokatlarning federal palatasi va advokatlarning mahalliy palatalari bor.

Yer oliy sudining sud okrugida advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanish uchun qo'yilgan advokatlar *advokatlar palatasini* tashkil etadi. Federal oliy sud huzurida amaliyot bilan shug'ullanish uchun qo'yilgan advokatlar Federal oliy sud huzuridagi advokatlar palatasini tashkil etishadi. Advokatlar palatalari ommaviy huquq korporatsiyalari hisoblanadi. Palatada a'zo bo'lish, professional sug'urtadek, har bir advokat uchun majburiy bo'ladi. Federal oliy sud huzuridagi Advokatlar palatasi advokatlarning maqomi va vazifalarini tartibga soladigan hamda advokatning o'z mijozlariga, sudlarga va idoralarga nisbatan majburiyatlarini belgilaydigan normalar majmuasini (Advokatlar to'g'risidagi federal nizom) ishlab chiqdi. Advokat huquqning muayyan sohasida ixtisoslashadigan bo'lsa, unga tegishli unvon berilishi mumkin (masalan, soliq huquqi bo'yicha advokat). Ishlab chiqilgan normalarga rioya etilishi ustidan palatalar huzurida maxsus tarzda tashkil etilgan *advokatlar sha'ni sudlari* nazorat qiladi. Bundan tashqari, advokatlik gonorari to'g'risidagi alohida nizom bor, unda advokatlik xizmatlarining hajmiga va da'vo summasiga qarab, ushbu xizmatlarning minimal tariflari belgilab qo'yilgan. Biroq, advokat har doim o'z mijoz bilan yuqoriroq gonorarlarni nazarda tutadigan shartnomani tuzishi mumkin. Erishilgan natijalarga qarab, to'lanadigan gonorar haqidagi kelishuvlarga taqiqlanadi.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun universitet yuridik fakultetining bitiruvchisi uch-to'rt yil davomida sudlarda, prokurorlarda va advokatlarda stajirovka o'tashi, yer oliy sudi huzuridagi komissiya oldida bir qator imtihonlar topshirishi va bundan keyingina huzuridagi sudda amaliyot bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yerning adliya idorasidan tegishli ruxsatni olishi shart. GFRda har bir advokat u advokat amaliyoti bilan shug'ullanish uchun qo'yilgan muayyan yer oliy sudi yoki yer sudi huzurida o'z byurosini ochishga majbur bo'ladi. Muayyan yer oliy sudi okrugida faoliyat yuritayotgan advokatlar bitta (ayrim hollarda, agar ularning soni 500 dan ortiq bo'lsa — ikkita) advokatlar hay'atlarini tashkil etadilar. Oliy federal sudda ishlarni olib borish uchun qo'yilgan (maxsus komissiya tomonidan olib boriladigan juda jiddiy tanlovdan so'ng GFR Adliya vazirining qaroriga muvofiq) advokatlar alohida hay'atni tashkil etadi. GFRda mavjud bo'lgan barcha advokatlar hay'atlari *Federal advokatlar assotsiatsiyasiga* kiradilar. Mazkur assotsiatsiya, xususan, kam ta'minlanganlarga bepul yoki imtiyozli yuridik yordam ko'rsatish uchun choralar ko'radi<sup>1</sup>.

Ayblanuvchi birinchi so'roq qilinishidan boshlab, ishda ishtirok etish uchun taklif etilgan *himoyachi* jinoyat protsessual qonuni huquqlari bilan ta'minlangan. Biroq, qonunning o'zi himoyachining huquqlarini jiddiy ravishda cheklaydigan yoki ulardan foydalanishni istisno qiladigan qo'shimcha shartlarni nazarda tutadi.

Chunonchi, himoyachi qamoqqa olingan ayblanuvchiga xat-yozishmalarni yuborishga va u bilan uchrashishga haqli. Lekin terroristik tashkilotlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha himoyachining xat-yozishmalari majburiy tartibda tegishli sudya tomonidan nazorat qilinadi, uchrashuvlar esa yozma materiallar va predmetlar berilishining oldini olish uchun ajratuvchi oyna bilan jihozlangan maxsus turma xonalarida o'tishi mumkin (JPKning 148-§ 2-qismi). Ayrim hollarda mazkur toifa ishlari bo'yicha himoyachi va ayblanuvchi o'rtasida har qanday aloqalar taqiqlanishi mumkin. Himoyachi har qanday jinoyat ishi bo'yicha turmaga kelganida ma'muriy tartibda har bir tashrif buyurgan shaxs kabi tintuvdan o'tkazilishi mumkin; tintuv o'tkazilishni rad qilgan holda esa u

---

<sup>1</sup> Ф.М. Решетников. Правовые системы стран мира (Справочник). М., «Юридическая литература», 1993, стр. 57—65.

o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan uchrashuvga qo'yilmaydi. Surishtiruv jarayonida himoyachi jinoyat ishi materiallari bilan tanishishga haqli, biroq, materiallar bilan tanishishga ruxsat berilmasligi mumkin, agarda, prokuror fikricha, ish materiallari bilan tanishish tergov maqsadlari uchun xavf tug'dirayotgan bo'lsa. Prokurorning mazkur qarori ustidan shikoyat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Himoyachi faqat muayyan sud tergov harakatlarini o'tkazish chog'ida hozir bo'lishga haqli bo'lganligiga qaramasdan, yuqorida qayd etilgan tergov maqsadlari uchun xavf tug'dirilishi sababli ushbu huquqidan ham mahrum qilinishi mumkin. Mazkur holda himoyachi tergov harakatining o'tkazilishi vaqti va joyi haqida xabardor qilinmaydi (JPKning 168-§ 5-qismi). Surishtiruv jarayonida himoyachining huquqiy holatini baholashda nazariyada ta'kidlab o'tiladiki, ushbu bosqichda himoyachining holati uning oddiy hozir bo'lishidan iborat bo'ladi va shu tufayli unga qandaydir muhim huquqlar taqdim qilinmagan. Keyingi paytda dastlabki tergov bosqichida himoyachi huquqlari ancha kengaytirilishining zarurati haqidagi fikr advokatlarning aksariyati tomonidan bildirilmoqda.

German jinoyat sud ishlarini yuritishning umumiy konsepsiyasi nuqtayi nazaridan himoyachi protsessual holatining muhim o'ziga xos xususiyatlari aniq kuzatiladi. Asosli ravishda ta'kidlab o'tiladiki, german protsessining tuzilishi himoyachiga u anglosakson jinoyat protsessida egallaydigan markaziy o'rinni taqdim etmaydi. Germaniya JPKsi himoyachining sud majlisidagi huquq va majburiyatlarini muayyan tartibga soladi.

Sud majlisida himoyachi sudlanuvchining taklifi bo'yicha yoki majburiy himoya hollarda, xususan, ish birinchi instansiya bo'yicha yer oliy sudi yoki yer sudi tomonidan ko'rib chiqilganda, ishni ko'rib chiqish mazmuni jinoyat bo'lganida va boshqa ayrim holatlarda, tayinlash bo'yicha ishtirok etadi.

Biroq, himoyachi yordamidan foydalanish bo'yicha sudlanuvchining huquqi cheklanishi mumkin. 1974-yil 20-dekabr-dagi «Jinoyat protsessual huquqining islohoti to'g'risidagi birinchi qonunga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun oldin german jinoyat protsessiga ma'lum bo'lmagan himoyachini istisno etish institutini joriy etdi. Himoyachi sudda ko'rib chiqish predmeti bo'lgan jinoyatda ishtirok etishda, sudlanuvchiga jazodan qutulib qolishda yordam berish bo'yicha harakatlar sodir etishda, qamoqqa olingan o'zining himoyasi ostidagi shaxs bilan

muloqotda bo'lish huquqini jinoiy ravishda suiiste'mol qilishda gumon qilinayotgan bo'lsa yoki mazkur suiiste'mol qilish harakatlari qamoqda saqlash joylari uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan bo'lsa, u sud muhokamasidan chiqarilishi mumkin (JPKning 138a-§). Davlat jinoyatlari to'g'risidagi ishlar (masalan, davlat mudofaasiga tahdid solish, vatanga xoinlik qilish, tashqi xavfsizlikka tahdid solish) bo'yicha himoyachining protsessda ishtirok etishi GFR xavfsizligiga tahdid solayotganligi uchungina u protsessdan chiqarilishi shart (JPKning 138b-§). Himoyachini protsessdan chiqarish to'g'risidagi qaror yer oliy sudi tomonidan qabul qilinadi (JPKning 138c-§). Agarda protsessda oldin ishtirok etgan himoyachi chiqarilgan bo'lsa, sudlanuvchiga majburiy himoyani ta'minlash tartibida yangi himoyachi tayinlanishi zarur (JPKning 140-§ 1-qismi 8-bandi).

### 17.3. AQSH

AQSH davlat tuzilishi 1607—1776-yillarda Amerikada amalda bo'lgan ingliz mustamlaka tizimi davrlaridagi huquqiy negizlar va institutlardan boshlanadi. AQSH konstitutsiyaviy tamoyillari, bundan tashqari, shubhasiz, Buyuk fransuz burjua-demokratik inqilobidan oldingi davrning siyosiy-huquqiy g'oyalari ta'sirida ham shakllangan. Amerika huquqiy maktabi an'alariga muvofiq, AQSHda amalda bo'lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy, sud va boshqa organlarning ulkan, beso'naqay, sertarmoq va serqamrov, o'ta murakkab tizimi AQSH Konstitutsiyasi asosida shakllangan va faoliyat yuritadi, deb hisoblanadi<sup>1</sup>.

**Sud tizimi.** AQSHda federal sudlar va shtatlar sudlari faoliyat yuritadi. Federal sudlar AQSH hukumati tomonidan federal konstitutsiyaga hamda Kongress tomonidan qabul qilinadigan va statutlar deb nomlanadigan qonunlarga doir nizolarni hal qilish uchun tashkil etiladi. Shtatlar sudlari shtatlar, okruglar yoki shtatga kiradigan shaharlar tomonidan tashkil etiladi.

Shtatlar sudlarining asosiy vazifasi federal konstitutsiya va federal qonunlarning qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishdan iborat bo'lganligiga qaramasdan, aksariyat hollarda ular konstitutsiya va muayyan shtatning qonunlarini hayotga tatbiq etish bilan shug'ullanadi.

---

<sup>1</sup> С.В. Филиппов. Судебная система США. М., «Наука», 1980, стр. 3.

**A. AQSH sudlarining federal tizimi.** Konstitutsiyaning III moddasiga ko'ra, Kongress tomonidan quyidagi quyi turuvchi sudlar ta'sis etilgan:

- okrug sudlari (birinchi instansiya sudlari);
- o'z hududida okrug apellatsiya sudlari deb nomlanadigan (o'n ikkitasi hududiy prinsipga asosan taqsimlangan bo'lib, okrug sudlarining (birinchi instansiya sudlarining) qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi) o'n uchta oraliq yurisdiksiya apellatsiya sudlari;

- Federal yurisdiksiya apellatsiya sudi — xalqaro savdo, intellektual mulk (masalan, patent huquqi sohasida), davlat buyurtmalari, Qo'shma Shtatlar hukumatiga qarshi da'volar, shuningdek, faxriylar ishlari sohalarida umummilliy yurisdiksiyani amalga oshiradigan ixtisoslashgan apellatsiya sudi;

- ixtisoslashgan sudlar (masalan, tashqi savdo bo'yicha sud va boshqalar).

Federal sudlarning yurisdiksiyasi, shtatlar sudlarining yurisdiksiyasidek keng emas. Federal sudning yurisdiksiyasi Konstitutsiyada sanab o'tilgan muayyan turdagi ishlar bilan chegaralangan. Aksariyat hollarda federal sudlar taraflarning biri sifatida AQSH ishtirok etadigan ishlar, shuningdek, Konstitutsiya yoki federal qonunlarning buzilishiga hamda xorijiy diplomatlarga doir ishlarni yuritish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, federal sudlar bankrotlikka va dengizdagi insidentlarga oid maxsus sud ishlarini yuritish bilan shug'ullanadi hamda shtatlar qonunlari bilan bog'liq hamda turli shtatlardan taraflar jalb qilingan ishlarni hal qiladi.

Federal sudlar shtatlar sudlariga qaraganda, ancha kam ishlarni ko'rib chiqishiga qaramasdan, ular tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar umummilliy ahamiyatga ega bo'ladi, chunki mazkur ishlar federal qonunlarni hayotga tatbiq etish va federal huquqlarning himoyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Federal sudlar jinoyat ishlariga qaraganda ko'proq fuqarolik ishlarini ko'rib chiqadi. Sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyati Konstitutsiya bilan shtatlar vakolatiga kiritilganligi tufayli federal sudlar ko'proq jinoyat ishlari bilan emas, balki fuqarolik ishlari bilan shug'ullanadi.

Sudlarning federal tizimiga AQSH Oliy sudi, apellatsiya va okrug sudlari, shuningdek, maxsus sudlar kiradi. Federal sudlarning barcha sudyalari AQSH Prezidenti tomonidan Senat roziligi bilan tayinlanadi.

**Okrug sudlari** (ularning nomlanishi ba'zan «tuman sudlari» deb tarjima qilinadi) — federal sud tizimining asosiy bo'g'inidir. Mamlakatning butun hududi shtatlar o'rtasidagi chegaralarni hisobga olgan holda okruglarga bo'lib chiqilgan, shu sababli bir shtatda bittadan to'rttagacha okrug mavjud. Tegishli okrug sudlari AQSHning to'rt dengiz orti hududlarida ham tuzilgan. Hozirgi vaqtda hammasi bo'lib 95 ta okrug sudi bor, ularning har birida 2 tadan 27 tagacha sudya faoliyat yuritadi. Har bir sudning sudyalari apellatsiyalarni ko'rib chiqish va qarorlarni qabul qilish uchun, odatda, uch kishidan iborat tarkibda majlis o'tkazadilar.

Mazkur sudlarning faoliyatiga (sud tarkibida kamida uch sudya bo'lgan holda) ushbu lavozim bo'yicha eng katta ish stajiga ega bo'lgan hamda 70 yoshdan katta bo'lmagan sudyalar orasidan 7 yillik muddatga tayinlanadigan raislar rahbarlik qiladi. Umuman olganda, tuman bo'g'inining sudyalik korpusiga 575 nafar sudya kiradi.

Okrug sudlari huzurida *federal magistratlar* faoliyat yuritadi. Ular, asosan, ishlarni eshitishga tayyorlash hamda sud qarorlari ijro etilishi ustidan nazorat qilish bilan shug'ullanadi. Magistratlar kam ahamiyatli jinoyatlarni sodir etishda ayblash bo'yicha jinoyat ishlarini mustaqil ravishda ko'rib chiqishga haqli, agarda, ushbu jinoyatlar bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki 1000 dollargacha jarima bilan jazolanadigan bo'lsa hamda ayblanuvchi uning ishi okrug sudining sudyasi tomonidan ko'rib chiqilishini talab qilmasa.

Okrug sudlarining har biri huzurida ularning qo'shimcha organlari sifatida bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudlar ta'sis etilgan bo'lib, ularning zimmasiga mazkur ancha ko'p sonli ishlar toifasini ko'rib chiqish yuklatilgan. Ularning qarorlari ustidan shikoyatlar, qoida tariqasida, okrug sudiga berilishi mumkin.

Bankrotlik to'g'risidagi ishlarga nisbatan alohida tartib o'rnatilgan. Tuman federal sudlari mazkur ishlarni bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha maxsus tayinlangan sudyalarga o'tkazishi mumkin. Ular 14 yillik muddatga federal apellatsiya sudlari tomonidan tayinlanadi. Umuman olganda, mazkur sudyalik korpusni yiliga 350 mingga yaqin da'volarni ko'rib chiqadigan 230 nafarga yaqin sudya tashkil qiladi.

Jinoyat va fuqarolik protsesslarida sud majlisi kotibi ayblanuvchi, guvohlar, himoyachilar, ayblovchi, sudya va protsessning boshqa ishtirokchilari tomonidan aytilgan har bir so'zni stenogra-

fiya qiladi. Mazkur yozuvlar protsessning rasmiy, barcha uchun, jumladan, matbuot uchun ochiq bo'lgan bayonnoma sifatida hamda oliy sud instansiyasiga apellatsiya bo'lganida ishni qayta ko'rib chiqish uchun asosiy yozma materiallar sifatida xizmat qiladi.

Okrug sudyasi o'z qarorini qabul qilganidan so'ng yutqazgan taraf apellatsiya sudlarining biriga har qanday vaqtda apellatsiya berishga haqli bo'ladi.

**Apellatsiya sudlari.** Har bir apellatsiya sudi tarkibiga 4 tadan 23 tagacha sudya kiradi. Rais majburiyatlarini mazkur sudning tarkibida boshqalarga qaraganda ko'proq faoliyat yuritgan, biroq, 70 yoshga to'lmagan sudya bajaradi. Har bir apellatsiya sudining ishida AQSH Oliy sudining a'zolaridan biri ishtirok etadi (ular bitta-ikkita apellatsiya sudlariga biriktirib qo'yilgan). Birinchi 12 ta apellatsiya sudlari okrug sudlarining hukmlari va qarorlari, bir qator ma'muriy organlarning qarorlari ustidan (agar ularda huquqiy normalarning buzilganligi namoyon bo'lsa) keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadilar, shuningdek, birinchi instansiya sudi sifatida ayrim masalalar yuzasidan buyruqlar chiqaradilar. Qoida tariqasida, ishlar uch sudyadan iborat hay'atda ko'rib chiqiladi, biroq, apellatsiya shikoyati to'g'risida gap ketayotgan bo'l-masa, ular bir yoki ikki sudya tomonidan ham ko'rib chiqilishi mumkin. Apellatsiya sudi sudyalari va hay'atlari qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni muhokama qilish uchun, shuningdek, sudyalar o'rtasidagi munozaralarni hal qilish uchun apellatsiya sudlarining yalpi majlislari chaqiriladi. Apellatsiya sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlarning soni keskin ko'payishi munosabati bilan sud muhokamasida taraflarning so'zga chiqishlari ancha qisqartirildi yoki bir qator hollarda umuman bekor qilindi, ishlarni ko'rib chiqish jarayonini qisqartirish uchun boshqa chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

Federal apellatsiya sudlarining sudyalari Prezident tomonidan Senatning maslahati va roziligi bilan umrbod tayinlanadi. Ularning tarkibiy soni 4 tadan 23 ta sudyagacha o'zgarib turadi. Oliy sud ko'rsatmasi bo'yicha uning raisi va sudyalari sud ishida tanaffus bo'lgan paytida vaqtincha okrug apellatsiya sudlariga jo'natilishi mumkin. Ushbu sudlarning faoliyatiga lavozim bo'yicha eng ko'p ish stajiga ega bo'lgan hamda 70 yoshdan katta bo'lmagan sudyalar orasidan 7 yillik muddatga tayinlanadigan Bosh sudyalar rahbarlik qiladi.

Hududiy apellatsiya sudlari okrug (tuman) sudlarining qarorlari ustidan beriladigan apellatsiyalarni ko'rib chiqadilar,

AQSH Oliy sudining sudloviga tegishli bo'lgan ishlar bundan mustasno. Bundan tashqari, apellatsiya sudlari Soliq ishlari bo'yicha sudning qarorlarini hamda kvazisud funksiyalariga ega bo'lgan mustaqil agentliklarning qarorlarini qayta ko'rib chiqadilar.

Ular, asosan, tuman sudlarining qarorlarini tekshiradilar, shuningdek, ayrim ma'muriy (kvazisud) organlarining (Mehnat munosabatlari milliy boshqarmasi va boshq.) qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadilar. Ishlar kamida uch sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqiladi, sudyalarning biri bosh sudyaya tomonidan tayinlanadi. Kolumbiya federal okrugining Apellatsiya sudi alohida yurisdiksiyaga ega. Federal apellatsiya sudlari boshlang'ich yurisdiksiyaga ega bo'lmaydi.

**Ixtisoslashtirilgan federal sudlar.** Umumiy sudlar tizimi bilan bir qatorda, bir necha ixtisoslashtirilgan federal sudlari ham mavjuddir. *Pretenziyalar* sudi muhim o'rinni egallaydi. Mazkur sud xususiy shaxslar va korporatsiyalarning AQSH hukumatiga nisbatan shartnomalarning buzilishi natijasida yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi va boshqa bir qator asoslar bo'yicha 10000 dollardan ortiq miqdordagi fuqarolik da'volarni ko'rib chiqadi.

*Tashqi savdo bo'yicha sud.* Bu sud to'qqiz sudyadan iborat tarkibda ish yuritib, yakka tartibda qaror chiqarishlari mumkin va ular sudning shtab-kvartirasi joylashgan Nyu-York shahrida yoxud zarur hollarda AQSHning boshqa port shaharlaridan birida ish ko'rishadi. Turli ixtisoslikdagi boshqa federal sud muassasalari qatorida, xususan, Soliq sudi ham bo'lib, u federal soliqlar miqdorini belgilash va ularni to'lash bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqadi.

Mazkur sudlar uzil-kesil hukmlarni va qarorlarni qabul qilish huquqini ko'zda tutuvchi alohida vakolatlarga ega. Biroq, ushbu barcha hukmlar va qarorlarga nisbatan AQSH Oliy sudining apellatsiya yurisdiksiyasi saqlanadi.

**Maxsus yurisdiksiya sudlarining vakolatlari.** Xalqaro savdo ishlari bo'yicha federal sud xalqaro savdo va bojxona to'lovlari masalalari bo'yicha nizolarni ko'rib chiqadi. U Prezident tomonidan umrbod tayinlanadigan 9 sudyadan iborat bo'ladi.

Federal pretenziya sudi federal hokimiyat organlarining harakatlari bilan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi fuqarolar va xususiy korxonalarining shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Mazkur sudga boshqa davlatlarning hukumatlari va fuqarolari murojaat etishi mumkin, agarda ushbu davlatlarda xuddi shunday huquq



AQSH fuqarolariga taqdim etilgan bo'lsa. Sud tarkibiga Senatning maslahati va roziligi bilan Prezident tomonidan 15 yillik muddatga tayinlanadigan 16 nafar sudya kiradi. Federal pretenziya sudi orqali juda ko'p ishlar o'tadi — eng kattalardan (masalan, hukumat tomonidan tuzilgan shartnomani bekor qilish bilan bog'liq holatda) eng kam ahamiyatli ishlargacha (g'ayriqonuniy ishdan bo'shatishda majburiy progul uchun haq to'lash). Ushbu sudda federal hukumat muayyan ishning tarafi bo'lib, qandaydir qo'shimcha imtiyoz va huquqlarga ega bo'lmaydi.

Federal soliq sudi soliq to'lovchilar va Federal soliq xizmati o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqadi. Sud Prezident tomonidan 15 yillik muddatga tayinlanadigan 19 sudyadan iborat bo'ladi.

**Sudyalarning o'zini o'zi boshqarish organlari.** Ko'rsatilgan sudlardan tashqari, federal sud tizimi o'z ichiga sud tizimi doirasida ma'muriy masalalar hal qilinishini ta'minlaydigan sudyalarning o'zini o'zi boshqarish alohida organlarini qamrab oladi, bu esa ushbu tizimning ijro hokimiyatidan yuqori darajali mustaqilligini ta'minlaydi. Ushbu organlar tizimi okrug darajadagi ham, umummilliy darajadagi ham sud kengashlari va sud konferensiyalaridan iborat bo'ladi.

Okrugning sud kengashi okrug bosh sudyasi, bir necha okrug sudyalari va kamida ikki tuman sudyalaridan iborat bo'ladi. Kengash turli ma'muriy qarorlarni, xususan, sudlar ishining bir xilligini ta'minlash maqsadida sudyalar o'rnini almashtirish to'g'risidagi qarorni qabul qilishga haqli bo'ladi.

Okrugning sud konferensiyasiga barcha okrug va tuman sudyalari, bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudlarning sudyalari, ko'rsatilgan sudlarning oliy xodimlari, shuningdek, advokatlarining ayrimlari kiradi. Ular har yili sud amaliyotini takomillashtirish bo'yicha dasturlarni muhokama qilish uchun yig'iladilar.

Umummilliy darajada sud konferensiyasi Oliy sud raisi, federal apellatsiya sudlarining 13 ta raisi va o'z okruglari bo'yicha 3 yillik muddatga saylanadigan 12 tuman sudyalaridan iborat bo'ladi. Konferensiya sud tuzilishi muammolarini muhokama qilish hamda qonunchilikni o'zgartirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish uchun yiliga kamida bir marta yig'iladi.

Hokimiyat sud tarmog'ining Kongress tomonidan ta'xis etilgan asosiy ma'muriy bo'linmalari quyidagilardan iborat: sudyalar maslahat kengashi; AQSH sud tizimining ma'muriy boshqaruvi; federal sud markazi; sudyalarning okrug kengashlari. Sudlar

faoliyatini ta'minlash bo'yicha ma'muriy funksiyalarni Federal sudlarning ma'muriy xizmati bajaradi, mazkur xizmatning direktori AQSH Oliy sudi tomonidan tayinlanadi.

Umuman olganda, federal sud tizimi yuqori darajali markazlashtirish bilan ta'riflanadi, buning sababi sudlar tashkil etilishining yagona asosi hamda quyi turuvchi sudlarni yuqori turuvchi sudlar qarorlariga bo'ysunishga majbur qiladigan *staire decisis* prinsipining amal qilishidir.

**AQSH Oliy sudi. Faoliyati tartibi.** AQSH Oliy sudi mam-lakatning oliy sud instansiyasi hisoblanadi. Quyi turuvchi sudlarning qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlar bo'yicha mazkur sud chiqargan qarorlar bilan boshqa barcha federal sudlar va sudlar tomonidan Konstitutsiya va federal qonunlarni sharhlashda rioya etilishi shart bo'lgan sud presedentlari o'rnatiladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, Oliy sud bosh sudya va sakkiz birlashgan a'zodan iborat bo'ladi. Barcha federal sudyalari kabi ko'rsatilgan sudyalari Senatning tavsiyasi va roziligi bilan Prezident tomonidan tayinlanadi. Apellatsiya sudlaridan farqli ravishda, Oliy sud har doim to'liq tarkibda majlis o'tkazadi. Hamma ishlarning muhokamasi sudning barcha to'qqiz a'zosi ishtirokida bo'lib o'tadi.

Oliy sud a'zolarining yuqori ijtimoiy nufuzi, ularning nisbiy siyosiy mustaqilligi va daxlsizligi bois sudyalarni almashtirib bo'lmasligi borasidagi konstitutsiyaviy prinsipidan foydalangan holda o'z lavozimlarini umrbod saqlab qolishga sababchi bo'lmoqda. Oliy sudda bo'sh lavozimlar, asosan, sudyalarning vafot etganligi natijasida va kam hollarda ularning o'z xohishiga ko'ra ketishlari tufayli (yangi lavozimga tayinlanganligi, pensiyaga chiqishi munosabati bilan va h.k.) paydo bo'ladi.

AQSH Oliy sudi faoliyatining tartibi va sud ichki ishining tashkil etilishi kongress qonunchiligi (birinchi navbatda, sud tuzilishi to'g'risidagi qonunlar bilan), vaqti-vaqti bilan Oliy sud tomonidan tasdiqlanadigan Oliy sudning reglamenti, shuningdek, amaliyotning o'zida shakllangan ayrim an'analar bilan belgilanadi.

Oliy sud sessiya tartibida ish yuritadi. Sud sessiyasi oktabrning birinchi dushanbasida boshlanadi va, odatda, keyingi yilning iyun oyida tugaydi. Oliy sud faoliyatiga federal qonunchiligi va sudning o'zi tomonidan qabul qilingan qoidalarga asosan ish olib boradigan rais rahbarlik qiladi. Federal sudlarda «Qo'shma Shtatlarning manfaatlarini» himoya qilish uchun Senatning maslahati va ruxsati bilan Prezident tomonidan tayinlanadigan Bosh solisitor Oliy

sudning faoliyatida alohida rol o'ynaydi. Bosh solisitor majburiyatlari qatoriga huquq masalalari bo'yicha sudlarga maslahat berish kiradi. Biroq, Bosh solisitorning fikrlari majburiy kuchga ega emas.

Oliy sud ko'rsatilgan ishlarning qaysilari ishni talab qilib olish to'g'risidagi buyruq orqali yoki apellatsiya sudining sertifikatini bo'yicha unga ko'rib chiqish uchun kelib tushishi lozim bo'lganligini o'zi belgilaydi.

Shtatlar oliy sudlarining qarorlari ustidan apellatsiya berish huquqi ham cheklangan. Hozirgi kunda Qo'shma Shtatlarning shartnomasi yoki qonunining huquqiy kuchi, shuningdek, federal huquqqa asoslangan maqom, imtiyozlar yoki immunitet masalalari shubha ostiga olingan hollarda yoxud shtatning qonuni Qo'shma Shtatlarning Konstitutsiyasiga, qonunlariga yoki shartnomalariga zid bo'lganligi tufayli uning qonuniy kuchi shubha ostiga olingan hollarda AQSH Oliy sudi tegishli ishlarni talab qilib oladi va ko'rib chiqadi.

Oliy sudga kelib tushadigan ishlarning ko'p bo'lganligi ularni tanlash bo'yicha muayyan mezonlar ishlab chiqilishini talab qildi.

Birinchi navbatda, da'vo predmeti Oliy sudning yurisdiksiyasiga tegishli bo'lishi shart («federal masala»ning mavjudligi). Keyin esa taraflar o'rtasida «haqiqiy nizo» mavjud bo'lishi zarur. Sud har xil taxminlarga asoslangan gipotetik holatlarni ko'rib chiqmaydi. Da'vogar huquqiy jihatdan ishning natijasidan ancha manfaatdor bo'lishi, protsessual huquq layoqatiga ega bo'lishi, u himoya qilayotgan manfaat hamda da'vo predmeti o'rtasida «mantiqiy aloqa»ning mavjudligini isbotlashi zarur. Da'voni rad etish uchun asos sifatida «siyosiy masala» xizmat qilishi mumkin: u, Oliy sudning fikricha, suddan tashqari tartibda hal qilinishi lozim.

Ishni yurituvga qabul qilish to'g'risidagi qaror AQSH Oliy sudining kamida to'rt sudyasi ovozi bilan qabul qilinadi.

Ish Oliy sudning yurituviga qabul qilingan taqdirda, sud tavsiyalar yoki fikr bildirish bilan cheklanishga haqqi yo'q. Ish mazmunan hal qilinishi zarur. Ish bo'yicha qaror rais yoki uning topshirig'iga muvofiq, Oliy sud sudyalardan biri tomonidan tayyorlanadi. Aksariyat tomonidan qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan sudyalar yakka tartibda yoki birgalikda alohida fikr (*dis-sent opinion*) tayyorlashlari mumkin. Sudyalardan biri mazmunan bo'yicha e'tirozlarga ega bo'lmasdan, ish bo'yicha qarorning asoslantirilishidan norozi bo'lgan holda «to'g'ri keladigan fikr» (*concurrent opinion*) taqdim etishi mumkin.

Oliy sud sud organlari iyerarxiyasida oliy o'rinni egallaydi, hokimiyat organlari tizimidagi o'z maqomi bo'yicha esa Kongress va Prezident bilan teng bo'ladi. Oliy sud doimiy ravishda o'zining «ko'zda tutilayotgan vakolatlari»ni ochadi, bu esa uning vakolatlar doirasini ancha kengaytiradi va jamiyatdagi rolini kuchaytiradi.

AQSH Oliy sudi tarkibida hay'atlar nazarda tutilmaganligi tufayli barcha sudyalalar har bir ishning ko'rib chiqilishida ishtirok etadilar; Oliy sudning ishi oshib-toshib yotishidan «ish ko'rib chiqilishining yozma shakli» deb nomlanadigan tartib qutqaradi, ushbu tartib doirasida ish sud tomonidan taraflarni chaqirmasdan, guvohlarni so'roq qilmasdan va protsessni cho'zadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmasdan ko'rib chiqiladi. Qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinib, uzil-kesil tusga ega bo'ladi; har bir sudya ko'pchilik qaroridan norozi bo'lsa, o'zining alohida fikrini e'lon qilishga haqli bo'ladi. Sudning diskretсион vakolatlari hajmi juda katta: u o'z xohishiga ko'ra, ya'ni ishda «prinsipial tusdagi federal masala»ni topgan bo'lsa, o'z ish yurituviga ishlarning aksariyatini qabul qilishi mumkin. Muayyan nizo bo'yicha qaror qabul qilish qonun chiqaruvchi yoki ijro etuvchi organlarning vakolatiga kiradigan bo'lsa, sud ushbu nizolarga oid ishlarni ko'rib chiqmaslikka harakat qiladi.

Oliy sud oliy apellatsiya instansiyasi vazifalarini bajarib, huquq masalalari nuqtayi nazaridan ham, fakt masalalari nuqtayi nazaridan ham quyi turuvchi sudlarning hukmlari va qarorlarini tekshiradi. Oliy sud tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko'rib chiqiladigan ishlarning soni, umuman olganda, ko'p emas.

Oliy sudning asosiy funksiyasi — bu Konstitutsiyani buzishda ayblash bilan bog'liq sud ishlari bo'yicha qarorlarni qabul qilishdir. Ishlarning aksariyati fuqarolik huquqlar buzilishi holatlariga oid bo'ladi. Oliy sud Qo'shma Shtatlar Sudyalari maslahat kengashi tavsiyasi bo'yicha quyi turuvchi sudlar uchun sud ishlarini yuritish qoidalarini hamda ashyoviy dalillarni ko'rib chiqish tartibini qabul qilishi mumkin.

Har yili sudga kelib tushadigan ishlarning soni ko'p bo'lganligi hamda kelib tushgan ishlarning umumiy sonidan sudyalalar to'liq hajmda ko'rib chiqish uchun o'z xohishiga ko'ra, ishlarning kamroq sonini tanlash imkoniyatiga ega bo'lganligi (oxirgi yillarda ishlarning umumiy sonidan taxminan 7 % ko'rib chiqiladi) munosabati bilan sudyalalar uzoq vaqt davomida mazkur ishlar bilan dastlab tanishishga majbur bo'ladi. Ishlarni sud tomonidan ko'rib

chiqish uchun qabul qilish to'g'risidagi uzil-kesil qaror chiqarish yoki tegishli iltimosnomalarni keyinga qoldirish sudyalarning yopiq kengashlarida amalga oshiriladi, mazkur kengashlar, odatda, butun sessiya davomida kunning ikkinchi yarmida chorshanba va juma kunlari o'tkaziladi.

Federal sudlarda hukumatning vakili bo'lgan AQSH Bosh solisitori ishlarni «suzg'ichdan o'tkazishda» sudyalarning pozitsiyasiga muhim ta'sir o'tkazadi. Bosh solisitor ustidan Oliy sudga shikoyatlar keltirilgan ishlarga nisbatan hukumatning rasmiy nuqtayi nazarini ifoda etib, uning fikricha, siyosiy-huquqiy jihatdan dolzarb bo'lgan va ishonchli sud muhokamasini talab qiladigan masalalarning kun tartibiga kiritilishi uchun harakat qiladi. «Suzg'ichdan o'tkazish» jarayoni natijasida bitta sessiya davomida ko'rib chiqish uchun sud tomonidan taxminan 100—150 ta ish qoldiriladi.

Agarda ish ko'rib chiqish uchun sud tomonidan qabul qilingan bo'lsa, uni eshitishga tayinlashdan oldin taraflarning advokatlari ularning yordamida sudni o'z tomoniga og'dirmoqchi bo'lgan yuridik dalil-isbotlarni, shu jumladan, oldingi sud qarorlari ro'yxatini o'z ichiga qamrab oladigan o'ziga xos rezyume shaklidagi ishning qisqacha bayonini taqdim etishlari zarur. Da'vogar 40 kun davomida o'z da'vo arizasining 40 ta nusxasini sudga taqdim etadi, javobgar tomonidan rezyume esa keyinchalik, 30 kun o'tgandan keyin bayon qilinishi lozim. Ishning ko'rib chiqilishi kunning birinchi yarmida sud majlislari uchun maxsus zalda o'tadi.

Og'zaki dalil-isbotlar uchun vaqt, odatda, bir soat bilan chegaralanadi (taraflarning har biri uchun yarim soatdan). Agar protsessda taraflarning biri Qo'shma Shtatlar bo'ladigan bo'lsa, ular nomidan Bosh attorney faoliyat yuritadi, biroq, aslida ishda Bosh solisitor ishtirok etadi, u esa o'zi chiqish qilishi yoki buni uning apparatiga kiruvchi xodimlardan biriga topshirishi mumkin. Muddat tugagunicha besh daqiqa oldin gapirayotgan shaxs oq lampochka yoqilishi bilan ogohlantiriladi. Qizil chiroq yoqilganda u o'z so'zini darhol tugatishi shart, chunki rais unga faqat boshlangan jumlanigina tugatishga ruxsat beradi.

Oliy sud reglamenti belgilashicha, og'zaki dalil-isbotlardan yozma dalil-isbotlarni eshitish va aniqlashtirish maqsadida foydalanish mumkin, advokatlar har doim taraflarning qisqacha ma'lumotlarida aks ettirilgan dalil-isbotlar bilan sudyalar oldindan tanishishidan kelib chiqishlari shart.

Sudyalar istagan paytda gapirayotgan advokatni o'z replikalari yoki savollari bilan to'xtatib qo'yishlari mumkin, shuning uchun advokat, nafaqat, yuridik tajribaga ega bo'lishi, balki hozirjavoblik bilan ajralib turishi ham lozim.

Odatda, ishning sud majlisida eshitalishi boshlanishi hamda sud qarori chiqarilishi o'rtasida bir necha oylar o'tadi.

Eshitilgan ishlar bo'yicha qarorlar sudyalar tomonidan maxsus maslahatxonada chiqariladi, mazkur xonada maxfiylik saqlanib, unda, sudyalardan tashqari, boshqa shaxslarning hozir bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sudning sir tutiladigan qarorlari chiqarilishida, uning majlislaridagidek, bosh sudya raislik qiladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, agarda u o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan bo'lsa yoki mazkur lavozim bo'sh bo'lsa, uning funksiyalarini eng uzoq muddat davomida sudda ishlayotgan sudya bajaradi. Raislik qiluvchi maqomi o'z-o'zidan bosh sudyaga muayyan qo'shimcha imkoniyatlarni beradi hamda amerikalik yuristlar ta'kidlashicha, raislik qiluvchining ish bo'yicha pozitsiyasi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Aynan u ishning muhokamasini boshlaydi, muayyan holatlarni ajratadi va ko'rib chiqilayotgan ish hal qilinishining huquqiy chegaralarini umumiy ko'rinishda belgilaydi. Tabiiyki, sud raisining yopiq majlislar o'tkazish hamda qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri ko'p jihatdan uning shaxsiy fazilatlarini va sudyalar o'rtasidagi obro'si bilan belgilanadi.

Ish bo'yicha qaror qabul qilish formal jarayonining o'zi sudning yopiq majlislarida sudyalarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qaror chiqarishdan iborat bo'ladi. Qaror oshkora e'lon qilinguniga qadar, har bir sudya o'z ovozini o'zgartirishi mumkin.

Oliy sud oliy apellatsiya instansiyasi sifatida qarorlarni qabul qiladi, biroq, mazkur qarorlarning muayyan qismi quyi turuvchi sud chiqargan qarorini tasdiqlashga yoki bekor qilishga bag'ishlangan bo'ladi.

Ko'p hollarda, eng muhim va «e'tiborga molik» ishlar bo'yicha bosh sudya o'zining konvensional huquqidan foydalanib, sud qarorini tayyorlashni o'z zimmasiga oladi, ayrim hollarda esa u qarorni tayyorlash bo'yicha majburiyatlarni sudyalar o'rtasida ma'lum darajada teng ravishda taqsimlashga harakat qiladi.

Topshiriqqa muvofiq, sud qarorini yozishga majbur bo'lgan sud a'zosi boshqalar o'rtasida aylanadigan loyihani tayyorlaydi. Aynan shu vaqtda boshqa sudyalar loyiha muallifiga qo'shilishlari

yoki, aksincha, rozi emasligini bildirishlari va alohida fikr yozishni boshlashlari mumkin. Qoida tariqasida, sud qarorini tayyorlagan sudya sudning boshqa a'zolari fikrini va pozitsiyasini inobatga olishga hamda ustomonlik qilishga majbur bo'ladi, chunki, aks holda, oldin shakllangan hamfikirlik buzilishi mumkin. Shu tufayli ko'pincha qaror loyihasiga ko'plab o'zgartirishlar kiritiladi, u bir necha marta qayta yoziladi (ayrim hollarda 10—15 marta) va muayyan hollarda tanib bo'lmaz darajada o'zgarib ketadi.

Ko'plab hollarda bir necha oylarga cho'ziladigan sud qarori matni kelishilishi jarayoni oxirigacha yetkazilgandan so'ng qaror sudning ochiq majlisida e'lon qilinadi. Uzoq vaqt ichida sud qarorlarini dushanba kunlari («qarorlar dushanbalari») e'lon qilish an'anasi shakllangan, biroq, oxirgi o'n-yillikda qarorlar haftaning boshqa kunlarida ham e'lon qilinmoqda.

Sudyalarning kundalik ishini tashkil etish uchun Oliy sud huzurida xizmatchilar shtati mavjud bo'lib, u kutubxona va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni inobatga olgan holda, umuman, 300 kishidan iborat. Har bir sudyaning ofisiga besh xizmatchi kiradi: kotib, xat tashuvchi va uch klerk. Bosh sudya yana bir qo'shimcha klerkga ega bo'ladi. Sud raisi bosh sudyaning topshiriqlariga muvofiq, o'z majburiyatlarini bajaradigan ma'muriy yordamchini tayinlashga haqli.

Oliy sud a'zolari sudlov majburiyatlarini bajarishda o'z yordamchilari sifatida eng nufuzli yuridik fakultetlarning (Garvard, Yel va h.k.) bitiruvchilari orasidan tanlanadigan klerklardan foydalanadilar.

Klerklar o'z ish vaqtining katta qismini quyi turuvchi sudlarning qarorlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida sudga kelib tushgan iltimosnomalarni ko'rib chiqishga va ular bo'yicha tegishli ma'lumotnomalarni — o'z sudyalari uchun tavsiyalarni tayyorlashga bag'ishlashadi. Shuningdek, klerklar sudyalar tomonidan keyinchalik o'z yozma fikrlarini tayyorlashda foydalanadigan presedent va boshqa huquqiy materiallarni yig'ib qo'yadilar.

Sudning klerklaridan xizmat sirini saqlash va siyosiy odob chegarasidan chiqmaslik talab qilinadi.

**Sudyalarni tanlash va tayinlash mexanizmi.** Senatning maslahati va roziligi bilan Prezident tomonidan amalga oshiriladigan sudyalarni tanlash va tayinlash jarayoni huquqiy tusga emas, balki siyosiy tusga ega bo'ladi.

Sudyalarni tayinlashda Prezident nomzodlarning diniy mansubligini va ularning millatini inobatga oladi hamda ulardan

o'z siyosiy maqsadlarda foydalanadi, shuningdek, taqdim etilgan nomzodlar qayerda ta'lim olganliklari (nufuzli universitetdami) bilan birga ularning siyosiy qarashlari ham inobatsiz qolmaydi. Ochilgan bo'sh joylarga yangi sudyalarni tayinlash haqidagi uzil-kesil qaror Prezident tomonidan qabul qilinayotganligi mazkur qaror Prezidentning shaxsiy va siyosiy jihatdan nazorat qilinmaydigan alohida vakolatining natijasi bo'lganligi to'g'risida fikr yuritish uchun asos emas.

Sudyalikka nomzodlarni tanlashda Prezident, odatda, o'z mahkamasining a'zolari va, birinchi navbatda, Bosh attorney bilan maslahatlashadi. Ko'plab hollarda Bosh attorney nomzodlarning dastlabki ro'yxatini Prezidentga taqdim etadi, ular bo'yicha barcha zarur ma'lumotlarni yig'adi (jumladan, FBR yordamida) va Prezidentga uzil-kesil tavsiyani beradi.

Bir qator hollarda Prezidentning Oliy sud a'zolari, birinchi navbatda, Bosh sudya bilan maslahatlashishi ham muhim rol o'ynaydi.

Sudyalik lavozimiga nomzod tayinlash uchun nomzodni tanlashda Prezident nomzod a'zo bo'lgan partiya siyosiy rahbarlarining, shuningdek, u siyosiy yoki sud sohasi bo'yicha ish yuritadigan shtat senatorlarining «qo'llab-quvvatlaymiz» degan va'dasini olishi lozim.

Sudni kadrlar bilan to'ldirishda senat ham bevosita ishtirok etadi. Amerika tadqiqotchilari ta'kidlashicha, Oliy sudga tayinlash uchun 140 nafar nomzoddan 28 nafari senat tomonidan rad etiladi.

**AQSH Oliy sudi vakolatlarining konstitutsiyaviy doirasi va sud konstitutsiyaviy nazorati.** AQSH Konstitutsiyasi Oliy sud vakolatlari doirasini faqat umumiy shaklda belgilab, uning yurisdiksiyasini boshlang'ich va apellatsiya turlariga bo'ladi. Boshlang'ich yurisdiksiyasiga tegishli bo'lgan ishlarning ro'yxati Konstitutsiya matnida to'liq ko'rsatilgan, shu tufayli, Oliy sud sharhlariga muvofiq, mazkur yurisdiksiya sud tomonidan bevosita amalga oshirilishi mumkin, chunki kongress uni tartibga solish bo'yicha vakolatlarga ega emas. Biroq, amaliyotda sudning boshlang'ich yurisdiksiyasi kongress tomonidan tartibga solinadi (sud tuzilishi to'g'risidagi qonunchilik).

Hozirgi paytda Oliy sudning mutlaq istisno yurisdiksiyasi quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Ikki yoki bundan ortiq shtatlar o'rtasidagi nizolar.

2. Elchilar yoki xorijiy davlatlarning boshqa diplomatik vakillariga nisbatan qo'zg'atilgan ishlar, agarda, ularga xalqaro huquq nuqtayi nazaridan yo'l qo'yilayotgan bo'lsa.



Oliy sudning apellatsiya yurisdiksiyasi (boshlang'ichdan farqli ravishda) Konstitutsiyaning o'zida bevosita belgilanmagan, shu sababli uning hajmini belgilash kongress vakolatlariga kiradi. Konstitutsiyaning aniq mazmunidan kelib chiqib, kongress Oliy sudning apellatsiya yurisdiksiyasini belgilaganida federal sud hokimiyatining vakolatlari doirasidan chiqib ketmasligi kerak.

Aynan apellatsiya yurisdiksiyasi Oliy sud tomonidan uni AQSHning haqiqiy faoliyat yuritayotgan oliy sud instansiyasiga aylantiradigan eng asosiy konstitutsiyaviy vakolatlarini hamda Konstitutsiyadan tashqari egallangan sudlov vakolatlarini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, sud ishlari ustidan AQSH Oliy sudiga uch apellatsiya shaklidan biri orqali shikoyat berilishi mumkin: *apellatsiya, sertiorari, sertifikat*.

**Apellatsiya** quyi turuvchi federal sudlarning yoki shtat oliy sudining qarori ustidan shikoyat keltirgan taraf tomonidan beriladi va hech bo'lmaganda formal ravishda apellantga uning ishi Oliy sudga (faktik tarkibi yoki huquqiy asoslari bo'yicha) qayta ko'rib chiqilishi huquqini taqdim etadi.

**Sertiorari** — bu ishning Oliy sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan shikoyat berishning yana bitta shakli, biroq manfaatdor tarafning petitsiyasi ko'rib chiqilishidan so'ng ishning talab qilib olinishi faqat sudning ixtiyori bo'yicha muhim sabablar mavjud bo'lgan holda amalga oshirilishi mumkin.

**Sertifikat** — bu muayyan ish ko'rib chiqilishi jarayonida kelib chiqqan noaniq yoki munozarali huquqiy masala bo'yicha fikr bildirish to'g'risidagi apellatsiya sudining Oliy sudga yo'llangan iltimosidir. Mazkur holda Oliy sud yoki qo'yilgan savollarga javob berishi yoki ishning o'zini o'z ish yurituviga talab qilib olishi va uni keyinchalik to'liq hajmda ko'rib chiqishi mumkin. Apellatsiya va sertioraridan farqli ravishda, mazkur shakldan Oliy sud ancha kam hollarda foydalanadi.

Oliy sudning fikricha, sud hokimiyatining uni qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlaridan ajratib turadigan atributlarining biri sifatida, sud qarorining uzil-kesil xarakteri xizmat qiladi.

**Sud konstitutsiyaviy nazorati instituti.** Sud nazoratining shakllanishi va rivojlanishi, uning Amerika konstitutsiyaviy amaliyotining o'ziga xos institutiga aylanishi Oliy sudning faoliyati, uning eng muhim qarorlari bilan bevosita bog'liq.

Sud konstitutsiyaviy nazorati instituti Oliy sud tomonidan kongress qabul qilgan qonunlarning AQSH Konstitutsiyasiga muvofiqqligini tekshirishdangina iborat emas. Sud konstitutsiyaviy nazorati yuridik nuqtayi nazaridan ikki asosiy shaklda ifodalangani — bu shtatlar huquqiy hujjatlarining konstitutsiyaga mosligini tekshirish hamda Oliy sudga oliy va o'z yuridik oqibatlarini bo'yicha uzil-kesil qarorni qabul qilishga yordam beradigan shtatlar va federatsiya mansabdor shaxslari xatti-harakatlarining konstitutsiyaga mosligini tekshirishdir.

Sud nazorati va u bilan bog'liq Oliy sudning o'ziga xos hokimiyat vakolatlari — bu Amerika konstitutsiyaviy va aslida amalda bo'lgan konstitutsiyaviy mexanizmi butun tizimining tarkibiy va ajralmas qismidir. Shuningdek, Oliy sud «konstitutsiyaviy g'oyaning» tarqatuvchisi, «konstitutsiyaviy tizimni himoyalashda oxirgi tayanch», «Konstitutsiyaning vijdoni» va h.k. sifatida ko'riladi.

Shunday qilib, AQSH Oliy sudi Konstitutsiya orqali yoki undan tashqari o'zining 200 yildan ortiq davrni qamrab oladigan tarixi davomida sud hokimiyatini istisno holatga qo'yishga va mazkur hokimiyat AQSHning amaldagi huquqiy va siyosiy tizimining faol ijodkorlaridan biriga aylanishiga imkon beradigan juda keng vakolatlarga ega bo'ldi.

**Shtatlar sud tizimi.** *Shtatlar sudlarining umumiy ta'rifi.* Har bir shtat o'zining sud tizimiga ega. Shtatlar sudlari umumiy sud ishlari yuritish sudlari hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ular sud ishlarining barcha turlarini, jumladan, bir fuqaroning ikkinchi fuqaro ustidan berilgan shikoyatlarini yoki fuqaroning shtatga yoki shtatning vakiliga qarshi yoki shtatning fuqaroga qarshi da'volarini ko'rib chiqadi. Shtatlar sudlari aksariyatining tashkil etilishi federal sudlari tashkil etilgan prinsipga asoslanadi — sud instansiyalari, oraliq apellatsiya sudlari va shtat Oliy sudi bilan. Asosiy farq shundan iboratki, shtatlar sudlari, federal sudlarga qaraganda, kengroq masalalar doirasi bilan shug'ullanadi.

Ikkinchi muhim farq shundan iboratki, federal sudya o'z lavozimiga umrbod tayinlanayotgan bo'lsa, shtatlar sudyalari, odatda, muayyan muddatga saylanadi yoki tayinlanadi. Mazkur tayinlashlar, odatda, uzoq muddatlarga amalga oshiriladi, saylovlar esa, qoida tariqasida, o'z xarakteri bo'yicha muhim darajadagi siyosiy tusga ega bo'lmaydi. Amerika shtatlarida bir-biridan ancha farq qiladigan sudlar tizimlari amal qiladi. Shtatlarda ko'proq umumiy sudlarning ikki va uch pog'onali tizimi, shuningdek, cheklangan

yoki maxsus yurisdiksiyali turli sudlar mavjud. O'zida faqat birinchi instansiya sudini va oliy sud organini mujassam qilgan ikki pog'onali umumiy sudlar tizimi hududi kichik va aholisi kam bo'lgan shtatlarga xos, uch pog'onali tizimi esa yirik shtatlarda mavjud bo'lib, ularda ko'riladigan fuqarolik va jinoyat ishlari soni ancha ko'pdir.

Shtatdagi sud tizimini boshqaruvchi sudlar ko'proq oliy sud nomi bilan yuritiladi, biroq, bir qator shtatlarda ular apellatsiya sudlari, deb ataladi. Bu sudlar 5 nafardan 9 nafargacha sudyadan iborat bo'lib, ularning biri sud raisi etib tayinlanadi. Shtatlarning oliy va ularga tenglashtirilgan sudlari, asosan, quyi turuvchi sudlarning qarorlari ustidan keltirilgan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi. Shtatlarning aksariyatida ular sud qarorlari ustidan berilgan huquq masalalari yuzasidan shikoyatlarnigina, qolganlarida esa fakt masalalari bilan bog'liq shikoyatlarni ham ko'rib chiqadi. Ko'pchilik shtatlarda apellatsiya shikoyatlari va boshqa murojaatlarni ko'rib chiqishga qabul qilishni Oliy sudning o'zi hal qiladi, o'lim jazosi belgilangan hukmlar ustidan keltirilgan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish esa majburiydir. Ayrim shtatlarda esa Oliy sudga kelib tushgan barcha shikoyatlar hech qanday istisnosiz ko'rib chiqilishi lozim degan qoida amal qiladi.

Birinchi instansiya sudi sifatida mazkur sudlar ko'proq ularga bevosita murojaat qilingan holda, masalan, qamoqda g'ayriqonuniy ravishda saqlash ustidan shikoyat keltirilgan holda («xabeas korpus» buyrug'i) faqat sud buyruqlarini chiqaradilar, ayrim hollarda esa ular o'ta murakkab bo'lgan sud ishlarini o'z ish yurituviga qabul qilishadi. Shtatlar oliy sudlarining ma'muriy organlar qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlar yoki ishlarni ko'rib chiqish munosabati bilan konstitutsiyalarni sharhlash va shtatlar qonun hujjatlariga baho berishdagi ahamiyati beqiyosdir.

**Oraliq yurisdiksiya sudlari** («oraliq» atamasi ba'zan ularning rasmiy nomlanishiga kiradi) bir qator shtatlarda birinchi instansiya sudlari va boshqa sud muassasalarining hukmlari va qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tashkil etilgan. Ular turlicha nomlanadilar, biroq, ko'pincha ular apellatsiya sudlari, deb ataladi. Ba'zan shtatlarda alohida jinoyat ishlari bo'yicha apellatsiya sudi tashkil etiladi, ayrim hollarda oraliq yurisdiksiya sudlari shtat Oliy sudining apellatsiya bo'linmasi sifatida faoliyat yuritadi. Ularning tarkibiga 10 tadan 50 tagacha sudya kiradi. Ishlar, odatda, uch sudyadan iborat hay'atlar tarkibida

ko'riladi. Ayrim shtatlarda apellatsiya sudlari birinchi instansiya bo'yicha, shu jumladan, prisyajniy maslahatchilar ishtirokida muayyan toifadagi fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqishadi. Ushbu holda sud protsessi sudya tomonidan yakka tartibda olib boriladi.

Shtatlar sud tizimining asosiy bo'g'ini — *umumiy yurisdiksiya sudlari* bo'lib, ular turlicha nomlanadi, masalan, Nyu-York shtatida ular oliy sudlar deb, Kaliforniya shtatida — yuqori sudlar deb, biroq, ko'p hollarda ular **okrug sudlari**, deb ataladi. Mazkur sudlar tashkil etilishi va miqdoriy tarkibi jihatidan jiddiy ravishda farqlanadi. Qoida tariqasida, ular birinchi instansiya bo'yicha tegishli shtatning qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan barcha jinoyatlar (kam ahamiyatli qilmishlardan tashqari) to'g'risidagi jinoyat ishlarini, da'vo miqdoridan qat'i nazar, barcha fuqarolik ishlarini (mazkur shtatda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan sudlar sudloviga tegishli bo'lgan ishlardan tashqari) ko'rib chiqishadi. Ayrim shtatlarda okrug sudlari besh yilgacha muddatga, hatto bir yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlarinigina ko'rib chiqishga haqlidirlar, bu esa mazkur shtat apellatsiya sudining birinchi instansiya sudi sifatidagi alohida huquqlari doirasini ancha kengaytiradi. Shu bilan birga, okrug sudlari cheklangan yurisdiksiya sudlariga nisbatan yuqori turuvchi instansiya sifatida ish ko'radilar, chunki ular bir qator hollarda ushbu sudlarning qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqishga haqlidirlar.

Yuqorida sanab o'tilgan sudlar umumiy tizimi bo'g'inlaridan tashqari, har bir shtatda *cheklangan yurisdiksiya sudlari* ham mavjud bo'lib, ushbu sudlarga jarima bilan yoki qoida tariqasida, qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadigan kam ahamiyatli jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, da'vo miqdori kam, ko'pincha, 1000 dollargacha bo'lgan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish topshirilgan. Mazkur sudlar munitsipal shahar sudlari, politsiya sudlari, ba'zan esa graflik sudlari, umumiy sessiyalar sudlari kabi nomlar bilan yuritiladi. Ularda ishlar magistratlar yoki hakamlik sudyalar tomonidan ko'rib chiqilib, ushbu sudyalar professional yuridik tayyorgarlikka ega bo'lishi majburiy emas.

Ko'pgina shtatlarda *maxsus yurisdiksiya sudlari* ham mavjud bo'lib, ular ayrim hollarda mustaqil, boshqa hollarda esa okrug

sudlari qoshida tashkil etiladi. Bularga soliqlar bo'yicha, yer nizolari bo'yicha, meros ishlari bo'yicha, shtat hokimiyatlariga pretenziyalar bildirish bo'yicha sudlar, yo'l harakati qoidalarini buzish to'g'risidagi ko'p sonli ishlarni ko'rib chiqadigan sudlar va h.k.lar kiradi. Mazkur sudlar orasida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudlar muhim o'rinni egallaydi, bu sudlar ko'pincha oilaviy sudlar funksiyalarini ham bajaradi. Ushbu sudlar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni muhokama qilish bilan birga, o'z farzandlari to'g'risida g'amxo'rlik qilmaydigan ota-onalarga nisbatan choralar ko'radilar, notinch oilalardagi tarbiya shart-sharoitlarini nazorat qiladilar, oilaviy mojarolarni hal qilishga urinadilar va h.k.

Shunday qilib, Amerika shtatlarida sudlarning turli tizimlari amal qiladi. Har bir shtatdagi sud tizimining umumiy xususiyati shundan iboratki, u bir necha instansiyadan (uch yoki to'rt) iborat bo'ladi:

1. Quyi sudlar (hakamlik sudlari, magistratlar sudlari, politsiya sudlari, meriya sudlari va boshq.) kam ahamiyatli jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishadi. Qishloq joylardagi hakamlik sudyalari, politsiya uchastkalari huzuridagi sudyalari va magistratlar (shaharlarda) saylanadi (2—3 yilga) va ko'plab hollarda yuridik ma'lumotga ega bo'lmaydi; ular ayrim hujjatlarni tasdiqlaydi, nikohlarni rasmiylashtiradi va h.k. Biroq, ular ayblanuvchini jarimaga yoki qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilishlari mumkin, zarurat tug'ilganda esa qamoqqa olishga order berishga yoki ishni yuqori turuvchi sudga jo'natishga haqli bo'ladi.

2. Birinchi instansiya sudlari (graflik, okruglar sudlari, shahar sudlari va boshq.) jinoyat va fuqarolik ishlarining asosiy qismini ko'rib chiqadi. Mazkur sudlar ko'pincha aholi tomonidan saylanadi va malakali yuristlardan iborat bo'ladi. Ishlarning ko'rib chiqilishi prisyajniylar ishtirokida (odatda, «kichik jyuri» — 12 a'zo) amalga oshiriladi. Ko'plab hollarda ishlar bir necha sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqiladi.

3. Apellatsiya sudlari (ayrim hollarda *oraliq* deb nomlanadi) katta shtatlarda faoliyat yuritib, quyi turuvchi sudlarga nisbatan nazorat funksiyasini bajaradi. Ushbu sudlar ko'pincha shikoyat qilinayotgan saylovlar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi. Ba'zan qarorlar uzilkesil tusga ega bo'lib, shikoyat qilinmaydi. Sud 7—14 yillik muddatga aholi tomonidan saylanadigan yoki gubernator tomonidan tayinlanadigan 3 nafardan 9 nafargacha sudyadan iborat bo'ladi.

4. Yuqori (oliy) sudlar turli nomlanadilar, biroq, har doim shtatning oliy sud instansiyasi vazifalarini bajaradi. Ular mazkur shtat senatining ruxsati bilan gubernator tomonidan 7—14 yillik muddatga tayinlanadigan (ayrim hollarda umrbod, «oʻzini benuqson tutib turadigan davrga») 3 tadan 16 tagacha sudyadan iborat boʻladi (odatda, ularning soni 7 taga teng). Ushbu sudlar quyi turuvchi sudlarning qarorlariga nisbatan apellatsiya yurisdiksiyasiga ega boʻladi (odatda, nizoda taraflarning biri shtat boʻlgan ishlargina mazmunan koʻrib chiqiladi).

Sud organlarini shakllantirish tartibi boʻyicha konstitutsiyalar quyidagi uch modelni taklif qiladi: gubernator yoki legislatura tomonidan tayinlash (12 ta shtat), elektorat tomonidan partiyaviy yoki partiyadan tashqaridagi saylovlarda saylash (22 ta shtat), birinchi ikki modelning belgilarini oʻzida mujassam qiladigan «missuri rejasi» boʻyicha sudyalarning nomzodlarini taqdim etish (16 ta shtat).

Barcha sudyalar shtat aholisi tomonidan nomzodlarning partiyaviy mansubligi koʻrsatilmagan holda 6 yillik muddatga saylanadi, Oliy sud raisi tomonidan Oliy, apellatsiya sudlari va umumiy daʼvolar boʻyicha sudlarning sudyalari sonidan tayinlanadigan pretenziya sudlarining sudyalari bundan mustasno.

Oliy va apellatsiya sudlarining, shuningdek, umumiy daʼvolar boʻyicha sudlarning sudyalariga nisbatan quyidagi talablar qoʻyiladi: ular mazkur shtatda yashashlari, 70 yoshdan katta boʻlmasliklari, shtatda advokatlik amaliyoti bilan shugʻullanish boʻyicha 6 yillik tajribaga ega boʻlishlari shart.

**Quyi instansiya sudlari.** Pastda, yaʼni piramidaning asosida shtat butun hududining turli nuqtalarida joylashgan quyi instansiya sudlari oʻz oʻrnini egallaydi. Mazkur sudlar, qoida tariqasida, munitsipal okruglarga tegishli boʻladi. Ushbu sudlar eng kam ahamiyatli qilmishlar va eng kam ahamiyatli daʼvolar bilan shugʻullanadilar. Ayrımlari tor soha boʻyicha ixtisoslashadilar: transport sudlari yoʻl hodisalarini koʻrib chiqadilar, politsiya sudlari faqat kam ahamiyatli huquqbuzarliklar bilan shugʻullanib, uy egasiga nisbatan daʼvo berishga yoki nikohdan ajratishga haqli emas; daʼvo sudlari transportdagi huquqbuzarliklar yoki ichki-likbozlik holatlari bilan bogʻliq ishlarni hech qachon koʻrmaydi.

Muayyan maʼnoda mazkur sudlar odil sudlov asosini tashkil etadilar, ularning «mahsuloti» hamma uchun ochiq va arzon boʻladi. Ular oʻz faoliyatini norasmiy tomonga qaratishga intiladi.

Ayrimlari protsessda advokat ishtirok etishini rad qilishadi. Ba'zilar prisyajniylar jyurisi ishda ishtirok etishiga ruxsat berishadi, agarda buni taraflarning biri qattiq talab qilsa. Boshqalarida esa prisyajniylar jyurisi umuman tashkil etilmagan bo'lib, taraflarning biri uning ishi prisyajniylar jyurisi ishtirokida ko'rib chiqilishini talab qiladigan bo'lsa, qoida tariqasida, mazkur ish yuqoriroq instansiya sudiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Boshqa tomondan, ushbu quyi instansiya sudlarida sudyalari, odatda, yuqori malakali bo'ladi.

**Birinchi instansiya sudlari.** Piramidaning keyingi bosqichi jamiyatning asosiy protsessual sudlari bo'lgan umumiy yurisdiksiya sudlaridan iboratdir. Quyi instansiya sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlarga qaraganda «qimmatroq» turadigan fuqarolik ishlari (ya'ni da'vo summasi yuqoriroq bo'lgan ishlar) ko'rib chiqilishi bilan shug'ullanadigan sudlar ham mavjud bo'ladi. Mazkur sudlar jiddiy jinoyatlar, ya'ni ichkilikbozlik yoki gazondan yurish emas, balki talonchilik, nomusga tegish va qasddan odam o'ldirish kabi jinoyatlarni sodir etish holatlarini ko'rib chiqadi. Miqdoriy jihatdan ushbu sudlarning soni kamroq bo'ladi, biroq, ular katta professionalizmi bilan ajralib turadi. Mazkur sudlarda faoliyat yuritadigan sudyalari yuridik ma'lumotga ega bo'lishlari shart.

Protsessual sudlarning yurisdiksiyasi munitsipal yoki politsiya sudlariga qaraganda, odatda, ko'proq shaxslar doirasini va kengroq huquq sohasini o'z ichiga qamrab oladi. Ko'pincha shtatlarda bir okrugga bitta asosiy protsessual sud to'g'ri keladi. Aholi soni ko'p bo'lgan okruglarda sud «bo'linmalar»ga ajratilishi mumkin. Qo'shma Shtatlarning asosiy protsessual sudlarining qandaydir unifikatsiyalashtirilgan nomlanishi yo'q. Ayrim shtatlarda ular *okrug sudlari* deb, boshqalarida *tuman sudlari*, deb ataladi. Kaliforniyada mazkur sud *katta sud* deb nomlanadi. Nyu-Yorkda esa nomlanishlar bir-biri bilan aralashgan: asosiy protsessual sud *oliy sud* deb nomlanadi; shtatning yuqori instansiya sudi esa *apellatsiya sudi*, deb ataladi.

Keyingi bosqich — *oraliq appellatsiya sudlari*. Ular 38 ta shtatda tashkil etilgan bo'lib, sud ishlarining haddan tashqari ko'pligidan oliy sudlarni qisman ozod etish vazifasini bajaradi.

**Shtatlarning oliy sudlari.** Aydaxo va Rod-Aylend kabi aholisi kam bo'lgan shtatlarda sud protsessini yutqazgan shaxs, odatda, oliy sud deb ataladigan shtatning eng yuqori sudiga bevosita

apellatsiya berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, protsessual sud birinchi darajali sud bo'lsa, aytishimiz mumkinki, mazkur shtatlar «ikki bosqichli» sud tizimiga egadir. Mazkur kichkina shtatlarda oliy sud apellatsiya berilgan har bir ishni ko'rib chiqadi; sud ushbu ishlarni bo'lmaydi, ularning ichidan eng muhim va oliy sud aralashishiga loyiq bo'lgan ishlarni tanlamaydi. Ushbu shtatlarda apellatsiya berish huquqi shtatda istiqomat qiluvchi barcha shaxslar uchun umumiy huquq hisoblanadi.

Uch darajali tizimda oliy darajali sud ko'rib chiqish uchun ishlarni did bilan tanlaydi. U qaysi ishlar eshitish uchun qabul qilinishini yoki qabul qilinmasligini o'zi hal qiladi. Protsessni yutqazgan shaxs tizim doirasidan chiqib ketmagan holda apellatsiya berish (hech bo'lmaganda, bir marta) huquqiga ega bo'ladi. Biroq, aslida u ish oliy sudga eshitish uchun yo'naltirilishini talab qilish bo'yicha hech qanday huquqqa ega emas. Ayrim istisnolar sudni o'z ishining muhimligiga ishontira olgan shaxslarga nisbatan qilinadi. Ko'plab shtatlarning qonunchiligiga kiritilgan boshqa istisnolar ham mavjud.

Shtatlar oliy sudlari konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish huquqiga ega. Ular ko'pincha shtatlarning qonun chiqaruvchi organlariga (legislaturalariga) kelib tushadigan qonun loyihalari-ning yoki oliy ijro etuvchi organlar hujjatlarining konstitutsiyaga mosligi (o'z shtatining konstitutsiyasiga nisbatan) haqida uzil-kesil xulosa berishadi. Shtat oliy sudi shtat konstitutsiyasi yoki qonuni-ning har qanday qoidasini, ular federal Konstitutsiyaga zid bo'lganligi tufayli, bekor qilishlari mumkin.

Ta'kidlash joizki, shtat sudlarida sudyalik lavozimiga tayinlash turli qoidalar asosida o'tkaziladi. Ko'pgina shtatlarda oliy sudlar va apellatsiya sudlari sudyalari gubernator tomonidan Senat yoki shtatning boshqa qonun chiqaruvchi organi roziligi bilan 6—15 yillik muddatga, ko'pincha, takroran tayinlanish huquqi bilan tayinlanadilar. Xuddi shu tartibda ayrim Amerika shtatlaridagi quyi turuvchi sud instansiyalari sudyalari ham o'z lavozimlarini egalaydilar. Biroq, shtatlardagi ko'pchilik sudyalar aholi tomonidan saylov kampaniyalari davomida saylanadilar. Bunday tizim, garchi, tashqi tomondan xalqchil ko'rinsa-da, aslida, ko'pincha, bu yerda nomzodlarni qo'llovchi bir-biriga raqib siyosiy partiyalarning manfaatlari birinchi o'ringa chiqib qoladi, kasbiy va shaxsiy sifatlar esa e'tibordan chetdan qoladi, shu sababli bu tizim



AQSHda haqli ravishda tanqidga uchramoqda. Natijada ko'pgina shtatlarda so'nggi o'n yilliklar davomida lavozimlarni egallash tizimining yangi variantlari ishlab chiqilyapti.

**Politsiya va prokuratura.** Garchi, AQSHda bir qator davlat-huquqiy institutlari Angliyadan kelgan umumiy huquq ta'siri ostida shakllangan va rivojlangan bo'lsa ham, AQSH huquqiy tizimi boshqa mamlakatlarning, shu jumladan, G'arbiy Yevropa davlatlarining huquqiy tizimlaridan tubdan farq qiladi. G'arb davlatlari uchun xos bo'lgan prokuratura instituti bu yerda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Chunonchi, AQSHda federal, shtat va mahalliy yurisdiksiyaga ega va ijro etuvchi hokimiyatga qarashli huquqni qo'llash organlari majmuyi sifatida faoliyat yuritayotgan attorneylar xizmati prokuror funksiyalarini bajaradi. U tegishli darajadagi hukumatga yuridik maslahatlar beradi, uning manfaatlarini sudda himoya qiladi va qonunning ijro etilishini ta'minlaydi.

Federal hukumati, gubernator yoki mahalliy ijro etuvchi organlar ma'muriyatining yuridik maslahatchisi funksiyalarini bajarishda attorneylar ularga huquqni qo'llash faoliyatiga doir bir qator masalalar hamda tegishli siyosiy qarorlarning yuridik jihatlari bo'yicha maslahatlar beradi. Tegishli rasmiy hujjat sifatida rasmiylashtirilgan attorney fikri o'z shakli bo'yicha tavsiyaviy tusga ega bo'lganligiga qaramasdan, qoida tariqasida, ma'muriyatning tegishli xizmatlari tomonidan ijro etiladi. Buning sababi shundaki, AQSH Bosh attorneyning fikrida qonunda nazarda tutilgan muayyan holatlarga muvofiq ravishda huquqiy normaning rasmiy sharhi beriladi. Mazkur fikr Bosh attorneyning o'zi yoki uning vorisi tomonidan qayta ko'rib chiqilgunicha yoxud «fikir» amal qilishini istisno qiladigan boshqa normani belgilaydigan sud qarori bilan haqiqiy emas deb topilguniga qadar yuridik kuchga ega bo'ladi.

Attorneylar xizmati ijro etuvchi hokimiyati tegishli organlarining, Prezidentning yoki hukumatning manfaatlarini himoya qilganida fuqarolik huquqiy munosabatlarining keng doirasi bo'yicha da'volarni tayyorlaydi, qo'zg'atadi va quvvatlaydi hamda sudda muayyan taraf sifatida ishtirok etadi.

Attorneylar o'z faoliyatining oxirgi yo'nalishini amalga oshirganlarida esa ular davlat nomidan jinoyat ishlarini qo'zg'atishga, qonun buzilishlarini tergov qilishga, huquqbuzarlarni jinoiy javobgarlikka tortishga hamda sudlarda ayblovni quvvatlashga haqli bo'lgan ayblovchi sifatida faoliyat yuritadilar.

Boshqa mamlakatlarda, odatda, Ichki ishlar vazirligiga, kontrazvedka organlariga, jinoyat qidiruv organlariga, turma idoralariga yuklatiladigan boshqa funksiyalar ham attorneylar xizmati tomonidan bajariladi. Shunday qilib, ular faoliyatining doirasi Yevropa davlatlari prokuraturalariga xos bo'lgan jinoiy ta'qibni amalga oshirish va davlat nomidan ayblovni quvvatlashga doir yurisdiksiyadan ancha keng bo'ladi.

Amerika federalizmi prinsiplariga muvofiq, AQSHda attorneylar xizmatining uch mustaqil bo'g'ini amal qiladi: *federal, shtat* va *mahalliy* bo'g'in. Ularning har biri o'zining tashkil etilishida, shakllantirilishida, vakolatlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi hamda o'z hududiy va predmet yurisdiksiyasi doirasida faoliyat yuritadi. Shtat o'zining konstitutsiyasi yoki tegishli qonun hujjatlari asosida o'z hududida attorneylar xizmatining tashkil etilishi tartibini va vakolatlar doirasini belgilashga haqli bo'ladi, federal xizmati esa AQSH Kongressi tomonidan qabul qilinadigan qonunlar asosida amal qiladi. Na AQSH Bosh attorneyi, na unga bo'ysunadigan organlar shtatlardagi attorneylarga rahbarlik qilishga haqli emas, biroq attorneylar federal xizmatining o'zi yetarli darajada markazlashtirilgan.

*Bosh attorney* Senatning (AQSH Kongressining yuqori palatasi) «maslahati va roziligi bilan» Prezident tomonidan tayinlanadi va o'z lavozimi bo'yicha Adliya vazirligining rahbari hisoblanadi. O'z nomiga qaramasdan, ushbu idoraning klassik ma'nodagi adliya organlariga hech qanday aloqasi yo'q, chunki u sud boshqaruvi masalalari bilan shug'ullanmaydi. AQSH Bosh attorneyi 94 federal sud okrugining har birida o'z vakillari, ya'ni AQSH attorneylarining faoliyatini nazorat qiladi. Mazkur shaxslar ham Senat roziligi bilan Prezident tomonidan, odatda, Prezident boshqaruvi muddatiga to'g'ri keladigan 4 yillik muddatga tayinlanadilar.

Hozirgi vaqtda AQSH Adliya vazirligi (federal prokuraturasi) o'zining tuzilmasida shartli ravishda uch guruhga bo'linadigan ko'plab bo'linmalar faoliyat yuritadi.

Birinchi guruhga Bosh attorney federal xizmatining quyidagi yo'nalishlarini nazorat qiluvchi vazirlik boshqarmalari kiradi:

- jinoyat ishlari bo'yicha ishtirok etish;
- fuqarolik ishlari bo'yicha ishtirok etish;
- trestlarga qarshi qonun hujjatlarini buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ishtirok etish;

- soliq qonunchiligini buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ishtirok etish;

- atrof tabiiy muhitni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ishtirok etish;

- fuqarolik huquqlarini buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ishtirok etish.

Bo'linmalarning keyingi guruhi byuro huquqlari asosida hamda boshqa bo'linmalardan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

Narkotik vositalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, o'tkazish va iste'mol qilish bilan bog'liq ishlar bo'yicha tezkor-qidiruv va tergov ishini olib boradigan *Narkotiklarga qarshi kurash boshqarmasi*. Hozirgi kunda AQSHda narkotiklar savdosi deyarli butunlay uyushgan jinoyatchilik sindikatlaridan tomonidan nazorat qilinayotganligi tufayli, ular uchun bu jinoiy biznesning eng daromadli sohalaridan biridir. Narkotiklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha tezkor-qidiruv xodimlar FBR rahbarligida va boshqa vazirliklarning tergov apparatlari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydilar.

*Immigratsiya va naturalizatsiya xizmati* ma'muriy organ sifatida immigrantlar Qo'shma Shtatlar hududiga kirishlari masalasini ko'rib chiqadi va hal qiladi. Uning funksiyalari mamlakatga kelayotgan shaxslarning hujjatlarini tekshirishdan, chet ellik shaxslarni ro'yxatga olishdan, shuningdek, Amerika fuqaroligini olish haqidagi iltimosnomalar bilan sudga murojaat qiladigan apatridlarni va chet ellik shaxslarni tekshirishdan iborat. Tergov organi sifatida immigratsiya va naturalizatsiya xizmati migratsiya qonunchiligini buzish holatlarini tergov qiladi, immigratsiya qonunlarini buzgan holda mamlakat hududida istiqomat qilayotgan chet ellik shaxslarning qidiruvini va deportatsiyasini amalga oshiradi.

Adliya vazirligi tezkor-qidiruv va tergov ishining asosiy hajmini FBR bajaradi. FBR direktor va uning yordamchilari boshchiligida ishlaydigan ko'ptarmoqli, lekin juda markazlashtirilgan idora bo'lib, AQSHning katta shaharlarida 56 ta bo'linmaga (ularning har biri o'z filiallariga ega) va bir qator xorijiy mamlakatlarda 23 ta postga (1994-yilda FBR posti ilk bor Moskvada ochilgan) ega. FBR yurisdiksiyasi federal qonunlari bo'yicha ta'qib qilinadigan jinoyatlarning aksariyatiga tatbiq etiladi. FBR milliy xavfsizlikni himoya qilish to'g'risidagi qonunlarning mumkin bo'lgan buzilishlari munosabati bilan tergov va tezkor chora-tadbirlarini

amalga oshirganida kontrrazvedka organi sifatida faoliyat yuritadi. 1981-yilda qabul qilingan Prezidentning ijro buyrug‘i bilan FBR zimmasiga barcha hukumat idoralarining, shu jumladan, SRU va Mudofaa vazirligining kontrrazvedka chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan edi. Bosh attorney yo‘riqnomalari bilan terrorizmga gumon qilinayotgan yoki AQSHning ichki xavfsizligiga tahdid solayotgan fuqarolar guruhlarining faoliyatini razvedka maqsadida tergov qilish bo‘yicha vazifalar FBRning zimmasiga yuklatilgan.

*Turmalar byurosi* federal qonunlari bo‘yicha hukm qilingan shaxslar jazo o‘tayotgan federal axloq tuzatish muassasalari tizimini ma‘muriy boshqarish bilan shug‘ullanadi.

*AQSH Marshallar xizmati* vazirlikda byuro maqomiga ega bo‘lib, mazkur mansabdor shaxslarning federal sud okruglaridagi faoliyatini muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi. Marshallar institutining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ijro etuvchi hokimiyatining ushbu organi aslida sud hokimiyatga bo‘ysunadi, chunki marshal va uning yordamchilarining asosiy funksiyasi — federal sud tomonidan berilgan barcha buyruqlarni, ko‘rsatmalarni va farmoyishlarni bajarish hamda qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari ijro etilishini ta‘minlashdir. AQSH marshallari federal yurisdiksiya ishlari bo‘yicha sud tomonidan berilgan orderlarga muvofiq qamoqqa oladilar, tintuvlar va olib qo‘yishlarni amalga oshiradilar, protsess ishtirokchilarini qo‘riqlaydilar, qamoqqa olinganlarni hamda axloq tuzatish muassasalariga joylashtirilguniga qadar, hukm qilinganlarni qamoqda saqlashni va tashishni ta‘minlaydilar.

*Interpolning milliy markaziy byurosi* jinoyatchilar qidiruvini samarali ta‘minlash maqsadida Interpol bilan, mazkur xalqaro politsiya tashkilotining a‘zolari bo‘lgan 136 mamlakat bilan aloqada bo‘ladi hamda umumiy Amerika telekommunikatsiya tizimi orqali shtat va mahalliy bo‘ysunishda bo‘lgan 20 mingta huquqni qo‘llash organlari bilan muloqotni ta‘minlaydi. Byuro tarkibiga FBRning, AQSH Marshallar xizmatining, Narkotiklar to‘g‘risidagi qonunlarni qo‘llash bo‘yicha ma‘muriyatning, Immigratsiya va naturalizatsiya xizmatining, Jinoyat ishlari bo‘yicha boshqarmaning vakillari, shuningdek, Moliya vazirligi organlarining, ya‘ni bojxona xizmatining, ichki daromadlar xizmatining, spirtli ichimliklarni, tamaki mahsulotlari va o‘qotar qurollarni tarqatish ustidan nazorat qilish bo‘yicha byuroning, maxfiy va valuta xizmatlarining vakillari kiradi.

*Odil sudlovni takomillashtirish dasturlari xizmati* federal va shtatlarning hokimiyat organlariga jinoyatchilikka qarshi kurashda yordam ko'rsatish, odil sudlovni va jinoyat adliya muassasalarining faoliyatini takomillashtirish dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi. Mazkur xizmatning rahbarligida Odil sudlovning milliy instituti (jinoyatchilik sabablarini o'rganish va uning oldini olish bo'yicha choralar ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot markazi), jinoyat adliya organlariga yordam ko'rsatish byurosi (shtatlardagi jinoyat adliya organlariga moliyaviy yordam ko'rsatish), sud statistikasi byurosi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularning ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish muammolari bo'yicha xizmat faoliyat yuritadilar.

Adliya vazirligida kengashlar huquqlari asosida faoliyat yuritadigan quyidagi bo'linmalar mavjud:

*Immigratsiya ishlari bo'yicha ijro xizmati* uch bo'linmani o'z ichiga qamrab oladi — immigratsiya sudyalarining xizmati, bosh immigratsiya sudyasining xizmati va immigratsiya ishlari bo'yicha berilgan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha kengash. Birinchi bo'linma chet ellik shaxslarni deportatsiya qilish va chiqarib yuborish to'g'risidagi ishlar eshitalishida raislik qiluvchi sudyalarni birlashtiradi, ikkinchisi — mazkur sudyalarga nisbatan umumiy rahbarlikni amalga oshiradi; uchinchisi — immigratsiya sudyalarining hamda immigratsiya va naturalizatsiya xizmati xodimlarining qarorlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Kengashning o'zi chiqargan qarorlari ustidan shikoyatlar umumiy yurisdiksiya federal sudlariga berilishi mumkin.

*Muddatdan ilgari shartli ozod qilish bo'yicha AQSH komissiyasi* federal qonunlarni buzish uchun jazo o'tayotgan shaxslarni muddatdan ilgari shartli ozod qilish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

*Xorijiy davlatlarga nisbatan e'tirozlarni hal qilish bo'yicha komissiya* zararni qoplash to'g'risidagi o'z da'vo talablarini xorijiy hukumatlarga taqdim qilayotgan AQSH fuqarolariga yordam ko'rsatadi.

Boshqa bo'linmalar ham mavjud:

- «AQSH Bosh attorneyning fikri»ni tayyorlashda yordam beradigan yuriskonsult xizmati;

- qonun loyihalarini tayyorlash bo'yicha tegishli vakolatlarga ega bo'lgan qonunchilik masalalari bo'yicha xizmat;

- Adliya vazirligining kursini ishlab chiqish xizmati;
- afv etish va jazolarni kamaytirish masalalari bo'yicha Prezident uchun tavsiyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan afv etish masalalari bo'yicha yurist;
- irqiy va etnik to'qnashuvlarni hal qilish bo'yicha huquqdan tashqaridagi shakllarining ishlab chiqilishini ta'minlaydigan jamiyatdagi o'zaro munosabatlar masalalari bo'yicha xizmat;
- vazirlik bo'linmalari faoliyatining tashkiliy masalalari bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan adliyani boshqarish bo'limi;
- vazirlik xodimlari o'z mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishi bilan bog'liq holatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazadigan professional javobgarlik xizmati;
- razvedka organlari faoliyati ustidan huquqiy nazoratni amalga oshiradigan va maxsus sud uchun milliy xavfsizlik ishlari bo'yicha eshitish o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomalarni tayyorlaydigan razvedka ishlari bo'yicha xizmat;
- federal yurisdiksiyaga tegishli bo'lgan bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha homiylarga rahbarlik qiladigan AQSH homiylarining ijro xizmati;
- mablag'lar sarf qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida taftishlarni, shuningdek, auditor tekshiruvlarini o'tkazadigan bosh inspektor xizmati;
- jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'yicha xizmat;
- axborot erkinligi va shaxsiy hayotni himoya qilish to'g'risidagi qonunlarning ijro etilishi bo'yicha xizmat.

Shtatlardagi attorneylar departamentlarining tuzilmasi vazirlikning tegishli tuzilmasiga o'xshaydi, biroq, u bilan bir xil emas. Mazkur tuzilma doimiy o'zgarmas, lekin u qonuniylikni ta'minlash bo'yicha ularning faoliyatini sezilarli darajada ifoda etadi.

Chunonchi, Nyu-York shtatining attorney departamenti shtat hududida o'n ikki tuman bo'linmasiga ega. Prokuratura (attorneylik) departamentining apparati bir qator tuzilmaviy bo'linmalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ularning qatoriga fuqarolik huquqlar bo'yicha byuro kiradi. U mehnat, ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar sohasida erkaklar va ayollarning teng huquqligi uchun kurash hamda irqiy kamsitishga qarshi kurash masalalari bilan shug'ullanadi; jinoiy ta'qibni amalga oshirish byurosi attorneylik xizmatining tergoviga tegishli bo'lgan jinoyatlarni (narkobiznes

va boshqa jinoiy yo'l bilan topilgan pul mablag'larini qonuniylashtirish; firibgarlik, tovlamachilik bilan bog'liq jinoyatlarni) tergov qilish bilan shug'ullanadi; monopoliyaga qarshi byuro monopoliyaga qarshi qonunlarning buzilishi munosabati bilan jinoiy ta'qibni amalga oshiradi va sudda fuqarolik da'volarni qo'zg'atadi (monopoliya ravishda mahsulotni ishlab chiqaradigan va o'z xohishiga ko'ra, uning narxini ko'taradigan korporatsiyalarga qarshi da'volarni beradi, munitsipal hokimiyat organlari tomonidan sotib olinadigan mahsulot va qurilish materiallarining bahosi asossiz ravishda oshirib ko'rsatilganligi va h.k. to'g'risidagi ishlar bo'yicha da'vo qo'zg'atadi).

*Moliya va ko'chmas mulk masalalari bo'yicha byuro* huquqiy munosabatlarning ko'rsatilgan sohasida fuqarolar va shtatning manfaatlarini turli usullar, jumladan, tegishli tuzilmalarga qarshi da'volarni (qarshi da'volarni) kiritish orqali himoya qiladi. Masalan, shtat prokurori tomonidan rentani undirish bo'yicha shtatning qoidalarini buzgan holda kvartira ijaraga oluvchilarni ko'chirib yubormoqchi bo'lgan Federal trast korporatsiyasiga qarshi tegishli da'vo kiritilgan edi.

*Atrof-muhitni huquqiy vositalardan foydalangan holda himoya qilish bo'yicha byuro* fuqarolar va jamiyatning manfaatlarida ularning ekologik huquqlarini himoya qilish bo'yicha jinoyat va fuqarolik sudlov ishlarini yuritish sohasida faoliyati amalga oshiradi. Bunda jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ish yurituvlar qo'zg'atiladi, ekologik huquqbuzarliklarni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladi, mazkur huquqbuzarliklar uchun tayinlanadigan jarimalar undiriladi.

*Iste'molchilarni himoya qilish byurosi* fuqarolarning turli sohalardagi huquqlarini himoya qiladi (masalan, garov xatlari saqlovchilarini ular bo'yicha katta summalarni to'lashga majbur qiladigan ipoteka kompaniyalariga nisbatan choralar ko'radi; yuqori kredit foizlarini o'rnatgan kompaniyalar bilan foizlarni pasaytirish to'g'risidagi kelishuvlar tuzadi va h.k.).

*Homiylik sohasida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha byuro* homiylik maqsadlarida homiylik qiladigan shaxslarning qonuniy huquqlarini ham (soliqlardan ozod etish, soliqlar miqdorini kamaytirish va h.k.), foydasiga homiylik qilinayotgan shaxslarning qonuniy manfaatlarini ham himoya qiladi, soxta homiylik tashkilotlarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha ish olib boradi.

*Mehnat munosabatlari sohasida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha byuro* fuqarolar qonuniy huquqlarining jinoiy va fuqarolik-huquqiy himoyasi bo'yicha choralar ko'radi. Byuro fuqarolar huquqlarini jinoiy tarzda buzgan ish beruvchilarga nisbatan jinoyat ishlarini qo'zg'atadi, xodimlarning huquqlarini buzish, ish haqini to'lamaslik, uni o'z vaqtida yoki to'liq miqdorda to'lamaslik bilan xodimlarga zarar yetkazgan ish beruvchilarga nisbatan sudda da'volar qo'zg'atadi va h.k. Shuningdek, byuro soliqlar va shtat daromadiga boshqa moliya yig'implarni to'lamaydigan shaxslarga nisbatan ham sudda da'volar qo'zg'atadi.

*Da'volar bo'yicha byuro* federal sudda da'volarni, shu jumladan, shtat manfaatlarida da'volarni qo'zg'atishda ixtisoslashadi. Mazkur byuro o'z faoliyatini yuritadigan huquqiy munosabatlar sohalari doirasi ancha kengdir. Apellatsiyalar bo'yicha bo'lim shtat sudlarida, shuningdek, federal sudlarida appellatsiya da'volarini quvvatlaydi. Sudda da'volarni qo'zg'atish bo'yicha byuro shtat va uning fuqarolari manfaatlarini himoyasida da'volarni tayyorlaydi va quvvatlaydi. Bunda byuro o'z da'volari bilan shtatning vakolatlar doirasini buzadigan normalarni qabul qilgan federal tuzilmalarga murojaat qiladi. Masalan, Nyu-York shtatining attorney xizmati byurosi Sog'liqni saqlash federal departamentiga nisbatan oilalarga va, ayniqsa, bolalarni tarbiyaga olgan oilalarga, shuningdek, vasiylikda turgan bolalar bilan oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha Nyu-York shtatining dasturini amalga oshirish maqsadida 73,1 million dollarni undirish to'g'risidagi da'voni kiritdi. Ko'rsatilgan bo'linmalarning faoliyati tegishli qonun va boshqa huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ham ishtirok etadigan qonunchilik departamenti tomonidan muayyan darajada ta'minlanadi.

*Ko'chmas mulk bo'yicha byuro* ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlarni tuzishda, masalan, atrof-muhitni himoya qilish va shtatda rekreatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yerlarni sotib olish to'g'risidagi loyihalar bo'yicha fuqarolar va jamiyatning (fuqarolarning noaniq ko'p soni) qonuniy huquqlarini ta'minlash bilan shug'ullanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tergov o'tkazish FBR tomonidan va boshqa ko'plab federal xizmatlar tomonidan, shuningdek, tegishli shtatlar hokimiyatiga yoxud graflik, shahar yoki qishloq munitsipalitetiga bo'ysunuvchi va bir-biridan mustaqil bo'lgan ko'p sonli politsiya muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Ular qamoqqa



olish, gumon qilinuvchilarni so'roq qilish, jinoyat dalillarini qidirish va to'plashga haqidirlar. Qamoqqa olish, tintuv va boshqa ayrim tergov harakatlari politsiya tomonidan sud sanksiyasini olgach o'tkaziladi, istisno hollarda esa bu harakatlar o'tkazilganidan so'ng sud sanksiyasi olinadi.

Qator hollarda dastlabki tergov yoxud har bir federal sud okrugida bo'lgan *federal attorneyning* yoxud *shtat bosh attorneyning* yoxud *mahalliy* (graflik, shahar va boshq.) attorneyning apparatlari tomonidan o'tkaziladi. Mazkur mansabdor shaxslar mustaqil ravishda harakat qiladilar va bir-birlariga bo'ysunmaydilar. Bundan tashqari, muayyan ishlar bo'yicha qaror qabul qilishda federal okrug attorneylari adliya departamentiga (vazirligiga) rahbarlik qiluvchi AQSH bosh attorneydan ham to'liq mustaqildir. Mohiyatan, barcha darajadagi attorneylar jinoiy ta'qibni qo'zg'atishda va ayblanuvchini sudga berish masalasini hal qilishda hal qiluvchi o'ringa egalar. Shuningdek, ko'pchilik shtatlarda maxsus organ bo'lgan katta jyuri ham saqlanib qolgan bo'lib, uning tarkibiga 12—23 ta prisyajniylar kiradi va ular ishni sudga o'tkazish uchun ayblovdagi yetarli dalillar mavjudligini tekshiradilar (ayrim hollarda katta jyuri tergov organi sifatida ham ish ko'rishi mumkin).

Attorneylarning eng muhim vazifasi — sudda ayblovni qo'llashdir. Sudga berish bosqichida ayblov vakillari aksariyat hollarda ayblanuvchini aybiga iqror bo'lish to'g'risidagi bitimni tuzishga majbur qiladilar. Bu shuni anglatadiki, ayblanuvchi o'zining ishi prisyajniylar sudi ishtirokisiz ko'rilishiga rozilik beradi, buning o'rniga unga uncha og'ir bo'lmagan jinoyatda ayblash bilan cheklanishga (masalan, bosqinchilik o'rniga o'g'irlikda) yoxud o'lim jazosi yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashni talab qilmaslikka va'da beriladi. Attorneylar sud prisyajniylari tomonidan chiqarilgan oqlov hukmlaridan tashqari, jinoyat ishlari bo'yicha chiqarilgan boshqa hukmlar ustidan yuqori turuvchi sudga shikoyat keltirishga haqidirlar. Shuningdek, attorneylar AQSH tarafi sifatida yoxud bunda Amerika davlati (federal attorneylar) yoki ayrim shtatlar, grafliklar, shaharlarning manfaatdorligi bo'lsa, birinchi instansiya sudlarida va fuqarolik ishlari bo'yicha apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqishda qatnashishga haqidirlar. Federal attorneylar Senat roziligi bilan AQSH Prezidenti tomonidan tayinlandilar. Ko'pgina shtatlarda mahalliy darajadagi attorneylar aholi tomonidan saylanadilar va, qoida tariqasida, u yoki bu siyosiy partiyaning qo'llab-quvvatlashi natijasida o'z lavozimlarini egallaydilar.

Amerika *prokurorlari* davlat hokimiyati sud tarmog'ining qismi emas, balki ijro etuvchi tarmog'ining qismidir. Hokimiyatlarning mazkur bo'linishi sababli sudyalarda prokuratura tomonidan olib boriladigan tergovga aralashishga huquqi yo'q. Biroq, Amerika tizimi e'tirof etishicha, prokuraturaning nazorat qilinmaydigan hokimiyati xavf tug'diradi. Shu tufayli tergovni o'tkazish uchun prokuratura sudning ruxsatini olishi zarur. Tergov o'tkazilishi ustidan sud nazoratining misoli sifatida elektron kuzatuvining ayrim turlarini amalga oshirish uchun sudning ruxsatini olish zarurati xizmat qiladi. Boshqa misollar — prokurorlarga soliq deklaratsiyalarini to'ldirish uchun tarqatish; prokurorlarning fikricha, suddan yashirinishi mumkin bo'lgan guvohlarni ushlab turish; sudlov ta'qibdan qarshi immunitetga oldin ega bo'lgan guvohlarni ko'rsatuv berishga majbur qilish yoki ularni qamoqqa olish.

*Prokurorlar vakolatlarining doirasi.* Davlat hokimiyati ijro etuvchi tarmog'ining qismi bo'lgan Amerika prokurorlari tarixan tergov qilishga, sudlov ta'qibni amalga oshirishga va rasmiy ayblovlarini e'lon qilishga doir masalalarni hal qilishda juda keng vakolatlarga ega bo'lgan. Qonun ijro etilishini ta'minlash bo'yicha mazkur vakolatlar muayyan darajada qonunlarni qabul qilish bo'yicha qonun chiqaruvchi tarmog'i vakolatlarining qarama-qarshi kuchi hisoblanadi. Shubhasiz, prokuror tomonidan e'lon qilingan rasmiy ayblovlar irqiy, etnik yoki diniy taassublar kabi noo'rin mulohazalar bilan asoslantirilgan bo'lsa, e'lon qilingan ayblovlar sudya tomonidan, albatta, bekor qilinadi. Biroq, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tomonidan tazyiq o'tkazilishini inobatga olmasak, sudlov ta'qibni amalga oshirishni rad etish to'g'risidagi prokurorning qarori ustidan shikoyat berishga yo'l qo'yilmaydi.

**Advokatura.** Amerika sudlarida ishlarni ko'rishning tortishuvli jarayonida yuristlarning o'rni beqiyosdir. Taraflar o'zlarining advokatlari orqali sudda o'z qarashlari va vajlarini bayon qilishadi. Garchi, sudda xususiy shaxslar vakilsiz ishtirok etishga haqli bo'lishsa-da, biroq advokatlar ishtiroki ishni samaraliroq hal qilish uchun juda zarurdir.

Jinoyat ishlari bo'yicha ayblanuvchilar manfaatini himoya qilish va fuqarolik jarayonida taraflarga vakillik qilish advokatlar tomonidan amalga oshirilib, AQSHda advokatlar huquq vakolatlari bo'yicha toifalarga bo'linmaydilar, biroq bu ularga u yoki bu masalalar bo'yicha yoki faoliyat turlari bo'yicha ixtisoslashishga xalal bermaydi. AQSH Oliy sudining so'nggi o'n yilliklarda

chiqargan va jinoyat protsessual tuzdagi konstitutsiyaviy qoidalarga bag'ishlangan qarorlariga muvofiq, ayblanuvchi ushlangan vaq-tidan boshlab, ishda o'z himoyachisining ishtirok etishiga haqlidir, agar ayblanuvchi advokat yollashga qurbi yetmasa, u tergov va sud muhokamasining eng muhim bosqichlarida, shuningdek, hukm ustidan shikoyat keltirish davrida bepul yuridik yordam olishga haqlidir. Biroq, ko'pgina shtatlarda bepul yuridik yordam-dan faqatgina ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi xavf solib turgan ayblanuvchilar foydalanishlari mumkin, yuridik yor-damning o'zi esa aksariyat hollarda tajribasiz yoki bunday turdagi ishlari boshidan oshib yotgan advokatning so'roq qilishda qatna-shishi va ishda ishtirok etishi bilan cheklanadi.

So'nggi o'n yilliklarda qashshoqlarga yuridik yordam ko'rsa-tish bo'yicha ommaviy agentliklarning (*public defenders agencies*) a'zolari bo'lmish yuristlar amalga oshirayotgan himoya turi keng tarqalmoqda. Bunday agentliklar ko'proq mahalliy budjetlar hisobidan<sup>1</sup>, assotsiatsiya a'zolarining badallari va xayriya ehsonlari hisobidan moliyalashtiriladi. Tabiiyki, bunday manbalar har doim ham yetarli bo'lavermaydi va, odatda, yordamga muhtoj bo'lgan-larga kerakli yordamni to'la ta'minlashga imkon bermaydi.

Bunday vaziyatning sababi oddiy va hamma mamlakatlardagi yuristlarga ma'lum — jinoyat ishlari bo'yicha sifatli yuridik yordam ko'rsatish uchun tajribali advokatlarni jalb qilish uchun katta gonorarlargina kifoya qilmaydi, ekspertlarni taklif qilish, himoya dalillarini qidirib topish (bu esa ko'proq xususiy detektivlar yor-damida amalga oshiriladi, ularga ham to'lash zarur) va shu kabi harakatlarni bajarish uchun katta xarajatlar qilish kerak bo'ladi. AQSH va anglo-sakson jinoyat-sudlov tizimidagi boshqa mam-lakatlarda ko'p kuch va vositalarni talab qiladigan himoya dalillarini topish va to'plash himoya tomonigagina yuklanganligi sababli, bunday xarajatlarga zarurat o'ta sezilmoqda<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Federal sudlar tomonidan ko'riladigan jinoyat ishlari bo'yicha aholining kam ta'minlangan qatlamini himoya qilishni moliyaviy ta'minlash, asosan, federal budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilib, ularni nazorat qilish AQSH sudlari ma'muriy ofisi zimmasidadir. Mazkur ofisning 2000-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, federal sudlarda ko'rilgan jinoyat ishlarini muhokama qilishda ayblanuvchilarning deyarli 70 % iga to'la yoki qisman bepul yuridik yordam ko'rsatilgan.

<sup>2</sup> К.Ф. Гуценко, Л.В. Головки, Б.А. Филимонов. Уголовный процесс запад-ных государств. Изд. 2-е доп. и испр. М., «Зерцало-М», 2002, стр. 203—204.

Advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanish huquqini olish uchun aksariyat shtatlarda sudlar tomonidan tashkil qilinadigan imtihonlardan o'tish talab qilinadi. Ko'pgina shtatlarda (biroq hammasida emas) bunday imtihonni topshirishga ruxsat olish uchun oliy yuridik ma'lumot to'g'risidagi diplom taqdim qilinadi. Imtihon topshirganidan so'ng advokatlik amaliyotiga ruxsat berilgan shaxs mazkur shtatdagi barcha sudlarda ishtirok etish huquqini oladi. Boshqa shtatlardagi sudlarda ishtirok etish uchun advokat yoki yangidan imtihon topshirishi yoki tegishli ruxsatnoma olishi kerak bo'ladi. So'nggi qoida federal sudlarga ham tegishlidir.

Amerikalik advokatlar advokatlik mahkamalari tarkibida yoki mustaqil ravishda ish yuritishadi. Korporatsiyalarda ishlovchi advokatlar hamda davlat attorneylari shtat yuristlari assotsiatsiyalariga birlashadilar (ayrim shtatlarda tegishli amaliyot bilan shug'ullanish uchun bunday assotsiatsiyaga a'zo bo'lish majburiy shart hisoblanadi). Butun mamlakat miqyosida bunday birlashmalarning faoliyati Amerika yuristlar assotsiatsiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi va yo'naltiriladi. Amerika yuristlar assotsiatsiyasining 400 mingga yaqin a'zosi bo'lib, u o'ta nufuzli siyosiy kuch hisoblanadi. Mazkur assotsiatsiya shtatlar qonun hujjatlarining yaqinlashuv jarayonlarida muhim o'rin egallaydi, federal qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritishni taklif etadi, kasbiy etika masalalari bilan shug'ullanadi va h.k.<sup>1</sup>

#### 17.4. Fransiya

**Sud tizimi.** Fransiyada ikki yurisdiksiya mavjud: *umumiy sudlar tizimi* va *ma'muriy sudlar tizimi*.

Bundan tashqari, umumiy vakolatlarga ega bo'lgan umumiy sudlarni va muayyan ishlar doirasi bilan cheklangan vakolatlarga ega bo'lgan istisno sudlarni ajratadilar.

**Ma'muriy sudlar.** Ma'muriy sudlar ma'muriyat taraf bo'lgan nizolarni ko'rib chiqadi. Ma'muriy sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar ma'muriyat uchun majburiy tusga ega bo'ladi. Ma'muriy sudlar tizimi quyidagilardan iborat:

- ma'muriy tribunallar. Bu ma'muriy nizolarni ko'rib chiqadigan birinchi instansiyadir. Ular ommaviy hokimiyat organlarining javobgarligi to'g'risidagi masalalarni, fiskal ishlarni hal qiladilar;

---

<sup>1</sup> Ф.М. Решетников. Правовые системы стран мира (Справочник). М., «Юридическая литература», 1993, стр. 185—187.

• ma'muriy tribunallar tomonidan chiqariladigan aksariyat qarorlar ustidan keltiriladigan apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadigan ma'muriy apellatsiya sudlari. Oltita ma'muriy sud mavjud;

• ma'muriy adliyaning oliy instansiyasi bo'lgan, biroq birinchi instansiya sudi sifatida ham, kassatsiya sudi sifatida ham faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan Davlat kengashi. Davlat kengashi to'rt ixtisoslashgan ma'muriy seksiyadan iborat: *ichki ishlar, moliya, jamoatchilik ishlari, ijtimoiy masalalar seksiyalari*. Hukumat yoki kengash raisining birinchi o'rinbosari topshiriqlariga muvofiq, tadqiqotlar olib borish hamda ma'muriy sudlar tomonidan chiqariladigan qarorlar ijro etilishi bilan bog'liq qiyinchiliklarni hal qilish uchun ma'ruzalar va tadqiqotlar bo'yicha seksiya tashkil etildi. Fuqarolarni ularning huquqlari ma'muriyat tomonidan buzilishidan himoya qilish hamda ma'muriy faoliyatning qonuniyligi ustidan nazorat olib borish Davlat kengashining vazifasi hisoblanadi. Davlat kengashining tarkibiga Bosh vazir (uning yo'qligida adliya vaziri), raisning birinchi o'rinbosari, seksiyalar raislari, davlat maslahatchilari, Davlat kengashidagi ma'ruzachilar va auditorlar, shuningdek, favqulodda xizmatda bo'lgan, o'z xizmatlari va davlat uchun kerak bo'lgan maxsus bilimlari tufayli muayyan muddatga tayinlanadigan davlat maslahatchilari kiradi.

*Hisob palatasi* sud tizimida alohida o'rin tutadi: u ommaviy moliya xizmatlarining hisob raqamlarini tekshiruvchi sud vazifalarini bajaradi. Hisob palatasi mahalliy hisob palatalari tomonidan chiqarilgan qarorlar bo'yicha apellatsiya instansiyasi hisoblanadi. Hisob palatasi qarorlari bo'yicha kassatsiya sudi vazifalarini davlat kengashi bajaradi. Hisob palatasi davlat budjeti ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga ham ko'maklashadi.

*Kelishmovchiliklar (konfliktlar) bo'yicha tribunal* sud tizimining ikki bo'g'ini tutashgan joyini egallaydi: u umumiy va ma'muriy sudlar o'rtasida vujudga keladigan vakolatlar to'g'risidagi nizolarni hal qiladi, ya'ni muayyan ish ma'muriy tusga ega bo'lganligi va shu tufayli ma'muriy tribunallar tomonidan ko'rib chiqilishi lozimligi yoki, aksincha, u umumiy sudlar sudloviga tegishli bo'lganligi to'g'risidagi masalani hal qiladi. Kelishmovchiliklar (konfliktlar) bo'yicha tribunalga yoki kassatsiya sudi yoki davlat kengashiga murojaat qiladi. Tribunalda Adliya vaziri raislik qiladi; u kassatsiya sudining to'rt maslahatchisi va to'rt davlat maslahatchisidan iborat bo'ladi.

**A. Umumiy yurisdiksiya sudlari.** Umumiy yurisdiksiya sudlarini umumiy huquq sudlari va maxsus sudlar tashkil qiladi.

*Umumiy huquq sudlari* ularning faoliyatini belgilovchi umumiy prinsipga, ya'ni fuqarolik va jinoyat sud ishlarini yuritishning birligi prinsipiga muvofiq, o'z faoliyatini yuritib, mazkur prinsipga asosan ular fuqarolik ishlarini ham, jinoyat ishlarini ham ko'rishlari mumkin. Ushbu sudlar quyidagilardan iborat:

- katta instansiya sudlari;
- kichik instansiya sudlari;
- apellatsiya sudlari;
- ikkita oliy apellatsiya sudlari;
- assizlar sudlari;
- Kassatsiya sudi.

1. *Katta instansiya tribunali.* Fuqarolik ishlari bo'yicha sud sifatida katta instansiya tribunali umumiy yurisdiksiya sudi bo'lib, uning qarorlari ustidan apellatsiya shikoyatlarini keltirish imkoniyatini taqdim etgan holda ularni ko'rib chiqish vakolati maxsus tarzda boshqa sudga o'tkazilmagan barcha ishlarni ko'radi. Ishlar yoki sudya tomonidan yakka tartibda (rais qaroriga muvofiq), yoki sudyalar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Katta instansiya tribunali huzurida ixtisoslashtirilgan yakka tartibda faoliyat yuritayotgan sudyalar ham mavjud:

- qarorlar majburiy ijro etilishi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni va nizolarni hal qiladigan sud qarorlarini ijro etish bo'yicha sudya;

- oilaviy ishlar bo'yicha sudya;

- mol-mulkni o'zga shaxsga o'tkazish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudya;

- muayyan nizolar bo'yicha sudya (yo'l-transport hodisalari yoki xorijiy qarorlarni e'tirof etish va ijro etish to'g'risidagi talabnomalar).

Jinoyat sud ishlarini yuritish sohasida katta instansiya tribunali yakka tartibdagi sudya yoki hay'at tarkibida unga xususiy ayblov tartibida bevosita prokuratura tomonidan yoki tergovchi sudya tomonidan taqdim etilgan og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Katta instansiya tribunali tarkibiga quyidagi sudyalar ham kiradi:

- eng jiddiy jinoyat ishlari bo'yicha tergov olib borish zimmasiga yuklatilgan *tergovchi sudya*;

- penitensiar muassasasida saqlash sharoitlarining hukm qilingan shaxsga tayinlangan jazo chorasiga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradigan *jazolarni ijro etish bo'yicha sudya*,

u jazoni o'tab bo'lgan shaxslarga yordam ko'rsatish xizmatiga rahbarlik qiladi va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni o'tayotgan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshiradi;

• *voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudya* sog'lig'i, xavfsizligi, axloqi va tarbiyasi tushkun bo'lgan bolalar himoyasi uchun zaruriy tarbiyaviy tushkun choralarni ko'radi. U homiylik, oilaviy yoki ijtimoiy nafaqalar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudya vazifalarini ham bajaradi. Jinoyat ishlari bo'yicha u o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek, sodir etilishi uchun o'n olti yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar javobgarlikka tortiladigan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni yakka tartibda ko'rib chiqadi va voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalash uchun zaruriy choralarni tayinlaydi.

2. *Apellatsiya sudi va assizlar sudi*. Apellatsiya sudlari ularning sud okrugidagi jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha barcha birinchi instansiya sudlari tomonidan ustidan appellatsiya shikoyatini keltirish huquqini taqdim etgan holda chiqarilgan qarorlarni (hay'at tarkibida) qayta ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan ikkinchi darajaning yagona sudlari hisoblanadi. Apellatsiya sudlari palatalardan iborat bo'ladi.

Assizlar sudi unga appellatsiya sudining ayblov palatasi tomonidan berilgan jinoyatlar (eng og'ir jinoyatlar) to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

3. *Kassatsiya sudi* sud iyerarxiyasida eng yuqori instansiya hisoblanadi: u fuqarolik ishlari bo'yicha besh palatadan va jinoyat ishlari bo'yicha bir palatadan iborat bo'ladi. Kassatsiya sudining vazifasi fuqarolik ishlari bo'yicha ham, jinoyat ishlari bo'yicha ham oxirgi instansiya bo'yicha chiqarilgan va ustidan shikoyat keltirilgan qarorlarning qonunga muvofiqligini tekshirishdan iboratdir. Mazkur sud sud amaliyotining bir xilligini ta'minlashda hamda huquq ijodkorligi jarayonida muhim rol o'ynaydi.

**B. Maxsus sudlar.** 1. *Kichik instansiya tribunali va politsiya sudi*. Ushbu quyi turuvchi sud summasi 13 ming yevrogacha bo'lgan barcha shaxsiy va mulkiy da'volar bo'yicha (ushbu holda qarorlar uzil-kesil tushga ega bo'ladi); shuningdek, chiqarilgan qarorlar ustidan shikoyat keltirish imkoniyatini taqdim etgan holda da'vo summasi 30 ming yevrogacha bo'lgan ishlar bo'yicha yakka tartibdagi sudya sifatida faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, kichik instansiya sudi vasiylik ishlari bo'yicha sudya vazifalarini bajaradi; cheklangan ishlar doirasi bo'yicha predmetli sudlovga tegishlilikka ega bo'ladi; shuningdek, turli suddan tashqaridagi vakolatlarni amalga oshiradi.

Jinoyat ishlari bo'yicha kichik instansiya sudi *politsiya sudi* deb nomlanib, sodir etilishi uchun 10 ming yevrodan ko'p bo'lmagan jarima to'lanishi nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'radi. Kichik instansiya sudining ishi katta instansiya tribunalining sudyalari tomonidan ta'minlanadi.

2. *Savdo sudyalari* hamkasblar tomonidan savdo operatsiyalariga doir nizolarni oxirgi instansiyada hal qilish uchun saylanadigan tijoratchilardan iborat bo'ladi.

3. *Ijtimoiy masalalar bo'yicha sudlar* (pyudomlar kengashlari) tarkibiga teng asosda saylanadigan a'zolar (ikkitasi ish beruvchi, ikkitasi esa xodimlar tarafidan), shuningdek, zarurat tug'ilganda, ya'ni ovozlarning tengligini bartaraf etish uchun kichik instansiya sudining sudyasi kiradi. Ular mehnat shartnomalari va h.k. bilan bog'liq individual nizolarni hal qilish bo'yicha tegishli vakolatlarga ega bo'ladi.

4. *Dengiz savdo sudlari*. Ularning vazifasi kemalarning savdo bilan yurishi sohasida Jinoyat kodeksining muayyan buzilishlarini ko'rib chiqish hisoblanadi.

5. *Harbiy adliya*. Qurolli kuchlar sudlari urush davrida faoliyat yuritib, Harbiy adliya kodeksining buzilishlarini hamda harbiy xizmatchilar yoki ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan umumjinoiy jinoyatlarni ko'rib chiqadilar. Bundan tashqari, xorijda joylashgan qurolli kuchlarning xizmatchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun harbiy sudlar ham mavjud.

Tinchlik davrida harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar va jinoyatlar magistratlar, ya'ni harbiy masalalar bo'yicha mutaxassislardan iborat bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha umumiy yurisdiksiya sudlarining sudloviga tegishli bo'ladi.

6. *Siyosiy adliya: Odil sudlov yuqori palatasi va Respublika odil sudlov palatasi*. Odil sudlov yuqori palatasi Respublika Prezidenti davlatga xoinlik qilganida uni hukm qilish bo'yicha mutlaq vakolatlarga ega. U parlament tomonidan saylangan parlament a'zolaridan iborat bo'ladi.

Odil sudlov palatasi siyosiy sud vazifalarini ham bajarib, o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar uchun hukumat a'zolarini hukm qiladi. Palata 15 nafar sudyadan iborat bo'lib, ularning 12 nafari — teng miqdorda Senat va Milliy yig'ilish tomonidan o'z a'zolari sonidan saylangan parlament a'zolari, 3 nafari — Kassatsiya sudining a'zolari.



**Sudyalar.** Umumiy sudlar tizimining sudyalari o'z lavozimlariga Respublika Prezidentining dekreti bilan tayinlanadi; Kassatsiya sudining mansabdor shaxslari va apellatsiya sudlarining birinchi raislari Magistratura oliy kengashining tavsiyasiga asosan, qolgan sudyalar esa — Adliya vazirining taqdimnomasiga binoan, Magistratura oliy kengashining ijobiy xulosasi bilan tayinlanishadi. Ma'muriy tribunallarning sudyalari Adliya vaziri bilan kelishilgan holda Ichki ishlar vazirining taqdimnomasiga binoan, hukumat dekretlari bilan tayinlanadilar. Qoida tariqasida, umumiy vakolatlar sudyalari konkurs tanlovidan o'tganlaridan hamda kirish uchun oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish shart bo'lgan Magistratura milliy maktabini bitirganlaridan so'ng tayinlanadilar. Ma'muriy sudlar sudyalari Milliy ma'muriy maktabning bitiruvchilari orasidan tayinlanadilar.

Kassatsiya sudining tarkibiga tayinlanish uchun yuqoriroq talablar belgilangan (ancha yuqori lavozimda sudya bo'lib ishlash tajribasiga ega bo'lish yoki universitetning professori sifatida ishlash). Konstitutsiya (64-modda) umumiy vakolatlar sudyalarini almashtirib bo'lmasligi prinsipini e'lon qiladi. Sudya o'z lavozimidan faqatgina jiddiy huquqbuzarlik sodir etishi yoki og'ir kasalligi munosabati bilan Magistratura oliy kengashi tomonidan bo'shatilishi mumkin. Sudyaning roziligisiz uning lavozimini o'zgartirishga, shu jumladan, sudyani yuqoriroq lavozimga ko'tarishga yo'l qo'yilmaydi. Sudyalar 65 yoshga to'lganda, Kassatsiya sudining sudyalari va uning birinchi raisi esa, 1988-yilda o'rnatilgan qoidalarga muvofiq, tegishincha 66 va 68 yoshga to'lganda iste'foga chiqadilar.

**Prokuratura.** Fransiya huquqiy tizimining hamda davlat-huquqiy organlari tuzilishining yuqori rivojlanganligi tufayli mazkur davlatda prokuratura o'z funksiyalarini ko'p darajada jinoiy ta'qib organi, sudda ijro etuvchi hokimiyatining boshqa ishlar bo'yicha vakili sifatida bajaradi va bevosita Adliya vazirligiga bo'y-sunadi. Fransiya Konstitutsiyasida prokuratura to'g'risida faqat bilvosita, asosan, Magistratura oliy kengashining tarkibi va vakolatlarini belgilash munosabati bilan aytib o'tilgan. Asosan, uning faoliyati turli umumiy qonun hujjatlari (ordonanslar) va tarmoq qonunchiligi (Fransiya JPKning «Prokuratura to'g'risida»gi II bobi va boshq.) bilan tartibga solinadi.

Fransiya prokuraturasi Adliya vaziri rahbarligi ostida bo'lgan hamda iyerarxiya tartibida tashkil etilgan va markazlashtirilgan organlar tizimidir. Fransiya prokuraturasining tuzilmasi tashkiliy

jihatdan sud tizimining tuzilmasi bilan bir xil bo'lib, Kassatsiya sudi, apellatsiya sudlari huzuridagi bosh prokurorlar, bosh advokatlar va ularning o'rinbosarlari, katta instansiya sudlari huzuridagi Respublika prokurorlari va ularning o'rinbosarlari orqali faoliyat yuritadi. Ularning barchasi sud tizimining magistratlari maqomiga ega bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, prokuratura sudlarning aksariyati huzurida tashkil etilgan.

Hisob palatasi huzurida ham Bosh prokuror va uning ikki o'rinbosaridan iborat bo'lgan prokuratura mavjud, ko'rsatilgan prokurorlarning vazifasi davlatga vakillik qilish va sud amaliyotining yagonaligini kuzatib borishdir.

Fransiyada prokuratura idorasining oliy mansabdor shaxsi Kassatsiya sudi huzuridagi Bosh prokuror hisoblanadi. O'z apparati bilan u prokuratura organlarining tizimida alohida o'rin egallaydi, chunki uning funksiyalari mazkur sudda ishtirok etish bilan cheklanadi.

Turli darajali prokurorlar o'rtasidagi munosabatlar qat'iy mansab subordinatsiyasi qoidalariga asoslanadi, ya'ni yuqori turuvchi prokurorlar quyi turuvchi prokurorlarga to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmalar berishga va ulardan hisobot berishni talab qilishga haqlidir.

Bosh prokurorlar bevosita Adliya vaziriga bo'ysunadi. O'z navbatida, ular mazkur apellatsiya sudining vakolatlari amal qiladigan tumandagi prokuraturaning barcha mansabdor shaxslariga ko'rsatmalar berishga haqlidir.

Respublika prokuroriga uning vakolatlari amal qiladigan tumanda joylashgan politsiya tribunallari huzuridagi prokuraturaning mansabdor shaxslari bo'ysunadi. Barcha prokurorlar Adliya vazirining taklifiga ko'ra va Magistratura oliy kengashining prokurorlar bo'yicha vakolatli bo'lgan palatasining xulosasi bilan Respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi va o'z lavozimlaridan bo'shatiladi. Fransiya Konstitutsiyasining 65-moddasiga muvofiq, mazkur palata tarkibiga, Respublika Prezidenti va Adliya vaziridan tashqari, besh prokuror va bir sudya, davlat maslahatchisi hamda na Parlament, na sud hokimiyatining organlari tarkibiga kirmaydigan va Respublika Prezidenti, Milliy yig'ilish raisi va Senat raisi tomonidan tayinlanadigan uch shaxs kiradi.

Biroq, Kassatsiya sudi va apellatsiya sudlarining Bosh prokurorlari Respublika Prezidenti tomonidan yuqorida ko'rsatilgan palataning fikrini inobatga olmagan holda tayinlanadilar. Magistratura oliy kengashi prokuratura mansabdor shaxslari ishlari bo'yicha prokuratura mansabdor shaxslariga intizomiy jazo cho-

ralarini qo'llash masalalari yuzasidan ham o'z fikrini bayon etadi. Mazkur holda ushbu kengash yig'ilishida Kassatsiya sudining huzuridagi Bosh prokuror raislik qiladi.

Prokurorga jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi siyosatni belgilash bo'yicha vakolatlar taqdim etilgan bo'lib, prokuror mazkur siyosatga uni jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha umum-milliy siyosatning asosiy imperativlariga muvofiqlashtirilgan holda rioya etishi shart.

JPKning 34- va 39-moddalariga ko'ra, prokuratura jinoiy ta'qibni qo'zg'atishga huquqi bor, u dastlabki tergov ustidan nazoratni amalga oshiradi va sudda ayblovni quvvatlaydi.

Bosh prokurorlar apellatsiya sudlarining vakolatlari amal qilgan hududida (mazkur hududda ularga prokuraturaning barcha mansabdor shaxslari bo'ysunadi) jinoyat qonunining qo'llanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Bosh prokuror sud politsiyasining mansabdor shaxslari va agentlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Politsiyaga topshiriqlar berish, odil sudlovni amalga oshirish uchun zaruriy ma'lumotlarni yig'ish huquqi ham Bosh prokurorga taqdim etilgan.

Respublika prokurori sud politsiyasi mansabdor shaxsining barcha huquq va vakolatlariga ega bo'ladi va, aslida, tergov bilan shug'ullanadigan politsiya xizmatlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi. Jinoyat ishi kimning tashabbusi bilan qo'zg'atilganligidan qat'i nazar, uni davom ettirish va sudda ayblovni quvvatlash bo'yicha mutlaq huquqlar jamiyat manfaatlarida va adolat uchun faoliyat yuritadigan prokuraturaga taqdim etilgan.

Prokuror suddan mustaqil bo'lib, uning sudyalar va prisyajniylar tomonidan rad qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

JPKning 32-moddasiga muvofiq, prokurorga taraf tushunchasi tatbiq etilmaydi va shu sababli sud prokuror bilan protsess tarafi sifatida muomala qilishga, xususan, unga nisbatan sanksiyalarni qo'llashga haqli emas. Sudya bilan teng asosda prokuror so'roqning har qanday paytida sudlanuvchiga va guvohlarga savollar berishi mumkin, bunda u xolis bo'lmaganligi oldindan ayon bo'lgan pozitsiyani himoya qilganida ham ayblanuvchining himoyachisi tomonidan rad qilinmaydi.

Jinoyat qonunining buzilishi jinoyat da'vosini qo'zg'atish orqali huquqbuzarga nisbatan sudlov ta'qibni boshlash bo'yicha davlatning muayyan huquq va majburiyatlarini yuzaga keltiradi. Jinoyat da'vosi prokuratura tomonidan davlat nomidan yoki kelib

tushgan bayonnomalar, shikoyatlar, xabarlar asosida, shuningdek, jabrlanuvchining shikoyati bo'yicha bevosita prokuraturaning tashabbusi bilan qo'zg'atiladi.

Jinoyat ishini olib borishda prokuratura qamoqda saqlash va Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Konvensiyaning 5-, 6-moddalarida belgilangan choralar davomiyligining oqilona xarakteriga rioya etilishi haqida doimiy ravishda g'amxo'rlik qiladi. Ushbu sohadagi har qanday harakat protsess borishini tezlashtirishga, na jabrlanuvchilarga, na tergov ostida bo'lganlarga nosog'lom sustlik sababli zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qilishi zarur. O'ziga xos jihat shundaki, Fransiya prokuraturasiga jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilishda juda katta erkinlik taqdim qilingan. Bunda prokuratura ta'qibning qonuniyligi prinsipi o'rniga, ko'proq ta'qibning maqsadga muvofiqligi prinsipiga rioya etadi.

Ta'kidlash lozimki, Fransiyada jinoyat ishlarini qo'zg'atishni rad etish darajasi hozirgi kunda odil sudlov organlariga taqdim etilgan barcha ishlarining taxminan 70 % ini tashkil qiladi. Shunga qaramasdan, Fransiya prokuraturasiga taqdim etilgan maqsadga muvofiqlikni belgilash bo'yicha vakolat cheklangan tusga ega, chunki u faqatgina qarorlarni qabul qilish bosqichida amalga oshiriladi, prokuratura jinoyat ishini qo'zg'atish yoki, aksincha, qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir. Biroq, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, Fransiya huquqiga muvofiq, jinoyat ishiga jamiyat egalik qiladi: prokuror bunday paytda jinoiy ta'qibni amalga oshirishdan voz kechishga haqli emas. U faqatgina jinoyat ishi qo'zg'atilgan shaxsning manfaatlarida dastlabki tergov tamom bo'lganida ishni tugatish to'g'risida yoki sud majlisida oqlov hukmni chiqarish to'g'risida iltimos qilishi mumkin. Shunday qilib, qaror qabul qilishga faqat ishni ko'rib chiqayotgan sud yoki tergov idorasiga haqli bo'ladi.

Respublika prokurori shikoyat va xabarlarni qabul qiladi hamda ular bo'yicha tezkor ravishda qarorlar qabul qiladi (JPKning 40-moddasi 1-bandi).

Sud politsiyasi faoliyati ustidan nazorat olib borish sohasida prokurorning vakolatlari ancha keng. Prokuratura magistratlari va sud politsiyasining ofitserlari o'rtasida kecha-kunduz telefon aloqasi o'rnatilgan. Prokuror hodisa to'g'risidagi politsiya hisobotini eshitib, darhol quyidagi yetti qarordan birini qabul qiladi:

1) jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish. Qoida tariqasida, mazkur qaror ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan huquqbuzarliklarni birinchi marta sodir etgan shaxslargagina nisbatan qabul qilinadi;

2) darhol jinoyat ishini qo'zg'atib, politsiya xodimiga huquqbuzarni axloq tuzatish sudiga kelish zarurati haqida xabardor qilish bo'yicha ko'rsatma berish. Mazkur qaror kichik yoki o'rtacha huquqbuzarliklarni, biroq ayrim hollarda og'ir huquqbuzarliklarni ham sodir etgan shaxslarga nisbatan qabul qilinadi;

3) huquqbuzarni keyinchalik axloq tuzatish sudiga jo'natish uchun darhol prokurorga olib kelish haqida surishtiruvchiga ko'rsatma berish. Mazkur qaror sodir etilgan qilmish uchun bir yildan yetti yilgacha turmaga qamash jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan hollarda qabul qilinadi;

4) surishtiruv olib borayotgan shaxsga tergov qilishni boshlash uchun unga huquqbuzarni olib kelish haqida ko'rsatma berish. Bunda prokuratura ish yuritishni boshlash uchun dastlabki tergovni olib borish haqidagi prokurorning talabnomasini chiqaradi. Bu vaqtning o'zida vaqtinchalik qamoqqa olish to'g'risidagi masala hal qilinadi. Ushbu qarorni prokuror shaxs tomonidan og'ir jinoyat sodir etilganida qabul qiladi;

5) surishtiruvchiga huquqbuzarni prokuraturaga olib kelish bo'yicha ko'rsatma berish. Prokuror o'zi tegishli bayonnoma bilan huquqbuzarni axloq tuzatish sudiga kelish zarurati haqida xabardor qiladi;

6) surishtiruvchiga huquqbuzarni muayyan kun va soatda axloq tuzatish sudiga kelish zarurati haqida xabardor qilish bo'yicha ko'rsatma berish. Hozirgi kunda huquqbuzarlar sudda hozir bo'lish zarurati haqida ko'plab hollarda aynan sud politsiyasi ofitseri yoki agenti tomonidan xabardor qilinadilar, chunki xabardor qilishning mazkur usuli juda samarali bo'ladi: u sudga to'g'ridan to'g'ri chaqirishga tenglashtiriladi va, shunday qilib, sudlanuvchi sud majlisiga kelishi yoki kelmasligidan qat'i nazar, uni kontra-diksiya prinsipiga asosan, hukm qilishga imkon beradi;

7) huquqbuzarni ozod etish va surishtiruv olib borilishini davom ettirish haqida politsiya xizmatiga ko'rsatma berish.

Shunday qilib, xulosaga kelish mumkinki, Fransiyada prokuratura klassik modelga ega. U prokuratura organlarini tashkil etish va shakllantirishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda yuridik amaliyotida ancha keng vakolat va imtiyozlarga ega bo'lgan nazorat qiluvchi mustaqil organ vazifalarini bajaradi.

**Advokatura.** Fransiyada advokatlarning faoliyati quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan:

- maslahat faoliyati;
- taraflarga yordam ko'rsatish;
- sudda vakillik qilish.

Advokatlar metropoliya va dengiz ortidagi hududlarda katta instansiya sudlari huzurida tashkil etilgan 183 hay'atga birlashgan; har bir hay'atga uning raisi rahbarlik qiladi, faoliyatini esa advokatlar professional faoliyatining barcha masalalarini ko'rib chiqishga, advokatlar tomonidan ularning majburiyatlari bajarilishi ustidan nazorat qilishga, shuningdek, advokatlar huquqlarini himoya qilishga vakolatli bo'lgan advokatlar hay'atining kengashi boshqaradi.

1990-yilda Advokatlar hay'atlarining milliy kengashi tashkil etilgan bo'lib, u quyidagilarni amalga oshiradi:

- advokatlik kasbiga davlat hokimiyat organlari oldida vakillik qilish;
- professional qoidalar va odatlar kelishilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- professional ta'lim sohasida ishtirok etish.

Advokatlar hay'atiga kirish uchun huquq magistri diplomiga va advokatlik kasbida ishlashga tayyor bo'lganligi haqidagi guvohnomaga ega bo'lish kerak. Ushbu guvohnomaning egasi dastlab ikki yillik muddatga stajirovka ro'yxatiga va undan keyingina to'liq huquqli advokatlar ro'yxatiga kiritiladi.

## 17.5. Yaponiya

**Sud tizimi.** Hozirgi zamon Yaponiya sud tizimi 1947—1948-yillardagi islohotlar natijasida yaratildi. Bu tizim Oliy sudni, yuqori sudlarni, hududiy, oilaviy va boshlang'ich sudlarni o'z ichiga qamrab oladi. Yapon sud tizimiga rahbarlik Oliy sud tomonidan amalga oshirilib, u oliy sud instansiyasi sifatida, oliy konstitutsiyaviy nazorat organi sifatida va quyi turuvchi barcha sudlar ustidan rahbarlik qiluvchi organ sifatida keng vakolatlarga egadir. Oliy sud nafaqat sudlarning, balki advokatlarning ish qoidalarini belgilaydi, bu qoidalarga prokurorlar ham rioya etishlari lozim. Oliy sud Tokioda joylashgan bo'lib, rais va 14 nafar sud a'zosidan iborat.

Oliy sud so'nggi instansiya sifatida fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha quyi sudlarning qarorlari va hukmlari ustidan keltirilgan

shikoyatlarni, odatda, besh sudyadan iborat hay'at tarkibida ko'rib chiqadi. Oliy sud o'z ish yurituviga ishning faktik holatlarini baholash yuzasidan emas, balki faqat huquq masalalari bo'yicha shikoyatlarni qabul qiladi (shikoyat keltirilayotgan qarorning xususiyati, uni chiqargan sud instansiyasining darajasi va h.k.larga ko'ra, sud qarorlari ustidan shikoyat keltirishning bir necha turi mavjud). Oliy sud, albatta, to'la tarkibda qonun hujjatlari yoki ma'muriy hujjatlarning Konstitutsiyaga zidligi yuzasidan shikoyatlarni, shuningdek, Konstitutsiyani sharhlash yoki unga o'zgartirishlar kiritish yoxud Oliy sud o'zining avvalgi qarorlariga o'zgartirish kiritish masalasi yuzaga kelgan ishlarni ko'rib chiqadi.

*Yuqori sudlar* (ular sakkizta bo'lib, mamlakatning turli qismlaridagi yirik shaharlarda joylashgan), asosan, apellatsiya instansiyasi sifatida ish yuritib, uch sudyadan iborat hay'atda fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha quyi turuvchi sudlarning qarorlari va hukmlari ustidan, jumladan, ikkinchi instansiya bo'yicha chiqarilgan qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, besh sudyadan iborat hay'atda davlatga qarshi jinoyatlar ko'rib chiqiladi. Oliy sud qaroriga muvofiq, zarur hollarda har bir yuqori sudning bir-ikki bo'linmasi (filiali) qo'shimcha ravishda ta'sis etilishi mumkin.

Yaponiya sud tizimining eng muhim bo'g'ini *hududiy sudlar* bo'lib, ular 47 ta prefekturaning har biri markazida joylashgan (ularning aksariyati boshqa shaharlarda o'z bo'linmalariga ega). Ularda birinchi instansiya bo'yicha yuqori va boshlang'ich sudlar sudloviga tegishli bo'lgan ishlardan tashqari, fuqarolik va jinoyat ishlarining asosiy qismi ko'riladi (ayrim hududiy sud bo'linmalarining vakolatlari toifasiga ko'ra, biroz cheklangan). Shuningdek, bu sudlar fuqarolik ishlari bo'yicha boshlang'ich sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Yaponiya sud tizimida *oilaviy sudlar* alohida o'rin egallashadi. Ular hududiy sudlar bilan bitta sudlar darajasini tashkil etib, mazkur sudlar bilan bir xil shaharlarda tashkil etiladi. Ularning vakolat doirasiga er-xotin o'rtasidagi mulkiy va nomulkiy tUSDagi nizolarni, meros to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, 20 yoshga to'lgunga qadar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni (voyaga yetmaganlar tomonidan jiddiy jinoyat sodir etilgan hollarda ayblovning asosiligi oilaviy sudga tekshirilganidan so'ng ish hududiy sudga o'tkaziladi) hal qilish kiradi.

*Boshlang'ich sudlar* eng quyi instansiya bo'lib, da'vo miqdori kam bo'lgan (bu miqdor vaqt-vaqti bilan Oliy sud tomonidan qayta ko'rib chiqib turiladi) fuqarolik ishlarini hamda jarima ko'rinishidagi jazo tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyat ishlarini, shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladigan ayrim toifadagi jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi (mazkur sudlar ko'pi bilan uch yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashga haqlidir). Boshlang'ich sudlarda ishlar sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Yapon sudlarining birortasida ham prisyajniylar mavjud emas. 1923-yilda prisyajniylar sudi ta'sis etilib, biroq, prisyajniylar sudi tomonidan chiqarilgan hukm ustidan shikoyat keltirish mumkin bo'lmaganligi sababli ishi prisyajniylar ishtirokida ko'rilishiga haqi bo'lgan shaxslarning 99 % i ulardan foydalanishdan bosh tortishgan. 1946-yildagi Konstitutsiyada va undan keyingi qonun hujjatlarida prisyajniylar sudi to'g'risida so'z yuritilmagan.

Konstitutsiyaviy nazorat, ya'ni qonun hujjatlari yoki ma'muriy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish faqat Oliy sud tomonidan emas, balki quyi turuvchi sudlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin, ularning ayrimlari so'nggi o'n yilliklar ichida ham ichki, ham tashqi siyosatga daxldor muhim hukumat qarorlarini Konstitutsiyaga zid deb topish to'g'risidagi o'ta ilg'or nuqtayi nazardagi qarorlarni bir necha bor qabul qilishgan. 1947-yildan Yaponiyada ma'muriy adliya tizimi mavjud emas, shu sababli ma'muriy organlarning xatti-harakatlari ustidan keltirilgan shikoyatlar birinchi instansiya bo'yicha hududiy sudlarda fuqarolik ishlarining bir turi sifatida ko'rib chiqiladi.

**Sudyalar.** Yaponiyada barcha sudyalari o'z lavozimlariga 10 yillik muddatga tayinlanadi. Tayinlanishlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan, aksariyat sudlarda Oliy sud tomonidan tuzilgan nomzodlar ro'yxati asosida amalga oshiriladi (Oliy sud raisi imperator tomonidan tayinlanadi). 10 yil o'tgach, sudya o'z lavozimiga qayta tayinlanishi mumkin, ushbu jarayon qonunda belgilangan iste'fo yoshiga (65 yoki 70 yosh) yetgunga qadar davom etadi. Konstitutsiyada sudya nufuzini oshirishga qaratilgan bir qator choralar ko'zda tutilgan.

Xususan, Oliy sud a'zozligiga tayinlanishdan oldin Vakillar palatasiga o'tkaziladigan navbatdagi saylovlar davomida «xalq ko'rigidan» o'tish lozim. Agar saylovchilarning aksariyati biron-bir sudyani ishdan chetlatishni talab qilsa, u holda o'sha sudya o'z lavozimidan mahrum bo'ladi. Bunday protsedura har o'n yilda



qaytariladi. Mazkur qoidalar tashqi tomondan juda samarali ko'rinsa-da, ko'pchilik yapon davlatshunoslari bunga jiddiy shubha bilan qarashadi, chunki saylovchilarning ko'pchiligi Oliy sud a'zolarini yaxshi bilishmaydi va ovoz berishga jiddiy ahamiyat berilmaydi. Barcha sudlar sudyalari o'z vazifalaridan oshkora muhokama qilish natijasida impichment jarayoniga muvofiq, chetlatilishlari mumkin (impichment jarayoni sudyani ayblash parlamentning maxsus organlari tomonidan muhokama qilinishini bildiradi).

Sudyalik lavozimini egallash uchun, shuningdek, prokuror yoki advokat bo'lish uchun qat'iy tanlov qoidalari belgilangan. Ko'rsatilgan uch yo'nalishning birida o'zini amaliy faoliyatga bag'ishlashni xohlagan yapon universitetlari yuridik fakultetlarining bitiruvchilari Adliya vazirligi maxsus komissiyasi tomonidan har yili o'tkaziladigan imtihonlardan o'tishlari lozim. Mazkur komissiya tomonidan qo'yiladigan talablar shunchalik yuqoriki, imtihon topshiruvchilarning 2—3 % igina ushbu talablarga javob bera oladi. Yaponiyada professional yuristlar korporatsiyasi o'z hamkasblari sonini ataylab cheklaydi: 120 million aholisi bo'lgan mamlakatda 2000 sudya, 2100 prokuror, 12000 ga yaqin advokat bo'lib, bu boshqa kapitalistik mamlakatlardagidan ancha kamdir. Yaponiyada yangi kadrlarning asosiy manbasi bo'lmish adliya xodimlarini tayyorlash kurslari g'alviridan yiliga ko'pi bilan 500 kishi o'tadi<sup>1</sup>.

**Prokuratura.** Yaponiya prokuratura organlarining tashkil etilishi va vakolatlari 1944-yildagi Prokuratura to'g'risidagi dekret bilan belgilangan. Mazkur dekret bilan u oldin huzurida bo'lgan tribunallarning ma'muriy bo'ysunuvidan chiqarilgan edi. Hozirgi kunda prokuratura o'z ahamiyatiga ko'ra, muhim hisoblangan Adliya vazirligi tizimi tarkibiga kiradi. Prokuratura Bosh prokurorga bo'ysunuvchi markazlashtirilgan tashkilot bo'lsa-da, uning tuzilishi, avvalo, sud tizimiga muvofiqlashtirilgan: Oliy sud huzurida va quyi turuvchi instansiya sudlari huzurida Bosh prokuratura-ning xizmati mavjud.

Qonunga ko'ra, Adliya vaziri davlat prokurorlari ustidan, odatda esa, ularning majburiyatlari qanday tarzda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi zarur. Biroq, muayyan ishlarni tergov qilish va ular bo'yicha qarorlar qabul qilish haqida gapiradigan bo'lsak, vazir Bosh prokurorning faoliyatigina nazorat qilishi mumkin.

Davlat prokurorlari sudyalar bilan bir xil maqomga ega bo'ladilar. Ularning mustaqilligi va xolisligi qonun bilan himoya qilinadi. Prokurorlarni ularning roziligisiz xizmatdan bo'shatishga, o'z

majburiyatlarini bajarishdan vaqtincha chetlatishga yoki ularning ish haqini kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi, intizomiy huquqbu-zarliklar sodir etish holatlari bundan mustasno.

Markazlashtirish prinsipiga asoslangan prokuratura organlari tizimiga quyidagilar kiradi: Oliy prokuratura, bosh prokuraturalar (Tokio, Osaka, Nagoya, Xirosima, Senday, Sapporo va Takamatsu), okrug prokuraturalari (47 ta prefektura okruglarining har birida bitta okrug prokuraturasi tashkil etilgan, Xokkaydo bundan mustasno bo'lib, mazkur ma'muriy tumanning katta bo'lganligi tufayli unda to'rt prefektura tashkil etilgan) hamda tuman prokuraturalari (yirik shahar, tuman va qishloqlarning har birida bitta tuman prokuraturasi tashkil etilgan).

Bundan tashqari, har bir Bosh va Okrug prokuraturasi o'z ishining muayyan qismini bajarish uchun tegishli bo'linmalariga ega bo'ladi. Prokuratura tarkibiga quyidagi davlat prokurorlari kiradi: Bosh prokuror, Bosh prokurorning o'rinbosarlari, nazorat qiluvchi prokurorlar, prokurorlar, prokurorlarning o'rinbosarlari, shuningdek, prokurorlarning yordamchilari va h.k.

Oliy (Bosh) prokuror barcha prokurorlarga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Har bir Okrug sudida 11 a'zodan iborat bo'lgan hamda Parlament quyi palatasi delegatlarining saylovlarida ovoz berish huquqiga ega bo'lgan aholi vakillari orasidan saylanadigan Ayblash bo'yicha tergov qo'mitasi mavjud. Qo'mita jabrlangan taraf yoki da'vo qo'zg'atish yoxud ayblov e'lon qilish huquqiga ega bo'lgan shaxsning so'roviga binoan, tergov olib boradi. Qo'mita xulosasi ayblov tarafi uchun majburiy bo'lmaganligiga qaramasdan, unga katta hurmat bilan qaraydilar.

Oliy (Bosh) prokuror Vazirlar Mahkamasi (Hukumat) tomonidan tayinlanadi va lavozimidan bo'shatiladi, tegishli qarorni Imperator tasdiqlaydi.

Prokuror lavozimiga nomzodlar davlat konkursidan, undan so'ng ikki yillik stajirovkadan va keyinchalik yana bir davlat konkursidan o'tishlari lozim. Konkursdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzod doimiy prokuror lavozimiga tayinlanadi.

Jinoyat ishlarida prokurorlar quyidagi vakolatlariga ega:

- har qanday jinoyatni tergov qilish;
- jinoiy ta'qibni boshlash yoki boshlamaslik;
- sudlardan qonunlarning to'g'ri ijro etilishini talab qilish;
- hukm ijro etilishini nazorat qilish.

Bundan tashqari, prokurorlar jamoat manfaatlarining vakillari sifatida ularning zimmasiga Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlar bilan yuklatiladigan funksiyalarni ham bajaradilar.

Prokuror vakolatlari mamlakat va jamiyatda qonuniylikni va huquq-tartibotni saqlash va himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Prokuror vakolatlaridan foydalanish adolatlilik va beg'arazlikdan chetga chiqishga yo'l qo'ymaydigan prinsipga asoslanadi, jinoyat ishlari esa ayblanuvchi shaxsining huquqlarini lozim darajada hurmat qilgan holdagina tergov qilinadi.

Prokurorning faoliyati yapon protsessida 1948-yildagi Jinoyat protsessual kodeksi bilan tartibga solinib, prokuror jinoyat sud ishlarini yuritishda qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi va jinoiy ta'qib va tergov organi vazifalarini bajaradi. Faqat prokurorlarga gumon qilinuvchilarni qamoqqa olish va ularga nisbatan jinoiy ta'qibni amalga oshirish haqida sudyaga iltimos bilan murojaat qilishlari mumkin.

Davlat prokurorlari ularga politsiya tomonidan ko'rib chiqish uchun berilgan ishlarni tergov qilishga, shuningdek, politsiya ishtirokisiz ishlarni qo'zg'atishga (amaliyotda prokurorlar mazkur huquqidan ko'plab hollarda foydalanadilar) haqlidir. Bu holat yirik siyosatchilar yoki davlat xizmatchilari yoxud katta biznes vakillari aralashgan korrupsiya va moliyaviy firibgarlik to'g'risidagi ishlarga tegishlidir.

Bunda prokurorlar gumon qilinuvchiga ayb e'lon qilish uchun dalillar yetarli bo'lsa-da, biroq mazkur shaxsga nisbatan jinoiy ta'qibni amalga oshirmaslik bo'yicha diskretion vakolatlarga ega bo'ladi. Ular ko'plab omillarni, ayniqsa, gumon qilinuvchilarni rasmiy jazoni tayinlamagan holda reabilitatsiya qilish imkoniyatini inobatga oladilar.

Prokuror shaxsan jinoyatlarni tergov qilishga va shu munosabat bilan sud politsiyasi agentlari hamkorligida zaruriy dalillarni to'plashga haqlidir. Prokuror ushbu agentlarga ko'rsatmalar berishi hamda jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha ular bilan hamkorlik qilishning samaradorligini oshirish maqsadida ular tomonidan ko'rsatilayotgan yordam masalalari bo'yicha ularga instruktaj berishi mumkin.

Prokuror tergov boshlanguniga qadar ham, sud politsiyasi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuror politsiya faoliyatida jinoyatchilarni qidirish va dalillarni to'plash bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya etilishini ta'minlashi zarur. Shu munosabat bilan u politsiya xodimlariga tegishli ko'rsatmalarni berishga haqli. O'z harakatlarini oxirigacha yetkazib, sud politsiyasi

ishni prokurorga o'tkazadi. Agarda bunda politsiya gumon qilinuvchini ushlab turayotgan bo'lsa, gumon qilinuvchi prokurorga 48 soat ichida olib boriladi. Kichik huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar prokurorga jo'natilmaydi. Ular haqida, odatda, faqatgina hisobot beriladi.

Sud protsessida prokuror taraflarning biri sifatida ishtirok etadi. U ayblovni e'lon qilib, uni isbotlashi zarur. Shu maqsadda, ayblovning har bir bandini isbotlash uchun prokuror har qanday o'ziga qulay vaqtda guvohlarni chaqirishi mumkin.

Konstitutsiyaga muvofiq, jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchini u tomonidan jalb qilingan advokat yoki ayblanuvchida advokat xizmatlariga haq to'lash uchun yetarli mablag'lar mavjud bo'lmaganda uning xohishiga ko'ra, davlat tomonidan tayinlanadigan advokat himoya qiladi.

## MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

*Talabalar mazkur mavzuni mustaqil o'rganishda, xorijiy mamlakatlar huquqiy tizimini isloh qilishning zamonaviy tendensiyalarini ko'rib chiqish, ularning qonunchiligi va huquqiy institutlari faoliyatining amaliyotini o'rganish, muayyan xorijiy model amal qilishining ijobiy va salbiy taraflarini aniqlashtirish sud-huquq tizimini samarali isloh qilishning shartlaridan biri bo'lganligini inobatga olishlari lozim. Shu bilan birga, xorijiy tajribaga murojaat etish uzil-kesil javob bermasdan, faqat sud-huquq tizimining samarali isloh qilinishini qanday ta'minlash mumkinligi haqida yanada chuqurroq o'ylashga majbur qiladi. Talaba tegishli manbalar bilan mustaqil ishlagan taqdirda, mazkur mavzu chuqurroq o'rganilishi mumkin.*

### Axborot uslubiy ta'minot

1. *T.V. Анарова.* Суды и судебный процесс Великобритании. Англия, Уэльс, Шотландия. М., 1996.
2. *T.V. Анарова.* Статус судей в Великобритании. Журнал «Российского права», 1999, № 7/8.
3. *C.V. Боботов.* Правосудие во Франции. М., 1994.
4. *C.V. Боботов.* Введение в правовую систему США. М., «НОР-МА», 1997.
5. *Л. Головки.* Реформа уголовного процесса во Франции. Журнал «Государство и право», 2001, № 8.
6. *К.Ф. Гуценко.* Уголовная юстиция США. М., «Юридическая литература», 1979.
7. *К.Ф. Гуценко, Л.В. Головки, Б.А. Филимонов.* Уголовный процесс западных государств. Изд. 2-е доп. и испр. М., «Зерцало-М», 2002.

8. *Дэниэл Джон Мидор*. Американские суды. «Уэст Паблшининг Компани», Сент-Пол, Миннесота, 1991.

9. *О.А. Жидков*. Верховный суд США: право и политика. М., «Наука», 1985.

10. *Д. Карлен*. Американские суды: система и персонал. М., «Прогресс», 1972.

11. *М.И. Клеандров*. Судебные системы государств-участников СНГ: законодательное обеспечение. М., «Юрист», 2002.

12. *В. Ковалёв, С. Чаадаев*. Органы расследования и судебная система Великобритании. М., 1985.

13. *М. Марченко*. Сравнительное правоведение. Общая часть. М., 2001.

14. *В.М. Николайчик*. Уголовный процесс США. М., «Наука», 1981.

15. *Н.Н. Поленский*. Уголовное право и уголовный суд Англии. М., «Юридическая литература», 1969.

16. Правовые системы стран мира. Энциклопедический справочник. Отв. ред. д.ю.н., проф. А.Я. Сухарев. 2-е изд., испр. и доп. М., «НОРМА», 2001.

17. *Ф.М. Решетников*. Правовые системы стран мира (Справочник). М., «Юридическая литература», 1993.

18. *А.К. Романов*. Правовая система Англии. Учебное пособие. М., «Дело», 2000.

19. *А.Х. Саидов*. Сравнительное правоведение. Т., «Adolat», 1999.

20. Судебные системы западных государств. Отв. ред. В.А. Тумаков. М., 1991.

21. Судебные системы европейских стран (Справочник). Перевод с франц. Д.И. Васильева и с англ. О.Ю. Кобякова. М., «Международное отношение», 2002.

22. *У.А. Тухташева, Л.Г. Тон, М.И. Базарова*. Органы прокуратуры зарубежных стран. Учебное пособие. Т., ТГЮИ, 2009.

23. *С.В. Филиппов*. Судебная система США. М., «Наука», 1980.

24. *Б. Филимонов*. Основы уголовного процесса Германии. М., 1994.

25. *Цунео Инако*. Современное право Японии. М., 1981.

# ILOVALAR

---

## O'ZINI O'ZI NAZORAT QILISH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

**1. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Odil sudlovning ushbu prinsipi qaysi qonun hujjatida mustahkamlangan?**

- A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida;
- B. Jinoyat protsessual kodeksida;
- C. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida;
- D. B va C.

**2. Sud zalida ovoz yozish, suratga olish, videoyozuv va kinotasvir faqat ... roziligi bilan amalga oshiriladi.**

- A. O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri;
- B. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi;
- C. Sud majlisida raislik qiluvchi;
- D. Tegishli sudning raisi.

**3. O'zbekiston Respublikasida sud ... da'vat etilgan.**

A. Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va adolatli jazoga tortishga;

B. Ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va osudaligini ta'minlashga, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga;

C. Qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, jinoyatchilikning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga;

D. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari va qonun bilan himoyalananayotgan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga.

**4. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?**

- A. 2000-yil 14-dekabrda;
- B. 1993-yil 6-mayda;
- C. 1995-yil 30-avgustda;
- D. 1992-yil 9-dekabrda.

## **5. Sud apparati qanday vazifalarni bajaradi?**

A. Sud ishini ta'minlash, sudya lavozimiga nomzodlar tanlash, xalq maslahatchilari saylovini tashkil etish;

B. Odil sudlovni amalga oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish bo'yicha sudning ishini ta'minlash, shuningdek, sudning boshqa funksiyalarini bajarish;

C. Nazorat tartibida ishlarni ko'rish, sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqish, sud hay'atlari ishini tashkil etish masalalarini ko'rish;

D. Oliy sud plenumi va rayosatini chaqirish, nazorat tartibida tekshirish uchun ishlarni talab qilib olish.

## **6. Sud hokimiyati amalga oshiradigan sudlov ishlarini yuritishning turlarini aytib bering:**

A. Konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish, fuqarolik sudlov ishlarini yuritish, xo'jalik sudlov ishlarini yuritish, jinoyat sudlov ishlarini yuritish, ma'muriy sudlov ishlarini yuritish;

B. Xo'jalik sudlov ishlarini yuritish, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudlov yurituvu, fuqarolik, jinoyat sudlov ishlarini yuritish;

C. Konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish, mehnat nizolarini hal qilish bo'yicha sudlov yurituvu, fuqarolik sudlov ishlarini yuritish, jinoyat sudlov ishlarini yuritish;

D. Ma'muriy sudlov ishlarini yuritish, konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudlov yurituvu, xorijiy fuqarolar uchun sudlov yurituvu.

## **7. O'zbekiston Respublikasi sud tizimining asosiy kichik tizimlarini (bloklarini) aytib bering:**

A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, xo'jalik sudlari;

B. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, umumiy yurisdiksiya sudlari, xo'jalik sudlari;

C. Harbiy sudlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, xo'jalik sudlari, voyaga yetmaganlar uchun sudlar;

D. Umumiy sudlar, xo'jalik sudlari, ma'muriy sudlar, kassatsiya sudlari.

## **8. Tuman (shahar) sudi qanday shakllantiriladi?**

A. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining tavsiyasiga asosan, Adliya vaziri tomonidan tayinlanadi;

B. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan, Oliy Majlis tomonidan saylanadi;

C. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan tayinlanadi;

D. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

**9. Tumanlararo, tuman (shahar) sudining raisi vaqtincha yo'qligida uning vakolatlarini boshqa sudy zimmasiga yuklatish haqidagi qaror kim tomonidan qabul qilinadi?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- B. Sudyalarning tegishli malaka hay'ati;
- C. Prezident huzuridagi oliy malaka komissiyasi;
- D. Ushbu sudning sudyalari va xalq maslahatchilari.

**10. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sud faoliyati ustidan nazorat kim tomonidan olib boriladi?**

- A. Adliya vazirligi;
- B. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- C. Malaka hay'atlari;
- D. Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi.

**11. Sud apparati quyidagilarni ta'minlaydi:**

- A. Fuqarolarni qabul qilish;
- B. Odil sudlovni amalga oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish bo'yicha ishni bajarish, sudning boshqa funksiyalarini amalga oshirish;
- C. Vaqtincha yo'q bo'lgan sudyalarning majburiyatlarini bajarish;
- D. Xalq maslahatchilarining malakasini oshirish.

**12. Harbiy sudlar tizimiga kiruvchi sudlarni sanab o'ting:**

- A. Harbiy tribunallar, Oliy sud Harbiy hay'ati, garnizonlar harbiy sudlari, Qurolli Kuchlar harbiy sudi, Toshkent shahar harbiy sudi, viloyat harbiy sudlari;
- B. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlar;
- C. Qurolli Kuchlar harbiy sudi, viloyat, tuman harbiy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi harbiy sudi;
- D. Qo'shinlar, birlashmalar harbiy sudlari, flotiliyalar harbiy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati.



**13. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Odil sudlovning ushbu prinsipi qaysi qonun hujjatida mustahkamlangan?**

- A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida;
- B. Jinoyat protsessual kodeksida;
- C. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida;
- D. B va C.

**14. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibini aytib bering:**

A. Rais, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, sudlov hay'atlari raislari, Oliy sud sudyalari, Oliy sud plenumi, Oliy sud rayosati, Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Harbiy hay'at;

B. Rais, xalq maslahatchilari, o'rinbosarlari, Oliy sud plenumi, Oliy sud rayosati, Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Harbiy hay'at, Malaka hay'ati;

C. Sudyalar, rais, raisning o'rinbosarlari, sud apparati, Oliy sud rayosati, Oliy sud plenumi, Harbiy hay'at, Kassatsiya hay'ati;

D. Rais, xalq maslahatchilari, Ilmiy-maslahat kengashi, sud apparati, Oliy sud rayosati, Oliy sud plenumi, Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Harbiy hay'at.

**15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ... sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.**

A. Viloyat, shahar, tuman va harbiy sudlar;

B. Xo'jalik sudlari, viloyat, shahar, tuman va harbiy sudlar;

C. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlar;

D. Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, harbiy, xo'jalik sudlari.

**16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qachon chaqiriladi?**

A. To'rt oyda kamida bir marta;

B. Bir oyda kamida bir marta;

C. Bir oyda ikki marta;

D. To'g'ri javob yo'q.

**17. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi quyidagi ishlarni ko'radi:**

A. Konstitutsiyaviy huquqlar buzilishi yuzasidan fuqarolarning shikoyatlari bo'yicha ishlar;

B. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlar;

C. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonunlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlar;

D. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarining hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlar.

**18. «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?**

- A. 1994-yil 22-sentabrda;
- B. 1995-yil 30-avgustda;
- C. 1995-yil 1-aprelda;
- D. 1993-yil 17-mayda.

**19. Konstitutsiyaviy sud to'xtami ustidan shikoyat bilan qayerga murojaat qilish mumkin?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga;
- B. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga;
- C. To'xtam ustidan shikoyatga o'rin bo'lmaydi;
- D. Keltirilganlar orasida to'g'ri javob yo'q.

**20. Konstitutsiyaviy sudda tegishli material olingan paytdan boshlab, kechi bilan ... ichida ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilinadi.**

- A. Bir oyda;
- B. Yetti kunda;
- C. O'n kunda;
- D. Uch oyda.

**21. Konstitutsiyaviy sudning to'xtami kim tomonidan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin?**

- A. Konstitutsiyaviy sudning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;
- B. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan;
- C. O'z tashabbusi bilan Konstitutsiyaviy sud tomonidan;
- D. Keltirilganlar orasida to'g'ri javob yo'q.

**22. Davlatlararo shartnomaning va normativ hujjatning konstitutsiyaviyligi yuzasidan ko'rib chiqilgan ishning mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning to'xtami ... deb ataladi.**

- A. Xulosa;
- B. Ajrim;
- C. Qaror;
- D. Farmoyish.

**23. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari kim tomonidan muddatidan ilgari tugatiladi?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;
- B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;
- C. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan;
- D. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan.

**24. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tarkibini aytib bering:**

- A. Sudya, xalq maslahatchilari, plenum, rayosat;
- B. Rais, rais o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo'shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosi;
- C. Rais, raisning birinchi o'rinbosari, rais o'rinbosarlari, Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosi, Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sudya, prisyajniylar sudi;
- D. Sudya, xalq maslahatchilari, hay'at, plenum, rayosat.

**25. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari qanday hollarda muddatidan ilgari tugatiladi?**

A. U sudyalik qasamyodini buzganda, u iste'foga chiqish to'g'risida iltimos qilganida, unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi mavjud bo'lsa, sudya ogohlantirilganidan yoki uning vakolatlari to'xtatilganidan keyin ham o'z vazifasiga to'g'ri kelmaydigan faoliyatni davom ettirganida, tibbiy komissiyaning xulosasiga ko'ra, sudya uzoq davom etadigan kasallikka uchragan bo'lsa, u O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganida;

B. U sudyalik qasamyodini buzganda, unga nisbatan sudning ayblov hukmi mavjud bo'lsa, u yetarli malakaga ega bo'lmaganligi yoki sog'lig'i holati sababli o'z vazifalarini bajara olmaganida;

C. U sudyalik qasamyodini buzganda, u iste'foga chiqish to'g'risida iltimos qilganida, unga nisbatan ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qaror chiqarilgan bo'lsa, tibbiy komissiyaning xulosasiga ko'ra, sudya uzoq davom etadigan kasallikka uchragan bo'lsa, u O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganida;

D. U sudyalik qasamyodini buzganda, u iste'foga chiqish to'g'risida iltimos qilganida, unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi mavjud bo'lsa, sudya o'z vazifasiga to'g'ri kelmaydigan faoliyatni davom ettirganida.

**26. Sudya faqat ... qaroriga asosan intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.**

- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining;
- B. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining;

- C. Sudyalar malaka hay'atining;
- D. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining.

## **27. Sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:**

A. Sudyalarning daxlsizligi, sudyalarga davlat hisobidan ularning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish, sudyalar maslahatining sir tutilishi, ishlarni ko'rib chiqishda sudyalarning mustaqilligi;

B. Sudyalarni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, sudyalarning daxlsizligi, odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy taomil, qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi, sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashganlik, sudyalar daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik, sudyalarga davlat hisobidan ularning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish;

C. Qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, deklaratsiya bilan, ishlarni ko'rib chiqishda sudyalarning mustaqilligi;

D. Sudyalarning daxlsizligi, sudyalar maslahatining sir tutilishi, sudyalarni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, sudga hurmatsizlik uchun javobgarlik, aybsizlik prezumpsiyasi.

## **28. Sudyaning vakolatlari qanday holda to'xtatiladi?**

A. Sudya jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda, sudya o'z lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, sudya tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan yoki qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan uning muomala layoqati cheklangan bo'lsa, sudya qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;

B. Odil sudlovni amalga oshirish chog'ida sudya qonuniylikni buzgan taqdirda, beparvolik yoki intizomsizlik orqasida sudya sudlov ishini tashkil etishda kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, sudya tomonidan uning obro'siga putur yetkazadigan xatti-harakatlar sodir etilsa;

C. Sudya o'z lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, sudya O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining yoki Adliya vazirining farmoyishiga bo'ysunmagan bo'lsa, odil sudlovni amalga oshirish chog'ida sudya qonuniylikni buzgan taqdirda, hokim farmoyishiga asosan uning ko'rsatmalari bajarilmagan bo'lsa;

D. Odil sudlovni amalga oshirish chog'ida sudya qonuniylikni buzgan taqdirda, sudya tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan bo'lsa, sudya qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa, sudya tomonidan xizmat huquqbuzarlik yoki uning obro'siga putur yetkazadigan xatti-harakatlar sodir etilsa.

### **29. Qonunda sudyalarning qanday malaka darajalari nazarda tutilgan?**

- A. Oliy toifali, birinchi va o'rta toifali sudya, 1-, 2-, 3-darajali yurist;
- B. Davlat adliya maslahatchisi, katta yurist, Oliy malaka darajasi, 1-, 2-, 3-, 4-, 5-malaka darajasi;
- C. Oliy malaka darajasi, birinchi malaka darajasi, ikkinchi malaka darajasi, uchinchi malaka darajasi, to'rtinchi malaka darajasi, beshinchi malaka darajasi;
- D. Haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, oliy toifali sudya, 1-, 2-, 3-toifali adliya maslahatchisi.

### **30. Sudyalikka nomzodlarga qo'yiladigan talablarni aytib bering:**

- A. Yigirma besh yoshdan kichik bo'lmaslik, davlat tilini bilish, fuqarolikka ega bo'lish, oliy yuridik ma'lumotga, ixtisos bo'yicha mehnat stajiga ega bo'lish, diniy mansublik;
- B. Fuqarolikka ega bo'lish, tegishli yoshga to'lish, ixtisos bo'yicha mehnat stajiga, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish, malaka imtihonini topshirish;
- C. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish, yigirma besh yoshdan kichik bo'lmaslik, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik ixtisos bo'yicha mehnat stajiga ega bo'lish, malaka imtihonini topshirish;
- D. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish, yigirma ikki yoshdan kichik bo'lmaslik, mulkiy holat, o'zbek va ingliz tillarini bilish, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish.

### **31. Sudyalarning oliy malaka komissiyasi qanday shakllantiriladi?**

- A. Oliy sud raisining taqdimnomasiga asosan Oliy sud plenumi tomonidan saylanadi;
- B. Tegishli hududlarning sudyalari yig'ilishlarida saylanadi;
- C. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan tayinlanadi;
- D. Oliy Majlis Senati tomonidan saylanadi.

### **32. Qanday hollarda sudya intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin?**

- A. Odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi uchun, sud ishini tashkil etishda beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun, xizmat borasidagi yoki obro'siga putur yetkazadigan boshqa xatti-harakati uchun;
- B. Sudya o'z lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, sudya tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan bo'lsa, odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi uchun;
- C. Sud ishini tashkil etishda beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun, sudya qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;

D. Xizmat borasidagi yoki obroʻsiga putur yetkazadigan boshqa xatti-harakati uchun, sudyalarning maslahatining sir tutilishini buzganligi uchun, sudya oʻz lavozimiga zid faoliyat bilan shugʻullanayotgan boʻlsa.

**33. Oʻzbekiston Respublikasida notarial harakatlar kim tomonidan amalga oshiriladi?**

A. Davlat notarial idoralarining notariuslari;

B. Davlat notarial idorasida ishlovchi notariuslar yoki xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notariuslar, FHDY organlari mudirlari, fuqarolar yigʻinlarining raislari (oqsoqollari);

C. Davlat notarial idorasida ishlovchi notariuslar yoki xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notariuslar, fuqarolar yigʻinlarining raislari (oqsoqollari);

D. Xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notariuslar.

**34. Oʻzbekiston Respublikasi adliya idoralari va davlat notariati xodimlarining maxsus unvonlari qanday martaba darajalaridan iborat boʻladi?**

A. Haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 1-darajali davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali davlat adliya maslahatchisi, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi, 1-darajali adliya maslahatchisi, 2-darajali adliya maslahatchisi, 3-darajali adliya maslahatchisi, 1-, 2-, 3-darajali yurist;

B. Bosh davlat adliya maslahatchisi, 1-rang davlat adliya maslahatchisi, 2-rang davlat adliya maslahatchisi, 3-rang davlat adliya maslahatchisi, 1-rang adliya maslahatchisi, 2-rang adliya maslahatchisi, 3-rang adliya maslahatchisi, 1-, 2-, 3-darajali yurist;

C. Haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 1-darajali davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali davlat adliya maslahatchisi, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi, katta adliya maslahatchisi, adliya maslahatchisi, kichik adliya maslahatchisi, 1-, 2-, 3-darajali yurist;

D. Bosh davlat adliya maslahatchisi, 1-darajali davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali davlat adliya maslahatchisi, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi, 1-, 2-, 3-darajali adliya maslahatchisi, katta yurist, yurist, kichik yurist.

**35. Prokuror-tergov xodimlariga, shuningdek, prokuraturaga qarashli oʻquv, ilmiy va boshqa muassasalarning xodimlariga nisbatan qoʻllaniladigan intizomiy jazo turlarini sanab oʻting:**

A. Hayfsan, oʻrtacha oylik ish haqining 40 foizidan ortiq boʻlmagan miqdorda jarima solish, Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismi 3- va 4-bandlarida nazarda tutilgan asoslarga koʻra, mehnat shartnomasini bekor qilish;

B. Ogohlantirish, hayfsan, qat'iy hayfsan, darajali unvonni pasaytirish, «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak nishonidan mahrum qilish, lavozimni pasaytirish, ishdan bo'shatish, darajali unvondan mahrum qilgan holda ishdan bo'shatish;

C. Ogohlantirish, hayfsan, qat'iy hayfsan, darajali unvonni pasaytirish, «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak nishonidan mahrum qilish, 1 oyga lavozimdan chetlatish, 3 oyga lavozimdan chetlatish, ishdan bo'shatish, darajali unvondan mahrum qilgan holda ishdan bo'shatish;

D. Ogohlantirish, hayfsan, qat'iy hayfsan, darajali unvonni pasaytirish, «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak nishonidan mahrum qilish, lavozimni pasaytirish, ish haqining 50 foizini ushlab qolish, ishdan bo'shatish, darajali unvondan mahrum qilgan holda ishdan bo'shatish.

### **36. Prokuror-tergov xodimlariga nisbatan qanday hollarda intizomiy jazo choralari qo'llaniladi?**

A. Xizmat vazifasini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik yoxud prokuratura xodimi degan nomga dog' tushiradigan nojo'ya xatti-harakat sodir etish;

B. Xizmat vazifasini bajarmaslik yoki mazkur vazifaga sovuqqonlik bilan qarash yoxud ma'muriy javobgarlikka olib keladigan xatti-harakat sodir etish;

C. Xizmat vazifasini bajarishdan bosh tortish va prokuratura xodimi degan nomga dog' tushiradigan nojo'ya xatti-harakat sodir etish;

D. Xizmat vazifasini bajarishdan bosh tortish yoki mazkur vazifani lozim darajada bajarmaslik yoxud ma'muriy javobgarlikka olib keladigan xatti-harakat sodir etish.

### **37. Prokurorlik lavozimiga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qanday talablar qo'yiladi?**

A. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi, davlat tilini bilish, oliy ma'lumotga ega bo'lish, zarur kasbiy va ma'naviy fazilatlar bo'lishi;

B. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish, zarur kasbiy fazilatlar bo'lishi, sog'liq holati, yigirma besh yoshdan kichik bo'lmaslik;

C. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish, davlat tilini bilish, zarur kasbiy va ma'naviy fazilatlar bo'lishi, yigirma besh yoshdan kichik bo'lmaslik;

D. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi, davlat tilini bilish, oliy ma'lumotga ega bo'lish, zarur kasbiy va ma'naviy fazilatlar bo'lishi, oltmish besh yoshdan katta bo'lmaslik, sog'liq holati.

**38. Prokuratura organlarini tashkil etishning asosiy prinsiplarini aytib bering:**

A. Birlik, markazlashganlik, mustaqillik prinsiplari;

B. Birlik, qonuniylik, kollegiallik, mahalliy davlat hokimiyat organlari va boshqaruv organlaridan mustaqillik, qonuniylik prinsiplari, jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy tendensiyalari va holati, boshqaruv organlari tomonidan qonunlarga rioya etilishini ta'minlash, davlat va jamoat tartibini saqlash, fuqarolar huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlari bajarilishi to'g'risida viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga axborot berish;

C. Markazlashganlik, mahalliy organlardan mustaqillik, birlik, kollegiallik, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy vakillik organlariga bo'ysunish;

D. Birlik, markazlashganlik, mahalliy davlat hokimiyat organlaridan mustaqillik prinsiplari, jinoyatchilikka qarshi kurashning holati, boshqaruv organlari tomonidan qonunlarga rioya etilishini ta'minlash, davlat va jamoat tartibini saqlash, fuqarolar huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlari bajarilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga axborot berish.

**39. Prokuratura idoralari xodimlarining darajali maxsus unvonlarini sanab o'ting:**

A. Haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 1-darajali davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali davlat adliya maslahatchisi, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi, adliya katta maslahatchisi, adliya maslahatchisi, adliya kichik maslahatchisi, 1-darajali yurist, 2-darajali yurist, 3-darajali yurist, kichik yurist;

B. 1-darajali haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 3-darajali haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, davlat adliya maslahatchisi, adliya katta maslahatchisi, adliya maslahatchisi, adliya kichik maslahatchisi, 1-darajali yurist, 2-darajali yurist, 3-darajali yurist, yurist;

C. Haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 1-rang davlat adliya maslahatchisi, 2-rang davlat adliya maslahatchisi, 3-rang davlat adliya maslahatchisi, adliya katta maslahatchisi, adliya kichik maslahatchisi, 1-rang yurist, 2-rang yurist, 3-rang yurist, katta yurist, kichik yurist;

D. Bosh davlat adliya maslahatchisi, 1-rang davlat adliya maslahatchisi, 2-rang davlat adliya maslahatchisi, 3-rang davlat adliya maslahatchisi, adliya katta maslahatchisi, adliya kichik maslahatchisi, 1-darajali yurist, 2-darajali yurist, 3-darajali yurist, katta yurist, kichik yurist.



#### **40. Prokuror nazorati tushunchasini huquqni muhofaza qiluvchi faoliyat sifatida izohlang:**

A. Prokuror nazorati — bu qonun buzilish holatlarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish, aybdor shaxslarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish orqali O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha maxsus vakolatli mansabdor shaxslarning — prokurorlarning davlat nomidan amalga oshiriladigan faoliyatidir;

B. Prokuror nazorati — bu jinoyat ishlari bo‘yicha tergov o‘tkazish chog‘ida aniqlangan qonun buzilish holatlarini aniqlash va bartaraf etish orqali O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida barcha normativ hujjatlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha maxsus vakolatli mansabdor shaxslarning — prokurorlarning davlat nomidan amalga oshiriladigan faoliyatidir;

C. Prokuror nazorati — bu qonun buzilish holatlarini aniqlash va bartaraf etish, aybdor shaxslarni ma‘muriy javobgarlikka tortish orqali O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning bajarilishini va qo‘llanilishini ta‘minlash bo‘yicha maxsus vakolatli mansabdor shaxslarning — tergovchilar va prokurorlarning davlat nomidan amalga oshiriladigan faoliyatidir;

D. Prokuror nazorati — bu aybdor shaxslarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish orqali O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniylikni va fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha maxsus vakolatli mansabdor shaxslarning — prokuratura organlari barcha xodimlarining davlat nomidan amalga oshiriladigan faoliyatidir.

#### **41. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori kim tomonidan lavozimidan ozod etiladi?**

A. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlangan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

B. Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

C. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan;

D. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.

#### **42. Prokuratura organlarining tizimi qanday?**

A. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari, tumanlar va shaharlar prokuraturalari, O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, harbiy

okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari;

B. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahar, Samarqand shahri prokuraturalari, shaharlar va tumanlar prokuraturalari, tumanlararo, hududiy prokuraturalar, transport, harbiy, tabiatni muhofaza qiluvchi, ixtisoslashtirilgan, kon prokuraturalari;

C. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari, shaharlar va tumanlar prokuraturalari, viloyatlararo, tumanlararo, hududiy prokuraturalar, transport, tabiatni muhofaza qiluvchi va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar, Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti;

D. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahar, Nukus shahri prokuraturalari, viloyatlararo, tumanlararo, hududiy prokuraturalar, tabiatni muhofaza qiluvchi, o'rmon, kon va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

#### **43. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori kim tomonidan va qancha muddatga tayinlanadi?**

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan 5 yillik muddatga;

B. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan 5 yillik muddatga;

C. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan 10 yillik muddatga;

D. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan.

#### **44. Harbiy prokuratura organlari tizimini aytib bering:**

A. Respublika Harbiy prokuraturasi, armiyalar, flotiliyalar, birlashmalar harbiy prokuraturalari;

B. O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, harbiy okruglar, hududiy harbiy prokuraturalar;

C. Respublika Harbiy prokuraturasi, Qurolli Kuchlar turlari, qismlar, birlashmalar va garnizonlar prokuraturalari;

D. Qurolli Kuchlar turlari, qismlar, garnizonlar prokuraturalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Harbiy prokuraturasi.

**45. Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar kim tomonidan va qancha muddatga tayinlanadi?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan 5 yillik muddatga;
- B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan 5 yillik muddatga;
- C. O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan 10 yillik muddatga;
- D. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 5 yillik muddatga.

**46. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining birinchi o'rinbosari kim tomonidan tayinlanadi?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;
- B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan;
- C. O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan;
- D. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlangan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.

**47. Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy huquqbuzarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi kim tomonidan hal etiladi?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;
- B. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;
- C. Ichki ishlar vaziri tomonidan;
- D. Yuqori turuvchi prokuror tomonidan.

**48. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi hay'atining tarkibini aytib bering:**

- A. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, prokuratura organlarining boshqa xodimlari;
- B. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, prokuratura organlarining boshqa xodimlari;
- C. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vaziri, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosarlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining birinchi o'rinbosari;
- D. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining birinchi o'rinbosari, prokuratura organlarining boshqa xodimlari, Adliya vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining raisi.

**49. Prokuratura organlari hay'atlarining eng muhim qarorlari ... bilan hayotga tatbiq etiladi.**

- A. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va tegishli prokurorlarning ko'rsatmalari;
- B. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadigan yo'riqnomalar;
- C. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va tegishli prokurorlarning buyruqlari;
- D. Prokurorning qarorlari.

**50. Prokuratura organlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi, shuningdek, ularning vakolatlari ... bilan belgilanadi.**

- A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari;
- B. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari, xalqaro shartnomalar va kelishuvlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilgan boshqa qonun hujjatlari;
- C. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ko'rsatmalari, farmoyishlari va boshqa qonun hujjatlari;
- D. Xalqaro shartnomalar va kelishuvlar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni, Jinoyat protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa qonun hujjatlari.

**51. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ... oldida hisobdordir.**

- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- B. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati;
- C. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati;
- D. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati.

**52. Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha prokuror tomonidan qabul qilingan qaror ustidan kimga shikoyat qilinishi mumkin?**

- A. Tuman (shahar) sudiga;
- B. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga;
- C. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga;
- D. Yuqori turuvchi prokurorga.

**53. O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni yangi tahrirda qachon qabul qilingan?**

- A. 1992-yil 3-iyulda;
- B. 1993-yil 6-mayda;
- C. 2001-yil 29-avgustda;
- D. 1994-yil 22-sentabrda.

**54. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay‘atining tarkibi kim tomonidan tasdiqlanadi?**

- A. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlangan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;
- B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;
- C. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;
- D. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan.

**55. Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi hay‘atining tarkibi kim tomonidan tasdiqlanadi?**

- A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;
- B. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;
- C. Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tomonidan;
- D. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan.

**56. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasining barcha prokuror xodimlari uchun majburiy bo‘lgan qanday hujjatlarni qabul qiladi?**

- A. Qarorlar, taqdimnomalar, amrnomalar;
- B. Ogohlantiruvlar, qonunlar, farmonlar, protestlar;
- C. Buyruqlar;
- D. Protestlar, amrnomalar, taqdimnomalar.

**57. Qonunga zid bo‘lgan hujjatga nisbatan prokuror yoki uning o‘rinbosari ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga ... keltiradi.**

- A. Ammoma;
- B. Qaror;
- C. Protest;
- D. Taqdimnoma.

**58. Prokuraturaga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning eng muhim shartlari nimalardan iborat?**

- A. Prokuror-tergov xodimlarining bilimdonligi, yuqori ma‘naviy fazilatlar va ongli shaxsiy intizomi;

B. Mustaqillik, oshkoralik, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida hisobdorlik;

C. Prokuratura organlarining xodimlari ishda tashabbuskor bo'lishlari, qonunni hurmat qilishlari, adolatli bo'lishlari;

D. Qonun ustuvorligi, qonuniylikni mustahkamlash, jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish.

**59. Prokuratura organlari xodimlari ... belgilaydigan tartibda attestsiyadan o'tkazilishi lozim.**

A. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining xodimlarini rag'batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi to'g'risidagi nizom;

B. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;

C. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori;

D. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati.

**60. Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni olib borishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxslarning ro'yxatini aytib bering:**

A. Prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlarining tergovchilari, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari, prokurorlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini qo'riqlash xizmatining xodimlari, xususiy detektivlar, harbiy qismlar komandirlari;

B. Prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlarining tergovchilari, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari;

C. Prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlarining tergovchilari, sudyalari, sud tergovchilari, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari;

D. Prokuratura tergovchilari, harbiy prokuratura tergovchilari, transport prokuraturasi tergovchilari, ichki ishlar organlarining tergovchilari, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari, soliq va bojxona xizmatlarining tergovchilari, prokurorlar.

**61. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda qanday prinsiplarga amal qiladi?**

A. Birlik, markazlashganlik, mustaqillik, aybsizlik prezumpsiyasi;

B. Qonuniylik, shaxs huquqlarini himoya qilish, haqiqatni aniqlash;

C. Kollegiallikni yakkaboshchilik bilan uyg'unlashtirish, qonuniylik, shaxsni hurmat qilish, baynalmilalchilik, oshkoralik, davlat organlari, jamoatchilik birlashmalari, mehnat jamoalari va aholi bilan birgalikda ish olib borish, jamoatchilik fikrini hisobga olish, ichki ishlar organlari xodimlarining milliy mansublik, til, mahalliylik belgilari bo'yicha huquqlarini cheklashga yo'l qo'ymaslik;

D. Qonuniylik, oshkoralik, kollegiallikni yakkaboshchilik bilan uyg'unlashtirish, shaxsni hurmat qilish, baynalmilalchilik.

**62. Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya qaysi organ tomonidan beriladi?**

A. Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida;

B. O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan;

C. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining malaka komissiyalari tomonidan;

D. To'g'ri javob yo'q.

**63. O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?**

A. 1996-yil 27-dekabrda;

B. 1993-yil 6-mayda;

C. 1997-yil 26-dekabrda;

D. 1994-yil 22-sentabrda.

**64. Kim advokat yordamchisi bo'lishi mumkin?**

A. 25 yoshga to'lgan va oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxs;

B. O'zbekiston Respublikasining yuridik ma'lumotga ega bo'lgan fuqarosi;

C. O'zbekiston Respublikasining yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan fuqarosi;

D. 25 yoshga to'lgan, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi.

**65. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish ... bilan amalga oshiriladi.**

A. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining farmoni;

B. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining qarori;

C. Advokatga guvoynoma bergan adliya organining qarori;

D. Barcha javoblar noto'g'ri.

**66. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror ustidan qayerga shikoyat qilinishi mumkin?**

A. Mazkur qaror ustidan shikoyat keltirilmaydi;

B. Konstitutsiyaviy sudga va prokuraturaga;

C. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga;

D. Sudga.

**67. Advokatga nisbatan qanday intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin?**

- A. Ogohlantirish, hayfsan, qat'iy hayfsan;
- B. Ogohlantirish, hayfsan, ishdan bo'shatish, tanbeh berish;
- C. Ogohlantirish, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to'xtatib turish, litsenziyaning amal qilishini tugatish;
- D. Litsenziyani bekor qilish, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini uch oygacha muddatga to'xtatib turish, hayfsan.

**68. Umumiy yurisdiksiya sudlari tizimiga quyidagilar kirmaydi:**

- A. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar;
- B. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar;
- C. Xo'jalik sudlari;
- D. Harbiy sudlar.

**69. O'zbekiston Respublikasida umumiy yurisdiksiya sudlari tizimiga ... rahbarlik qiladi.**

- A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- B. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi;
- C. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- D. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.

**70. O'zbekiston Respublikasida barcha umumiy yurisdiksiya sudlarining faoliyati ustidan nazorat ... tomonidan olib boriladi.**

- A. Adliya organlari;
- B. Prokuratura organlari;
- C. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- D. Hech kim alohida nazorat olib bormaydi.

**71. Umumiy yurisdiksiya sudlarining sudloviga tegishli bo'lgan ishlarning asosiy qismini ... tashkil etadi.**

- A. Ma'muriy ishlar;
- B. Fuqarolik va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy nizolar bo'yicha ishlar;
- C. Jinoyat, fuqarolik va ma'muriy ishlar;
- D. Xo'jalik ishlari.



**72. Umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'iniga quyidagilar kirmaydi:**

- A. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlari;
- B. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudlari;
- C. Jinoyat ishlari bo'yicha shahar sudlari;
- D. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi.

**73. Sudlov hay'atlari qaysi sudda mavjud emas?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- B. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi;
- C. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlari;
- D. Fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat sudlari.

**74. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudi tarkibiga quyidagilar kirmaydi:**

- A. Sud raisi;
- B. Sudyalar;
- C. Xalq maslahatchilari;
- D. To'g'ri javob yo'q.

**75. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi ishlarni ... ko'radi.**

- A. Birinchi instansiya bo'yicha;
- B. Ikkinchi instansiya bo'yicha;
- C. Nazorat tartibida;
- D. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha.

**76. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarida og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishlar ... ko'rib chiqiladi.**

- A. Sudya tomonidan yakka tartibda;
- B. Sudya va ikki nafar xalq maslahatchisidan iborat tarkibda;
- C. Sudya va o'n ikki nafar prisyajniydan iborat tarkibda;
- D. Uch nafar sudyadan iborat tarkibda.

**77. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining vakolatlarini ko'rsatib bering:**

- A. Qonuniy kuchga kirmagan tuman sudlarining qarorlari va hukmlari ustidan keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish;
- B. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etilishi va qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

C. Sud qarorlari va hukmlari ijro etilishini ta'minlash;

D. Qonun bilan ularning vakolatlari doirasiga berilgan jinoyat ishlarini hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni hamda amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish.

**78. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi yakka tartibda ... ko'rib chiqadi.**

A. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar;

B. Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishlar;

C. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar;

D. To'g'ri javob A va C.

**79. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi raisining vakolatlariga quyidagilar kirmaydi:**

A. Tuman sudining sudyalari o'rtasida ishlarni taqsimlash;

B. Fuqarolarni shaxsan qabul qilish;

C. Sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib olish;

D. Sud idorasi ishiga rahbarlik qilish.

**80. O'zbekiston Respublikasida umumiy yurisdiksiya sudlarining o'rta bo'g'inini quyidagilar tashkil etadi:**

A. Tumanlararo, tuman (shahar) sudlari;

B. Viloyat va Toshkent shahar sudlari;

C. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi;

D. B va C.

**81. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari ... tomonidan saylanadi.**

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;

B. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi;

C. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati;

D. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi.

**82. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining asosiy funksiyasi nimadan iborat?**

A. Sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqish va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berish;

B. Sud amaliyoti va sud statistikasini o'rganish va umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqish;

- C. Fuqarolarni qabul qilish bo'yicha sudning ishini tashkil etish va takliflar, arizalar, shikoyatlarni ko'rib chiqish;  
D. Umumiy yurisdiksiya sudlarining ishiga rahbarlik qilish.

**83. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi ... chaqiriladi.**

- A. Ikki oyda kamida bir marta;  
B. To'rt oyda kamida bir marta;  
S. Yarim yilda kamida ikki marta;  
D. Zarurat tug'ilganda.

**84. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining tarkibi ... tomonidan belgilanadi.**

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;  
B. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi;  
C. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi;  
D. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati.

**85. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati quyidagilardan iborat bo'ladi:**

- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining barcha sudyalari;  
B. 13 nafar sudya;  
C. 19 nafar sudya;  
D. Sudyalarning soni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi tomonidan belgilanadi.

**86. Jinoyat ishi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudida birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqildi. Chiqarilgan hukm ustidan qaysi sudga shikoyat keltirish mumkin?**

- A. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atiga;  
B. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining rayosatiga;  
C. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining kassatsiya hay'atiga;  
D. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rayosatiga.

**87. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari ... tomonidan chiqarilgan sud hujjatiga protest bildirishlari mumkin emas.**

- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi;  
B. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari;  
C. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati;  
D. To'g'ri javob yo'q.

**88. Apellatsiya tartibida ish yuritish doirasida apellatsiya shikoyatlari va protestlari bo'yicha ishlar jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudida qanday sud tarkibida ko'riladi?**

- A. Sudya tomonidan yakka tartibda;
- B. Sudya va ikki nafar xalq maslahatchisidan iborat tarkibda;
- C. Besh nafar sudyadan iborat tarkibda;
- D. Uch nafar sudyadan iborat tarkibda.

**89. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishlar qaysi sud tomonidan ko'rilmaydi?**

- A. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi tomonidan;
- B. Tuman sudlari tomonidan;
- C. Viloyat va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan;
- D. To'g'ri javob yo'q.

**90. Huquqlari va qonuniy manfaatlari harbiy sudlar himoyasi ostiga qo'yilayotgan yoki ushbu sudlar tomonidan javobgarlikka tortilayotgan shaxslar doirasiga kim kiradi?**

- A. Harbiy xizmatchilar;
- B. Harbiy yig'inlarda bo'lgan fuqarolar;
- C. Harbiy xizmatchilarga yoki harbiy tuzilmalarga aloqasi bo'lgan fuqarolar;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

**91. O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlarining asosiy bo'g'inini quyidagilar tashkil etadi:**

- A. Okrug (hududiy) harbiy sudlar;
- B. Garnizon harbiy sudlari;
- C. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati;
- D. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati.

**92. Harbiy sudlar sudyalari kim tomonidan tayinlanadi?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;
- B. Prezident taqdimnomasiga asosan Senat tomonidan;
- C. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan;
- D. Oliy sud Harbiy hay'atining raisi tomonidan.

**93. Sudyalar maqomi deganda nima tushuniladi?**

- A. Davlat hokimiyati organlari tizimida sudyalarning o'rni;
- B. Sudyalarning mansab huquqlari va majburiyatlari majmuasi;
- C. Sudyalarning hokimiyat vakolatlari;
- D. Sudyalar tomonidan hokimiyat vakolatlari amalga oshirilishining tartibi.

**94. Sudya qanday faoliyat bilan shug'ullanishga haqli?**

- A. Tadbirkorlik faoliyati bilan;
- B. Siyosiy faoliyat bilan;
- C. Pedagogik faoliyat bilan;
- D. To'g'ri javoblar yo'q.

**95. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari qanday faoliyat bilan shug'ullanadi?**

- A. Sud faoliyati bilan;
- B. Ijro etuvchi faoliyati bilan;
- C. Nazorat qilish faoliyati bilan;
- D. To'g'ri javob yo'q.

**96. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari qatoriga nima kirmaydi?**

- A. Fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;
- B. Sudlar tomonidan chiqarilgan hukmlar ijro etilishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;
- C. Jinoyat protsessual qonunchiligi bilan belgilangan vakolatlarga muvofiq jinoiy ta'qibni amalga oshirish;
- D. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

**97. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari qanday faoliyatni amalga oshirishga huquqi yo'q?**

- A. Huquq ijodkorligi jarayonida ishtirok etish;
- B. Xalqaro shartnomalarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- C. Odil sudlovni amalga oshirish;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

**98. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari qanday hokimiyat tarmog'iga kiradi?**

- A. Qonun chiqaruvchi hokimiyatiga;
- B. Ijro etuvchi hokimiyatiga;
- C. Sud hokimiyatiga;
- D. Hokimiyatning hech qanday tarmog'iga kirmaydi.

**99. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplariga nimalar kiradi?**

- A. Prokuratura organlarining birligi;
- B. Prokuratura organlarining markazlashganligi prinsipi;
- C. Oshkoralik;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

**100. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari quyidagi faoliyatni amalga oshiradi:**

- A. Odil sudlov;
- B. Surishtiruv faoliyati;
- C. Nazorat faoliyatini;
- D. To'g'ri javob yo'q.

### TESTLARGA JAVOBLAR

1.	D	2.	C	3.	D	4.	A	5.	B	6.	A	7.	B	8.	D	9.	B	10.	D
11.	B	12.	B	13.	D	14.	A	15.	C	16.	A	17.	D	18.	B	19.	C	20.	D
21.	C	22.	C	23.	C	24.	B	25.	A	26.	C	27.	B	28.	A	29.	C	30.	C
31.	A	32.	A	33.	A	34.	A	35.	A	36.	A	37.	B	38.	A	39.	A	40.	A
41.	A	42.	A	43.	B	44.	B	45.	D	46.	D	47.	D	48.	A	49.	C	50.	A
51.	C	52.	D	53.	C	54.	B	55.	B	56.	C	57.	C	58.	D	59.	C	60.	B
61.	C	62.	A	63.	A	64.	B	65.	C	66.	D	67.	C	68.	C	69.	D	70.	C
71.	C	72.	D	73.	C	74.	C	75.	A	76.	B	77.	D	78.	D	79.	C	80.	D
81.	C	82.	A	83.	B	84.	C	85.	D	86.	A	87.	A	88.	D	89.	B	90.	D
91.	A	92.	A	93.	B	94.	C	95.	C	96.	B	97.	C	98.	D	99.	D	100.	C

## «SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR» FANI BO‘YICHA ASOSIY TUSHUNCHA VA SXEMALAR

---

### «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining predmeti, asosiy tushunchalari va tizimi

**Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati** — maxsus vakolatli organlarning jismoniy, yuridik shaxslar va umuman, davlatning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek, qonunga muvofiq va unda belgilangan tartibga so‘zsiz rioya qilgan holda yuridik ta’sir choralari ko‘rish orqali qonuniylikni va huquq-tartibotni ta’minlashga yo‘naltirilgan faoliyati.

#### **Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining belgilari:**

1. *Ushbu faoliyat maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.*

2. *Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining maqsadi.* Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati shaxs, jamiyat va davlatning huquqlarini jinoiy va boshqa tajovuzlardan himoya qilishga yo‘naltirilgan.

3. *Faoliyatning qonunga qat’iy muvofiqligi.*

4. *Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirish jaryonida davlat majburov choralari yoki yuridik ta’sir choralari qo‘llash.*

5. *Yuridik ta’sir choralari qonunga qat’iy rioya qilgan holda qo‘llaniladi,* qonun ushbu choralar qo‘llanilishining asoslarini ham, muayyan holatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan aniq choralarni ham belgilaydi.

6. *Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar qarorlarining majburiyligi.* Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qonuniy va asosli qarorlar fuqarolar, jamoat birlashmalari, tashkilotlar, muassasalar va h.k.lar tomonidan ijro etilishi shart. Mazkur qarorlarni ijro etmaslik, qo‘shimcha javobgarlikka olib keladigan mustaqil huquqbuzarlikni tashkil etadi.

**Funksiyalar** — bu ayrim bir organ yoki tashkilot faoliyatining asosiy, bosh yo‘nalishlari.

Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy funksiyalari (yo‘nalishlari):

- konstitutsiyaviy nazorat;
- odil sudlov;
- sud qarorlarini ijro etish;
- sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash;
- prokuror nazorati;
- jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish;
- yuridik yordam ko‘rsatish va jinoyat ishlari bo‘yicha himoya qilish.

**Konstitutsiyaviy nazorat** — bu davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy ko‘rsatmalariga zid bo‘lgan huquqiy hujjatlarni va xatti-harakatlarini aniqlash, shuningdek, aniqlangan chetga chiqishlarni bartaraf etish bo‘yicha choralarni ko‘rish orqali Konstitutsiyaning ustunligini ta‘minlashga qaratilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining funksiyasi. Konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish funksiyasi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radigan va sud hokimiyati organi hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi zimmasiga yuklatilgan.

**Odil sudlov** deganda, qonunga va u bilan belgilangan tartibga qat‘iy rioya qilgan holda jinoyat, ma‘muriy, fuqarolik va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqish orqali turli nizolarni hal qilish tushuniladi. Odil sudlov sudning mutlaq vakolatidir.

**Sud qarorlarini ijro etish** odil sudlovning amalga oshirilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan funksiyadir. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni 5-moddasiga ko‘ra, sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Sud qarorlarini majburiy ijro etish davlat organlarining zimmasiga yuklatilgan.

**Sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta‘minlash** — bu sudlov faoliyati, uning kadr, tashkiliy va resurs ta‘minoti uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarini yaratish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rishga yo‘naltirilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining funksiyasidir. Ushbu funksiyani amalga oshirish bir qator organlar zimmasiga yuklatilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta‘minlash departamenti, Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasi), ularning birgalikdagi harakati natijasida mazkur funksiyaning amalga oshirilishi ta‘minlanadi.

**Prokuror nazorati** deganda, huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan (funktsiyalaridan) biri, ya‘ni qonun buzilish holatlarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish, aybdor shaxslarni qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortish orqali qonunlarni aniq ijro etish va bir xilda qo‘llash ustidan nazorat olib borish bo‘yicha davlat nomidan maxsus vakolatli mansabdor shaxslar — prokurorlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tushuniladi.



**Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish** — bu maxsus vakolatli mansabdor shaxslar (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror) tomonidan protsessual qonunga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladigan hamda jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va fosh etishga, shuningdek, jinoyatning kelib chiqishi sabablarini, sodir qilinishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlashga yo'naltirilgan faoliyatdir.

**Yuridik yordam ko'rsatish va jinoyat ishlari bo'yicha himoya qilish** — advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladigan advokatura instituti-ning asosiy vazifasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, advokatura O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi.

**«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining mazmuni**, birinchi navbatda, huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi sud va davlat organlari, shuningdek, ushbu faoliyatning amalga oshirili-shiga yordam beradigan ayrim nodavlat tuzilmalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar orasida, nafaqat, umuman, sud hoki-miyati va huquqni muhofaza qilish faoliyatining tashkil etilishi haqida, balki uning muayyan yo'nalishlari (vazifalari), shuningdek, tegishli or-ganlar yoki tashkilotlarning tashkil etilishi, ularning tuzilishi, o'zaro aloqasi va bir-biriga bo'ysunishi, asosiy vakolatlari va vazifalari, bir-biri hamda butun davlat mexanizmi bilan harakat qilishlari haqida ma'lumotlar markaziy o'rin egallaydi.

Xorijiy mamlakatlarda sud va prokuraturaning vazifalari, prinsiplari va tuzilishini belgilaydigan huquqiy normalarni o'rganish, ularga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni, shuningdek, ko'rsatilgan organlarning har bir alohida mamlakatning tarixiy shart-sharoitlar va boshqa sabablarga ko'ra, vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining predmetiga kiradi.

**«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar»** — bu sud hokimiyati va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining tizimini (shuningdek, ayrim nodavlat tuzilmalarni), ularning tashkil etilishini, faoliyatining asosiy yo'nalishlarini va o'zaro hamkorligini o'rganadigan yuridik fandir.

**«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining maqsadi** — yosh talaba-yuristlarga huquqiy ko'rsatmalarning amalga oshirilishini ta'minlovchi muassasalar hamda umuman, huquqni qo'llash mexanizmi haqida boshlang'ich bilimlarni berishdir.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kursini o'rganish mazkur kursning konstitutsiyaviy huquq, davlat va huquq nazariyasi, ma'muriy huquq, fuqarolik protsessual huquqi, jinoyat protsessual huquqi, xo'jalik protsessual huquqi, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, davlat va huquq tarixi, prokuror nazorati kabi huquqning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro aloqada o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

**Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi qonunchilik** — «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» kursining manbalari bazasini tashkil etadi va bir qator normativ-huquqiy hujjatlardan iborat bo'ladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ularning *predmeti (mazmuni), shakli (manbalar turlari) va ularning yuridik ahamiyati* bo'yicha tasniflanishi mumkin.

**Huquqiy tartibga solishning predmeti bo'yicha** normativ hujjatlar quyidagicha ajratiladi:

- 1) universal normativ-huquqiy hujjatlar (umumiy tusdagi);
- 2) maxsus qonun hujjatlari, ular quyidagilarga bo'linadi: a) sud hokimiyati, odil sudlov va sudlar to'g'risidagi hujjatlar; b) sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash va ushbu ta'minotni amalga oshiruvchi organlar to'g'risidagi hujjatlar; d) prokuror nazorati va prokuratura organlari to'g'risidagi hujjatlar; e) jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish ishlarini tashkil etish hamda ushbu ishlarni amalga oshiruvchi organlar to'g'risidagi hujjatlar; f) yuridik yordamni tashkil etish to'g'risidagi hujjatlar.

**Normativ-huquqiy hujjatlarning shakli va yuridik kuchi bo'yicha tasnifi:**

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining Qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari (Qarorlari);
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 6) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning hujjatlari;
- 7) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

## Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining yo'nalishlari

### Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlari

konstitusiyaviy nazorat, uning vazifasi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar tomonidan chiqarilgan hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini ta'minlash

odil sudlov — bu qonunga va u bilan belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda jinoyat, ma'muriy, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish orqali turli nizolarni hal qilish usulidir

xo'jalik sudlov ishlarini yuritish, ya'ni fuqarolik huquqiy (iqtisodiy nizolar) va boshqaruv sohasidagi huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda sud hokimiyatini amalga oshirish

sudlarning faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, u sud organlarining normal harakat qilishini ta'minlashga va sud qarorlarini ijro etish bo'yicha ishni tashkil etishga yo'naltirilgan

prokuror nazorati, ya'ni prokuror aralashuvining maxsus choralarini qo'llash orqali qonun buzilish holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha prokuraturaning faoliyati

jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish, ya'ni jinoyatlarni aniqlashga, aybdor shaxslarni fosh etishga va ularni jinoiy javobgarlikka tortishga yo'naltirilgan faoliyat

yuridik yordam ko'rsatish va jinoyat ishlari bo'yicha himoya qilish

## Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining belgilari

### Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining belgilari

Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati faqat maxsus vakolatli davlat organlari tomonidagina amalga oshiriladi, ularga nisbatan qonunchilik bilan komplektlash, tashkil etish va faoliyat ko'rsatishning qat'iy tartibi o'rnatilgan.

Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati shaxs, jamiyat va davlatning huquqlarini jinoyiy va boshqa tajovuzlardan himoya qilishga yo'naltirilgan.

Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati qonun bilan belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Muayyan huquqni muhofaza qilish choralarini qo'llash yoki qo'llamaslik to'g'risidagi qarorni qabul qilish chog'ida vakolatli organ (mansabdor shaxs) tegishli holat uchun qonunda nazarda tutilgan muayyan qoidalarga, jinoyat va fuqarolik sudlov ishlarini yuritish qoidalariga, surishtiruv va dastlabki tergovni olib borish qoidalariga va h.k.larga rioya etishi shart.

Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyati faqat davlat majburlov choralarini qo'llash yoki jazolarni tayinlash, yuridik ta'sir choralarini qo'llash orqaligina amalga oshiriladi.

Yuridik ta'sir choralarini qonunga qat'iy rioya qilgan holda qo'llaniladi, qonun ushbu choralar qo'llanilishining asoslarini ham, muayyan holatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aniq choralarini ham belgilaydi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

**Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi** davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish chog'ida bir-birini tiyib turish va muvozanatni saqlash mexanizmining o'rnatilishini nazarda tutadi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining mustaqil harakat qilishini va mustahkam aloqada ishlashini ta'minlaydi.

**Sud hokimiyatining tushunchasi** quyidagi ikki qismdan iborat bo'ladi: 1) ushbu hokimiyat maxsus ta'sis etilgan organlar — sudlar tomonidan amalga oshiriladi; 2) mazkur organlar faqat ularga xos bo'lgan vakolatlar va ta'sir choralar qo'llash bo'yicha imkoniyatlarga ega (belgilangan protsessual shakllarga qat'iy rioya qilgan holda hamda protsessual va moddiy qonun talablariga muvofiq, ular vakolatiga kiritilgan ishlarni hal qilish bo'yicha tegishli vakolatlar).

**Sud hokimiyatini amalga oshirish shakllari:** 1) qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rish; 2) davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilgan qarorlarning, amalga oshirilgan xatti-harakatlarning qonuniyligi hamda asoslilikiga doir ishlarni ko'rish; 3) sudlarga tegishli bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish; 4) ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni, amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ishlarni ko'rish (sudga qadar ish yuritish ustidan nazorat qilish); 5) sud hujjatlarining ijro etilishini ta'minlash bilan bog'liq ishlarni ko'rish; 6) amaldagi qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berish; 7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish; 8) sudlar faoliyatini tashkiliy jihatidan ta'minlashda, sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etishda ishtirok etish; 9) odil sudlovni amalga oshirish.

### **O'zbekistonda sud hokimiyati shakllanishining bosqichlari:**

- 1) Rossiyaga qo'shib olinganidan oldin O'zbekistonda (Turkistonda) sud hokimiyati;
- 2) chor Rossiyasi davridagi O'zbekistonda sud hokimiyati;
- 3) Oktabr to'ntarishidan so'ng, ammo O'zbekiston SSR tashkil etilishidan oldin O'zbekiston (Turkiston)ning sud hokimiyati;
- 4) O'zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kirgan davridagi sud hokimiyati;
- 5) O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sud hokimiyati.

**O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi** besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, shuningdek, harbiy va xo‘jalik sudlaridan iborat.

**O‘zbekistonning sud tizimi** quyidagi uch kichik tizimni (blokni) o‘z ichiga qamrab oladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.


2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, shuningdek, harbiy sudlaridan iborat umumiy yurisdiksiya sudlari. Harbiy sudlar tizimi, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay‘ati, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan iborat.

3) Xo‘jalik sudlari. Mazkur sudlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlaridan iborat.

**Sud tizimining bo‘g‘ini** — bu O‘zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq tashkil etilgan hamda bir xil vakolatlarga ega bo‘lgan bir turdagi sudlar majmuasidir.

Sud ishlarini hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim sudlov vazifasini (ishning mazmuni bo‘yicha qaror qabul qilish, qarorlarning qonuniyligini va asosligini tekshirish) bajaruvchi sud (yoki uning tarkibiy bo‘linmasi) **sud instansiyasi** deb hisoblanadi.

## Sud hokimiyatini amalga oshirish shakllari



## Umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlari tizimi



## **Odil sudlov tushunchasi va prinsiplari**

**Odil sudlov** turli nizolarni hal qilish vositasi va jamiyat subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni ijtimoiy tartibga soluvchi bo'lib, ushbu munosabatlarning huquqiy normalarga muvofiqligini ta'minlaydi.

**Odil sudlov** — bu quyidagi ishlar toifalarini mazmunan ko'rib chiqishdir: jinoyat, ma'muriy, fuqarolik va xo'jalik ishlari.

**Odil sudlov** — bu qonun va u bilan belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda sudlar tomonidan jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini hamda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish bo'yicha huquqni muhofaza qilish faoliyatining turidir.

### **Odil sudlov belgilari:**

- 1) odil sudlov faqat sud (sudya) tomonidan amalga oshiriladi;
- 2) odil sudlov quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan nizolar bo'yicha fuqarolik va xo'jalik ishlarini sud majlislarida ko'rib chiqish va hal qilish;

- shaxs aybini aniqlash maqsadida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va natijasiga ko'ra, ma'muriy jazo qo'llash yoki ish yuritishni tugatish;

- sud majlislarida jinoyat ishlarini ko'rib chiqish hamda jinoyat sodir etishda aybdor shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan jazo choralarini qo'llash yoxud aybsiz shaxslarni oqlash;

- 3) odil sudlov jinoyat, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishning qonunda belgilangan tartibiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Qonun odil sudlov amalga oshirilishining barcha eng muhim masalalarini belgilaydi: sudning qonuniy tarkibi; sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslar doirasi, ularning huquq va majburiyatlari va h.k. Ta'kidlash lozim, odil sudlov amalga oshirilishi bir qator umume'tirof etilgan demokratik prinsiplarga asoslanadi;

- 4) inson huquq va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga daxldor bo'lgan eng muhim masalalar (aybli yoki aybsiz deb topish, da'vo talablarini qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish) bo'yicha uzilkesil qaror qabul qilish;


- 5) sud qarorlarining hamma uchun majburiy bo'lishi. Sud qarorini ijro etmaslik, muayyan davlat majburlov choralari qo'llanilishiga olib keladi: sud qarorlarining majburiy ijro etilishi, ma'muriy yoki jinoy javobgarlikka tortish.



**Prinsiplar** — bu rahbariy g'oyalar va tegishli faoliyatning asosiy qoidalaridir.

**Odil sudlov prinsiplari** — bu sud ishlarini yuritishning eng muhim xususiyatlarini, xarakterini, mazmun-mohiyatini, tashkil etilishi tartibini belgilovchi huquqiy qoidalar.

**Odil sudlov prinsiplari tizimi:** qonuniylik; odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi; sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi; odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish; barcha sudlarda ishlarning oshkora ko'rilishi; sud ishlari yuritiladigan til; sud himoyasida bo'lish huquqini ta'minlash; aybsizlik prezumpsiyasi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash; taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi; odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning ishtiroki.



## Odil sudlov belgilari

### Odil sudlov belgilari

odil sudlov faqat sud (sudya) tomonidan amalga oshiriladi

odil sudlov quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:


- fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan nizolar bo'yicha fuqarolik va xo'jalik ishlarini sud majlislarida ko'rib chiqish va hal qilish;
- shaxs aybini aniqlash maqsadida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va natijasiga ko'ra, ma'muriy jazo qo'llash yoki ish yuritishni tugatish;
- sud majlislarida jinoyat ishlarini ko'rib chiqish hamda jinoyat sodir etishda aybdor shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan jazo choralarini qo'llash yoxud aybsiz shaxslarni oqlash

odil sudlov qonun bilan belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi

inson huquq va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga daxldor bo'lgan eng muhim masalalar bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilish

sud qarorlarining hamma uchun majburiy bo'lishi

## Odil sudlov prinsiplari



## Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi

### Aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqadigan qoidalar

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi) o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas


aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti, ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim

ayblanuvchining o'z aybiga iqror bo'lishi, bu iqror bo'lish mavjud dalillar majmuyi bilan tasdiqlangan taqdirdagina, uni ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin


ayblov hukmi taxminlarga asoslangan bo'lishi mumkin emasligi qonunda belgilangan

jinoyat ishini yuritayotgan davlat organlari hamda sud muhokamasida sud ish holatlarini har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqishga majbur

## Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanih huquqi bilan ta'minlash



## Taraflarning tortishuvi prinsipi



### **Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi**

**2001-yil 1-yanvardan** boshlab, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlar faoliyat yurita boshladi.

**Umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'ini** — fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi.

**Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining sud faoliyati ustidan nazorat** Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi tomonidan amalga oshiriladi.

**Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sud faoliyati ustidan nazorat** Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi tomonidan amalga oshiriladi.

**Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi** rais va sudyalardan iborat bo'ladi.

**Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi** rais, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tarkibida ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar bo'ladi.

**Tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining sudyalari** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning **xalq maslahatchilariga** nisbatan quyidagi talablar qo'yilgan:

- yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan;
- fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig'ilishlarida ochiq ovoz berish yo'li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

**Tumanlararo, tuman sudining vakolatlari** — fuqarolik, jinoyat va boshqa ba'zi bir ishlarni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqish, ya'ni konkret ishlar bo'yicha qo'yiladigan asosiy masalalar (jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning aybdorligi yoki aybsizligi, qonunda nazarda tutilgan jazoni qo'llash yoki qo'llamaslik, muayyan mulkiy da'volarning isbotlanganligi yoki isbotlanmaganligi va h.k.) mazmuni bo'yicha qarorlar qabul qilish.

FPKning 31-moddasida **fuqarolik ishlarining sudlarga taalluqliligi** quyidagicha belgilab qo'yilgan:

1) taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lgan nizolarga doir ishlar, qonunda bunday nizolarni hal qilish xo'jalik sudi yoki boshqa organlarga topshirilgan hollar bundan mustasno;

2) FPKning 279-moddasida sanab o'tilgan alohida tartibda ko'riladigan ishlar;

3) qonun bilan sudlarning vakolatiga berilgan boshqa ishlar.

**Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining vakolatlari** — qonunga muvofiq, yuqori turuvchi yoki harbiy sudlarning sudloviga tegishli bo'lgan ishlardan tashqari, jinoyat ishlarining aksariyatini ko'rish (JPKning 389-moddasi); qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi hamda qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalarni, shuningdek, ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish; ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi materiallarni ko'rish.

**Ishni ko'rib chiqishda sudning tarkibi.** Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudida fuqarolik ishlari birinchi instansiya bo'yicha sudyaning yakka o'zi tomonidan ko'riladi (FPKning 13-moddasi).


Jinoyat ishlari *hay'atda* ko'riladi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ya'ni qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jino-

yatlar to'g'risidagi, shuningdek, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar, ya'ni qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi (JPKning 13-moddasi).

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida, qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risida, shuningdek, amnistiya aktini qo'llash to'g'risida iltimosnomalar sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi.


Ish jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan birinchi instansiya bo'yicha hay'atda ko'rilganda, sud tarkibiga ikki nafar xalq maslahatchisi ham kiradi.

### **Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tuzilmasi**





## Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlarining namunaviy tuzilmasi



### Umumiy yurisdiksiya sudlarining o'rta bo'g'ini

**Umumiy yurisdiksiya sudlarining o'rta bo'g'ini** — Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik ishlari va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari.

**O'rta bo'g'in sudlarining vakolatlari** — ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqadilar.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi:**

- o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi;
- tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining sud faoliyati ustidan nazorat olib boradi, sud amaliyotini umumlashtiradi;
- sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;
- sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi;
- qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**Birinchi instansiya sudi** sifatida:

• jinoyat ishlari bo'yicha: Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari JPKning 389-moddasida nazarda tutilgan jinoyat ishlarini ko'radilar;

• **fuqarolik ishlari bo'yicha:** Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari qonunda o'z vakolatlariga berilgan fuqarolik ishlarini, shuningdek, alohida holatlarni hisobga olib, har qanday fuqarolik ishini

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hududidagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudidan olib, birinchi instansiya sudi sifatida o'zining ish yuritishiga qabul qilib olishga yoki bir suddan boshqa tegishli sudga o'tkazishga haqli (FPKning 142-moddasi).

**Apellatsiya tartibida ish yuritishning** mazmunini shikoyat qilingan yoki protest bildirilgan birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligi masalasini hal qilish maqsadida apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan apellatsiya shikoyatlari va protestlari bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish orqali birinchi instansiya sudi faoliyati ustidan nazorat olib borish vazifasini amalga oshirish bo'yicha faoliyat tashkil etadi.

**Apellatsiya tartibida:**

• **jinoyat sud ishlarini yuritishda** — O'zbekiston Respublikasi JPKning 497-moddasiga muvofiq, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga apellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish mumkin; o'rta bo'g'in sudlarining hukmlari ustidan mazkur sudlarning sudlov hay'atlariga shikoyat keltirish mumkin;

• **fuqarolik sud ishlarini yuritishda** — O'zbekiston Respublikasi FPKning 321-moddasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'radi.

O'rta bo'g'in sudlarida jinoyat va fuqarolik ishi apellatsiya va kassatsiya tartibida ko'rilayotganda, **sudning tarkibi** uch nafar professional sudyadan iborat bo'ladi.

**Apellatsiya shikoyatini (protestini) keltirish muddatlari:** jinoyat sud ishlarini yuritishda — hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran, o'n sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran, shunday muddat ichida; fuqarolik sud ishlarini yuritishda — sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan e'tiboran, yigirma kun ichida.

**Kassatsiya tartibida ish yuritish** bosqichida apellatsiya tartibida ko'rilmagan va qonuniy kuchga kirgan hukmlar (hal qiluv qarorlari, qarorlar, ajrimlar) ko'riladi. Apellatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmaydi.

### **Kassatsiya tartibida:**

• **jinoyat sud ishlarini yuritishda** jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan esa shu sudlarning sudlov hay'atlariga kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish mumkin;

• **fuqarolik sud ishlarini yuritishda**, FPKning 348<sup>2</sup>-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'radi.

O'rta bo'g'in sudlarida jinoyat va fuqarolik ishi kassatsiya tartibida ko'rilayotganda **sudning tarkibi** uch nafar professional sudyadan iborat bo'ladi.

### **Kassatsiya shikoyatini berish muddatlari:**

• **jinoyat sud ishlarini yuritishda** — shikoyat yoki protestda og'irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo'llash zarurligi, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini og'irlashtiradigan boshqa o'zgarishlar nazarda tutilgan bo'lsa, sudning ayblov hukmini yoki ajrimini (qarorini), shuningdek, sudning oqlov hukmini yoxud ishni tugatish to'g'risidagi ajrimini (qarorini) kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqishga ular qonuniy kuchga kirganidan keyin, bir yil mobaynidagina yo'l qo'yiladi (JPKning 500-moddasi);

• **fuqarolik sud ishlarini yuritishda** — qonuniy kuchga kirgan, apellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran, bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin (FPKning 348<sup>1</sup>-moddasi).

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi **nazorat instansiyasi** sifatida apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha chiqarilgan hukm va ajrimning (qarorning) qonuniyligi va asoslilikini tekshirishga vakolatlidir. Nazorat tartibida ish yuritish yuqori turuvchi sudning raisi va prokuror kabi mansabdor shaxslar shunday qarorga kelgan taqdirdagina qo'zg'atilishi mumkin.

### **Jinoyat ishlarini protestlar bo'yicha nazorat tartibida ko'ruvchi sudlar.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari va fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudlarining, jinoyat ishlari va fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining rayosatlari mazkur sudlarning tegishincha jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari va fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari ko'rgan ishlar bo'yicha chiqarilgan tegishli apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan bildirilgan protestlar bo'yicha ishlarni ko'radilar.

**Jinoyat sud ishlarini yuritishda muddatlar:** protestda og'irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo'llash zarurligi, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini og'irlashtiradigan boshqa o'zgarishlar nazarda tutilgan bo'lsa, sudning ayblov hukmini yoki ajrimini (qarorini), shuningdek, sudning oqlov hukmini yoxud ishni tugatish to'g'risidagi ajrimini (qarorini) nazorat tartibida qayta ko'rib chiqishga ular qonuniy kuchga kirgandan keyin, bir yil mobaynidagina yo'l qo'yiladi (JPKning 513-moddasi); **fuqarolik sud ishlarini yuritishda** — sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran, uch yil o'tgandan keyin berilgan arizalar ko'rilmaydi (FPKning 350-moddasi).

**Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari** rais, rais o'rinbosari, sudyalalar, xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi va sud rayosati hamda sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari** rais, rais o'rinbosari, sudyalardan iborat bo'ladi va sud rayosati hamda sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati** shu sudning sudyalaridan iborat tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi **rayosati majlislari** har oyda kamida ikki marta o'tkaziladi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Muayyan ishlar yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi **rayosati qarorlari** ovoz berishda qatnashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va tegishli sud raisi tomonidan imzolanadi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati:**


- o'z vakolatlari doirasida ishlarni nazorat tartibida ko'radi;
- sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi;

- hay'atlar faoliyati to'g'risidagi ma'ruzalarni, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari raislarining shu sudlar faoliyati to'g'risidagi va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi;
- qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.


**Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudining sudlov hay'atlari:**

- o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiyada ko'radi;
- apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra, ishlarni apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'radi. Apellatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmassligi kerak;
- sud amaliyotini umumlashtiradi;
- qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarining namunaviy tuzilmasi**



**Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha  
Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar jinoyat ishlari  
bo'yicha sudlarining namunaviy tuzilmasi**



**Harbiy sudlar**

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi organlarining asosiy **vazifalari** quyidagilardir:

- davlat manfaatlari va Qurolli Kuchlar, Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari bosh boshqarmalari, MXX, FVV va vazirlik va idoralarning harbiy qismlari harbiy xizmatchilarining qonuniy huquq va erkinliklarini himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari asosida odil sudlovni amalga oshirish, qo'shinlarda qonuniylikni va huquqiy tartibotni ta'minlash;

- harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasi borasida kompleks chora-tadbirlar o'tkazish.

**Sudlovga tegishlilik.** Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomga asosan, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:

a) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Milliy xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonun hujjatlariga muvofiq, tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek, o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni;

b) harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruv organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarini va harbiy boshqaruv organlari hamda harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni (fuqarolik da'voni qo'zg'atish bo'yicha mazkur imkoniyat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga asosanib, unga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi);

d) alohida holatlarga ko'ra, umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini;

e) davlat sirlariga taalluqli ishlarni;

f) qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa ishlarni ko'radi.

**Okrug va hududiy harbiy sudlar** tuman sudi huquqlari doirasida ish olib boradi hamda rais, sudyalardan va xalq maslahatchilaridan, zarurat bo'lganda esa, sud raisining o'rinbosaridan ham iborat bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi** viloyat sudi huquqlari doirasida ish olib boradi hamda rais, rais o'rinbosari, sudyalardan va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati** oliy bo'g'in hisoblanadi hamda lavozim bo'yicha Harbiy hay'at raisi hisoblanadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosari, Harbiy hay'at raisining o'rinbosari va sudyalardan iborat bo'ladi.

Okrug va hududiy harbiy sudlar sudloviga barcha darajadagi sudlarga taalluqli bo'lgan jinoyat ishlari majmuasidan podpolkovnik, 2-darajali kapitandan yuqori bo'lmagan unvondagi shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar tegishlidir (tinchlik vaqtida uzoq muddatli yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazo tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar haqidagi ishlardan tashqari). Harbiy sudlarda ko'rilishi mumkin bo'lgan barcha toifadagi fuqarolik ishlarni ushbu bo'g'in sudlari ko'radi.

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining vakolatlari** — ishlarni birinchi, apellatsiya, kassatsiya instansiyalarida, shuningdek, nazorat tartibida va yangi ochilgan holatlar bo'yicha ko'rib chiqish.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay‘atining vakolatlari** — nazorat tartibida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi rayosatining qarori ustidan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan birinchi instansiya bo‘yicha ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha chiqarilgan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan bildirilgan protestlar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish.

Haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega bo‘lgan va umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalariga qo‘yilgan talablarga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi **harbiy sud sudyasi** bo‘lishi mumkin.

Oliy yuridik ma‘lumotga hamda yuridik ixtisos bo‘yicha kamida besh yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo‘lib kamida ikki yillik mehnat tajiga ega bo‘lgan va malaka imtihonini topshirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi **O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi** bo‘lishi mumkin.

### **O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi** fuqarolik, jinoiy va ma‘muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar **qat‘iy va O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyidagi **asosiy funksiyalarni** bajarishga da‘vat etilgan:

1) umumiy yurisdiksiya sudlari sudloviga taalluqli bo‘lgan fuqarolik, jinoiy va ma‘muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi sifatida uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish;

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish;

3) sud amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish va ishlarni sudda ko‘rib chiqish vaqtida qonunchilikni qo‘llash borasidagi masalalar bo‘yicha sudlarga tushuntirishlar berish; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

4) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish.



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi** rais, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, sudlov hay‘atlari raislari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan iborat.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan 5 yil muddatga saylanadi.

Oliy yuridik ma‘lumotga hamda yuridik ixtisos bo‘yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo‘lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan va malaka imtihonini topshirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi **O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi** bo‘lishi mumkin.

Oliy sud **quyidagi tarkibda (tuzilmaviy jihatidan)** ish olib boradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati;
- Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati;
- Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati;
- Harbiy hay‘at.

**Oliy sud plenumi** eng yuqori sudlov instansiyasi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy xo‘jalik sudi raisi, Adliya vaziri, sudyalar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi a‘zolari ishtirok etishi mumkin.

**Plenum qarorlari** ularni tavsiflovchi quyidagi *belgilarga* ega:

- a) qonun bilan belgilangan organ tomonidan qabul qilinadi;
- b) tushuntirish berilgan qonunchilikni qo‘llaydigan, nafaqat, sudlar uchun, balki boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir, ya‘ni mavhum shaklda ifodalangan bo‘lib, soni cheklanmagan shaxslarga mo‘ljallangan;
- d) bir marta qo‘llanadigan hujjat hisoblanmay, ko‘p marotaba qo‘llash uchun mo‘ljallangan;
- e) qonunda aynan ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, amaliyotda ularni nashr qilish majburiyligi tartibi qabul qilingan.


**Oliy sud rayosati** O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi tomonidan belgilanadigan miqdorda tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning birinchi

o'rinbosari va o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati tarkibiga lavozim bo'yicha kiradilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

**Sudlov hay'atlari** o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiyada, apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi; sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi; qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi; sud statistikasini tahlil qiladi; qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.


Sudlov hay'atlarining tarkibi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari tarkibidan Oliy sud plenumi tomonidan shakllantiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tuzilishi**





**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tarkibi**



**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy sudi plenumining  
vakolatlari**




\* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

\* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi.

\* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi.

\* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, Adliya vaziri, sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

\* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi va qabul qilingan paytdan boshlab, kuchga kiradi.



\* O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o‘tkaziladi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati a‘zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

### **O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudlari**

**Xo‘jalik sudi** odil sudlov organi bo‘lib, iqtisodiyot sohasida vujudga kelgan nizolar va qonun bilan o‘zining vakolatiga kiritilgan hamda boshqa ishlarni hal qilish yo‘li bilan o‘z vakolatlarini amalga oshiradi.

**Xo‘jalik sudida sud ishlarini yuritishning asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;
- iqtisodiyot sohasida qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko‘maklashish.

Xo‘jalik protsessual kodeksining 23-moddasiga binoan, **xo‘jalik sudiga quyidagi ishlar taalluqlidir:**

- iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tarzda olgan fuqarolar o‘rtasidagi fuqaroviy, ma‘muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga doir ishlar;

- iqtisodiyot sohasida tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar;

- tashkilotlar va fuqarolarning bankrotligi to'g'risidagi ishlar.

**O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari tizimi:**

- *asosiy bo'g'in* – Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari;

- *yuqori bo'g'in* – O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 43-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi **xo'jalik sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi** Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi ishlarni **birinchi instansiya sudi sifatida, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida** ko'radi.

**Oliy xo'jalik sudi:**

- respublika boshqaruv organlari bilan vakillik va ijroiya hokimiyati mahalliy organlari o'rtasidagi iqtisodiy bitimlardan kelib chiqadigan nizolarni;

- hokimiyat oliy organlarining normativ xarakterga ega bo'lmagan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi ishlarni ko'radi.

**Oliy xo'jalik sudining tarkibiga quyidagilar kiradi:** rais, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, sudlov hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari. Mazkur sud O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi; O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosati; Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati; Ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati tarkibida ish olib boradi.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo'lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi **O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyasi** bo'lishi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan besh yillik muddatga saylanadi.

**Sudlov hay'atlari.** O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining asosiy protsessual vakolatini amalga oshirish — ishlarni mazmunan ko'rib chiqish — sudlov ha'atlarida bo'lib o'tadi. Shuningdek, ular ishlarni kassatsiya tartibida ko'radi; sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi; qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi; sud statistikasini tahlil qiladi; qonunga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.


**Sudlov hay'atlari** O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalariidan **tashkil topadi** va ushbu sud raisi taqdimnomasiga asosan plenum tomonidan tasdiqlanadi. Ularga O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining o'rinbosarlari bo'lmish sudlov hay'atining raislari rahbarlik qiladi.


**O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosati** O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalariidan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi belgilaydigan miqdorda tuziladi.


O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 50-moddasi). O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining majlisida bayonnoma yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining qarori va bayonnoma raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi** O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi raisidan iborat tarkibda ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy sud raisi, Adliya vaziri, sudyalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi.










\* O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatti hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining vakolatlari**



## O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi

**Konstitutsiyaviy nazorat** — bu davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy talablarga zid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlari va harakatlarini aniqlash, shuningdek, aniqlangan qonun buzilishlarni bartaraf etish choralarini ko'rish yo'li bilan Konstitutsiya ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan himoya qilish faoliyatining yo'nalishidir (funksiyasidir).

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi** — qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat normativ-huquqiy hujjatlarining konstitutsiyaga mosligi haqidagi ishlarni ko'rib chiquvchi sud hokimiyati organi hisoblanadi.

**Konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritishning vazifalari** — fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq va qonun bilan qo'riqlandigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ishlarni to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqishdir. Konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish qonuniylik va huquq-tartibot mustahkamlanishini, demokratizmni, ijtimoiy adolatni, fuqaroviy tinchlikni va millatlararo totuvlikni ta'minlashi zarur.

**Konstitutsiyaviy sud sudyasi** — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, Oliy Majlisning Senati tomonidan besh yillik muddatga saylangan, siyosat va huquq sohasi mutaxassisi bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilatli va zarur malakali O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

**Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari** — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik va sudyalar huquqlarining tengligi.

Taraflar, taraflarning vakillari, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar Konstitutsiyaviy sud majlisining **ishtirokchilari** hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaviylikini tekshirish to'g'risida taklif bilan murojaat etgan tashabbuskorlar, shuningdek, konstitutsiyaviylikini tekshirish to'g'risida masala qo'yilayotgan normativ-huquqiy hujjatni chiqargan, xalqaro shartnomani tuzgan organlar, mansabdor shaxslar konstitutsiyaviy **sudlov ishlarini yuritishda taraflar** hisoblanadi.

**Taraflarning vakillari** — bu Konstitutsiyaviy sud taraflar tomonidan ularning manfaatlarini himoya qilish topshirilgan shaxslar.

## **O'zbekiston Respublikasida sudyalar maqomi**

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 60-mod-dasiga asosan, sudyalar qonunga muvofiq, odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir.

### **Sudyaning huquqiy maqomi ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi:**

- 1) sudyaning xizmat immuniteti;
- 2) intizomiy javobgarlik instituti;
- 3) sudyalar vakolatini to'xtatib turish instituti;
- 4) sudyalarning malaka attestatsiyalari va malaka darajalari instituti;
- 5) sudyalarning qonunda belgilangan tartibda saylanishi, tayinlanishi va vazifasidan ozod etilishi;
- 6) odil sudlovni amalga oshirishning qat'iy belgilangan tartib-tamoyili;
- 7) qarorlar qabul qilishda sudyalar maslahatlashuvi siri va uni oshkor qilish talabining man etilganligi;
- 8) sudga hurmatsizlik va muayyan ishlarni hal etishga aralashganlik, sudyalar daxlsizligiga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik;
- 9) sudyaga uning yuqori maqomiga mos bo'lgan davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minot berilishi.

### **Malaka attestatsiyasi:**

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlarining, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raislari va rais o'rinbosarlariga nisbatan – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan, Sudyalar oliy malaka hay'ati tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlarining, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining sudyalariga nisbatan – Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislarining taqdimnomasiga binoan, sudyalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan;

- O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining, okrug va hududiy harbiy sudlarning sudyalariga nisbatan – O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining taqdimnomasiga binoan, harbiy sudlar sudyalarining malaka hay'ati tomonidan;

- xo'jalik sudlari sudyalariga nisbatan – O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan, xo'jalik sudlari sudyalarining malaka hay'ati tomonidan o'tkaziladi.

Sudyalarning **malaka attestatsiyasini tayyorlash va o'tkazish jarayoni** quyidagilardan iborat:

- a) sudyaning tavsifnomasini tayyorlash;
- b) sudyaning tavsifnoma bilan tanishtirilishi;
- d) malaka attestatsiyasi o'tkaziladigan vaqt haqida xabardor qilish;
- e) malaka attestatsiyasining protsessual tartibi;
- f) malaka attestatsiyasi natijalari bo'yicha qaror qabul qilish;
- g) malaka darajasi berilganligi to'g'risida guvohnoma.

**Sudyalarning moddiy ta'minoti** quyidagilarni nazarda tutadi:

a) sudyalarning ish haqi miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko'p yillik xizmati uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat;

b) sudyalarga har yili o'ttiz olti ish kunidan iborat haq to'lanadigan ta'til beriladi.

**Sudyalar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish choralari** quyidagilarni anglatadi:

a) sudyalarning hayoti va sog'lig'i davlatning maxsus muhofazasida bo'ladi hamda respublika budjeti mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug'urta qilinadi;

b) quyidagi hollarda davlat sug'urta organlari sug'urta summalarini to'laydi:

- sudya ishlayotgan davrida yoki vakolat muddati tugaganidan keyin halok bo'lsa (vafot etsa), agar bu sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi oqibatida ro'y bergan bo'lsa, uning merosxo'rlariga sudyaning ellik oylik ish haqi miqdorida;

- sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolsa yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida sudyaning yigirma besh oylik ish haqi miqdorida;

- sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etmaydigan va mehnat qobiliyatining doimiy yo'qolishiga olib kelmaydigan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida sudyaning besh oylik ish haqi miqdorida.

Sudyalik lavozimini egallovchi davlat xizmatchilarining jami **sud korpusi** deb nomlanadi. Sud korpusiga O'zbekiston Respublikasi sud tizimida sudyalik lavozimini egallab turgan barcha shaxslar kiradi: Konstitutsiyaviy sudda, umumiy yurisdiksiya sudlarida, jumladan, harbiy sudlarda, shuningdek, xo'jalik sudlarida.

**Sudyalar korpusini shakllantirish jarayoni** ikki asosiy bosqichdan iborat:

- 1) sudyalik lavozimlariga tavsiya etish uchun nomzodlar zaxirasini shakllantirish va nomzodlarni tanlash;
- 2) tayinlash yoki saylash.

**O‘zini sudyalikka nomzodlar zaxirasiga kiritish yoki bo‘shab qolgan muayyan sudyalik lavozimiga qo‘yilish istagini bildirgan shaxslarga quyidagi talablar qo‘yiladi:**

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi;
- yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmasligi;
- mutaxassisligi bo‘yicha uch yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lishi. Sudyalikka nomzodlar zaxirasiga sudlangan shaxslar qabul qilinishi mumkin emas.

**Sudyalikka nomzodlarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar:**

• Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyaligiga nomzodlarga — *yuridik ixtisos bo‘yicha kamida besh yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo‘lib kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo‘lish;*

• O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi sudyaligiga nomzodlarga — *yuridik ixtisos bo‘yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo‘lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lish;*

• harbiy sud sudyaligiga nomzodlarga — *haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega bo‘lish.*

Har bir sudyalikka nomzod uchun sudyalikka nomzodlar zaxirasiga kiritish to‘g‘risidagi arizaga *kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa, tarjimai hol, oliy yuridik ma‘lumot to‘g‘risidagi diplom nusxasi, mehnat daftarchasidan ko‘chirma, oxirgi ish joyidan tavsifnoma* ilova qilish zarurati majburiy shart hisoblanadi.

**Sudya maqomining yaxlitligi sudyalar hamjamiyatida barcha sudyalarning tengligini anglatadi:**

- ularning huquqlarini bir xilda himoya qilinishi;
- sudyalar zimmasiga sudyalik lavozimida bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlar va cheklanishlar yuklatilishi;
- javobgarlikka tortish va vakolatlarni tugatishning teng sharoitlari.

**Sudyalarning vakolatlari quyidagilarga qarab farqlanadi:**

1) ularning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, umumiy yurisdiksiya sudlariga, shu jumladan, harbiy sudlarga yoki xo‘jalik sudlarga tegishliligiga;

2) sudyaning quyi yoki yuqori turuvchi sudda ishlashiga, ishlarning sudlovga taalluqliligi qoidalariga;




3) sudyaning lavozimiga (sud raisi, uning o‘rinbosari, sudlov hay‘ati-ning raisi, birinchi, ikkinchi, nazorat instansiyasi sudyasi).

**Sudyaning vakolatlari** uning huquqiy maqomi o‘zagini tashkil etuvchi **huquq va majburiyatlarini belgilaydi**. Sudya vakolatlari doirasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni ikki turga bo‘lish mumkin:

- «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunda ko‘rsatilgan va ixtisoslashuvidan qat’i nazar, barcha sudyalarga taalluqli bo‘lgan umumiy (universal) vakolatlar;
- bevosita tarmoq protsessual qonunchiligida belgilangan va amalga oshiriladigan sudlov ishlarini yuritishning turiga qarab, farq qiluvchi maxsus (tarmoq) vakolatlar.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

## O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimining tashkiliy tuzilmasi



## **Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash**

**Sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash** — bu sudlov faoliyati, uning kadr, tashkiliy va resurs ta'minoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarini yaratish bo'yicha tegishli choralarni ko'rishga yo'naltirilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining funksiyasidir. Ushbu funksiyani amalga oshirish bir qator organlar zimmasiga yuklatilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti, Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi), ularning birgalikdagi harakati natijasida mazkur funksiyaning amalga oshirilishi ta'minlanadi.

**Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash quyidagi elementlardan iborat:**

- 1) tashkiliy turdagi tadbirlar;
- 2) moliyaviy turdagi tadbirlar: a) sudyalor va sud devonlari xodimlarini tegishli pul ta'minoti bilan ta'minlash; b) kapital qurilish va boshqa masalalar yuzasidan sudlarni tegishlicha moliyalashtirishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar;
- 3) moddiy-texnik turdagi tadbirlar (sudlarni tashkiliy texnika, kanselariya va boshqa materiallar, shuningdek, elektr, suv ta'minoti, isitish va h.k.lar bilan amalda ta'minlash);
- 4) odil sudlovni to'la va mustaqil amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.


### **Quyidagilar Sud departamentining asosiy vazifalari hisoblanadi:**

- sud qarorlari va boshqa organlar qarorlari so'zsis ijro etilishi ishlarini tashkil etish;
- sud ijrochilari kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish ishlarini hamda ularning samarali faoliyat ko'rsatishini tashkil etish;
- sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash ishlarini tashkil etish hamda takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;
- sudlar binolarini qurish va ta'mirlash uchun ajratilgan kapital mablag'lar samarali o'zlashtirilishini ta'minlash hamda sudlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini ko'rish;


- sudyalar va sudlar apparati xodimlarining mehnat, moddiy shart-sharoitlari va ijtimoiy ta'minotini yaxshilash yuzasidan takliflar ishlab chiqish va ularni tegishli organlarga kiritish;
- sudyalar va sud protsesslarining xavfsizligini ta'minlash ishlarini tashkil etish.

Qonunda o'rta maxsus (yuridik) yoki oliy (yuridik) ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi **sud ijrochisi** bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Sud ijrochilarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish Sud departamenti direktori bilan kelishilgan holda Sud departamentining hududiy boshqarmasi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.


**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud  
qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik  
jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamentining  
tashkiliy-shtat tuzilmasi**



**Sud departamentining Qoraqalpog'iston Respublikasi va  
viloyatlar bo'yicha hududiy boshqarmalarining  
tashkiliy-shtat tuzilmasi**



**Sud departamentining Toshkent shahar hududiy  
boshqarmasining tashkiliy-shtat tuzilmasi**



## PROKURATURA VA PROKUROR NAZORATI

**Prokuror nazorati** — davlat nomidan maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslarning — prokurorlarning qonun buzilishlarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish, aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish orqali qonunlarni aniq bajarish va bir xilda qo‘llashni ta‘minlash borasidagi amalga oshiriladigan faoliyatidir hamda huquqni himoya qilish faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan (funksiyalaridan) biridir.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining **vazifalari** — qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish.

Davlat faoliyati turi sifatida prokuror nazorati **predmeti** deganda, prokuror faoliyati tartibga solishga yo‘naltirilgan ijtimoiy munosabatlar sohasi tushuniladi.

Prokuror nazorati **obyekti** sifatida prokuratura organlari qonunlar ijrosini tekshirish o‘tkaziladigan korxonalar, muassasa, tashkilot va boshqa yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Prokuror nazorati subyekti** — prokuror.

**Prokuror vakolatlari** — bu nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun prokurorda mavjud bo‘lgan huquq va majburiyatlar doirasidir.

**Prokuror nazorati tarmog‘i** — bu yagona prokuror nazoratining qonun bilan belgilangan tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zining nazorat obyekti va predmetiga ega, shuningdek, maxsus, faqat ushbu ijtimoiy munosabatlar sohasiga xos bo‘lgan vazifalar va qonunlar bajarilishi ustidan nazorat bo‘yicha prokuror vakolatlariga egaligi bilan tavsiflanadi.

**Prokuror nazorati hujjatlari** — bu maxsus hujjatda belgilangan prokurorning qarori bo‘lib, uning yordamida prokuror huquqiy vositalarni qo‘llash orqali aniqlangan huquqbuzarliklarga ta‘sir ko‘rsatadi.

**Prokurorning protesti** — bu qonunga zid va nomuvofiq bo‘lgan normativ va boshqa huquqiy hujjatlarga, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslari qarorlari va harakatlariga prokuror ta‘sirining yozma yuridik hujjati hisoblanadi.

**Prokurorning taqdimnomasi** — bu qonun buzilish holatlarini, bunday qonun buzilishining sabablari va imkon bergan shart-sharoitlarini bartaraf etish to‘g‘risidagi prokuror ta‘sirining huquqiy hujjatidir.



**Prokurorning ogohlantiruvi** — bu inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan noqonuniy, lekin jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan qilmishlar sodir etishga moyil bo'lgan fuqaro va mansabdor shaxslarga individual profilaktika ta'sirining samarali chorasi bo'lib xizmat qiladigan prokuror ta'sirining hujjatidir.

Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv **prokuror nazorati hujjatlaridir.**

**O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi** — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi; viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari; tumanlar va shaharlar prokuraturalari; viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi; tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni liberallashtirishga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.


**Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining prinsiplari** — bu prokuratura organlari ko'p qirrali faoliyatining eng muhim xususiyat va belgilarini aniqlaydigan asosiy, rahbarlik qiluvchi qoidalar hamda ularga qo'yiladigan asosiy talablar.

**Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari** birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.


Prokuror lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan **talablar** — O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish, 25 yoshdan kichik bo'lmazlik, zarur kasbiy fazilatlariga ega bo'lish, zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'lig'i imkon berishi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2004-yil 11-martdagi PF-3406-sonli  
Farmoniga 1-ilova*


**O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining tuzilmasi**




**Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar  
prokuraturalarining namunaviy tuzilmasi**




### Toshkent shahar prokuraturasining tuzilmasi





## O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasining tuzilmasi



**Viloyatlar markazlari va Toshkent shahar tumanlari  
prokuraturalarining namunaviy tuzilmasi**



**Tuman (shahar) va ularga tenglashtirilgan harbiy okrug,  
hududiy harbiy, transport va maxsus prokuraturalarning  
namunaviy tuzilmasi**



## **Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish**

**Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish** huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u jinoyat hodisasini aniqlash, jinoyat sodir etishda aybdor shaxsni yoki aybdor shaxslarni qidirish va fosh etish, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash hamda sodir etilgan jinoyatning sabablarini bartaraf etish va yangi jinoyatlarning oldini olish yuzasidan tegishli choralarni ko'rish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organlarining faoliyatidan iborat bo'lgan dastlabki tergov shaklida amalga oshiriladi.

**Dastlabki tergov** — bu jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni fosh etish, jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi sharoit va sabablarni aniqlashtirishga qaratilgan hamda protsessual qonunchilikka qat'iy rioya qilgan holda tegishli vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxslar, ya'ni tergovchilar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Dastlabki tergovni amalga oshiradigan **subyektlar** — prokuratura, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmati organlari tergovchilari.

**Tergovga tegishlilik** deganda, jinoyat ishining shunday belgilari majmuasi tushuniladiki, ularga qarab, qonun muayyan jinoyat ishini yuritishni u yoki bu dastlabki tergov yoki surishtiruv organi vakolatiga kiritadi.

### **Tergovga tegishlilikni aniqlashtiruvchi belgilar:**

- jinoyatlar toifasi va ularning turi (predmet, turdosh belgisi);
- jinoyat sodir etilgan joyi (hududiy, mahalliy belgi);
- jinoyat subyekti (shaxs belgisi).

**Surishtiruv va dastlabki tergov** — bu jinoyat protsessining bir bosqichi bo'lib, uning mohiyati prokuror nazorati ostida amalga oshiriladigan jinoyat hodisasi bor-yo'qligini, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar xarakteri va miqdorini hamda ish uchun muhim bo'lgan boshqa holatlarni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, mustahkamlash va o'rganish bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergov organlarining faoliyatida namoyon bo'ladi.

**Surishtiruv vazifalari** — jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik; dalillarni to'plash va saqlash; jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish; jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish.



**Surishtiruv muddati** — jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan vaqtdan boshlab o‘n sutka.



**Dastlabki tergov muddatlari** — 3 oy, tegishli prokurorlar tomonidan mazkur muddat 5, 7, 9 oygacha va istisno holatlarida bir yilgacha uzaytirilishi mumkin.

**Surishtiruv:**

- 1) jinoyat ishini tergovchiga o‘tkazish;
- 2) jinoyat ishini taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan birga prokurorga yuborish;
- 3) amnistiya aktiga asosan, jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan birga jinoyat ishini prokurorga yuborish bilan **tamomlanadi**.

**Tergovchi** — jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirish bo‘yicha majburiyat qonun bilan zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxsdir. JPKning 35-moddasiga muvofiq, jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlarining va milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari olib boradilar.

**Dastlabki tergov va surishtiruv organlari o‘rtasidagi hamkorlik** deganda, dastlabki tergov va surishtiruv organlari tomonidan qo‘llaniladigan usullarini oqilona birlashtirish orqali jinoyatlarni ochish va aybdorlarni fosh etishga, jinoiy faoliyatning oldini olishga va uni bartaraf etishga hamda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga yo‘naltirilgan ko‘rsatilgan davlat muassasalari mansabdor shaxslarining qonunga asoslangan muvofiqlashtirilgan faoliyati tushuniladi.



**Surishtiruvchi o'n kunlik  
muddati o'tishini kutmasdan  
ishni tergovchiga darhol  
o'tkazishi lozim bo'lgan  
hollar**

og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat  
aniqlangan bo'lsa

gumon qilinuvchiga nisbatan  
qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot  
chorasini qo'llash yoki  
muayyan shaxsni ayblanuvchi  
tariqasida ishda ishtirok etishga  
jalb qilish uchun asoslar  
aniqlangan bo'lsa

ishni tugatish uchun asoslar  
aniqlangan bo'lsa

tergovchi ishning o'z yuritu-  
viga berilishini talab qilgan  
bo'lsa

**Dastlabki tergovning asosiy maqsadi**



ayblanuvchining sudda shaxsan ishtirok etishini ta'minlash

aybdorni fosh etish yoki aybsizni rehabilitatsiya qilish

sud muhokamasini o'tkazish uchun yetarli dalillar bazasini shakllantirish

jinoyatni ochish

jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi mumkin bo'lgan sud qarorining ijrosini kafolatlash



## HUQUQIY YORDAMNI TASHKIL ETISH VA KO'RSATISH

**Advokatura** — huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi.

**Advokaturaning vazifalari** — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatish.

**Maslahat** deganda, amaldagi qonunchilik bo'yicha tushuntirishlarni berish, tegishli ma'lumotnomani, ya'ni qonundagi muayyan qoidalarning mazmuni yuzasidan ma'lumotlarni taqdim etish tushuniladi.

**Ariza** — huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish haqidagi asosli iltimosni aks ettiruvchi hujjatdir.

**Shikoyat** — shikoyat keltirilayotgan organning (mansabdor shaxsning) qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish, harakatlarini (harakatsizligini) rad etish yoki noqonuniy deb topish haqidagi iltimosni aks ettiruvchi hamda yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxsga yo'naltirilgan hujjatdir.

**Iltimosnoma** — tegishli hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxsga yo'naltirilgan hamda o'zining yoki ishonch bildiruvchi shaxsning huquqlarini to'liq amalga oshirish, harakatlarni bajarish, qarorlarni qabul qilish yoki ularni rad etish maqsadida arz etilgan rasmiy iltimosdir.

**Advokatura faoliyatining prinsiplari:** advokatning mustaqilligi; kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etish; qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan vositalar hamda usullardan foydalanish.

**Advokaturaning mustaqilligi prinsipi:** mazkur prinsipga muvofiq, advokatlik tuzilmalarining tashkil etilishi va harakat qilishi, shuningdek, advokatning professional faoliyati advokatura tizimiga kirmaydigan organ va mansabdor shaxslarining fikrlari, qarorlari yoki harakatlariga bog'liq emas.

**Advokatura faoliyatining tashkiliy shakllari** — advokatlik byurosi; advokatlik firmasi; advokatlar hay'ati; yuridik maslahatxona.

**Advokatlik byurosi** advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir.

**Advokatlik firmasi** sheriklikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir.

**Advokatlar hay'ati** a'zolikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir.

**Yuridik maslahatxona** — advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan advokatlik tuzilmasi.

**Advokatlar palatasi** O'zbekiston Respublikasi barcha advokatlarining majburiy a'ziligiga asoslangan notijorat tashkilotdir.


### O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining tashkiliy tuzilmasi




# XORIJIY MAMLAKATLARDA SUD, PROKURATURA, ADVOKATURA

## AQSH SUD TIZIMI TUZILISHINING KO'RGAZMALI NAMUNALARI

### Federal sudlar tizimi



### Shtatlar sudlari tizimi





## Virjiniya shtati sud tuzimining tuzilishi

### Oliy sud

7 nafar sudya to'liq tarkibda majlis o'tkazadi.

- Jinoyat va intizomiy ishlar bo'yicha majburiy yurisdiksiya.
- Fuqarolik va o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha diskretsiyon yurisdiksiya, boshlang'ich ko'rib chiqish, oraliq ko'rib chiqish.

oxirgi  
instansiya  
sudi

### Apellatsiya sudlari (6 sudlar/okruglar).

88 nafar sudya ishlarni hay'atda ko'radi.

- Fuqarolik va o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha majburiy yurisdiksiya.
- Ma'muriy idoralarning ishlari bo'yicha diskretsiyon yurisdiksiya, boshlang'ich ko'rib chiqish va dastlabki qarorlar qabul qilish.

oraliq ins-  
tansiya  
apellatsiya  
sudlari

### Yuqori sudlar (58 ta graflik).

7725 nafar sudya, 113 nafar komissar va arbitrlar, prisyajniylar sudi.

- Fuqarolik huquqbuzarliklar, kontraktlar, ko'chmas mol-mulk (25000 doll. va undan yuqori), turli fuqarolik ishlari. Oilaviy munosabatlar, meros huquqi, ruhiy sog'liq masalalari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya, fuqarolik shikoyatlari bo'yicha yurisdiksiya. Transportni mast holda boshqarish. Sudga tegishli bo'lgan feloniya ishlari, jinoyat ishlari yuzasidan shikoyatlar bo'yicha mutlaq yurisdiksiya.
- Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya.

umumiy  
yuris-  
diksiya  
sudi

### Munitsipal sud (88 ta sud).

566 nafar sudya, 134 referi va komissarlar, prisyajniylar sudi, mayda pretenziyalar va huquqbuzarliklar bundan mustasno.

- Fuqarolik huquqbuzarliklar, kontrakt, ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqlarning buzilishlari (25000 dollargacha), mayda pretenziyalar (2000 dollargacha), turli fuqarolik ishlari.
- Cheklangan feloniya, mayda huquqbuzarliklar, transportni mast holda boshqarish.
- Yo'l harakati qoidalarini buzish va h.k.

### Hakamlik sudi (76 ta sud).

76 nafar sudya, prisyajniylar sudi, mayda pretenziyalar va huquqbuzarliklar bundan mustasno.

- Fuqarolik huquqbuzarliklar, kontrakt, ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqlarning buzilishlari (25000 dollargacha), mayda pretenziyalar (2000 dollargacha), boshqa fuqarolik ishlari.
- Cheklangan feloniya, mayda huquqbuzarliklar, transportni mast holda boshqarish.
- Yo'l harakati qoidalarini buzish va h.k.

## Ayova shtati sud tuzimining tuzilishi

### Oliy sud.

7 nafar sudya to'liq tarkibda hay'atda majlis o'tkazadi.

- O'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning ishlari, yuristlarga nisbatan intizomiy qarorlar bo'yicha majburiy yurisdiksiya.
- Fuqarolik, o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lmagan jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha, sudyalarga nisbatan intizomiy qarorlar bo'yicha diskretsiyon yurisdiksiya, ishlarni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqish, oraliq qarorlar qabul qilish.

oxirgi  
instansiya  
sudi

### Apellatsiya sudi.

10 nafar sudya hay'atda majlis o'tkazadi.

- Muayyan fuqarolik ishlari, ma'muriy idoralarning muayyan ishlari, shuningdek, birinchi instansiya bo'yicha ko'riladigan muayyan ishlar bo'yicha majburiy yurisdiksiya, dastlabki qarorlarni qabul qilish. O'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lmagan jinoyat ishlari bo'yicha diskretsiyon yurisdiksiya.

oraliq ins-  
tansiyasi-  
ning apel-  
latsiya  
sudi

### Okrug sudi (31 ta okrug).

122 nafar sudya. Prisyajniylar sudi.

- Fuqarolik huquqbuzarliklar, kontraktlar, ko'chmas mol-mulk, ruhiy sog'liq, ma'muriy idoralarning qarorlari ustidan shikoyatlar, boshqa fuqarolik ishlari. Oilaviy munosabatlar bo'yicha mutlaq yurisdiksiya (alimentlar va vasiylik bundan mustasno), birinchi instansiya sudlarining xatti-harakatlari ustidan keltirilgan fuqarolik shikoyatlari, meros to'g'risidagi ishlar.
- Mayda huquqbuzarliklar va jinoyatlar bo'yicha chiqarilgan qarorlar ustidan shikoyatlar. Feloniya ishlari bo'yicha istisno yurisdiksiya.
- Munitsipalitet qarorlarining buzilishi.

umumiy  
yuris-  
diksiya  
sudi

### Okrug sudi (204 ta umumiy sud, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudlar va oilaviy sudlar)\*.

- Umumiy okrug sudlarining 108 nafar sudyasi hamda voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha va oilaviy munosabatlar bo'yicha okrug sudlarining 73 nafar sudyasi. Prisyajniylarsiz sud.
- Fuqarolik huquqbuzarliklar, kontraktlar, ko'chmas mol-mulk (7000 dollargacha), alimentlar va bolalarga vasiylik qilish, ruhiy sog'liq, Ferfaks grafligida mayda da'volar.
- Huquqbuzarliklar. Transportni mast holda boshqarish bo'yicha mutlaq yurisdiksiya, feloniyaga nisbatan cheklangan yurisdiksiya.
- Munitsipalitet qarorlarini buzish. Transport huquqbuzarliklari, transport vositalarining parkovkasi qoidalarini buzish bo'yicha istisno yurisdiksiya.

cheklan-  
gan yuris-  
diksiya  
sudi

\* Okrug sudi voyaga yetmaganlar ishlari va oilaviy munosabatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud, boshqa ishlarni ko'rganida esa umumiy okrug sudi deb nomlanadi.

## Kaliforniya shtati sud tuzimining tuzilishi

### Oliy sud.

7 nafar sudya to'liq tarkibda majlis o'tkazadi.

- Fuqarolik, jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning faoliyati bilan bog'liq ishlar, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha majburiy yurisdiksiya, yuristlarga nisbatan intizomiy qarorlar, ishlarni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqish, dastlabki qarorlar qabul qilish.
- Fuqarolik, o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lmagan jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning faoliyati bilan bog'liq ishlar, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha diskretion yurisdiksiya, federal sudlardan o'tkazilgan masalalar, birinchi instansiya bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish, oraliq qarorlar qabul qilish.

oxirgi  
instansiya  
sudi

### Apellatsiya sudlari (6 ta sud/okrug).

34 nafar vakolatli sudya hay'atda majlis o'tkazadi, shuningdek, 9 nafar qo'shimcha sudya.

- Fuqarolik va o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lmagan jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha majburiy yurisdiksiya, ishlarni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqish, dastlabki qarorlar qabul qilish.
- Fuqarolik ishlari bo'yicha fakultativ yurisdiksiya, oraliq qarorlarni qabul qilish.

oraliq ins-  
tansiyasi-  
ning apel-  
latsiya  
sudi

### Okrug sudi (22 ta okrug).

389 nafar vakolatli okrug sudyalari, 371 nafar assotsiatsiyalangan okrug sudyasi va 50 nafar jalb qilingan assotsiatsiyalangan sudya. Aksariyat hollarda prisyajniylar sudi mavjud.

- Fuqarolik ishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya (shu jumladan, ma'muriy idoralar ustidan keltirilgan shikoyatlar), mayda pretenziyalar bo'yicha (2500 dollargacha yurisdiksiya).
- Jinoyat ishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya.
- Yo'l harakati qoidalarining buzilishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya va h.k.
- Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya.

umumiy  
yuris-  
diksiya  
sudi

## Illinoys shtati sud tuzimining tuzilishi

### Oliy sud.

9 nafar sudya hay'atda to'liq tarkibda majlis o'tkazadi.

- Fuqarolik, jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning faoliyati bilan bog'liq ishlar, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha majburiy yurisdiksiya, yuristlarga nisbatan intizomiy qarorlar, federal sudlardan o'tkazilgan masalalarni ko'rib chiqish, ishlarni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqish.
- Fuqarolik, jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha diskretсион yurisdiksiya, birinchi instansiya bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish, oraliq qarorlar qabul qilish.

oxirgi  
instansiya  
sudi

### Apellatsiya sudi.

6 nafar sudya hay'atda to'liq tarkibda majlis o'tkazadi.

- Fuqarolik, jinoyat ishlari, ma'muriy idoralarning, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha majburiy yurisdiksiya, ishlarni Oliy sud topshirig'iga muvofiq, oraliq qarorlarni qabul qilish.
- Diskretсион yurisdiksiyaga ega emas.

oraliq ins-  
tansiyasi-  
ning apel-  
latsiya  
sudi


### Okrug sudi (99 graflikda 8 ta okrug).

100 nafar sudya, 42 nafar okrug assotsiatsiyalangan sudya, 19 nafar katta sudya va o'rindoshlik asosida ishlaydigan 158 nafar hakamlilik sudya.


- Fuqarolik ishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya (shu jumladan, ma'muriy idoralar ustidan keltirilgan shikoyatlar). Mayda pretenziyalar bo'yicha (2500 dollargacha) yurisdiksiya.
- Jinoyat ishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya (shu jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha chiqarilgan qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlar).
- Yo'l harakati qoidalarining buzilishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya, avtomobillarni parkovka qilish qoidalarining buzilishi, agarda ular bo'yicha huquqbuzarga e'tirozlar yo'q bo'lsa, bundan mustasno.
- Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya.
- Prisyajniylar sudi, mayda pretenziyalar, voyaga yetmaganlarning ishlari, adolatlilik huquqi bo'yicha ko'rib chiqiladigan ishlar, shahar yoki graflik hokimiyat organlari chiqargan qarorlarning buzilishlari bilan bog'liq ishlar, ruhiy aqli rasolik bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish bundan mustasno.

umumiy  
yuris-  
diksiya  
sudi

## GERMANIYANING SUD TUZIMI



## FRANSIYA SUD TUZIMI



---

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### *I bo'lim*

#### UMUMIY QOIDALAR

##### ***1-bob. «SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR» FANINING PREDMETI, ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TIZIMI***

1.1. Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining tushunchasi .....	6
1.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlari (funksiyalari) va uni amalga oshiruvchi organlarning umumiy ta'rifi .....	14
1.3. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining tushunchasi va mazmuni .....	20
1.4. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining yuridik fanlar tizimidagi o'rni .....	22
1.5. Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi qonunchilik .....	24
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar .....</i>	<i>34</i>
<i>Axborot uslubiy ta'minot .....</i>	<i>35</i>

##### ***2-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI***

2.1. Sud hokimiyati hokimiyatlar bo'linishi tizimida. Sud hokimiyati: tushunchasi va asosiy belgilari .....	37
2.2. Mustaqil O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi .....	44
2.3. O'zbekistonda sud-huquq islohoti .....	57
2.4. O'zbekiston Respublikasi sud tizimining umumiy ta'rifi .....	73
2.5. Sud tizimi bo'g'ini va sud instansiyasi tushunchasi .....	75
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar .....</i>	<i>78</i>
<i>Axborot uslubiy ta'minot .....</i>	<i>79</i>

### **3-bob. ODIL SUDLOV TUSHUNCHASI VA PRINSIPLARI**

3.1. Odil sudlov va uning demokratik prinsiplari .....	82
3.2. Qonuniylik prinsipi .....	89
3.3. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi .....	91
3.4. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi .....	94
3.5. Odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish .....	99
3.6. Barcha sudlarda ishlarning oshkora ko'rilishi .....	101
3.7. Sud ishlari yuritiladigan til .....	104
3.8. Sud himoyasida bo'lish huquqini ta'minlash .....	106
3.9. Aybsizlik prezumpsiyasi .....	114
3.10. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash .....	118
3.11. Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipi .....	123
3.12. Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning ishtiroki .....	125
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar .....</i>	<i>129</i>
<i>Axborot uslubiy ta'minot .....</i>	<i>130</i>

## *II bo'lim*

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMI**

#### **4-bob. FUQAROLIK ISHLARI BO'YICHA TUMANLARARO, TUMAN (SHAHAR) SUDI. JINOYAT ISHLARI BO'YICHA TUMAN (SHAHAR) SUDI**

4.1. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi — umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo'g'ini, ularning vakolatlari .....	134
4.2. Tumanlararo, tuman (shahar) sudida ishni tashkil etish .....	141
4.3. Sudyalar va xalq maslahatchilarining asosiy huquq-majburiyatlari .....	147
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar .....</i>	<i>150</i>
<i>Axborot uslubiy ta'minot .....</i>	<i>150</i>

#### **5-bob. UMUMIY YURISDIKSIYA SUDLARINING O'RTA BO'G'INI**

5.1. O'rta bo'g'in sudlari va ularning vakolatlari .....	153
5.2. O'rta bo'g'in sudlarining tarkibi va tuzilishi .....	159



5.3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi raisining vakolatlari va mazkur sudlarda ishni tashkil etish .....	161
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	166
<i>Axborot uslubiy ta‘minot</i> .....	166

### 6-bob. HARBIY SUDLAR

6.1. Harbiy sudlarning vazifalari va O‘zbekiston Respublikasi sud tizimida ularning o‘rni .....	169
6.2. Harbiy sudlarning rivojlanish bosqichlari .....	172
6.3. Harbiy sudlarni tashkil etish va sudlovga taalluqlilik asoslari .....	179
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	183
<i>Axborot uslubiy ta‘minot</i> .....	184

### 7-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sud tizimidagi o‘rni. Oliy sud vakolatlari .....	185
7.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini tashkil etish, tarkibi va tuzilishi .....	188
7.3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosarlari va sudlov hay‘ati raislari .....	193
7.4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati. Ilmiy-maslahat kengashi .....	195
7.5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi shakllanishining asosiy bosqichlari .....	198
7.6. Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha tadqiqot markazi .....	202
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	205
<i>Axborot uslubiy ta‘minot</i> .....	206

### 8-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XO‘JALIK SUDLARI

8.1. Xo‘jalik sudlari vazifalari va ularning O‘zbekiston Respublikasi sud tizimidagi o‘rni .....	209
8.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi: shakllanish tartibi, tarkibi, tuzilishi va vakolatlari .....	214
8.3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari .....	220
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	223
<i>Axborot uslubiy ta‘minot</i> .....	224

**9-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KONSTITUTSIYAVIY SUDI**

9.1. Konstitutsiyaviy nazorat, uning tushunchasi va asoslari .....	225
9.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, uning vakolatlari .....	232
9.3. Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari .....	244
9.4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatining tashkil etilishi asoslari .....	248
9.5. Konstitutsiyaviy sud qarorlari, ularning turlari, mazmuni, yuridik ahamiyati va tuzilishi .....	263
9.6. Konstitutsiyaviy sud devoni, uning vazifalari va tashkil etish tartibi .....	266
9.7. Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi .....	268
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	269
<i>Axborot uslubiy ta’minot</i> .....	270

**10-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
SUDYALAR MAQOMI**

10.1. Sudyalar maqomi tushunchasi, uning umumiy tavsifi .....	273
10.2. Sudyalar korpusini (uning zaxirasini) tashkil etish tartibi .....	282
10.3. Sudyaning vakolatlari, ularni amalga oshirish tartibi va usullari .....	294
10.4. Sudyaning vakolatlarini to‘xtatib turish va tugatish asoslari .....	297
10.5. O‘zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi va sudyalarning malaka hay’atlari .....	301
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	305
<i>Axborot uslubiy ta’minot</i> .....	306

*III bo‘lim*

**ADLIYA VAZIRLIGI VA SUDLAR FAOLIYATINI  
TASHKILY HAMDA MODDIY-TEXNIK JIHATDAN  
TA’MINLASH**

**11-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**

11.1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari .....	309
11.2. Adliya organlari rivojlanishining asosiy bosqichlari .....	329
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	337
<i>Axborot uslubiy ta’minot</i> .....	337

## **12-bob. SUDLAR FAOLIYATINI TASHKILY VA MODDIY-TEXNIK JIHATDAN TA'MINLASH**

12.1. Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, uning tushunchasi va ahamiyati .....	329
12.2. Tashkiliy turdagi tadbirlar .....	340
12.3. Moliyaviy va moddiy-texnik turdagi tadbirlar .....	343
12.4. Odil sudlovni to'liq va mustaqil amalga oshirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan boshqa tadbirlar .....	350
12.5. Sud hijatlarini ijro etish to'g'risida .....	358
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	361
<i>Axborot uslubiy ta'minot</i> .....	361

### *IV bo'lim*

## **PROKUROR NAZORATI VA DASTLABKI TERGOV ORGANLARI**

### **13-bob. PROKURATURA VA PROKUROR NAZORATI**

13.1. Prokuror nazorati, uning vazifalari. Prokuror faoliyatining asosiy yo'nalishlari .....	364
13.2. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari .....	379
13.3. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi, tuzilishi va ularni tashkil etish .....	384
13.4. Prokuratura organlari xodimlari .....	394
13.5. O'zbekistonda prokuratura organlari tashkil topishi va rivojlanishi .....	400
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	407
<i>Axborot uslubiy ta'minot</i> .....	408

### **14-bob. JINOYATLARNI ANIQLASH VA TERGOV QILISH**

14.1. Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish tushunchasi .....	412
14.2. Dastlabki tergov tushunchasi va vazifalari .....	415
14.3. Dastlabki tergov va surishtiruv. Ularning o'zaro munosabati .....	418
14.4. Surishtiruv organlari rivojlanishining bosqichlari .....	424
14.5. Tergovchining protsessual vakolatlari. Tergovchi va surishtiruv organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar .....	431
14.6. Surishtiruv organlari .....	439
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	446
<i>Axborot uslubiy ta'minot</i> .....	447

V bo'lim

**HUQUQIY YORDAMNI TA'MINLASH ORGANLARI**

**15-bob. HUQUQIY YORDAMNI TASHKIL  
ETISH VA KO'RSATISH**

15.1. Advokatura tushunchasi, uning vazifalari va advokatlik faoliyati turlari .....	450
15.2. O'zbekistonda advokaturaning rivojlanish bosqichlari .....	472
15.3. Advokatlik faoliyatining tashkiliy asoslari .....	489
15.4. Advokatlarning huquqlari va majburiyatlari .....	502
15.5. Advokatlar palatasi .....	513
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	515
<i>Axborot uslubiy ta'minot</i> .....	516

**16-bob. NOTARIAT**

16.1. Notariat faoliyatining tashkiliy asoslari .....	520
16.2. Notariusning huquqiy maqomi .....	524
<i>Mustaqil ish uchun nazorat savollari va topshiriqlar</i> .....	531
<i>Axborot uslubiy ta'minot</i> .....	532

VI bo'lim

**XORIJIY MAMLAKATLARDA SUD VA HUQUQNI  
MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINING  
TASHKIL ETILISHI**

**17-bob. XORIJIY MAMLAKATLARDA SUD,  
PROKURATURA, ADVOKATURA**

17.1. Angliya va Uels .....	533
17.2. Germaniya .....	542
17.3. AQSH .....	566
17.4. Fransiya .....	598
17.5. Yaponiya .....	608
<i>Axborot uslubiy ta'minot</i> .....	614

**ILOVALAR**

O'zini o'zi nazorat qilish uchun test topshiriqlari .....	616
«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani bo'yicha asosiy tushuncha va sxemalar .....	641

MIRZAYUSUF HAKIMOVICH RUSTAMBOYEV,  
UMIDA ABDILOVNA TUXTASHEVA

## **SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR**

*Oliy o'quv yurtlari uchun darslik*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

Muharrir *I. Usmonov*  
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*  
Texnik muharrir *F. Samadov*  
Musahhah *M. Ibrohimova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2011-yil 26-dekabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>.  
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 45,0.

Nashr tabog'i 43,0. 500 nusxa. Buyurtma № 68.

Bahosi shartnoma asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Shartnoma № 52 — 2011.

«PAPER MAX» xususiy korxonasiida chop etildi.  
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

R92 **Rustamboyev M.H., Tuxtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar.** Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: «ILM ZIYO», 2012. — 720 bet.

УДК 342.56 (575.1)  
ББК 67.71(50')

ISBN 978–9943–16–054–5